

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
QISHLOQ VA SUV XO'JALIK VAZIRLIGI**

**ANDIJON QISHLOQ XO'JALIK INSTITUTI**



**KASBIY PEDAGOGIKA  
FANINING**

**Bilim sohasi:** Bilim sohasi: 100000 – Gumanitar soha

**Ta'lim sohasi:** 110000 – Pedagogika

**Ta'lim yo'nalishi:** 5111000- (Kasb ta'limi barcha yo'nalishlari uchun)

**5111020**–Kasb ta'limi (5430100-Qishloq xo'jaligini mexaniziyalashtirish)

**MA'RUZA MATNI**

**ANDIJON – 2015**

Ushbu ma'ruza matn kasbiy pedagogika fanining 2012 yilda tasdiqlangan namunaviy o'quv dasturi asosida tayyorlandi.

***Tuzuvchilar:***

***Azimjonov. N*** "Pedagogika va tabiiy fanlar" kafedrasining  
p. f. n katta o'qituvchisi  
***Alibekov. Sh*** "Pedagogika va tabiiy fanlar" kafedrasining assistenti

***Taqrizchi:***

***Z.Azimova*** ***Andijon davlat universiteti "Pedagogika" kafedrasi***  
***p.f.n dotsenti***

Fanning ma'ruzalar matni Pedagogika va tabiiy fanlar kafedrasining 201\_\_  
yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_ dagi "\_\_\_" – son yig'ilishida muhokamadan o'tgan va  
fakultet kengashida muhokama qilish uchun tavsiya etilgan.

**Kafedra mudiri: \_\_\_\_\_ Muzaffarov. O**

Fanning ma'ruza matni "Qishloq xo'jaligini \_\_\_\_\_ mexaniziyalashtirish"  
fakultet kengashida muhokama etilgan va foydalanishga tavsiya qilingan (201\_\_  
yil \_\_\_dagi \_\_\_-sonli bayonnoma)

**Fakultet kengashi raisi: \_\_\_\_\_ Xudoyorov A**

**Kelishildi: O'quv uslubiy bo'lim boshlig'i \_\_\_\_\_ Samatov N**

## MUNDARIJA

| <b>1-bosqich II-semestr</b>                                                                       |  |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------|--|
| “Kasbiy pedagogika” fan sifatida.                                                                 |  |
| Kasbiy ta’lim pedagogikasining shakllanishi va rivojlanishi.                                      |  |
| O’zbekiston Respublikasi ta’lim tizimi islohotlari.                                               |  |
| Kasbiy ta’limning dolzarb pedagogik muammolari.                                                   |  |
| O’zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy modelining o’ziga hosligi.                     |  |
| Uzluksiz, kasb-hunar ta’lim tizimida o’rta maxsus ta’limning o’rni va ahamiyati.                  |  |
| Ta’limni standartlashtirish. O’rta maxsus kasb-hunar ta’limi mazmuni, maqsad va vazifalari.       |  |
| O’zbekiston xalq xo’jaligining asosiy tarmoqlari.                                                 |  |
| Kasbiy ta’lim tizimlarining qiyosiy tahlili (chet el tajribasi).                                  |  |
| O’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi bitiruvchilarining ishlab chiqarishga moslashuvi.                |  |
| Kichik mutaxassislarni ishlab chiqarishga moslashtirishning psixologik jixatlari                  |  |
| Ta’lim va ishlab chiqarish o’rtasidagi aloqalarni amalga oshirish jarayonlari.                    |  |
| Ta’lim mutaxassisliklarida ishlab chiqarish ijtimoiy buyurtmasini bajarishning tashkiliy asoslari |  |
| Kasb ta’lim pedagogikasining didaktik printsiplari.                                               |  |
| Kasb ta’limning didaktik imkoniyatlarini oshirish omillari                                        |  |
| Kasbiy pedagogika qo’llaniladigan ilmiy-tadqiqot metodlari, shakllari va vositalari.              |  |
| Kasb ta’limda qo’llaniladigan ilmiy-tadqiqot tajribalari                                          |  |
| Kasb-hunar ta’limni tashkil qilishda o’qituvchining asosiy vazifalari.                            |  |
| Kasb ta’lim o’qituvchisining vazifalari klassifikatsiyasi                                         |  |

| <b>2-bosqich I-semestr</b>                                                                                                   |  |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--|
| Kasbiy faoliyat va uning ob’ektlari.                                                                                         |  |
| Pedagogik faoliyat va pedagogik qobiliyat.                                                                                   |  |
| O’qituvchining pedagogik mahorati va kasbiy mahorat.                                                                         |  |
| Kasb ta’limi dual tizimi.                                                                                                    |  |
| Kasb-hunar ta’limini boshqarish.                                                                                             |  |
| O’qituvchi va rahbarlarda bozor iqtisodiyoti sharoitida boshqaruv mahoratlarini shakllantirish.                              |  |
| O’MKHT kasblari va mutaxassisliklarni turkumlash.                                                                            |  |
| Kasb-hunar ta’limida ta’lim-tarbiya jarayoni sifatini nazorat qilish. Kasb-hunar kollejlarda o’quvchilarni tarbiyalash.      |  |
| Kasb-hunar kollejlarda o’quvchilarni tarbiyalashning tashkiliy asoslari                                                      |  |
| Kasb-hunar ta’limida ta’lim-tarbiya jarayoni sifatini nazorat qilish.                                                        |  |
| Kasb-hunar ta’limi sifatini nazorat qilishning va sharoitlari                                                                |  |
| Kasb ta’limini umumiy o’rta ta’lim, oliy ta’lim va fan bilan integratsiyasi.                                                 |  |
| Kasb-hunar ta’limi integratsiyasini texnologiyalashtirish omillari                                                           |  |
| Kasb-hunar ta’lim jarayonining ishtirokchilari va jarayonlarni loyihalashtirish.                                             |  |
| Kasb-hunar ta’limi tizimini loyixalashtirishning nazariy va amaliy asoslari                                                  |  |
| Mutaxassislik fanlari kasb-hunar kolleji o’quvchilarini shaxsini shakllantirishdagi roli.                                    |  |
| Mutaxassislik fanlarini o’qitishni o’quvchi shaxsiga yo’naltirish pedagogik tajribalari va usullari                          |  |
| Ta’lim jarayonini tashkil etishda innovatsion texnologiyalar                                                                 |  |
| Ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo’llashning metodik omillari.                                                |  |
| Ta’lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo’llashning amaliy tajriba-sinov ishlarini tashkil etish omillari. |  |

## **1-MAVZU: “KASBIY PEDAGOGIKA” FAN SIFATIDA.**

1. O'zbekiston Respublikasi umumiy va kasbiy ta'lim tizimi islohotlari. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar sharoitida.
2. “Kasbiy pedagogika” fanining maqsad va vazifalari. Kasbiy pedagogikaning asosiy tushunchalari: kasbiy ta'lim, kasbiy tayyorgarlik, kasbiy tarbiya, unumli mehnat, professionallik, kasbiy mahorat.
3. Kasbiy pedagogika mazmunini belgilovchi asosiy ilmiy yo'nalishlar: o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi pedagogikasi, oliy ta'lim pedagogikasi, androgogika-kattalarni o'qitish pedagogikasi. “Kasbiy pedagogika” fanining boshqa fanlar bilan aloqalarini o'rganish.

### **1.O'zbekiston Respublikasi umumiy va kasbiy ta'lim tizimi islohotlari. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar sharoitida.**

Respublikamizning istiqbolga erishuvi jamiyat qayotining barcha jabhalarida shu jumladan ta'lim-tarbiya sohasida ham o'z aksini topdi. O'zbek pedagogikasi tarixida burilish davri, yangilanish davri boshlandi. O'zbekiston Respublikasidagi mustaqil guruh, demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyati qurish yo'lidagi ulkan ishlar inson moqiyatini yangidan kashf qilishga, uni intellektual-amaliy rivojlanishi uchun yangi shart-sharoitlar yaratib berdi. Bu o'z navbatida insoniyat yaratgan ma'naviy–ilmiy boyliklarga, insonning o'ziga yangicha munosabat, yondashuvni yuzaga keltirdi.

Prezidentimiz I.A.Karimov aytganlaridek: “Fuqarolar endi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni ishtirokchisi, bajaruvchisi emas, balki bunyodkori va tashkilotchisidir. Bunday yangicha yondashish albatta pedagogika fanini keyingi rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Endi pedagogika fani faqat ta'lim-tarbiya jarayonini nazariy, metodik-amaliy ta'minlovchi emas, komil insonni shakllanishini, rivojlanishini ta'minlovchi keng sohalarni o'z ichiga ola boshladi. Endilikda pedagogika fani o'z oldiga yangicha fikrlash, yangicha tafakkur, milliy mafkuraning keng hamrovli sifatlarini shakllantirish vazifalarini qo'ydi. Shuning uchun ham yangi ta'lim kontseptsiyasi qabul qilindi va unda keyingi rivojlanishlarning barcha yo'nalishlari qayta ko'rib chiqildi. Ko'p yillar davomida pedagogika siyosatga xizmat qilib kelgan va ma'lum chegaralanishlarga amal qilishga majbur bo'lgan bo'lsa, endilikda u siyosatdan qoli bo'lgan holda erkin fan sifatida o'z rivojlanishini davom ettirish imkoniyatiga ega bo'ldi. O'zbek pedagogikasi o'z milliy xususiyatlarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Ona tili, Vatan tarixi, geografiyasi, milliy urf-odat va an'analar e'tibordan chetda qolib, shaxslar ota-bobolar o'tmishidan bexabar o'qitilar edi. Respublikamizning istiqbolga erishuvi natijasida o'zbek pedagogikasi ijodiy va milliy yo'nalishda e'tiborli o'zgarishlar kasb etdi. Boy milliy madaniy meros va an'analar e'tibordan chetda qolgan ilqor pedagogik fikrlar O'zbek pedagogikasi o'z o'rnini topdi hamda o'z vazifasini bajara boshladi. Yangi mazmunli darsliklar, uslubiy qo'llanmalar yaratishda milliy-madaniy, tarixiy adabiyotlardan, materiallardan keng foydalanila boshlandi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1991 yil 29 avgust haroriga asosan "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni kuchga kirdi. "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni ta'lim tizimini jiddiy yangilanishi, isloq qilinishiga asos bo'ldi. Oldingi qabul qilingan qonunlardan (1930, 1949, 1958, 1973, 1984 yillar) farqli ularoq, xalq ta'limi tizimini tuzilishining quyidagi yangi tamoyillardan joriy etildi:

- ta'lim-tarbiyaning insonparvarligi hamda xalqchilligi;
- ta'lim tizimining uzluksizligi va izchilligi;
- davlat ta'lim standartlari doirasida har bir kishiga millati, dinidan qat'iy nazar ta'lim olishi uchun imkoniyat yaratilganligi;
- davlat ta'lim tizimining ilmiyligi va dunyoviyligi;
- ta'limda umuminsoniy va milliy-madaniy qadriyatlarning ustivorligi;
- tayanch (to'qqiz sinf darajasida) ta'limning majburiyligi;
- ta'lim standartlarini tanlashda yagona va tabahalashtirilgan yondashuv bo'lishiga asoslanganligi;
- ta'lim muassasalarida chet tillarini jiddiy o'rganish, din tarixi, xalqimiz tarixi, madaniyati va jaqon madaniyatini tarixi sohasida bilim olish uchun sharoitlar yaratilganligi;
- ta'lim muassasalarining turli siyosiy partiyalar va ijtimoiy-siyosiy qarakatlarning ta'siridan qoliligi;
- amaldagi qonunlar doirasida mulkchilikning barcha shaklida ta'lim muassasalarining teng guruhligi;
- bilimdonlik va iste'dodni rag'batlantirish;
- tarbiyalanuvchilar va ta'lim oluvchilarni hurmatlash;
- pedagog shaxsini, uning ijtimoiy mavqeini hurmatlash va boshhalar.

Ta'limni quyidagi yo'nalishlarda isloq qilish vazifalari belgilab olindi:

- umuminsoniy qadriyatlar va milliy madaniyat asoslarini e'tiborda tutgan holda ta'lim-tarbiya mazmunini milliy mafkura, mustaqil Vatan tuyqusi asosida o'zgartirish va takomillashtirish;
  - ta'lim samaradorligini tinmay oshirish, jaqon andozalari darajasiga olib chiqish;
  - variantiv o'quv rejalari, dasturlar, darsliklar yaratish;
  - bilimdonlik va iste'dodni qo'llab-quvvatlash;
  - ilqor tajribalarga, ijodkor ustozlar tajribasiga suyanish;
  - ta'lim-tarbiyada bosh isloqotchi bo'lgan pedagog, tarbiyachilarning yangi avlodni tayyorlashga kirishish;
  - ta'lim muassasalarining moddiy-texnika asosini mutaqqamlash, ta'limni kompyuterlashtirish, o'quv jarayoniga yangi pedagogik texnologiyani olib kirish;
  - ta'lim tizimini, boshharuv faoliyatini takomillashtirish;
  - isloq g'oyalarini iloji boricha viloyat, tuman, o'quv muassasasi pedagogik jamoalariga tezroq etkazish, singdirish, amalga oshirish;
- Rivojlangan mamlakatlarning tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, qaerda ta'lim va tarbiyaga e'tibor katta bo'lsa, o'sha erda Taraqqiyot, yuksalish bor. Shuning uchun respublikamizning istiqboli uzluksiz ta'limni qay darajada amalga oshirilishiga bog'liq.

Uzluksiz ta'limning faoliyat ko'rsatish

Tamoyillari quyidagilardan iborat:

- ta'limning ustuvorligi - uning rivojlanishining birinchi darajali ahamiyatga ega ekanligi, bilim, ta'lim va yuksak intellektning nufuzi;

- ta'limning demokratlashuvi - ta'lim va tarbiya uslublarining tanlanishida o'quv yurtlarining mustaqilligini kengayishi, ta'limni boshharishning davlat-jamiat tizimiga o'tilishi;

- ta'limning insonparvarligi - inson qobiliyatlarining ochilishi va uning ta'limga nisbatan bo'lgan turli-tuman ehtiyojlarining qondirilishi, milliy va umumbashariy qadriyatlar ustuvorligining ta'minlanishi, inson, jamiat va atrof-muhit o'zaro munosabatlarining uyqunlashuvi;

- ta'limning ijtimoiylashuvi - ta'lim oluvchilarda estetik boy dunyoqarashni hosil qilish, ularda yuksak ma'naviyat, madaniyat va ijodiy fikrlarni shakllantirish ;

- ta'limning milliy yo'naltirilganligi - ta'limning milliy tarix, xalq an'analari va urf-odatlar bilan uzviy uyqunligi, Uzbekiston xalqlarining madaniyatini saqlab qolish va boyitish, ta'limni milliy Taraqqiyotining o'ta muhim omili sifatida e'tirof etish, boshqa xalqlarning tarixi va madaniyatini hurmatlash;

- ta'lim va tarbiyaning uzviy bog'liqligi, bu jarayonning har tomonlama kamol topgan insonni shakllantirishga yo'naltirilganligi;

- iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularga ta'limning eng yuqori darajasida, izchil ravishda fundamental va maxsus bilim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratish.

Uzluksiz ta'limni isloq qilish yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- ta'lim tizimining kadrlar salohiyatini tubdan yaxshilash, tarbiyachi, pedagog, muallim va ilmiy xodimning kasbiy nufuzini oshirish;

- davlat va nodavlat ta'lim muassasalarining har xil turlarini rivojlantirish;

- ta'lim tizimini tarkibiy jihatdan qayta kurish, ta'lim, fan, texnika va texnologiyalarning, iqtisodiyot va madaniyatning jaqon miqyosidagi zamonaviy yutuqlarini hisobga olgan holda ta'lim va kasb-qunar ta'limi dasturlarini tubdan o'zgartirish;

- majburiy umumiy o'rta ta'limdan o'rta maxsus, kasb-qunar ta'limiga o'tilishini ta'minlash;

- maxsus, kasb-qunar ta'limining markazlari sifatida fan va ishlab chiqarish integratsiyalashgan yangi tipdagi o'quv muassasalarini vujudga keltirish;

- ilqor texnologiyalarni keng o'zlashtirish, iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar, chet el investitsiyalari ko'lamlarining kengayishi, tadbirkorlik, kichik biznesni rivojlantirish bilan bog'liq yangi kasb-qunar va mutaxassisliklar bo'yicha kadrlar, shu jumladan boshharuv tizimi kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;

- milliy mustaqillik tamoyillarini va xalqning boy intellektual merosi hamda umumbashariy qadriyatlarining ustuvorligi asosida ta'limning barcha darajalari va bo'qinlarida ta'lim oluvchilarning ma'naviy va aqloqiy fazilatlarini rivojlantirish;

- ta'limni boshharish tizimini takomillashtirish, jamoat boshharuvi shakllarini rivojlantirish, ta'lim muassasalarini mintahalashtirish;

- ta'lim olishda, shuningdek talabalarni ma'naviy aqloqiy, intellektual va jismoniy jihatdan tarbiyalashda oila, ota-onalar, jamoat tashkilotlari, mahallalar,

xayriya va xalqaro fondlarning rolini kuchaytirish yuzasidan chora-tadbirlarni ishlab chiqish hamda ularni amalga oshirish;

-ta'lim jarayoni va kadrlar tayyorlash sifatiga xolis baqo berish tizimini yaratish va joriy etish;

-ta'lim tizimini moliyaviy, moddiy-texnik va boshqa tarzdagi resurslar bilan ta'minlash mexanizmlarini shakllantirish;

-uzluksiz ta'limni fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyasini puxta mexanizmlarini ishlab chiqish va joriy etish;

-ta'lim va ilm-fan bilan bog'liqchet el hamda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish va rivojlantirish;

-tub erli millatga mansub bo'lmagan shaxslar zich yashaydigan joylarda ular o'z ona tillarida ta'lim olishlari uchun tashkiliy va pedagogik shart-sharoitlar yaratish;

-ta'limning barcha darajalarida ta'lim oluvchilarning guruhii, iqtisodiy, ekologik va sanitariya-gigiena ta'limi hamda tarbiyasini takomillashtirish.

Uzluksiz ta'lim tizimining faoliyat olib borishi davlat ta'lim standartlari asosida, turli darajalardagi ta'lim dasturlarning izchilligi asosida ta'minlanadi.

Kadrlar tayyorlash milliy modelining o'ziga xosligi mustaqil ravishda to'qqiz yillik umumiy o'rta hamda uch yillik o'rta maxsus, kasb-qunar ta'limini joriy etishdan iboratdir. Bu esa, umumiy ta'lim dasturlaridan o'rta maxsus, kasb-qunar ta'limi dasturlariga izchil o'tilishni ta'minlaydi.

Umumiy ta'lim uzluksiz davlat ta'limi tizimida asosiy bo'qin bo'lib, ta'lim oluvchilarning ilmiy bilimlar olishini, mehnat ta'limi, boshlanqich kasb ko'nikmalari, ishbilarmonlik asoslarini egallashlarini, shuningdek o'z ijodiy qobiliyatlari va ma'naviy fazilatlarini rivojlantirishlarini ta'minlaydi.

Ta'lim haqidagi davlat siyosatining asosiy moqiyati tayanch ta'limining (to'qqiz yillik) majburiyligidir.

O'rta maxsus ta'lim (akademik litsey, kasb-qunar kollejlari) uch yillik.

Oliy ta'lim:

Birinchi bosqich - bakalavriat;

Ikkinchi bosqich - magistratura.

Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim: Aspirantura, doktorantura, tadqiqotchi kadrlarni malakasini oshirish va qayta tayyorlash tarmoqi.

Ta'limning davlat standartlarini ishlab chiqish va tadbiq etishni bosqichma-bosqich amalga oshirish ko'zda tutilgan bo'lib, u boshlanqich va tayanch o'quv muassasasilarida 1995-1996 o'quv yillargacha, so'ngra oliygoqlar uchun standartlar ishlab chiqish ko'zda tutilgan.

2.«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning asosiy yo'nalishlari

O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi 1997 yil 29 avgustda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis harori bilan tasdiqlangan. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi "Ta'lim to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Konuni qoidalariga muvofiq holda tayyorlangan bo'lib, milliy tajribaning taqlili va ta'lim tizimidagi jaqon miqyosidagi yutuqlar asosida tayyorlangan holda yuksak umumiy va kasbkor madaniyatiga, ijodiy hamda ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy qayotda mustaqil ravishda muljalni to'g'ri ola bilish maqoratiga ega bo'lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarni yangi avlodni shakllantirishga

yo'naltirilgandir. O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga erishib, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning o'ziga xos yo'lini tanlashi kadrlar tayyorlash tuzilmasi va mazmuni qayta tashkil etishni zarur qilib qo'ydi. Yangi o'quv rejalari, dasturlarni, darsliklarni joriy etishni, zamonaviy didaktik ta'limotni ishlab chiqishni, o'quv yurtlarni attestatsiyadan o'tkazishni va akreditatsiyalashni, yangi tipdagi ta'lim muassasalarni tashkil etishni taqozo etdi.

Yangi tipdagi o'quv muassasalar va umumta'lim o'quv yurtlari tarmoqi rivojlana boshladi. qozirgi kunda 238 ta litsey va 136 ta gimnaziya ishlab turibdi. "Iqtisodiy ta'lim", "Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan shaxslarni tiklash" va boshqa tarmoq dasturlari ro'yobga chiharilmoqda. Respublika umumta'lim o'quv muassasalarida 435 mingdan ortiq pedagog ishlamoqda, ularning 73% oliy ma'lumotlidir.

Mehnat bozorini shakllantirishning xududiy xususiyatlarini hisobga olgan xolda qunar-texnika ta'limini qayta tashkil etishga kirishildi. qozirgi kunda bu tizimda jami 221 ming kishini ta'lim bilan hamrab olgan 442 ta o'quv yurti, shu jumladan, 209 ta kasb-qunar o'quv muassasasi, 180 ta kasb-qunar litseyi va 53 ta biznes-maktablari ishlab turibdi. Bugungi kunda boshlanqich kasb-qunar ta'limi o'quv yurtlarida kariyib 20 ming pedagog va malakali mutaxassislar ishlamoqda.

Respublikada jami 197 ming kishi ta'lim olayotgan 258 ta o'rta kasb-qunar ta'limi o'quv yurti ishlab turibdi. Ularda hariyib 16 ming pedagog va muqandis-pedagog xodimlar mehnat qilmoqda.

O'zbekiston oliy o'quv muassasasi tizimi 58 ta oliy o'quv yurtini, shu jumladan 16 ta universitet va 42 ta institutni o'z ichiga oladi. Ularda 164 ming talaba ta'lim olmoqda. 16 ta universitetning o'n ikkitasi O'zbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki ikki yilda tashkil topdi. Oliy ta'limni ko'p bosqichli tizimga o'tkazish amalga oshirildi.

Kadrlar tayyorlash tizimi yangi modelining moqiyati va o'ziga xos xususiyati unga asosiy tarkibiy qismlar sifatida quyidagi komponentlar kiritilganligidadir:

shaxs-kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub'ekti, ta'limga oid xizmatlarning iste'molchisi va ularning yaratuvchisi;

uzluksiz ta'lim-kadrlar tayyorlashning poydevori asosi;

fan-yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlovchi va ularning iste'molchisi;

ishlab chiharish-kadrlarga bo'lgan ehtiyojning istiqbolini belgilashni, ularning tayyorgarlik darajasi sifatini baqolashni, shuningdek kadrlar tayyorlash tizimini qisman moliyaviy va moddiy-texnikaviy ta'minlashni amalga oshiruvchi asosiy buyurtmachi;

davlat va jamiyat - kadrlarning tayyorgarligi sifatini nazorat qilish va baqolashni amalga oshiruvchi, kadrlarni tayyorlash va ularni qabul qilib olishning bosh kafillari.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi umumiy madaniyati shakllantirish, jamiyatdagi qayotga moslashtirish, kasbkorga va ta'limga oid dasturlarni ongli ravishda tanlash hamda keyinchalik ro'yobga chiharish uchun ijtimoiy iqtisodiy, guruhviy, tashkiliy, psixologik-pedagogik va boshqa shart-sharoitlarni yaratishni, oila, jamiyat, davlat oldidagi o'z mas'uliyatini anglovchi barkamol insonni tarbiyalashni nazarda tutadi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi raqobatbardosh kadrlar tayyorlovchi pedagogga quyiladigan zamon talablari majmuini belgilaydi.

Bir-biriga bog'liqbo'lgan talablarning majmui, pedagogning umumlashtirilgan modelini tashkil etadi. Umumlashgan modelga muvofiq aosiy talablar quyidagilardan iborat:

ta'lim berish maqorati;

tarbiyalay olish maqorati;

o'quv-tarbiya jarayonida inson omilini ta'minlovchi shaxsiyat fazilatlari;

ta'lim oluvchilarning bilimlarini qolisona baqolay olish va nazorat qila olish maqorati.

Umumlashtirilgan model doirasidagi malakaviy zamon talablari pedagog «qiyofa»sini ifodalaydi.

O'zbekiston Respublikasi aqolisi uchun ta'lim darajasini oshiruvchi omillardan biri bo'lib ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga jadal sur'atlar bilan kirib borish jarayoni hisoblanadi. Bu birinchi navbatda bozor munosabatlarining rivojlanishiga bog'liqbo'lib, u jarayon bilim darajasiga, iqtisodiyot va ekologiya (atrof-muqit) kompyuter texnikasi va ilmbardosh texnologiyalar, ustivor bo'lgan va halq xo'jaligining rivojlangan tarmoqlariga, ta'lim tizimining takomillashuvi va kadrlar tayyorlashga bog'liqbo'ladi.

Yangi kadrlar tayyorlash muammosining samarali echimi birinchi navbatda qozirgi kun talablariga javob bera oladigan psixologiya, pedagogika, iqtisodiyot, ekologik madaniyati, guruhshunoslik va shunga o'xshash boshqa fanlarning bilim asoslarini chuqur biladigan professional malakaga ega bo'lgan har tomonlama chuqur bilimga ega bo'lgan o'qituvchi kadrlarni tayyorlanishi bilan bog'liqdir. Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Islom Karimov Oliy Majlisning IX sessiyasida ta'kidlab o'tganlaridek: «Agar o'qituvchilar, professorlar, kafedra mudirlari o'z ustlarida ishlamasalar, agar chet ellarga borib o'z mutaxassislarini va undagi yangiliklarni o'rganmasalar, chet ellik kollegalari bilan tajribalar almashtirmasalar, aks holda bu narsa o'quv jarayoniga va uning samaradorligiga salbiy ta'sir qiladi» deb bashorat qilgan edilar.

Olib borilgan kuzatishlar va AqSh, Germaniya, Yaponiya, Frantsiya va boshqa sanoati va intellektual bilimlari rivojlangan mamlakatlarning tajribasi shuni ko'rsatib turibdiki, yuqori malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash quyidagilarga bog'liqbo'lar ekan:

Ta'lim, fan va ishlab chiharishning o'zaro samarali aloqadorligiga;

Ta'lim korxonalari va professional ta'lim dasturlari turlarining (tiplarining) xilma-xilligi; ularning fan va texnikaning eng oxirgi yutuqlari, iqtisodiyot va texnologiyalarning eng yuqori andozalari va ko'rinishlaridan foydalangan holda;

Professional ta'lim tizimini ustivor va foyda keltiruvchi iqtisodiy tarmoqni tarmoqqa aylantirish;

Ta'lim muassasalarini zamonaviy o'quv-metodik adabiyotlar bilan ta'minlash va ularning moddiy-texnik asosini yaratish hamda ularning moliyaviy ko'rsatkichlarini mustaqamlash;

Professional ta'lim tizimiga eng yuqori malakali o'qituvchilarni va mutaxassislarni jalb etdirish;

O'quv jarayonini informatizatsiyalashtirish va kompyuterlash;

Kadrlarni tayyorlashning sifat baqosini va ob'ektiv nazorat tizimini qo'llash;

Shaxsning rivojlanishi, o'lchovi, sifat va xulqini, qobiliyat intellektini baqolash, hamda kasbiy maqorati muammolariga baqishlangan psixologik-pedagogik izlanishlarni bajarish;

O'qituvchilarni yuqori darajada moddiy rag'batlantirish va ularni ijtimoiy qimoyalab turish.

Bu qolatlarning barchasi kadrlar tayyorlash milliy dasturida o'z o'rnini topgan.

qozirgi mutaxassis har tomonlama rivojlangan yuqori darajadagi intellektga ega bo'lgan, fan asoslarini chuqur o'rgangan bilimdon, zukko, dono, fidoiy, ma'rifatli va ma'naviyatli inson bo'lishi kerak. U o'z mutaxassisligi, ya'ni iqtisodchilikdan tashhari, xorijiy iqtisodchilikdan tashhari, xorijiy tillardan birini hamda kompyuter texnikadan foydalana olishi shart.

qozirgi pedagog yuqori madaniyatli, xalqimiz tarixini chuqur biladigan va uning kelajagi uchun jon qayquradigan insonparvar va oliyjanob kishi bo'lishi kerak.

Kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloq qilishning muhim omillari quyidagilardan iborat:

- Respublikaning demokratik ququkiy davlat va adolatli fuharolik jamiyati qurish yo'lidan izchil ilgarilab borayotganligi;

- mamlakat iqtisodiyotida tub o'zgarishlarning amalga oshirilishi, respublika iqtisodiyoti asosan xom ashyo yo'nalishdagi raqobatbardosh pirovard maqsulot ishlab chiharish yo'liga izchil o'tayotganligi, mamlakat eksport saloqiyatini kengayayottganligi;

- davlat ijtimoiy siyosatida shaxs madaniyati va ta'lim ustivorligi haror topganligi;

- milliy o'zlikni anglashning o'sib borishi, vatanparvarlik, o'z vatani uchun iftixor tuyqusining shakllanayotganligi, boy milliy-tarixiy an'analarga va xalqimizning intellektual merosiga hurmat;

- O'zbekistonning jaqon hamjamiyatiga integratsiyasi, respublikaning jaqondagi mavqei va obro'sining mustaqamlanib borayotganligi.

Milliy dasturning maqsad va vazifalari bosqichma-bosqich ro'yobga chiharilishi ham ko'zda tutilgan:

- Birinci bosqich-(1997-2001 yillar)-mavjud kadrlar tayyorlash tizimini ijobiy saloqiyatini saqlab qolish asosida ushbu tizimni isloq qilish va rivojlantirish uchun guruhiiy jihatdan, ilmiy-uslubiiy, moddiy shart sharoitlar yaratish.

- Ikkinchi bosqich-(2001-2005 yillar) - Milliy dasturni to'liq ro'yobga chiharish, mehnat bozorining rivojlanishi va real ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni hisobga olgan holda unga aniqliklar kiritish.

- Uchinchi bosqich-(2005 va undan keyingi yillar)-to'plangan tajriba taqlil qilinishi va umumlashtirilishi asosida, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbollariiga muvofiq kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va yanada rivojlantirish.

O'tkaziladigan isloqotlar, samarali tajribalar respublikada ta'limning davlat standartlarini ishlab chiqish va tadbiq etish davr talabi ekanligi, bu ishni kechiktirmay amalga oshirish zarurligini taqozo etadi.

Ta'lim standartlari vositasida talabadagi ma'lumot darajasi muvozanati saqlanadi, rivojlantiriladi, jamiyat Taraqqiyoti istiqbollari muvofiqligi ta'minlanadi. Davlat ta'lim standartlari o'quv jarayonini qat'iy chegaralangan qolipga solib qo'ymaydi,

balki aksincha pedagogik ijodkorlikka, ta'lim mazmunining yagona negizi atrofida turli-tuman tabahalashtirilgan dasturlar, o'quv qo'llanmalari, o'qitish uslubiyatlariga katta yo'l ochadi.

Davlatimiz raqbari uzluksiz ta'limni tashkil etishda uning jaqon talablari darajasida bo'lishi hamda u yuksak ma'naviyat zaminida qurilishiga katta ahamiyat berish kerakligini ta'kidlar ekan, davlat ta'lim standartlarini joriy etish va uning mexanizmini ishlab chiqish naqadar muhimligiga e'tiborni qaratadi.

Standart - ta'limda yaratilgan me'yoriy reja, dastur, darsliklarni o'zlashtirish ekvivalenti, ya'ni ta'lim mazmunini o'zlashtirish darajasidir. Standartni ishlab chiqishda talabani xaddan tashhari zeriktirib yubormaslik talablariga rioya qilish, ya'ni u talaba yoshiga mos, uni bajarishga qurbi etadigan darajada bo'lishi kerak. Bunda albatta, ta'lim oluvchini qiziqishi, xoqishi, eqtiyoji hisobga olinishi lozim.

Davlat va jamiyat ta'lim muassasalari oldiga muayyan ijtimoiy buyurtmalar qo'yayotgan ekan, o'sha muassasalar tomonidan tayyorlanadigan kadr egallashi lozim bo'lgan ijtimoiy sifatlarning minimal chegarasini ham ko'rsatib berish tabiiydir. Ta'lim oluvchilar egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka yoqud ma'naviy sifatlarning eng quyi miqdoridagi ilmiy asoslarda malaka yoqud ma'naviy sifatlarning eng quyi miqdoridagi ilmiy asoslarda berilgan rasmiy pedagogik qujjat-davlat ta'lim standarti hisoblanadi. Demak davlat ta'lim standartlari nazorat vositasi, ayni vaqtda ta'lim muassasalarida ko'zlangan ko'rsatkichlarni qo'lga kiritish uchun zarur bo'lgan sharoitni belgilash o'lechovi hamdir. Davlat ta'lim standartlarining ko'rsatkichlari amaldagi mavjud ta'lim mazmunidan emas, balki shakllantirilayotgan talabaga singdirilishi lozim bo'lgan sifatlarning jaqon bo'yicha zarur deb hisoblangan miqdoridan kelib chiqadi.

Davlat ta'lim standartlarining ikki asosiy vazifasini alohida ta'kidlab ko'rsatish mumkin.

Talabalarga beriladigan ta'lim mazmunining majburiy minimumlarini belgilash.

Bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga quyiladigan talablar majmuasini belgilash, bilim, ko'nikma va malakalarning minimal miqdorini belgilash.

1999 yil 16 avgust Vazirlar Maqkamasi o'zining "Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risdia"gi 390-sonli harori bilan sinovdan o'tkazilgan va takomillashtirilgan umumiy o'rta ta'limning davlat standartlarini tasdiqladi. Mazkur standartlar asosida yaratilgan va tajriba sinov asosida takomillashtirilgan yangi o'quv dasturlari Xalq ta'limi vazirligi qay'at majlisining 1999 yil 18 avgustdagi 13-sonli harori bilan tasdiqlandi. Davlat ta'lim standartlari yangi o'quv dasturlari bilan birgalikda 1999-2000 o'quv yilidan boshlab umumiy o'rta ta'lim o'quv muassasalarida bosqichma-bosqich joriy etilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlarida o'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan talablar.

Bugun har bir fikrlovchi inson yangi asrda o'zi, yaqinlari, kasbdoshlari, tengdoshlarining jamiyatdagi o'rni va saloqiyati qanday bo'lishini o'ylashi tabiiy.

O'tgan asrning ahamiyati, qadr-qimmati, tarixiyligi yana shundaki, O'zbekiston mustaqil davlat bo'ldi. Mustaqil davlat o'zining asosiy qonuni – Konstituttsiyasi bilan kafolatlangan bir qancha muhim tarixiy xujjatlariga ega bo'ldiki, ular orasida O'zbekistonda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» alohida o'rin tutadi. Undagi

g'oyalar, avvalo, XXI asrda yashaydigan, ijod qiladigan, Vatan va yurt mustaqilligini mustaxkamlovchi insonlarning manfaatini ifodalaydi. Dasturda e'tirof etilgan kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarida shu narsa alohida belgilanadiki, ta'lim tizimining yaxlit axborot makonini vujudga keltirish ta'lim – tarbiya dasturlarining intellektuallashtirishini ta'minlaydi. O'tgan asrni sarhisob qilib, yangi yuz yillik va ming yillikning qanday bo'lishini tasavvur etarkanmiz, uning eng muhim xususiyatlaridan biri sifatida yangi ta'lim dasturlarida nazarda tutilayotgan zamonaviy axborot texnologiyalari, ta'limni kompyuterlashtirish va kompyuterlash tarmoqlari tizimida ta'lim jarayonini axborot bilan ta'minlashning rivojlanishini nazarda tutmoqdamiz. Zero, milliy dasturni ro'yobga chiqarishga doir tashkiliy ishlarda e'tirof etilganidek, «Ta'limni axborot bilan ta'minlash tizimini shakllantirish va rivojlantirish, uni jaqon axborot tizimi bilan boqlash ommaviy axborot vositalarining ta'lim sohasidagi vazifalarini belgilash» malakali kadrlar tayyorlashning muhim mezonlaridandir. Demak, yangi asr-informatsion texnologiyalar asri bo'ladi. Bu masalaning bir tomoni.

Masalaning ikkinchi bir muhim jihati shundaki, yangi asr xalqaro, iqtisodiy korporatsiya – jaqon miqyosidagi, aql-zakovatning birlashuvi asri bo'ladi.

Xo'sh, axborot texnologiyalari nimayu, ularning inson idroki, tafakkuri va ongiga singdirishda nimalarga e'tibor qaratilishi lozim

Bugun biz yangi texnologiyalarga sarflanayotgan mablaqlar qay darajada o'zini oqlashini, ularni ta'lim sifatini oshirish, axborotlar va telekommunikatsiyasi texnologiyalar hamda masofali ta'limni rivojlantirishga ta'sir qanday bo'lishini tasavvur qila olishimiz shart. Ko'p hollarda «ta'limning kompyuter texnologiya»lari iborasi «axborot texnologiya»lari iborasi «axborot texnologiyalari» iborasi bilan almashtirilib yuboriladi. Bu o'rinda asosan an'anaviy pedagogik texnologiyalardan farqli, kompyuter tarmoqlariga ulangan, dasturlashtirilgan, xalqaro alohalarni ham ta'minlashga qodir tizim nazarda tutilmoqda. Bu xolat so'nggi yillarda jamiyat xayotida kompyuterlarning ahamiyati ortib borishi, xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida turli xil axborotlarga nisbatan extiyojning ortib borishi bilan izoqlanadi. Bugun biz bir narsani aniq tasavvur qilishimiz kerak Mavjud xolat, axborotlar oqimining negizlashuvi inson xotirasiga ortiqcha yuk, shaxsning tafakkuri va fikr yuritishi jarayonlarida keskin o'zgarishlarga sabab bo'lmaydimiq Ongga etib kelayotgan axborotlar orqali shaxsning mavjud madaniy-ma'rifiy muxitdagi moslashuvi jarayonida qay tarzda aks etishini bilishimiz va shunga mos tarzda ta'lim-tarbiya muassasalarida o'quv dasturlari va jihozlariga nisbatan talablarini ishlab chiqishimiz lozim. Shu o'rinda biz axborot texnologiyalarni ta'lim jarayoniga singdirishning afzalliklarini e'tirof etishni xoxlardik. Eng avvalo, ta'lim jarayonida kompyuterlar va telekommunikatsiya vositalarining qo'llanilishi talabalarning ular bilan bimalol ishlay olishlari pedagogik jarayondagi eng muhim kamchiliklardan hisoblangan sub'ektivizmni cheklaydi. Masalan, agar talabaning javobi yoki bevosita o'zlashtirishni baxolash o'qituvchining talaba shaxsiga munosabati ta'sirida kechgan bo'lsa, mashinalar vositasida beriladigan ma'lumotlar ob'ektiv xarakterga ega bo'ladi.

Ikkinchidan, kompyuter orqali bolaga etkazilayotgan ma'lumotni zarurat bo'lsa, qayta - qayta chaqirish va takrorlash imkoniyati ham bor. Bu narsa ayrim

talabalarda, guruh sharoitida ishlaganda kuzatiladigan iymonish kabi sifatning namoyon bo'lmashligini ta'minlaydi.

Uchinchidan, har bir professor o'qituvchining o'ziga xos darsni tushintirish uslubi didaktik uslubi mavjud. Kompyuter orqali yoki masofali aloqa vositalaridan foydalanish ular ichidagi samarasiz uslubiyotlarga barham beradi.

To'rtinchidan, yangicha axborotlarni o'zlash texnologiyalari, bilimlarni o'zida ifoda etib, unda sxemalar, rasmlar, jadvallar, grafik va diagrammalarga keng o'rin beriladi. Bu narsa yoshlarda obrazli xotirani ancha jonlantirib, eslab qolish qobiliyatini kuchaytirish mumkin.

Beshinchidan, ushbu axborot vositalaridagi ma'lumotlarni kichik qajmli disketlarga yozib olish kerak joyda ulardan foydalanish mumkin. Bu ham vaqtni ham mablaqni tejaydiki, iqtisodiy jihatdan yuzlab tirajlarda chop etilayotgan kitoblardan arzon bo'ladi. Eng muhimi, manfaatdor auditoriya xoqlagan ma'lumotini bir qil sifat va tizimda olishi mumkin bo'ladi.

Nig'oyat, ular axborot asri deb e'tirof etilayotgan yangi asrda yashab ijod qiluvchi yoshlarning ongini o'stiradigan, ulardagi texnik vositalardan chuchish xissini yo'qotadi. Xullas, ta'lim muassasalarining yo bu narsaga sarflangan mablaqlari bexuda ketmasligi extimoldan qoli emas.

Agar bu har bir yosh halbida Vatanga muqabbat, kasbga sadoqat, pok iymon va odamgarchilikni tarbiyalay olsak, ular xalqaro axborot tizimlari orqali bizning fikrlash tarzimiz, urf-odatlarimiz, milliy qadriyatlarimizga zid bo'lgan ma'lumotlarni tanqidsiz qabul qilmaydigan, yurtimiz istiqboliga xizmat etadiganlarinigina saralab olish qobiliyatiga ega bo'ladilar. Buning uchun biz yoshlarimizda, davlatimiz raqbari ta'kidlaganlaridek mafkuraviy immunitetni tarbiyalashimiz kerak.

Ma'lumki pedagogikada boshqa ilm sohalaridan olingan ko'plab atamalardan foydalanadi, bu narsa pedagogikani boshqa fanlar bilan chuqur aloqada ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi. Bunday atamalar texnika va iqtisodiyotdan eng ko'p miqdorda kirib keladi, chunki ayni shu sohalar ijtimoiy fikrning rivojlanishiga eng ko'p ta'sir ko'rsatadi. Chunonchi bugun o'qitishning tejamkorligi va oqilonaligi o'qituvchi, texnika va texnologiya, ta'lim iqtisodiyoti, o'qitishni kompyuterlashtirish va shunga o'xshashlar xaqida tez-tez gapirilmoqda.

Adabiyotlarda "Yangi tartib qoida", "Yangilik", "Innovatsiya" tushunchalarining ma'naviy mazmunini aniqlashning turlicha talqinlari mavjud.

Yangi tartib qoida moddiy ma'noda ijobiy ilqor yangilikni, bu tushinchani qabul qiladigan va undan foydalanadigan tashkiliy sistema uchun yangi bo'lgan g'oya faoliyat yoki moddiy ob'ektni anglatadi. "Yangi tartib qoida", "Innovatsion jarayon" atamalari aynan o'xshash bir xil ma'noga ega. Innovatsiyalar ta'limning boshlangandan buyon, yangilik kiritish, mavjud ta'lim o'zgartirish, takomillashtirish va yaxshilash sifatiga u bilan yonma-yon kelmoqda. Yangilik – bu texnik, texnologik ixtiro va yutuqlardan amaliy foydalanishdir. U pedagogik kategoriya sifatida ta'limga yangilik kiritishni anglatadi. Yangilik ko'pincha yangi metodlar, usullar, vositalar, yangi kontseptsiyalar, yangi o'quv dasturlari, tarbiya usullari va boshhalarni kiritish hamda qo'llanishga xosdir.

Frantsuz olimi E.Bransuik pedagogik innovatsiyalarning uch turini ajratadi:

1. Yangiliklar – to'la yangi va ilgari noma'lum bo'lgan ta'limiy g'oyalar hamda ishlar bo'lib, unda butunlay yangi va original g'oyalar juda kamdir.

2. Yangiliklarni eng ko'p miqdori moslashtirilgan kengaytirilgan hamda qayta ishlangan g'oyalar, ishlar bo'lib, ular ma'lum muhit va vaqt ichida dolzarb bo'ladi.

3. Pedagogik yangiliklar ushbu qolatda yuzaga keladi: maqsadlar o'zgargan sharoitlarda takroriy qo'yilishi munosabati bilan ba'zi ilgari mavjud bo'lgan ishlar qayta yangilanadi. Bu ularning va ma'lum ijobiy g'oyalarning muvoffaqiyatli bo'lishiga kafolat beradi.

Ta'lim ijtimoiy tizimining bir qismi bo'lib, u o'z rivojlanishida jamiyatdagi yo'nalishlarga ergashib ro'y berayotgan o'zgarishlarni hisobga olish lozim. Ana shu doirada innovatsiyalar ta'lim oldida turgan vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishning asosiy shartlaridan hisoblanadi. Pedagogik nazariya va amaliyotning taqlili shuni ko'rsatadiki, ta'lim sohasiga umumjaqon ahamiyatiga molik bo'lgan quyidagi asosiy yangiliklar xosdir.

moliyalashtirish va boshharish sohalaridagi o'zgarishlar;

ta'lim tizimi tuzilishidagi o'zgarishlar;

ta'lim texnologiyasidagi o'zgarishlar.

Shunday qilib, yangi texnik vositalar yangi texnologiyalar ta'limda yangi tartib qoidalarga kiritish uchun eng muhim komponentlardan biridir. Biroq ularni qanday qilib tadbqiq etish va amalda foydalanishni bilish aslida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Buning uchun maxsus tayyorgarlik, katta kuch va ko'p vaqt sarflash lozim, ya'ni ta'limda innovatsion jarayonlariga tadbqiq etilish bilan, o'qituvchining roli pasayadi emas, balki o'quv-tarbiya jarayoninig burchak bosqichlarida yana ham ortadi. Bu esa pedagogikadan o'z ilmini yangidan, tanqidiiy taqlil etishini talab etadi. Chunki yangi tartib qoidalaridan foydalandimi yoki axborot manbai sifatida kelib ketadimi, bu narsa ayni o'qituvchiga bog'liq. O'qituvchi o'quv texnologiyasining bevosita tartib qoidalarga jiddiiy tayyorlangan, yo'l-yo'riq olgan, moslangan, ruxlangan bo'lishi lozim.

Pedagogning ijodiiy potentsiali uning ijodkorlik shaxsiyatini shakllantirishga intilishida, pedagogik odobning namoyon bo'lishi, qobiliyat, tasavvurni rag'batlantirish, yumor qissini rivojlantirish, qiziharli, quyilmagan, savollarni qo'yish o'quv, o'quvchi-talabalarni savol berishga jalb qilish o'quv va x.k. orqali amalga oshirilishi mumkin.

Pedagogik jarayonda o'zining yangi g'oyalarini ishlab chiqish qobiliyatini doimo rivojlantiradigan va takomillashtiradigan o'qituvchi iqtidorli hisoblanadi. Pedagogik ijodiiyot o'z moxiiyatiga ko'ra odamning yangi bilimlari xosil qilish va takomillashtirish bo'yicha ijodiiy ishining kasbiy-maxsus ifodasidir. Pedagogik izlanish o'qitishda doimo ma'lum yo'nalishdagi sub'ektga nisbatan aniqlashtirilgan bo'ladi. Pedagogik izlanish natijalari yangilikning asosiiy namoyon bo'lishi shakllari kundalik o'quv-tarbiyaviy muammolarni nostandart echimlari, pedagogik ta'sir usullarini metodik va nazariy ishlab chiqish, iqtiro etish, takomillashtirish yakunlari va ulardan samarali foydalanish usullardan iborat bo'ladi.

Respublikamiz mustaqkamlikka erishish bilan boy tarixiiy madaniy merosimiz keng ko'lamda o'rganilsa boshlandi. Prezidentimiz I.A.Karimov aytganlaridek: Jamiyatimizdagi yangilanish va isnoqlar tufayli dunyo sivilizatsiiyasiga munosib

xissa buyuk ajdodlarimizdan bizga meros bo'lib qolgan insoniy ma'naviy yuksak axloqiy madaniyat, chiroyli millat an'alarimizdan foydalanish imkoniyati ochildi.

Yangi ta'lim tizimi mazmuniga o'tmishning qimmatbaqo ma'naviy qadriyatlarni kiritish va unutilayozgan yoki taqiqlangan ba'zi birlarini qayta tiklashdan maqsad, o'tmish oldida egilish emas, balki unga tayanib, ijodiy foydalangan holda unga tayanib ijodiy foydalangan holda rivojlanishning yangi poqonasiga chiqish demakdir.

Bugun biz yangi ko'rinishdagi kasb-qunar ta'lim tizimini ishlab chiqishda Turkiston sivilizatsiyasining eng ko'p gullab-yashnagan davridagi, ya'ni VII-XII asrlardagi mehnat va kasb ta'lim tajribalariga tayanmoqimiz lozim. O'sha davr madaniyati va fanining asosini ta'lim tashkil etib, rivojlanishning eng yuqori cho'qqilariga erishib, faylasuf va pedagoglar g'oyalari aniq kontseptual shakl egallagan edi. qozirgi zamon atamasi bilan aytganda, ta'lim va tarbiya ilm – bu uzluksiz ravishda ma'naviy, jismoniy va aqliy saloqiyatini rivojlantirish jarayonidir. Bu davr faylasuflari insonning ma'naviy, jismoniy va aqliy xususiyatlarini yakka mujassamlilikda, deb belgilangan. Bunday falsafiy pedagogik kontseptsiya ta'lim jarayoni shaxsning ma'naviy axloqiy xususiyatlarining boshlanqich tizimining hosil qiluvchi omil deb e'tirof etiladi. Bu kontseptsiyalar mazmuni faqatgina faylasuflar ishlarida emas balki qunarmandlar risolalarida ham o'z aksini topgan.

Risola – bu qunarmandlar va ularning o'quvchilar uchun mo'ljallangan qo'llanma bo'lib, urf-odat, rasm-rusum turli udumlar majmuasidir, risolalar kichik qajmdagi kitobcha shaklida bo'lib, ularning mazmuni ushbu soha qunarmandchiligi bo'yicha mashqulotlar va ba'zi bir pandu nasiqatlarni o'zida mujassamlashtirgan.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, deyarli barcha risolalar bir xil qolipda tuzilgan bo'lib, odatda kitobchaning boshlarida butun olam egasi bo'lgan Alloh payhambarlar va uning barcha choriyorlarini ko'klarga ko'tarib maqtash, so'ng ushbu qunarmandchilikning Alloh ne'mati ekanligi keyin qunarmand ishi boshlanadigan va har bir xatti-qarakati yoki lozim bo'lgan Qur'on oyatlari yoki jarayondan oldin aytish lozim bo'lgan Qur'on oyatlari yoki boshqa duolar, usta qunarmandlarning ma'naviy – axloqiy sifatleri yoritiladi.

Biz risolalarni tadqiq etish natijasida, ular o'rta asr qunarmandligida o'ziga xos pedagogik qo'llanma sifatida xizmat qilganligiga, risolalarda zamonaviy til bilan aytganda qunarmand kasbiy faoliyatning mazmunini ko'ramiz.

O'zbekiston mustaqillikka erishgan davrda milliy mafkurani shakllantirish, yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruqida tarbiyalash eng muhim vazifalardan bo'lib qolmoqda. Chunki davlatning asosini ma'naviy tashkil etadi: ma'naviyatiga e'tibor bermagan davlatning kelajagi ham bo'lmaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov «Barkamol avlod O'zbekiston kelajagining poydevoridir» nomli ma'ruzasida ta'kidlaganidek «Bizning mamlakatimizda o'zimizning ma'naviy qadriyatlarimizni, ta'limning milliy tizimini takomillashtirish, hamda uning milliy asoslarini mustaqkamlashga alohida e'tibor

berilmoqda» Milliy pedagogika tajribalariga murojaat qilish esa, bunday maqsadlarga erishishning asosiy omillaridan biridir.

Yoshlarni mustaqil bilim olishga o'rgatish bugungi kunning eng muhim va dolzarb vazifalaridan biridir. Shuning uchun ham Prezidentimiz I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi IX sessiyasida so'zlagan nutqida: "Faqatgina chinakam ma'rifatli odam inson qadrini, milliy qadriyatlarni, bir so'z bilan aytganda, o'zini anglash, erkin va ozod jamiyatda yashash, mustaqil davlatimizning jaqon xamjamiyatida o'ziga munosib, obro'li o'rin egallash uchun fidoyilik bilan kurashish mumkin"<sup>7</sup>, degan edi. Shu o'rinda ta'kidlamoq lozimki, bugungi kunda yoshlarni ma'naviy-intellektual rag'batlantirishning ahamiyati kattadir. Ma'naviy intellektual shakllarini sifatlarini zamonaviy usullarda aniqlash tarbiyaviy jarayonga samarali o'zgartirishlar kiritadi. O'quvchi-yoshlarning, talabalarning ma'naviy-intellektual shakllanish sifatlaridagi yutuq va kamchiliklarni rag'batlantirish tizimi, tarbiya mazmuni, usullari va tashkiliy shakllarini yaxshilashga mos kuzatishlar kiritish lozim. O'quvchi va talabalarning bilimini, aqliy qolatlarni nazorat qilish va baqolash davlat miqyosidagi muhim ahamiyatga egadir. Shu bilan birga, nazorat va baqolash jarayoni o'quvchi bilimini boyitishga, ular shaxsini rivojlantirishga va tarbiyasiga ta'sir ko'rsatadi.

## **2. "Kasbiy pedagogika" fanining maqsad va vazifalari. Kasbiy pedagogikaning asosiy tushunchalari: kasbiy ta'lim, kasbiy tayyorgarlik, kasbiy tarbiya, unumli mehnat, professionallik, kasbiy mahorat.**

Kasbiy pedagogika umumiy pedagogika faning tarmog'i sifatida kasbiy - texnik ta'lim tizimining takomillashishi jarayonida shakllanib boradi. U nisbatan yangi fan sohasi sanalib, bugungi kunda ko'plab tushuncha va ma'lumotlar bilan boyib, rivojlanib kelmoqda. Qar qanday fan sohasida bo'lgani kabi kasbiy pedagogika o'z kategoriya, tushuncha, va sifat ko'rsatkichlariga egaki, bular fanning asosini tashkil qiladi.

Kasbiy ta'lim vazifalari:

Kasbiy pedagogika fanining asosiy tushunchalari, uning mazmuni kasbiy ta'limni tashkil etish jarayonida quyidagi vazifalarning bajarilishi uchun xizmat qiladi:

- \* o'qituvchilarning yangi, yanada murakkab tadbirlarni amalga oshirish maqsadida o'z kasbiy mahoratlarini oshirishlari uchun sharoit yaratish;

- \* kasbiy-texnik ta'limning yangi kontseptsiyalarini amalga oshirishning yangi yo'l va vositalarini yo'llarini yaratishga e'tibor qaratish, faol-ijodkor shaxsni tarbiyalash;

- \* pedagogik bilimlarni egallashga yangicha yondoshuvni yuzaga keltirish;

- \* ta'lim tarbiyaning yangi, yanada samarali shakl va metodlarini yaratish; rivojlanib boruvchi yangi pedagogik jarayonlarni loyihalash, ta'lim oluvchilarning barcha imkoniyatlari va qobiliyatlarini ishga solish uchun sharoit yaratish, kasbiy mahoratni egallashlari uchun sarflanadigan vaqtni qisqartirishga erishish.

Mustaqillik sharoitida o'sib kelayotgan yosh avlodlar tarbiyasida umuminsoniy qadriyatlarni, umuminsoniy ijobiy xislatlarni rivojlantirishga oid g'oyalar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlarida va nutqlari,

Vazirlar Mahkamasining qarorlarida o'z aksini, tasdig'ini topgan. O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy- iqtisodiy rivojlanishida tutgan o'z yo'li, tamoyillari tarbiya jarayonida hali avvalgi, kekxa avlod oldida turmagan yangi masala va muammolarni echish uchun zarur bo'ladigan xislat va sifatlar shakllantirilishini taqozo etadi.

O'zbekistonda milliy mafkurasi shakllanib bormoqda. Pedagogika ilmidagi tushunchalar, ta'riflar milliy mafkuraga mos, umuminsoniylik ruhida tushuntirilmog'i maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Albatta ta'lim va tarbiyada umuminsoniy qadriyatlar bilan birga milliy o'ziga xoslik nisbati, muvozanati alohida ahamiyatga ega.

Yana bir tomondan ta'lim nazariyasshsh, ta'lim-tarbiya mazmunini, shaklini va uslublaripnng asosiy jihatlar Sharqda ishlab - chiqarilib, Ovrupo orqali o'zgarib, rivojlanib yana Sharqqa qaytib kelganini va dunyo pedagogik jarayonini bir butunligini xisobga olinsa quida ksltiriladigai tushuichalarda xususim milliylikdan ko'ra umuminsoniylik jihatlarining ko'pligi ko'zga tashlanib turadi.

Kasbiy ta'lim pedagogikasinpng muxim tushunchalariga to'xtalamiz.

**Ma'lumot** - o'kitish jarayoni va uning natijasi xisoblanib, o'quvchida bilim, iqtidor va ko'nikmalarning o'zlashtprilganligini, bilish qobiliyati o'sganligi va ular asosida ilmiy dunyokarash, shaxsiy sifatlar shakl-langanligini, ularning ijobiy kuchlari va qobiliyatlarining qay darajada rivojlanganligini anglatadi.

**Ta'lim** - ma'lum maqsadga io'naltirilgan, rejali ravishda amalga oshiriladigan «o'qituvchi - o'quvchi -o'qituvchi» muloqoti bo'lib, uning natijasida o'quvchida ma'lumot, tarbiya va umumiy shakllanish, rivojlanish amalga oshadi. Odamlarning ma'lumoti faqat ta'limninggina natijasi bo'lib qolmay, balki ota-ona va oila tarbiyasi o'z-o'zini tarbiyalash va ommaviy axborot vositalarining (kino, radio, zangorn ekran va hokazo) ta'-sirida amalga oshiriladi.

**Insonning rivojlanishi** -tashqi va ichki, boshqariluvchi va boshqarilshiga berilmaydigai omillar tomonidan shaxsning shakllaiish jarayonidir. Ularning tarkibida albatta, maqsadga ytsialtirilgai tarbnya asosiy rol o'ynaydn.

Maktabdagi o'qitish jarayonida ta'lim, tarbiya va ma'lumot o'zaro xmustahkam bog'lpk «ravishda amalga oshiriladi. O'qituvchi qaysi fanni o'kitishdan qat'i nazar, o'sib kelayotgan avlodga fan asoslarnpn o'rgatadi, bilimlarni bayon kiladi. Shu materiallarning mazmuniga qarab tarbiya masalalarinni xam hal qiladi, bolalarda ilmiy dunyokarashni tarkib toptiradi, madanny xulq-atvor ko'nikmalarini tarbpyalaydi, ularping ongi-ga ilg'or madannyatlilpk printspplarini spngdirib boradi. Demak, ta'lim nazariyasining mavzu baxsi tarbiya va ta'lim masalalaridan tashkil topib, ularning xammasi bir vaqtda, bir jarayonda amalga "oshirib bori,ladi.

Inson shaxsining shakllanishida ma'lum maqsadga qaratilgan o'zi tushunib etib orzu qilgan (o'zi mustaqil tarbiyalay oladigan) fazilatlar, sifatlar" va xulqlarning shakllantirnlishi katta rol o'ynaydi.

**O'qitish - o'rgatish** - bolalarning maxsus tashkil etiladigan faol mustaqil, bilish - tanish, mehnat, estetik, jismoimy faoliyati bo'lib, tabiiy qobiliyatlarini va psixik jarayonlarini rivojlantirish, tajriba-lar, ko'nikmalar hamda bilimlarni egallash, o'zlashtirishga yo'naltirilgan faoliyatidir.

**Pedagogik faoliyat** - estetik, axloqiy, siyosiy, iqtisodiy maqsadlarga muvofiq ravishda yosh avlodni hayotga tayyorlashning aqlan o'ylab ko'rilgan, katta yoshdagilarning ijtimoiy zarur bo'lgan mehnatining o'ziga xos turidir.

**Tarbiyaning ob'ektiv qonunlari** - o'quv - tarbiyaviy jarayonni tashkil etish va ijtimoiy hayotning shaxsni, uni o'ziga xosligi hamda sifatlarini shakllantirishdek talablaridagi turg'un bo'lgan an'analardir.

**Tarbiyaning asosiy qonuni** - o'sib borayotgan yosh avlodni katta yoshdagilar ijtimoiy tajribasining egasi qilish uchun, ularning ijtimoiy hayotga qo'shilishini ta'minlab berish uchun amalga oshiriladigan zaruriy va majburiy faoliyatdir. Jamiyatning hayotiyligini ta'minlash, alohida olingan bir inson va har bir shaxsning mohiyatini tashkil etuvchi kuchlarning rivojlanishini, avlodlar orasidagi vorisligini amalga oshirish demakdir.

**Pedagogika printsiplari** - ijtimoiy munosabatlarning tekshirilgan amaliy va barqaror yo'nalishlarini o'zida aks ettiradigan nazariy umumlashtiruvchidir. Shuningdek, o'quv-tarbiyaviy jarayonni, bolalarning jismoniy» badii, ijodiy, mehnat va boshqa har qanday faoliyatiga pedagogik rahbarlikni tashkil etishga bog'liq bo'lgan qonuniy aloqalardir.

**Pedagogik tajriba** - o'qituvchi tomonidan pedagogikaning printsiplari va amaliy qonunlarini ijodiy va faol ravishda o'zlashtirish xamda real shart-sharoitlarni, bolalarning, bolalar jamoasining, shaxsning o'ziga xosliklarini hisobga olgan holda amaliyotga tatbik etishidir.

**Pedagogik qarama-qarshiliklar** (kelishmovchiliklar)-pedagogika amaliyoti jarayonida vujudga keladigan eskirgan pedagogik ko'rsatmalar, qarashlar, kontseptsiyalar va pedagogik jarayonning tarbiyaviy sama-radorligini pasaytiradigan, shaxsni shakllantirish tizimlari bilan vujudga kelgan nomuvofiqlikdir,

YAngi taraqqiy etib borayotgan, o'sib borayotgan yosh avlodga hayot talablarining murakkablashib borishi, umuman bu tarzida vujudga keladigan ehtiyoj ta'lim va tarbiyaning yangi mazmunga, shaklga ega bo'lgan uslublari bilangina qanoatlantirinishi mumkin.

**Tarbiyaning maqsadi** - jamiyating alohida bir olingan shaxsga bo'lgan ehtiyojlarini aks ettirish, uning mohiyati, ideal talablarini, o'ziga xosligi va fazilatlarini, xayotga munosabatining, akliy, jismoniy, axloqiy va estetik rivojlanishini nazariy umumlashtirishdir.

**Shaxsning har tomonlama kamolotga etishi** - ma'lum bir real tarixiy shart-sharoitlarda amalga oshirish mumkin bo'lgan Qobiliyatlar va iqtidorlarning, uning mohiyatini tashkil etadigan hamma kuchlarining to'liq, va batamom rivojlanishidir.

**Pedagogik jarayon** - ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan kattalarning pedagogik faoliyati ta'sirida tashkilpy shakllantirilgai va mazmunan boyitilgai hamda tarbiyachining yo'naltiruvchi va olib boruvchi rahbarlik roli -natijasida bolaning o'z-o'zini taraqqiy ettirishidir.

**Bolalarni tarbiyalovchi jamoa** - bir butun o'quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil etishning asosiy shakllaridan biri bo'lib, jamoaviy yuqori darajadagi axloqiy, estetik xamda ijtimoiy munosabatlarni tarbiyalaydigan, maxsus tashkil etilgan sistema, bolalar muhitida muloqot olib borishdir.

**Havaskorlik** - bolalarniig mustaqil, ixtiyoriy, o'z xohishiga ko'ra amalga oshiradigan ichki faoliyatidir.

**Tarbiyaviy muxit** - inson shaxsini shakllantiruvchi tabiat, ijtimoiy munosabatlarning sistemasi, ijtimoiy tafakkur, turmush va shaxslararo munosabatlarning doirasi kabi omillarning bir-birini boyitishi va muvofiq kelishidir.

**Pedagogik muxit** - pedagogik maqsadlarga muvofiq ravishda maxsus tuzilgan shaxslararo munosabatlar sistemasidir.

**Ichki muxit** - yuqori darajadagi o'ziga xos asabiy faoliyatlarning, xarakterlar o'ziga xosligining, hayotiy tajribaning, irsiy tafakkur ko'nikmalari tizimining hamda bola uchun, odatdagi ruhiy xolatlarda o'zini namoyon etadigan ta'sirchanlik va xaqiqatga munosabatlar majmuasining o'zaro bir-biriga muvofiq keinishi, bir-birini to'ldirishi va boyitishidir,

**Irsiylik** - bolaning shakliy o'ziga xosliklarini belgilab beradigan anatomik, fiziologik, psixologik tashkiliy jihatlarni, qobiliyatlarini va iqtidorlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan, bolalarga ota-onalari tomonidan o'tkazilgan irsiy belgilardir.

**Ta'lim va tarbiyani insonparvarlashtirish** - pedagogik diqqat hamda e'tiborning markazida insonning muxim masalasi va muammosi, ya'ni bolalarda inson shaxsiga dunyodagi eng yuqori, bebaho bo'yluk sifatidagi munosabatini shakllantirishdek muhim faoliyat yotadi.

**Ta'limni gumanitarlashtirish** - texnokratizmga va noinsoniy qiyofa va xususiyatlarga qarama-qarshi turish, inson shaxsining ma'naviy boyligini oshirish va taraqqiy ettirish maqsadida ta'limning gumanitar hamda tabiiy-matematik davriyligi orasida garmonik muvozanatni o'rnatish.

**Aqliy tarbiya** - bolalarning ongi va tafakkurini -bilimlar, ongli ko'nikmalar hamda malakalar bilan boyitish. Aqliy kuchlar, sezgilar, ruhiy jarayonlar, iqtidorlar, biluvchanlik maqsadlari, dunyoqarash va faoliyat ozodligini shakllantirish.

**Huquqiy tarbiya** - huquqiy madaniyatni, o'quvchilarda qonunga bo'ysunuvchanlik xatti-harakatini shakllantirish.

**Politeknik ma'lumot** - hozirgi zamon ishlab chikarishini tashkil etishning asosiy printsiplari bilan, chiqindisiz va ekologik toza texnologiya bilan tanishish. Shu bilan birga kompyuter texnikasi, mexanizatsiyalashtirilgan hamda avtomatlashtirilgan mehnatning hozirgi davrdagi jihozlari bilan ishlash malakasi bilan qurollantirish.

**Mehnat tarbiyasi** - bolalarni umumiy mehnat bilimlari va ijtimoiy foydali mehnat malakalari bilan qurollantirish. Shu bilan birga, mehnatssvarlik, mehnat kishisining psixologiyasini rivojlantirish, mulkning har xil shakldagi turlarida mehnatni xar xil shakllarini tashkil etish qobiliyatini namoyon etish muvaffaqiyatga erishish, tadbirkorlik va ijodiy yondoshuvni namoyon etish xususiyatlarining egasi sifatida shakllantirishdir.

**Iqtisodiy tarbiya** - o'quvchilarni asosiy iqtisodiy tushunchalar bilan tanishtirish jarayoni bo'lib, ularni ishlab chikarishni tashkil etish sohasidagi oddiy

harakatlar, qilishi lozim bo'ladigai ishlar ko'nikmasi, malakasi bilap, taqsimot va talimot bilan, iqtisodiy tafakkurning rivojlanish bilan qurollantirish.

O'zbekiston Respublikasi sotsial-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy tamoyillarini chuqur o'zlashtirish.

**Ekologik tarbiya** - o'quvchilarni ekologik (atrofmuxit muxofazasi) bilimlari bilan qurollantirish, shuningdek tabiatga nisbatan axlokiy-estetik, okilona ekologik xatti-harakatlar ko'nikmalarini, ekologik ta-fakkurini hamda ekologiya uchun faol kurashish qobiliyatlarini shakllantirishdir.

**Axloqiy tarbiya** - o'quvchilarda umuminsopiy axloqiy printsiplarga sodiq bo'lishdek, jamiyat axloqiy talablari va me'yorlarini hisobga olgan holda o'z xatti-harakatlarini tanlay olish maxoratini, axlokiy tafakkur va kundalik odatdagi axloki! xatti-harakatlarini mustahkam tizimini shakllantirish.

**Jismoniy tarbiya** - bolaning xamma jismoniy xususiyatlarini: anatomik, fiziologik, asab va boshqa sistemalarini xar tomonlama rivojlantirish, sog'lom xayot kechirishning afzalliklari, shart-sharoitlari, asoslari xamda jismoniy madaniyatning odatdagi zarur elementlarini mustahkam tarzda shakllantirish.

**Estetik tarbiya**-badiiy-estetik tafakkurni shakllantirish, real hayotda san'atdagi estetik hodisalar» ko'rinishlar, xolatlarni xis qila olish, qabul qila olish, baholay olish qobiliyatlarini shakllantirish shuningdek, ijodiyotda faol ishtirok etish.

**Tarbiyalash uslublari** (metodlari)- katta yoshdagilar bilan bolalar o'rtasidagi pedagogik, aylan o'ylab ko'rib, ma'lum maqsadga yo'naltirilgan ta'sirlarining jamiyat tomonidan shart sifatida qo'yilgan usullari bo'lib, bolalik davri, faoliyati, muloqoti, munosabatlarini tashkil etishga yordam beradi, ularning faolligini rag'batlantiruvchi xamda xatti-harakatlarini boshqarish asoslari hisoblanadi.

**3. Kasbiy pedagogika mazmunini belgilovchi asosiy ilmiy yo'nalishlar:  
o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi pedagogikasi, oliy ta'lim pedagogikasi,  
androgogika-kattalarni o'qitish pedagogikasi. "Kasbiy pedagogika"  
fanining boshqa fanlar bilan aloqalarini o'rganish.**

Tarixiylik tamoyili har qanday fan rivojlanishining zarur tamoyili hisoblanadi. Zero o'tmishni hozirgi davr bilan qiyoslash faqat hozirgi hodisalarning asosiy rivojlanish bosqichlarini yaxshi kuzatib borishga yoki o'tmishning bebaho tajribasi hamda erishilgan yutuqlardan foydalanishga yordam berib qolmay, shu bilan birga, bu sohada xatolarga yo'l qo'yishdan saqlaydi va kelajakka yo'naltirilgan amaliy takliflar, maqsadli izlanishlarni amalga oshirishga ko'p darajada asos bo'ladi. Jamiyat hayotini qayta qurish, o'sib kelayotgan yosh avlodni shuningdek, hamma mehnatkashlar tabaqalarini tarbiyalashni kuchaytirishni talab etadi. Bunday sharoitda Kasbiy pedagogikaning tadqiqot sohalari doirasi kengayadi. Hozirgi kunda Kasbiy pedagogikani asosiy tarmoqlari sifatida quyidagilarni keltirib utamiz.

**Yosh davrlari Kasbiy pedagogikasi** mazkur guruhlar bilan olib boriladigan tarbiyaviy-tashkiliy ishlarning qonuniyligini tadqiq etadi hamda eng avvalo ularni tarbiyalanuvchilarning O'quv muassasalari shart-sharoitlarida amalga oshirish dasturini ishlab chiqadi.

**Katta yoshdagilar Kasbiy pedagogikasida** oliy o'quv yurti shart-sharoitlarida yoshlarni tarbiyalashning nazariy masalalari va metodikasini ishlab chiqadigan Kasbiy pedagogika tarmog'i sifatida oliy O'quv yurti Kasbiy pedagogikasining shakllanayotganligi, uning aniqlashib borayotganligi ko'zga tashlanadi.

Milliy armiyamiz uchun mutaxassislar tayyorlaydigan harbiy o'quv yurtlarida yoshlarga ta'lim berish hamda tarbiyalash muammolari bilan **harbiy Kasbiy pedagogika** sohasi shug'ullanadi.

Bulardan tashqari **oila Kasbiy pedagogikasi** bugungi kundagi dolzarb vazifalardan birini tashkil etib, oilalarda, oila markazlarida, mahallalarda, jamoat tashkilotlarida, oila-nikoh muassasalarida amalga oshirilayotgan tadbirlarda namoyon bo'ladi.

Umumiy Kasbiy pedagogikada tarbiyalanuvchilar orasida mafkuraviy targ'ibot va madaniy ma'rifiy ishlar ham o'ziga xos tarmoqlariga egadir. Bu mehnatkashlarni tarbiyalash ishlariga munosib hissa qo'shadi va belgilangan pedagogik g'oyalarga suyanadi. Kasbiy pedagogika fanining hamma tarmoqlari o'zining turli rivojlanish, taraqqiyot bosqichlariga egadir: ularning ayrimlari aniq shakllanib bo'lgan va etarli darajada keng ishlab chiqilgan boshqalari o'zining shakllanish jarayonini boshdan kechirmoqda (masalan, oliy O'quv yurti muassasasi Kasbiy pedagogikasi, ishlab chiqarish Kasbiy pedagogikasi) ba'zi bir tarmoqlar Kasbiy pedagogikasining ajralib chiqishi endigina boshlanmoqda. Umumta'lim O'quv yurtlarida emas, balki yordamchi O'quv yurtlarida shug'ullanishlari mumkin bo'lgan shaxslar ya'ni, ko'rish, eshitish, so'zlash a'zolarida kamchiliklari bo'lgan shaxslarni mehnat faoliyatiga tayyorlash, tarbiyalash va ta'lim berishning o'ziga xos tomonlarini tadqiq etuvchi fanlar Kasbiy pedagogika fanining maxsus guruhini tashkil etadi. Kasbiy pedagogikaning bu maxsus tarmoqlari defektologiya yoki maxsus guruhga birlashtirilgan.

**Defektologiya fanlari** o'z navbatida alohida mustaqil bo'lgan tarmoqlarga bo'linadi:

**SurdoKasbiy pedagogika** - kar va gung tarbiyalanuvchilar ta'lim-tarbiyasi masalalari bilan;

**TifloKasbiy pedagogika** - ko'zi ojiz tarbiyalanuvchilar ta'lim-tarbiyasi bilan;

**OligofrenoKasbiy pedagogika** - aqli ojizlar ta'lim- tarbiyasi bilan shug'ullanadi.

Bunday ilmiy ishlar bilan shug'ullanadigan institutlar Respublikamizda turli tavsiyalar berish, metodikani ishlab chiqish bilan bir qatorda ilmiy izlanishlar, tajriba almashinish bilan ham samarali tadbirlarni olib borishadi.

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Kasbiy pedagogika universitetida maxsus tashkil etilgan Defektologiya fakul'tetida munosib mutaxassislar tayyorlanayotganligi fikrimizning dalilidir.

Keyingi yillarda, oila pedagogikasi, kasb-hunar ta'limi pedagogikasi, harbiy pedagogika, sport pedagogikasi kabilar shakllanmoqda. Pedagogika mustaqil fan sifatida shakllanadi va shakllanmoqda. Ammo shaxs kamoloti bilan bog'liq muammolarni hal etishda boshqa fanlar bilan hamkorlik qiladi.

## 2-MAVZU: KASBIY TA'LIM PEDAGOGIKASINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI.

1. Milliy g'oyani shakllanishi, yoshlarni umumbashariy va milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, xalq pedagogikasi tajribasiga tayanish.
2. VIII-XIII asrlarda O'rta Osiyoda shakllangan, zamonaviy kasbiy ta'lim tizimining fundamental asoslari. Ular barcha avlod olimlari, mutafakkirlari, pedagoglari, ishlab chiqarish va xalq hunarmandchilik ustalari tajribasi va rivojlanishini aks etadi. O'rta Osiyo mutafakkir olimlari kasbiy ta'lim haqida. Movorounnahr madaniyati rivojlanishi davrida, X-XII va XIV-XVI asrlarda kasbiy ta'lim. Turkistonda VIII-XIII asrlarda jamiyat ta'lim asosi bo'lgan barcha yangi g'oyalar, madaniyat va fanga ochiq va jo'shqing bo'lgan davrda kasbiy ta'lim tajribasi.
3. Kasbiy ta'lim tizimida milliy islohotlar yo'nalishlarining mohiyati: ta'limning O'zbekiston xalqlari madaniyati bilan boyitilgan milliy tarix, milliy an'analar va odatlar bilan uzviy bog'liqligi, ta'limni milliy rivojlanish, boshqa xalqlar madaniyati va tarixiga hurmat uyg'otishning muhim vositasi sifatida tan olinishi.

Pedagogika insonlar orasidagi munosabatlarni va ijtimoiy muhitning insonga ta'sirini tadqiq etuvchi fan sifatida iqtisodiyot, madaniyat rivojlanishining o'ziga xosligi hamda ularning inson shaxsi shakllanishiga ta'sirini o'rganadi. Shu bilan birga, pedagogika o'quv muassasasi tizimining tashqiliy jihatlaridagi ko'pgina masalalarni hal etishga, shaxslarni tarbiyalashda o'quv muassasasi, oila va jamoatchilikning o'zaro hamkorlikda ish olib borishiga yordam beradi.

«Pedagogika» tarbiya jarayonini ijtimoiy hodisa sifatida o'rganar ekan, tabiiy ravishda jamiyatdagi barcha fanlar bilan bog'liqdir. «Falsafa» fan sifatida insoniyat jamiyati, tabiat rivojlanishining umumiy qonuniyatlarini tashqil etadigan, ya'ni pedagogikaning taraqqiy etib borishiga imkon beradigan ilmiy manbaidir. Shu bilan birga, faylasuflar va pedagogika fanlari vakillari tomonidan ishlab chiqilgan bir qator umumiy masalalar falsafada ham, pedagogikada ham barobar mavjuddir.

Bular jumlasiga tarbiya bilan boshqa ijtimoiy xodisalar orasidagi o'zaro aloqalar; dunyoqarashni, ahloqiy, mehnat va estetik tarbiyani shakllantirish masalalari; shaxs va jamoa munosabatlari; ta'lim jarayoni mohiyatini tushunish hamda bilishning dialektik nazariyasini ishlab chiqish bilan bog'liq bo'lgan gneseologik masalalar va boshqa muammolar kiradi.

Pedagogikaning aniq masalalarini ishlab chiqishda falsafaning sotsiologiya, etika, estetika kabi tarmoqlari katta ahamiyatga egadir.

**Etika** falsafaning ahloqiy va tarbiya masalalari bilan bevosita bog'liqdir. Ularni hal etishda pedagogika ahloqning umuminsoniy qadriyatlariga suyanadi.

**Estetika** (nafosat tarbiyasi) insonning estetik ideallarini shakllantirish, madaniyatga va voqelikka estetik munosabatlari umumiy qonuniyatlarini o'rganadi va estetik tarbiyani ilmiy jihatdan asoslash uchun xizmat qiladi. Bu asoslarni pedagogika fani ishlab chiqadi, yoshlarni go'zallikni xis qila olish, tushunishga o'rganish vositalari va yo'llari belgilab beradi.

Pedagogikaning falsafa va boshqa ijtimoiy fanlar bilan bog'liqligini, hal etadigan ilmiy masalalarning umumiyligini pedagogikaning ijtimoiy xususiyati,

uning mafkuraviy yo'nalishga ega ekanligini ta'kidlab turadi. Tarbiyaning hamma muammolarini boshqa siyosiy, ijtimoiy masalalar bilan bir qatorda hal etish zaruriyatini ko'rsatib beradi.

Jamiyatimiz rivojlanishining hozirgi bosqichida pedagogikaning iqtisodiyot fanlari bilan aloqasi mustahkamlanib bormoqda. Ijtimoiy fanlardagi ma'lumotlarga suyanib, pedagogika jamiyatning tarbiyaga bo'lgan ob'ektiv ehtiyojini va ularni amalga oshirish shart-sharoitlarini o'rganadi.

Insonning aqliy rivojlanishi qirralarini, jihatlarini o'rganadigan boshqa fanlardan farqli o'laroq, pedagogika inson shaxsi, uning taraqqiyot bosqichlari bilan shug'ullanadi.

**Pedagogika psixologiya va fiziologiya** bilan ham bevosita va bilvosita bog'liqdir. Fiziologiya pedagogika hamda psixologiya tabiiy ilmiy bazasi hisoblanadi. Pedagogika fiziologiya oliy asab (nerv) faoliyatining rivojlanishi, asab sistemasining o'ziga xosligi, birinchi va ikkinchi signal sistemalar haqidagi, shuningdek sezgi organlarining, tayanch harakat apparatlarining, yurak, kon-tomir hamda nafas olish sistemalarining faoliyati, rivojlanishi haqidagi ma'lumotlarga suyanadi.

Psixologik hodisalarning fiziologik asoslarini bilish pedagogika uchun tarbiya va ta'limning ba'zi bir omillarini yaqqol, aniq bilib olish, tushunish imkoniyatini yaratadi hamda ta'lim-tarbiya jarayonini samaradorligini oshirishning ko'pgina muammolarini muvaffaqiyatli hal etishga yordam beradi.

**Psixologiya** pedagogikaning boshqa fanlar tomonidan aniqlangan bilimlar, o'sib kelayotgan insonning shaxsini shakllantirish, ichki jarayonlarini yuz berish omillari va shart-sharoitlari haqidagi bilimlar bilan qurollantiradi.

### **1. Milliy g'oyani shakllanishi, yoshlarni umumbashariy va milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, xalq pedagogikasi tajribasiga tayanish.**

O'zbekiston ijtimoiy hayotida, jumladan xalq ta'limi tizimida so'nggi o'n yilliklarda katta o'zgarishlar yuz berdi. Respublikada maktabgacha tarbiya muassasalari va maktablar tarmog'i rivojlandi, o'qituvchilar hamda ilmiy-pedagogik xodimlar tayyorlash jarayoni takomillashdi.

Ammo ko'p yillar davomida sobiq sovet respublikalarida va o'lkalarida yagona pedagogik tizim hukmronlik qilib, ta'lim jarayoni Markazdan yuborilgan darslik va tavsiyalar, o'quv rejalari, dasturlar asosida tashkil etildi.

Ona tili, vatan tarixi, geografiyasi, milliy urf-odat va an'analar e'tibordan chetda qolib, bolalar ota-bobolar o'tmishidan bexabar o'qitildi. Respublikamizning istiqbolga erishuvi natijasida o'zbek pedagogikasi tarixida uzoq davr ta'qiqlangan, e'tibordan chetda kolgan madaniy merosga qiziqish kuchaydi. Ulardagi ilg'or fikrlar ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etila boshlandi. Yangi mazmunli darsliklar, uslubiy qo'llanmalar yaratishda milliy-madaniy, tarixiy adabiyotlardan, o'lkalar materiallaridan keng foydalanilmoqda. Zero, kechmishga boqib kelgusi kunni rejalashtirish ibratlidir, o'tgan kun tajribasi ishonchli manbadir.

Respublikamiz mustaqilligi e'lon qilingan 1991 yil 31 avgust O'zbekiston yilnomasiga oltin xarflar bilan yozildi. O'zbekistonda sobiq Ittifoqdagi respublikalar orasida birinchi bo'lib Prezidentlik boshqaruvi amalda joriy etildi.

1992 yil 8 dekabr kuni O'zbekiston Oliy Kengashining o'n birinchi sessiyasida o'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi xalqimizning asriy orzu-armonlarini ro'yobga chiqardi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1992 yil 2 iyuldagi qaroriga asosan «Ta'lim to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni kuchga kirdi.

Mazkur dasturulamalda respublikada ta'limning jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-madaniy rivojlantirishning ustuvor sohasi ekanligi e'tirof etilgan, shuningdek, bu sohada davlat siyosatining asosiy tamoyillari, ta'lim tizimi va boshqaruvi tartibi, ta'lim-tarbiya xodimlarining xaq-huquqlari, vazifalari, mas'uliyatlari, maqsadlari belgilab berilgan.

O'zbekiston Respublikasining 1992 yilda tasdiqlangan umumiy o'rta ta'lim maktabi to'g'risidagi muvaqqat Nizomi hamda «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni ta'lim tizimini jiddiy yangilanishi, isloh qilinishiga asos bo'ldi. Oldingi qabul qilingan Qonunlardan (1930, 1949, 1958, 1973, 1984 y.) farqli o'laroq, xalq ta'limi tizimi tuzilishining quyidagi yangi tamo-yillari joriy etildi:

- ta'lim.-tarbiyaning insonparvarligi hamda xalqchilligi;
- ta'lim tizimining uzluksizligi va izchilligi;
- davlat ta'lim tizimining ilmiyligi va dunyoviyligi;
- ta'limda umuminsoniy va milliy-madaniy qadriyatlarning ustuvorligi;
- davlat ta'lim standartlari doirasida har bir kishiga millati, dinidan qat'i nazar ta'lim olishi uchun imkoniyat yaratilganligi;
- tayanch (to'qqiz sinf darajasida) ta'limning majburiyligi;- ta'lim standartlarini tanlashda yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv bo'lishiga asoslanganligi;
- ta'lim muassasalarida chet tillarni jiddiy o'rganish, din tarixi, xalqimiz tarixi, madaniyati va jahon madaniyati tarixi sohasida bilim olish uchun sharoitlar yaratilganligi;
- ta'lim muassasalarining turli siyosiy partiyalar va ijtimoiy-siyosiy harakatlarning ta'siridan xoliligi;
- amaldagi qonunlar doirasida mulkchilikning barcha shaklidagi ta'lim muassasalarining teng huquqligi;
- bilimdonlik va iste'dodni rag'batlantirish;
- tarbiyalanuvchilar va ta'lim oluvchilarni hurmatlash;
- pedagog shaxsini, uning ijtimoiy mavqeini hurmatlash va b.

Ta'limning istiqbollari respublikamiz Konstitutsiyasida ham o'z ifodasini topgan. Konstitutsiyada respublika har bir fuqarosining bepul umumiy ta'lim olish xuquqi, ta'limning davlat nazoratida ekanligi kafolatlangan.

O'zbekistonda shaxsning asosiy huquqlaridan biri bo'lgan ta'lim, kasb o'rganish davlat tomonidan kafolatlangan.

Hozirda ta'limni quyidagi yo'nalishlarda isloh qilish vazifalari belgilab olindi:

- umuminsoniy qadriyatlar va milliy madaniyat asoslarini e'tiborda tutgan holda ta'lim-tarbiya mazmunini milliy mafkura, mustaqil Vatan tuyg'usi asosida o'zgartirish va takomillashtirish;
- ta'lim samaradorligini tinmay oshira borib, jahon andozalari darajasiga olib chiqish;

- variativ o'quv rejaları, dasturlar, darsliklar yaratish;
- bilimdonlik va iste'dodlarni qo'llab-kuvvatlash;
- ilg'or tajribalarga, ijodkor ustozlar tajribasiga suyanish;
- sinov ishlari olib borish, ta'lim-tarbiyada ilm-fan, texnika yutuqlariga suyanish;
- ta'lim-tarbiyada bosh islohotchi bo'lgan o'qituvchi, tarbiyachilarning yangi avlodini tayyorlashga kirishish;
- ta'lim muassasalarining moddiy-texnik asosini mustahkamlash, ta'limni kompyuterlashtirish, o'quv jarayoniga yangi pedagogik texnologiyani olib kirish;
- ta'lim tizimini, boshqaruv faoliyatini takomillashtirish;
- isloh g'oyalarini iloji boricha viloyat, tuman, maktab pedagogik jamoalariga tezroq etkazish, singdirish, amalga oshirish;
- islohnı bosqichma-bosqich, mavjud, o'zini oqlagan uslublardan voz kechmagan holda amalga oshirib borish.

O'zbekiston mustaqil bo'lgandan buyon respublikada ta'lim tizimi 1992 yilda qabul qilingan «Ta'lim to'g'risida»gi qonun quyidagi strategiyaga muvofiq ishlab chiqildi:

- ta'limning uzluksiz bo'lishi;
- ta'limni kompleks ravishda uyushtirish;
- ta'limni demokratiyalashtirish va insonparvar-lashtirish;
- ta'lim tizimini fan sohalari bilan integra-tsiyalashtirish;
- umumiy o'rta ta'lim negizida yoshlarni maxsus bilim yurtlarida o'qishga, mutaxassislikka tayyorlash. Respublikada amalga oshirilgan uzluksiz ta'lim tizimi barcha ta'lim bosqichlari — maktabgacha tarbiya va boshlang'ich, tayanch bosqichlari, o'rta va hunar maktablari, o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlari, maktabgacha tarbiya muassasalari, malaka oshirish institutlari o'rtasida uzviylik bo'lishida, ta'limni ilm-fan yutuqlari bilan bog'liq holda tashkil etishda muhim omil bo'ldi. Bolalarni oilada bog'chaga, bog'chadan maktabga o'qishga tayyorlash, umumiy o'rta ta'lim negizida o'quvchilarni maxsus bilim yurtlarida mutaxassislikka tayyorlashda jiddiy yutuqlarga erishildi. Uzluksiz ta'lim tizimi barcha ta'lim bosqichlarining istiqbolli bo'lishiga, ta'limni demokratiyalashtirish va insonparvarlashtirishga, ta'limni mehnat tarbiyasi bilan bog'liq holda olib borishga, o'quv fanlarni integratsiyalashtirishga yordam berdi.

Tarbiyaga kompleks yondashish bilan aqliy, mehnat, axloqiy, nafosat va jismoniy tarbiyalaya o'rtasidagi uzviylik mustahkamlandi, o'quvchilar hayotni kengroq tasavvur eta boshladilar. Kompleks printsipi tarbiyaning, o'quvchilar faoliyatining mazmunli bo'lishini, ta'lim vazifalarini ham kompleks ravishda amalga oshirishni ta'minladi. Bu printsip maktab, oila, jamoatchilik o'rtasidagi aloqani mustahkamlash, bu aloqaning pedagogik jihatini kasb etishida, yoshlarni anglash, mustaqil fikrlash faoliyati va axloq-odobli bo'lib o'sishida ijobiy ahamiyatga ega bo'ldi.

Tarbiyada kompleks printsipni qo'llash o'quv yurtlari, ta'lim muassasalaridagi barcha tarbiyaviy ishlar hamda, tarbiya jarayonida vazifa, maqsad, mazmun, usul, shakl, vosita, natijalarning o'zaro aloqada bo'lishini ta'minladi.

Ta'lim va tarbiya mazmuni, shakl va usullari bu sohada erishilgan ilg'or tajribalar asosida ishlab chiqildi, bunda ta'limning jahon standarti darajasida bo'lishi nazarda tutildi.

Davlat standarti va kontseptsiyalar asosida yaratilgan dastur va darsliklarda, ayniqsa, ijtimoiy fanlarga doir barcha dastur va darsliklarda milliy va umuminsoniy qadriyatlar o'z aksini topdi.

Ma'lumki, istiqlol mafkurasining asoslarini yaratish, avvalo, ta'lim-tarbiya zamini bo'lgan oila va maktabgacha tarbiya muassasalaridan boshlanadi. Ularda tarbiyalanayotgan va maktabda o'qiyotgan bolalar Vatan, jamiyat, xalq haqida muayyan tasavvurga ega bo'lishlari, ularning qalbida Vatan tuyg'usi, ulug' allomalarimiz va ular qoldirgan ma'naviy meroslar bilan faxrlanish hissi shakllanishi, rivoj topishi kerak.

V — IX sinflarda ma'naviy qadriyatlarni shakllantirishga samarali ta'sir ko'rsatuvchi san'at turi bo'lgan adabiyotni o'qitishda SOG'LOM e'tiqodli, milliy va umumbashariy qadriyatlarini angelaydigan, axloqan barkamol shaxsni shakllantirish asosiy maqsad qilib qo'yildi. O'quvchilarda adabiyotga havas, mehr uyg'otish, badiiy asarlarni o'qib, uni tahlil qila oladigan, o'z fikrini og'zaki va yozma ravishda to'g'ri, erkin ifodalay oladigan qilib tarbiyalash orqali amalga oshirilmoqda.

Keyingi yillarda respublikamizda ochilgan litsey, gimnaziyalarda va ayrim umumiy maktablarda tashkil etilgan pedagogikadan ixtisoslashtirilgan kurslarda Vatan tarixi va madaniyatini, o'rganish va tadqiq etish asosiy vazifa qilib qo'yildi. Shunga ko'ra, hozirgi kunda pedagogikadan milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida darslik, qo'llanmalar yaratishga kirishildi. Bu ishda o'quvchi va talabalar hamda bo'lg'usi o'qituvchilarning umumiy madaniyati va ma'naviyatini, pedagogik bilim va pedagogik madaniyatini, pedagogik tafakkurini o'stirish asosiy maqsad qilib qo'yildi. Bu maqsad pedagogik fikrlashga doir bilim va diniy-axloqiy, tarbiyaviy g'oyalar umumbashariy va milliy-madaniy qadriyatlarni puxta o'rganish bilan amalga oshirilmoqda.

O'zbek tiliga davlat maqomi berilishi bilan ona tilini chuqur o'rganish — maktab va boshqa o'quv yurtlari ta'limining asosi qilib qo'yildi. Ona tilida beriladigan bilimlarni o'zlashtirish jarayonida o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini o'stirish; ularda ona tilidan ko'nikma va malakalarini shakllantirish, ularni o'zbek adabiy tilining yozma va og'zaki shaklini puxta o'zlashtirgan madaniyatli va savodli qilib etishtirish nazarda tutildi.

Ta'limda test usuli qo'llandi, iqtidorli bolalarni aniqlashga, o'qitishga alohida ahamiyat berilmoqda.. Mingdan ortiq iqtidorli bolalar Amerika, Angliya, Shvetsiya va Turkiyada ta'lim olib, mustaqil respublikamiz xalq xo'jaligi uchun zarur bo'lgan bilim va kasblarni egallamoqdalar.

Ma'lumki, pedagogika tarixi ham boshqa xalqlar, mamlakatlar pedagogika tarixi bilan aloqada rivojlandi va rivojlanmoqda. Shu sababdan hozir Markaziy Osiyo pedagogika tarixini tadqiq etishda Xorijiy Sharq va Evropa mamlakatlari ta'lim tizimi ham o'rganilmoqda. Bu sohada respublika fan va texnika qo'mitasining «Milliy ruh», «Qadriyat» nomidagi va O'zbekiston Respublikasi oliy

o'quv yurtlari uchun ilg'or pedagogik qo'llanmalar va o'quv darsliklarini ishlab chiqish bo'yicha uyushtirgan tanlovlari bu sohada muhim ahamiyat kasb etdi.

T. N. Qori-Niyoziy nomidagi pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti olimlarining ana shu tanlov asosida respublikada taniqli faylasuf, tarixchi va adabiyotshunos, pedagog va islomshunos olimlar va shu soha tadqiqotchilari bilan hamkorlikda «O'rta Osiyoda pedagogik fikr **taraqqiyotidan** lavhalar» nomli qo'llanma va «Pedagogika tarixi» darsligini yaratdilar. Endilikda o'quvchi va talabalar Rossiya va G'arbiy Evropa pedagogika tarixidan iborat bo'lgan «Pedagogika tarixi»ni emas, balki Markaziy Osiyo ulug' mutafakkirlarining pedagogik qarashlari va nazariyalari tadqiq etilgan yangi darslik bo'yicha yangicha pedagogik bilimni egallaydilar.

O'zbekiston respublika vazirlar mahkamasi huzurida Oliy attestatsiya komissiyasining tashkil etilishi — mustaqillikning muhim timsolidir. Bu Oliy attestatsiya komissiyasi o'z zimmasiga yuklangan ulkan vazifalarni, ya'ni «yuqori malakali ilmiy va ilmiy-pedagogik xodimlar tayyorlash yangi tizimini shakllantirish, ularni respublika ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy taraqqiyotining ustivor muammolarini hal qilishga yo'naltirish, ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarni davlat yo'li bilan ekspertiza qilishni ta'minlash bilan etuk ilmiy-pedagogik kadrlar etishtirishga samarali ta'sir ko'rsatmoqda.

Oliy pedagogika o'quv yurtlarida ilmiy daraja beruvchi ixtisoslashtirilgan kengash tashkil etilishi bilan respublikamizda pedagogika tarixi va nazariyasi, fanlarni o'qitish usullari bo'yicha doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalarini o'zbek tilida, turli millat vakillarining o'z ona tillarida himoya qilishga keng imkoniyat yaratildi, bu kengashlar milliy pedagog olimlar safining o'sishida muhim omil bo'lmoqda. Bu tadbir respublikada sifatli, ilmiy-pedagogik asarlar, o'quv-metodik qo'llanmalarining yaratilishiga, maktabgacha tarbiya muassasalarida, umumiy o'rta maktablarda, o'rta va maxsus oliy o'quv yurtlarida ta'lim-tarbiyaning yuksak saviyada bo'lishiga, ta'lim tizimi mazmunining takomillashuviga samarali ta'sir ko'rsatmoqda.

Rivojlangan mamlakatlarning tajribasi shuni ko'rsatadiki, qayerda ta'lim va tarbiyaga e'tibor katta bo'lsa, o'sha erda taraqqiyot, yuksalish bor. Shuning uchun respublikamizning istiqboli uzluksiz ta'limni qay darajada amalga oshirilishiga bog'liq. Uzluksiz ta'lim barcha fuqarolarni tinimsiz o'qishini, izlanishini, shaxsni yuqori malakali bo'lishini talab etadi.

Uzluksiz ta'lim tizimining hayotga tatbiq etilishi respublikada xalq ta'limi faoliyatini tubdan o'zgartiradi xamda respublikaning yuksalish-iqtisodiy rivojiga muhim hissa qo'shadi. Uzluksiz pedagogik ta'lim tizimida pedagogik xodimlar tayyorlash pog'onali ravishda amalga oshiriladi.

Hozir Uzbekiston Respublikasida hammasi bo'lib 8963 ta umumiy ta'lim maktablari ishlab turibdi. Mazkur maktablarda 429500 dan ortiq o'qituvchi 4 mln 766600 dan ortiq o'quvchilarga ta'lim-tarbiya bermoqdalar. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi ta'limdagi yangicha mazmunni rivojlantirishni astoydil rag'batlantirmoqda, yangi pedagogik texnologiyani barpo qilmoq uchun tinimsiz izlanishlar olib bormoqda. Respublikaning barcha viloyatlarida tajriba-sinov

maydonchalari barpo etilgan. Hozirda bunday maydonlarning soni 100 dan oshib ketdi. Ularda yangi-yangi pedagogik g'oyalar amaliyotga tatbiq etilmoqda.

Umumiy ta'lim maktablari respublikamiz xalq ta'limi tizimida muhim va salmoqli o'rinni egallagan o'quv maskanidir. Mazkur maskan zimmasidagi vazifalarni hal etishda, uni hozirgi kunning talablari darajasida, ilmiy asosda to'g'ri boshqarish ishlarini amalga oshirishda, oliy ma'lumotli peda-goglarni tayyorlashda, uzluksiz ta'lim tizimining etakchi bo'g'ini hisoblangan oliy o'quv yurtlari muhim ahamiyat kasb etadi. Respublikada oliy ta'lim universitetlarda, institutlarda va boshqa oliy ta'limga daxldor muassasalarda amalga oshiriladi.

Oliy o'quv yurtlariga qabul O'zbekiston Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan qoidalarga muvofiq, pedagogika oliy o'quv yurtlariga qabul esa O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan Qoida bo'yicha amalga oshiriladi. 1993 yildan respublikaning barcha oliy o'quv yurtlariga test sinovlari orqali abituriientlar qabul qilinmoqda.

Ular oliy o'quv yurtlarida ikki bosqichli taxlil asosida «bakalavr» va «magistr» darajalarini egallashlari mumkin.

1992-1993 o'quv yilida respublika oliy o'quv yurtlariga 44 ming abituriient kabul etilgan bo'lsa, 60 mingdan ortiq mutaxassis xalq xo'jaligiga tayyorlab berildi.

Uzluksiz pedagogika ta'limning ajralmas qismlaridan biri - ilmiy, ilmiy-pedagogik xodimlarni tayyorlash, aspiranturada va doktoranturada o'qitish - ta'limning yuqori (oliy o'quv yurtidan so'ng) bosqichlari hisoblanadi.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilgan uzluksiz pedagogik ta'limning ustuvor yo'nalishlari «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunda belgilangan qoidalar asosida hayotga tatbiq etildi va amaliyotga keng joriy qilindi.

O'tkazilgan isloxotlar, samarali tajribalar respublikada ta'limning davlat standartlarini ishlab chiqish va tatbiq etish davr talabi ekanligi, bu ishni kechiktirmay amalga oshirish zarurligini taqozo etadi. Chunki ta'lim standartlari shaxs ma'lumotlilikining davlat me'yorlarini ta'minlaydi. Ta'lim standartlari vositasida talabdagi ma'lumotlilik darajasi muvozanati saqlanadi, rivojlantiriladi, jamiyat taraqqiyoti istiqbollari muvofiqligi ta'minlanadi.

Davlat ta'lim standartlari o'quv jarayonini qat'iy chegaralangan qolipga solib qo'ymaydi, balki, aksincha pedagogik ijodkorlikka, ta'lim mazmunining yagona negizi atrofida turli-tuman tabaqalashtirilgan dasturlar, o'quv qo'llanmalari, o'qitish uslubiyatlariga katta yo'l ochadi.

Respublikamizda ta'lim tizimi hozirgi vaqtda tiklanish, takomillashuv, mustaqillik sharoitida shakllanish jarayonini boshdan kechirmoqda. Bunda madaniy-ma'rifiy merosimizdan, xorijiy davlatlar ilg'or ish tajribalaridan samarali foydalanish davom ettirilib, ta'lim sifatini oshirish, uni bosqichma-bosqich jahondagi rivojlangan davlatlar darajasiga etkazish; o'quvchilar qobiliyat, ehtiyojlarini hisobga olgan holda tabaqalashtirilgan ta'limni rivojlantirish; yoshlarni istiklol g'oyalari asosida tarbiyalash; ta'lim muassasalarini yangi maqsad hamda vazifalarni amalga oshirishga qodir pedagog xodimlar bilan ta'minlash kabi dolzarb masalalarni hal etish ko'zda tutiladi.

Respublikamizda lotin yozuvi asosidagi alifboning joriy etilishi ta'limi muassasalari zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Har qanday mamlakat va xalq taqdiri, uning kelajagi, taraqqiyotining asosi elat va millatlarning tili, yozuvi va ta'lim-tarbiya maskani bo'lgan maktab bilan bog'liqdir. Shu sababli o'zbek milliy maktabini yaratish va uning asosida hozirgi kunda xalq ta'limi tizimida to'planib kolgan muammolarni ijobiy hal etish bugungi kunning kechiktirib bo'lmaydigan vazifasidir.

Umuman, mustaqillik tufayli «... biz umumbashariy qadriyatlarning eng birinchi asosi bo'lgan xalq insonparvarligi chashmalaridan qadamma-qadam bahramand bo'lmoqdamiz» (I. A. Karimov). Shu bahramandlik tufayli yosh avlodda mehnatsevarlik, insonparvarlik, vatanparvarlik, iymon-e'tiqodlik, halollik, axloqiy poklik, odillik, bilimlilik, onglilik, do'stlik, bay-nalmilallik kabi insoniy fazilatlar shakllanib, rivoj topmoqda, o'z ona tili, milliy urf-odatlar, diyorimizning tabiat boyliklari bilan faxrlanish tuyg'usi kamol topmoqda.

**2. VIII-XIII asrlarda O'rta Osiyoda shakllangan, zamonaviy kasbiy ta'lim tizimining fundamental asoslari. Ular barcha avlod olimlari, mutafakkirlari, pedagoglari, ishlab chiqarish va xalq hunarmandchilik ustalari tajribasi va rivojlanishini aks etadi. O'rta Osiyo mutafakkir olimlari kasbiy ta'lim haqida. Movorounnahr madaniyati rivojlanishi davrida, X-XII va XIV-XVI asrlarda kasbiy ta'lim. Turkistonda VIII-XIII asrlarda jamiyat ta'lim asosi bo'lgan barcha yangi g'oyalar, madaniyat va fanga ochiq va jo'shqing bo'lgan davrda kasbiy ta'lim tajribasi.**

V asr oxiriga kelib Rim imperiyasi qulaydi. SHundan so'ng mamlakatda siyosiy-iqtisodiy tushkunlik Yuz beradi. O'rta asrda Evropada ijti-moiy, madaniy taraqqiyot, din ta'siri nihoyatda kuchaydi. Din ilm-fan va ma'naviyat taraqqiyotida yangi bir ijobiy ta'sir bo'ldi. Ayniqsa, VII-XIII asrlarda SHarqda aniq fanlarning taraqqiyotida katta Yutuqlarga erishildi. Madaniyat va ma'rifat markazlaridan biri O'rta Osiyoda yashagan xalqlar juda qadim zamonlardan beri Xitoy, Hindiston bilan savdo, siyosiy va madaniy aloqa qilib turar edilar.

Osiyoda fan va madaniyat juda og'ir tarixiy sharoitda – xalq ommasining mahalliy va chet el zolimlariga qarshi olib borgan kurashlari sharoitida taraqqiy etdi.

XII asr oxiri, XIII asrning birinchi yarmida arablar juda katta territoriyaning - Hindistonning SHimoliy G'arbidan tortib, Afrikaning shimoliy qirg'oqlarigacha bo'lgan erlarni bosib oldilar va katta davlat – xalifalik tuzdilar. Bu xalifa-likning poytaxti Bog'dod shahri edi. Arablar hukmronligining birinchi davrlarida bosib olingan erlardagi xalqlarning madaniy meroslarini va fan arboblari yo'qotish siyosati Yurgizildi. O'rta Osiyo xalqlarining fan va madaniyatini arab ko'rsatmalari asosida rivojlantirildi.

IX asr oxirlariga kelib, sinfiy kurashlar ma'lum xalqlar-ning ozodlik harakatlar tufayli O'rta Osiyoda mahalliy feodal aristokratlaridan chiqqan Somoniylar (874-999 yy.) hukmronligi o'rnatildi. Somoniylar davlatining poytaxti – Buxoro edi. O'rta Osiyo shaharlarida hunarmandchilik, savdo-sotiq va madaniy aloqa-lar, insonlarning ma'naviyati hamda salomatligi olimlarni ijodiy izlanishlarga yo'naltirdi.

Savdo va tashqi aloqalarni mustahkamlash uchun karvonlar-ning kechalari cho'llarda kezishlari va ularni adashmay Yurishlarida sharq, g'arb, shimol va janub tomonlarini bilish, Yulduzlardan aniqlash, qutb Yulduzidan yo'lni aniqlash kabi ehtiyojlar tug'ildi. Natijada astronomiya, matematika, tibbiyot hamda ijtimoiy fanlar rivojlana boshladi. Bu fanlarni markazlashtirish maqsadida Ma'mun hukmronligi davrida Bog'dod shahrida "Dorul-Hukamo" ("Donishmandlar uyi") tashkil etildi. Uning huzurida kutubxona va observatoriya tashkil etildi. Bu "Donishmandlar uyi"ga bir qancha mamlakatlardan iste'dodli olimlar chaqirildi. Bu ilm maskanlarida Ma'mun buyrug'iga binoan Xorazmdan Muhammad ibn Muso Xorazmiy ham taklif qilindi. O'rta asrlarda fan va madaniyat taraqqiyotida al-Xorazmiy, al-Forobiy, al-Beruniy, Ibn Sino, Ahmad bin Muhammad Farg'oni, Umar Hayom va boshqalar faol qatnashdilar.

IX-XII asrlarda O'rta Osiyoda arab istilosidan so'ng juda ham ko'r shahar va qishloqlar vayrona holda bo'lib, xalqlarni islom dinini o'rganishga va unga amal qilishga da'vat etilar edi. Beruniyning "Osorul boqiya..." asarida arab istilosidan so'nggi manzara shunday ta'riflangan, "Qutayba Xorazm yozuvini, rivoyat-larini yaxshi bilgan, xorazmliklardagi mavjud ilmlarni o'rgatuv-chi kishilarni qiyratgan va ularga turli yo'sinda azob bergay". Qutayba Xorazm hattotlarini yo'qotdi, ruhoniylarni qirdi, ular-ning kitoblarini va o'rama xatlarini o'tda kuydirdi.<sup>1</sup> Bunday qabih ishlar xalq madaniyatiga bir zanjir bo'lib qolmadi. Asta-sekin O'rta Osiyoda madaniy hayot vaziyati vujudga keldi. Ayniqsa, Xuroson va Movarounnahrda madaniy hayotdagi quyidagi o'zgarish-lar ro'y berdi.

Arab tili faqat musulmon aqidalariga mos bo'lib qolmay, balki fors, xorazm, so'g'd aslzodalari doirasida ham qo'llana boshlandi. Olimlar arab grafikasini o'zlashtirib fors-tojik tillarida yoza boshladilar. Ilm-fanni o'rganishga alohida e'tibor berildi. Buxoro amiri saroyida kutubxonaning tashkil etilishi madaniy hayotni Yuksalishiga yordam berdi.

### **Abu Abdulloh al-Xorazmiyning pedagogik qarashlari**

Buyuk olim, al-jabr fanining otasi Abu Abdulloh Muhammad Ibn YUsof al-Xorazmiy 783 yilda Xorazmning Zamaxshar shahrida tug'ilgan. Uning yoshligi va ilm olishi asosan Zamaxshar va Qiyot shaharlarida o'tgan. Xorazmiy Abu Bakr ar-Roziydan tabobat va kimyo, Abu Nasr Forobiydan falsafa, Abbos ibn Muhammad Ibn Kasir al-Farg'oniyaning ilmi nujum, geografiya, riyoziyot va boshqa fanlarni o'rgangan. U Xurosonda yashab vazir Abdul Xasan al-Utbiy huzurida kotib bo'lib xizmat qilgan. O'sha davr olim ijodining cho'qqisi edi.

Xorazmiyning falsafiy dunyoqarashi o'sha davrda keng tarqalgan qadimgi Yunon falsafa va madaniyatiga mansub edi. Undan dunyoga munosabatning shakllanishida sharq faylasuflari Yoqub ibn Ishoq, al-Kindiy, Forobiy va Roziyning ta'siri kuchli bo'lgan.

Xorazmiy "Al-jabr va al muqobala" ("Tenglamalar va qarshi-lantirish"), "Hisob al-hind" ("Hind hisobi"), "Kitob surat al-arz" ("Er surati haqida kitob"),

---

<sup>1</sup>O'zbekiston xalqlari tarixi, Toshkent, "Fan" 1992, 99-bet.

“Kitob at-tarix” (“Tarix kitobi”), “Kitob al-amal bir usturlabat” (“Usturlab – Yulduzlar-ning harakatini kuzatish”) nomli asarlar yaratgan.

Xorazmiy o'zining falsafiy-ma'rifiy qarashlarini “Mufotihal ulum” (“Ilmlarning kalitlari”) nomli asarida bayon etgan. Ana shu asarni akademik I.YU.Krachkovskiy “o'sha davr bilimlarining barcha sohalarini o'z ichiga oluvchi izohli termino-logik lug'at bo'lib, o'z mohiyatiga ko'ra juda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega” deb ta'riflagan.

G.Sarbon mazkur asarni o'rta asrlardagi fanlarni va mada-niyatni o'rganish uchun asosiy manbalardan biri deb hisoblangan.

Xorazmiy o'zining “Al-jabr val muqobala” nomli asari bilan matematika faniga asos soldi. SHu bilan birga u “Astrono-miya jadvallai”, “Quyosh soatlari to'g'risida” kabi risolalar ham yozgan. Xorazmiyning ta'lim borasidagi fikrlari har bir fan-ning qonun-qoidalarini va ularni o'qitish yo'llarini asoslagani bilan muhimdir. Bu haqda olimning o'zi shunday deb yozgan: “Men arifmetikaning sodda va murakkab masalalarini o'z ichiga olgan “Al-jabr val muqobala” kitobini yozdim. Chunki vasiyatnoma yozish, huquq ishlari, savdo-sotiq, ariq qazish, geometrik hisoblashlar uchun juda zarur deb hisobladim”.

Xorazmiyning yirik asari “Kitob al-Muxtasar”. Bu asar uch bo'limdan iboratdir.

1-bo'lim – algebra masalalariga bag'ishlanadi.

2-bo'lim – geometriya o'rganishga doir masalalar va algebra-ning ba'zi bir tadbirlari bayon etilgan.

3-bo'limi – meros bo'lish hisoblashlariga bag'ishlangan.

Bu kitob asosan, 1 va 2-darajali tenglamalarni “Al-jabr va al-muqobala” metodi bilan echishga bag'ishlanadi. Bu ikkala usul-dan foydalanib, 1-darajali tenglamalarning echishi ko'rsatilgan va bunga quyidagicha ta'rif berilgan: tenglamalarni echish uchun ishlatiladigan amallar “al-jabr” va “al-muqobala” deb aytiladi.

Al-Xorazmiyning umuman fan va madaniyat tarixida juda katta ahamiyat kasb etgan asari arifmetikadir. Bu kitob orqali o'nli sanoq tartibi O'rta SHarq mamlakatlariga, Evropaga tarqala boshlagan. Bu sanoq tartibi o'sha davrda hukm surayotgan harfli sanoq tartiblar, rim sanoq tartibiga nisbatan juda mukammallashtirilgan bo'lib, turmush ehtiyojlari uchun tez orada qabul qilina boshlagan qulay sanoq tartibi edi.

Xorazmiy o'zining arifmetikasida hindlarning to'qqiz raqami 1,2,3,4,5,6,7,8,9 va nol' yordami, ya'ni o'nli pozision tartib bilan istalgan 0 son va qisqacha ifodalanishini bayon etish maqsa-dida yozgan edi. SHu bilan birga sonlarni ko'paytirish, qo'shish va ayirish hamda bo'lishni oson yo'llari qayd qilinadi.

Xorazmiyning arifmetikasi matematika va sanoq tartibi tarixida yangi bir davr ochdi. Xorazmiy IX asrning 20-yillarida “Zij” (“Astronomik jadvallar”)ni tuzib chiqdi. Bu asar matni arab tiliga tarjima qilinib, fan olamida foydalanilmoqda.

Asar SHarq va G'arbda astronomiya fanidan asosiy asar bo'lib xizmat qildi. Xorazmiy “Torolyabiya” (“Asturlab”) va “Quyosh soati” haqida ham asarlar yozgan edi. Xorazmiy o'rta osiyolik olimlar Muhammad Kosir, Farg'oniy, Ahmad Marvodiy kabilar hamkorligida Meridian yoyini hisoblashda ilmiy izlanishlar olib borganlar.

Ularning ta'limotiga ko'ra, meridianning bir gradusli yoyi uzunligini qayta-qayta o'lchash vositasida 111815 m ekanligi topilgan.

#### **ABU NASR FOROBIY (873-950)**

SHarq mamlakatlarida Forobiyni ulug'lab "Al Muallim as soniy", ya'ni Aristotel-dan keyingi ikkinchi muallim deb ataganlar.

Buyuk olimga bunday baho berish bejiz emas, albatta, u fanni hamma sohalarini o'rganishga alohida e'tibor berdi. Tarixshunos olimlarning taxminicha, Forobiy dunyo tillaridan 70 tasini bilgan. Til inson kamolotini aqliy etukligining asosi bo'lgan-ligi sababli, u fanlarni tartiblashda tilni eng birinchi fanlar qatoriga qo'ydi. U har bir inson ahliga murojaat qilib, ayniqsa ota-ona va ustoz-murabbiylarga qarata shunday degan edi: "qanday qilib ta'lim berish yoki ta'lim olish, qanday qilib o'z fikrini ifodalash, bayon qilish, so'rash va javob berish masalasiga kelganimizda, fanlar ichidagi eng birinchi fan – til haqidagi fandir... ikkinchi fan grammatika... uchinchi fan mantiq, to'rtinchi fan poetikadir, deb tasdiqlayman". Forobiyning til va uni o'rganish-dagi g'oyalarni amalga oshirish mustaqil O'zbekistonni butun dunyo bilan hamjihat bo'lgan davrida ayniqsa zarurdir. Forobiy ijodiyoti jarayonida juda ko'p asarlar yaratdi. Uni ijodini o'rganish bilan mashg'ul bo'lgan tadqiqotchilar uning 130 ta asar yozganligini ta'kidlaydilar.

Ularning 17 tasi turli olimlarning falsafiy asarlariga yozilgan sharh, 60 tasi alohida kitob, 5 tasi bir qancha maqolalarni o'z ichiga olgan majmualar hisoblanadi.

Uni "Aflotun qonunlarining mohiyati", "Siyosat va madaniyat", "Nufuzli shahar aholisining ahloqiy qarashlari", "Ilmlar majmuasi" kabi yirik asarlari mavjud.

Forobiyning har bir asaridagi asosiy g'oya inson kamoloti uni Yuksak ahloqiyligidir. Uning fikricha aqliy bilimni peshlash, ahloqiy barkamollikni tarbiyalaydi: inson Yuksak kamolotga erishuv yo'lida harakat qilganidek, aqliy bilimga ham harakat qilsa, hech shubhasiz, o'zi intilayotgan so'nggi darajadagi baxt saodatga erishadi. Baxt saodat insonga osonlikcha berilmaydi. Baxt va mazmunli hayot uchun, dastlab, yoshligidan boshlab ilm-hikmatni o'rganmog'i lozim. Buning uchun salomatligini, odob-ahloqli bo'lishi, so'zining uddasidan chiqishi, yomon ishlardan o'zini saqlashi, har qanday xiyonat, makr-hiyladan uzoq Yurishini ta'kidlaydi.

Forobiyning fikricha baxt bu ezgulikdir. Insoniy ezgulik-lar xayrli narsalarga, go'zallik, bilimdonlik, shu bilan birga yaxshilik bilan bog'liq bo'lgan hamma fazilatlarni kiritgan edi. Forobiy inson kamoloti uchun hamjihat jamoat, ahloqiy munosabatlari sog'lom bo'lgan oila zarur deb hisoblaydi. Uning fikricha, "Har bir inson o'z tabiati bilan shunday tuzilganki, u yashashi, oliy darajadagi etuklikka erishmog'i uchun ko'p narsalarga muhtoj bo'ladi. U bir o'zi bunday narsalarni qo'lga kiritmaydi va ularga ega bo'lishi uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj sezadi".

Aflotun har bir jamoada guruh xoini yoki oilada ota-onani mensimaydigan kimsalarni jazolash kerak degan edi. Forobiy bu g'oyalarni rivojlantirib, bunday noqobil insonlarni jinoyatchi deb tushundi. Hokimiyat vakillari bunday odamlarni jinoyatiga qarab – tayoq bilan urib yoki jarima solishlari kerak degan edi.

Forobiyning ijtimoiy-falsafiy konsepsiyasiga ko'ra, olam yagona mavjudotdan iborat. Olloh hamma narsaning ibtidosi, barcha vujudlar undan emanasiya asosida kelib chiqadi, buning so'nggi pog'onasi materiyadir.

Forobiy o'zining falsafiy qarashlarida insonga bilim va tarbiya berishini asoslagan. U inson – aqlli mavjudot deyilganda, uning aqlli bo'lishga layoqatliligi, lekin yomon xatti-harakatlarga ham qobilligi tushunilishini ham uqtirgan. Insonlarga doimo bilim va tarbiya berishni zarur deb hisoblagan. Forobiy o'zining ideal jamoasida odamlarni turli belgilariga qarab guruhlariga bo'lgan. Kishilarning diniy maqsadiga emas, balki tabiiy xususiyatlariga, avvalo aqliy iqtidorlariga hamda ilmlarini o'rganish va hayotiy tajriba to'plash jarayonida orttirgan bilim va ko'nikmalariga katta ahamiyat bergan.

Forobiy falsafasida insonparvarlik g'oyalari alohida o'rin olgan. Uning fikricha, har qanday feodal zulm, urushlar bartaraf bo'lgan taqdirda hamma millatlar tinch, ozod, xushchaqchaq, baxtiyor hayot kechirishlari mumkin. Kishilar o'rtasida samimiy do'stlik, hamkorlik ularning kundalik hayotini mazmundor bo'lishiga yordam beradi.

#### **FOROBIYNING TA'LIM-TARBIYA HAQIDAGI FIKRLARI**

Forobiy zamonasining peshqadam bilimdoni sifatida tinimsiz ilm o'rgangan, ijod qilgan, ayni paytda muallimlik ham qilgan. Masalan, Abu Sirojiddindan astronomiya va matematikani o'rganib, unga mantiqdan dars bergan. Forobiy oliy madrasalarda talabalarni o'qitib, kamtarona hayot kechirgan. Forobiy o'qitishning mazmuni va qonun-qoidalarini o'zining amaliy faoliyatida sinab ko'rgan. U insonning baxt-saodatga erishishi uchun zarur bilimlarni o'rgana-digan fanlarni etika va siyosiy guruhlariga ajratgan. Etika – ahloqshunoslikdan iboratligini, siyosiy fanlar esa davlatshunoslik, psixologiya, pedagogika muammolarini o'z ichiga olishini, ana shunday bilimlarni o'rganish insonni xushahloq, sadoqatli, aqliy idrokli qilishini ta'kidlagan. Bilimsiz, o'z holicha yashab Yuravergan kishi oldiga qo'yilgan maqsadlariga erisha olmasligini uqtirgan. Forobiyning fikricha har bir shaxs munosib odam bo'lishi uchun unga ta'lim va tarbiya orqali esa kishilar bilan muloqotni, ahloqiy qadr-qimmatni va amaliy faoliyatni o'rganadi.

Forobiyning bolalarning fe'l-atvoriga qarab tarbiya jarayonida “qattiq” yoki “Yumshoq” usullardan foydalanish kerak, deb hisoblagan:

1. Tarbiyalanuvchilar o'qish va o'rganishga moyil bo'lsa, ta'lim- tarbiya jarayonida Yumshoq usul qo'llanadi;
2. Tarbiyalanuvchilar o'zboshimcha, itoatsiz bo'lishsa, qattiq usul qo'llanishi lozim.

Forobiy fanlarni tavsiflash bilan birga, ularni qanday o'rganish masalasiga alohida to'xtalgan. Uning fikricha, har bir fanni o'rganuvchi oldida o'zini shu ilmini o'zlashtirishga shayligi, so'ngra haqiqatni izlashi va o'zining salomatligiga, odob-ahloqiga jiddiy e'tibor berishi lozim. Kimki ilmu hikmatni o'rganishni istasa, bu ishni yoshligidan boshlashi, salomatligining yaxshi bo'lishiga intilishi, ahloqli, odobli bo'lishi, so'zining uddasidan chiqishi, yomon ishlardan saqlanishi, xiyonat va makr-hiylalardan uzoq Yurishi kerak. Forobiy didaktik qarashlarida ustoz-o'qituv-chining mas'uliyatini alohida ifodalaydi. Ustoz, - deydi u – shogirdlariga

qattiq zulm ham, haddan tashqari ko'ngilchanlik qilmasligi lozim, chunki ortiqcha zulm shogirdga ustozga nisbatan nafrat uyg'otadi, bordi-Yu ustoz ham Yumshoq bo'lsa, shogird uni mensimay qo'yadi va u beradigan bilimdan sovib ham qoladi.

Forobiyning ta'lim-tarbiya haqidagi g'oyalari avvalo Ollohni bilishga, insoniyat yaratgan ilmiy bilimlarni o'zlashti-rishga qaratilgan. U ta'lim-tarbiyaning vosita va usullarini asoslab bergan. Olimlar o'qitishga doir g'oyalari o'zidan keyingi asarlarida ta'lim-tarbiya va inson kamoloti xususida fikr-mulohazalarining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

O'rta asrning buyuk qomusiy olimi, beqiyos aql-zakovat sohibi Beruniy fanlarning va ijtimoiy hayotning juda ko'p jiddiy muammolarini to'g'ri hal qilib shular asosida juda ko'p ilmiy asarlar yaratgan ulkan donishmanddir. U falsafa, ijtimoiyot, tarix va boshqa fanlarning rivojlanishiga katta hissa qo'shgan.

Abu Rayhon ibn Ahmad Beruniy 973 yilda Markaziy Osiyoning yirik madaniyat markazi - Xorazmning Kot (hozirgi Beruniy shahri) atrofida tug'ildi. U o'z Yurtida tahsil ko'rgan. Bir necha tillarni va falsafa, falakiyot ilmi, matematika fanlarini mukammal o'rgangan, botanika, mineralogiya va boshqa tabiiy fanlarga ham qiziqqan. Beruniy Markaziy Osiyolik buyuk matematik va falakiyotshunos olim Abu Nasr Ibn Iroqni ustoz deb bilgan. U yoshlik chog'idanoq fanda, ayniqsa, falakiyot ilmida katta muvaffaqiyatlarga erishgan. Masalan, 16 yoshida mustaqil holda falakiyotshunoslikka oid kuzatishlar olib borgan va ma'lum natijaga erishgan. 21 yoshida esa o'zi yasagan asbob yordamida ekliztikaning ekvatorga og'ish burchagini aniqlagan.

995 yilda Kot shahri Gurgonj amiri Ma'mun I tomonidan bosib olindi. Xorazmda hukmronlik qilayotgan afrig'iylar sulola-si qulatilib, shahar vayron qilindi. Bunday sharoit Beruniyni vatanini tashlab ketishga majbur etgan. U panoh qidirib avval Rayga (hozirgi Tehron o'rnida), so'ngra Jurdonga boradi. Jurdon hokimi Qobus ibn Vashmgir Beruniyni olim sifatida g'oyat qadrlagan. Bir rivoyatga ko'ra, u Beruniyni katta mansabga taklif qilganida Beruniy bu mansab o'zini ilm-fandan chetlatib qo'yishini aytib, taklifni qabul qilmagan.

Jurjonda Beruniy o'zining mashhur "Al-osorul boqiya an il qurun ul holiya" nomli ("Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar") asarini yozadi. Unda Yunonlar, forslar, arablar, so'g'diylar, xorazmliklar va boshqa xalqlarning taqvim tizimi mufassal bayon qilingan. SHuningdek, falakiyot va matematikaga oid masalalarga ham katta e'tibor berilgan. Markaziy Osiyoning tarixi va madaniyati haqida qiziqarli ma'lumotlar keltirilgan.

1004 yilda Beruniy o'z vataniga qaytib, Urganchda ilm-fanga homiylik qilayotgan Xorazmshoh Ma'mun II (1009-1017) atrofida mashhur olimlar, jumladan, Sino, Beruniyning ustози Abu Nasr ibn Iroq, tabib Abu Sahl Masixiylar safiga qo'shiladi. Ular fanning turli sohalarida ish olib boradilar. Beruniy ana shu ilmiy doirada muhim rol o'ynagan. 1017 yilda Xorazm yirik feodal istilochi Mahmud G'aznaviy tomonidan bosib olindi. U qurol kuchi bilan yirik saltanat barpo qiladi, o'z poytaxti G'aznaga Xorazmshoh saroyidagi olimlar bilan birga Beruniyni ham olib ketadi.

Mahmud G'aznaviy o'z atrofida shoir, yozuvchi va olimlarni to'plab, ularni davlat homiyligiga oladi. Beruniy turmish ziddiyatlari va qiyinchiliklariga qaramay, ilmiy

izlanishlarini to'xtatmagan, fanning turli sohalari bo'yicha katta natijalarga erishgan.

To'xtovsiz urushlar natijasida Mahmud G'aznaviy SHimoliy Hindistonni bosib olib, uning aholisini qirg'in qildi. Beruniy bu harbiy Yurishlarda sultonga hamrohlik qilishga majbur bo'ldi. Buyuk olim ko'p yillar davomida Hindistonda bo'lib, uning tarixi, madaniyati va fanini o'rgandi. U qadimiy hind tili – sanskritni o'zlashtirib, shu tilga bir necha qadimgi Yunon mumtoz asarlarini, shu jumladan Evklidning “Negizlari” va Ptolemeyning “Almagest”ini, o'zining astrolyabiy haqidagi risolasini tarjima qilgan.

Beruniy hindlarning hayotini sinchkovlik bilan kuzatdi va ularning adabiyotini, madaniy boyligini mukammal o'rganib, “Hindiston” asarini yaratdi. Unda shu mamlakatning falsafasi, tarixi, geografiyasi, aholisining etnik tarkibi, urf-odati, e'tiqodlari haqida boy ma'lumotlar to'plangan. “Hindiston” butun o'rta asr fanidagi mislsiz asardir. SHu asar orqali Beruniy ko'z oldimizda faqat tarixchi, geograf, falakiyotshunos, lingvist va faylasuf olim sifatidigina emas, buyuk insonparvar pedagog irqiy va diniy xurofotlarga qarshi kurashgan ma'rifatparvar sifatida ham gavdalanadi.

Abu Rayhon Beruniy 1048 yilda vafot etdi. U o'zidan keyingi avlodlarga g'oyat boy ilmiy meros qoldirdi. O'rta asr arab tarix-chisi va geografi Yoqut Hamaviyning (XIII asr) aytishicha, Beruniy falakiyotshunoslik, mantiq, falsafa va boshqa fanlar bo'yicha yozgan asarlari nomlarining o'zi oltmish sahifani tashkil qilgan. Uning turli hajmdagi 150 ta asarlari hozirgi kunda aniqlangan, lekin shulardan 30 tasigina bizgacha etib kelgan. Ulug' olimning turli fanlarga doir asarlari orasida uning ijtimoiy ta'limot-lari, dunyoqarashi ifodalangan asarlari alohida o'rin tutadi. Maslan, “Kitob fi axborotil mubayyizot vilqaromita” (“Oq kiyimliklar va karamatiylar xabarlar haqida kitob”), “Kitobul maqolot val-arz vad-diyonot” (“Maqolalar, e'tiqodlar va dinlar haqida kitob”), “Geodeziya”, “Mineralogiya” nomlari bilan tarjima qilingan asarlari ham ana shular jumlasidandir.

#### **BERUNIYNING IJTIMOIIY- FALSAFIY QARASHLARI**

Beruniyning ijtimoiy-falsafiy qarashlari muayyan diniy cheklanishlariga qaramay, o'sha paytdagi hukmron islom aqidalaridan birmuncha Yuqori turardi. U fanning qaysi sohasiga murojaat etsa, uning mustaqil mavjudligini tushunishdan kelib chiqdi. Olim “Mineralogiya” nomli asarida inson er Yuzidagi barcha mavjudotlarga qaraganda mas'uliyatliroq vazifalarni bajarishi kerakligini quyidagicha ifodalaydi: “Inson tabiatning eng oliy zoti kamolotidir, inson zoti barcha hayvonlardan Yuqori turadi... Insonga katta sharaf ko'rsatilgan – unga aql-zakovat va kuch armug'on etilgan. SHu sababdan, insonning ma'naviy qiyofasi uning oldiga qo'yilgan vazifalarga mos bo'lishi uchun u Yuksak axloqli, bilimli, ma'rifatli bo'lmog'i darkor”.

Beruniyning ijtimoiy-falsafiy qarashida odam tanasidagi a'zolarining bir-biriga zidligi, ularda bir-biridan farq qiluvchi turli-tuman xatti-harakat va fe'l-atvor mavjudligi asoslangan. “Odam – deydi Beruniy, - tabiati jihatidan bir-biriga zid a'zolar qo'shilmasidan tarkib topgan murakkab tanaga ega va shuning uchun uning holati o'z fe'l-atvoriga ko'ra xilma-xil bo'ladi. Beruniyning fikricha, odamlarning

qiyofasi bir-biriga o'xshasa-da, ular ayni choqda bir-biridan farq qiladi. Bu farq ularning mijozi, fe'l-atvori va tabiiy xususiyatlarida namoyon bo'ladi".

Beruniy irqiy tafovutlaridan qat'i nazar, odamlar o'rtasi-dagi do'stlik va hamkorlikning kuchi insoniyat baxt-saodatining poydevori, deb hisobladi. U jamoatchilik, axloq-odob, go'zallik qoidalariga rioya qilish har bir odamning burchi ekanini ta'kidladi.

Beruniy o'z asarlarida ta'limning ko'rsatmali, izchil, maqsadga muvofiq bo'ilishi kerakligini, shaxsning barkamolligi, kishilar o'rtasidagi ijobiy axloqiy munosabatlar va olijanoblik kabi Yuksak fazilatlarining mohiyatini asoslab bergan.

Beruniy o'z dunyoqarashida xudoga ishonish har bir musulmon-ning vazifasi, deb tushungan va olijanob insonning burchi islom qonun-qoidalariga rioya etishdangina iborat emas, balki yaxshilik qilishdan ham iboratligini uqtirgan. "Yaxshilik qilish, - degan edi Beruniy, - umuman hammaga va xususan o'z qarindoshlariga zaiflik chog'ida – yaxshi istak bilan, iloji bo'lganda esa amaliy ish bilan yaxshilik tilashdir".

Beruniyning ijtimoiy-falsafiy qarashlarida kishilarga beg'araz xizmat qilib, yordam ko'rsatish, odamlar o'rtasida kelish-movchiliklarni vujudga keltiradigan pul va molu dunyo nafsini tiyish haqidagi g'oyalar alohida o'rin olgan.

Beruniy ilm-fanning muxlisi va buyuk homiysi sifatida mamlakatning obodonchiligi ilm-fanning gullashiga bog'liq, odamlarning baxti esa uning ma'rifatida deb bilgan. Ma'rifat dushmanlariga, yomon urf-odatlariga, adolatsizlikka qarshi bo'lgan.

Ibn Sinoning falsafiy qarashlarining takomillashuviga qadimgi grek olimlarining falsafiy ta'limotlari ijobiy ta'sir etgan. SHarqshunoslarning fikricha, Ibn Sino Arastuning butun asarlarini arab tiliga tarjima qilib, chuqur o'rganib, hatto uning ta'limotiga qarama-qarshi fikrlarni bayon etib, ularni asoslagan. Arastu ta'limoti-ning ba'zi jihatlarini tanqid ham qilgan.

Al-Kindi, Zakariyo, ar-Roziy, Forobiy, Beruniy kabi muta-fakkirlarning tabiiy-ilmiy va falsafiy qarashlari Ibn Sinoning dunyoqarashida muayyan rol o'ynagan.

Olimning falsafaga bag'ishlangan eng yirik va muhim asari "Kitobush-shifo"dir. Uni o'z davrining falsafiy qomusi desa bo'ladi. Bu asar inson ruhiyatini tarbiyalashga qaratilgan bo'lib, u 4 qismdan iborat: 1) mantiq; 2) tabiiy fanlar; 3) matematika; 4) metafizika yoki ilohiyot.

Uning "mantiq" qismi 9 ta bobdan iborat:

1. Mantiqqa muqaddima.
2. Al-Maqulot – kategoriyalar.
3. Al-iborot – iterprektasiya.
4. Al-Qiyos – sillogizm.
5. Al-Burhon – isbot, dalil.
6. Al-jadal – dialektika.
7. As-Safsata – sofistika.
8. Al-Xitoba – ritorika.

## 9. Ash-she'r – poetika<sup>2</sup>.

SHu tariqa “Kitob-ush-shifo”ning tabiiy fanlar qismi, 8 bobdan iborat bo'lib, bunda falsafaning asosiy qismi bo'lgan tabiatdagi hodisalarni, ya'ni osmon va olam, borliq va buzilish, ta'sir va ta'sirlanish, jon haqida, o'simliklar, hayvonlar to'g'risida ilmiy muammolarni asoslab bergan.

Kitobning 3-qismi, “Matematika” bo'lib, unga bag'ishlab 4 kitobni hadya etadi.

1. Geometriya ilmining o'qitish usullari.
2. Arifmetika.
3. Muzika.
4. Ilm al-falaq, ya'ni astrologiya.

Ibn Sino ilohiyot ilmiga bir asar bag'ishlagan edi.

Falsafaga oid ikkinchi asari “Kitobun najot” bo'lib, unda “Kitob-ush-shifo”ning mazmuni qisqacha bayon etilgan. Ibn Sino-ning eng so'nggi yirik falsafiy “al-Ishorat va-vat tanbihot” (“Ishoralar va tanbehlar”) nomli asarida falsafaning asosiy masalalari qisqa iboralarda ifodalangan.

Allomaning tibbiyot sohasidagi xizmatlari ayniqsa buyukdir. U eng qadimgi fanlardan biri – tibbiyotning ming yillik rivojini yakunlagan va uni yangi, Yuqori bosqichga ko'targan. Hatto bu fanning keyingi asrlarda erishgan qator Yutuqlarini ham oldindan ko'ra bilgan. Olimning bizgacha etib kelgan tibbiy asarlari: “Urjuza fit tibt”, (“Tibbiy urjuza”). Ibn Sino tabobat ilmini o'rganuvchilarga mo'ljallangan darslik sifatida tuzgan bu asarini she'r bilan yozgan. To'qqizta tabiiy doston shaklidagi bu asarning o'zbekcha tarjimasi 1972 yili Toshkentda bosilib chiqdi.

“Adviyat al-qalbiya” (“YUrak dorilari”), “Kitob al-qonun fittibt” (“Tib qonunlari kitobi”) va hokazolardan iborat.

“Tib qonunlari kitobi” ko'p o'tmay Ovro'paga ham etib keladi. XII asrdayoq Gerard uni arabchadan lotin tiliga tarjima qiladi va shundan keyin Ovro'pa universitetlarida tibbiyot fani Ibn Sinoning ana shu asari bo'yicha o'qitila boshlaydi. Mazkur asar o'zining asosiy qo'llanma va darslik sifatidagi qimmatini 500 yildan ortiqroq vaqtgacha saqlab qoldi.

### IBN SINO AXLOQIY TARBIYA HAQIDA

Ibn Sino axloq to'g'risidagi fikrlarida axloqiy fazilatlarni ulug'ladi va axloqiy illatlarni, yomonlikni keskin qoraladi. U insonlarning kundalik amaliy ishlaridagi eng zarur axloqiy munosabatlarga, kamtarlik, izzat-hurmat, jasurlik, to'g'rilik, sofdillik kabi xulqiy qoidalarga alohida e'tibor bergan. Insonning kishilar orasida o'zini tutishi, oila a'zolari-ning o'zaro aloqalari, jamiyat turli tabaqalarining munosabatlari Ibn Sino asarlarida maxsus yoritilgan<sup>3</sup>.

**“Tib qonuni”.** Bu asar 1012-1023 yillarda yozilgan. U 5 kitob-dan iborat bo'lib, unda bola tarbiyasiga ham alohida e'tibor berilgan. Har bir narsani bilish – uning sabablarini, aksar unda shunday sabablar bo'lsa, tub hamda asoslarini o'rganish bilan hosil bo'ladi...

<sup>2</sup> A.Irisov. Abu Ali Ibn Sino. “Fan” nashriyoti. 1980 y. 173-174-betlar.

<sup>3</sup> O'zbek sovet Enöiklopediyasi. I- tom, 60-bet.

Bolalarning chaqaloqlikdan o'sish yoshigacha bo'lgan mijozlari issiqligi jihatdan mo''tadilga yaqin bo'lib, ho'lligi jihatidan mo''tadildan ortiqdir...

Jismoniy mashq qilish ketma-ket chuqur nafas olishga majbur qiladigan ixtiyoriy harakatdir...

Normal suratda va o'z vaqtida jismoniy mashq bilan shug'ul-lanuvchi odam buzilgan xiltlar tufayli kelgan narsalarning davosiga muhtoj bo'lmaydi...

Etti omildan foydalanish sog'liqni saqlaydi:

1. Mijozni mo''tadil tutish.
2. Eyiladigan va ichiladigan narsalarni (ovqatni) tanlash.
3. Badanni tuklardan tozalash.
4. Burunga tortiladigan havoni etarli va yaxshi tortish.
5. Qaddi-qomatni to'g'ri tutish.
6. Kiyimlarni qulay kiyish.
7. Jismoniy va ruhiy harakatlarni normal qilish.

Qadimgi odamlar o'z hayotlarida har qanday zararli narsalar-ni iste'mol qilishdan saqlanganlar, ertalab faqat go'sht, kechqurun esa non iste'mol qilish bilan qanoatlanganlar...

Ovqatlanishda odatdagi rejimga rioya qilish kerak...

Ovozni yo'qotmaslik, nafas olish organini ishdan chiqar-maslik uchun, avvalo, o'qishni past ovoz bilan, keyin kuchli ovoz bilan o'qish ham uzoq davom etmasligi kerak...

Bola 6 yoshga to'lishi bilan uni o'qituvchi tarbiyasiga berish...

Yosh bolaga may ichirish lovullab yonib turgan olovga quruq o'tin tashlashdir...

Agar yomon xulq odatga kirib qolsa, u mijoz buzilishini keltirib chiqaradi. G'azab kuchli qizdiradi, qayg'u kuchli ozdiradi, hafsalasizlik nafsoniy quvvatni bo'shashtirib, mijozni beg'amlikka moyil qiladi. Xulqning mo''tadilligi natijasida ham nafs, ham badan sog'lom bo'ladi...

**3. Kasbiy ta'lim tizimida milliy islohotlar yo'nalishlarining mohiyati:  
ta'limning O'zbekiston xalqlari madaniyati bilan boyitilgan milliy tarix,  
milliy an'analar va odatlar bilan uzviy bog'liqligi, ta'limni milliy rivojlanish,  
boshqa xalqlar madaniyati va tarixiga hurmat uyg'otishning muhim vositasi  
sifatida tan olinishi.**

Mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq mamlakatimizda ma'naviyatni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning har bir nutqi va ma'ruzalari, maqola va asarlarida yuksak ma'naviyat kelajak poydevori ekanligi qayta-qayta ta'kidlanmoqda.

haqiqatan ham inson ma'naviyatini yuksaltirmasdan turib, jamiyatimiz turmush tarzida, mamlakatimiz Taraqqiyotida muvaffaqiyatlarga erishib bo'lmaydi. Isloqotlarning birinchi bosqichida milliy ma'naviyatni izga tushirib olish yo'lida ko'zlangan maqsad asosan amalga oshirildi va ikkinchi bosqichda amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalarga zamin qozirlandi. Ma'naviy parokandalik davriga barham berildi. Prezident Islom Karimov "O'zbekiston iqtisodiy isloqotlarni chuqurlashtirish yo'lida" kitobida ta'kidlaganidek: "Xalqning ma'naviyati va madaniyati, uning xaqiqiy tarixi va o'ziga xosligi qayta tiklanayotganligi jamiyatimizni yangilash va Taraqqiy ettirish yo'lidan

muvaffaqiyatli ravishda olqa siljitishda hal qiluvchi ta'bir joiz bo'lsa, belgilovchi ahamiyatga egadir"1.

#### 1-chizma. Ma'naviy madaniyat shakllanishining pedagogik xususiyati

Ma'naviy-madaniyat shakllanishining pedagogik xususiyatlari

Shaxsning ma'naviy madaniyatini hozirgi davrda insoniyat erishgan barcha yutuqlar asosida qurish

Ma'naviy madaniyatni shakllantirishda milliy va umuminsoniy qadriyatlar ustivor bo'lishiga erishish

Ma'naviy madaniyatni shakllantirishda milliylikdan yiroq va unga zid unsurlardan voz kechish

Mamlakatimizda bozor iqtisodiyoti sharoitida jamiyat va davlat o'zini ustqurmalariga munosabati turli ma'rifiy madaniy g'oyalar tushunchalar anglagan vatanparvarlik tuyg'usi bilan millat, xalq manfaatlarini, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy ravnaqi uchun ma'suliyatli ilmiy bilim, mehnat va kasb hunar ko'nikmalarini o'zida mujassam etgan ma'naviy madaniyatli shaxsni tarbiyalab etishtirishda manfaatdordir. Bunday shaxsni shakllantirishda asrlar davomida xalqimizning ma'naviy ehtiyoji, talabi asosida yaratilgan qadriyatlar muhim rol o'ynaydi.

Ma'lumki, uzluksiz ta'lim oldiga qo'yilgan eng muhim maqsad - umuminsoniy va milliy qadriyatlarga tayangan holda ta'lim tarbiyaning mazmunida insonparvarlik g'oyasini kuchaytirish, xalq chillashtirish va shular asosida yoshlarda ma'naviy madaniyatni shakllantirishdan iborat.

Mamlakatimizda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan isloqotlar demokratik ta'lim tizimiga asoslangan bo'lib, unda olg'a surilayotgan g'oyalar quyidagilardan iborat:

Shaxsning ma'naviy madaniyatini hozirgi davrda insoniyat erishgan barcha yutuqlar asosida qurish lozim;

Ma'naviy madaniyatni shakllantirishda milliy va umuminsoniy qadriyatlar ustivor bo'lishiga erishmoq lozim;

Ma'naviy madaniyatni shakllantirishda milliylikdan yiroq va unga zid unsurlardan voz kechmoq zarurdir.

Ma'naviyat tushunchasi faqat inson zotiga xos bo'lib, tabiatning gultoiji, takomili hisoblangan inson moqiyatining ajralmas qismidir.

Inson bioijtimoiy mavjudot bo'lib, u biologik moqiyat bilan bir qatorda ijtimoiy moqiyatga ham ega. Biologik moqiyatiga uning boshqa mavjudotlardan biologik tur sifatida ajralib turuvchi tik yurishi, tanasi yung bilan qoplanamaganligi, bosh va qo'llarining shakl-shamoyili, fikrlay olish qobiliyati hamda boshqa bir qator biologik ko'rsatkichlari kiradi.

Qur'oni Karimning "Baqara" surasida, insonni boshqa mavjudotlardan ajratib turuvchi sifatlar to'g'risida quyidagi oyatlar mavjud: "Va u zot Odamga barcha narsalarning ismlarini o'rgatdi. So'ngra ularni farishtalarga ro'baro' qilib dedi: "Agar xalifalikka biz qaqdormiz degan so'zlaringiz rost bo'lsa, mana bu narsalarning ismlarini Menga bildiring!"

Ular aytdilar: "Ey pok parvardigor, biz faqat Sen bildirgan narsalarnigina bilamiz. Albatta, Sen o'zing ilmu qikmat soqibisan". (Alloh): Ey Odam, bularga u narsalarning ismlarini bildir", dedi".<sup>1</sup>

Bu oyatlarning bizga Odamzod Tangrining Erdagi xalifasi ekani va qatto begunoq farishtalar ham unga ta'zim qilishlari ma'lum bo'lib turibdi.

Binobarin, ma'naviyatga quyidagi falsafiy ta'rifni bersa bo'ladi. Ma'naviyat – bu kishining egallagan foydali bilimlari amaliy qayotida sinalaverib, ko'nikma va malaka darajalaridan o'tgan va ruqiga singib, hayot tarzida aks etadigan ijobiy ijtimoiy sifatlar majmuidir.

Ma'naviyatga berilgan ushbu ta'rif ob'ektiv mavjud bo'lgan murakkab bir ijtimoiy qodisani mushoqada va idrok qilish, uning eng muhim xususiyatlarini his qilish hamda ma'naviyat mavzuida chop etilgan qator adabiyotlarni taqlil qilish natijasida vujudga kelgan. quyida ma'naviyat tushunchasiga berilgan bir qator ta'riflar orasidan kitob saqifalarida tez-tez uchrab turadiganlaridan bir nechitasi keltirilgan.

1. "Ma'naviyat – insonning zot belgisi, uning faoliyatining tarkibiy qismi, ongi, aql – zakovatining maqsuli"<sup>1</sup>.

2. "Ma'naviyat – inson faoliyatining ruqiy mazmuni bo'lib, kishilar uning vositasida o'zlarini angelaydilar, jamiyat, tabiat, o'z turmush tarzlari, amaliy faoliyatlari muammolarini hal etadilar"<sup>2</sup>.

3. "Ma'naviyat – inson halbida, ko'ngil ko'zqusida aks etgan haqiqat nuridir"<sup>3</sup>.

4. "Ma'naviyat – millatning asrlar davomida shakllangan ildizlari uning tarixiy tajribalari va ijtimoiy-madaniy rivojlanishi bilan uzviy bog'liqbo'lgan ichki (aqliy) intellektual va sobit qissiy dunyosidir"<sup>4</sup>.

Bu ta'riflar umuman noto'g'ri bo'lmay, ular murakkab ijtimoiy qodisa bo'lgan ma'naviyatning u yoki bu xususiyatlarini yoki ahamiyatini ifodalaydi, xolos. Bu esa baqolash kategoriyasi hisoblanadi.

Barcha fikrlarni bir chetga surib, eng jozibali uchinchi rahamli "haqiqat nuri" degan ta'rifga e'tiborimizni qarataylik. Darxaqiqat, ma'naviyat – haqiqat nuri. Bu mutlaqo to'g'ri. Ammo nurning o'zi nimaq Bizningcha, "nur" – bilim. Bilim, ya'ni nur esa, inson halbiga haqiqatdan, qaq taoladan kelganidan keyin, kishi halbida unib-o'sadi va bir necha bosqichlarni bosib o'tadi. Shundan keyingina u shu'la tarqata boshlaydi. Inson ruqi va tafakkuridagi haqiqat nuri qarakatining ana shu oxirgi bosqichini, ya'ni nur shu'lasini biz "ma'naviyat" deb atadik.

Inson boshqa mavjudotlardan o'zining ijtimoiy moqiyati bilan ajralib turishi ma'lum. Ijtimoiy moqiyat negizini bilimlar tashkil qilib, ular foydali va foydasiz turlarga ajraladi. Darxaqiqat, yolqon gapirish, o'qirlik qilish, boshhalarni qaqoratlash va bo'lak razil ishlarni qilishni ham bilish kerak. hamma ham uning uddasidan chiqavermaydi. Ammo, ular foydasiz, balki ijtimoiy hayot uchun zararli bilimlardir. Jamiyat rivoji uchun faqat foydali bilim (qikmat)lar kerak. Foydali bilimlarni egallashdan maqsad, avvalo o'ziga, so'ng yaqin kishilariga va butun jamiyatga naf keltirishdir. Muayyan bir foydali ishni kishi qayotida ko'p marotaba bajaraverishi natijasida, bu faoliyat uning ruqiga singib, ma'naviyatga aylanadi. Insonning ruqiga singib, ma'naviyatiga aylangan qarakatlar majmuini uning hayot tarzi deyiladi.

Madaniyat arabcha so'z bo'lib, u jamiyatning ishlab chiharish, ijtimoiy va ma'naviy qayotida qo'lga kiritilgan yutuqlari majmuidir. Madaniyat shaxs kamolatiga ikki xil jihatdan ta'sir qilib, ular quyidagilardan iborat:

Moddiy, ya'ni texnika, ishlab chiharish tajribasi, moddiy boyliklar.

Ma'naviy, ya'ni fan, adabiyot maorif, san'at, din, umuminsoniy va milliy ruqiy qadriyatlar.

Ana shu moddiy va ma'naviy madaniyatning o'zaro aloqasi o'zaro ta'siri natijasida aqlan etuk, axloqan barkamol, jismonan soqlom, dunyoqarashi keng, yaxlit shakllangan, ya'ni komil inson shakllanadi.

Shaxs ma'naviy madaniyatini shakllantirishga yangicha yondashuv

Ma'naviy madaniyat - bu shaxsning tashqi olam, qolat ichki kayfiyatlar ta'minlash, erkparvarlik orqali qabul qilib olish jarayonidir. Bunda umuminsoniy va milliy qadriyatlar, shaxsning ijtimoiy tuzum tuqrisidagi qarashlari ma'naviy madaniyatning negizini tashkil etadi va uning moqiyatini namoyon etuvchi ob'ekt shaxs hisoblanadi. Shaxs ma'naviy madaniyatining asosiy manbasi bo'lgan ma'naviy ruqiy qadriyatlar, fan, adabiyot, san'at, maorif, din komil insonning shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Ma'naviy madaniyat aqliy, siyosiy, iqtisodiy, guruhiy, ekologik, estetik, badiiy, diniy madaniyat kabilardan tuzilgandir. Bular ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchi yoki talaba jamiyatning har bir a'zosi ongiga singdiriladi. Aqliy madaniyat - jamiyat va tabiat qonun qoidalariga munosabat; qodisalar va ularning bir - birlari bilan bog'liqligi; Insoniyat qayoti, turmush tarzi; jamiyat Taraqqiyoti haqidagi ilmiy bilimlarni o'zlashtirish, yaxlit idrok etish, takrorlash, tasavvur va tafakkur etish qolatlari jarayonida shakllanadi. Aqliy madaniyat ma'naviy madaniyatning boshqa tarkibiy qismlarini shakllantirishda asos bo'lib xizmat qiladi.

Axloqiy madaniyat – bu insonparvarlik, halollik, tashabbuskorlik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, erksevarlik, faollik, ijodkorlik, xaqiqatgo'ylik, ma'suliyatlilik, saxiylik, kamtarlik, poklik kabi tushunchalar majmuasi bo'lib, insonning ko'p qirrali faoliyati davomida shakllanadi va takomillashadi. Xulosa qilib aytganda, axloqiy madaniyat axloqiy bilimlar, malaka va ko'nikmalar, axloq qoidalari yordamida shaxsning xulq -atvori, qatti-qarakatlarini boshharish tizimidir. Axloqiy madaniyatning negizini axloqiy ong tashkil qilib, u vijdon, burch, mas'uliyat, qayo, g'urur kabi insonning ichki ruqiy qissiyotiga asoslanadi.

Axloqiy madaniyatning asosiy poydevori axloqiy odat bo'lib, u shaxsning aniq maqsadni ko'zlab, doimiy, izchil uyushtirilgan faoliyati, jamiyat a'zolarining o'zaro madaniy munosabatlari, o'zaro ishonchlari, alohalari zahirida maydonga keladi. Ma'naviy madaniyatning yana bir mezon estetik xis bo'lib, u insonni o'rab turgan muqitga munosabatidir. U hayot xaqiqatini o'zlashtirishning, ijodiy fikrlash qobiliyatini ta'minlashning asosiy bosqichidir: u insonda ijobiy maqsadlar paydo bo'lishga xizmat qiladi. Masalan, badiiy kitoblarni o'qishni inson qayoti, turmush tarzi, dunyoqarashiga ta'siri.

Ma'naviy madaniyatning yana bir tarkibiy qismi bo'lgan siyosiy madaniyatsiz ma'naviy qadriyatlarning moqiyatini to'liq tushunib, to'liq anglab bo'lmaydi.

Siyosiy madaniyat - bu ijtimoiy faollikning jamiyat oldidagi ma'suliyat, ijtimoiy va ma'naviy javobgarlikni his etish, xaqiqat uchun kurashish, burchga sadoqat, millatlar, elatlar o'rtasidagi do'stlik va hamkorlik, so'z va faoliyat hamkorligi, tinchlik, tenglik, ozodlik va o'zligini anglash kabi mezonlarini o'z ichiga oladi. Siyosiy madaniyat faqat erkinlik, ozodlik va mustaqillik sharoitida o'zini to'la namoyon qiladi.

Jamiyatning moddiy va ma'naviy rivojlanishida diniy ta'limot, ya'ni asrlar davomida tarbiya vositasi bo'lib xizmat qilib kelayotgan diniy ma'naviy qadriyatlar ham muhim rol o'ynaydi. Din siyosat bo'lmasdan u ma'naviy qayotning tarkibiy qismidir. Biz yuqorida sanab o'tgan ma'naviy qadriyatlar mezonlariga amal qilish yaxlit tarzda olib borilishi maqsadga muvofiqdir.

Ma'naviy madaniyatning shakllanishida asosiy yo'nalishni beruvchi metodologiya quyidagi muammolarni echishda xizmat qilmoqi lozim:

Milliy o'quv muassasasi negizida ta'lim-tarbiya tizimini milliyashtirish;

har bir jamiyat a'zosi qatti-qarakati, xulq-atvorida umuminsoniy, milliy-ma'naviy qadriyatlarni tarkib toptirishda tayanch bo'lish;

Shaxsni milliy, umumbashariy madaniyat manbalarining moqiyatini chuqur anglab etishda dasturiy yo'llanma berish;

Shaxsni madaniy qadriyatlar orqali jaqon miqyosidagi ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy jarayonlarga intilishida to'g'ri yo'llanma berish.

Sharq mutafakkirlari ijodida ma'naviy madaniyatni shakllantirish

Milliy ma'naviyat yutuqlariga asosli ravishda suyanish, arab Sharqi va yunon madaniyati yutuqlaridan ijodiy foydalanish natijasida Sharq xalqlari, shu jumdalan, Markaziy Osiyo xalqlarining ilmiy, ijtimoiy-falsafiy fikri keng rivoj topadi. Bu narsa, ayni vaqtda Markaziy Osiyo xalqlari ma'naviyatining umuminsoniy qadriyatlar bilan boyishiga samarali ta'sir ko'rsatdi. Tabiatshunoslik, axloqshunoslik sohasida yuzaga kelgan yangicha ilmiy ta'limotlar, o'z-o'zidan ravshanki, mintaqa ma'naviyatiga, uning yanada takomillashishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmasdan qolmadi.

Shu nuqtai nazardan fikr yuritadigan bo'lsak, Muhammad Muso Xorazmiy, Ahmad Farqoniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayqon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos qojib kabi buyuk allomalar Markaziy Osiyo xalqlarining keyingi asrlardagi ma'naviyatiga asos soldilar, uning ilmiy-falsafiy negizlarini rivojlantirishga o'z qissalarini qo'shdilar, qomusiy bilimga ega bo'lganliklari

tufayli o'sha zamonning etuk mutafakkirlari bo'lib tanildilar. Binobarin, bir vaqtning o'zida bir necha bilimni egallash, borliq sirlarini o'rganishga da'vat etish bu davrning asosiy belgilaridan sanaladi. Yusuf Xos qojib Markaziy Osiyo ma'naviyatidagi bu ratsionalistik yo'nalish haqida gapirib shunday degan edi: "Zakovat qaerda bo'lsa, uluqlik bo'ladi. Bilim kimda bo'lsa, buyuklik bo'ladi"<sup>1</sup>.

Kishilar tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy boyliklar, ma'naviyat turmushning tashqi ko'rinishi hisoblanadi. Inson ma'naviy qadriyatlarni vujudga keltirar ekan, ayni vaqtda o'zining moqiyatli kuchlarini ham gavdalantiradi. Shu ma'noda olib qaraydigan bo'lsak, Sharqda ma'naviy jonlanish davri ma'naviyati uning yirik mutafakkirlari tomonidan yaratilgan va boyitilgandir.

Sharqning buyuk mutafakkirlari va allomalari o'zlarinnng butun ijod faoliyatlarini shaxs ma'naviy madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishga qaratganlar desak aslo mubolaqa qilmagan bo'lar edik. Aynan ana shu xususiyati bilan sharq mutafakkirlarining ijodiy faoliyatlari harb mutafakkirlariniki bilan farqlanib turadi. Masalan, Alisher Navoiyning "Farqod va Shirin" dostonida mardlik, to'g'riso'zlik, ma'rifat buloqidan baqramand bo'lish sari kuchli darajadagi intilish, mehnatsevarlik, katta yoshdagi kishilarga hurmat-eqtirom bilan munosabatda bo'lish, davlat va xalq manfaatlarini o'z manfaatidan ustun ko'rish, shuningdek sadoqatli sevgi-muqabbat kabi insoniy fazilatlar o'z ifodasini topgan bo'lib, shoir shu orqali shaxs ma'naviy madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish asoslarini ko'rsatib berishga qarakat qilgan.

Farqodga mamlakatni boshharish imkoniyati berilganda, u o'zining hali ancha yosh ekanligini, bu borada hali tajribaga ega emasligini, bu ishni undan yoshi katta bo'lgan va davlat boshharuvi bo'yicha ancha tajribaga ega bo'lgan kishilar qo'lga olsa yaxshi bo'lishini ta'kidlab bu taklifni qabul qilmaydi. Vaqolanki, Farqod bu borada yaxshi ilm va maqoratga ega ekanligi bilan saroy ayonlari o'rtasida ham, oddiy xalq orasida ham yaxshigina shuxrat topgan edi. Shoir Farqodning ushbu qatti-qarakati bilan quyidagi ma'naviy madaniyatni rivojlantiruvchi fazilatlarini ko'rsatib berishga qarakat qilgan:

O'zini-o'zi baqolay bilish va biror-bir yuklatilayotgan vazifa bo'yicha mas'uliyatni chuqur his qila bilish.

Biror-bir ish yuzasidan haror qabul qilishda shoshmasdan uzoqni ko'rib qarakat qilish. Yoshi katta va tajribasi ko'p bo'lgan odamlarga hurmat bilan munosabatda bo'lish va ular tajribasidan o'rnak olishga intilish.

Mansabparastlik illatidan o'zini yiroqda tutish.

Shuningdek, soqibqiron Amir Temur bobomiz ham o'z tuzuklarida juda ko'plab tarbiyaviy ahamiyatga molik bo'lgan ko'rsatmalarni berib o'tgan.

Ayniqsa, u kishining davlat boshharish faoliyatiga faqat va faqat adolat bilan endashish kerakligi, ilm-ziyo aqliga doimo adolatli munosabatda bo'lish kerakligi, kambahal fuharoga doimo mehr-muruvvat ko'rsatish kerakligi va milliy qadriyatlarni barharor tarzda qimoya qilish kerakligi to'g'risidagi fikr-mulohazalari bevosita ma'naviy madaniyatni shakllantirishda juda katta ahamiyatga egadir.

Amir Temur saltanati juda boy ma'naviy zaminga qurilgan. Mana shu poydevor Temurning shavkatli davlati, iqtisodiy saloqiyyati, jaqongirlik faoliyati, vatanparvarlik qudratining tayanchi edi.

Amir Temur faoliyatida uning ma'naviy fazilatlari shakllanishi ma'lum tarixiy jarayonni o'z boshidan kechirgan. Ma'naviyat Amir Temur halbida haror topishi va ulkan kuchga aylanishi uchun tarixiy shart-sharoit, milliy an'analar, islomiy tamoyillarning o'ziga xos o'rni bor.

Birinchidan, bo'lajak soqibqiron ma'naviy sifatlarining shakllanishi uning bolalikdan boshlab vatan tarixiga, ona tiliga, xalq ma'naviyatiga yondoshganligi bilan bog'liq. Soqibqiron ma'naviylikning o'zagi hisoblangan axloqiy sifatlarni egallashga yoshligidan astoydil kirishadi.

Ikkinchidan, Amir Temurning o'z ustozlariga bo'lgan hurmati, munosabati, sadoqati, eqtiromi uning bunday fazilatlarni, uning insonga, insoniyatga bo'lgan hurmati va ilm-fan hamda madaniyatni yuqori qo'yishining ifodasidir. Uning ustozlari o'z zamonasining fuzalolari bo'lgan. Bularga Xoja Shamsiddin Kulol, Sayyid Mir Kulol, Mavlono Abu Bakr Taobodiy, Mir Said Baraka kabi piru ustozlar kiradi.

Amir Temur e'tiqod qo'ygan va ma'naviyatini shakllantirgan piri komillari haqida so'z borganda, bir muhim masalani ta'kidlab o'tish kerak. U ham bo'lsa, Amir Temur yashagan davrdagi ma'naviy komillikning yorqin ifodasi hisoblangan tasavvufga uning munosabatidir. Amir Temurning, bir tomondan, tasavvuf falsafasi va uning tarkibiy qismlaridan bo'lgan futuvvat – mardlik, insonparvarlik g'oyalari bilan yoshlik choqlarida yaxshi tanish bo'lgani va jo'mardlik tamoyillarining unga ta'siri kuchli bo'lgani uning ongida yurtning mustaqilligi uchun kurashish ishtiyoqini paydo qiladi. Ikkinchi tomondan, tasavvufda har bir insonning ma'naviy kamolotida ustoz va shogird, ya'ni murshid va murid o'rtasidagi yuksak munosabatlar muhim o'rin tutgan.

Ma'naviyat – insonning, xalqning, jamiyatning, millatning kuch-qudratidir, deydi Amir Temur. Bu fikrning tarixiy qaqqoniyligi va qayotiyiligi uning butun faoliyatida erishgan tarixiy olamshumul maqsadlari misolida o'z ifodasini topgan. Uchinchidan, Amir Temur tarjimai qolida o'zining inson sifatidagi axloqiy fazilatlarini yozib holdirgan.

Ma'naviy qadriyatlar. Ularning shaxs ma'naviy madaniyatini shakllantirishdagi roli

Millatimiz, mamlakatimiz mustaqillikni qo'lga kiritgandan keyin shunday ijtimoiy qodisalarni boshidan kechirmoqdaki, bu qodisalar zamirini tashkil etuvchi jarayonlarni taqlil qilish va ulardan xulosalar chiqarishni qayotning o'zi taqozo etmoqda.

Prezidentimiz Islom Karimov "Turkiston" gazetasi muxbirining savollariga bergan javoblarida yangi tuzumga o'tish ko'pchilik o'ylagandan ko'ra murakkab jarayon ekanligini ta'kidlab, "Vatan, millat taqdiri hal bo'ladigan haltis vaziyatlarda to'g'ri yo'lni tanlay olish uchun avvalo tarixni va qayotning achchiq-chuchugini bilish kerak ekan", dedi.

Yurtboshimizning bu so'zlarida teran ma'no bor. O'tmish tarix sifatida asrlar qa'riga yashiringan qodisalar, tafakkur mevalari birdan yangi ijtimoiy muhit

zaminida o'sib-unib qolishi, dunyo o'yinlari goq charxpalak bo'lib, goq o'rnak-ibrat tarzida kelgusi avlod qo'lidagi xotira quroliga, tasdiq, yo inkor halamiga aylanib qolishi mumkin.

Nainki, insoniyat kecha yo bugun shakllangan emas. U uzoq o'tmish va ummoniy xotira zaqirasi, davrlar, zamonlar silsilasini o'zida tashuvchi ma'naviy xazina sifatida amal qiladi. Bu ma'naviy xazinada boshi osmon yangliq ko'tarilgan shaxslar ruqi ham, zafarlarni quchgan baqodirlar sha'ni ham, parokandalik va depsinishlar rutubatlarini ifodalovchi qismat o'yinlari ham hamma-hammasi meros bo'lib kelaveradi. Xuddi shu merosdan olinajak saboq va savoblar bugun bilan ertangi kunni yoritguvchi umid chiroqlaridir. Prezidentimiz "Kuch – adolatda" degan Amir Temurning iborasini hozir ham biz uchun merosiy saboq va savobli o'git ekanligini uqtiradi: "Mening raqbarlik lavozimda mehnat qilgan tajribamdan chihargan eng muhim qayotiy xulosam shuki, - deydi yurtboshimiz, - adolat biz qurayotgan jamiyatning mezonini bo'lmoqi darkor"

Demak, adolat va insof har bir kishining, har bir jamiyatning yashash va tafakkur mezoniga aylanmoqi lozim.

### **3-MAVZU: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA'LIM TIZIMI ISLOHOTLARI.**

1. Ta'lim tizimi islohotlarini muvoffaqqiyatli amalga oshirish shart-sharoitlari: milliy pedagogik me'rosga tayanish, yangi maqsad va vazifalarni aniq belgilab olish, bosqichma-bosqich amalga oshirish, tadrijiylik.
2. Ta'lim tizimi islohotlarining mohiyati: izchillik, ochiqlik, fuqarolarning ta'limga bo'lgan ehtiyojlarini qoniqtira olish, jamiyatning talablariga javob berish, jahon kasb va ta'lim bozorida samarali faoliyat yuritish va raqobat qila olish.
3. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi".

#### **1. Ta'lim tizimi islohotlarini muvoffaqqiyatli amalga oshirish shart-sharoitlari: milliy pedagogik me'rosga tayanish, yangi maqsad va vazifalarni aniq belgilab olish, bosqichma-bosqich amalga oshirish, tadrijiylik.**

O'zbekiston Respublikasi siyosiy mustaqillikni qo'lga kiritgach, ijtimoiy hayotimizning barcha sohalarida tub islohotlar amalga oshirila boshlandi. Totalitar boshqaruv usuli asosida ish yuritilayotgan xalq ta'limi tizimida ham so'nggi o'n yilliklar davomida yuzaga kelgan muammolarni hal etish vazifasi Respublika hukumati hamda mutasaddi tashkilotlarni ta'lim tizimida ham jiddiy o'zgarishlarni amalga oshirishga undadi. Bu boradagi sa'i-harakatlarning samarasi sifatida 1992 yil iyul oyida mustaqil O'zbekistonning ilk «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni qabul qilindi. Mazkur qonun mazmunida Respublika ta'limi tizimi, uning asosiy yo'nalishlari, maqsad, vazifalari, ta'lim bosqichlari va ularning mohiyati kabi masalalar o'z ifodasini topdi. Biroq, 1997 yilga kelib, O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni va uning mazmunida ilgari surilgan g'oyalarning amaliyotga tadbiqui tahlil etilganda bu borada muayyan kamchiliklarga yo'l qo'yilganligi aniqlandi. O'tkazilgan tahlil natijalariga ko'ra, ta'lim tizimida olib borilayotgan islohot aksariyat o'rinlarda chuqur ilmiy asoslarga ega bo'lmaganligi ma'lum bo'ldi hamda kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilish zarurligi belgilandi. Shu bois O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX

sessiyasida yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qabul qilindi.

Xo'sh, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qanday hujjat? Uning mazmunida qanday g'oyalar ifoda etilgan?

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonunining qoidalariga muvofiq, milliy tajribaning tahlili va ta'lim tizimidagi jahon miqyosidagi yutuqlar asosida tayyorlangan hamda yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo'ljalni to'g'ri ola bilish mahoratiga ega bo'lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo'naltirilgandir<sup>1</sup>.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning maqsadi – ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarash va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash Milliy tizimini yaratishdan iboratdir<sup>2</sup>.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ilgari surilgan maqsadning to'laqonli ro'yobga chiqarish bir qator vazifalarning ijobiy hal qilinishini nazarda tutadi. Dasturda bu boradagi vazifalarning quyidagilardan iboratligi ko'rsatiladi:

- «Ta'lim to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga muvofiq ta'lim tizimini isloh qilish, davlat va nodavlat ta'lim muassasalari hamda ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasida raqobat muhitini shakllantirish negizida ta'lim tizimini yagona o'quv, ilmiy-ishlab chiqarish majmui sifatida izchil rivojlantirishni ta'minlash;

- ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini jamiyatda amalga oshirayotgan demokratik huquqiy davlat qurilishi jarayonlariga moslashtirish;

- kadrlar tayyorlash tizimi muassasalarini yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlash, pedagogik faoliyatining nufuzi va ijtimoiy maqomini ko'tarish;

- kadrlar tayyorlash tizimi va mazmunini mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollariidan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda qayta qurish;

- ta'lim oluvchilarni ma'naviy axloqiy tarbiyalashning va ma'rifiy ishlarning samarali shakllari hamda uslublarini ishlab chiqish va joriy etish;

- ta'lim va kadrlar tayyorlash, ta'lim muassasalarini attestatsiyadan o'tkazish va akkreditatsiya qilish sifatiga baho berishning xolis tizimini joriy qilish;

- yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda ta'limning talab qilinadigan darajasi va sifatini, kadrlar tayyorlash tizimining amalda faoliyat ko'rsatishi va barqaror rivojlanishining kafolatlarini, ustuvorligini ta'minlovchi normativ, moddiy-texnika va axborot bazasini yaratish;

---

<sup>1</sup> Kadrlar tayyorlash milliy dasturi //Oliy ta'lim: me'yoriy hujjatlar to'plami. – Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati. 2001. – 20-bet.

<sup>2</sup> O'sha manba, – 25-bet.

- ta'lim, fan, ishlab chiqarish samarali integratsiyalashuvini ta'minlash, tayyorlanayotgan kadrlarning miqdori va sifatiga nisbatan davlatning talablarini, shuningdek, nodavlat tuzilmalari, korxonalar va tashkilotlarning buyurtmalarini shakllantirishning mexanizmlarini ishlab chiqish;

- uzluksiz ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimiga byudjetdan tashqari mablag'lar, shu jumladan, chet el investitsiyalari jalb etishning real mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

- kadrlar tayyorlash sohasida o'zaro manfaatli xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

Milliy dasturning maqsad va vazifalari bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Har bir bosqichda muayyan vazifalarning hal etilishi<sup>1</sup> nazarda tutiladi. Ushbu vazifalar quyidagilardan iboratdir:

**Birinchi bosqich** (1997-2001 yillar) mavjud kadrlar tayyorlash tizimining ijobiy salohiyatini saqlab qolish asosida ushbu tizimni isloh qilish va rivojlantirish uchun huquqiy, kadrlar jihatidan, ilmiy-uslubiy, moliyaviy shart-sharoitlarni yaratish.

**Ikkinchi bosqich** (2001-2005 yillar) - Milliy dasturni to'liq ro'yobga chiqarish, mehnat bozorining rivojlanishi va real ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni hisobga olgan holda unga aniqliklar kiritish. Bu bosqichda, shuningdek, ta'lim muassasalarini maxsus tayyorlangan malakali pedagog kadrlar bilan to'ldirish ta'minlanadi, ularning faoliyatida raqobatga asoslangan muhit vujudga keltiriladi.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» maqsadini ro'yobga chiqarishning ikkinchi bosqichda ta'lim muassasalarining moddiy-texnika va axborot bazasini mustahkamlash davom ettiriladi, o'quv-tarbiya jarayonining yuqori sifatli o'quv adabiyotlari va ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash, uzluksiz ta'lim tizimini axborotlashtirish vazifalarining ham hal etilishi alohida urg'u beriladi.

**Uchinchi bosqich** (2005 va undan keyingi yillar) to'plangan tajribani tahlil etish va umumlashtirish asosida, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbollari muvofiq kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va yanada rivojlantirish. Bu bosqichda, yana shuningdek,

- ta'lim muassasalarining resurs, kadrlar va axborot bazalarini yanada mustahkamlash;

- o'quv-tarbiya jarayoni yangi o'quv-uslubiy majmualar, ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan to'liq ta'minlanishi;

- milliy (elita) oliy ta'lim muassasalarini qaror toptirish va rivojlantirish; ta'lim jarayonini axborotlashtirish, uzluksiz ta'lim tizimi jahon axborot tarmog'iga ulanadigan kompyuter axborot tarmog'i bilan to'liq qamrab olinishiga erishish kabi vazifalarning ham ijobiy echimi ta'minlanadi.

## **2. Ta'lim tizimi islohotlarining mohiyati: izchillik, ochiqlik, fuqarolarning ta'limga bo'lgan ehtiyojlarini qoniqtira olish, jamiyatning talablariga javob berish, jahon kasb va ta'lim bozorida samarali faoliyat yuritish va raqobat qila olish.**

---

<sup>1</sup> O'sha manba, – 27-29-betlar.

Uzluksiz ta'lim kadrlar tayyorlash tizimining asosi, O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlovchi, shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustuvor soha bo'lib, ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy boy shaxsning shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlarning jadal tayyorlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi<sup>2</sup>.

Uzluksiz ta'lim jarayoni shaxsning har tomonlama qaror topishi uchun eng qulay davr sanaladi. Mazkur davrda shaxs fan asoslari hamda kasb-hunar ma'lumotlarini o'zlashtiradi, yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarga ega shaxs va malakali kadr sifatida kamol topib boradi. Unda muayyan dunyoqarash shakllanadi.

O'zbekiston Respublikasida uzluksiz ta'lim Davlat ta'lim standartlari hamda o'quv dasturlari talablariga muvofiq tashkil etiladi.

Uzluksiz ta'limni tashkil etish muayyan tamoyillarga asoslanadi. Jumladan:

- ta'limning ustuvorligi;
- ta'limning demokratlashuvi;
- ta'limning insonparvarlashuvi;
- ta'limning ijtimoiylashuvi;
- ta'limning milliy yo'naltirilganligi;
- ta'lim va tarbiyaning uzviy bog'liqligi, bu jarayonning har tomonlama kamol topgan insonni shakllantirishga yo'naltirilganligi;
- iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularga ta'limning eng yuqori darajasida, izchil ravishda fundamental va maxsus bilim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratish<sup>1</sup>.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da uzluksiz ta'limni isloh qilish yo'nalishlari ham aniq ko'ratib berilgan. Mazkur yo'nalishlar sirasiga quyidagilar kiradi: kadrlar salohiyatini tubdan yaxshilash; pedagoglarning kasbiy nufuzini oshirish; davlat va nodavlat ta'lim muassasalarining turlarini rivojlantirish; ta'lim tizimini tarkibiy jihatdan qayta qurish; ta'lim dasturlarini tubdan o'zgartirish; majburiy o'rta umumiy ta'limdan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limiga o'tilishini ta'minlash; yangi tipdagi o'quv muassasalarini vujudga keltirish; yangi kasb-hunar va mutaxassisliklar bo'yicha kadrlar, shu jumladan, boshqaruv tizimi kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish; ta'limning barcha daraja va bo'g'inlarida ta'lim oluvchilarning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirish; ta'limni boshqarish tizimini takomillashtirish, ta'lim muassasalarini mintaqalashtirish; shaxsga ta'lim berish va uni tarbiyalashda oila, ota-onalar, jamoat tashkilotlari, mahallalar, xayriya va xalqaro fondlarning rolini kuchaytirish; ta'lim jarayoni va kadrlar tayyorlash sifatiga xolis baho berish tizimini yaratish; ta'lim tizimini moliyaviy, moddiy-texnika va boshqa tarzdagi resurslar bilan ta'minlash mexanizmlarini shakllantirish; uzluksiz ta'limni fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyalashtirishning puxta mexanizmlarini ishlab chiqish; chet el va

---

<sup>2</sup> O'sha manba, –31-bet.

<sup>1</sup> O'sha manba, –31-32-betlar.

xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish; tub erli millatga mansub bo'lmagan shaxslar zich yashaydigan joylarda ularning o'z ona tillarida ta'lim olishlari uchun tashkiliy va pedagogik shart-sharoitlarni yaratish; ta'limning barcha darajalarida ta'lim oluvchilarning huquqiy, iqtisodiy, ekologik va sanitariya-gigiena ta'limi hamda tarbiyasini takomillashtirish<sup>2</sup>.

Uzluksiz ta'lim quyidagi ta'lim turlarini o'z ichiga oladi:

- maktabgacha ta'lim;
- umumiy o'rta ta'lim;
- o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi;
- oliy ta'lim;
- oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim;
- kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash;
- maktabdan tashqari ta'lim.

Maktabgacha ta'lim bolaning sog'lom, har tomonlama kamol topib shakllanishini ta'minlaydi, unda o'qishga intilish hissini uyg'otadi, uni muntazam ta'lim olishga tayyorlaydi hamda bola olti-etti yoshga etguncha davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari va oilalarda amalga oshiriladi. Bu kabi ta'lim muassasalarining faoliyatini tashkil etishda mahallalar, jamoat va xayriya tashkilotlari, xalqaro fondlar faol ishtirok etadi.

Keyingi yillarda maktabgacha ta'lim muassasalarining yangi tarmog'i shakllanib bormoqda. Bu o'rinda «Xonadon bog'chasi» hamda «Bolalar bog'chasi – boshlang'ich maktab» majmualarini misol qilib keltirish mumkin. Maktabgacha ta'lim muassasalarida Bolalarga tasviriy san'at, musiqa, til va kompyuter savodxonligini o'rgatuvchi guruhlar tashkil etilmoqda. Bu kabi harakatlar maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablari asosida ma'naviy-axloqiy tarbiyalashga xizmat qiladi.

Umumiy o'rta ta'lim to'qqiz yillik majburiy xarakterdagi umumiy hamda uch yillik majburiy-ixtiyoriy xarakterdagi o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limidan iborat. Umumiy o'rta ta'lim boshlang'ich ta'limni ham qamrab oladi. Mazkur bosqichda o'quvchilarning fanlar asoslari bo'yicha muntazam bilim olishlari, ularda bilim olish ehtiyojining yuzaga kelishi, asosiy o'quv-ilmiy va umummadaniy bilimlarning o'zlashtirishlari, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy-axloqiy fazilatlar, mehnat, ijodiy fikrlash, atrof-muhitga ongli munosabatda bo'lish, shuningdek, kasb tanlash ko'nikmalarining shakllanishi uchun pedagogik shart-sharoit yaratiladi. Davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi attestat o'quvchilarning umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ma'lumotiga egaliklarini belgilaydi.

O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish vazifasi maktab jamoasi va otalar hamkorligida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik tashhis markazlari rahbarligida amalga oshiriladi.

---

<sup>2</sup> O'sha manba, –32-33-betlar.

O'qish muddati uch yil bo'lgan majburiy o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi uzluksiz ta'lim tizimining mustaqil turi sanalib, umumiy o'rta ta'lim negizida tashkil etiladi. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining ikki muhim yo'nalishi bo'lgan – akademik litsey yoki kasb-hunar kollejida ta'lim olish o'quvchilar tomonidan ixtiyoriy ravishda tanlanadi.

Akademik litsey o'quvchilarning imkoniyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda ularning jadal intellektual rivojlanishi chuqur, sohashtirilgan, tabaqalashtirilgan, kasbga yo'naltirilgan ta'lim olishlarini ta'minlash maqsadida davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'rta maxsus ta'lim beruvchi, yuridik maqomga ega ta'lim muassasasidir.

Akademik litseylarda o'quvchilar o'zlari tanlab olgan ta'lim yo'nalishi (gumanitar, texnika, agrar va boshqa sohalar) bo'yicha bilim saviyalarini oshirish hamda o'zlarida fanni chuqur o'rganishga qaratilgan maxsus kasb-hunar ko'nikmalarini shakllantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Akademik litseylar asosan oliy o'quv yurtlari qoshida tashkil etiladi. Kasb-hunar kollejlari esa o'quvchilarning muayyan kasb-hunarga moyilligi, layoqatlari, bilim va ko'nikmalarini chuqur rivojlantirish, ularning tanlangan yo'nalishlar bo'yicha bir yoki bir necha zamonaviy kasb sirlarini egallash imkonini beradi.

Kasb-hunar kolleji o'quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, bilim va ko'nikmalarini chuqur rivojlantiruvchi, tanlab olingan kasb-hunar bo'yicha bir yoki bir necha ixtisosni egallash imkonini yaratish maqsadida tegishli davlat ta'lim standartlari doirasida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini beruvchi, yuridik maqomga ega ta'lim muassasasidir.

Kasb-hunar kollejlari yangi tipdagi ta'lim muassasalari bo'lib, ularning jihozlanganlik darajasi, pedagogik tarkibning puxta tanlanganligi, shuningdek, o'quv jarayonining zamonaviy texnika va texnologiyalar yordamida tashkil etilishi alohida e'tiborga loyiq.

Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarning bitiruvchilariga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi diplomlar beriladi. Ushbu diplomlar asosida bitiruvchilar ta'limning keyingi bosqichlarida o'qishni davom ettirish yoki egallangan ixtisos va kasb-hunar bo'yicha mehnat faoliyati bilan shug'ullanish huquqini qo'lga kiritadilar.

Oliy ta'lim o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi negiziga asoslanib, ikki bosqich (bakalavriyat hamda magistratura)da tashkil etilib, mutaxassisliklar yo'nalishlari bo'yicha xalq xo'jaligining turli sohalariga oliy ma'lumotli mutaxassislarni tayyorlaydi. Oliy ta'lim muassasalariga talabalar qabul qilish davlat grantlari negizida va pullik-shartnomaviy asosda amalga oshiriladi.

Bakalavriyat - mutaxassisliklar yo'nalishi bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, ta'lim olish muddati kamida to'rt yil davom etadigan tayanch oliy ta'lim.

Bakalavr darajasiga ega bo'lgan shaxs oliy ta'lim tizimi yo'nalishidagi o'zi tanlangan soha bo'yicha oliy ma'lumotli mutaxassis hisoblanadi va davlat klassifikatorida belgilangan lavozimda ishlash huquqiga ega bo'ladi.

Magistratura aniq mutaxassislik bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, bakalavriyat negizida ta'lim muaddati kamida ikki yil davom etadigan

oliy ta'lim bo'lib, magistraturadagi tahsil yakuniy klassifikatsion davlat attestatsiyasiga muvofiq olib boriladi.

Magistr bakalavr darajasidagi mutaxassisdan farqli ma'lum ixtisoslik bo'yicha ta'lim olgan yuqori malakali mutaxassis hisoblanib, u ilm-fan sohasida, ishlab chiqarishning mas'uliyatli lavozimlarida faoliyat ko'rsatadi. U aspiranturaga kirish huquqiga ega.

O'zbekiston Respublikasida quyidagi turdagi oliy ta'lim muassasalari faoliyat ko'rsatadi:



Олий о'quv yurtidan keyingi ta'lim jamiyatning oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish, shaxsning ijodiy ta'lim – kasb-hunar manfaatlarini qanoatlantirishga qaratilib, oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot muassasalarida aspirantura, ad'yunktura va doktoranturada ta'lim olish, shuningdek, mustaqil tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etish asosida amalga oshiriladi. Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim nomzodlik yoki doktorlik dissertatsiyalarining himoyasi bilan yakunlanadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan olib borilgan yakuniy davlat attestatsiyasi natijalari tegishli ravishda fan nomzodi va fan doktori ilmiy darajasi hamda davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi diplomga ega bo'lish huquqini beradi.

Har ikki (aspirantura, doktorantura) darajada ham maqsad muayyan mutaxassisliklar bo'yicha oliy toifali ilmiy-pedagogik kadrlarni shakllantirishdan iborat.

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash jarayonida asosiy e'tibor mutaxassislarning kasb bilimlari va ko'nikmalarini yangilash hamda chuqurlashtirishga qaratiladi. Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash ana shu yo'nalishda faoliyat yurituvchi ta'lim muassasalarida amalga oshiriladi. Bu muassasa tinglovchilari o'qish natijalariga ko'ra davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi guvohnoma yoki sertifikatga ega bo'ladilar.

Maktabdan tashqari ta'lim maktabdan tashqari davlat va nodavlat ta'lim muassasalarida davlat organlari, jamoat tashkilotlari, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan madaniy-estetik, ilmiy, texnikaviy, sport va boshqa yo'nalishlarda yo'lga qo'yilib, bolalar hamda o'smirlarning ta'limga bo'lgan, yakka tartibdagi,

ortib boruvchi talab-ehtiyojlarini qondirish, ularning bo'sh vaqti va dam olishini tashkil etish maqsadida olib boriladi.

1. Fan yuqori malakali mutaxassisni tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiqaruvchi bo'lib, «kadrlar tayyorlash milliy tizimida tabiat va jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlari to'g'risidagi yangi fundamental va amaliy bilimlardan foydalanishni, yuqori malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tarkibini shakllantirishni, ulardan ta'lim tizimida unumli foydalanishni, shuningdek, kadrlar tayyorlash jarayonining ilmiy tadqiqotlar infrastrukturasini yaratish, ta'limning axborot tarmoqlarida foydalanish uchun bilimning turli sohalari bo'yicha axborot bazasini shakllantirishni hamda ilmiy tadqiqotlar darajasiga yangicha qarashlar zahirida yosh olimlarning, ilmiy-pedagogik xodimlarning ijtimoiy mavqei va obro'sini oshirishni va shu kabilarni qamrab oladi»<sup>1</sup>.

Kadrlar tayyorlash milliy modelining tarkibiy qismlaridan biri sifatida fan, yana shuningdek, «ta'lim mazmunini tubdan yangilashda: ta'lim standartlari, ta'lim dasturlari, o'quv darsliklari va qo'llanmalar tayyorlashda, ilmiy-metodik ta'minotni amalga oshirishda bevosita va bilvosita ishtirok etadi»<sup>2</sup>.

5. Ishlab chiqarish – kadrlarga bo'lgan ijtimoiy ehtiyojni shuningdek, ularning tayyorgalik sifati va saviyasiga nisbatan qo'yiladigan talablarni belgilovchi asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moliyaviy va moddiy-texnika jihatdan ta'minlash jarayonining qatnashchisidir.

«Ishlab chiqarishning talab-ehtiyojlari kadrlar tayyorlash tizimining yo'nalishi, darajasi va miqyoslarini shakllantiradi, kasb tayyorgarligining maqsadi, vazifalari va mazmunini belgilaydi, malaka talablarini ilgari suradi, ta'limning zamonaviy texnologiyalari va shakllarini tanlashni taqozo etadi. Ishlab chiqarish pirovard natijada kadrlarning sifati va raqobatbardoshligiga baho beradi»<sup>1</sup>.

Ishlab chiqarish muassis, homiy va boshqa sifatlarda alohida mutaxassislarni tayyorlashni, guruhlarini va o'quv yurtlarini moliyalash jarayonida ishtirok etib, mutaxassislarning kasbiy rivojlanishi va shaxsiy faolligini rag'batlantiradi, ularni moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlashda bevosita ishtirok etadi»<sup>2</sup>.

Avvallari ishlab chiqarish tayyor kadrlar kuchi va salohiyatidan foydalanuvchi iste'molchi sifatidagina faoliyat olib borgan bo'lsa, bugungi kunda ushbu faoliyatning mazmuni tubdan o'zgardi. Endilikda ishlab chiqarish kadrlarni tayyorlash sifati va saviyasiga nisbatan o'z talablarini qo'ya oladi. Shu bilan birga sifatli hamda yuksak saviyali mutaxassisni tayyorlab etishtirish yo'lida uzluksiz ta'lim hamda fan tarmoqlarining moliyaviy, moddiy-texnik jihatdan qo'llab-quvvatlash majburiyatini o'z zimmasiga oladi. Shu asosida kadrlar tayyorlash tizimining faol ishtirokchisiga aylandi.

---

<sup>1</sup> Barkamol avlod orzusi //Tuzuvchilar Sh.Qurbonov, H.Saidov, R.Ahliddinov. – Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa kontserni Bosh tahririyati, 1999. – 172-bet.

<sup>2</sup> O'sha asar, 171-bet.

<sup>1</sup> Kadrlar tayyorlash milliy dasturi //Oliy ta'lim: me'yoriy hujjatlar to'plami. – Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati. 2001. – 42-bet.

<sup>2</sup> Barkamol avlod orzusi //Tuzuvchilar Sh.Qurbonov, H.Saidov, R.Ahliddinov. – Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa kontserni Bosh tahririyati, 1999. – 173-174-betlar.


Milliy model Kontseptsiasining mazmuni o'zbek xalqining milliy turmush tarzi va ma'naviy-axloqiy an'analari bilan hamnafasdir. Zero, xalq orasida qadimdan «ma'rifatli inson» tushunchasi qo'llanilib kelingan bo'lib, u o'zida keng ma'noni ifoda etadi. Bilim olishga intilish, ma'rifatli bo'lish o'zbek xalqi, millatining ruhiyatida ustuvor o'rin tutuvchi omil sanaladi. Ma'rifatlilik – faqatgina bilim va malakaga ega bo'lish emas, ayni vaqtda chuqur ma'naviy axloq hamdir. Bilimli, komil inson qiyofasida ana shunday xislatlarga ega shaxslar namoyon bo'ladi.

Shuning uchun ham kadrlar tayyorlash milliy modelining butun mohiyati o'zbek xalqining milliy tarixi va hayot tarzi bilan bog'lanib ketgan.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasida o'ziga xos, takrorlanmas, tarixiy an'analarga asoslangan hamda bugungi kun talablariga to'la javob bera oladigan kadrlar tayyorlash milliy modeli yaratildi.

### 3. “Ta’lim to’g’risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”.

O'zbekiston Respublikasi «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» tarkibiy tuzilmasi quyidagicha aks etadi (1 - chizma).




1 – чизма. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning mohiyati va tarkibiy tuzilmasi

**Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlari.** Kadrlar tayyorlash milliy modeli faqat ta'lim-tarbiya jarayoninigina qamrab olmay, ishlab chiqarish va ijtimoiy munosabatlarni ham o'z ichiga oladi.

Kadrlar tayyorlash milliy modeli shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan va ishlab chiqarish kabi tarkibiy qismlarning o'zaro hamkorligi, ular o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik asosida «yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi

yuqori malakali kadrlarni tayyorlash Milliy tizimi» mohiyatini aks ettiruvchi andoza, loyiha hisoblanadi (2-chizma):



2 - чизма. Кадрлар тайёрлаш миллий моделининг асосий таркибий қисмлари о'ртасидаги ёзaro алоқадорлик ва бог'лиқлик

#### 4-MAVZU: KASBIY TA'LIMNING DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMOLARI.

1. Uzluksiz ta'lim tushunchasi. Uzluksiz ta'lim tuzilishi. Uzluksiz ta'lim tizimi va turlari.
2. Kasbiy ta'lim turi va tizimi. Kasbiy ta'lim rivojlanishining asosiy omillari.
3. Uzluksiz, kasb-hunar ta'lim tizimida o'rta maxsus ta'limining o'rni va ahamiyati.

##### 1. Uzluksiz ta'lim tushunchasi. Uzluksiz ta'lim tuzilishi. Uzluksiz ta'lim tizimi va turlari.

Ta'lim tizimining uzluksizligi va izchilligi tamoyili respublikada uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlari o'zaro aloqadorlik va bog'liqlik asosida faoliyat yuritishlarini ifodalaydi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining o'quv dasturlari akademik litsey va kasb-hunar kollejlarining, o'z navbatida ularning o'quv dasturlari oliy o'quv yurti o'quv dasturlari bilan mutanosiblikda yaratilib, biri o'zidan avvalgi bosqichda o'zlashtirilgan ma'lumotni boyitadi va rivojlantiradi.

Shuningdek, davlat ta'lim standartlari talablariga muvofiq faoliyat olib borayotgan uzluksiz ta'lim tizimi mazmuniga ko'ra bir tipdagi o'quv yurtlarining biridan ikkinchisiga o'tib o'qish imkoniyati mavjud. CHunonchi, ta'lim oluvchilar bir maktabdan ikkinchi maktabga, bir akademik litseydan ikkinchi akademik litseyga bir shaharda faoliyat yuritayotgan oliy o'quv yurtidan ikkinchi shaharda joylashgan oliy o'quv yurtiga o'tib ta'limni davom ettirish huquqiga egalar.

Umumiy o'rta, shuningdek, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limining majburiyligi tamoyili o'zida, birinchidan, fanlar asoslari bo'yicha muntazam bilim olishlari, ularning bilimlarni o'zlashtirishga bo'lgan ehtiyojlari, asosiy o'quv-ilmiy va umummadaniy bililar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy-axloqiy fazilatlar, mehnat, ijodiy fikrlash va kasb tanlash ko'nikmalari shakllantirish; ikkinchidan, o'quvchilarning imkoniyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda ularning jadal intellektual rivojlanishi, chuqur, sohashtirilgan, tabahalashtirilgan, kasbga yo'naltirilgan ta'lim olishni ta'minlash; uchinchidan, o'quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, bilim va ko'nikmalarini chuqur rivojlantirish, tanlab olingan kasb-hunar bo'yicha bir yoki bir necha ixtisoslikni egallash imkoniyatini yaratishni ifodalaydi.

O'rta maxsus kasb-hunar ta'limining ixtiyoriyligi tamoyilining asosiy mohiyati o'quvchilarning yangi turdagi o'quv muassasalarida ta'lim olish yo'nalishini ixtiyoriy ravishda tanlash huquqiga ega ekanliklarini anglatadi. Bu iki turdagi uch yillik maxsus ta'lim yo'nalishlarini o'quvchilar o'z iqtidorlari va xohish-istaklariga tayangan holda tanlaydilar. Ana shu tarzda o'quvchilarning biron bir shaklda bilimlarini takomillashtirish, muayyan kasb-hunar egasi bo'lib etishishlari uchun sharoit yaratiladi.

Ta'lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi mamlakatda ta'lim taraqqiyotining rivoji ilmiy asoslarga ega bo'lib, u fan-texnika, madaniyatning yuksala borishi bilan chambarchas holda rivojlanib borishini nazarda tutadi.

Insoniyat mavjud ekan, har doim taraqqiyot sari intiladi va yangidan-yangi fan yutuqlarini qo'lga kiritib boradi. Ta'lim tizimi esa ana shu fan yangiliklarini kelajak avlodga etkazib berishni ta'minlaydi. Shu bois ta'lim tizimining dunyoviy xarakterda bo'lishi talab etiladi. Shuningdek, ta'lim oluvchilarning ushbu yutuqlardan oqilona foydalangan holda ulardan to'g'ri xulosalar chiqarib, kelajakda o'zlarining munosib o'rinlarini topishga zamin yaratadi.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»ni qonunining 4-moddasida belgilab qo'yilganidek, fuqarolar millati, tili, jinsi, yoshi, diniy e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, mavqei, xizmat turi, turar joyi, O'zbekiston Respublikasida hududida qancha vaqt yashayotganligidan qat'iy nazar bilim olish huquqiga egalar. Davlat ta'lim standartlari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi tamoyili aynan mana shu holatni yoritishga xizmat qiladi.

YUqorida qayd etilgan moddada, yana shuningdek, chet ellik fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi hududida xalqaro shartnomalarga muvofiq bilim olish huquqiga egaliklari ta'kidlab o'tilgan.

O'zbekiston Respublikasida istiqomat qilayotgan fuqaroligi bo'lmagan shaxslar esa bilim olishda O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan teng huquqlarga ega ekanligi bu tamoyilning inson va uning manfaatlariga xizmat qilishini bildiradi.

Respublikamizda ta'lim, o'zbek, rus, qozoq, qirg'iz va tojik tillarida olib borilayotgan umumiy o'rta ta'lim muassasalari mavjud bo'lib, bunday yo'l bilan barcha millatlarning tenglik asosida bilim olishiga sharoit yaratilgan. Bundan tashqari mamlakatning barcha hududlarida «yakshanbalik maktablari» tashkil

qilingan bo'lib, har bir millat vakillari dam olish kuni ixtiyoriy ravishda o'z ona tilida ta'lim olish imkoniyatiga egalar.

Ta'lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonunining 7-moddasida o'z ifodasini topgan. Davlat ta'lim standartlari umumiy o'rta, o'rta maxsus kasb-hunar hamda oliy ta'lim mazmuni va sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilab beradi.

Davlat ta'lim standartlarini bajarish O'zbekiston Respublikasining barcha ta'lim muassasalari uchun majburiydir. Buning ma'nosi shuki, har bir ta'lim turi uchun alohida davlat ta'lim standartlari ishlab chiqiladi, ularda ko'zda tutilgan talablarga amal qilish esa mazkur bosqichdagi ta'lim muassasalaridan birday talab etiladi. Ammo davlat ta'lim standarti asosida ta'lim muassasalari o'zlarining o'quv dasturlari variantini ishlab chiqib, undan foydalanishlari mumkin. Bu ta'lim olish maqsadi yagona bo'lgani holda, unga erishish yo'llari turlicha ekanligini ko'rsatadi.

Bilimli bo'lishni va iste'dodni rag'batlantirish ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillaridan biri sanalib, uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida ushbu tamoyilga to'la amal qilinadi. Ta'lim oluvchilarning iste'dod va qobiliyatlari davlat tomonidan moddiy va ma'naviy jihatdan rag'batlantirilib boriladi. Bunday rag'batlantirishlar sirasiga iste'dodli o'quvchilarni faxriy yorliqlar, stipendiyalar hamda mukofotlar bilan taqdirlashni kiritish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993 yil 25 martdagi «O'zbekiston o'quvchi-yoshlarini taqdirlash va moddiy rag'batlantirish to'g'risida»gi qarorining qabul qilinishi ushbu tamoyilni huquqiy jihatdan kafolatlanishini ta'minladi. Mazkur qarorga muvofiq har yili o'quvchi va talabalar o'rtasida fan olimpiadalari o'tkazilib, g'oliblar turli imtiyozlarni qo'lga kiritmoqdalar. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1993 yil 5 fevralda qabul qilingan «O'zbekistonda o'quvchi-yoshlarni rag'batlantirish choralari to'g'risida»gi Farmoniga binoan ilmiy salohiyat, iqtidorga ega talabalar (bakalavr va magistratura yo'nalishlari bo'yicha) hamda tadqiqotchilik faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirayotgan aspirantlar uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Davlat stipendiyalari ta'sis etildi va har yili o'n bir ta'lim yo'nalishi (texnika va informatika, tibbiyot, fizika-matematika, iqtisodiyot, jurnalistika, gumanitar, huquq va xalqaro munosabatlar, pedagogika, madaniyat va san'at, chet tillar, qishloq xo'jaligi) bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat stipendiyasi uchun tanlovlar tashkil etilmoqda. Shuningdek, iqtidorli talabalar uchun «Beruniy», «Ulug'bek» hamda «Navoiy» nomidagi stipendiyalar joriy etilgan bo'lib, ularning sovrindorlari bo'lgan talabalarning faoliyati moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlanmoqda.

Bundan tashqari iste'dodli yoshlarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish, chet elda ta'lim olishlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida «Umid», «Iste'dod», «Respublika bolalar fondi», «Sog'lom avlod uchun», «Ulug'bek» va boshqa jamg'armalar tashkil etilgan. Ayni vaqtda davlat tomonidan ko'rsatilayotgan amaliy yordam tufayli 2000 nafardan ortiq talabalar xorijiy mamlakatlarda tahsil olib, o'z bilimlarini oshirishga muvaffaq bo'ldilar.

YUqorida bildirilgan fikrlar respublikada bilimli bo'lish va iste'dodni rag'batlantirish tamoyilining to'laqonli ravishda amaliyotga tatbiq etilayotganligining yorqin isbotidir.

Ta'lim tizimida davlat va jamiyat boshqaruvini uyg'unlashtirish tamoyili ta'limni tashkil etish va uning sifatini oshirishda davlat va jamiyatning ta'lim muassasalarini boshqarishda hamkorlikka erishishni nazarda tutadi. Ta'lim tizimida davlat va jamiyat boshqaruvi ta'lim samaradorligini oshirishga zamin yaratadi.

**Ta'lim tizimi va turlari.** Ta'lim tizimi davlat siyosatining asosiy tamoyillari asosida yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish yo'lida faoliyat yurituvchi barcha turdagi ta'lim muassasalari majmui demakdir. Har bir mamlakatning ta'lim tizimi uning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayoti bilan chambarchas bog'liq bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining ta'lim tizimi davlat ta'lim standartlariga muvofiq ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim muassasalari, ta'lim tizimining faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan tadqiqot ishlarini boshqaruvchi ilmiy-pedagogik muassasalar, ta'lim sohasidagi davlat boshqaruv organlari, shuningdek, ularga qarashli korxonalar, muassasalar va tashkilotlarni o'z ichiga oladi. Respublikaning ta'lim tizimi yagona va uzluksizdir.

Respublika «Ta'lim to'g'risida»gi qonunda ta'kidlanganidek, O'zbekiston Respublikasida ta'lim quyidagi turlarda amalga oshiriladi:

Maktabgacha ta'lim – bolaning sog'lom, har tomonlama kamol topib shakllanishini ta'minlovchi, unda o'qishga intilish hissini uyg'otuvchi, uni muntazam ta'lim olishga tayyorlovchi hamda bola olti-etti yoshga etguncha davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari va oilalarda amalga oshiriluvchi ta'lim bosqichi.

Umumiy o'rta ta'lim ikki bosqichda amalga oshiriladi. Ular quyidagilardir:

- 1) boshlang'ich ta'lim (1-4-sinflar);
- 2) umumiy o'rta ta'lim (1-9-sinflar).

Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarga murakkab bo'lmagan ilmiy bilimlarni berish asosida ularda o'qish, yozish va hisoblashga oid dastlabki bilim, ko'nikma hamda malakalarni shakllantirish asosida ularda shaxsiy gigiena va sog'lom turmush tarzi elementlarini hosil qilish bosqichi.

Umumiy o'rta ta'lim o'quvchilarning fan asoslari bo'yicha muntazam bilim olishlarini, ularda bilim o'zlashtirish ehtiyojini, asosiy o'quv-ilmiy va umummadaniy bilimlarni, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy-axloqiy fazilatlarini, mehnat ko'nikmalarini, ijodiy fikrlash va atrof-muhitga ongli munosabatda bo'lishni va kasb tanlash ko'nikmalarini shakllantirish<sup>1</sup> bosqichi. Umumiy o'rta umumiy o'rta ta'lim muassasalarida amalga

---

<sup>1</sup> Kadrlar tayyorlash milliy dasturi //Oliy ta'lim: me'yoriy hujjatlar to'plami. – Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati. 2001. – 35-bet.

o'shirilib, o'quvchilarga I-IX sinflar hajmida davlat ta'lim standartlari talablariga muvofiq fan asoslari bo'yicha majburiy ta'lim beriladi.

Bolalarning qobiliyati, iste'dodini rivojlantirish uchun ixtisoslashgan maktablarning tashkil etilishi esa ularning istiqbollarini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Umumiy o'rta ta'lim negizida o'qish muddati uch yil bo'lgan majburiy o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi amalga oshiriladi. Mazkur ta'lim uzluksiz ta'lim tizimida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan mustaqil tur hisoblanadi. O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi – umumiy o'rta ta'lim negizida majburiy-ixtiyoriy ravishda tashkil etilib, o'quvchilarga ularning imkoniyatlari va qiziqishlari asosida tanlab olingan kasb-hunar bo'yicha bir yoki bir necha ixtisoslik asoslariga oid bilimlarni berish bosqichi. Mazkur muassasalarda ta'lim olish o'quvchilar tomonidan majburiy-ixtiyoriy ravishda tanlanadi.

Akademik litsey o'quvchilarning imkoniyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda ularning jadal intellektual rivojlanishi chuqur, sohashtirilgan, tabaqalashtirilgan, kasbga yo'naltirilgan ta'lim olishlarini ta'minlash maqsadida davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'rta maxsus ta'lim beruvchi, yuridik maqomga ega ta'lim muassasasi.

Akademik litseylar asosan oliy o'quv yurtlari qoshida tashkil etiladi.

Kasb-hunar kolleji o'quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, bilim va ko'nikmalarini chuqur rivojlantiruvchi, tanlab olingan kasb-hunar bo'yicha bir yoki bir necha ixtisosni egallash imkonini yaratish maqsadida tegishli davlat ta'lim standartlari doirasida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini beruvchi, yuridik maqomga ega ta'lim muassasasi.

Kasb-hunar kollejarining bitiruvchilariga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi diplom hamda o'rta ma'lumotga ega bo'lganlik to'g'risidagi guvohnomalar beriladi. Ular bitiruvchilarga ta'limning keyingi bosqichlarida o'qishni davom ettirish yoki egallangan ixtisoslik va kasb-hunar yo'nalishi bo'yicha mehnat faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beradi.

Oliy ta'lim - o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi negiziga asoslanib, ikki bosqich (bakalavriyat hamda magistratura)da tashkil etiladigan hamda mutaxassisliklar yo'nalishlari bo'yicha xalq xo'jaligining turli sohalariga oliy ma'lumotli mutaxassislarni tayyorlab beruvchi ta'lim bosqichi.

Bakalavriyat – mutaxassislik yo'nalishi bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, ta'lim muddati kamida to'rt yil davom etadigan tayanch oliy ta'limdir. Bakalavrlilik dasturi tugatilgandan so'ng bitiruvchilarga «bakalavr» darajasi beriladi va davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi kasb-hunar faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi diplom topshiriladi.

Magistratura – aniq mutaxassislik bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, bakalavriyat negizida ta'lim muddati kamida ikki yil davom etadigan oliy ta'limdir.

«Magistr» darajasini beradigan davlat malaka attestatsiyasi magistrlik dasturining intihosidir. Magistrlarga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi, kasb-hunar faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beradigan diplom topshiriladi.

Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim jamiyatning oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish, shaxsning ijodiy ta'lim – kasb-hunar manfaatlarini qanoatlantirishga qaratilib, oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot muassasalarida aspirantura, ad'yunktura va doktoranturada ta'lim olish, shuningdek, mustaqil tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etish asosida amalga oshiriladigan ta'lim bosqichi.

Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim bosqichlarida tahsil olish (aspirantura, doktorantura) muayyan ilmiy daraja (fan nomzodi va fan doktori ilmiy darajasi)ni olishga imkon beruvchi dissertatsiya himoyasi bilan yakunlanadi. YAkuniy davlat attestatsiyasi natijalariga ko'ra tegishli mutaxassislik yo'nalishlarida fan nomzodi va fan doktori ilmiy darajasi berilib, davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi diplomlar topshiriladi.

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash mutaxassislarining kasb bilimlari va ko'nikmalarini yangilash hamda chuqurlashtirish maqsadida tashkil etiluvchi ta'lim bosqichi.

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash ta'lim muassasalaridagi o'qish natijalariga ko'ra davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi guvohnoma va sertifikat topshiriladi.

Maktabdan tashqari ta'lim madaniy-estetik, ilmiy, texnikaviy, sport va boshqa yo'nalishlarda yo'lga qo'yiluvchi, bolalar hamda o'smirlarning ta'limga bo'lgan, yakka tartibdagi, ortib boruvchi talab-ehtiyojlarini qondirish, ularning bo'sh vaqti va dam olishini tashkil etish maqsadida tashkil etiladigan ta'lim bosqichi.

Maktabdan tashqari ta'lim davlat organlari, jamoat tashkilotlari, shuningdek, boshqa yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan maktabdan tashqari davlat va nodavlat ta'lim muassasalarida olib boriladi.

**Hozirgi davrda jahonda ta'lim tizimining ahvoli.** Rivojlangan xorijiy davlatlar ta'lim tizimini o'rganish maqsadida AQSh, Frantsiya, YAponiya davlatlarining ta'lim tizimi tarkibini yoritmoqchimiz.

I. Amerika qo'shma Shtatlarida ta'lim tizimi quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- maktabgacha tarbiya muassasalari – 3 yoshdan 5 yoshgacha bo'lgan bolalarni tarbiyalashga xizmat qiladi;
- boshlang'ich maktablar (1-8-sinflar) – 6 yoshdan 13 yoshgacha bo'lgan bolalar ta'lim oladilar;
- o'rta maktablar (9-12-sinflar) – 14 yoshdan 17 yoshgacha bo'lgan bolalarning ta'lim olishlari uchun imkoniyat yaratadi. O'rta maktab quyi va yuqori bosqichdan iborat.
- oliy ta'lim - 2 yoki 4 yil mobaynida kollejlarda hamda universitetlarda amalga oshiriladi.
- universitetlar va boshqa oliy o'quv yurtlari tarkibida tashkil etiladigan aspirantura va doktoranturadir.

AqShda majburiy ta'lim 16 yoshgacha amal qiladi. Mamlakatda faoliyat yuritayotgan o'quv yurtlari davlat, jamoa, xususiy tasarruflar hamda diniy muassasalarga tegishli bo'lishi mumkin.

Amerika qo'shma Shtatlarining maktablari uchun yagona o'quv rejasi yo'q. Har bir shtat o'z o'quv rejasiga ega. Shunga ko'ra Shtatlarda boshlang'ich ta'lim 4, 5, 6 va 8 yillik bo'lishi mumkin.

II. YAponiya ta'lim tizimi o'z ichiga maktabgacha tarbiya muassasalari, boshlang'ich maktablar, yuqori o'rta maktablar hamda oliy ta'lim beradigan universitetlarni oladi.

Bolalar bog'chalariga bolalar 3-5 yoshlarida boradilar va 3, 2, 1 yillik ta'lim kurslariga jalb qilinadilar.

Boshlang'ich maktabga bolalar 6 yoshdan boradai va 6 yil o'qiydi. Boshlang'ich maktabni tugatgandan keyin kichik o'rta maktabda 3 yil ta'lim oladilar. YAponiyada 9 yillik bu ta'lim majburiy bo'lib, barcha bolalar bepul o'qitiladi, ular tekin darsliklardan foydalanadilar.

YUqori bosqich o'rta maktab YAponiyada ixtiyoriy bo'lib, uning kunduzgi, kechki va sirtqi turlari mavjud. O'qish muddati 3 yil.

Oliy ta'limga yuqori bosqich o'rta maktablarni tugatgan bitiruvchilar qabul qilinadilar. Oliy ta'limni universitetlarda olish mumkin. Oliy ta'lim tizimiga kirgan bo'lsada, o'rta maxsus ta'lim beradigan kichik kollej, texnik kollej, maxsus tayyorgarlikdan o'tish imkonini beruvchi kollejlar ham mavjud. YAponiyada faoliyat olib borayotgan 460 ta universitetning yarmidan ko'pi xususiydir.

III. Frantsiyada ta'lim tizimi quyidagi bosqichlar asosida shakllangan:

1. Maktabgacha tarbiya – 2 yoshdan 6 yoshgacha bolalarni o'z ichiga oladi.
2. Boshlang'ich ta'lim – 6 yoshdan 11 yoshgacha bo'lgan bolalarning 3 bosqichda ta'lim olishlariga imkon beradi. Tayyorlov bosqichi uchun 1 yil, elementar kurslar uchun 2 yil ta'lim muddati belgilangan. Boshlang'ich ta'limning 3-bosqichi 2 yillik chuqurlashtirilgan bosqichdir.
3. O'rta ta'lim ikki bosqichda beriladi. O'rta ta'limning birinchi bosqichi 4 yillik ta'lim beruvchi kollejlar, ikkinchi bosqich esa 3 yillik ta'lim beruvchi litseylarda amalga oshiriladi. 3 yillik litseyni tugatgan bitiruvchilar «Bakalavr» darajasini olish uchun imtixon topshiradilar.

Oliy ta'lim universitetlar va oliy ixtisoslik maktablarida olib boriladi.

## **2. Kasbiy ta'lim turi va tizimi. Kasbiy ta'lim rivojlanishining asosiy omillari.**

Kasb-hunar maktablari va o'quv-moddiy bazalari hozirgi zamon o'quv jarayonida bir necha yo'nalishda rivojlanishi;

– ta'lim oluvchilarning o'quv texnika vositalariga nisbatan ijobiy yondoshuvi va ulardan samarali foydalanishga nisbatan ijobiy munosabatlarini shakllantirish;

- o'quv ko'rgazma vositalarini qo'llash;
- o'qitish vositalarining o'zaro aloqadorligi va bog'liqligi.

Hozirgi paytda to'rtta yo'nalishdagi yangi informatsion texnologiya o'qish jarayonida qo'llanilmoqda:

- Nashriyot texnologiyalari.
- Telekommunikatsiya.
- Katta maketlar va ommaviy axborot vositalari.
- Kompyuter robototexnikasi.

Hozirgi kunda ilg'or texnologiyalardan foydalanish borasida qator qarorlar qabul qilingan. Ushbu texnologiyalardan foydalanishga tibbiyot xodimlari va psixolog mutaxassislar tekshiruvidan so'ng ruxsat berilishi lozim. O'qitish vositalarining afzalligi ularning yuqori texnologik imkoniyatlari bilangina emas, balki eng avvalo o'qitish samaradorligini oshirishdagi pedagogik xususiyatlari bilan belgilanadi. Bu vositalarning ayrim didaktik imkoniyatlarining ko'rsatib o'tish kifoyadir. Masalan: tabiiy va texnikaga oid fanlarni o'rganish jarayonida yangi informatsion texnologiyalar asosidagi o'qitish vositalari tizimi, xususan, datchik va moslamalar majmui o'rganilayotgan shaxsga izlanishni keng ko'lamda olib borish imkonini beradi.

- Tadqiqot yoki uning bir bosqichni bir necha marta takrorlash lozim bo'lganda o'lchamlarini qayd qilib yozib borish.

- Modellashtirishning turli xil yo'llari, xususan, tajriba natijalarini qo'llash.

- Olingan ma'lumotlarini qayta ishlashda avtomatlashtirishning yuzaga kelishi.

- O'rganilayotgan materialining turli shakllardagi tushuncha va tasavvurlarini vizuallashtirish (ko'rgazmali qilish).

- Texnikaviy moslama va mexanizmalarga taqlid qiluvchi robotlarni yaratish.

Turli xil yo'nalishlarga mo'ljallangan ishlab chiqarish dasturlari foydalanuvchilar oldida bilim olish sohalarida keng imkoniyatlarni yaratadi. Ta'lim oluvchi nafaqat tayyor informatsiya asosida ishlaydi, balki o'zi ham maketlar yaratish imkoniyatiga ega bo'ladi, matematik masalalarni echish, turli vaziyatlarni modellashtirish, tabiiy fanlar-iqtisodiyot, ekologik va gumanitar fanlar bo'yicha tadqiqotlar olib borishi imkoniyatlari yuzaga keladi.

Masofadan turib o'qitishning kelajagi porloqdir. Masofadan o'qitish kompyuter texnologiyalar asosida amalga oshiriladi. O'qitish jarayonini kompleks ravishda tashkil etishga katta ahamiyat beriladi. O'qituvchi-pedagog bu tizimni mukammal bilishi shart. O'qitish vositalari turli xil funktsiyalarini bajarish bilan birga qator imkoniyatlarga ham ega. O'qitish jarayonlari uchta asosiy funktsiyani bajaradi: ma'lumot berish, tarbiyalash hamda rivojlantirish. O'qitish jarayonini ko'rgazmali tashkil etishda kompleksli o'qitish, pedagogik jarayonning barcha asosiy funktsiyalari o'qitish vositalari orqali amalga oshiriladi. O'qitish jarayonini o'qitish vositalari bilan taminlashda iqtisodiy yondoshuv zarur. Tanlangan kasb-hunarning istiqbolli ekanligi va ommaviyligi o'qitish vositalarining kompleksligi asosida loyihalashtirilishi kerak. Ikkinchi, shunday vositalarni tanlash va yaratish kerakki, ular o'quv- tarbiyaviy masalalarini eng kam sarf harajatlar bilan amalga oshirishni taminlasin. O'qitish vositalaridan kompleks foydalanishning samaradorligi ularni qo'llashda ratsional jihozlanishga nisbatan aniq talab va tavsiyalar qo'yilishi lozim. Talab va tavsiyalar esa quyidagilardan iboratdir:

- ko'rgazmali qurol, tarqatma material va darsda qo'llanilayotgan o'qitish vositalari keragidan ortiq darajada qo'llamaslik;

- darsda qo'llaniladigan vositalar (plakat, sxema, model, maket, mulyaj, detal va boshqalar) har doim oldindan ko'rib chiqib tanlab olingan va foydalanish tartibda tayyor bo'lishi kerak;

- texnik vosita va boshqa ko'rgazmali qurollarda oldindan ishlatib ko'rish lozim;

- individual qo'llash uchun tanlangan didaktik ko'rgazmali qurollar va boshqa qo'llanmalar barcha ta'lim oluvchilar uchun etarli bo'lishi kerak;

- ko'rgazmali qurollarning etarli darajada ko'rilishi va eshutilishini taminlash;

- har bir didaktik materialning qo'llanilish maqsadi va o'rnini aniq rejalashtirib olish.

Masofadan o'qitish o'quv jarayonini oliy darajada tashkil etish va o'quv materialini translyatsiya qilish imkoniyatini beradi. Masofadan o'qitishni tashkil qilish turlari quyidagichadir:

– saqlanib qo'yilgan o'quv materialini («Konservalangan») kompyuter o'qitish vositasi yordamida uzatish;

– turli masofada joylashgan sinf va guruhlariga yagona materialni uzatish;

– fan arboblari, pedagog navatorlar, uslubchilarning lektsiya va mashg'ulotlari tasvirini uzatish;

– telekonferentsiya va munozaralar jarayon tushirilgan tasvirni uzatish;

– o'quv uslubiyot materiallarining almashuvini taminlash.

Telekommunikatsiya tizimlarining qo'llanishi yangi pedagogik va kasbiy bilimlarni eng qisqa muddatda uzatishni imkoniyatini beradi. Informatsion texnologiyalarning rivojlanishi o'qitishning yana bir yo'nalishini – media o'qitishni vujudga keltiradi. Bunda ta'lim oluvchilar turli xil ommaviy vositalari (gazeta, jurnallarni, TV, kino, radio, video va boshqa) mazmunini egallab olishga tayyorlash yo'nalishida olib boriladi. Umuman olganda yangi tashkil qilingan va modernizatsiyalashgan o'qitish vositalarida quyidagi o'ziga xos an'analar mavjud:

- qo'llanmalarining sonini qisqartirish (tanlanganlik, keraklilik va etarlilik);

- ularni funktsional imkoniyatlarini kengaytirish (ko'plab funktsional tamoyillari);

- o'qitish vositalarini komplektlash va ular tizimini ishlab chiqish sharoitini yaratish;

- ta'lim oluvchilarning mustaqil o'qishi, chunonchi, turli o'qitish darajalarda ilmiy tekshirish va tajriba ishlari majmualarini yaratish;

- maxsus yo'naltirilgan modul majmualarni yaratish.

**O'qitish vositalari tizimini shakllanish texnologiyasi va ularni kompleks ishlatilishi.** Qech qaysi o'qitish vositalari alohida qo'yilgan o'qitish maqsadlarini taminlay olmaydi, shu bois ta'lim jarayonida o'qitish vositalarini qo'llash maqsad emas, balki ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasini oshirish imkoniyati yaratishga xizmat qiluvchi pedagogik faoliyat usulidir. O'qitish vositalaridan foydalanish quyidagi holatni yuzaga keltiradi:

|                                                                                      |                                                     |                                                                                                                                     |
|--------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| O'quv dasturi, predmeti va o'quv materiallari tarmoqlarini qamrab olish              |                                                     | O'quv jarayonida o'qitish vositalarni belgilangan didaktik funktsiyalar va imkoniyatlarga qarab moslashtirish                       |
| O'quv jarayonining asosiy bo'g'inlarini qamrab olish                                 | Ta'lim vositalar tizimini o'quv majmuasida qo'llash | O'qitish jarayoniga barcha funktsiyalarning oliy tarbiyaviy, rivojlantiruvchi, ta'lim beruvchi omillarini joriy qilish va taminlash |
| Ta'lim oluvchining o'quv faoliyati va o'qituvchining pedagogik faoliyatini taminlash |                                                     | Quyidagilar talab qilinadi: iqtisodiy vaziyat, ozodalik, atrof-muhitni muhofaza qilish, mehnat xavfsizlikka rioya etish             |

- ko'rgazmali va texnik vositalaridan uzluksiz foydalanishni taminlash va ta'lim oluvchilarda ular bilan ishlash ko'nikma va malakalarini shakllantirish;  
- ta'lim oluvchilarning darsda ishlashlarini shunday tashkil qilish kerakki, ular nafaqat kuzatish asosida kerakli informatsiyani olsinlar, balki texnik vositalar va ko'rgazmali qurollar bilan unumli va samarali ishlashsinlar.

Ta'limni quyidagi yo'nalishlarda isloh qilish vazifalari belgilab olindi:

- umuminsoniy qadriyatlar va milliy madaniyat asoslarini e'tiborda tutgan holda ta'lim-tarbiya mazmunini milliy mafkura, mustaqil Vatan tuyg'usi asosida o'zgartirish va takomillashtirish;
- ta'lim samaradorligini tinmay oshirish, jahon andozalari darajasiga olib chiqish;
- variativ o'quv rejalari, dasturlar, darsliklar yaratish;
- bilimdonlik va iste'dodni qo'llab-quvvatlash;
- ilg'or tajribalarga, ijodkor ustozlar tajribasiga suyanish;
- ta'lim-tarbiyada bosh islohotchi bo'lgan pedagog, tarbiyachilarning yangi avlodni tayyorlashga kirishish;
- ta'lim muassasalarining moddiy-texnika asosini mutahkamlash, ta'limni komp'yuterlashtirish, o'quv jarayoniga yangi pedagogik texnologiyani olib kirish;
- ta'lim tizimini, boshqaruv faoliyatini takomillashtirish;
- isloh g'oyalarini iloji boricha viloyat, tuman, O'quv muassasasi pedagogik jamoalariga tezroq etkazish, singdirish, amalga oshirish:

Rivojlangan mamlakatlarning tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, qayerda ta'lim va tarbiyaga e'tibor katta bo'lsa, o'sha erda taraqqiyot, yuksalish bor. Shuning uchun respublikamizning istiqboli uzluksiz ta'limni qay darajada amalga oshirilishiga bog'liq.

### **3. Uzluksiz, kasb-hunar ta'lim tizimida o'rta maxsus ta'limning o'rni va ahamiyati.**

Ta'lim jarayoni ishtirokchilari (o'qituvchi va tahsil oluvchilar)ning ma'lum belgilangan tartibda amalga oshiriladigan hamkorlikdagi faoliyatining tashqi ko'rinishi kasbiy ta'limning tashkiliy shaklini anglatadi.

Kishilik jamiyatining taraqqiyot etish jarayonida ta'limning tashkiliy shakllari turlicha bo'lgan.

Qadimgi paytlarda yakka tartibda o'qitish usuli keng tarqalgan bo'lib, ma'lum ijodiy jihatlariga ega bo'lganligi bois bu usul hozirgacha saqlanib qolgan. O'rta asrga kelib, kasbiy ta'lim-tarbiya kichik guruhlar shaklida o'tkazila boshlagan. Chunki bu davrda sanoat ishlab chiqarishi yo'lga qo'yilayotgan edi.

XVI asrning oxiri va XVII asrning boshlarida chex pedagogi YA.A.Komenskiy sinf-dars tizimini nazariy jihatdan isbotlab berdi.

Hozirgi paytda kasbiy ta'limning tashkiliy shakllari quyidagi xususiyatlarga binoan turlanadi:

1. Tahsil oluvchilar soniga ko'ra — ommaviy, jamoa, guruhli, individual.
2. O'qitish joyiga ko'ra — ta'lim-tarbiya muassasalarida va ulardan tashqarida (o'quv ustaxonalarida, mashq maydonlarda, korxonalarda, uy ishlari, sayohat va shu kabilar).
3. O'quv vaqtining davomiyligiga ko'ra — 45 daqiqalik, juftlik (90 daqiqa), qisqartirilgan (70 daqiqalik), qo'ng'iroqsiz.

Amaliyotda sinf-dars tizimi keng ko'lamda qo'llanilganligi sababli dars ta'lim-tarbiya ishining asosiy shakli deb yuritiladi. Sinf-dars tizimining o'ziga hos jihatlari quyidagilar:

- deyarli bir xil tarkib, yosh va tayyorgarlik darajadagi tahsil oluvchilar ishtirok etadi;
- ta'lim-tarbiya jarayoni o'zaro bog'liq alohida-alohida qismlar ko'rinishiga ega bo'ladi;
- har bir dars o'quv rejasiga kirgan ma'lum bir o'quv predmetiga oid bo'ladi;
- darslar muntazam ravishda almashib turadi;
- kasb ta'limi darslariga o'qituvchi, muhandis-pedagog, tajribali mutaxassis kabilar rahbarlik qiladi;
- tahsil oluvchilar turli ko'rinishdagi o'quv-bilish jarayonida ishtirok etadilar.

Quyidagilar sinf-dars tizimining ijobiy tomonlari hisoblanadi:

- qat'iy tashkiliy tuzilmaga egaligi;
  - iqtisodiy ko'rsatkichlarining nisbatan yuqoriligi. Chunki bir o'qituvchi bir vaqtni o'zida ko'p sonli tahsil oluvchilar bilan ishlaydi;
  - o'zaro hamkorlik faoliyatini amalga oshirishga qulay sharoit yaratiladi.
- Shu bilan birga, sinf-dars tizimining quyidagi kamchiliklari ham e'tirof etilgan:
- o'rtacha tahsil oluvchiga mo'ljallanganligi;
  - har bir tahsil oluvchi bilan individual ishlash imkoniyatining yo'qligi.

Ijtimoiy talablar, kasb ta'limining maqsad va vazifalari, tahsil oluvchilarning talab hamda ehtiyojlari, ta'lim-tarbiya qonuniyatlari, printsiplari kabilarga ko'ra kasbiy-ta'lim darslariga quyidagi talablar qo'yilishi lozim:

1. Fan-texnika va ishlab chiqarish texnologiyalarining so'nggi yutuqlari, ilg'or pedagogik tajribalardan imkon qadar foydalanish, ta'lim-tarbiya qonuniyatlari asosanib, dars tuzilmasini maqbullashtirish.
2. Darsda barcha didaktik printsiplarning maqbul nisbatini ta'minlash.

3. Tahsil oluvchilarning qiziqishi, ehtiyojlari, moyilligini hisobga olgan holda mahsulli o'quv-bilish faoliyati uchun shart-sharoit yaratish.
4. O'quv materialini mukammal o'zlashtirilishi uchun fanlararo aloqadorlikka amal qilish.
5. Tahsil oluvchilar tomonidan ilgari o'zlashtirilgan bilimlar va ularning hayotiy tajribalariga tayangan holda ish ko'rish.
6. Tahsil oluvchilarning barcha ijobiy jihatlarini rag'batlantirish, o'quv-bilish faoliyatini faollashtirish yo'li bilan rivojlantirishga erishish.
7. Darsning barcha bosqichlarida mantiqiy va his-tuyg'ularga asoslanish.
8. Didaktik materiallar va vositalardan samarali foydalanish.
9. Nazariy materialni amaliyot bilan uzviy bog'lab o'rganish.
10. Zarur bilim, ish-harakat, oqilona fikrlash va amaliy faoliyat ko'rsatish usullarini tarkib toptirish.
11. Tahsil oluvchilarda uzluksiz ravishda o'qib-o'rganish, o'z bilimi va kasbiy mahoratini oshira borish malakasini shakllantirish.
12. Darslarni mukammal rejalashtirish natijalarini oldindan bashorat etish va tashhislash.

Kasb ta'limiga oid zamonaviy darslarda bir-biri bilan uzviy bog'liq ta'lim, tarbiya va rivojlantiruvchi maqsadlarni uyg'unlashtirish bu sohadagi aniq maqsadlarni ham aniqlashtirib olishni talab etadi.

Kasb ta'limda zamonaviy darslarga quyidagi didaktik talablar qo'yiladi:

- A) har bir darsning ta'limiy vazifasini aniq belgilab olish;
- B) ijtimoiy talab va tahsil oluvchilarning ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta'lim mazmunini maqbullashtirish;
- V) o'quv-bilish faoliyatini samarali pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish;
- G) ta'limning turli shakl, metod va vositalarining uyg'unligini oqilona ta'minlash;
- D) dars tuzilmasini ijodiy yondoshgan holda shakllantirish;
- J) tahsil oluvchilarning turli o'quv-bilish faoliyatlarini uyg'unlashtirish;
- Z) ta'lim jarayoni ishtirokchilari orasida tezkor-teskari aloqani ta'minlash, ta'sirchan boshqaruv mexanizmini ishlatish;
- E) darsni ilmiy-uslubiy asosda tashkil etish.


Darsga qo'yiladigan tarbiyaviy talablar quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- o'quv materialining tarbiyaviy imkoniyatlarini aniqlab, ulardan oqilona foydalanish;
- ta'lim mazmuni va maqsadlaridan kelib chiqadigan tarbiyaviy vazifalarni qo'yish;
- tahsil oluvchilarni umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash;
- tahsil oluvchilarga aniq va do'stona munosabatda bo'lish;
- Rivojlantiruvchi talablar;
- tahsil oluvchilarda o'quv-o'rganishga bo'lgan ijobiy rag'batni shakllantirish va rivojlantirish;
- tahsil oluvchilarning ruhiy xususiyatlari va rivojlanganlik darajasini o'rganish va xisobga olish;

-o'quv mashg'ulotlarini ilgari lab borish darajasida o'tkazish;  
 -tahsil oluvchilarni aqliy, emotsional va ijtimoiy rivojlanishlarini oldindan bashorat etish va bo'ladigan o'zgarishlarga mos ravishda tezkor o'zgartirishlar kiritish;

Bundan tashqari kasb ta'limi metodikasida tashkiliy, psixologik, boshqaruvchilik, maqbul muloqot o'rnatish, xamkorlik qilish, sanitariya-gigiena, etika va shu kabi talablar ham hisobga olinadi.

### Ishlab chikarish ta'limining shakllari



### O'quv ustaxonalarining jihozlanishi.

Ma'lumki, kasb-hunar ta'limining moddiy-texnika bazasi yaxshi ta'minlangan va ulardan maqbul foydalanilgan hollardagina, sifat jihatdan ko'zlangan mutaxassis kadrlar tayyorlash imkoniyati tug'iladi. Shu bois o'quv muassasalarining o'zida ham, korxona tsexlarida ham yaxshi jihozlangan ustaxona, maydonlar tashkil qilinishi nazarda tutiladi. Tahsil oluvchilar bu erda ish o'rnini oqilona tashkil etish malakalarini egallaydilar, uni bajarish uchun zarur bo'lgan asbob-uskunalar, moslamalar, mexanizmlar bilan tanishadilar, operatsiyalar va xatti-harakatni bajarish tartibini, ishlab chiqarish madaniyatini egallaydilar. O'quv vaqtidan oqilona foydalanish xavfsizlik texnikasi, ishlab chiqarish va texnologik talablarga rioya qilishni o'rganadilar. Ta'lim muassasalarida o'quv ustaxonalarining mavjudligi tahsil oluvchilarni frontal o'qitish uchun zarur sharoitlar yaratadi, nazariy mashg'ulotlarni amaliyot bilan oqilona bog'lab o'rganilishiga imkon beradi, materiallarni o'quv dasturiga muvofiq izchillikda o'rganishni ta'minlaydi.

O'quv ustaxonalarini tashkil qilish, ularni jihozlash va rejasini tuzish ta'lim muassasasining turi, tayyorlanadigan mutaxassislik xarakteri va ishlab chiqarish xususiyatlariga muvofiq holda amalga oshiriladi.

Ishlab chiqarish ta'limi maqsadlarida foydalaniladigan o'quv ustaxonalari va yordamchi xizmat binolari puxta o'ylab joylashtirilishi hamda o'quv va texnologik talablarga to'liq javob berishi kerak. O'quv-ishlab chiqarish ustaxonalarining

tarkibi hamda maydoni sanoat, qurilish, transport, maishiy xizmat ko'rsatishning tegishli sohalarini loyihalashtirishning texnologik me'yoriga, shuningdek, qurilish me'yori va qoidalariga javob berishi kerak.

Kasb-hunar kollejlarning yangi majmualarini, o'quv ustaxonalarini qurishda ta'lim muassasalarini loyihalashtiruvchi tashkilotlarning loyihalariga amal qilish lozim. O'quv ustaxonalarini birinchi qavatga joylashtirib, kelgusida uning kengaytirish mumkinligini nazarda tutgan holda rejalashtiriladi. Ustaxonalarda bajariladigan ishlar natijasida shovqin chiqishini hisobga olib, ularni imkon boricha binoning alohida qanotiga yoki nazariy mashg'ulotlar o'tkaziladigan binolardan uzoqroqda joylashtirish kerak.

O'quv ustaxonalarida ishlashga qulay sharoit yaratish uchun quyidagilar bo'lishi zarur:

- havoning harorati qish paytida 15-16°S dan past bo'lmasligi, yozda esa 20°S dan oshmasligi kerak. Ustaxona binosida havo almashinishi tabiiy yoki sun'iy ravishda amalga oshiriladi.

Ustaxona poli iliq, yuzasi tozalash uchun qulay, sirpanmaydigan bo'lishi talab etiladi. Devorlar ochiq rangga, ship esa binoni yaxshiroq yoritilishi uchun oq rangga bo'yaladi.

O'quv ustaxonalari va maydonlari bilim yurtida tayyorlanadigan kasb va ixtisosliklarga ko'ra me'yorlanadi. Kasb-hunar kollejlari o'quv ustaxonalarini rejalashtirishda quyidagi umumiy talablarga amal qilinadi:

1. O'quv ustaxonalari mashg'ulotlarni amaliy ta'lim dasturiga muvofiq o'tkazishga moslashtirilgan bo'lishi kerak.
2. Har bir bo'lim maydoni va asbob-uskunalar miqdoriga ko'ra hamda egallanadigan kasb, ixtisoslikka muvofiq 25-30 yoki 12-15 nafar talabalar guruhini bir vaqtning o'zida o'qitishga mo'ljallanadi.
3. Guruhlarni frontal o'qitishga mo'ljallangan bo'lishi kerak.
4. Tayyorlanadigan har bir kasb va ixtisoslikning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, alohida bo'limlar, shuningdek, asboblari va materiallar saqlanadigan omborxona, mexanika bo'limi va hokozolar tashkil etiladi.
5. Texnologik jarayon jihatidan bog'liq bo'lgan bo'limlarni bir-biriga yaqinroq joylashtirish zarur.
6. Silliqlaydigan, jilviraydigan va charxlaydigan dastgohlar odatda alohida binoga o'rnatiladi. Agar buning iloji bo'lmasa, bunday dastgohlar ustiga havoni so'rib oluvchi ventilyatsiya o'rnatiladi.
7. Ish jarayonida ko'p miqdorda gaz, chang yoki kuchli shovqin chiqaradigan bo'limlar to'liq izolyatsiya qilinadi.
8. Ustaxonalar dasturning mazkur mavzusi o'rganilayotganda osib yoki o'rnatilib qo'yiladigan kerakli ko'rsatmali qurollar, jadvallar, o'quv ishlab chiqarish ishlarining ro'yxati bilan ta'minlanadi.
9. Ustaxona devorining bir tomoniga guruh talabalariga tegishli ko'rsatgichlar o'rnatiladi.

10. Ustaxonaning barchaga yaxshi ko'rinadigan joyiga birinchi yordam ko'rsatish uchun mo'ljallangan dori-darmon solingan aptechka va qaynatilib sovutilgan suvli bak qo'yiladi.
11. Tahsil oluvchilarning ish o'rnidagi individual asbob-uskunalar komplekti va zarur jihozlar uchun maxsus moslamalar bo'lishi kerak.
12. Ustaxonada tozalash uchun ishlatiladigan materiallar, qirindi, qipiqni yig'ishga mo'ljallangan qopqoqli yashik; ularni yig'ishtirib olish uchun hokandoz, belkurak, ustaxonani tartibga keltirish uchun cho'tkalar bo'lishi kerak.
13. Ustaxonada yong'inga qarshi zaruriy inventar bo'lishi shart.

O'quv ustaxonalar tahsil oluvchilar ishlab chiqarish ta'limi dasturi talablariga muvofiq topshiriqlarni bajarishlari uchun zarur bo'ladigan, mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi talablariga javob beradigan individual va ommaviy foydalanishga mo'ljallangan asosiy va yordamchi o'quv-ishlab chiqarish asbob-uskunalar bilan jihozlanadi.

O'quv ustaxonasiga jihozlarni joylashtirishda quyidagilar nazarda tutiladi:

1. O'qituvchi o'z ish o'rnida turib, tahsil oluvchilar guruhiga yo'l-yo'riq berish imkoniyatini;
2. Tahsil oluvchilarning maqbul ishlari uchun eng qulay va xavfsiz sharoitni;
3. Ishlash, ta'mirlash vaqtida, shuningdek, materiallar tashishda har tomondan kelishning qulayligini faqat ishchi turadigan dastgoh orasidan o'tish joylarining kengligi 05-08 m, dastgohlar qatori orasidagitish yo'lining kengligi eng kamida 1,2 m aravacha, elektrokar va boshqa transport vositalari o'tadigan joyning kengligi 2 m dan qilib belgilanadi. O'quv ustaxonasidagi barcha turdagi jihozlarning xavfli joylari sim to'r, kojuxlar bilan to'sib qo'yiladi.

Ish o'rne deganda o'quv ustaxonasi yoki tsexning alohida ishchi ixtiyorida bo'lgan va u ishlab chiqarish topshirig'ini bajarishida kerak bo'ladigan jihoz, moslama, asbob va materiallarning maqsadga muvofiq holda joylashtirilgan ma'lum qismi nazarda tutiladi. Odatda, ish o'rne quyidagilarni qamrab oladi:

- ishchi foydalanadigan mehnat vositalari o'rnatilgan, normal ishlash uchun zarur bo'lgan maydon;
- ish bajariladigan jihozlar, mexanizm va moslamalar;
- material, yarim tayyor mahsulot, tayyor mahsulotlar, chiqindilarni joylashtirish, saqlash uchun maxsus qurilmalar;
- asbob-uskunalar, moslamalar va texnikaga oid hujjatlarni joylashtirish va saqlash uchun maxsus qurilmalar;
- har bir ish o'rniga mo'ljallangan ko'tarma-transport vositalari;
- normal va xavfsiz mehnat sharoitlarini ta'minlovchi qurilmalar.

Shunday qilib, ish o'rne amaliy mashg'ulotlar dasturini to'liq va sifatli bajarishiga sharoit yaratadigan qilib tashkil etilishi zarur. Ish o'rnini tashkil etish, eng avvalo, oqilona mehnat jarayonini, tahsil oluvchilarning toliqishini kamaytirishni nazarda tutadi.

Tahsil oluvchilar ish o'rnida tartib-qoidaga rioya qilishlari uchun quyidagi talablarga amal qilishlari lozim:

- ishga kerakli bo'lgan barcha predmetlar zarur bo'lgan paytda darhol topish uchun qo'l ostida bo'lish kerak;
- ish jarayonida tez-tez ishlatiladigan asbob-uskunalar, materiallarni ishchiga yaqinroqqa, kamroq ishlatiladiganlari esa uzoqroqqa joylashtiriladi;
- foydalaniladigan barcha jihoz va materiallar taxminan bel balandligida joylashtiriladi;
- asbob va moslamalarni qaysi qo'l bilan olish qulay bo'lsa, o'sha tomonga joylashtiriladi;
- bir predmetni ikkinchisi yoki ishlov berilayotgan mahsulotning ustiga qo'yish mumkin emas;
- hujjatlar foydalanish uchun qulay, shu bilan birga iflos bo'lmaydigan joyda saqlanadi;
- yarim mahsulot, materiallar, tayyor mahsulotlar o'tish yo'llarini to'smaydigan hamda halaqit bermaydigan holatda saqlanishi zarur, engil narsalarni og'irlaridan yuqoriroqqa qo'yiladi.

O'qituvchining ish o'rnini mashg'ulotlarni samarli o'tkazish va ish vaqtining bekor ketmasligini ta'minlashga yordam berishi kerak. U iloji boricha talabalarni to'liq ko'ra olishi uchun, 25-30 sm balandlikka joylashtiriladi.

Jismoniy, ruhiy nuqtai nazardan olib qaralganda, kasbiy ta'lim-tarbiya jarayoni tahsil oluvchilarning o'sib-rivojlanayotgan organizmi uchun sezilarli darajada og'irlik beradi. Shuning uchun ham o'quv rejimini yuqori ish qobiliyatini ta'minlaydigan, o'quvchi-talabaning sog'ligiga zarar etkazmaydigan qilib tashkil etiladi. Tahsil oluvchilarning ish rejimini belgilashda ish qobiliyatini quyidagi bosqichlari inobatga olinadi:

I-bosqichda o'quvchi-talaba vazifani olib, ustoz yordamida ishga kirishadi, asta-sekinlik bilan mehnat unumdorligi oshib boradi;

II-bosqichda yuqori unumdorlikka erishiladi;

III-bosqichda ish unumdorligi pasayib, charchash holati vujudga keladi. Bu holda o'qituvchi-ustoz talabaning holatini ko'zdan qochirmasligi, uning ishini tezroq, sifatli ravishda tugallashiga kumaklashuvi zarur.

## **5-MAVZU: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KADRLAR TAYYORLASH MILLIY MODELNING O'ZIGA HOSLIGI.**

1. O'zbekiston Respublikasi yangi, davlat ta'lim siyosatining tamoyillari. Milliy dasturning kadrlar tayyorlash tizimi va mazmuni, mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish istiqbollari, jamiyat ehtiyojlari, fan, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda, qayta tuzish vazifalari.
2. Kadrlar tayyorlash tizimi rivojlanishining asosiy yo'nalishlari. Milliy dasturni amalga oshirish bosqichlari. Shaxs-milliy modelning asosiy komponenti. Uzluksiz ta'lim tizimini amalga oshirish va rivojlantirish tamoyillari. Milliy dasturni amalga oshirishning asosiy tashkiliy chora-tadbirlari.
3. Jamiyatni liberallashtirish va demokratlashtirish, dunyo bozori sharoitidagi va talablarga javob beruvchi jamiyatga qaratilgan iqtisodni shakllantirish sharoitida ta'limni isloh qilish strategiya va taktikasi.

**1. O'zbekiston Respublikasi yangi, davlat ta'lim siyosatining tamoyillari.**  
**Milliy dasturning kadrlar tayyorlash tizimi va mazmuni, mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish istiqbollari, jamiyat ehtiyojlari, fan, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda, qayta tuzish vazifalari.**

O'zbekiston Respublikasi siyosiy mustaqillikni qo'lga kiritgach, ijtimoiy hayotimizning barcha sohalarida tub islohotlar amalga oshirila boshlandi. Totalitar boshqaruv usuli asosida ish yuritilayotgan xalq ta'limi tizimida ham so'nggi o'n yilliklar davomida yuzaga kelgan muammolarni hal etish vazifasi Respublika hukumati hamda mutasaddi tashkilotlarni ta'lim tizimida ham jiddiy o'zgarishlarni amalga oshirishga undadi. Bu boradagi sa'i-harakatlarning samarasi sifatida 1992 yil iyul oyida mustaqil O'zbekistonning ilk «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni qabul qilindi. Mazkur Qonun mazmunida Respublika ta'limi tizimi, uning asosiy yo'nalishlari, maqsad, vazifalari, ta'lim bosqichlari va ularning mohiyati kabi masalalar o'z ifodasini topdi. Biroq, 1997 yilga kelib, O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni va uning mazmunida ilgari surilgan g'oyalarning amaliyotga tadbiqui tahlil etilganda bu borada muayyan kamchiliklarga yo'l qo'yilganligi aniqlandi. O'tkazilgan tahlil natijalariga ko'ra, ta'lim tizimida olib borilayotgan islohot aksariyat o'rinlarda chuqur ilmiy asoslarga ega bo'lmaganligi ma'lum bo'ldi hamda kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilish zarurligi belgilandi. Shu bois O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qabul qilindi.

Xo'sh, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qanday hujjat? Uning mazmunida qanday g'oyalar ifoda etilgan?

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunining qoidalariga muvofiq, milliy tajribaning tahlili va ta'lim tizimidagi jahon miqyosidagi yutuqlar asosida tayyorlangan hamda yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo'ljalni to'g'ri ola bilish mahoratiga ega bo'lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo'naltirilgandir<sup>1</sup>.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning maqsadi – ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarash va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash Milliy tizimini yaratishdan iboratdir<sup>2</sup>.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ilgari surilgan maqsadning to'laqonli ro'yobga chiqarish bir qator vazifalarning ijobiy hal qilinishini nazarda tutadi. Dasturda bu boradagi vazifalarning quyidagilardan iboratligi ko'rsatiladi:

---

<sup>1</sup> Kadrlar tayyorlash milliy dasturi //Oliy ta'lim: me'yoriy hujjatlar to'plami. – Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa aktsiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati. 2001. – 20-bet.

<sup>2</sup> O'sha manba, – 25-bet.

- «Ta'lim to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq ta'lim tizimini isloh qilish, davlat va nodavlat ta'lim muassasalari hamda ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasida raqobat muhitini shakllantirish negizida ta'lim tizimini yagona o'quv, ilmiy-ishlab chiqarish majmui sifatida izchil rivojlantirishni ta'minlash;

- ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini jamiyatda amalga oshirayotgan demokratik huquqiy davlat qurilishi jarayonlariga moslashtirish;

- kadrlar tayyorlash tizimi muassasalarini yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlash, pedagogik faoliyatining nufuzi va ijtimoiy maqomini ko'tarish;

- kadrlar tayyorlash tizimi va mazmunini mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollaridan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda qayta qurish;

- ta'lim oluvchilarni ma'naviy axloqiy tarbiyalashning va ma'rifiy ishlarning samarali shakllari hamda uslublarini ishlab chiqish va joriy etish;

- ta'lim va kadrlar tayyorlash, ta'lim muassasalarini attestatsiyadan o'tkazish va akkreditatsiya qilish sifatiga baho berishning xolis tizimini joriy qilish;

- yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda ta'limning talab qilinadigan darajasi va sifatini, kadrlar tayyorlash tizimining amalda faoliyat ko'rsatishi va barqaror rivojlanishining kafolatlarini, ustuvorligini ta'minlovchi normativ, moddiy-texnika va axborot bazasini yaratish;

- ta'lim, fan, ishlab chiqarish samarali integratsiyalashuvini ta'minlash, tayyorlanayotgan kadrlarning miqdori va sifatiga nisbatan davlatning talablarini, shuningdek, nodavlat tuzilmalari, korxonalar va tashkilotlarning buyurtmalarini shakllantirishning mexanizmlarini ishlab chiqish;

- uzluksiz ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimiga byudjetdan tashqari mablag'lar, shu jumladan, chet el investitsiyalari jalb etishning real mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

- kadrlar tayyorlash sohasida o'zaro manfaatli xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

Milliy dasturning maqsad va vazifalari bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Har bir bosqichda muayyan vazifalarning hal etilishi<sup>1</sup> nazarda tutiladi. Ushbu vazifalar quyidagilardan iboratdir:

**Birinchi bosqich** (1997-2001 yillar) mavjud kadrlar tayyorlash tizimining ijobiy salohiyatini saqlab qolish asosida ushbu tizimni isloh qilish va rivojlantirish uchun huquqiy, kadrlar jihatidan, ilmiy-uslubiy, moliyaviy shart-sharoitlarni yaratish.

**Ikkinchi bosqich** (2001-2005 yillar) - Milliy dasturni to'liq ro'yobga chiqarish, mehnat bozorining rivojlanishi va real ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni hisobga olgan holda unga aniqliklar kiritish. Bu bosqichda, shuningdek, ta'lim muassasalarini maxsus tayyorlangan malakali pedagog kadrlar bilan to'ldirish ta'minlanadi, ularning faoliyatida raqobatga asoslangan muhit vujudga keltiriladi.

---


<sup>1</sup> O'sha manba, – 27-29-betlar.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» maqsadini ro'yobga chiqarishning ikkinchi bosqichda ta'lim muassasalarining moddiy-texnika va axborot bazasini mustahkamlash davom ettiriladi, o'quv-tarbiya jarayonining yuqori sifatli o'quv adabiyotlari va ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash, uzluksiz ta'lim tizimini axborotlashtirish vazifalarining ham hal etilishi alohida urg'u beriladi.

**Uchinchi bosqich** (2005 va undan keyingi yillar) to'plangan tajribani tahlil etish va umumlashtirish asosida, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbollariga muvofiq kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va yanada rivojlantirish. Bu bosqichda, yana shuningdek,

- ta'lim muassasalarining resurs, kadrlar va axborot bazalarini yanada mustahkamlash;
- o'quv-tarbiya jarayoni yangi o'quv-uslubiy majmualar, ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan to'liq ta'minlanishi;
- milliy (elita) oliy ta'lim muassasalarini qaror toptirish va rivojlantirish;
- ta'lim jarayonini axborotlashtirish, uzluksiz ta'lim tizimi jahon axborot tarmog'iga ulanadigan kompyuter axborot tarmog'i bilan to'liq qamrab olinishiga erishish kabi vazifalarning ham ijobiy echimi ta'minlanadi.


O'zbekiston Respublikasi «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» tarkibiy tuzilmasi quyidagicha aks etadi (1 - chizma).



1 – chizma. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning mohiyati va tarkibiy tuzilmasi

**Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlari.** Kadrlar tayyorlash milliy modeli faqat ta'lim-tarbiya jarayoninigina qamrab olmay, ishlab chiqarish va ijtimoiy munosabatlarni ham o'z ichiga oladi.

Kadrlar tayyorlash milliy modeli shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan va ishlab chiqarish kabi tarkibiy qismlarning o'zaro hamkorligi, ular o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik asosida «yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlarni tayyorlash Milliy tizimi» mohiyatini aks ettiruvchi andoza, loyiha hisoblanadi (2-chizma):



2 - чизма. Кадрлар тайёрлаш миллий моделининг асосий таркибий қисмлари ўртасидаги ўзаро алоқадорлик ва боғлиқлик

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning asosida kadrlar tayyorlash milliy modeli va uning mohiyati yoritiladi. Milliy modelning o'ziga xos xususiyati mustaqil ravishda to'qqiz yillik umumiy o'rta hamda uch yillik o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini joriy etilishi bilan belgilanadi. Bu esa o'z navbatida umumiy ta'lim dasturlaridan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi dasturlariga o'tilishiga zamin yaratadi<sup>1</sup>.

Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iboratdir:

2. Shaxs kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub'ekti va ob'ekti, ta'lim sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchidir.

Shaxs uzluksiz ta'lim jarayonida dunyoviy, ilmiy bilimlarni o'zlashtiradi, fan asoslarini puxta egallaydi, ishlab chiqarish sohalari bilan tanishadi, shuningdek, o'zida ijtimoiy ta'sirlar yordamida ma'naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalab boradi. Shaxsda o'zlashtirilgan bilim, faoliyat ko'nikmalari va hayotiy tajriba asosida kasbiy mahorat ham shakllanib boradi. YUksak ma'naviy-axloqiy

<sup>1</sup> O'sha manba, – 34-bet.

sifatlar va yuqori darajadagi kasbiy malakaga ega bo'lish uchun shaxs o'z oldiga muayyan maqsadni qo'ya olishi hamda unga erishish yo'lida tinimsiz izlanishi, o'qib-o'rganishi lozim. Shundagina u ijtimoiy raqobatga chidamli, malakali kadr bo'lib shakllanadi.

O'z-o'zini anglash tuyg'usiga ega bo'lish, ta'lim sohasidagi xizmatlardan to'laqonli, samarali foydalana olish, ilmiy va kasbiy bilimlarni puxta o'zlashtirishga erishish shaxsga etuk mutaxassis bo'la olishi uchun poydevor yaratadi. Inson kamoloti, eng avvalo, uning o'ziga bog'liqdir. Shu bois milliy dasturda shaxs va uning kamolotini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilgan.

«Ta'lim xizmatlarining iste'molchisi sifatida shaxsga davlat ta'lim olish va kasb-hunar tayyorgarligidan o'tish kafolatlanadi. Ta'lim olish jarayonida shaxs davlat ta'lim standartlarida ifoda etilgan talablarni bajarishi shart.

Shaxs ta'lim xizmatlarining yaratuvchisi sifatida tegishli malaka darajasini olgach, ta'lim, moddiy ishlab chiqarish, fan, madaniyat va xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat ko'rsatadi va uz bilimi hamda tajribasini o'rgatishda ishtirok etadi»<sup>1</sup>.

3. Davlat va jamiyat ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimining faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi kadrlarni tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafillaridir.

Shaxs kamoloti nafaqat o'zi uchun, balki davlat va jamiyat taraqqiyoti, ravnaqi uchun ham muhim ahamiyatga egadir. Binobarin, fuqarolari yuksak ma'naviyatga ega jamiyat har tomonlama taraqqiy etadi.

Shaxs va davlat (jamiyat) o'rtasidagi aloqa ikki tomonlama xususiyatga ega. Shu bois har qanday davlat (jamiyat) o'z fuqarolarining yashashi, mehnat qilishi, iqtidori va salohiyatini ro'yobga chiqarishi, uni namoyon etadi olishi uchun etarli darajada shart-sharoit yaratib bera olishi lozim. Respublika ta'lim tizimida davlat va jamiyat shaxsning har tomonlama shakllanishi, o'zligini namoyon etadi olishi uchun etarli darajada shart-sharoit yaratib berish mas'uliyatini o'z zimmasiga oluvchi sub'ekt sifatida namoyon bo'ladi.

Davlat va jamiyat ta'lim muassasalarining yuqori malakali raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash yo'lidagi faoliyatini ham uyg'unlashtiradi hamda quyidagilarga kafolat beradi:

- fuqarolarning bilim olish, kasb tanlash va o'z malakasini oshirish huquqlarning ro'yobga chiqarilishiga;
- majburiy umumiy o'rta ta'lim hamda akademik litsey yoki kasb-hunar kollejida ta'lim olish yo'nalishini tanlash huquqi asosida majburiy o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini olishga;
- davlat grantlari yoki pulli-shartnomaviy asosda oliy ta'lim va oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limni olish huquqiga;
- davlat ta'lim muassasalarini mablag' bilan ta'minlashga;
- ta'lim oluvchilarning o'qishi, turmushi va dam olishi uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi vazifalarning hal etilishida jamoatchilik boshqaruvini rivojlantirishga;

---

<sup>1</sup> O'sha manba, – 30-bet.

- ta'lim jarayoni qatnashchilarini ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlashga;
- sog'liq va rivojlanishida nuqsoni bo'lgan shaxslarning ta'lim olishiga<sup>1</sup>.

Uzluksiz ta'lim malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo'lib, ta'limning barcha turlari, davlat ta'lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasi va uning faoliyat ko'rsatish muhitini o'z ichiga oladi.

**2. Kadrlar tayyorlash tizimi rivojlanishining asosiy yo'nalishlari. Milliy dasturni amalga oshirish bosqichlari. Shaxs-milliy modelning asosiy komponenti. Uzluksiz ta'lim tizimini amalga oshirish va rivojlantirish tamoyillari. Milliy dasturni amalga oshirishning asosiy tashkiliy chora-tadbirlari.**

Uzluksiz ta'lim kadrlar tayyorlash tizimining asosi, O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlovchi, shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustuvor soha bo'lib, ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy boy shaxsning shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlarning jadal tayyorlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi<sup>2</sup>.

Uzluksiz ta'lim jarayoni shaxsning har tomonlama qaror topishi uchun eng qulay davr sanaladi. Mazkur davrda shaxs fan asoslari hamda kasb-hunar ma'lumotlarini o'zlashtiradi, yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarga ega shaxs va malakali kadr sifatida kamol topib boradi. Unda muayyan dunyoqarash shakllanadi.

O'zbekiston Respublikasida uzluksiz ta'lim Davlat ta'lim standartlari hamda o'quv dasturlari talablariga muvofiq tashkil etiladi.

Uzluksiz ta'limni tashkil etish muayyan tamoyillarga asoslanadi. Jumladan:

- ta'limning ustuvorligi;
- ta'limning demokratlashuvi;
- ta'limning insonparvarlashuvi;
- ta'limning ijtimoiylashuvi;
- ta'limning milliy yo'naltirilganligi;
- ta'lim va tarbiyaning uzviy bog'liqligi, bu jarayonning har tomonlama kamol topgan insonni shakllantirishga yo'naltirilganligi;
- iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularga ta'limning eng yuqori darajasida, izchil ravishda fundamental va maxsus bilim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratish<sup>1</sup>.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da uzluksiz ta'limni isloh qilish yo'nalishlari ham aniq ko'ratib berilgan. Mazkur yo'nalishlar sirasiga quyidagilar kiradi: kadrlar salohiyatini tubdan yaxshilash; pedagoglarning kasbiy nufuzini oshirish; davlat va nodavlat ta'lim muassasalarining turlarini rivojlantirish; ta'lim tizimini tarkibiy jihatdan qayta qurish; ta'lim dasturlarini tubdan o'zgartirish;

<sup>1</sup> O'sha manba, – 30-31-betlar.

<sup>2</sup> O'sha manba, –31-bet.

<sup>1</sup> O'sha manba, –31-32-betlar.

majburiy o'rta umumiy ta'limdan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limiga o'tilishini ta'minlash; yangi tipdagi o'quv muassasalarini vujudga keltirish; yangi kasb-hunar va mutaxassisliklar bo'yicha kadrlar, shu jumladan, boshqaruv tizimi kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish; ta'limning barcha daraja va bo'g'inlarida ta'lim oluvchilarning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirish; ta'limni boshqarish tizimini takomillashtirish, ta'lim muassasalarini mintaqalashtirish; shaxsga ta'lim berish va uni tarbiyalashda oila, ota-onalar, jamoat tashkilotlari, mahallalar, xayriya va xalqaro fondlarning rolini kuchaytirish; ta'lim jarayoni va kadrlar tayyorlash sifatiga xolis baho berish tizimini yaratish; ta'lim tizimini moliyaviy, moddiy-texnika va boshqa tarzdagi resurslar bilan ta'minlash mexanizmlarini shakllantirish; uzluksiz ta'limni fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyalashtirishning puxta mexanizmlarini ishlab chiqish; chet el va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish; tub erli millatga mansub bo'lmagan shaxslar zich yashaydigan joylarda ularning o'z ona tillarida ta'lim olishlari uchun tashkiliy va pedagogik shart-sharoitlarni yaratish; ta'limning barcha darajalarida ta'lim oluvchilarning huquqiy, iqtisodiy, ekologik va sanitariya-gigiena ta'limi hamda tarbiyasini takomillashtirish<sup>2</sup>.

Uzluksiz ta'lim quyidagi ta'lim turlarini o'z ichiga oladi:

- maktabgacha ta'lim;
- umumiy o'rta ta'lim;
- o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi;
- oliy ta'lim;
- oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim;
- kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash;
- maktabdan tashqari ta'lim.

Maktabgacha ta'lim bolaning sog'lom, har tomonlama kamol topib shakllanishini ta'minlaydi, unda o'qishga intilish hissini uyg'otadi, uni muntazam ta'lim olishga tayyorlaydi hamda bola olti-etti yoshga etguncha davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari va oilalarda amalga oshiriladi. Bu kabi ta'lim muassasalarining faoliyatini tashkil etishda mahallalar, jamoat va xayriya tashkilotlari, xalqaro fondlar faol ishtirok etadi.

Keyingi yillarda maktabgacha ta'lim muassasalarining yangi tarmog'i shakllanib bormoqda. Bu o'rinda «Xonadon bog'chasi» hamda «Bolalar bog'chasi – boshlang'ich maktab» majmualarini misol qilib keltirish mumkin. Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarga tasviriy san'at, musiqa, til va kompyuter savodxonligini o'rgatuvchi guruhlar tashkil etilmoqda. Bu kabi harakatlar maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablari asosida ma'naviy-axloqiy tarbiyalashga xizmat qiladi.

Umumiy o'rta ta'lim to'qqiz yillik majburiy xarakterdagi umumiy hamda uch yillik majburiy-ixtiyoriy xarakterdagi o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limidan iborat. Umumiy o'rta ta'lim boshlang'ich ta'limni ham qamrab oladi. Mazkur

---

<sup>2</sup> O'sha manba, –32-33-betlar.

bosqichda o'quvchilarning fanlar asoslari bo'yicha muntazam bilim olishlari, ularda bilim olish ehtiyojining yuzaga kelishi, asosiy o'quv-ilmiy va umummadaniy bilimlarning o'zlashtirishlari, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy-axloqiy fazilatlar, mehnat, ijodiy fikrlash, atrof-muhitga ongli munosabatda bo'lish, shuningdek, kasb tanlash ko'nikmalarining shakllanishi uchun pedagogik shart-sharoit yaratiladi. Davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi attestat o'quvchilarning umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ma'lumotiga egaliklarini belgilaydi.

O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish vazifasi maktab jamoasi va ot-onalar hamkorligida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik tashhis markazlari rahbarligida amalga oshiriladi.

O'qish muddati uch yil bo'lgan majburiy o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi uzluksiz ta'lim tizimining mustaqil turi sanalib, umumiy o'rta ta'lim negizida tashkil etiladi. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining ikki muhim yo'nalishi bo'lgan – akademik litsey yoki kasb-hunar kollejida ta'lim olish o'quvchilar tomonidan ixtiyoriy ravishda tanlanadi.

Akademik litsey o'quvchilarning imkoniyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda ularning jadal intellektual rivojlanishi chuqur, sohashtirilgan, tabaqalashtirilgan, kasbga yo'naltirilgan ta'lim olishlarini ta'minlash maqsadida davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'rta maxsus ta'lim beruvchi, yuridik maqomga ega ta'lim muassasasidir.

Akademik litseylarda o'quvchilar o'zlari tanlab olgan ta'lim yo'nalishi (gumanitar, texnika, agrar va boshqa sohalar) bo'yicha bilim saviyalarini oshirish hamda o'zlarida fanni chuqur o'rganishga qaratilgan maxsus kasb-hunar ko'nikmalarini shakllantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Akademik litseylar asosan oliy o'quv yurtlari qoshida tashkil etiladi. Kasb-hunar kollejlari esa o'quvchilarning muayyan kasb-hunarga moyilligi, layoqatlari, bilim va ko'nikmalarini chuqur rivojlantirish, ularning tanlangan yo'nalishlar bo'yicha bir yoki bir necha zamonaviy kasb sirlarini egallash imkonini beradi.

Kasb-hunar kolleji o'quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, bilim va ko'nikmalarini chuqur rivojlantiruvchi, tanlab olingan kasb-hunar bo'yicha bir yoki bir necha ixtisosni egallash imkonini yaratish maqsadida tegishli davlat ta'lim standartlari doirasida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini beruvchi, yuridik maqomga ega ta'lim muassasasidir.

Kasb-hunar kollejlari yangi tipdagi ta'lim muassasalari bo'lib, ularning jihozlanganlik darajasi, pedagogik tarkibning puxta tanlanganligi, shuningdek, o'quv jarayonining zamonaviy texnika va texnologiyalar yordamida tashkil etilishi alohida e'tiborga loyiq.

Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarning bitiruvchilariga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi diplomlar beriladi. Ushbu diplomlar asosida bitiruvchilar ta'limning keyingi bosqichlarida o'qishni davom ettirish yoki egallangan ixtisos va kasb-hunar bo'yicha mehnat faoliyati bilan shug'ullanish huquqini qo'lga kiritadilar.

Oliy ta'lim o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi negiziga asoslanib, ikki bosqich (bakalavriyat hamda magistratura)da tashkil etilib, mutaxassisliklar yo'nalishlari

bo'yicha xalq xo'jaligining turli sohalariga oliy ma'lumotli mutaxassislarni tayyorlaydi. Oliy ta'lim muassasalariga talabalar qabul qilish davlat grantlari negizida va pullik-shartnomaviy asosda amalga oshiriladi.


Bakalavriyat - mutaxassisliklar yo'nalishi bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, ta'lim olish muddati kamida to'rt yil davom etadigan tayanch oliy ta'lim.

Bakalavr darajasiga ega bo'lgan shaxs oliy ta'lim tizimi yo'nalishidagi o'zi tanlagan soha bo'yicha oliy ma'lumotli mutaxassis hisoblanadi va davlat klassifikatorida belgilangan lavozimda ishlash huquqiga ega bo'ladi.

Magistratura aniq mutaxassislik bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, bakalavriyat negizida ta'lim muaddati kamida ikki yil davom etadigan oliy ta'lim bo'lib, magistraturadagi tahsil yakuniy klassifikatsion davlat attestatsiyasiga muvofiq olib boriladi.

Magistr bakalavr darajasidagi mutaxassisdan farqli ma'lum ixtisoslik bo'yicha ta'lim olgan yuqori malakali mutaxassis hisoblanib, u ilm-fan sohasida, ishlab chiqarishning mas'uliyatli lavozimlarida faoliyat ko'rsatadi. U aspiranturaga kirish huquqiga ega.

O'zbekiston Respublikasida quyidagi turdagi oliy ta'lim muassasalari faoliyat ko'rsatadi:



Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim jamiyatning oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish, shaxsning ijodiy ta'lim – kasb-hunar manfaatlarini qanoatlantirishga qaratilib, oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot muassasalarida aspirantura, ad'yunktura va doktoranturada ta'lim olish, shuningdek, mustaqil tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etish asosida amalga oshiriladi. Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim nomzodlik yoki doktorlik

dissertatsiyalarining himoyasi bilan yakunlanadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan olib borilgan yakuniy davlat attestatsiyasi natijalari tegishli ravishda fan nomzodi va fan doktori ilmiy darajasi hamda davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi diplomga ega bo'lish huquqini beradi.

Har ikki (aspirantura, doktorantura) darajada ham maqsad muayyan mutaxassisliklar bo'yicha oliy toifali ilmiy-pedagogik kadrlarni shakllantirishdan iborat.

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash jarayonida asosiy e'tibor mutaxassislarning kasb bilimlari va ko'nikmalarini yangilash hamda chuqurlashtirishga qaratiladi. Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash ana shu yo'nalishda faoliyat yurituvchi ta'lim muassasalarida amalga oshiriladi. Bu muassasa tinglovchilari o'qish natijalariga ko'ra davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi guvohnoma yoki sertifikatga ega bo'ladilar.

Maktabdan tashqari ta'lim maktabdan tashqari davlat va nodavlat ta'lim muassasalarida davlat organlari, jamoat tashkilotlari, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan madaniy-estetik, ilmiy, texnikaviy, sport va boshqa yo'nalishlarda yo'lga qo'yilib, bolalar hamda o'smirlarning ta'limga bo'lgan, yakka tartibdagi, ortib boruvchi talab-ehtiyojlarini qondirish, ularning bo'sh vaqti va dam olishini tashkil etish maqsadida olib boriladi.

4. Fan yuqori malakali mutaxassisni tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiqaruvchi bo'lib, «kadrlar tayyorlash milliy tizimida tabiat va jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlari to'g'risidagi yangi fundamental va amaliy bilimlardan foydalanishni, yuqori malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tarkibini shakllantirishni, ulardan ta'lim tizimida unumli foydalanishni, shuningdek, kadrlar tayyorlash jarayonining ilmiy tadqiqotlar infrastrukturasi yaratish, ta'limning axborot tarmoqlarida foydalanish uchun bilimning turli sohalar bo'yicha axborot bazasini shakllantirishni hamda ilmiy tadqiqotlar darajasiga yangicha qarashlar zahirida yosh olimlarning, ilmiy-pedagogik xodimlarning ijtimoiy mavqei va obro'sini oshirishni va shu kabilarni qamrab oladi»<sup>1</sup>.

Kadrlar tayyorlash milliy modelining tarkibiy qismlaridan biri sifatida fan, yana shuningdek, «ta'lim mazmunini tubdan yangilashda: ta'lim standartlari, ta'lim dasturlari, o'quv darsliklari va qo'llanmalar tayyorlashda, ilmiy-metodik ta'minotni amalga oshirishda bevosita va bilvosita ishtirok etadi»<sup>2</sup>.

5. Ishlab chiqarish – kadrlarga bo'lgan ijtimoiy ehtiyojni shuningdek, ularning tayyorgalik sifati va saviyasiga nisbatan qo'yiladigan talablarni belgilovchi asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moliyaviy va moddiy-texnika jihatdan ta'minlash jarayonining qatnashchisichisi.

«Ishlab chiqarishning talab-ehtiyojlari kadrlar tayyorlash tizimining yo'nalishi, darajasi va miqyoslarini shakllantiradi, kasb tayyorgarligining maqsadi, vazifalari va mazmunini belgilaydi, malaka talablarini ilgari suradi, ta'limning

<sup>1</sup> Barkamol avlod orzusi //Tuzuvchilar Sh.Qurbonov, H.Saidov, R.Ahliddinov. – Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa kontserni Bosh tahririyati, 1999. – 172-bet.

<sup>2</sup> O'sha asar, 171-bet.

zamonaviy texnologiyalari va shakllarini tanlashni taqozo etadi. Ishlab chiqarish pirovard natijada kadrlarning sifati va raqobatbardoshligiga baho beradi»<sup>1</sup>.

Ishlab chiqarish muassis, homiy va boshqa sifatlarda alohida mutaxassislarni tayyorlashni, guruhlarni va o'quv yurtlarini moliyalash jarayonida ishtirok etib, mutaxassislarning kasbiy rivojlanishi va shaxsiy faolligini rag'batlantiradi, ularni moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlashda bevosita ishtirok etadi»<sup>2</sup>.

Avvallari ishlab chiqarish tayyor kadrlar kuchi va salohiyatidan foydalanuvchi iste'molchi sifatidagina faoliyat olib borgan bo'lsa, bugungi kunda ushbu faoliyatning mazmuni tubdan o'zgardi. Endilikda ishlab chiqarish kadrlarni tayyorlash sifati va saviyasiga nisbatan o'z talablarini qo'ya oladi. Shu bilan birga sifatli hamda yuksak saviyali mutaxassisni tayyorlab etishtirish yo'lida uzluksiz ta'lim hamda fan tarmoqlarining moliyaviy, moddiy-texnik jihatdan qo'llab-quvvatlash majburiyatini o'z zimmasiga oladi. Shu asosida kadrlar tayyorlash tizimining faol ishtirokchisiga aylandi.

Milliy model Kontseptsiasining mazmuni o'zbek xalqining milliy turmush tarzi va ma'naviy-axloqiy an'analari bilan hamnafasdir. Zero, xalq orasida qadimdan «ma'rifatli inson» tushunchasi qo'llanilib kelingan bo'lib, u o'zida keng ma'noni ifoda etadi. Bilim olishga intilish, ma'rifatli bo'lish o'zbek xalqi, millatining ruhiyatida ustuvor o'rin tutuvchi omil sanaladi. Ma'rifatlilik – faqatgina bilim va malakaga ega bo'lish emas, ayni vaqtda chuqur ma'naviy axloq hamdir. Bilimli, komil inson qiyofasida ana shunday xislatlarga ega shaxslar namoyon bo'ladi.

Shuning uchun ham kadrlar tayyorlash milliy modelining butun mohiyati o'zbek xalqining milliy tarixi va hayot tarzi bilan bog'lanib ketgan.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasida o'ziga xos, takrorlanmas, tarixiy an'analarga asoslangan hamda bugungi kun talablariga to'la javob bera oladigan kadrlar tayyorlash milliy modeli yaratildi.

### **3. Jamiyatni liberallashtirish va demokratlashtirish, dunyo bozori sharoitidagi va talablarga javob beruvchi jamiyatga qaratilgan iqtisodni shakllantirish sharoitida ta'limni isloh qilish strategiya va taktikasi.**

Pedagoglik kasbining shakllanishi kishilik taraqqiyoti tarixi bilan uzviy bog'liq. Terib-termachlab kun kechirgan ibtidoiy davr kishilari bolalarni o'zlari bilan ergashtirib yurib, ularga ov qilish, turli daraxt mevalarini terish, o'simliklarning ildizi kovlab olish, suv manbalarini izlab topish kabi harakatlarni amalga oshirishni o'rgatganlar. Bunday harakatlar qabila (urug')ning tajribali kishilari yoki keksalar tomonidan amalga oshirilgan. Oddiy kundalik ehtiyojlarni qondirish yo'lida olib borilayotgan xatti-harakatlar asosida yoshlarga mavjud tajribalar asosida ma'lumotlarni berib, ularda amaliy ko'nikmalarni shakllantirganlar. Turli tovushlarni chiqarish yordamida atrofdagilarni yaqinlashayotgan xavfdan ogoh qilishni bolalar kattalarning namunalari asosida

---

<sup>1</sup> Kadrlar tayyorlash milliy dasturi //Oliy ta'lim: me'yoriy hujjatlar to'plami. – Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati. 2001. – 42-bet.

<sup>2</sup> Barkamol avlod orzusi //Tuzuvchilar Sh.Qurbonov, H.Saidov, R.Ahliddinov. – Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa kontserni Bosh tahririyati, 1999. – 173-174-betlar.

o'zlashtirganlar. Nutq va yozuv paydo bo'lgunga qadar bu kabi harakatlar imo-  
ishoralar asosida amalga oshirilgan. Kishilik tarixida tub inqilobni sodir etgan nutq  
va yozuvning paydo bo'lishi, shuningdek, urug' jamoasi tomonidan bajariladigan  
mehnat faoliyatining turli sohalarga ajralishi yoshlarga nisbatan munosabatning  
ilg'or (progressiv) xarakter kasb etishiga imkon berdi.

Turli tabiiy ofatlar ta'siridan himoyalaniish, kishilar hayotiga xavf solayotgan  
kasalliklarni davolash, hayot kechirish uchun etarli oziq-ovqatlarni jamlab olishga  
bo'lgan tabiiy ehtiyoj yoshlarga hayotiy tajribalarni ma'lum mehnat faoliyati  
yo'nalishida etarlicha bilimga ega bo'lgan kishilar tomonidan berilishi maqsadga  
muvofiq ekanligini ko'rsatdi. Natijada bolalarga hayot tajribalarini o'rgatuvchi  
kishilar guruhi shakllandi hamda bolalarga ma'lum yo'nalishlar bo'yicha  
bilimlarni berish maxsus ajratilgan joylarda tashkil etila boshlandi.

Dastlabki maktablar qadimgi Sharqda (Vavilon, Misr, Hindistonda paydo  
bo'lib, ularda bolalarga ma'muriy-xo'jalik boshqaruvi asoslari o'rgatilgan.

Antik davrda maktablar Sparta, Afina va Rim tarbiya tizimining muhim  
tarkibiy qismi sifatida faoliyat olib borganlar.

Qadimgi YUnonistonda bunday joylar akademiya deb nomlangan.  
«Akademiya» so'zi afsonaviy qahramon Akadema nomidan kelib chiqqan.  
Eramizdan avvalgi IV asrda Afina yaqinidagi Akadema nomi bilan nomlanuvchi  
joyda Platon o'z shogirdlariga ma'ruzalar o'qigan bo'lib, keyinchalik ta'lim tashkil  
etiluvchi maskan ham shunday nom bilan atala boshlagan. Qadimgi Rim va  
YUnonistonda bolalarga bilim berish faylasuflar zimmasiga yuklatilgan.

Jamiyatning tabaqalanishi natijasida qudorlik tuzumida bolalarni ta'lim  
maskanlariga olib borish va olib kelish vazifasini qullar bajarishgan va ular  
«pedagog» deb nomlanganlar. Ushbu tushunchaning ma'nosi «bola etaklovchi»  
demakdir.

Tarixiy taraqqiyotning keyingi bosqichlarida bolalarga tizimli bilimlarni  
berish bilan doimiy shug'ullanuvchi kishilar aynan shu nom bilan atala  
boshlaganlar.

Feodalizm davrida aksariyat maktablar masjid (musulmon mamlakatlarida)  
yoki ibodatxonalar (Hindiston) qoshida tashkil etilgan. Bunday maktablarda  
yoshlarga diniy bilimlar bilan birga dunyoviy bilimlar ham o'rgatilgan.

O'rta asrlar davrida Sharqda akademiya ko'rinishidagi ta'lim muassasalari  
ham faoliyat yuritgan bo'lib, ular «Donishmandlar uyi» (IX asr, Bag'dod),  
«Ma'mun akademiyasi» (XI ar boshlari, Xorazm), observatoriyalar qoshidagi  
jamiyatlar (XV asr, Samarqand) tarzida nomlangan. Akademiyalarga turli fan  
yo'nalishlari bo'yicha kuchli bilimga ega bo'lgan qomusiy olimlar jalb etilgan  
bo'lib, ular tomonidan matematika, geodeziya, mineralogiya, meditsina,  
astronomiya kabi yo'nalishlarda keng ko'lamli tadqiqotlar olib borilgan.

O'rta asrlar hamda kapital ishlab chiqarishiga asoslangan jamiyatlarda  
akademiya (Sharqda madrasa)lar ko'rinishidagi maktablarda ma'naviy-axloqiy  
jihatdan etuk, turli sohalar bo'yicha mukammal bilimga ega pedagoglarning  
faoliyat yuritishlariga alohida ahamiyat qaratilgan. CHunonchi, Muhammad  
Tarag'ay Ulug'bek tomonidan barpo etilgan madrasalarda o'z davrining taniqli  
olimlari – Ali Qushchi, Taftazoniy, Qozizoda Rumiy, Mavlono Muhammad,

G'iyosiddin Jamshid Koshiy, Muiniddin Koshiy hamda Mansur Koshiylar talabalarga ta'lim berganlar.

XIX asr oxiri hamda XX asr boshlarida yuzaga kelgan jadidizm harakatining asoschilari, taniqli ma'rifatparvarlar – Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar Qori, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulla Avloniy, Abduqodir Shakuriy, Ismatlla Raxmatullaev, Abdurauf Fitrat, Isohxon Ibrat va boshqalar aholi orasida nafaqat murabbiy, balki ma'naviy etuk inson sifatida ham nom qozondilar.

**Sharq mutafakkirlari va G'arb pedagoglari jamiyatda pedagoglik kasbining tutgan o'rni haqida.** Jamiyat tomonidan o'qituvchi shaxsiga qo'yilayotgan talablar o'z davrida Sharq mutafakkirlari hamda G'arb ma'rifatparvarlarining asarlarida o'z aksini topgan.

Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy hamda Abu Rayhon Beruniylar o'qituvchining ma'naviy-axloqiy jihatdan etuk bo'lishlariga alohida ahamiyat qaratadilar. Ularning fikrlaricha, yaxshi o'qituvchi boshqalardan bir jihati bilan farq qiladi, ya'ni, u o'zi ega bo'lgan bilimlarni yoshlarga beminnat o'rgatadi, har bir ishda ularga namuna bo'la oladi.

Abu Ali ibn Sino o'z asarlarida o'qituvchi bolalarga ta'lim berishdek mas'uliyatli burchni bajarishi zarurligini uqtirar ekan, ularga faoliyatda muvafaqiyatga erishish garovi bo'lgan quyidagi tavsiyalarni beradi:

- 1) bolalar bilan muomalada bosiq, jiddiy bo'lish;
- 2) berilayotgan bilimning talabalar tomonidan o'zlashtirilishiga e'tiborni qaratish;
- 3) ta'limda turli shakl va metodlardan foydalanish;
- 4) talabaning xotirasi, bilimlarni egallash qobiliyati, shaxsiy xususiyatlarini bilishi;
- 5) fanga qiziqтира olishi;
- 6) berilayotgan bilimlarning eng muhimini ajratib bera olishi;
- 7) bilimlarni talabalarga tushunarli, uning yoshi, aqliy darajasiga mos ravishda berish;
- 8) har bir so'zning boalar hissiyotini uyg'otish darajasida bo'lishiga erishish<sup>1</sup>.

Alisher Navoiy o'z davrining ayrim maktabdorlari ega bo'lgan sifatlar, xususan, qattiqqo'llik, ta'magirlik va johilliklarni qoralar ekan, o'qituvchining ma'naviy qiyofasiga nisbatan jiddiy talablarni qo'yadi. Xususan, «mudarris kerakki, g'arazi mansab bo'lmasa va bilmas ilmni aytishga urinmasa, manmanlik uchun dars berishga havas ko'rgazmasa va olg'irlik uchun gap-so'z va qavqo yurgizmasa, nodonlikdan sallasiz katta va pechi uzun bo'lmasa, gerdayish uchun madrasa ayvoni boshi unga o'rin bo'lmasa. ... YAramasliklardan qo'rqsa va nopoklikdan qochsa, nainki, o'zini olim bilib, necha nodonga turli xil fisq ishlarni mumkin, balki halol qilsa, qilmas ishlarni qilmoq uchun sodir bo'lsa va qilar

---

<sup>1</sup> Rahimov S. Abu Ali ibn Sino ta'lim va tarbiya haqida. – Toshkent, O'qituvchi, 1967. – 75-bet.

ishlarni qilmaslik unga qoida va odat bo'lib qolsa. Bu mudarris emasdir, yomon odatni tarqatuvchidir»<sup>2</sup>.

Ayni o'rinda o'qituvchi mehnatining mashaqqatli ekanligini ta'kidlab o'tadi: «Uning ishi odam qo'lidan kelmas, odam emas, balki dev ham qila bilmas. Bir kuchli kishi bir yosh bolani saqlashga ojizlik qilardi, u esa bir to'da bolaga ilm va adab o'rgatadi, ko'rkim bunga nima etsin.

Shunisi ham borki, u to'dada fahm-farosati ozlar bo'ladi, unday kishiga yuzlarcha mashaqqat kelsa qanday bo'ladi. Har qanday bo'lsa ham, yosh bolalarga uning haqqi ko'pdir. Agar shogird podshohlikka erishsa ham unga (muallimga) qulluq qilsa arziydi.

Haq yo'lida kim senga bir harf o'qitmish ranj ila,  
Aylamak bo'lmas ado oning haqin yuz ganj ila»<sup>1</sup>.

**O'qituvchining asosiy vazifalari va uning shaxsiga qo'yiladigan talablar.** «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» g'oyalarini amaliyotga tadbqiq etish Respublika ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar muvaffaqiyatini ta'minlash, ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan o'qituvchi, tarbiyachi, ishlab chiqarish ustalarining ma'naviy qiyofasi hamda kasbiy mahoratlariga ham bog'liqdir.

Shaxsni tarbiyalash ishi nihoyatda murakkab faoliyat jarayoni bo'lib, juda qadimdan ushbu faoliyatga jamiyatning etuk kishilari jalb etilgandir. Mazkur holat yosh avlod tarbiyasi, uning tashkil etilishi mazmuni nafaqat shaxs kamoloti, balki jamiyat taraqqiyotini ham belgilashda muhim ahamiyatga ega ekanligini anglatadi.

O'zbekiston Respublikasida o'qituvchi kadrlarning ma'naviy qiyofasi, aqliy salohiyati hamda kasbiy mahoratiga nisbatan jiddiy talablar qo'yimoqda. CHunonchi, bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov quyidagilarni qayd etadi: «Tarbiyachi – ustoz bo'lish uchun, boshqalarning aql-idrokini o'stirish, ma'rifat ziyosidan bahramand qilish, haqiqiy vatanparvar, haqiqiy fuqaro etib etishtirish uchun, eng avvalo, tarbiyachining ana shunday yuksak talablarga javob berishi, ana shunday buyuk fazilatlarga ega bo'lishi kerak»<sup>1</sup>.

YUqorida qayd etilgan fikrlardan bugungi kun o'qituvchisi shaxsiga nisbatan qo'yilayotgan talablar mazmuni anglaniladi. Zamonaviy o'qituvchi qanday bo'lishi zarur?

O'qituvchi (pedagog) pedagogik, psixologik va mutaxassislik yo'nalishlari bo'yicha maxsus ma'lumot, kasbiy tayyorgarlik, yuksak axloqiy fazilatlarga ega hamda ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatuvchi shaxs sanaladi.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunining 5-moddasi 3-bandiga muvofiq ta'lim muassasalarida sudlangan shaxslarning pedagogik faoliyat bilan shug'ullanishlariga yo'l qo'yilmaydi.

---

<sup>2</sup> Navoiy, Alisher. Mahbub ul-qulub. Asarlar. O'n besh tomlik. 13 tom. – Toshkent, Badiiy adabiyot nashriyoti, 1966. –189-190-betlar.

<sup>1</sup> Navoiy, Alisher. Mahbub ul-qulub. Asarlar. O'n besh tomlik. 13 tom. – Toshkent, Badiiy adabiyot nashriyoti, 1966. 192-193-betlar.

<sup>1</sup> Karimov I.A. Buyuk kelajagimizning huququiy kafolati. – Toshkent, Sharq nashriyot-matbaa kontserni Bosh tahririyati, 1993, 27-28-bet.

Bizning nazarimizda, zamonaviy o'qituvchi-bakalavr qiyofasida quyidagi fazilatlar namoyon bo'la olishi kerak (so'z yuritilayotgan sifatlar mohiyatan o'qituvchi-bakalavr tomonidan amalga oshirilishi zarur bo'lgan vazifa, burch va mas'uliyatlarini ifodalaydi):

1. O'qituvchi jamiyat ijtimoiy hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlar, olib borilayotgan ijtimoiy islohotlar mohiyatini chuqur anglab etishi hamda bu borada o'quvchilarga to'g'ri, asosli ma'lumotlarni bera olishi lozim.

2. Zamonaviy o'qituvchining ilm-fan, texnika va texnologiya yangiliklari va yutuqlaridan xabardor bo'lishi talab etiladi.

3. O'qituvchi o'z mutaxassisligi bo'yicha chuqur, puxta bilimga ega bo'lishi, o'z ustida tinimsiz izlanishi lozim.

4. O'qituvchi pedagogika va psixologiya fanlari asoslarini puxta bilish, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda faoliyat tashkil etishi kerak.

5. O'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonida eng samarali shakl, metod va vositalardan unumli foydalana olish imkoniyatiga ega bo'lmog'i lozim.

6. O'qituvchi ijodkor, tashabbuskor va tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo'lishi shart.

7. O'qituvchi yuksak darajadagi pedagogik mahorat, chunonchi, kommunikativlik layoqati, pedagogik texnika (nutq, yuz, qo'l-oyoq va gavda harakatlari, mimika, pantomimika, jest) qoidalari chuqur o'zlashtirib olishga erishishlari lozim.

8. O'qituvchi nutq madaniyatiga ega bo'lishi zarur, uning nutqi quyidagi xususiyatlarni o'zida aks ettira olishi kerak:

a) nutqning to'g'riligi;

b) nutqning aniqligi;

v) nutqning ifodaviyligi;

g) nutqning sofligi (uning turli sheva so'zlaridan holi bo'lib, faqat abadiy tilda ifoda etilishi); jargon (muayyan kasb yoki soha mutaxassisliklariga xos so'zlar); varvarizm (muayyan millat tilida bayon etilayotgan nutqda o'zga millatlarga xos so'zlarni noo'rin qo'llanilishi); vulgarizm (haqorat qilish, so'kishda qo'llaniladigan so'zlar) hamda kontselyarizm (o'rni bo'lmagan vaziyatlarda rasmiy so'zlardan foydalanish) so'zlardan holi bo'lishi, o'qituvchining nutqi sodda, ravon va tushunarli bo'lishi kerak;

d) nutqning ravonligi;

j) nutqning boyligi (hikmatli so'zlar, ibora va maqollar, matallar hamda ko'chirma gaplardan o'rinli va samarali foydalana olish).

9. O'qituvchi kiyinish madaniyati (sodda, ozoda, bejirim kiyinishi), ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchining diqqatini tez jalb etuvchi turli xil bezaklar (oltin, kumush taqinchoqlar)dan foydalanmasligi, fasl, yosh, gavda tuzilishi, yuz qiyofasi, hatto, soch rangi va turmagiga muvofiq ravishda kiyinishni o'zlashtirishga erishishi.

10. O'qituvchi shaxsiy hayotda pok, atrofdagilarga o'rnak bo'la olishi lozim.

O'qituvchi pedagogik muloqot jarayonining faol ishtirokchisi sifatida o'zida bir qator sifatlarning tarkib topishiga erishishi zarur. CHunonchi, u eng avvalo, mulohazali, bosiq, vaziyatni to'g'ri baholay oladigan, mavjud ziddiyatlarni barataraf etishning uddasidan chiqa olishi zarur. O'quvchi, ota-onalar hamda hamkasblari bilan mulohot jarayonida fikrini aniq va to'la bayon etilishiga ahamiyat qaratishi maqsadga muvofiq. Ular bilan munosabat jarayonida so'zni salbiy holatlar haqidagi dalillarni keltirishdan emas, aksincha, o'quvchi (yoki hamkasbi, ota-onalar)ning muvaffaqiyatlarini e'tirof etishi, ularning yanada boyishiga ishonch bildirishi u bilan tillasha olishiga imkon beradi. Muloqot jarayonida o'qituvchining so'zlaridan suhbatdoshiga nisbatan xayrihohlik, samimiylilik, do'stona munosabat sezilib turishi, shuningdek, imkon qadar ko'tarinki kayfiyatda bo'lishi zarur.

O'qituvchi shaxsining mazkur talablarga muvofiq keluvchi qiyofasi uning o'quvchilar, hamkasblar hamda ota-onalar o'rtasida obro'-e'tibor qozonishini ta'minlaydi.

**Pedagogik mahoratni egallash yo'llari.** O'qituvchi barkamol avlodni tarbiyalash jarayonida ishtirok etar ekan, nafaqat ma'naviy-axloqiy madaniyati bilan atrofdagilarga o'rnak bo'lishi, shu bilan birga, pedagogik mahoratini namoyon eta olishi, etuk pedagog sifatida malakali kadrlarni tayyorlash ishiga o'zining munosib hissasini qo'shishi zarur.

Pedagogik mahorat – yuksak pedagogik tafakkur, ta'lim-tarbiya jarayoniga ongli, ijodiy yondashuv, metodik bilimlarni samarali qo'llay olish qobiliyati bo'lib, u doimiy ravishda pedagogik bilimlarni oshirib borish, yangiliklardan xabardor bo'lish, ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirish asosida tarkib topadi. YOsh, shuningdek, ta'lim muassasasida bir necha yillik mehnat stajiga ega bo'lgan o'qituvchilarning pedagogik mahoratga ega bo'lishlari o'zini kasbiy jihatdan takomillashtirish yo'lida bir qator shartlarga amal qilishi hisobiga ta'minlanadi. Ular quyidagilardan iborat:

1. Mustaqil o'qib-o'rganish (pedagogika fanida ro'y berayotgan yangiliklar haqida ma'lumotlarni beruvchi yangi adabiyotlar, Internet materiallari, vaqtli matbuot sahifalarida chop etilayotgan ma'lumotlar, shuningdek, ilg'or texnologiyalar bilan tanishib borish, ularda ilgari surilayotgan g'oyalarni umumlashtirish, xulosalash asosida mustaqil loyihalarni tayyorlash).

2. Hamkasb tajribali o'qituvchilar faoliyatini o'rganish (ta'lim muassasasidan chetga chiqmagan holda tashkil etilib, vaqt, shuningdek, iqtisodiy nuqtai nazardan samarali sanaladi. Tajribali o'qituvchilar faoliyatini o'rganish ular tomonidan tashkil etilayotgan mashg'ulotlarni kuzatish, tahlil qilish asosida amalga oshiriladi. Bu borada olingan taassurotlarni umumlashtirish asosida xulosa chiqarish maqsadga muvofiqdir).

3. Pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurs (institut)larida kasbiy malakalarini oshirish.

4. Doimiy ravishda ilmiy anjumanlar (nazariy va amaliy konferentsiya hamda seminarlar, pedagogik o'qish hamda treninglar)da faol ishtirok etish.

5. Respublika hamda rivojlangan xorijiy mamlakatlarning etakchi ta'lim muassasalarida ularning ish tajribalarini o'rganish (stajirovka).

Ayni vaqtda respublikada «Ustoz» jamg'armasining homiyligida ta'lim muassasalarining o'qituvchilar rivojlangan xorijiy mamlakatlarda bo'lib, ularning ta'lim tizimi va ish tajribalarni o'rganmoqdalar.

Pedagogik mahoratni egallashda guruhli va ommaviy tadbirlarda ishtirok etish ijobiy natijalar beradi. Binobarin, bunday muhitda o'zaro fikr almashish, shaxsiy mulohazalarni boshqalar tomonidan bildirilayotgan qarashlar bilan taqqoslab, ularning to'g'riligi, haqqoniyligiga ishonch hosil qilish, mavjud bilimlarni yanada boyitish, xato yoki kamchiliklarni aniqlash hamda ularni barataraf etish yo'llarini topish imkoniyati mavjud.

Pedagogik mahoratga ega bo'lish ta'lim-tarbiya samaradorligini ta'minlash garovi bo'libgina qolmay, ayni vaqtda o'qituvchining jamoadagi obro'-e'tiborini ham oshiradi, o'quvchilarga unga nisbatan hurmat yuzaga keladi.

Kasbiy mahoratni oshirish yo'lida amaliy harakatlarni tashkil etish pedagogik faoliyatda yo'l qo'yilgan yoki qo'yilayotgan xatolardan holi bo'lish, o'quvchilar, hamkasblar hamda ota-onalar bilan munosabatda muvaffaqiyatlarga erishish imkoniyatini yaratadi.

O'z davrlarida Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy, YAn Amos Komenskiy, Lev Tolstoy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulla Avloniy va boshqalar o'z asarlarida o'qituvchilik kasbi, uning mashaqqatlari, shuningdek, o'qituvchi shaxsida aks etishi zarur bo'lgan sifatlar xususidagi qarashlarni yoritish orqali o'zlari ham pedagogik madaniyatga ega ekanliklarini namoyon etganlar. Binobarin, pedagogik jarayonning mohiyatini anglamagan, bolaga nisbatan chuqur hurmatda bo'lmagan shaxs ta'lim-tarbiya samaradorligi va inson kamolotini ta'minlovchi fikrga ega bo'lmaydi. Ularning pedagogik madaniyatlari negizini bolani tushuna olish, unga insbatan insonparvar munosabatda bo'lish, vaziyatni to'g'ri baholash, yuzaga kelish ehtimoli bo'lgan ziddiyatlarni o'z vaqtida bartaraf etish, pedagogik faoliyatning haqligi, jamiyat taraqqiyoti hamda pedagogik jarayonda o'quvchilar ongiga singdirilayotgan ezgu g'oyalarning hayot mavjudligini ta'minlashda qudratli omil (vosita) ekanligiga ishonch kabilar tashkil etadi.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasida malakali (mahoratli) o'qituvchilarni qo'llab-quvvatlash, ularning tajribalarini ommalashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mahoratli o'qituvchilarni aniqlash maqsadida turli ko'rik, tanlovlar tashkil etilmoqda. Xususan, «Yil o'qituvchisi» Respublika ko'rik-tanlovi ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan o'qituvchilarga pedagogik mahoratlarini individaul ravishda namoyish etish imkoniyatini berayotgan bo'lsa, «Yil maktabi» Respublika ko'rik-tanlovi o'qituvchilarga jamoa asosida ta'lim muassasasida qo'lga kiritilayotgan yutuqlarni ommaga ko'rsata olishlari uchun sharoit yaratmoqda.

Shuningdek, respublika miqyosida pedagogik faoliyatda ulkan yutuqlarni qo'lga kiritgan o'qituvchilar ta'lim sohasida nufuzli sanaluvchi davlat mukofoti – O'zbekiston Respublikasi Xalq o'qituvchisi ko'krak nishoniga sazovor bo'lmoqdalar.

Xulosa o'rnida shuni qayd etish joizki, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» O'zbekiston respublikasida ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohalar mazmunini o'zida aks ettirgan muhim yuridik hujjat bo'lib, istiqbol uchun yo'llanmadir.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da alohida ta'kidlangan milliy model O'zbekiston Respublikasining milliy-hududiy xususiyatlarini inobatga olish hamda ilg'or fan, texnika va texnologiya yutuqlari asosida tayyorlangan kadr (mutaxassis) – komil inson va etuk mutaxassis qiyofasini o'zida to'laqonli aks ettiruvchi namunadir.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» g'oyalarining amaliyotga tadbqiq etilishi O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy hayoti uchun muhim sanalgan bir qator holatlarning qaror topishiga olib keladi.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni hamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» g'oyalarini amalga oshirish jarayonida o'qituvchi kadrlar muhim rol o'ynaydilar. Komil inson va etuk malakali mutaxassis<sup>1</sup> maxsus tashkil etilgan pedagogik faoliyat jarayonida tarbiyalanar ekan, ushbu jarayonda o'qituvchilarning o'zni beqiyosdir. Shu bois ularning shaxsida bir qator ijobiy ma'naviy-axloqiy sifatlar namoyon bo'la olishi maqsadga muvofiqdir.

## **6-MAVZU: UZLUKSIZ, KASB-HUNAR TA'LIM TIZIMIDA O'RTA MAXSUS TA'LIMNING O'RNINI VA AHAMIYATI.**

1. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi (O'MKHT) tushunchasi. O'MKHT rivojlanishi maqsadi. O'MKHT rivojlanishi tamoyillari.: ilg'arilama, kasbiy ta'lim, uzluksizlik, ketma-ketlik, insonparvarlik, demokratlik. O'MKHT tizimining tavsifi va o'ziga hos jihatlari: majburiylik, 9-yillik o'rta ta'limdan so'ng barcha uchun kafolatlangan kirish, ta'lim maskanini erkin tanlash huquqi (kademik litsey, kasb-hunar kolleji), bepul ta'lim, davlat byudjetidan moliyalashtirish, byudjetdan tashqari daromad keltiruvchi faoliyat yuritish huquqi.
2. O'MKHT ta'lim muassasalari, akademik litsey kasb-hunar kolleji tushunchalari.
3. O'MKHT ta'lim muassasalari maqsad va vazifalari. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi haqida diplom.

**1. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi (O'MKHT) tushunchasi. O'MKHT rivojlanishi maqsadi. O'MKHT rivojlanishi tamoyillari.: ilg'arilama, kasbiy ta'lim, uzluksizlik, ketma-ketlik, insonparvarlik, demokratlik. O'MKHT tizimining tavsifi va o'ziga hos jihatlari: majburiylik, 9-yillik o'rta ta'limdan so'ng barcha uchun kafolatlangan kirish, ta'lim maskanini erkin tanlash huquqi (kademik litsey, kasb-hunar kolleji), bepul ta'lim, davlat byudjetidan moliyalashtirish, byudjetdan tashqari daromad keltiruvchi faoliyat yuritish huquqi.**

---

<sup>1</sup> Barkamol avlod orzusi //Tuzuvchilar Sh.Qurbonov, H.Saidov, R.Ahliddinov. – Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa kontserni Bosh tahririyati, 1999. – 143-bet.

**Akademik litseylar** – o'quvchilarning qiziqishlari va qobiliyatlarini hisobga olgan holda ularning jadal intellektual rivojlanishini, chuqurlashtirilgan, ixtisoslashtirilgan holda o'qitishni ta'minlaydi. Akademik litseylarda o'quvchilar o'zlari tanlagan yo'nalishi bo'yicha bilimlarini oshirish va muayyan fanlar asoslarini chuqur mukammal o'zlashtirish imkoniga ega bo'ladilar. Akademik litseylar asosan oliy o'quv yurtlari qoshida tashkil etiladi.

Inson tafakkuri, aqliy salohiyati ijtimoiy boylik hisoblanadi. Ular har qanday jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini belgilaydigan omillardir. Shunday farzandlarimiz borki, ular umumiy o'rta maktab ta'lim jarayonida ma'lum yo'nalish bo'yicha o'zlarining iqtidorini, iste'dodlarini namoyon qiladilar. Bu boylikdan oqilona foydalanish, uni to'g'ri yo'naltirish katta ahamiyat kasb etadi. Akademik litseylar aynan shu maqsadni amalga oshirishga, iqtidorli, iste'dodli bolalarni tarbiyalashga xizmat qiladi.

**Kasb-hunar kollejlari** esa o'quvchilarning kasb-hunarga moyilligini, layoqatlarini, bilim va ko'nikmalarini chuqur rivojlantirish, ularning tanlagan yo'nalishlari bo'yicha bir yoki bir necha zamonaviy kasb egallash imkonini beradi. Kasb -hunar kollejlari oldingi bilim yurtlaridan ham mazmunan, ham shaklan tubdan farq qiladi.

Bu farq nimalardan iborat?

Bular eng avvalo o'quvchilarni o'qishga qabul qilishdan boshlab, o'quv jarayonining tashkil etilishi, mazmuni bilan mezoni va bir nechta kasb-hunar egasi, ustasi, kichik mutaxassis bo'lib o'qishni tamomlashidan iboratdir. O'quv jarayoni jahon talablariga mos keluvchi davlat ta'lim standartlari, ya'ni zamon talablariga javob beruvchi, istiqbol va kelajakni ko'zlab ishlab chiqilgan o'quv reja va dasturlari asosida tashkil etiladi.

Kasb-hunar kollejlari o'quv dasturlari oldingi o'quv bosqichi - umumta'lim maktablari va keyingi pog'onada turgan oliy o'quv yurtlarining o'quv dasturlari bilan o'zaro mutanosiblikda bo'lib, ta'limning uzluksizlik va izchillik printsiplari amal qiladi. Shu bilan birga kollej pedagoglarining saviyasi yuqoriligi va pedagogik texnologiyalarining yangiligi bilan farq qiladi. Zamonaviy bilim berish uchun o'qituvchilarning o'zi ana shunday bilimga ega bo'lishi kerak. Shuning uchun pedagog kadrlarning obro'-e'tiborini, ijtimoiy maqomini, mas'uliyatini, malakasini oshirishga va zamon talablariga mos holda tayyorlashga e'tibor qaratilgan.

Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari o'quvchilarni qabul qilish qanday amalga oshiriladi?

Bu umum o'rta maktabning 9 sinfi bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi natijasiga binoan o'quvchi tomonidan yig'ilgan Reyting ko'rsatkichlari hamda pedagog psixologik tashhis markazlari tavsiyalari asosida o'quvchi akademik litseyda yoki kasb-hunar kollejining ma'lum yo'nalishida o'qishni davlom ettirish huquqiga ega bo'ladi.

O'quv rejasida ayrim tabiiy fanlar, ayniqsa, matematika, informatika, fizika fanlari, ayrim gumanitar fanlar bo'yicha o'quvchilarning qiziqishi va xohishlarini qoniqtirish, qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida o'tkaziladigan fakul'tativ mashg'ulotlar ko'rsatilgan bo'ladi.

«Ta'lim to'g'risida» gi O'zbekistan Respublikasi qonuniga muvofiq, o'rta maxsus, kasb-hunar talimi tizimini islox qilish, davlat va nodavlat o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalari xamda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi va kadrlar tayyorlash soxasida raqobat muxitini shakllantirish negizida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim tizimini yagona o'quv - ilmiy - ishlab chiqarish majmui sifatida izchil rivojlantirish orqali ishchi-mutaxassislar tayyorlashni ta'minlash;

-o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim va o'rta maxsus ma'lumotga ega bo'lgan mutaxassislar tayyorlash tizimini jamiyatda amalga oshirilayotgan yangilanish, rivojlangan demokratik xuquqiy davlat kurilishi jarayonlariga moslash;

-o'rta maxsus ma'lumotga ega bo'lgan mutaxassislar tayyorlash tizimi muassasalarini oliy ma'lumotli, yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlash, pedagogik faoliyatning nufuzi va ijtimoiy maqomini ko'tarish;

-o'rta maxsus ma'lumotga ega bo'lgan mutaxassislar tayyorlash tizimi va mazmunini mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollaridan, jamiyat extiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuklaridan kelib chiqqan xolda qayta qurish;

- uzluksiz ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimiga byudjetdan tashqari mablag'lar, shu jumladan chet el investitsiyalari jalb etishning real mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

- kadrlar tayyorlash soxasida o'zaro manfaatli xalqaro xamkorlikni rivojlantirish.

## O'zbekiston Respublikasida kasbiy ta'limining rivojlanish bosqichlari.

| Bosqichlar                   | Yillar                     | Xarakterli tomonlari                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                 |
|------------------------------|----------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>Birinchi bosqich</b>      | XIX asrning ikkinchi yarmi | Malakali ishchi va texnik xodimlarga bo'lgan ehtiyojning keng ko'lamda o'sishi tufayli hunar-texnika o'quv yurtlarining ikki tipi: quyi texnika va hunarmandchilik o'quv yurtlari kabi tiplarining tashkil etishishi va rivojlantirilishi bosqichi.                                                                                                                                                                                                                                                                  |
| <b>Ikkinchi bosqich</b>      | 1917 - 1920 yillar         | CHet el harbiy interventsiyasi va grajdanlar urushi, umumiy xo'jalik vayronagarchiligining qiyin sharoitlarida hunar-texnika o'quv yurtlari tizimini yaratish bosqichi.                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                              |
| <b>Uchinchi bosqich</b>      | 1921—1929 yillar           | YAngi hunar-texnika tizimiining mustahkamlanishi, yangi turdagi o'quv yurtlari (FZU) maktablari ochilishining ommaviy tus olish bosqichi.                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                            |
| <b>To'rtinchi bosqich</b>    | 1930—1940 yillar           | Hunar-texnika ta'limining sanoatchi kadrlar tayyorlaydigan o'quv yurtlari shoxobchalarini kengaytirish hisobiga o'sishi bosqichi.                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                    |
| <b>Beshinchi bosqich</b>     | 1941 — 1958 yillar         | Urush va undan keyingi vayronagarchiliklarni tiklash paytidagi mamlakat xalq-xo'jaligini malakali kadrlar bilan rejalili va uzluksiz to'ldirib borish tizimiga davlat mehnat rezervlari orqali o'tilishi bosqichi.                                                                                                                                                                                                                                                                                                   |
| <b>Oltinchi bosqich</b>      | 1958-1970 yillar           | Hunar-texnika ta'limi tizimining keyingi sifat o'zgarishi bilan xarakterlananuchi bosqichi.                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                          |
| <b>Ettinchi bosqich</b>      | 1971-1976 yillar           | Hunar-texnika ta'limi tizimiining yanada rivojlanishi: yangi tipdagi o'quv yurtlari - o'quvchilarga kasb bilan birga to'la o'rta ta'lim beradigan o'quv yurtlarining tashkil etilishi bosqichi.                                                                                                                                                                                                                                                                                                                      |
| <b>Sakkiz-inchi bosqich</b>  | 1977-1990 yillar           | Hunar-texnika ta'limi tizimiining yanada rivojlanishi: yangi tipdagi o'quv yurtlari-o'quv ishlab-chiqarish kombinatlarining (UPK) larning ochilish, umumta'lim maktablarining isloh qilinishi bosqichi.                                                                                                                                                                                                                                                                                                              |
| <b>To'qqiz-inchi bosqich</b> | 1991-yildan keyingi yillar | O'zbekiston Respublikasi mustaqilliqqa erishgandan keyingi inson, uning har tomonlama uyg'un kamol topishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini ro'yobga chiqarishning sharoitlarini va ta'sirchan mexanizmlarini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq-atvorning andozalarini o'zgartirish, intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish bosqichi. |

Dastlabki yillaridayoq xukumat qarorlarida hunar-texnika ta'limiga qo'yiladigan asosiy talablar belgilab berilgan edi. Bu talablar quyidagilar edi:

- hunar-texnika ta'limining asosli bo'lishi mayda hunarmandchilik harakteriga ega bo'lmasligi;
- umumiy va texnikaviy bilimlarga asoslanishi;
- ilmiy-texnika taraqqiyoti talablariga javob berishi;
- ta'limni ishlab chiqarish mehnati bilan bog'lab yoshlarning jamiyat qurilishi ishida ishtirok etishiga asoslanishi lozimligi.

**Hunar-texnika (kasb) talimi** muhim omillaridan biri sanoat korxonalari va muassasalarida ishlayotgan, 15 yoshdan 17 yoshgacha bo'lgan o'smirlarga majburiy ta'limning joriy etilganligi edi. Usmirlar haftada olti marta ikki soatdan mashg'ulotga qatnashishlari lozim edi. 1917 yil 29 oktyabrda hukumat 8 soatlik ish kuni haqida dekret chiqardi. 18 yoshgacha bo'lgan yoshlar uchun 6 soatlik ish kuni beltilanib, 14 yoshgacha bo'lgan bolalarning mehnat qilishi taqiqlangan edi.

hunar-texnika kurslari malakali ishchi-kadrlar tayyorlashning eng ko'p tarqalgan formalaridan biri edi. Ular o'zlarining vazifalari, o'qish muddati, tuzilish shakllari va boshqalariga ko'ra farqlanardi. Ularni quidagi uch tipga bo'linardi:

- sanoatning u yoki bu aniq turi uchun shu sohada ishlamaydigan kishilardan transport uchun tayyorlov kurslari;
- ish tajribasiga ega bo'lsa-da, o'z bilim va malakasini oshirish istagi bo'lgan kishilar uchun malaka oshirish kurslari;
- ustalar, ishboshilar tayyorlash bo'yicha ((biror maqsadga qaratilgan) uzoq muddatli kurslarga ajratish mumkin.

o'rta ta'limning rivojlanishi munosabati bilan mehnat rezervlari sistemasida o'rta maktabni tugatgan yoshlar uchun bir va ikki yillik texnika bilim yurtlari barpo etildi. Bilim yurtlarida yuqori umumta'lim saviyasini talab qiladigan kasblar bo'yicha malakali ishchilar va kichik texnik xodimlar tayyorlanar edi. 1941-1958 yillar mobaynida mehnat rezervlariga qarashli o'quv yurtlari 10245 ming, shu jumladan sanoat uchun 5489 ming, qurilish uchun 1220 ming qishloq xo'jaligi uchun 1655 ming va xalq xo'jaligining boshqa sohalari uchun 1881 ming malakali yosh ishchilar tayyorlab berdi.

o'rta hunar-texnika va texnika bilim yurtlariga o'quvchilar qabul qilish 2 baravardan ziyod ko'paytirildi. Hunar-texnika ta'limi tizimida taxminan 11 million malakali ishchi tayyorlandi. Hunar-texnika bilim yurtlarida o'rta ma'lumotli ishchilar tayyorlash 2,5 baravar ko'paytirildi. 1,1—1,2 million o'rinli hunar-texnika bilim yurtlari, shuningdek, o'quvchilar uchun zarur miqdorda yotoqxonalar foydalanish uchun topshirildi.

Hunar-texnika bilim yurtlarini tugatgan va o'rta ma'lumot olgan o'quvchilar ishchilar sinfiniig munosib o'rinbosarlariga aylangan edi.

Hunar-texnika ta'limi tizimi o'quv yurtlarini birinchi kosmonavt YU. A. Gagarin, kosmik kemalarning mashhur ixtirochisi S. P. Korolyov, kosmonavt-uchuvchi P. R. Popovich, aviatsiya marshali A. I. Pokrishkin kabi ko'plab taniqli arboblari bitirib chiqqanlar.

1984 yil “Umumta’lim maktablarini isloh qilish to’g’risida” gi xukumat qaroai bilan umumta’lim maktablari isloh qilindi, umumta’lim maktablari 10 yillikdan 11 yillikka o’tkazildi. Shundan so’ng umumta’lim maktablarining IX - XI – sinflarida o’quvchilarning xaftada bir kun 6 soat maktablararo o’quv ishlab-chiqarish kombinatlarida bevosita tanlagan kasblari bo’yicha ta’lim olishi yo’lga qo’yildi.

Mamlakat xalq xo’jaligi uchun malakali ishchi – mutaxassislar tayyorlashda hunar-texnika ta’limi tizimii o’quv yurtlari bilan bir qatorda maktablararo o’quv ishlab-chiqarish kombinatlari (UPK) lar katta o’rin tutdi.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qabul qilingandan keyin uni amalga oshirish bo’yicha O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining birinchilar qatorida qabul qilgan qarori 1998-yil 5-yanvardagi «Uzluksiz ta’lim tizimi uchun davlat ta’lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish to’g’risida» gi 5 sonli qaroridir.

O’zbekiston Respublikasining «Ta’lim to’g’risida»gi Qonunning 7-moddasiga, Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga muvofiq respublikada idoraviy bo’ysunishi va mulkchilik shakllaridan qat’i nazar ta’lim muassasalarining barcha turlari uchun majburiy bo’lgan davlat ta’lim standartlari (DTS) belgilanadi.

## **2.O’MKHT ta’lim muassasalari, akademik litsey kasb-hunar kolleji tushunchalari.**

**Akademik litseylar** – o’quvchilarning qiziqishlari va qobiliyatlarini hisobga olgan holda ularning jadal intellektual rivojlanishini, chuqurlashtirilgan, ixtisoslashtirilgan holda o’qitishni ta’minlaydi. Akademik litseylarda o’quvchilar o’zlari tanlagan yo’nalishi bo’yicha bilimlarini oshirish va muayyan fanlar asoslarini chuqur mukammal o’zlashtirish imkoniga ega bo’ladilar. Akademik litseylar asosan oliy o’quv yurtlari qoshida tashkil etiladi.

Inson tafakkuri, aqliy salohiyati ijtimoiy boylik hisoblanadi. Ular har qanday jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini belgilaydigan omillardir. Shunday farzandlarimiz borki, ular umumiy o’rta maktab ta’lim jarayonida ma’lum yo’nalish bo’yicha o’zlarining iqtidorini, iste’dodlarini namoyon qiladilar. Bu boylikdan oqilona foydalanish, uni to’g’ri yo’naltirish katta ahamiyat kasb etadi. Akademik litseylar aynan shu maqsadni amalga oshirishga, iqtidorli, iste’dodli bolalarni tarbiyalashga xizmat qiladi.

**Kasb-hunar kollejlari** esa o’quvchilarning kasb-hunarga moyilligini, layoqatlarini, bilim va ko’nikmalarini chuqur rivojlantirish, ularning tanlagan yo’nalishlari bo’yicha bir yoki bir necha zamonaviy kasb egallash imkonini beradi. Kasb -hunar kollejlari oldingi bilim yurtlaridan ham mazmunan, ham shaklan tubdan farq qiladi.

Bu farq nimalardan iborat?

Bular eng avvalo o’quvchilarni o’qishga qabul qilishdan boshlab, o’quv jarayonining tashkil etilishi, mazmuni bilan mezoni va bir nechta kasb-hunar egasi, ustasi, kichik mutaxassis bo’lib o’qishni tamomlashidan iboratdir. O’quv jarayoni jahon talablariga mos keluvchi davlat ta’lim standartlari, ya’ni zamon talablariga javob beruvchi, istiqbol va kelajakni ko’zlab ishlab chiqilgan o’quv reja va dasturlari asosida tashkil etiladi.

Kasb-hunar kollejlari o'quv dasturlari oldingi o'quv bosqichi - umumta'lim maktablari va keyingi pog'onada turgan oliy o'quv yurtlarining o'quv dasturlari bilan o'zaro mutanosiblikda bo'lib, ta'limning uzluksizlik va izchillik printsiplari amal qiladi. Shu bilan birga kollej pedagoglarining saviyasi yuqoriligi va pedagogik texnologiyalarining yangiligi bilan farq qiladi. Zamonaviy bilim berish uchun o'qituvchilarning o'zi ana shunday bilimga ega bo'lishi kerak. Shuning uchun pedagog kadrlarning obro'-e'tiborini, ijtimoiy maqomini, mas'uliyatini, malakasini oshirishga va zamon talablariga mos holda tayyorlashga e'tibor qaratilgan.

Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari o'quvchilarni qabul qilish qanday amalga oshiriladi?

Bu umum o'rta maktabning 9 sinfi bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi natijasiga binoan o'quvchi tomonidan yig'ilgan Reyting ko'rsatkichlari hamda pedagog psixologik tashhis markazlari tavsiyalari asosida o'quvchi akademik litseyda yoki kasb-hunar kollejining ma'lum yo'nalishida o'qishni davlom ettirish huquqiga ega bo'ladi.

O'quv rejasida ayrim tabiiy fanlar, ayniqsa, matematika, informatika, fizika fanlari, ayrim gumanitar fanlar bo'yicha o'quvchilarning qiziqishi va xohishlarini qoniqtirish, qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida o'tkaziladigan fakul'tativ mashg'ulotlar ko'rsatilgan bo'ladi.

O'MKHT dagi tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va ixtisosliklar umumdavlat tasniflagichi Tasniflagich loyihasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi Markazining Davlat ta'lim standartlari bo'limi va O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini rivojlantirish instituti tomonidan ishlab chiqildi. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari, tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va ixtisosliklari Tasniflagichning tasniflash obektlari hisoblanadi.

Mazkur Tasniflagichda tayyorlash yo'nalishlari nomi, kodi va shu tayyorlov yo'nalishlari turkumiga kiruvchi kasblar nomi va kodi hamda ixtisosliklar ro'yxati keltirilgan.

**Kichik mutaxassis** - bu ta'lim dasturini muvaffaqiyatli o'zlashtirgan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari bitiruvchilariga beriladigan malaka darajasidir.

**Tasniflagichda quyidagi to'qqizta bilim sohasi nazarda tutilgan:**

100000 – ta'lim;

200000 – gumanitar fanlar va san'at;

300000 – ijtimoiy fanlar;

400000 – fan;

500000 – muhandislik, ishlov berish va qurilish tarmoqlari;

600000 – qishloq ho'jaligi;

700000 – sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot;

800000 - Xizmatlar;

Tasniflagichda ta'lim bosqichlari va ta'lim sohalari, tayyorlov yo'nalishlari va kasblar ettita raqamli kod bilan belgilanadi.

Ta'limning xalqaro klassifikatsiyasiga binoan ta'lim bosqichi-o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi 3-raqami bilan belgilanadi. Masalan: 3144610, 3210210, 3380110 va boshqalar.

**Birinchi raqam** - ta'lim dasturi bosqichi kodi;

**Ikkinchi raqam** - bilim sohasi kodi;

**Uchinchi raqam** - ta'lim sohasi kodi;

**To'rtinchi va beshinchi raqamlar** - tayyorlov yo'nalishi kodi;

**Oltinchi va ettinchi raqamlar** - kasblar kodi.

O'MKHT da kichik mutaxassis tayyorlash tizimi Hozirgi ishlab chiqarishga kelayotgan mutaxassislarning uchdan bir qismi avval maktabda mehnat va kasbgacha tayyorlanmokdalar, keyin kasb- hunar kollej tizimida kichik mutaxassis darajasigacha tayyorgarlik ko'rmokdalar.

YOshlarga mehnat va kichik mutaxassislik bo'yicha tayyorgarlik berish maqsadida maktablar va kasb-hunar kollejlari ta'lim muassasalari o'quvchilarini motivlashtirish, o'qishning butun tizimini yaxshilash, ularda bilimga qiziqishni oshirish, ta'lim olishdagi burch va ma'suliyatni hissini tarbiyalash uchun o'qitishni turmush bilan bog'lash, bilimga doir o'yinlar tashkil qilish, ishlab chiqarish xarakteridagi zarur vaziyatlarni vujudga keltirish va hokazolar orqali bilim olishning mohiyati va ahamiyatini yoritish lozim.

Respublikamizda **kichik mutaxassis tayyorlash** o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv yurtlarida, jumladan kasb - xunar kollejlariida amalga oshiriladi.

**Kasb-xunar kollejidagi ta'lim** tarbiya jarayoni o'quvchilarning qiziqishlari va istak-xoxishiga qarab ularning kasb-xunarga moyilligi, maxorat va malakasini chuqur rivojlantirishni, tanlangan kasblar bo'yicha bir yoki bir necha ixtisos olishlarini ta'minlaydi.

### **3. O'MKHT ta'lim muassasalari maqsad va vazifalari. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi haqida diplom.**

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv muassasalari ham yuqorida ko'rsatilgandek ta'lim muassasasi maqomiga ega. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tegishli tarmoq DTS lar asosida o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi o'quv muassasalarida amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv muassasalarining quyidagi turlari faoliyat ko'rsatadi.

1. Akademiy litseylar.

2. Kasb-hunar kolleji.

Bu ta'lim muassasalarida yoshlarga majburiy o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi beriladi.

Umumiy o'rta ta'lim negizida muddati uch yil bo'lgan majburiy o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi uzluksiz ta'lim tizimidagi mustaqil turdir. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishi – akademik litsey yoki kasb-hunar kolleji o'quvchilar tomonidan ixtiyoriy tanlanadi.

“Ta'lim to'g'risida” gi qonunning 6-moddasiga binoan ta'lim muassasalarining maqomi quyidagicha belgilangan:

- Ta'lim muassasasini akkreditatsiyalash vakolatli davlat organi tomonidan attestatsiyaga asosan amalga oshiriladi;

- Ta'lim muassasasi yuridik shaxs bo'lib, qonun xujjatlarida belgilangan tartibda barpo etiladi. Nodavlat ta'lim muassasasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi belgilagan tartibda davlat akkregatsiyasidan, o'tgan paytdan boshlab yuridik shaxs dars va ta'lim faoliyati bilan shug'ullanish xuquqiga ega bo'ladi;

- Ta'lim muassasasi qonun xujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan ustav asosida faoliyat ko'rsatadi;

- Ta'lim muassasasi attestatsiya natijalariga binoan davlat akkreditatsiyasidan maxrum etilishi mumkin;

- Ta'lim muassasalari o'quv-tarbiya majmualariga hamda o'quv-ilmiy ishlab chiqarish birlashmalari va uyushmalariga birlashishga xaqli;

- Ta'lim muassasalari ustavda belgilangan vazifalariga muvofiq pulli ta'lim xizmatlari ko'rsatish, shuningdek tadbirkorlik faoliyatining boshqa turlari bilan shug'ullanishga xaqli.

Umumdidaktik tamoyillar bilan pedagogik jarayon qonunlari o'zaro aloqada bo'lib, mazkur aloqa o'zining speo'ifik xususiyatlariga egadir. Ularning asosiylarini ko'rib chiqamiz.

**Politeknik tamoyil** Politeknik bilim zamonaviy ishlab chiqarish tizimining ilmiy asoslarini egallashni nazarda tutib, shu bilimlar asosida umumkasbiy politeknik va maxsus bilimlar shakllantiriladi.

Politeknik tamoyillarni o'qitishda quyidagi shartlarga amal qilish lozim.

- a) Asosiy yo'nalishdagi rivojlangan texnika va ilmni o'qitish
- b) bir-biri bilan o'zaro bog'langan o'quv material tizimini tashkil etish.
- v) O'rganilayotgan fan asoslari borasidagi bilimlarni amaliyotda qo'llash.
- g) Ta'lim berishda ta'lim oluvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olish.
- d) Ta'lim oluvchilar qiziqishlarini qondirish.
- e) Kasbiy bilim berish umumta'lim bilimlariga tayanish.
- j) O'quv materialining turg'un bo'lishiga erishish.
- z) O'quv mavzularining ketma-ketligiga erishish.

### **Amaliyot va nazariyaning o'zaro bog'liqligi tamoyili.**

O'quv jarayonida nazariy va amaliy bilimning o'zaro aloqadorligiga tayanish va o'quv predmetining asosiy maqsadi o'zlashtirilgan bilimlarni amaliyotda qo'llash quyidagi shartlarga amal qilishga bog'liq.

- a) nazariy bilimlarning amaliyotda sinalishi.
- b) ixtiyoriy ish jarayonida sohaviy bilimlarning qo'llanilishi.
- v) ishchilarni samarali o'qitish omili kasbiy ishlab chiqarish talabiga muvofiq kasbiy bilim berish ekanligini yodda tutish;
- g) bilimlarni o'zaro malakaviy bog'lashda gorizontal va vertikal yo'ldan foydalanish.

O'quv jarayonida mutaxassis faoliyatini modellashtirish tamoyili. Modellashtirish orqali mazmun va maqsadlarni isbotlash uchun avval oson bilimlarni o'zlashtirish, o'qitish metodlarini o'quv rejasi va o'quv dasturi talablari

asosida tanlash. O'quv jarayonida keng tarmoqli ishchi faoliyati quyidagi shartlar asosida amalga oshiriladi:

- a) bilim va malakani politexnik yo'naltirish.
- b) Ko'chirib (integrtsiya asosida) o'qitish jarayonida gradatsiyaning o'rni.
- v) Ko'chirib o'qitish jarayoni.

**Kasb ta'limi o'qituvchisining malakasi ikkiga bo'linadi.**

- Mutaxassislik malakasi
- Pedagoglik malakasi

**Mutaxassislik malakasi** deb, kasb ta'limi o'qituvchilari va o'quv ustaning maxsus soha bo'yicha ko'nikma va malakalari nazarda tutiladi. Ularning malakalarining ikkinchi qismi "Kasbiy pedagogika" bilim sohasiga tegishli bo'lib, pedagogik malakalarini o'z ichiga oladi. Chunki o'quv jarayoni faqatgina bilim berishga asoslanib qolmasdan, balki ta'lim va tarbiya psixologiyasi bilan uzviy bog'langan. Bu esa ulardan psixologiya, kasbiy pedagogika, iqtisod asoslarini, ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish asoslari bo'yicha ham malakalarga ega bo'lishini talab etadi. Mutaxassislik va pedagogik malakalar bilan bir qatorda kasb ta'limi o'qituvchilari va o'quv ustalarida shaxsiy va ijtimoiy layoqatlarning ham bo'lishi talab etiladi.

**Kasb ta'limi o'qituvchisining layoqati**

- Shaxsiy layoqat
- Ijtimoiy layoqat

**Tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va ixtisosliklarning umumdavlat tasniflagichi (TYKIUT)** - o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv muassasalarida kichik mutaxassislarni tayyorlash bo'yicha tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va mutaxassisliklarning tizimlashtirilgan ro'yxati.

**Kichik mutaxassis** - bu ta'lim dasturini muvaffaqiyatli o'zlashtirgan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari bitiruvchilariga beriladigan malaka darajasidir.

**Kichik mutaxassis:**

- tegishli ijtimoiy ishlab chiqarish sohasida uning umumli faoliyat ko'rsata olishini ta'minlaydigan nazariy va amaliy bilimlar majmuasiga, kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarga ega;

- mazkur jamiyatda o'zining muvaffaqiyatli hayot darajasini ta'minlaydigan umumiy va kasbiy madaniyatga, ijtimoiy ahamiyatli xususiyatlarga va shaxsiy sifatlarga ega.

**Malaka** — xodimning kasbiy tayyorgarligi darajasi, undagi ma'lum ishni bajarish uchun zarur bo'lgan bilim, malaka va ko'nikmalarning mavjudligi.

**Kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari tasniflagichi** o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi muassasalarida kichik mutaxassislarni tayyorlash bo'yicha tayyorlov yo'nalishlari kasblarining va mutaxassisliklarining tizimlashtirilgan ro'yxatidir.

**Davlat ta'lim standartlari (DTS)**- umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim mazmuniga hamda sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilaydi. DTSlarini bajarish O'zbekiston Respublikasining barcha ta'lim muassasalari uchun majburiydir.

**Tasniflagichda sakkizta bilim sohasi nazarda tutilgan:**

1. Ta'lim;
2. Gumanitar fanlar va san'at;
3. Ijtimoiy fanlar, biznes va huquq;
4. Fan;
5. Muhandislik, ishlov berish va qurilish tarmoqlari;
6. Qishloq xo'jaligi;
7. Sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot;
8. Xizmatlar.

Tasniflagichda ta'lim bosqichlari, bilim va ta'lim sohalari, tayyorlov yo'nalishlari va ixtisosliklar ettita raqamli kod bilan belgilanadi. Ta'limning xalqaro klassifikatsiyasiga binoan ta'lim bosqichi - o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi 3-raqami bilan belgilangan. Masalan: 3144610, 3210210, 3380110 va boshqalar.

**O'rta maxsus, kasb — hunar ta'limi kodlarida:**

**Birinchii raqam** - ta'lim dasturi bosqichi kodi;

**Ikkinchi raqam** - bilim sohasi kodi;

**Uchinchi raqam** - ta'lim sohasi kodi;

**To'rtinchi va beshinchi raqamlar** - tayyorlov yo'nalishi kodi;

**Oltinchi va ettinchi raqamlar** - ixtisosliklar kodi.

Uzluksiz ta'lim tizimidagi o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi va oliy ta'lim (bakalavriat) da uzviylikni ta'minlash maqsadida O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limidagi tayyorlov yo'nalishlari, kodlari oliy ta'limning bakalavriat ta'lim yo'nalishlari kodlariga moslashtirilgan.

**7-MAVZU: TA'LIMNI STANDARTLASHTIRISH. O'RTA MAXSUS KASB-HUNAR TA'LIMI MAZMUNI, MAQSAD VA VAZIFALARI.**

1. Sivilizatsiya rivojlanishining boshlang'ich davrlarida standartlashtirish ko'rsatkichlarini vujudga kelishi. Xalqaro va milliy standartlar. Standart, standartlashtirish me'yori tushunchalari. Ishlab chiqarishda standartlashtirish.
2. O'zbekiston Respublikasida "Standartlashtirish to'g'risida"gi Qonun. Standartlashtirish, ta'lim standarti. O'MKHT ta'lim standarti tushunchalari. Standartlashtirishning me'yoriy elementlari.
3. Standartlashtirish turlari. O'MKHT davlat ta'lim standartlashtirishning funktsiyalari. O'MKHT DTS maqsadi, funktsiyalari, vazifalari, tamoyillari O'MKHT DTS. DTSga, uni ishlab chiqarish va amalga qo'llashga qo'yiladigan talablar. DTSni ishlab chiqarish va amalga kiritish bosqichlari. DTSning mazmuni. DTSning davlat va milliy-mintaqaviy tarkibiy qismlari. Bozor munosabatlariga o'tish sharoitlarida kasbiy ta'lim sifatiga talablar. DTS kiritilishi kasb-hunar kollejlari malakali mutaxassislarni tayyorlash sifatini baholashning asosiy maqsadi sifatida. "Ta'lim sifati", "Ta'lim sifatini nazorat qilish", "Ta'lim sifatini baholash tushunchalari". Standartlashtirish, ta'lim standarti, O'MKHT ta'lim standarti tushunchalari. Standartlashtirishning me'yoriy elementlari. Standartlashtirish turlari. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi mazmuni (davlat ta'lim

standartlari, o'quv rejalari va dasturlari). O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv muassasalari turlari va ulardagi ta'lim-tarbiya jarayoni.

**1. Sivilizatsiya rivojlanishining boshlang'ich davrlarida standartlashtirish ko'rsatkichlarini vujudga kelishi. Xalqaro va milliy standartlar. Standart, standartlashtirish me'yorlari tushunchalari. Ishlab chiqarishda standartlashtirish.**

**Kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari tasniflagichi** o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi muassasalarida kichik mutaxassislar tayyorlash bo'yicha tayyorlov yo'nalishlari kasblarining iva mutaxassisliklarining tizimlashtirilgan ro'yxatidir.

**Davlat ta'lim standartlari** ( DTS)- umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim mazmuniga hamda sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilaydi. DTSlarini bajarish O'zbekiston Respublikasining barcha ta'lim muassasalari uchun majburiydir.

**Tasniflagichda sakkizta bilim sohasi nazarda tutilgan:**

9. Ta'lim;
10. Gumanitar fanlar va san'at;
11. Ijtimoiy fanlar, biznes va huquq;
12. Fan;
13. Muhandislik, ishlov berish va qurilish tarmoqlari;
14. Qishloq xo'jaligi;
15. Sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot;
16. Xizmatlar.

Tasniflagichda ta'lim bosqichlari, bilim va ta'lim sohalari, tayyorlov yo'nalishlari va ixtisosliklar ettita raqamli kod bilan belgilanadi. Ta'limning xalqaro klassifikatsiyasiga binoan ta'lim bosqichi - o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi 3-raqami bilan belgilangan. Masalan: 3144610, 3210210, 3380110 va boshqalar.

**O'rta maxsus, kasb — hunar ta'limi kodlarida:**

**Birinchi raqam** - ta'lim dasturi bosqichi kodi;

**Ikkinchi raqam** - bilim sohasi kodi;

**Uchinchi raqam** - ta'lim sohasi kodi;

**To'rtinchi va beshinchi raqamlar** - tayyorlov yo'nalishi kodi;

**Oltinchi va ettinchi raqamlar** - ixtisosliklar kodi.

Uzluksiz ta'lim tizimidagi o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi va oliy ta'lim (bakalavriat) da uzviylikni ta'minlash maqsadida O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limidagi tayyorlov yo'nalishlari, kodlari oliy ta'limning bakalavriat ta'lim yo'nalishlari kodlariga moslashtirilgan.

Klassifikator O'zbekiston Respublikasining axborotlarni kodlashtirish va tartibga solish yagona tizimining tarkibiy qismidir.

**Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari (klassifikatori) tasniflagichi** – oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlash uchun bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining tizimlashtirilgan ro'yxatidir. Unda quyidagi sakkizta bilim sohasi ko'zda tutiladi:

1. Ta'lim.
2. Gumanitar fanlar va san'at.
3. Ijtimoiy fanlar, biznes va huquq.
4. Fan.
5. Muhandislik, ishlov berish va urilish tarmoqlari.
6. Qishloq xo'jaligi.
7. Sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot.
8. Xizmatlar.

Klassifikatorda ta'lim bosqichlari (bakalavriat, magistratura), bilim va ta'lim sohalari, ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari ettita raqamli kod bilan belgilanadi.

- mutaxassislik kodi;
- yo'nalish kodi;
- ta'lim sohasi kodi;
- bilim sohasi kodi;
- ta'lim dasturlari bosqichi kodi.

Ta'limning xalqaro standart klassifikatsiyasiga binoan ta'lim bosqichlari bakalavriat yo'nalishlarida 5 raqami, magistratura mutaxassisliklarida – 5 A (raqam va harf) bilan belgilanadi. Masalan: bakalavriat kodi 5140100, 5211300, 5520400 va hokazo; magistrlar 5 A 140101, 5A211301, 5A520403 va hokazo.

*Kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari tasniflagichi* o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi muassasalarida kichik mutaxassislar tayyorlash bo'yicha tayyorlov yo'nalishlari kasblarining iiva mutaxassisliklarining tizimlashtirilgan ro'yxatidir.

*Davlat ta'lim standartlari (DTS)*- umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim mazmuniga hamda sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilaydi. DTSlarini bajarish O'zbekiston Respublikasining barcha ta'lim muassasalari uchun majburiydir.

Oliy ta'limning Davlat ta'lim standarti (bundan keyin OTDTS) kadrlar tayyorlash sifatiga, ta'lim mazmuniga qo'yilgan talablar; ta'lim oluvchilar tayyorgarligining zaruriy va etarli ta'lim muassasalari bitiruvchilariga qo'yilgan malakaviy talablar; o'quv yuklamasining maksimal hajmi; ta'lim muassasalari faoliyati va kadrlar tayyorlash sifatini baholash tartiblari hamda yo'l-yo'riqlarini belgilaydi.

OT DTS o'quv jarayonini tartibga soluvchi, ta'lim muassasalari faoliyati va kadrlar tayyorlash sifatini baholovchi me'yoriy hujjatlar: bakalavriat ta'lim yo'nalishlari, magistratura ixtisosliklari uchun DTS, o'quv rejalari, o'quv fanlari dasturlari va boshqalarni tayyorlash uchun asosdir.

*Kasb-hunar ta'limi tarmoq standarti* – yo'nalishlar bo'yicha kichik mutaxassislarni tayyorlashning zarur va etarli mazmuni hamda pirovard maqsadlarini aniqlaydi, ta'lim oluvchilarning o'quv yuklamalari hajmi va standart sifatleri nazoratini belgilab beradi.

Oliy ta'limning birinchi bosqichida ta'lim dasturlari umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi bilan uzluksiz va uzviy ta'minlanishini inobatga olgan holda ishlab chiqilishi va talabalarning quyidagi majburiy fanlarni o'zlashtirishini nazarda tutishi zarur:

- gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy;
- matematik va tabiiy-ilmiy;
- umum kasbiy;
- ixtisoslik;
- qo'shimcha.

Kasbiy faoliyat uchun zarur ko'nikma va malakalarni bakalavriat ta'lim dasturlari bilan uzluksizlik va uzviylik ta'minlanishini ko'zda tutib, ishlab chiqilishi va talabalar tomonidan quyidagi majburiy bloklar o'zlashtirilishini nazarda tutishi zarur:

- umummetodologik fanlar;
- mutaxassislik fanlari;
- ilmiy faoliyat.

Ta'lim- tarbiya jarayonini tashkil etishni rejalashtiruvchi, asosiy hujjat o'quv rejalari hisoblanadi. O'quv rejasi kasb-hunar ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etishni, o'quv fanlarini alohida o'rganish sur'atini ta'minlovchi hujjatdir.

O'quv rejasi – har bir yo'nalish uchun alohida tuzilib, vazirlik tomonidan tasdiqlanadi. Unda quyidagilar o'z ifodasini topadi:

1. Tayyorlov yo'nalishi (ixtisoslik) kodi va uning nomlanishi.
2. O'qish muddati.
3. O'qishni tugatgandan so'ng olinadigan akademik darajasi.
4. Ta'lim shakli.
5. O'quv davrining taqsimoti (jadvali)
6. O'quv jarayonining rejasi.

O'rganiladigan o'quv predmetlari.

Har bir o'quv predmetini o'rganish uchun ajratilgan umumiy vaqt miqdori.

O'rganish uchun ajratilgan vaqtni-ma'ruza, amaliy mashg'ulot, laboratoriya ishlari, seminarlar, kurs loyihalari va mustaqil ta'limga qanday miqdorda taqsimlanganligi.

O'quv predmetini qaysi bosqich, semestrlarda, haftasiga qancha soatdan o'rganish tartibi.

7. Davlat attestatsiyasi.
8. Tanlov fanlarining ro'yxati.
9. Izohlar.

O'quv rejalari mazmuni va tuzilishiga mos holda quyidagi omillarga e'tiborni qaratmoq lozim:

- Ta'lim va tarbiyaning maqsadli yo'naltirilganligiga;
- Mehnat va ishlab chiqarish jarayonining tuzilishiga;
- Ta'lim- tarbiya jarayonining qonuniyatlariga.

O'quv rejalarini ishlab chiqishda bo'lg'usi mutaxassislarda shakllantirilayotgan malaka mahoratlari darajasining o'rganilayotgan o'quv fanlari miqdoriga va o'rganish davriga aniq mos tushishini e'tiborda tutmoq lozim. Bo'lg'usi mutaxassislarning bilim va ko'nikmalarining shakllanishini, har bir fanni

bosqichma-bosqich chuqur o'rganishlari, qulay va muhimligini ham nazarda tutishi kerak bo'ladi.

Dastur o'quv predmetining mazmuni, uni tahsil oluvchilar tomonidan o'zlashtirilishining eng maqbul usullari, tartibi, axborot manbalarini o'zida mujassamlashtiruvchi me'yoriy hujjatdir.

O'quv dasturi - shu nom bilan nomlangan o'quv predmetiga tegishli bo'ladi. O'quv predmeti – ta'lim muassasasida o'rganish uchun fan, texnika, san'at, ishlab chiqarish faoliyatining muayyan sohasidan tanlab olingan bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy fazilatlar tizimidir.

Ta'lim standartlarida belgilab berilganidek, umumiy va maxsus talablar, bilim va ko'nikmalar, o'quv rejalaridagi umumkasbiy va maxsus fanlarda o'zaro uzviyligini ta'minlash, fan dasturlarini zamon talablariga mos ravishda oddiydan murakkabga qarab tuzib chiqish, har bir fan dasturlarining mavzulariga mos ravishda qo'shimcha ko'rgazmali qurollar yaratish o'qituvchilarga murakkab vazifalarni qo'yadi, talabalarning esa nazariy bilimlarini shakllantirib boradi.

Kichik mutaxassislar tayyorlashga qo'yilgan talablarning xujjatli asosini tasvirlaydigan o'quv dasturlarida pedagogik maqsadlarning to'liq va aniq belgilanishi talab qilinadi. To'liqlik deganda mazmunning barcha zaruriy va qo'yilgan maqsadga erishish uchun etarli elementlarni kiritish tushuniladi. Aniqlik deganda esa real o'quv jarayonida berilgan mazmunni joriy qilish yo'lini ko'rsatadigan elementlar va belgilar tasavvur etiladi.

O'quv-dasturiy hujjatlar tuzilmasi va mazmunini ishlab chiqish o'qitish jarayonini takomillashtirish va mehnat bozori talablariga javob beradigan malakali kadrlar tayyorlashda muhim ahamiyatga ega.

## **2. O'zbekiston Respublikasida “Standartlashtirish to'g'risida”gi Qonun. Standartlashtirish, ta'lim standarti. O'MKHT ta'lim standarti tushunchalari. Standartlashtirishning me'yoriy elementlari.**

Ta'limning mazmuni bir qator ehtiyojlarni hisobga olish bilan belgilanadi:

1. Ijtimoiy ishlab chiqarishning eng zarur ehtiyojlar, ijtimoiy tuzimning xususiyatlari.

2. Davlatning xalq ta'limi va muayyan turdagi o'quv yurti oldiga qo'yadigan maqsad va vazifalar.

3. O'qitish qoidalaridan kelib chikadigan va o'quvchilarning imkoniyatlarini (yosh imkoniyatlari va boshqalar) e'tiborga oluvchi didaktik talablar.

Ta'lim mazmuni o'quv rejasi, o'quv dasturi va darsliklarda ifodalangan.

O'quv rejasi - deb, o'qitiladigan fanlar, o'qitish uchun ajratilgan soatlar va o'quv yilini tuzilishini belgilab beruvchi davlat xujjatiga aytiladi.

O'quv rejasi – barcha umumta'lim maktablarida so'zsiz amal qilinishi lozim bo'lgan davlat xujjatidir. Unda sinflar bo'yicha o'rganilishi lozim bo'lgan o'quv fanlari va o'sha fanlar uchun ajratilgan o'quv soatlari ko'rsatilgan bo'ladi.

Maktabning yagona o'quv rejasi xalq ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

O'quv dasturi – o'quv rejasi asosida ishlab chiqiladi. O'quv dasturi xar bir o'quv fanining o'qitish uchun ajratilgan bilim xajmi, tizimi va g'oyaviy – siyosiy yo'nalishini aniqlab beradigan davlat xujjatidir.

O'quv dasturida o'quv yili davomida xar qaysi sinfda aloxida fanlar bo'yicha o'quvchilarga beriladigan ilmiy bilim, ko'nikma va malakalarning hajmi belgilab beriladi. Dasturda xar qaysi o'quv fanlarining mazmuni izchillik bilan yoritiladi va ma'lum mavzular

orqali ko'rsatiladi. Ma'lum mavzu yuzasidan o'quvchi o'zlashtirishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar hisobga olinib beriladi.

Darslik – o'quv jarayonining zarur qismidir. Ko'p vaqtlardan beri u o'qitishning eng muhim vositasi hisoblanar edi.

Xar bir o'quv fanining mazmuni darslikda batafsil yoritiladi. Darslik tegishli fanga oid ilmiy bilim asoslarini dasturga va didaktika talablariga muvofiq ravishda bayon qiluvchi kitobdir.

Darsliklar bilan bir vaqtda ayrim fanlardan o'quv qo'llanmalar xam tuziladi. Masalalar va mashqlar to'plami, xrestomatiyalar, atlaslar, luqat kitoblari vash u kabilarni misol qilib keltirish mumkin.<sup>1</sup>[36]

O'quvchilar darslik va o'quv qo'llanmalari bilan xam darsda, xam uy sharoitida mustaqil ish olib boradilar. Darslik materiali katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. U bilan ishlash tarbiyalanuvchilarning aqliy tarbiyasiga, ularda ilmiy dunyoqarashning, axloq, odob, tafakkurning, nutqning, ishdagi mustaqilligini rivojlanishiga yordam beradi.

**Standart** - ta'limda yaratilgan me'yoriy reja, dastur, darsliklarni o'zlashtirish ekvivalenti, ya'ni ta'lim mazmunini o'zlashtirish darajasidir. Standartni ishlab chiqishda talabani xaddan tashqari zeriktirib yubormaslik talablariga rioya qilish, ya'ni u talaba yoshiga mos, uni bajarishga qurbi etadigan darajada bo'lishi kerak. Bunda albatta, ta'lim oluvchini qiziqishi, xohishi, ehtiyoji hisobga olinishi lozim.

Davlat va jamiyat ta'lim muassasalari oldiga muayyan ijtimoiy buyurtmalar qo'yayotgan ekan, o'sha muassasalar tomonidan tayyorlanadigan kadr egallashi lozim bo'lgan ijtimoiy sifatlarning minimal chegarasini ham ko'rsatib berish tabiiydir. Ta'lim oluvchilar egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka yohud ma'naviy sifatlarning eng quyi miqdoridagi ilmiy asoslarda malaka yohud ma'naviy sifatlarning eng quyi miqdoridagi ilmiy asoslarda berilgan rasmiy pedagogik hujjat-davlat ta'lim standarti hisoblanadi. Demak davlat ta'lim standartlari nazorat vositasi, ayni vaqtda ta'lim muassasalarida ko'zlangan ko'rsatkichlarni qo'lga kiritish uchun zarur bo'lgan sharoitni belgilash o'lchovi hamdir. Davlat ta'lim standartlarining ko'rsatkichlari amaldagi mavjud ta'lim mazmunidan emas, balki shakllantirilayotgan talabaga singdirilishi lozim bo'lgan sifatlarning jahon bo'yicha zarur deb hisoblangan miqdoridan kelib chiqadi.

Davlat ta'lim standartlarining ikki asosiy vazifasini alohida ta'kidlab ko'rsatish mumkin.

1. Talabalarga beriladigan ta'lim mazmunining majburiy minimumlarini belgilash.

2. Bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga quyiladigan talablar majmuasini belgilash, bilim, ko'nikma va malakalarning minimal miqdorini belgilash.

1999 yil 16 avgust Vazirlar Mahkamasi o'zining "Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 390-sonli qarori bilan sinovdan o'tkazilgan va takomillashtirilgan umumiy o'rta ta'limning davlat standartlarini tasdiqladi. Mazkur standartlar asosida yaratilgan va tajriba sinov asosida takomillashtirilgan yangi o'quv dasturlari Xalq ta'limi vazirligi hay'at majlisining 1999 yil 18 avgustdagi 13-sonli qarori bilan tasdiqlandi. Davlat ta'lim standartlari yangi o'quv dasturlari bilan birgalikda 1999-2000 o'quv yilidan boshlab umumiy o'rta ta'lim O'quv muassasalarida bosqichma-bosqich joriy etilmoqda.

Uzluksiz ta'limni standartlashtirish asoslari

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qabul qilingandan keyin uni amalga oshirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining birinchilar qatorida

qabul qilgan qarori 1998-yil 5-yanvardagi «Uzluksiz ta'lim tizimi uchun davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish to'g'risida» gi 5 sonli qaroridir.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunning 7-moddasiga, Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga muvofiq respublikada idoraviy bo'ysunishi va mulkchilik shakllaridan qat'i nazar ta'lim muassasalarining barcha turlari uchun majburiy bo'lgan davlat ta'lim standartlari (DTS) belgilanadi.

Davlat ta'lim standartlarining maqsad va vazifalari.

Davlat ta'lim standartlari joriy etilishi quyidagi maqsadlar amalga oshirilishini nazarda tutadi:

- ta'limning yuksak sifatini hamda mamlakatda amalga oshirilayotgan chuqur iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar, rivojlangan demokratik davlat barpo etish talablariga javob beruvchi kadrlar tayyorlanishini ta'minlash;
- mamlakatning ijtimoiy va ijtimoiy taraqqiyoti istiqbollaridan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqib kadrlar tayyorlash mazmunini tartibga solish;
- ta'limning demokratiyalashuvi, insonparvarlashuvi va ijtimoiylashuvi, ta'lim oluvchilarning huquqiy iqtisodiy bilimlari darajasini, shuningdek ta'lim jarayoni samaradorligini oshirish;
- sifatli ta'lim xizmatlarini ko'rsatish, ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasida shaxsning, jamiyat va davlatning manfaatlarini himoya qilish;

**3. Standartlashtirish turlari. O'MKHT davlat ta'lim standartlashtirishning funktsiyalari. O'MKHT DTS maqsadi., funktsiyalari, vazifalari, tamoyillari**

**O'MKHT DTS. DTSga, uni ishlab chiqarish va amalga qo'llashga qo'yiladigan talablar. DTSni ishlab chiqarish va amalga kiritish bosqichlari. DTSning mazmuni. DTSning davlat va milliy-mintaqaviy tarkibiy qismlari.**

**Bozor munosabatlariga o'tish sharoitlarida kasbiy ta'lim sifatiga talablar. DTS kiritilishi kasb-hunar kollejlarida malakali mutaxassislarni tayyorlash sifatini baholashning asosiy maqsadi sifatida. "Ta'lim sifati", "Ta'lim sifatini nazorat qilish", "Ta'lim sifatini baholash tushunchalari". Standartlashtirish, ta'lim standarti, O'MKHT ta'lim standarti tushunchalari.**

**Standartlashtirishning me'yoriy elementlari. Standartlashtirish turlari. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi mazmuni (davlat ta'lim standartlari, o'quv rejalari va dasturlari). O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv muassasalari turlari va ulardagi ta'lim-tarbiya jarayoni.**

O'quv rejasi, o'quv dasturi, kasb-hunar ta'limi davlat standartining mohiyati.

Davlat ta'lim standartlarining vazifalari:

- ta'lim sifatiga va kadrlar tayyorlashga, ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari nomenklaturasiga nisbatan qo'yiladigan maqbul talablarni belgilash;
- ta'limga va uning pirovard natijalariga, ta'lim oluvchilarning bilimi va kasbiy malakasi darajasini vaqti-vaqti bilan baholash tartibi va tartibotiga, shuningdek ta'lim faoliyati sifati ustidan nazorat qilishga nisbatan qo'yiladigan tegishli talablarni belgilovchi me'yoriy bazani yaratish;

- xalqning boy ma'naviy merosi va umuminsoniy qadriyatlar asosida ta'lim oluvchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning samarali shakllari va usullarini joriy etish;
- ta'limning barcha turlarida ular mazmunini hamda olib boriladigan ta'lim va tarbiyani kelishib olish ularning o'zaro bog'liqligini, uzluksiz ta'lim tizimida va kadrlar tayyorlashda izchillikni ta'minlash;
- o'quv-tarbiya va ta'lim jarayoniga, uzluksiz ta'lim tizimining pedagogik texnologiyalariga va axborot bilan ta'minlanishiga, ta'lim darajasini nazorat qilishga, ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchilar va ularni bitiruvchilarning malakasiga nisbatan me'yorlar va talablarni belgilash;
- ta'lim va kadrlar tayyorlash sifatiga baho berishning holis tizimini, ta'lim muassasalarini attestatsiyadan o'tkazish va akkreditatsiya qilishni joriy etish;
- kadrlarni maqsadli va sifatli tayyorlash uchun ta'lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta'minlash;
- milliy standartlar talabining ta'lim sifati va kadrlar tayyorlashga nisbatan xalqaro talablarga muvofiqligini ta'minlash;

O'MKHT dagi tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va ixtisosliklar umumdavlat tasniflagichi

Tasniflagich loyihasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi Markazining Davlat ta'lim standartlari bo'limi va O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini rivojlantirish instituti tomonidan ishlab chiqildi. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari, tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va ixtisosliklari Tasniflagichning tasniflash obektlari hisoblanadi.

Mazkur Tasniflagichda tayyorlash yo'nalishlari nomi, kodi va shu tayyorlov yo'nalishlari turkumiga kiruvchi kasblar nomi va kodi hamda ixtisosliklar ro'yxati keltirilgan.

Qo'llanish sohasi va unda qo'llanilgan ta'riflar

Tasniflagich o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi mutaxassislarini ish bilan ta'minlovchilar, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limida davlat ta'lim standartlari, o'quv rejalari, dasturlari va boshqa me'yoriy hujjatlarni ishlab chiquvchilar, ta'lim muassasalari rahbarlari, Respublika va mahalliy boshqaruv tashkilotlari mutaxassislari, vazirliklar, muassasalar va boshqa respublikamiz xo'jaliklarini rivojlantirishda faoliyat ko'rsatayotgan **subektlar uchun mo'ljallangan**.

Tasniflagichda quyidagi ta'riflar qo'llanilgan:

Tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va ixtisosliklarning umumdavlat tasniflagichi (TYKIUT) - o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv muassasalarida kichik mutaxassislarni tayyorlash bo'yicha tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va mutaxassisliklarning tizimlashtirilgan ro'yxati.

Malaka-mutaxassisning kasbiy tayyorgarligi darajasi, undagi ma'lum ishni bajarish uchun zarur bo'lgan bilim, malaka va ko'nikmalarning mavjudligi.

**Kichik mutaxassis** - bu ta'lim dasturini muvaffaqiyatli o'zlashtirgan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari bitiruvchilariga beriladigan malaka darajasidir.

**Tasniflagichda quyidagi to'qqizta bilim sohasi nazarda tutilgan:**

100000 – ta’lim;  
200000 – gumanitar fanlar va san’at;  
300000 – ijtimoiy fanlar;  
400000 – fan;  
500000 – muhandislik, ishlov berish va qurilish tarmoqlari;  
600000 – qishloq ho’jaligi;  
700000 – sog’liqni saqlash va ijtimoiy ta’minot;  
800000 - Xizmatlar;

Tasniflagichda ta’lim bosqichlari va ta’lim sohalari, tayyorlov yo’nalishlari va kasblar ettita raqamli kod bilan belgilanadi.

Ta’limning xalqaro klassifikatsiyasiga binoan ta’lim bosqichi-o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi 3-raqami bilan belgilanadi. Masalan: 3144610, 3210210, 3380110 va boshqalar.

**Birinchi raqam** - ta’lim dasturi bosqichi kodi;

**Ikkinchi raqam** - bilim sohasi kodi;

**Uchinchi raqam** - ta’lim sohasi kodi;

**To’rtinchi va beshinchi raqamlar** - tayyorlov yo’nalishi kodi;

**Oltinchi va ettinchi raqamlar** - kasblar kodi.

O’MKHT da kichik mutaxassis tayyorlash tizimi

Hozirgi ishlab chiqarishga kelayotgan mutaxassislarning uchdan bir qismi avval maktabda mehnat va kasbgacha tayyorlanmokdalar, keyin kasb- hunar kollej tizimida kichik mutaxassis darajasigacha tayyorgarlik ko’rmokdalar.

YOshlarga mehnat va kichik mutaxassislik bo’yicha tayyorgarlik berish maqsadida maktablar va kasb-hunar kollejlari ta’lim muassasalari o’quvchilarini motivlashtirish, o’qishning butun tizimini yaxshilash, ularda bilimga qiziqishni oshirish, ta’lim olishdagi burch va ma’suliyatni hissini tarbiyalash uchun o’qitishni turmush bilan bog’lash, bilimga doir o’yinlar tashkil qilish, ishlab chiqarish xarakteridagi zarur vaziyatlarni vujudga keltirish va hokazolar orqali bilim olishning mohiyati va ahamiyatini yoritish lozim.

Respublikamizda **kichik mutaxassis tayyorlash** o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi o’quv yurtlarida, jumladan kasb - xunar kollejlari amalga oshiriladi.

Kasb-xunar kollejidagi ta’lim tarbiya jarayoni o’quvchilarning qiziqishlari va istak-xoxishiga qarab ularning kasb-xunarga moyilligi, maxorat va malakasini chuqur rivojlantirishni, tanlangan kasblar bo’yicha bir yoki bir necha ixtisos olishlarini ta’minlaydi.

O’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi tizimi quyidagilarni o’z ichiga oladi:

- davlat ta’lim standartlariga muvofiq o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limining ta’lim dasturlarini amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta’lim muassasalarida amalga oshirilishni;

- O’rta maxsus, kasb-hunar ta’lim tizimining faoliyat ko’rsatishi va rivojlanishini ta’minlash uchun zarur bo’lgan tadqiqot ishlarini bajaruvchi ilmiy-pedagogik muassasalar bilan xamkorlik qilishni;

- ta’lim sohasidagi davlat boshqaruv organlari, shuningdek ularga qarashli korxonalar, muassasalar va tashkilotlar bilan xamkorlik qilish va ular tomonidan **kichik mutaxassis tayyorlash** bo’yicha qo’yilgan vazifalarni amalga oshirishni.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish yuzasidan **Respublika komissiyasi tashkil etildi**. Bu Komissiya tomonidan quyidagi vazifalar amalga oshirildi va oshirilmoqda:

- uzluksiz ta'limning tegishli turlari uchun DTS lariga qo'yiladigan umumiy talablarni DTSlarini va boshqa zarur normativ hujjatlarni ishlab chiqish;

- o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimi uchun davlat ta'lim standartlarini, akademik litsey va kasb-hunar kollejlaridan iborat ta'lim tizimini joriy etish dasturlarini ishlab chiqish;

- o'rta umumiy ta'limga ega bo'lgan o'quvchilarni akademik litsey va kasb-hunar kollejlari tizimi bilan to'la qamrab olish, o'qituvchilar va pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish uchun ta'lim muassasalarini tashkil etish hamda ularning samarali ishlashini ta'minlash;

- oliy ta'lim muassasalari tizimini Milliy dastur talablariga binoan isloh qilish, bu borada tegishli davlat ta'lim standartlarini yaratish va joriy etish va boshqalar.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qabul qilingandan keyin **uni amalga oshirish bo'yicha** O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining birinchilar qatorida qabul qilgan qarori 1998-yil 5-yanvardagi «Uzluksiz ta'lim tizimi uchun davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish to'g'risida» gi **5 sonli qaroridir**.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunning **7-moddasiga, Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga muvofiq** respublikada idoraviy bo'ysunishi va mulkchilik shakllaridan qat'i nazar ta'lim muassasalarining barcha turlari uchun majburiy bo'lgan davlat ta'lim standartlari (**DTS**) belgilanadi.

- DTS kadrlar tayyorlash sifatiga, ta'lim mazmuniga nisbatan qo'yiladigan talablarni;

- ta'lim oluvchilar tayyorgarligining zarur va etarlicha darajasini hamda ta'lim muassasalarini bitiruvchilarga nisbatan qo'yiladigan malaka talablarini;

- o'quv yuklamasining zarur hajmini; ta'lim muassasalari faoliyatini va kadrlar tayyorlash sifatini baholash tartibi va mexanizmini belgilaydi.

**DTS** ta'lim jarayonini va ta'lim muassasalari faoliyatini baholashni tartibga soluvchi boshqa me'yoriy hujjatlarni yaratish uchun asos hisoblanadi.

Davlat ta'lim standartlarining maqsad va vazifalari. Davlat ta'lim standartlari joriy etilishi quyidagi **maqsadlarni** nazarda tutadi:

- ta'limning yuksak sifatini hamda mamlakatda amalga oshirilayotgan chuqur iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar, rivojlangan demokratik davlat barpo etish talablariga javob beruvchi kadrlar tayyorlanishini ta'minlash:

- mamlakatning ijtimoiy va ijtimoiy taraqqiyoti istiqbollariidan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, texnika va texnologiyani zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqib kadrlar tayyorlash mazmunini tartibga solish;

- ta'limning demokratiyalashuvi, insonparvarlashuvi va ijtimoiylashuvi, ta'lim oluvchilarning huquqiy iqtisodiy bilimlari darajasini, shuningdek ta'lim jarayoni samaradorligini oshirish;

- sifatli ta'lim xizmatlarini ko'rsatish, ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasida shaxsning, jamiyat va davlatning manfaatlarini himoya qilish;

- kadrlar tayyorlash sifatini va ta'lim faoliyatini baholash mezonlarini va tartibini belgilash;

- ta'lim jarayoni va kadrlar tayyorlashning izchilligi va uzluksizligini ta'minlash, ta'limning barcha turlari va bosqichlarida o'quv-tarbiya jarayonini maqbullashtirish;

- mehnat va ta'lim xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni ta'minlash.

Ta'limning standartlashtiriladigan turlari.

DTS-ta'limning quyidagi turlari uchun belgilanadi:

- Umumiy o'rta ta'lim, shu jumladan boshlang'ich ta'lim;

- O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi (akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari);

- oliy ta'lim (bakalavriat, magistratura).

Maktabgacha, maktabdan tashqari, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash uchun davlat boshqaruvining vakolatli organlari tomonidan davlat talablari belgilanadi.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi davlat ta'lim standartlarining vazifalari:

- O'MKHT sifatiga va kadrlar tayyorlashga, ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari turlariga nisbatan qo'yiladigan maqbul talablarni belgilash;

- O'MKHT ga va uning pirovard natijalariga, ta'lim oluvchilarning bilimi va kasb malakasi darajasini vaqti-vaqti bilan baholash tartibiga, shuningdek ta'lim faoliyati sifati ustidan nazorat qilishga nisbatan qo'yiladigan tegishli talablarni belgilovchi me'yoriy negizni yaratish;

- xalqning boy aql-zakovat merosi va umuminsoniy qadriyatlar asosida ta'lim oluvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning samarali shakllari va usullarini joriy etish;

- O'MKHT o'quv-tarbiya va ta'lim jarayoniga, pedagogik va axborot texnologiyalari bilan ta'minlashga, ta'lim darajasini nazorat qilishga, ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchilar va ularni bitiruvchilarning malakasiga nisbatan me'yorlar va talablarni belgilash;

- kadrlarni maqsadli va sifatli tayyorlash uchun ta'lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta'minlash.

## **8-MAVZU: O'ZBEKISTON XALQ XO'JALIGINING ASOSIY TARMOQLARI.**

1. Xalq xo'jaligi tarmoqlari, sanoat-qishloq xo'jaligi, kichik korxonalar, kichik biznes.

2. O'MKHTdagi tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va ixtisosliklar umumdavlat klassifikatori haqida tushuncha. O'MKHT mutaxassislik va kasblar yo'nalishlari bo'yicha umumdavlat klassifikatori maqsad va ob'ektlari.

3. Mutaxassislik, kichik mutaxassis, kichik mutaxassis vazifalari, kasbiy faoliyat sohasi, O'MKHT ta'lim muassasalarida ta'lim yo'nalishlari tushunchalari. Tasniflagich tuzilmasi.

### **1. Xalq xo'jaligi tarmoqlari, sanoat-qishloq xo'jaligi, kichik korxonalar, kichik biznes.**

**O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi mazmuni (DTS, o'quv rejalari va dasturlari).**

**Davlat ta'lim standartlari** Davlat ta'lim standarti O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligini qo'lga kiritilgandan so'ng yaratildi. DTS O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi" normativ hujjatlari asosida yaratilgan.

Standart o'lchov, andoza, qolip, mezon ma'nosini beradi. DTS ta'limning mazmuniga hamda sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilaydi.

DTS ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarining sifatiga qo'yiladigan minimal darajadagi talabni aniqlaydi.

**O'quv rejasi:** davlat hujjatidir. O'quv rejasi barcha ta'lim muassasalarida so'zsiz amal qilinishi lozim bo'lgan davlat hujjatidir.

O'quv rejasi tegishli ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

O'quv rejasida:

- o'quv yilining boshlanishi va tugash vaqti, beriladigan ta'tillarning kuni, ta'lim muassasasida o'tilishi kerak bo'lgan fanlarning tizimi;
- o'rganilayotgan fanlarning ro'yxati va bo'linishi (taqsim qilinishi);
- fanlarning asosiy va fakultativlarga bo'linishi;
- har bir sinfda o'quv fanlarini o'rganishda haftalik va yillik taqsim qilinishi soati ko'rsatilgan bo'ladi.

**O'quv dasturi** o'quv rejasi asosida har bir o'quv fani uchun tuziladi. O'quv dasturi har bir o'quv fanini o'qitish uchun ajratilgan bilim hajmi, tizimi va g'oyaviy-siyosiy yo'nalishini aniqlab beradigan hujjatdir.

O'quv dasturida o'quv yili davomida har qaysi sinfda alohida fanlar bo'yicha o'quvchilarga beriladigan ilmiy bilim, ko'nikma va malakalarning hajmi belgilab beriladi. Dasturda har qaysi o'quv fanlarining mazmuni izchillik bilan yoritiladi va ta'lim mavzular orqali ko'rsatiladi.

Ma'lum mavzu yuzasidan o'quvchi o'zlashtirishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar qsqacha ifodalab beriladi.

O'quv dasturi **uch qismga** bo'linadi:

- tushuntirish xati (o'rganilayotgan fanning) maqsad va vazifalari;
- mazmuniy (asosiy) qism;
- bilim, ko'nikma va malakalarni baholashda metodik ko'rsatma, ta'limning ko'rsatmali va texnik vositalari soni, tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxati;

**Ta'lim mazmunining tuzilishi quyidagi tamoyillarga asoslanadi:**

1. Ta'lim mazmunining davlat ijtimoiy-kasbiy rivojlanishi yo'nalishlariga bog'liqlik tamoyili.

2. YOshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tamoyili.

3. Fanlararo kompleks aloqalar tamoyili.

4. Kasblarga yo'naltirish tamoyili.

5. Ta'lim mazmunini tanlashda ustuvor va o'zgaruvchan qismlarga bo'lib tanlash tamoyili.

6. Ta'lim mazmunini unifikatsiyalash va tabaqalashtirish tamoyili.

**Korxonalrning yangi xo'jalik yuritishga o'tishi jamiyatning yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash ijtimoiy buyurtmasini bajarish.**

Fan-texnika taraqqiyoti davrida ishchilarning mehnat qilish sharoiti o'zgaradi, chunki ishlab-chiqarish jarayonida ishchining bajaradigan faoliyati,

dunyoqarashi, o'zni o'zgaradi. Ushbu o'zgarishlar ishlab-chiqarish bosqichlarining rivojlanishi yangi mayllarning o'sishiga olib keladi. Ishchi ushbu rivojlanishdan foydalangan holda yangicha ishlashni hohlaydi. Ishchilarda yuzaga kelayotgan o'zgarishlarning kuchayishida ishlab-chiqarish omillari kuchli rol o'ynaydi. Buning asosida jismoniy mehnat, ya'ni insonning bajaruvchilik funktsiyasi yotadi.

Mehnatdagi asosiy o'zgarish, avvalambor, insonlarning jipsligidan kelib chiqadi. Malumki, ishlab-chiqarish jarayonida inson asosan 4 ta asosiy funktsiyani bajaradi:

- ishchi o'z jismoniy harakati bilan aylantiruvchi va harakatlantiruvchi harakatlar hosil qilish uchun mehnat qurollarini ishlatadi;
- mehnat qurollarini boshqaradi va ularga ta'sir ko'rsatadi;
- ularni to'g'rilaydi va tamirlaydi;
- ularni loyihalashtiradi va ishlab-chiqarish jarayoniga tatbiq qiladi.

Mehnatni boshqarishda zamonaviy ishchiga 1- va 2-funktsiyalar doirasidagi ko'rsatkichlar ahamiyatli bo'lishi bilan bir qatorda mehnatning mazmuni va ijodiyligini oshirishda 3-4-funktsiyalar ham muhimdir.

Tarixga nazar solib ko'rsak yuqori malakali ish darajasi oshib bormoqda. Masalan: 30-yillarda slesar tamirlovchi 9-10 ta stanokda ishlay olgan, hozirda esa 25-30 ta stanokda bemalol ishlay oladi va 100 dan ortiq metall va nometall materiallardan foydalanadi. Bundan tashqari u payvandlashni ham bilishi kerak. Tokarlik ishi yillar o'tgan sari sezilarli darajada o'zgaradi. 30-yillarda 3-razryadli tokar oddiy ishlarni master qo'l ostida qilardi. 40-yillarda esa stanokning asosiy qismlarini, ya'ni zo'riqish bo'lganda sinadigan joylarni, oddiy qirquvchi va o'lchov asboblarni sovitish va moylash, moylash suyuqligini ishlatishni ham bilishi kerak bo'lgan. Yana tokar stanok markalarini va nuqsonli mahsulotni aniqlay olishi ham kerak.

60-yillarda esa tokar keng tarqalgan va universal stanoklar tuzilishini, oddiy va qirquvchi asboblarni qo'llashni ko'rsatma berishni, material o'lchovlari va yuza tozaligini bilishi talab etilar edi.

70-yillarda tokar stanokning tuzilishi, ishga yaroqliligi hamda stanoklarni boshqarish qoidalarini tekshiruvchi o'lchov asboblaridan foydalanish qoidalarini bilishi kerak bo'lgan.

80-yillarda esa 3 - razryadli tokar stanokda ishlash bilan birga elektronika ishlarini ham bajara olishi talab qilingan.

90-yillarda texnikaning rivojlanishi yangi tipdagi stanok ishchilarini shakllantirdi. Keng tarmoqli universal ishchilar vujudga keldi. Hozirda bu ishchilar 14 ta ixtisosliklarni egallagan. Bu ixtisosliklardan tokarlik avtomatlarini sozlovchilar, yarim avtomat va avtomatlashtirilgan stanoklarni sozlovchi hamda boshqalar. Ishchi sozlovchilarning bu guruhi elektrotexnik bilimiga ham egadirlar.

### **Kasb-hunar ta'imini bevosita ishlab chiqarish jarayonlari bilan bog'lash**

Mehnat bozori xalq xo'jaligining turli sohalari uchun malakali kadrlarni talab qiladi. Unda oddiy mutaxassisdan, to yirik tashkilotchi rahbarlargacha barchasi uchun talab o'zi egallab turgan lavozimiga mos malakaga ega bo'lishi hisoblanadi. Kasbiy malakaga ega bo'lish esa respublikamizda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim, oliy ta'limdan keyingi ta'lim va malaka oshirish orqali amalga

osHIRiladi. Kasb-hunar ta'imini **bevosita ishlab chiqarish jarayonlari bilan bog'lab olib borish** bo'lg'usi mutaxassislarining yuqori malakali bo'lishlarini ta'minlaydi.

**Dual ta'lim tizimining quyidagi qator ustunliklari mavjud:**

-o'qitish jarayoni bevosita amaliyot bilan birgalikda olib boriladi. Unda ta'limning taxminan 40%ga yaqin nazariy bilim berilsa, 60%dan ziyodrog'i bevosita ishlab chiqarish korxonalari yoki qishloq xo'jalik bilan bog'liq sohalarida olib boriladi;

-o'qish jarayonini tashkil qilishda tahsil oluvchilarning kasbiy malaka olishga bo'lgan talab va ehtiyojlari jadal suratda amalga oshiriladi;

-o'qish bevosita ishlab chiqarish bilan birgalikda amalga oshirilganligi sababli moliyalashtirish mexanizmi engillashadi;

-o'qish jarayoniga korxonalar jalb qilinganligidan ijtimoiy hamkorlik yo'lga qo'yilganligi sababli kuchli iqtisodiy va siyosiy aloqadorlik usulining paydo bo'lishiga olib keladi;

-xalq xo'jaligining davlat tuzilmasi, shuningdek, nodavlat xususiy tadbirkorlik nuqtai nazaridan ham foydali moliyaviy usul hisoblanadi;

-xalq xo'jaligining rivojlanishida zarur bo'lgan o'rta pog'onada malakali kadrlarning bandlik darajasi yuqori bo'ladi.

**Ayni paytda dual ta'lim usuli kamchiliklardan xoli emas:**

- ta'lim muassasalarida tahsil oluvchilarga kasb-hunar sirlari nisbatan tor ixtisoslik doirasida o'qitilganligi uchun jamiyatda va xo'jaliklarda ishlash uchun keng imkoniyat yaratilmaydi;

-birgina yo'nalishda malaka oshirilgani sababli ular yaqin ikkinchi bir yo'nalishga moslashuv mexanizmi cheklangan;

-kasb - hunar ta'imini amalga oshirish o'ziga xos berk xarakterga ega;

-tor mutaxassislik berilganligi mutaxassis shaxsning tashabbuskorligi va erkinligi chegaralangan bo'ladi;

-taklif qilinayotgan o'quv muassasalarini ishlab chiqarish korxonalarining smeta xarajatlariga bog'liqligi uchun ko'p sondagi tinglovchilar malaka oshirishdan foydalana olmaydi.

**10-Ilova**

**Ta'limini ishlab chiqarish orqali amalga oshirish shakllari va turlari.**

Talabalarning korxonada ishlab chiqarish ta'lim olishlaridan asosiy maqsad – ularning kasbiy ko'nikma va mahoratlarini oshirish, kasbiy bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish, ilgor ishlab chiqarish tajribasi bilan tanishtirish, ishlab chiqarish amaliyotiga tayyorlash va shular asosida kasb-hunar kollejlarini tugatgandan so'ng ishlab chiqarishda mustaqil faoliyat ko'rsatishga o'rgatishdan iboratdir.

Talabalarni korxona ustaxonalarida o'qitish – malakasi kichik mutaxassislarni tayyorlashdagi xal qiluvchi davr hisoblanadi. Bu erda talabalar ishlab chiqarish holati, yangi jixozlar va texnologik moslamalar, zamonaviy texnologik jarayonlar bilan tanishadilar.

Har bir kasb va mutaxassislik bo'yicha bevosita korxonada o'qitish hajmi, mazmuni va muddatlari mutasaddi tashkilotlar tamonidan tasdiqlangan o'quv dasturlariga muvafiq belgilatgadi.

KXX o'quv rejaga muvofiq korxonalarda ishlab ishlab chiqarish amaliyotiga ajratiladi.

**Ishlab chiqarish amaliyoti.** Ishlab chiqarish amaliyoti kasbiy tayyorgarlikning yakuniy bosqichini tasvirlaydi va o'qitishning so'nggi oylarida o'tkaziladi.

**Korxona tsexlarida o'qitishni tashkil qilish shakillari.**

O'quvchilar ishlab chiqarish ta'limini korxonalarda gurux ustasining rahbarligida o'tadilar.

O'qitishni tashkil qilishning eng ko'p tarqalgan shakillari quyidagilardir:

- guruxlarni korxona yoki tashkilot ajratgan mustaqil o'quv uchastkalarida o'qitish;
- o'quvchilarni alohida-alohida brigadalarga bo'lib ishlab chiqarish uchastkalarida o'qitish;
- o'quvchilarni malakali ishchilar brigadalari tarkibida o'qitish;
- o'quvchilarni murakkab mashina va mexanizmlarga xizmat ko'rsatish bo'yicha individual ish o'rinlarida o'qitish;
- korxonaning shtatli ishchi o'rinlarida ishlab chiqarish amaliyotini o'tish.

**2. O'MKHTdagi tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va ixtisosliklar umumdavlat klassifikatori haqida tushuncha. O'MKHT mutaxassislik va kasblar yo'nalishlari bo'yicha umumdavlat klassifikatori maqsad va ob'ektlari.**

**MKXT mutaxassislik va kasblar yo'nalishlari bo'yicha Umumdavlat**

**Klassifikatori, uning maqsad va ob'ektlari**

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limidagi tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va mutaxassisliklari umumdavlat Tasniflagichi O'zbekiston Respublikasida texnikaviy-iqtisodiy va ijtimoiy axborotlarni tasniflash va kodlashtirish bo'yicha yagona tuzilma tarkibiga kiradi va Vazirlar Mahkamasining «Uzluksiz ta'lim tizimi uchun davlat ta'lim standartlarining ishlab chiqish va joriy etish to'g'risida» gi 1998-yil 5- yanvar 5-son qarori asosida tayyorlangan.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limidagi tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va mutaxassisliklari umumdavlat Tasniflagichi O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi, «Kadrlar tayyorlash bo'yicha milliy dastur» qonunlari hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim Vazirligining me'yoriy hujjatlariga asoslanib tuzilgan.

Mazkur tasniflagich O'zbekiston Respublikasining hududlarida foydalanish uchun ishlab chiqilgan.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari, tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va mutaxassisliklari tasniflagichning **tasniflash ob'ektlari** hisoblanadi.

Mazkur Tasniflagichda tayyorlash yo'nalishlari nomi, kodi va shu tayyorlash yo'nalishlari turkumiga kiruvchi kasblar va mutaxassisliklar ro'yxati keltirilgan.

Ushbu tasniflagichda ta'lim haqidagi me'yoriy hujjatlarni indeksatsiyalash maqsadida foydalaniladigan ta'limni xalqaro standart tasniflash (TXST) kodlari ham keltirilgan.

O'MKHT tayyorlov yo'nalishlari va ixtisosliklar kodi — kasbiy faoliyat sohaslariga muvofiq kasblar va mutaxassisliklar bo'yicha tayyorlov yo'nalishlari ixtisoslashtirilgan ro'yxatining raqamli belgisidir.

**Mutaxassislik, kichik mutaxassis, kichik mutaxassis vazifalari, kasbiy faoliyat sohasi**

**Tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va ixtisosliklarning umumdavlat tasniflagichi (TYKIUT)** - o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv muassasalarida kichik mutaxassislarni tayyorlash bo'yicha tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va mutaxassisliklarning tizimlashtirilgan ro'yxati.

**Kichik mutaxassis** - bu ta'lim dasturini muvaffaqiyatli o'zlashtirgan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari bitiruvchilariga beriladigan malaka darajasidir.

**Kichik mutaxassis:**

- tegishli ijtimoiy ishlab chiqarish sohasida uning unumli faoliyat ko'rsata olishini ta'minlaydigan nazariy va amaliy bilimlar majmuasiga, kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarga ega;

- mazkur jamiyatda o'zining muvaffaqiyatli hayot darajasini ta'minlaydigan umumiy va kasbiy madaniyatga, ijtimoiy ahamiyatli xususiyatlarga va shaxsiy sifatlarga ega.

**Malaka** — xodimning kasbiy tayyorgarligi darajasi, undagi ma'lum ishni bajarish uchun zarur bo'lgan bilim, malaka va ko'nikmalarning mavjudligi.

Xodimning malakasini belgilovchi ko'rsatgich bo'lib, kategoriya yoki diplom, ilmiy daraja yoki unvonning mavjudligi hisoblanadi.

**Kasbiy faoliyat sohasi (KFS)** kasbiy bilim, malaka va ko'nimalarning qo'llanish doirasidir; uning nomlanishi iqtisodiy sohalari nomlari bilan moslashtiriladi.

**Kasb-hunar ta'limi tarmoq standarti** – yo'nalishlar bo'yicha kichik mutaxassislarni tayyorlashning zarur va etarli mazmuni hamda pirovard maqsadlarini aniqlaydi, ta'lim oluvchilarning o'quv yuklamalari hajmi va standart sifatlari nazoratini belgilab beradi.

**O'MKHT ta'lim muassasalarida ta'lim yo'nalishlari tushunchasi.**

O'MKHT ta'lim muassasalaridagi **tayyorlov yo'nalishlari** — aniq kasbiy faoliyat sohasida mutaxassislarga kasbiy ta'lim berish doirasidir. Mutaxassislarning kasbiy faoliyatining aniq sohasi bo'yicha **tayyorlov yo'nalishlarining** nomi mehnat faoliyatining mazmuni va xususiyati orqali aniqlanadi.

**Kasb** - maxsus tayyorgarlik va ish tajribasi natijasida ma'lum bir sohada kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun nazariy bilimlar majmuasini, amaliy ko'nikma va malakalarni egallagan, unga jismoniy imkoniyat, aqliy qobiliyat va yuridik huquqlarni ta'minlovchi insoniy mehnat faoliyatining (mashg'ulotining) turidir.

**Ixtisoslik** — birorta kasb doirasida ma'lum bir faoliyat turi uchun maxsus tayyorgarlik va ish tajribalari bilan erishilgan zaruriy bilimlar, ko'nikma va malakalar majmuasi.

**O'MKHT tayyorlov yo'nalishlari kasblar va ixtisosliklar kodi** - kasbiy faoliyat sohalariga muvofiq kasblar va mutaxassisliklar bo'yicha tayyorlov yo'nalishlari ixtisoslashtirilgan ro'yxatining raqamli belgisidir.

Ma'lumki, insonning har bir xatti-harakati ongli ravishda amalga oshadi. Ana shu ongi xatti-harakat etuk psixolog olim P.YA. Galperin va uning maslakdoshlari fikricha, asosan, quyidagi uch bosqichda amalga oshadi:

I. Birinchi bochqich. Mo'ljalga olish bosqichi bo'lib, unda shaxs o'z oldiga qo'ygan aniq maqsadini mo'ljalga oladi, ya'ni rejalashtiradi, loyihalashtiradi. Maqsadga erishish yo'llarini modellashtiradi.

II. Ikkinchi bochqich. Asosiy amalga oshirish bosqichida o'z imkoniyati, shart-sharoit, mavjud bo'lgan ko'plab boshqa omillarni hisobga olgan holda amaliy xatti-harakatlar bajarilib, ma'lum natijaga erishiladi.

Uchinchi bosqich. Nazorat qilish va o'zlashtirishlar kiritish bosqichi hisoblanib, unda ko'zlangan maqsad bilan olingan natija qiyoslanadi va kerakli xulosaga kelinadi. Kerakli hollarda reja va amalga oshirish bosqichlarining mazmuni, tuzilmasi va shakliga o'zgartirishlar kiritilib, ish-harakat usullari takomillashtiriladi.

**Kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari tasniflagichi** o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi muassasalarida kichik mutaxassislar tayyorlash bo'yicha tayyorlov yo'nalishlari kasblarining iiva mutaxassisliklarining tizimlashtirilgan ro'yxatidir.

**Davlat ta'lim standartlari (DTS)**- umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim mazmuniga hamda sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilaydi. DTSlarini bajarish O'zbekiston Respublikasining barcha ta'lim muassasalari uchun majburiydir.

**Tasniflagichda sakkizta bilim sohasi nazarda tutilgan:**

17. Ta'lim;
18. Gumanitar fanlar va san'at;
19. Ijtimoiy fanlar, biznes va huquq;
20. Fan;
21. Muhandislik, ishlov berish va qurilish tarmoqlari;
22. Qishloq xo'jaligi;
23. Sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot;
24. Xizmatlar.

Tasniflagichda ta'lim bosqichlari, bilim va ta'lim sohalari, tayyorlov yo'nalishlari va ixtisosliklar ettita raqamli kod bilan belgilanadi. Ta'limning xalqaro klassifikatsiyasiga binoan ta'lim bosqichi - o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi 3-raqami bilan belgilangan. Masalan: 3144610, 3210210, 3380110 va boshqalar.

**O'rta maxsus, kasb — hunar ta'limi kodlarida:**

**Birinchi raqam** - ta'lim dasturi bosqichi kodi;

**Ikkinchi raqam** - bilim sohasi kodi;

**Uchinchi raqam** - ta'lim sohasi kodi;

**To'rtinchi va beshinchi raqamlar** - tayyorlov yo'nalishi kodi;

**Oltinchi va ettinchi raqamlar** - ixtisosliklar kodi.

Uzluksiz ta'lim tizimidagi o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi va oliy ta'lim (bakalavriat) da uzviylikni ta'minlash maqsadida O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limidagi tayyorlov yo'nalishlari, kodlari oliy ta'limning bakalavriat ta'lim yo'nalishlari kodlariga moslashtirilgan.

## **9-MAVZU: KASBIY TA'LIM TIZIMLARINING QIYOSIY TAHLILI (CHET EL TAJRIBASI).**

1. Kasbiy ta'limga tegishli ilg'or chet el tajribasini o'rganish bo'yicha qiyosiy izlanishlar olib borishning maqsadi va mazmuni.
2. GFR, Buyuk Britaniya, Frantsiya, AQSh, Italiya va YAponiya mamlakatlarida kasbiy ta'lim. Hamdo'stlik mamlakatlarida kasbiy ta'lim.
3. Qiyosiy tahlil natijalari haqida bizning respublikamizda kasbiy ta'limning rivojlanish omillarini, o'ziga hosligini hisobga olingan hulosalari.

### **1. Kasbiy ta'limga tegishli ilg'or chet el tajribasini o'rganish bo'yicha qiyosiy izlanishlar olib borishning maqsadi va mazmuni.**

Vatanimiz ta'limi keng qamrovli islohotlarni hamda qayta qurish ishlarini amalga oshirishdek murakkab jarayonni boshidan kechirmoqda. Ulardan ko'zda tutilgan maqsad- maktab faoliyatini demokratlashtirish, uning insonparvarlik tamoyillarini rivojlantirish, shu asosda o'quv-tarbiya ishlari mazmunini, uning shakl va uslubini kompleks yangilash va yanada takomillashtirishdan iboratdir. Bu vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilishning muhim shartlaridan biri chet el maktabi va pedagogikasi tajribalariga munosabatni tubdan o'zgartirishdan iborat ekanligini hayotning o'zi ko'rsatmoqda.

Rivojlangan xorijiy davlatlarda ta'limniig, mamlakat ichki siyosatiga faol ta'sir etadigan ijtimoiy jarayon ekanligi, e'tirof qilingan haqiqatdir. Shu tufayli ham chet mamlakatlarda maktab ehtiyojini iqtisodiy ta'minlashga ajratilayotgan mablag' miqdori yildan-yilga oshib bormokda.

YAponlarda, masalan, «maktab muvaffaqiyat va farovonlik timsoli»gina bo'lib qolmay, «u insonlarni yaxshilaydi», degan fikr ishonch va e'tiqodga aylangan.

Ta'lim to'g'risidagi g'amxurlik taniqli siyosatchilarning ham hamisha diqqat-e'tiborida bo'lgan. Shuning uchun ham AQShning sobiq Prezidenti R. Reyganni, Buyuk Britaniya Bosh vaziri M. Techcherni, Frantsiya Prezidenti F. Mitteranlarni maktab islohotining tashabbuskorlari deb, bejiz aytishmaydi. F. Mitteran maktabni «Jamiyatni hapakatlantiruvchi kuch» deb hisoblagan.

Rivojlangan mamlakatlarda pedagogik tadqiqotlarni amalga oshiradigan ko'p sonli ilmiy muassasalar ishlab turibdi. Germaniyada ularning soni 2 mingdan ortiq. Frantsiya, AQSh, YAponiyada ta'lim-tarbiya nazariyasi muammolari bilan yuzlab davlat va xususiy tashkilotlar, universitetlar, pedagogik tadqiqot markazlari shug'ullanmoqdalar. Ular faoliyatini esa halqaro ta'lim markazlari, masalan,

AQShda halqaro ta'lim instituti muvofiqlashtirib bormoqda Ko'pchiligining faoliyati o'quv dasturini takomillashtirish va qayta ko'rishga qaratilgan.

Maktab dasturlarini o'zgartirish ikki asosiy yo'nalishda: ekstensiv va intensiv yo'l bilan amalga oshiriladi. Birinchi holatda o'quv muddati uzaytiriladi, o'quv materiallari hajmi ko'paytiriladi; ikkinchi holda esa mutlaqo yangi dastur yaratiladi. Bu o'rinda ikkinchi yo'l, ko'pchilik mutaxassislarning e'tiroficha, maqbul hisoblanadi.

1961 yilda «Bosh yangi bazis» tamoyillari asosida AQSh o'rta maktablarini isloh qilish boshlangan edi. Buning mohiyati shundaki, ingliz tili va adabiyoti (to'rt yil), matematika (to'rt yil), tabiiy bilimlar (uch yil), ijtimoiy fanlar (uch yil), kompyuter texnikasi (yarim yil) kabilardan iborat besh yo'nalishdagi majburiy ta'lim joriy qilindi.

80-yillarda majburiy ta'lim hajmini qisqartirish jarayoni yanada chuqurlashtirildi. Hatto ayrim kollejlarda bu sohada uch yangi: ingliz tili va adabiyoti, matematika, ijtimoiy bilimlar bazislari asosida ish olib borilmoqda. Ta'limning boshqa turlari esa ixtisoslashtirish davrigacha amalga oshiriladigan bo'ldi.

Amerikadagi ko'zga ko'ringan «Found Karnegi» pedagogik markazi bu dasturni XXI asr dasturi deb baholamoqda. O'quv dasturlarini qayta qurish jarayoni G'arbiy Evropa davlatlarida ham amalga oshirilmoqda. Masalan, Buyuk Britaniyada ta'lim vazirligining tavsiyalariga muvofiq o'quv rejasi va dasturini ta'lim muassasalarining o'zlari belgilaydilar.

Mazkur tavsiyalarga muvofiq 50 foiz o'quv soatlari o'qitilishi shart bo'lgan «yadro» predmetlar: ingliz tili va adabiyoti, matematika, din darsi, jismoniy tarbiyaga ajratiladi. O'quv soatlarining boshqa qismi esa o'qitilishi shart hisoblanib, tanlab olingan predmetlarga (gumanitar, tabiiy, matematik mazmundagi) ajratiladi.

«YAngi dunyo» ning pedagogik g'oyalari Frantsiya va Germaniya ta'limiga ham sezilarli ta'sir etayotir.

Germaniya to'liqsiz o'rta maktablarida asosiy predmetlar bilan bir qatorda tanlab olinadigan ximiya, fizika, chet tillari kiritilgan o'quv dasturlari ham amalga oshirilayotir. Bu o'quv dasturi tobora to'liqsiz o'rta maktab doirasidan chiqib, o'rta maktablar va gimnaziyalarni ham qamrab olmoqda.

Frantsiya boshlang'ich maktablarida ta'lim mazmuni ona tili va adabiyoti hamda matematikadan iborat asosiy, tarix, geografiya, aholishunoslik, tabiiy fanlar, mehnat ta'limi, jismoniy va estetik tarbiya kabi yordamchi predmetlarga bo'linadi.

YAponiya maktablari ikkinchi jahon urushidan keyinoq Amerika ta'limi yo'lidan bordi. Lekin shunga qaramay, bu ikki mamlakat o'quv dasturida bir qator farqlar ko'zga tashlanadi. YAponiyada o'quv dasturlari jiddiy murakkablashtirilgan, asosiy fanlar majmui ancha keng, bir qator yangi maxsus va fakultativ kurslar kiritilgan. Masalan, umumiy ta'lim maktablarining yangi musiqa ta'limi o'quv dasturiga milliy va jahon mumtoz musiqasini o'rganish ham kiritilgan.

YApon xalqida «Hamma narsa unitilganda ham ta'lim esda qoladi» degan hikmatli gap bor. Aftidan, rivojlangan davlatlarda o'quv dasturining rivojlanishi mana shu yo'nalish asosida qurilmoqda.

Asosiy o'quv dasturlariga ma'lum cheklanishlarni kiritish, alohida predmetlarni o'rganishni kuchaytirib, ularni chuqur o'zlashtiradi va o'quvchilarni ortiqcha «yukdan xalos qiladi. Bu masalani ijobiy hal etishda o'quv kurslari integratsiyasini amalga oshirish yordam beradi.

Hozirgi paytlarda rivojlangan mamlakatlar o'quv dasturiga integratsiyalashtirilgan kurslarni kiritish to'la amalga oshirildi. Frantsiya maktablarida ularga 6-10 foiz, Buyuk Britaniya maktablarida 15 foiz o'quv soatlari ajratildi.

Integratsiyalashtirilgan o'quv dasturlarining mualliflari barcha yondosh o'quv kurslarini o'zak predmet va g'oya, atrofiga jipslashtirishga harakat qilishadi, bu o'quvchilarga ijodiy tafakkur yurgizishga yordam beradi. Lekin, shunisi borki, bunday uslub hamma vaqt ham ko'zlangan, natijani bermaydi. Chunki, integratsiyalashtirilgan o'quv kurslari mutloq ko'pchilik o'quvchilarga mo'ljallangan bo'ladi. Kimgadir u zarur, kimgadir keraksiz.

Het el tajribalari shuni ko'rsatadiki, ta'lim mazmunini qayta qurish ishida shoshma-shosharlikka yo'l qo'yib bo'lmaydi. Fikrimizcha, bu sohada samaraliroq yo'l integratsiya va ixtisoslashtirishga asoslangan o'quv dasturlarini yaratishdir.

Iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarda mehnat ta'limi hamda kasbga yo'naltirish borasida amalga oshirilayotgan ishlarning eng e'tiborga loyiqlari, shu ta'lim bo'yicha o'quv dasturlarini kengaytirish, professionalizmga yuz tutish, kuchli moddiy bazani barpo etish yo'lidir. Har holda 1977 yilda AQShda qabul qilingan «Mehnat faoliyatiga tayyorlash akti»ning asosiy g'oyasi ham shunga qaratilgan. Umuman AQShda bu masalaga munosabat jiddiy. Kollejlarda kotedjlar qurish, avtomobillarni ta'mirlash, kompyuterlarni terish kabi amaliy faoliyat, mavjudki, ular o'quv muassasalariga ma'lum miqdorda daromad ham keltirmoqda.

G'arpiy Evropada ham bu sohada o'ziga xos yangi yo'nalishlar paydo bo'ldi. Masalan, Frantsiyada mehnat ta'limiga ajratilgan o'quv soatlari 1,5 barobar oshirildi. Buyuk Britaniyada «Mehnat ta'limi va kasbga tayyorlash» aktiga (1973 yil) muvofiq maktablar bir qancha sohalar bo'yicha majburiy kasb-kor dasturini o'zlashtirmoqdalar.

Mehnat ta'limida stajirovka asosiy o'rinda turadi. Stajirovka dasturi va uni amalga oshiriladigan korxonani tanlashda ota-onalar bilan kelishib olinadi. Stajirovkalarni tashkil qilish va amalga oshirishga ketadigan sarf-harajatlarning katta qismini sanoatchilar va finansistlar to'laydilar. Masalan, Germaniyada mehnat ta'limi stajirovkasini amalga oshirishga 450 ming kompaniya va korxonalar yordam beradilar. Ular ichida kichik ustaxonalardan tortib «Mercedes Bents» kabi ulkan korxonalar ham bor.

Mehnat ta'limi bilan bir qatorda kasbga yo'naltirish ishlari ham zamon talablariga hamohang takomillashmoqda.

Kasbga yo'naltirish darslari barcha rivojlangan davlatlarda mavjud. Bunday darslarda mehnat olamidagi o'zgarishlar va tendentsiyalar, kasb-kor soxibi bo'lish imkoniyatlari ham o'rgatiladi. Bunday darslarni fan o'qituvchilari hamda maxsus

kasbga yo'naltirish ishlari bo'yicha maslaxatchilar olib boradilar. Bulardan tashqari kasbga yo'naltirish konsultatsiya punktlari ham mavjud bo'lib, ular yuqori sinf o'quvchilari va ota-onalarga shu soxa bo'yicha konsultatsiyalar tashkil etadilar. Bunday konsultatsiya punktlari maktablar tarkibiga kirmaydi. Ular xususiy, yoki mehnat birjalari tasarrufida bo'ladi.

Kasbga yo'naltirish ishlarini tashkil etishda korxonalar amalga oshirayotgan ishlar ham e'tiborga molikdir.

Ularning shtatli konsultantlari maktablarda kasbga yo'naltirish bo'yicha keng qamrovli tushuntirish ishlarini olib boradilar.

Maktablarda amalga oshirilayotgan islohotlar ta'lim ishini tabaqalashtirish muammolarini keltirib chiqardi.

Lekin bu masala atrofida xali qarama qarshi fikrlar ko'p. Evropa Iqtisodiy Hamjamiyatining 1983 yilda e'tirof etishicha, ta'limda ijtimoiy tengsizlik kayfiyati hukm surmoqda. Bunga pul to'lab o'qish, sinfda yoki kursda o'quv kursini o'zlashtira olmay ikkinchi yilga qolib ketish, imtihonlarni o'ta talabchanlik asosida o'tkazish sabab bo'lmoqda.

Imtihonlardan yiqilish o'quvchilarning asab va ruhiy xolatiga qattiq ta'sir o'tkazadigan vaziyatlar, xatto fojiali voqealar ro'y berish hollari uchraydi. Bunday vaziyat shubxasiz, faqat ota-onalar ichidagina emas, o'qituvchilar orasida ham keskin noroziliklarga sabab bo'lmoqda.

Bunday sharoitda ta'limni tabaqalashtirish eng dolzarb masalaga aylangan.

Ularning «ta'limni tabaqalashtirish — kelajak strategiyasidir» shiori biz uchun ham maqbul degan fikrdamiz.

Odatda o'quvchilarni tabaqalashtirish chet davlatlar amaliyotida boshlang'ich ta'lim kursidan keyin amalga oshiriladi.

Frantsuz pedagoglari esa sinf o'quvchilarini uch tabaqaga ajratadilar:

1. Gomogenlar — matematika va gumanitar yo'nalishda ish olib borsalar bo'ladigan o'quvchilar;

2. YArim gomogen — tabiiy tsikldagi fanlarni o'zlashtira olishga moyil o'quvchilar;

3. Gegeron — barcha predmetlardan har xil saviyada o'zlashtiriladigan o'quvchilar va hokazo.

Tabaqalashtirish jarayonining yangi muhim yo'nalishi to'ldiruvchi ta'limni rivojlantirish bo'lib qolmoqda.

Ta'limda ro'y berayotgan bu salbiy holatni bartaraf etish to'ldiruvchi ta'lim zimmasiga tushadi.

To'ldiruvchi ta'lim maktabgacha tarbiya muassasalarida, maktab va litseylarda amalga oshirilmoqda. AQShda bu xizmatga ommaviy axborot vositalarining imkoniyatlari ham safarbar etilgan, milliy telekompaniya maxsus o'quv kanali orqali 130 soatlik o'quv ko'rsatuvlari tashkil etdi.

O'quv jarayonlarini tabaqalashtirib olib borish bo'yicha chet mamlakatlarning ko'pchiligida tadqiqotlar davom ettirilmoqda.

Rivojlangan davlatlarda iqtidorli bolalarga e'tibor tobora ortib bormoqda

CHet el ta'limidagi bunday ibratli jihatlarni Vatanimiz ta'lim tizimlarida qo'llash yosh, mustaqil Respublikamizda o'quv-tarbiya ishlarini isloh qilish jarayonini tezlashtiradi.

## **2. GFR, Buyuk Britaniya, Frantsiya, AQSh, Italiya va YAponiya mamlakatlarida kasbiy ta'lim. Hamdo'stlik mamlakatlarida kasbiy ta'lim.**

Iqtisodiy qudrati jihatidan YAponiya jahonda Amerika Qo'shma Shtatlaridan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Jahonning ko'zga ko'ringan ruxshunoslari va iqtisodchilari YAponiya rivojlanishidagi bu ulkan parvozni mamlakatda ta'lim tizimlari taraqqiyotiga berilgan yuqori darajadagi e'tibor samarasi, deya qayd etadilar. Bu bejiz emas. Kun chiqish mamlakati deb yuritiladigan bu o'lkada ta'lim tizimlarini bosqichma-bosqich takomillashtirib borilishiga hukumat, xususiy kompaniyalar, jamoat tashkilotlari, ota-onalar qanchalik omilkorlik bilan yondashayotganliklarini hisobga olsak, jahon ilmiy tadqiqotchilarining yuqoridagi xulosalari asosli ekanligining guvohi bo'lamiz.

YApon ta'limining mumtoz shakllanishi 1867 — 1868 yillardagi mamlakat hukmdori Meydzi tomonidan amalga oshirilgan islohotlarga borib taqaladi. Bu hukmdorning o'z oldiga qo'ygan ikki qat'iy shiori bo'lib, biri «Fukoku- kioxsi» — boyish, mamlakatni mustahkamlash va harbiylashtirish, ikkinchisi esa «Siokusan kogio» — ilg'or G'arb ishlab chiqarish texnologiyasi asosida mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish edi. Meydzi bu ikki maqsadni amalga oshirishning bosh omili ta'lim tizimlarini tubdan o'zgartirish va yangilashda deb hisoblardi.

Davlat boshlig'ining bu xulosalari YAponiyada 1872 yilda «Ta'lim haqida Qonun» qabul qilinishiga olib keldi. Qonunga muvofiq tez orada eski uslubdagi ta'lim tizimi o'rnida mamlakat rivojlanishini ta'minlashga samarali xizmat qiluvchi yangi yo'nalishdagi 53750 ta boshlang'ich 256 ta o'rta maktab, 8 ta dorilfunun tashkil etildi. Bu o'quv yurtlaridagi ta'lim shakllari ma'rifatli G'arb ta'lim uslublari bilan uyg'unlashtirildi, 1890 yilga kelib ilgarigi 3.4 yillik boshlang'ich maktablar muntazam 4 yillikka aylantirildi va u bepul amalga oshirila boshlandi.

1908 yildan boshlab YAponiyada boshlang'ich ta'lim majburiy 6 yillikka aylantirildi. O'quv-tarbiya ishlari bepul amalga oshiriladigan bo'ldi. 1893 yildan e'tiboran YAponiyada kasb yo'nalishidagi dastlabki kollejlarda paydo bo'la boshladi.

Birinchi dorilfunun 1886 yilda Tokioda tashkil etildi. Lekin bu dorilfununga oliy tabaqali aslzodalarning bolalari qabul qilinardi. Asr boshida mamlakatda ayollar uchun ham dorilfununlar tashkil etildi. Lekin bu bilim maskanlarida xotin-kizlar uchun faqat xo'jalik yuritish, oila iqtisodiyotidagina ta'lim berilardi.

Boshqa joylardagidan farqli o'laroq, YAponiya maktablarida o'qish 1-apreldan boshlanib, kelasi yilning 31 martida nihoyasiga etadi.

Boshlang'ich va kichik o'rta maktablarda o'quv yili uch semestrda bo'linadi: aprel-iyul, sentyabr dekabr, yanvar- mart. Katta o'rta maktablarda esa o'quv yili 2 yoki 3 semestrda bo'linadi.

Ta'tillar yozda, qishda (yangi yildan oldin va keyin) va bahorda bo'ladi. YOzgi ta'tillarning boshlanishi va tugashi munitsipalitetlardagi vaziyat, ya'ni yuzaga kelgan holatlarga va o'quv yurtlari xususiyatlariga qarab belgilanadi.

Ko'pchilik boshlang'ich va kichik o'rta maktablarda ta'tillar iyun oyi oxirida boshlanib, avgust oylarida tugaydi. Qishloqlarda esa qishloq xo'jalik ishlarini bajarishdagi dolzarb holatlardan kelib chiqib, bahor va kuzgi ta'tillar yozgi ta'tillar hisobidan uzaytiriladi.

O'quv yili YAponiyada 240 kun yoki Amerika Qo'shma Shtatlaridan 60 kun ko'pdir. Darslar 7 soat. Ko'pchilik maktablarda darslar ertalab soat sakkiz yarimda boshlanib, uchdan keyin tugaydi.

O'quvchilar haftasiga 2-3 soat sinfdan tashqari klub ishlarida, 7 soat ixtisos bo'yicha mashg'ulotlarda yoki repititorlar ixtiyorida bo'ladilar.

YApon maktablari elektron hisoblash mashinalari va boshqa o'quv texnika vositalari bilan to'la ta'minlanganligiga qaramay, mutaxassislarning fikricha, asosiy e'tibor o'qituvchi faoliyati va darslikka qaratilmog'i kerak. Ularning fikricha, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi jonli muloqot o'rnini har qancha, takomillashgan mashina ham bosa olmaydi.

YAponiyada o'qituvchi kadrlar tayyorlash sifatiga juda katta talablar qo'yiladi. Bu talablar shundayki, mazkur kasbga iqtidorsiz va yo'nalishi to'g'ri kelmaydigan tasodifiy kishilarning kirib qolishi amalda mumkin emas.

O'qituvchilar 4 yillik dorilfununlarda va 2 yillik kollejlarda tayyorlanadi. Bu o'quv yurtlarining bitiruvchilariga birinchi va ikkinchi darajali guvohnomalar beriladi.

Maktab direktori bo'lish uchun 1-darajali guvohnomaga ega bo'lish shart.

YApon o'qituvchilarining jamiyatda tutgan obro'-e'tibori katta. Binobarin, ularning maoshlari ham yuqori, 74 foiz o'qituvchi jamoa va kasaba assotsiatsiyasiga a'zo. Bu ularga ta'lim mazmunini va uslubini muhokama qila olish imkoniyatini beradi. O'qituvchilarning ilk maoshi dorilfununni tugallagan mutaxassislar maoshi bilan teng.

Ular o'z kasb mahoratlarini takomillashtirish ustida, tinimsiz izlanishlar olib boradilar, ishga tushishdan oldin 7-10 kun kunduzgi tayyorlov kurslaridan o'tadilar. YApon o'qituvchilari har 5 yilda malaka oshirish kurslarida o'qib qaytadilar. Malaka oshirish o'qituvchilarning o'zlari uchun katta ehtiyojdir. CHunki YAponiya maktablari dasturi 10 yilda davr taqozosiga ko'ra o'zgaradi. Dasturlardagi yillik o'zgarishlar esa anjumanlar o'tkazish yo'li bilan o'qituvchilarga etkazib boriladi.

O'qituvchilar o'zlariga ishonib topshirilgan 35-40 o'quvchining bilimi va tarbiyasi uchun javobgardirlar. Shu bois ular darsdan bo'sh vaqtlarini o'quvchilar, ularning ota-onalari bilan suhbatlarga, xonadonlarga tashrif ishlariga bag'ishlaydilar.

YAponiyada oilaviy byudjetning katta qismi bolalarning sara maktablarda puxta bilim olishlarini ta'minlashga, universitetlarga kirib bilim olishlariga sarflanadi. Oilada bola yaxshi bilim olishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratib beriladi. Imtihon paytlarida esa bolalar uy yumush- laridan ozod etiladilar.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar uchun ota-onalar oyiga o'rtacha 2-3 kitob sotib olishadi. Shu yoshdagi bolalar uchun oyiga 40 ta jurnal nashr etiladi, ota-onalarning mutloq ko'pchiligi bu jurnallariga obuna bo'lishadi. Bola maktabga borgunga qadar o'qishni, yozishni, oddiy hisoblash ko'nikmalarini egallashi zarur.

Frantsiyada ta'limning asosiy maqsadi shaxsni har tomonlama kamol topishini ta'minlash, uni mustaqil faoliyatga tayyorlash, bozor munosabatlari sharoitida o'quvchilarni tadbirkorlikka, ishbilarmonlik va omilkorlikka o'rgatish, shunga yarasha kasb-korga ega qilishdan iboratdir.

Frantsiya ta'lim tizimining dastlabka bosqichini maktabgacha tarbiya tashkil etadi. Bu bosqichni "Onalar maktabi" deb ham yuritiladi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad, bolalarning maktabdagi sharoitini uy sharoiti bilan yaqinlashtirish ularga oiladagidek iliq munosabatni shakllantirishdan iborat. Frantsiyada boshlang'ich ta'lim maktablariga 6 yoshdan 11 yoshgacha bo'lgan bolalar jalb qilinadilar. Boshlang'ich maktablar fuqarolarning qanday millatga, mamlakat fuqaroligiga mansub bo'lishidan qat'iy nazar, majburiy va bepuldir.

Boshlang'ich maktab bosqichiga qo'yilgan asosiy talab o'quvchilarga ifodali o'qish, yozish, hisoblash malakasini berishdan iboratdir.

— Navbatdagi bosqich — elementar kurs bo'lib, bu bosqich 2 yil davom etadi. Bunda o'quvchilarning tayyorlov tsiklida predmetlar bo'yicha olgan bilimlari yanada takomillashtiriladi. Tayyorlov bosqichida bir o'qituvchi ishlasa, elementar bosqichda ikki o'qituvchi (har biri 1 yildan) ishlaydi.

— Boshlang'ich maktabning 3 bosqichi — chuqurlashtirish bosqichidir. Bunda o'quvchilarning tayyorlov va elementar bosqichdagi bilimlari yanada chuqurlashtiriladi.

Dasturlarda o'quv predmetlarining barchasiga uch bosqich bo'yicha aniq, alohida-alohida talablar qo'yiladi.

Shunday qilib frantsuz maktablarining maktabgacha va boshlang'ich ta'lim bosqichida savodxonlikka, o'quvchining shaxs sifatida shakllanishiga mustahkam zamin yaratiladi, o'quvchining o'z kuchi, qobiliyati va imkoniyatiga ishonch tarbiyalanadi. Bu bosqich maktabda o'quvchining dastlabki bosqichda qanday holda qabul qilib olinishidan qat'iy nazar, uni maktab hayotida bosh rolni o'ynashga muvaffaq bo'lishidan iboratdir.

O'quvchilarni maktabning yuqori bosqichlariga puxta tayyorlab berishda boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mas'uliyati (javobgarligi ham deyish mumkin) nihoyatda yuqori. Bu mas'uliyatni "Ta'lim haqida" gi davlat Qonunida alohida ko'rsatib o'tilgan.

O'quvchilar bilan individual ishlash, ularni rag'batlantirish, shaxsiy qobiliyat va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, ta'limda uzluksizlik va vorislikni ta'minlab berish boshlang'ich sinf o'qituvchilariga qo'yilgan bosh talabdir.

O'quv dasturining mazmunini bevosita o'qituvchining o'zi belgilaydi. Bir so'z bilan aytganda, o'qituvchi bolalar bilimiga mas'ul ekan, uning uslub tanlashiga, mustaqil harakat qilishiga to'la erkinliklar ham beriladi.

O'quvchilar 11 yoshda boshlang'ich maktabni tugallab o'rta maktabga o'tadilar. O'rta ta'lim esa kollejlar va litseylarda amalga oshiriladi.

O'rta ta'lim ikki bosqichda beriladi. Birinchi bosqich (11 yoshdan 15 yoshgacha) 4 yil bo'lib, eng kichik sinf 6-sinf, 5, 4 o'rta, 3-sinf esa katta sinf hisoblanadi. Demak, sinflarni raqamlash yuqoridan pastga qarab amalga oshiriladi.

Birinchi bosqichda quyidagi predmetlar o'rgatidi frantsuz tili va adabiyoti, chet tili (ingliz, nemis, ispan, italyan tillari), tarix, frantsiya geografiyasi, matematika, tabiiy fanlar.

Shunday qilib 6 - 5 - sinflar umumiy o'rta ta'lim beradi: 4-3-sinflarda o'quvchilarga qobiliyati va moyilligiga qarab bilim beriladi.

Birinchi bosqich yakunlangach, o'quvchilar kasbiy yo'nalishlari bo'yicha guvohnoma oladilar.

Bundan keyin o'quvning ikkinchi bosqichi boshlanadi. Bu bosqichda o'quvchilar 15 yoshdan 18 yoshgacha ta'lim oladilar. O'qish 3 yil davom etib 2-sinf kichik, 1-sinf o'rta va yakunlovchi sinflarga bo'linadi.

O'quvchilar umumiy ta'lim va texnik litseylarni tugatganlaridan so'ng bakalavr unvoni va diplomi uchun imtixon topshiradilar. Ana shunday diplomga ega bo'lganlarga oliy o'quv yurtlariga kirish huquqini qo'lga kiritadilar.

Lekin hamma oliygohlarga ham imtihonsiz kirib bo'lmaydi. Talabalar oliy pedagogika instituti, politexnika instituti, oliy ma'muriy maktablarga kirish imtihonlari bilan qabul qilinadilar, ularning shu kasbga moyilligi ham alohida sinab ko'riladi.

**Angliyada** umumiy o'rta ta'lim barcha bolalar uchun 5 yoshdan 16 yoshgacha. O'quv yili esa sentyabrdan to iyulgacha davom etadi va 3 trimestrga bo'linadi:

Angliyada ikki tipdagi maktablar mavjud: davlat maktablari va xususiy maktablar. Davlat maktablari davlat tomonidan ta'minlanadi va mahalliy ta'lim muassasalari tomonidan boshqariladi. Ammo ko'pgina davlat maktablari shu bilan birga xususiy ta'minot manbalarini topishga harakat qilishadi. Bunday holatda ular dotatsiya maktablari deb ataladi. Davlat maktablarida ota-onalar o'qitish uchun hech narsa to'lashmaydi. Boshqacha aytanda, o'rta ta'lim (11 yoshdan) barcha uchun majburiy bo'lib, bu bolalarning bilim saviyasi va qobiliyatidan qat'i nazar, ularning qabul qilinishini bildiradi.

Milliy dastur davlat tomonidan ishlab chiqiladi va barcha maktablar uchun majburiydir. Ko'pchilik xususiy maktablar milliy ta'lim dasturiga amal qilishadi, lekin fanlarni o'qitishda o'zgartirish huquqiga ega. Milliy dasturga quyidagi fanlar kiradi:

ingliz tili, texnologiya va dizayn, geografiya, matematika, informatika, musiqa, tabiatshunoslik, chet tillari, san'at, jismoniy tayyorgarlik, tarix.

Milliy dastur 4 bosqichga bo'linadi va «Bosqichlar» deb ataladi, bu bolaning yoshiga bog'liq:

|                  |                |                                                      |
|------------------|----------------|------------------------------------------------------|
| <b>1-bosqich</b> | <b>5-7 ёш</b>  | <b>Миллий дастурдаги барча<br/>фанлар ўргатилади</b> |
| <b>2-bosqich</b> | <b>7-11 ёш</b> |                                                      |
|                  |                | <b>чет тиллардан ташқари</b>                         |

## 16 VA UNDAN KATTA YOSHDA TOPSHIRILADIGAN DAVLAT IMTIHONLARI

**GCSE - General Certificate of Secondary Education.** 10-o'quv yilini boshlovchilar va mayG'iyun imtihonlari bilan 11-o'quv yilini yakunlovchilar uchun 2 yillik kurs. Ballar tizimi: «A»dan «G» gacha («U» - o'tib bo'lmaydigan ball). Agar bola «A» level kursidan ko'proq fan o'rganishni istasa, u GCSE imtihonlarida shu fan bo'yicha «S»dan past ball olmasligi kerak.

«GCSE» imtihonlari uchun 10 tagacha fanlarni tanlash mumkin, lekin o'rtacha 6 ta fan topshiriladi.

**GCE «A» Level - General Certificate of Education Advanced Level.** Oliy o'quv yurtlariga kiruvchilar uchun, 12-o'quv yilini boshlovchilar va 13-o'quv yilini mayG'iyundagi imtihonlar bilan yakunlovchilar uchun 2 yillik kurs. Ballar tizimi: «A» dan «E» gacha, GCSE darajasida imtihon topshirishda «N» balli tenglashtiriladi. «U» - o'tib bo'lmaydigan ball.

### **KEYINGI TA'LIM**

Keyingi ta'lim (studentlarning) 16 va undan katta yoshdagi talabalarning oliy o'quv yurtlariga kirish uchun jadal tayyorlaydigan turli kurslarda o'qishlariga mo'ljallanadi. Bunday ta'lim turli fanlar bo'yicha tayyorlaydigan, texnika va tijorat fanlarining eng quyi darajadan boshlab, to yo'naltirilgan kurslargacha, biznes sohasida, ma'muriyatchilik va xo'jalikning nufuzli doiralarida yuqori malakali xodimlar tayyorlashga yo'naltiradigan «keyingi ta'lim» kollejlarda bo'lishi mumkin.

### **OLIY TA'LIM**

Oliy ta'lim «A» leveldan yuqori darajadagi ta'limning har qanday turini o'z ichiga oladi. Bunday ta'lim universitetning turli kurslarida, kollejlarda, oliy ta'lim institutlarida (shu jumladan pedagogika institutlari), shuningdek, keyingi ta'lim institutlarida ham bo'lishi mumkin. Hozirgi vaqtda Buyuk Britaniyada 89 ta universitet mavjud (shu jumladan oliy ta'limning 1992 yildagi Aktiga muvofiq tashkil etilgan 39 ta «yangi» universitetlar ham) bo'lib, ular sobiq politexniklarga o'z fanlari bo'yicha daraja berishga va universitet nomini olib yurishga yo'l beradi.

### **UNIVERSITETGA KIRISH**

Universitetlar va kollejlarga barcha rasmiy talablar UCAS (Universities and Colleges Admission Service) - oliy ta'limning Britaniya universitet va kollejlarga agentlik kabi harakatdagi markaziy organi orqali uzatiladi. UCAS savollarni sentyabrning boshlari va dekabrning o'rtalarida bo'lgan oraliqda, oliy o'quv muassasalarida o'qishga keyingi yilning oktyabridan qabul qiladi. Abiturient turli universitetlardan ko'pi bilan 6 kursni tanlaydi va ularni UCAS qayd qiladigan shaklda ko'rsatib beradi. Afzalliklar tartibi belgilanmaydi.

UCAS dagi har bir talab detallar qaydnomasi shaklida kompyuterga kirgiziladi va talablar nusxalari unda ko'rsatilgan universitetlarga jo'natiladi.

Hap qaysi universitet rasmiy talabni qarab chiqadi va abiturientni suhbatdan o'tishga chaqirishi mumkin, shundan keyin universiteta taklif etish haqida qaror qabul qiladi.

Odatda bunday taklif «shartli» bo'ladi va bu shartlar har yili avgustning uchinchi haftasida e'lon qilinadigan «A» level imtihonlarining natijalari hisoblanadi.

UCAS abituriyentlarga qaror va har bir tanlangan universitetning o'tish balini e'lon qiladi.

Qachonki tanlangan universitetlar o'zlarining qarorlarini e'lon qilsalar, abituriyent ko'pi bilan ikkita taklifni tanlashi mumkin. Takliflardan biri asosiy va ikkinchisi esa «har ehtimolga qarshi» bo'ladi.

«A» level imtihonlari bo'yicha kerakli ballarni to'plagan barcha abituriyentlar universitetga qabul qilinishlari shart.

«A» level imtihonlarida etarli ball yig'olmagan abituriyentlar universitet ixtiyori bilan unga qabul qilinishi mumkin.

### ***Italiyada ta'lim***

- Maktabgacha ta'lim (scuola maternal) 3-6
- -Boshlang'ich ta'lim ikki bosqichda amalga oshiriladi 1-scuola elementare №1 va 1-scuola elementare №2.
- -O'rta kichik maktab(scuola media) 11 -15 yosh;
- -O'rta katta maktab 15-19 yosh, ushbu sinfda oliy o'quv yurtiga kirish yoki kirmaslik masalasi hal qilinadi;
- -Oliy o'quv yurtlari 18-19 yoshdan;
- Bakalavriyat 3 yil;
- Bakalavriyat (medetsina, farmatsevtika 6 yil)
- Doktorantura (o'quv muddati belgilanmagan)

**AQSh ta'lim tizimi va uning tarkibi.** Mamlakat ta'lim tizimining tuzilishi quyidagicha:

— bolalar 3 yoshdan 5 yoshgacha tarbiyalanadigan maktabgacha tarbiya muassasalari;

— 1-8-sinflargacha bo'lgan boshlang'ich maktablar (bunday maktablarda bolalar 6 yoshdan 13 yoshgacha o'qiydilar);

— 9-12-sinflardan iborat o'rta maktablar (bu maktablarda 14-17 yoshgacha bo'lgan bolalar ta'lim oladilar). U quyi va yuqori bosqichdan iborat.

Amerika Qo'shma Shtatlarida navbatdagi ta'lim bosqichi oliy ta'lim bo'lib, u 2 yoki 4 yil o'qitiladigan kollejlarda hamda dorilfununlarda amalga oshiriladi.

So'nggi bosqich, dorilfununlar va boshqa oliy o'quv yurtlari tarkibida tashkil etilgan aspirantura yoki doktoranturalardir.

AQShda majburiy ta'lim 16 yoshgacha amal qiladi. Bu mamlakatdagi o'quv yurtlarida davlat jamoa, xususiy tasarruflarda va diniy muassasalar ixtiyorida bo'lishi mumkin.

Shunisi diqqatga sazovorki, AQSh maktablarining bitiruvchi sinf o'quvchilaridan tashqari barcha o'quvchilar ta'tillar paytida asosan ish bilan band bo'ladilar. AQSh maktablarida o'quv yili 180 kun. Bir soat dars 45-50 minut.

Ta'lim tizimlariga mablag' ajratish bo'yicha AQSh dunyo mamlakatlari o'rtasida etakchi o'rinlardan birini egallaydi. AQSh ta'lim tizimining rivojlanish sur'ati ancha yuqori bo'lib, uning boshlang'ich ta'lim bosqichida o'qishi lozim bo'lgan bolalarning 99,9 foizi o'rta bo'g'ini 94,5 foizi ta'lim oladi. O'quvchilar umumiy sonining 46 foizi o'rta maktabni tamomlagach, kollej va universitetlarga

kiradilar. Barcha toifadagi ta'lim maskanlarida 58 million yosh, shu jumladan, ta'limning oliy bosqichida 12 million yigit-qiz tahsil oladi. AQShda har 10 ming aholiga 307 talaba to'g'ri keladi. Bu jahonda yuksak ko'rsatkichlardan biridir.

Bulardan tashqari AQShda har yili 33 million kishi uzluksiz ta'lim va malaka oshirish tizimlarida bilim oladilar. Mamlakatda 3 million o'qituvchi mehnat qiladi. Hap yili o'rta maktabni 3 million o'quvchi, bakalavr darajasidagi oliy ta'lim bosqichini 932 ming kishi, magistr darajasida esa 300 ming kishi tugallaydi, yiliga 30 ming kishi doktorlik ilmiy darajasini oladi.

### **MAKTABGACHA TARBIYA**

Amerika boy mamlakat. Lekin bu mamlakatda bolalar uch yoshga to'lgunlaricha onalarga turli moddiy imtiyozlar berish ko'zda tutilmagan.

Farzandlarga qarab uyda o'tiradimi yoki enaga yollab ishga tushadilarmi, bu onalarning ishi. O'zbekistondagi kabi keng va shinam, ikki qavatli, o'ynaydigan, uxlaydigan, ovqatlanadigan alohida xonalari bo'lgan bog'cha va yaslilar Amerikada odob tusiga kirgan emas. Enaga yollash oila uchun haftasiga 200 dollardan kamga tushmaydi. Bu mamlakatda 30-40 bolaga mo'ljallangan xususiy va davlat tasarrufidagi bog'chalar mavjud. Ular enaga yollashdan bir oz arzonroqqa tushadi. Lekin har ikki holda ham, uydan olib borgan ovqatlarni edirishadi, krovatchalar, ko'rpa, to'shak, yostiqni ota-onalar olib borishadi. Amerikada bizdagidek taomnomalar, o'quv dasturlari yo'q. Bolalar yozda atrofdagi ko'kalamzorlarda o'ynab dam oladilar.

Lekin bolalar uchun haqiqiy ta'lim-tarbiya jarayoni ular 5 yoshga to'lganlaridan keyin boshlanadi. Ana shu yoshda ular «Kinder garden» deb ataluvchi tayyorlov bog'chalariga jalb etiladilar. Ular hukumat tasarrufida bo'lib, bog'chalar yoki maktablar tarkibida tashkil etiladi. Bolalarni maxsus «maktab avtobusida» uyga olib keladilar va maktabga olib boradilar. Ko'chalarda, maktabga ketayotganda yoki qaytayotganda alangla6 yurgan, o'ynab futbol tepib yurgan bekorchi bolani uchratish amrimahol

### **BOSHLANG'ICH MAKTAB**

Boshlang'ich maktablarning asosiy vazifasi 6 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan bolalarga to'laqonli bilim, ta'lim berish, ularning umuminsoniy, ahloqiy xislatlariga ega bo'lib shakllanishini ta'minlashdan iboratdir.

Boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan o'quv predmetlari va dasturlari bolalarning yoshi, muhitiga moslashgan bo'lib, ular o'quvchilarning umumiy savodxonligini ta'minlab berishdan tashqari ma'lum darajada kasb yo'nalishiga ham ega qiladi.

Sinfdan-sinfga ko'chirish o'quvchining o'qish tezligi, yozuvi, husnixati, arifmetika, tarix, geografiya, musiqa va san'at kabi predmetlarni boshlang'ich sinf dasturi hamda darsliklari doirasida qanday o'zlashtirib olganligiga qarab belgilanadi.

Amerika maktablarida o'quv-tarbiya ishlari bilan bog'lik masalalarni to'raligicha har bir shtat o'ziga mustaqil belgilab olish huquqiga ega. Shu boisdan boshlang'ich maktablarda o'quv davomiyligi turli shtatlarda turlicha belgilangan. YA'ni boshlang'ich ta'lim 4, 5, 6, 8 yillik bo'lishi mumkin.

### **O'RTA MAKTAB**

Amerika Qo'shma Shtatlarida to'laqonli o'rta maktab sirasiga 10, 11, 12-sinflar kiradi. 7, 8, 9-sinflarni aksariyat holda quyi o'rta maktab deb ham yuritiladi. Binobarin, quyi o'rta maktab kursini muvaffaqiyatli o'taganlar yuqori bosqichga — to'laqonli o'rta maktabga qabul qilinadilar.

Ma'lum darajada 9-sinfni bitirganlar yuqori o'rta maktablarga tanlov yo'li bilan qabul qilinadilar. Lekin yuqori o'rta maktablar o'quvchilarning bilimiga qarab tabaqalashtirilganligi tufayli 86,4 foiz o'quvchi ularga qabul qilinadi.

AQShda har bir o'quvchining fanlar bo'yicha olgan bilimlarini jamlovchi attestatlar mavjud. U o'quvchilarning oliy o'quv yurtlariga kirishlarida ana shu attestat nusxalari topshiriladi. Kollejlarda o'qish istagida hujjat topshirgan o'quvchilar yuqori o'rta maktabning so'nggi ikki yili bilimlari hajmida kirish test sinovlaridan o'tkaziladilar.

## **NIDERLANDIYA TA'LIMI**

Bizdagi ta'lim tizimining qo'yilishi buyicha AQSh, Frantsiya, Buyuk Britaniya mutaxassislarining fikri muallif diqqat e'tiborini o'ziga jalb etdi. Ular bir ovozdan sobiq SSSRning barcha hududlarida ta'limning amalga oshirilishi bo'yicha jahonning istagan mamlakati bilan raqobatlasha olishi, uni saqlash va takomillashtirish zarurligini, sobiq SSSR ta'lim tizimlarida ibratli jihatlar ko'pligini ta'kidladilar. Ayniqsa mustaqillikka erishgan har bir davlat o'z hududiy, mahalliy etnopedagogik xususiyatidan kelib chiqib, ta'limni isloh etishi zarurligini qayd etdilar.

Niderlandiya ta'lim tizimlarining shakllanish davri 1789 yilda frantsuz revolyutsiyasi natijasida paydo bo'lgan Bativ Respublikasi davriga to'g'ri keladi.

Hozirgi paytda mamlakatning 75 foiz maktablari xususiy shaxslar, tashkilotlar va jamiyatlar tomonidan, shu jumladan xrestian yoki katolik cherkovlari tomonidan tashkil etilgan.

Bu mamlakatda ta'lim tizimi 7-3-2 shakldadir. Boshlang'ich ta'lim maktabgacha tarbiya bilan qo'shilgan.

Uning shakli quyidagi bosqichdadir:

- boshlang'ich ta'lim;
- o'rta ta'lim;
- maxsus ta'lim;
- oliy ta'lim;
- chet elliklar uchun ta'lim.

### **BOSHLANG'ICH TA'LIM**

Boshlang'ich maktab 4-12 yoshli bolalarga mo'ljallangan. Bolalar 4-5 yoshlarida maktabga keladilar. Boshlang'ich sinflarda o'qish haftasiga 5 kun. Bu mamlakatda 4 yoshdan kichik bolalar uchun o'quv-tarbiya muassasalari yo'q. Bolalar yasli-lari ham bor, lekin ular ta'lim vazirligi tasarrufida emas.

Bolaning boshlang'ich maktabdagi bilimi, aqliy va jismoniy rivojlanishiga qarab ota-onalar o'rta maktab tanlaydilar.

## **O'RTA TA'LIM**

Niderlandiya maktablarida o'rta ta'lim:

- umumiy o'rta ta'lim;

- umumiy ilmiy o'rta ta'lim;
- hunar-texnika ta'limi va hokazolardan tashkil tongan.

O'z navbatida umumiy o'rta ta'lim o'qish muddati 4 yil bo'lgan o'rta va o'quv muddati 5 yil hisoblangan oliy bosqichga bo'linadi.

Germaniyada mavjud bo'lgan asosiy qonun har bir fuqaroga o'z shaxsini erkin kamol toptirish, qobiliyatlari va qiziqishiga qarab maktab, o'quv yurti va kasb tanlash xuquqini beradi. Ta'lim sohasidagi siyosatning maqsadi shundan iboratki, u har bir insonni optimal darajada qo'llab-quvvatlash, uning manfaatlariga javob beradigan malakaviy tayyorgarlikdan o'tish imkoniyatini yaratadi. Har bir fuqaro hayoti davomida umumiy, kasbiy va siyosiy ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim. Ta'lim sohasidagi siyosatning asosiy yo'nalishlaridan biri yosh avlodni demokratik mamlakatda mas'uliyat hissiga ega mustaqil fuqarolar etib tarbiyalashdir.

Germaniyada Majburiy maktab ta'limi 6 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan bolalarga yo'naltirilgan bo'lib, u 12 yilga mo'ljallangan.

O'quv qo'llanmalar ham, asosan darsliklar, qisman bepul beriladi.

Diniy ta'lim asosiy qonunga muvofiq — oddiy fan sifatida o'qitiladi, lekin nokonfessional maktablar bundan mustasnodir

Bolalar bog'chasi. Bolalar bog'chasi — olmonlar boshlab bergan va ko'pgina xorijiy mamlakatlar tomonidan o'rganib, qabul qilingan muassasadir.

Maktab ta'limi tizimi. Boshlang'ich maktabga bolalar 6 yoshdan keladilar. Odatda ular boshlang'ich maktabda 4 yil (Berlin va Branderburgda — 6 yil) ta'lim oladilar.

Real maktab asosiy maktab bilan gimnaziya orasidagi oraliqda joylashgan bo'lib, u o'quvchilarga kengaytirilgan umumiy ta'lim beradi. Odatda, bu erda o'qish 6 yil davom etadi — 5-sinfdan 10-sinfgacha — va boshqa o'quv yurtlarida va texnikumlarda o'qishni davom ettirishga huquq beradigan o'rta ma'lumot haqida guvohnoma beradi.

Gimnaziyada o'qish, odatda, taxminan 9 yilga mo'ljallangan bo'lib, o'quvchilarga chuqurlashtirilgan umumiy ma'lumot beradi. Hozirda gimnaziyalarning ilgari mavjud bo'lgan qadimgi tillar, yangi tillar, matematika va tabiiy fanlar ixtisosliklari bo'yicha bo'linishi deyarli saqlanmagan. Gimnaziyaning yuqori sinflarida (11-dan 12-gacha, erlarning to'rttasida 10-dan 12-gacha va shunga muvofiq 11-dan 12-gacha) kurs bo'yicha o'qish shakli odatdagi sinflarga bo'lib o'qitish o'rniga joriy etilgan.

Gimnaziyaning yuqori sinflarida ta'lim olish, shahodatnoma olish uchun 4ta fandan imtihon topshirish bilan yakunlanadi. 13 yillik o'qishdan (erlarning to'rttasida hozirda 12 yillik o'qishdan so'ng) va etuklik shahodatnomasini olish uchun imtihonlarni muvaffaqiyatli topshirilganidan so'ng uchinchi darajali o'rta ma'lumot haqida guvohnoma beriladi. Bu guvoh-noma istagan ixtisoslik bo'yicha oliy o'quv yurtida o'qish huquqini beradi.

Oliy o'quv yurtiga kirish uchun, uchinchi darajali o'rta ma'lumot haqidagi guvohnomani taqdim etish zarur. Abiturientlar sonining ko'pligi va oliy o'quv yurtlarida joylarning etishmasligi tufayli ba'zi fakultetlarda federal yoki mahalliy miqyosda joriy etiladigan qabul qilishning belgilangan cheklovlari mavjud.

Kasb-hunar maktabi. Korxonada tayyorgarlik ko'rish bilan parallel ravishda yoshlar 3 yil davomida kasb-hunar maktablarida, u erga haftada 2-3 marta qatnab ta'lim olishlari mumkin. Umumiy ta'lim bilan bir qatorda bu maktab, asosan, o'quvchiga korxonadan ko'ra kengroq ko'lamda egallashi mumkin bo'lgan maxsus nazariy bilimlar ham beradi.

Korxonada ta'lim olish. Korxonada amaliy ta'lim olish, "shogirdlik", mutaxassislikka qarab 2 yildan 3,5 yilgacha, o'rtacha 3 yil davom etadi. Davlat tomonidan e'tirof etilgan mutaxassisliklar bo'yicha tayyorgarlik ruxsat etilgan xolos. Etuklik shahodatnomasiga ega bo'lgan fuqaroning o'qish muddati yarim yilga qisqartirilishi mumkin. O'zlashtirish yuqori darajada bo'lsa, o'qish muddatini yana yarim yilga qisqartirish mumkin.

Barcha uchun ta'lim. Mamlakatda hech bir kishi mutaxassislikka ega bo'lmay turib mehnat faoliyatini boshlashi mumkin emas. Kasbiy ta'limning dual tizimi o'zini yaxshi tomondan ko'rsatib, doimo mukammallashib bormoqda. Shuning uchun bo'lsa kerak qator mamlakatlarning bu tizimga qiziqishlari ortmoqda.

Oliy o'quv yurtlari. Germaniyaning eng qadimgi oliy o'quv yurti — Geydelbergdagi universitet 1386 yilda tashkil etilgan. Boshqa ko'pgina universitetlar 500 yillik yubileylarini nishonladilar, bular jumladan, urf-odatlariga boy Leyptsigdagi (1409 yilda tashkil etilgan) va Rostokdagi (1419 yilda tashkil etilgan) universitetlardir. Ular bilan bir qatorda juda yosh universitetlar ham mavjud, ularning 20dan ortig'i 1960 yildan so'ng tashkil etilgan.

Oliy maktabning tashkiliy tuzilmasi. Oliy o'quv yurtlari (ba'zi bir xususiy, ayniqsa, diniy oliy o'quv yurtlari, bundesver universitetlari, Ixtisoslashtirilgan boshqaruvning oliy federal maktabidan tashqari) erlar vakolatiga kiradi. Federatsiya va erlar mavjud o'quv yurtlarini kengaytirish va yangilarini tashkil etish tadbirlarini rejalashtirish bo'yicha hamkorlik olib boradilar. Kelajakdagi vazifalarni hal etish maqsadida maxsus federatsiya va erlarning ta'lim sohasini rejalashtirish masalalari bilan shug'ullanadigan va ilmiy tadqiqotlar olib borishga ko'maklashadigan birlashgan komissiyasi tashkil etilgan. Bu doirada federatsiya va erlar hamkorlikda ta'limning barcha sohasida model loyihalarga moddiy yordam ko'rsatadi. Oliy maktab o'z-o'zini boshqarish huquqiga ega. Qonunlar doirasida u o'zining Nizomiga asosan ish olib boradi. Oliy o'quv yurtini bir necha yilga saylanadigan shtatdagi rektor yoki prezident boshqaradi. Federal erlarning ko'pchiligida, oliy o'quv yurtlarida talabalarning o'z-o'zini boshqarish tizimi mavjud.

Germaniyada ta'lim tizimi har bir federal er tasarruvidadir. Lekin, federal erlar o'rtasida ta'limning turlarini uyg'unlashtirishni ta'minlash uchun federal organ — Er ta'lim va madaniyat vazirligi konferentsiyasi mavjud. U ta'lim siyosati bo'yicha kelishuv tavsiyalari ishlab chiqadi. Bu tavsiyalarga quyidagilar kiradi : *kasb ta'limi tizimidagi bir xil tartibga soluvchi qonunlar* (ta'lim muddati, o'qishga ruxsat berish, diplomlar); *ta'limdagi moddiy ta'minot*; *ilmiy tadqiqotlar va innovatsiya loyihalarini moliyalash*; *xalqaro hamkorlik*.

Germaniya OTMlari o'quv jarayonini tashkil etish va ta'minlash borasida keng imkoniyatga ega. Bir qolipdagi reja asosida , ya'ni fanlar ro'yxatini va ular

mehnat talabligini belgilovchi rejalar asosida professorlar o'quv mashg'ulotlari va fan mazmunining tuzilishini o'zlari belgilaydilar.

### **3.Qiyosiy tahlil natijalari haqida bizning respublikamizda kasbiy ta'limning rivojlanish omillarini, o'ziga hosligini hisobga olingan hulosalari.**

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" to'g'risidagi qonunlariga muvofiq O'zbekistonning ilmiy-texnikaviy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishini masalasini rivojlangan mamlakatlar darajasida hal etishga qodir, yuksak darajada ma'naviy, madaniy va axloqiy sifatlarga ega bo'lgan yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash **oliy ta'lim tizimining vazifasi** hisoblanadi.

Oliy ta'lim tizimining asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

- davlat ta'lim standartlariga muvofiq zamonaviy ta'lim-kasb dasturlari asosida sifatli o'qituvni ta'minlash va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash;
- yuqori malakali ilmiy-pedagog kadrlarni, jumladan xorijiy ilmiy markazlarda, tayyorlash;
- mamlakatni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish istiqboli, jamiyat ehtiyoji, fan, texnika, texnologiya, iqtisod va madaniyat zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqib kadrlar tayyorlashning tashkil etilishi va usulini muntazam takomillashtirish;
- ta'limni individuallashtirish, masofadan o'qitishning yangi pedagogik va informatsion texnologiyalari, vositalarini joriy etish;
- mustaqillik g'oyalariga sodiqlik, Vatanga, oilaga va atrof muhitga muhabbat ruhida, milliy uyg'onish mafkurasi hamda umuminsoniy qadriyatlarni chuqur his etish asosida oliy ta'limning gumanitar yo'nalishini, yoshlar tarbiyasini ta'minlash;
- ta'lim, fan va ishlab chiqarishning samarali uyg'unlanuvchi usullarini amaliyotga tatbiq etish;
- ta'lim xizmati ko'rsatish bozorida, raqobat muhitini yuzaga keltirish;
- oliy ta'lim muassasalari boshqaruvini takomillashtirish va mustaqilligini kengaytirish.

Oliy ta'lim tizimi quyidagilardan iborat:

- davlatga qarashli va davlatga aloqadorsiz oliy ta'lim muassasalari, bular davlat ta'lim standartlariga muvofiq ta'lim-kasb dasturini amalga oshiradi;
- ilmiy-pedagogik muassasalar, bular oliy ta'limni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan tadqiqot ishlarini olib boradi;
- ta'limni boshqaruvchi davlat idoralari, shuningdek, ular tasarrufidagi korxona, muassasa va tashkilotlar.

#### **Oliy ta'limni boshqarish tizimlari.**

Boshqarishning asosiy maqsadi oliy ta'lim muassasalarining tuzilmaviy vazifasi o'qitishning, oliy kadrlar tayyorlashning va ilmiy tadqiqotlar oliy darajasini mustahkamlash, shuningdek, jamiyatga xizmat qilishdan iborat bo'lishi kerak.

Jahonda ta'limni boshqarishning ikki tizimi shakllangan : markazlashgan va markazlashmagan.

**Boshqarishning markazlashgan tizimi** Frantsiya va sobiq ittifoqda yaqqol namoyon bo'lgan. Mazkur tizimga muvofiq ta'lim dasturlari va o'quv rejalari, pedagog kadrlarni tayinlash, ko'chirish vaishdan bo'shatish, ta'lim muassasasidagi tartib va boshqalar, Maorif vazirligining me'yoriy hujjatlar, qarorlar, buyrqlar, farmoyishlar va yo'riqnomalari bilan qat'iy chegaralangan.

Shunday markazlashgan boshqaruv muayyan vaqtgacha frantsuz ta'lim tizimining afzalligi bo'lib kelgan. Lekin, ta'lim muassasalarining miqdori oshishi bilan boshqaruv tizimi sezilarli darajada kengayadi va xodimlarining tashabbusini cheklab qo'yadi. Shuning uchun hozirgi paytda bu tizim ta'lim muassasalariga erkinlik berish, markazlashishdan chetlashish tomon qayta qurilmoqda.

Markazlashmagan boshqaruv tizimi, AQSh, Angliya, Germaniya va boshqa taraqqiy etgan mamlakatlarda barqaror shakllangan. Bu tizim ta'lim muassasalariga keng imkoniyat berishni ko'zda tutadi.

Germaniyada ta'lim tizimi har bir federal er tasarruvidadir. Lekin, federal erlar o'rtasida ta'limning turlarini uyg'unlashtirishni ta'minlash uchun federal organ – Er ta'lim va madaniyat vazirligi konferentsiyasi mavjud. U ta'lim siyosati bo'yicha kelishuv tavsiyalari ishlab chiqadi. Bu tavsiyalarga quyidagilar kiradi : *kasb ta'limi tizimidagi bir xil tartibga soluvchi qonunlar* (ta'lim muddati, o'qishga ruxsat berish, diplomlar); *ta'limdagi moddiy ta'minot*; *ilmiy tadqiqotlar va innovatsiya loyihalarini moliyalash*; *xalqaro hamkorlik*.

Germaniya OTMlari o'quv jarayonini tashkil etish va ta'minlash borasida keng imkoniyatga ega. Bir qolipdagi reja asosida , ya'ni fanlar ro'yxatini va ular mehnat talabligini belgilovchi rejalar asosida professorlar o'quv mashg'ulotlari va fan mazmunining tuzilishini o'zlari belgilaydilar.

AQShda ta'lim muassasalari faoliyatiga maktablar okrugiga ajraluvchi Shtatlar tomonidan amalga oshiriladi. Okrugga Ko'mita boshchilik qiladi, unga, odatda, bizmensmenlar, ziyolilarning barcha – byudjet, o'qituvchilarni ishga olish va bo'shatish, ularning maoshi, darsliklarni tanlash va va tavsiya qilish masalalarni hal etish uning vazifasiga kiradi.

AQShda ta'lim muassasalari keng imkoniyatga ega va boshqaruv idoralaridan muayyan darajada mustaqillikka ega. Shunga ko'ra ular ta'lim dasturlari tavsifi va sifatiga ko'ra bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi. Shunga ko'ra *ta'lim sifati tayanch darajasini* ta'minlash uchun ta'lim muassasalarini **akkreditatsiyalash**dan keng foydalaniladi. Bu ta'lim muassasalarini, foydalanilayotgan ta'lim dasturlarini hukumatga aloqadorsiz, ekspert tekshiruvi va nazoratini amalga oshirish vositasidir.

## **10-MAVZU: O'RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA'LIMI**

### **BITIRUVCHILARINING ISHLAB CHIQRISHGA MOSLASHUVI.**

1. Kichik mutaxassislarning o'qishni tugatgandan so'ng korxonalarda ishlab chiqarish jarayonlariga kirishib ketish jarayonining ijtimoiy jihatlarini. Kichik mutaxassislarning o'qishni tugatgandan so'ng korxonalarda ishlab chiqarish jarayonlariga kirishib ketishining psixologik jihatlarini.
2. Hozirgi kunda jamiyatimizda ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarning jadal amalga oshirilishi, ta'lim tizimining bosqichma-bosqich isloh qilib, borilishi-murakkab

ijtimoiy hodisa sifatida umume'tiborli va ma'naviy qiziqishlarga moliy jarayonlarga aylandi. Ta'lim tizimining umumiy maqsadi teng huquqli va demokratik davlat talabiga javob beruvchi jamiyat a'zolarini tarbiyalab berishdan iboratdir.

3. Kasbiy ishlab chiqarish faoliyatida moslashuv yordamida inson hayotiga, ijtimoiy munosabatlar rivojlanishiga ma'lum ta'sir ko'rsatish mumkin. Ishlab chiqarishga moslashuvning ijtimoiy uyg'unlashuvchi va texnikani taraqqiy ettirishning muhim omili hisoblanadi. Bo'lajak kichik mutaxassislarni tayyorlashdagi murakkab muammolar qatorida ishlab chiqarish faoliyatiga moslashuv ham o'ziga hos o'rin tutadi.

**1. Kichik mutaxassislarning o'qishni tugatgandan so'ng korxonalarda ishlab chiqarish jarayonlariga kirishib ketish jarayonining ijtimoiy jihatlarini. Kichik mutaxassislarning o'qishni tugatgandan so'ng korxonalarda ishlab chiqarish jarayonlariga kirishib ketishining psixologik jihatlarini.**

**Kichik biznesning** davlat tomonidan qo'llab – quvvatlanishi quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi: byudjet orqali bevosita yordam puli. Pul hajmi kichik biznes sug'urta qilinmagan zararlarni qoplash uchun belgilangan bo'lishi kerak. Yordam puli innovatsiyaning xavfli loyihalarini qoplaydi va katta biznes talab qilmaydigan mahsulot turlarini ishlab chiqarishni kuchaytiradi.

Davlat bank kreditlarni olishda kafil sifatida chiqadi. Shuning uchun mayda biznesga kredit olish ancha engilroq kichik biznes soliq imtiyozlariga ega bo'lishi kerak. Agar firma ijtimoiy tarmoqqa yoki ishlab chiqarish rivojlanishiga ajratilgan mablag'ini ko'paytirs, soliq solinadigan ulushni qisqartirishi mumkin.

**Kichik mutaxassis** - bu ta'lim dasturini muvaffaqiyatli o'zlashtirgan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari bitiruvchilariga beriladigan malaka darajasidir.

**Tasniflagichda quyidagi to'qqizta bilim sohasi nazarda tutilgan:**

100000 – ta'lim;

200000 – gumanitar fanlar va san'at;

300000 – ijtimoiy fanlar;

400000 – fan;

500000 – muhandislik, ishlov berish va qurilish tarmoqlari;

600000 – qishloq ho'jaligi;

700000 – sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot;

800000 - Xizmatlar;

Tasniflagichda ta'lim bosqichlari va ta'lim sohalari, tayyorlov yo'nalishlari va kasblar ettita raqamli kod bilan belgilanadi.

Ta'limning xalqaro klassifikatsiyasiga binoan ta'lim bosqichi-o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi 3-raqami bilan belgilanadi. Masalan: 3144610, 3210210, 3380110 va boshqalar.

**Birinchi raqam** - ta'lim dasturi bosqichi kodi;

**Ikkinchi raqam** - bilim sohasi kodi;

**Uchinchi raqam** - ta'lim sohasi kodi;

**To'rtinchi va beshinchi raqamlar** - tayyorlov yo'nalishi kodi;

**O'MKHT da kichik mutaxassis tayyorlash tizimi**

Hozirgi ishlab chiqarishga kelayotgan mutaxassislarning uchdan bir qismi avval maktabda mehnat va kasbgacha tayyorlanmokdalar, keyin kasb- hunar kollej tizimida kichik mutaxassis darajasigacha tayyorgarlik ko'rmokdalar.

YOshlarga mehnat va kichik mutaxassislik bo'yicha tayyorgarlik berish maqsadida maktablar va kasb-hunar kollejlari ta'lim muassasalari o'quvchilarini motivlashtirish, o'qishning butun tizimini yaxshilash, ularda bilimga qiziqishni oshirish, ta'lim olishdagi burch va ma'suliyatni hissini tarbiyalash uchun o'qitishni turmush bilan bog'lash, bilimga doir o'yinlar tashkil qilish, ishlab chiqarish xarakteridagi zarur vaziyatlarni vujudga keltirish va hokazolar orqali bilim olishning mohiyati va ahamiyatini yoritish lozim.

Respublikamizda **kichik mutaxassis tayyorlash** o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv yurtlarida, jumladan kasb - xunar kollejlarda amalga oshiriladi.

**Kasb-xunar kollejidagi ta'lim** tarbiya jarayoni o'quvchilarning qiziqishlari va istak-xoxishiga qarab ularning kasb-xunarga moyilligi, maxorat va malakasini chuqur rivojlantirishni, tanlangan kasblar bo'yicha bir yoki bir necha ixtisos olishlarini ta'minlaydi.

**Korxonalrning yangi xo'jalik yuritishga o'tishi jamiyatning yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash ijtimoiy buyurtmasini bajarish.**

Fan-texnika taraqqiyoti davrida ishchilarning mehnat qilish sharoiti o'zgaradi, chunki ishlab-chiqarish jarayonida ishchining bajaradigan faoliyati, dunyoqarashi, o'rni o'zgaradi. Ushbu o'zgarishlar ishlab-chiqarish bosqichlarining rivojlanishi yangi mayllarning o'sishiga olib keladi. Ishchi ushbu rivojlanishdan foydalangan holda yangicha ishlashni hohlaydi. Ishchilarda yuzaga kelayotgan o'zgarishlarning kuchayishida ishlab-chiqarish omillari kuchli rol o'ynaydi. Buning asosida jismoniy mehnat, ya'ni insonning bajaruvchilik funktsiyasi yotadi.

Mehnatdagi asosiy o'zgarish, avvalambor, insonlarning jipsligidan kelib chiqadi. Malumki, ishlab-chiqarish jarayonida inson asosan 4 ta asosiy funktsiyani bajaradi:

- ishchi o'z jismoniy harakati bilan aylantiruvchi va harakatlantiruvchi harakatlar hosil qilish uchun mehnat qurollarini ishlatadi;
- mehnat qurollarini boshqaradi va ularga ta'sir ko'rsatadi;
- ularni to'g'rilaydi va tamirlaydi;
- ularni loyihalashtiradi va ishlab-chiqarish jarayoniga tatbiq qiladi.

Mehnatni boshqarishda zamonaviy ishchiga 1- va 2-funktsiyalar doirasidagi ko'rsatkichlar ahamiyatli bo'lishi bilan bir qatorda mehnatning mazmuni va ijodiyligini oshirishda 3-4-funktsiyalar ham muhimdir.

Tarixga nazar solib ko'rsak yuqori malakali ish darajasi oshib bormoqda. Masalan: 30-yillarda slesar tamirlovchi 9-10 ta stanokda ishlay olgan, hozirda esa 25-30 ta stanokda bimalol ishlay oladi va 100 dan ortiq metall va nometall materiallardan foydalanadi. Bundan tashqari u payvandlashni ham bilishi kerak. Tokarlik ishi yillar o'tgan sari sezilarli darajada o'zgaradi. 30-yillarda 3-razryadli tokar oddiy ishlarni master qo'l ostida qilardi. 40-yillarda esa stanokning asosiy

qismlarini, ya'ni zo'riqish bo'lganda sinadigan joylarni, oddiy qirquvchi va o'lchov asboblarni sovitish va moylash, moylash suyuqligini ishlatishni ham bilishi kerak bo'lgan. Yana tokar stanok markalarini va nuqsonli mahsulotni aniqlay olishi ham kerak.

60-yillarda esa tokar keng tarqalgan va universal stanoklar tuzilishini, oddiy va qirquvchi asboblarni qo'llashni ko'rsatma berishni, material o'lchovlari va yuza tozaligini bilishi talab etilar edi.

70-yillarda tokar stanokning tuzilishi, ishga yaroqliligi hamda stanoklarni boshqarish qoidalarini tekshiruvchi o'lchov asboblaridan foydalanish qoidalarini bilishi kerak bo'lgan.

80-yillarda esa 3 - razryadli tokar stanokda ishlash bilan birga elektronika ishlarini ham bajara olishi talab qilingan.

90-yillarda texnikaning rivojlanishi yangi tipdagi stanok ishchilarini shakllantirdi. Keng tarmoqli universal ishchilar vujudga keldi. Hozirda bu ishchilar 14 ta ixtisosliklarni egallagan. Bu ixtisosliklardan tokarlik avtomatlarini sozlovchilar, yarim avtomat va avtomatlashtirilgan stanoklarni sozlovchi hamda boshqalar. Ishchi sozlovchilarning bu guruhi elektrotexnik bilimga ham egadirlar.

#### **Kasb-hunar ta'imini bevosita ishlab chiqarish jarayonlari bilan bog'lash**

Mehnat bozori xalq xo'jaligining turli sohalari uchun malakali kadrlarni talab qiladi. Unda oddiy mutaxassisdan, to yirik tashkilotchi rahbarlargacha barchasi uchun talab o'zi egallab turgan lavozimiga mos malakaga ega bo'lishi hisoblanadi. Kasbiy malakaga ega bo'lish esa respublikamizda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim, oliy ta'limdan keyingi ta'lim va malaka oshirish orqali amalga oshiriladi. Kasb-hunar ta'imini **bevosita ishlab chiqarish jarayonlari bilan bog'lab olib borish** bo'lg'usi muiaxassislarning yuqori malakali bo'lishlarini ta'minlaydi.

#### **Dual ta'lim tizimining quyidagi qator ustunliklari mavjud:**

-o'qitish jarayoni bevosita amaliyot bilan birgalikda olib boriladi. Unda ta'limning taxminan 40%ga yaqin nazariy bilim berilsa, 60%dan ziyodrog'i bevosita ishlab chiqarish korxonalari yoki qishloq xo'jalik bilan bog'liq sohalorida olib boriladi;

-o'qish jarayonini tashkil qilishda tahsil oluvchilarning kasbiy malaka olishga bo'lgan talab va ehtiyojlari jadal suratda amalga oshiriladi;

-o'qish bevosita ishlab chiqarish bilan birgalikda amalga oshirilganligi sababli moliyalashtirish mexanizmi engillashadi;

-o'qish jarayoniga korxonalar jalb qilinganligidan ijtimoiy hamkorlik yo'lga qo'yilganligi sababli kuchli iqtisodiy va siyosiy aloqadorlik usulining paydo bo'lishiga olib keladi;

-xalq xo'jaligining davlat tuzilmasi, shuningdek, nodavlat xususiy tadbirkorlik nuqtai nazaridan ham foydali moliyaviy usul hisoblanadi;

-xalq xo'jaligining rivojlanishida zarur bo'lgan o'rta pog'onada malakali kadrlarning bandlik darajasi yuqori bo'ladi.

#### **Ayni paytda dual ta'lim usuli kamchiliklardan xoli emas:**

- ta'lim muassasalarida tahsil oluvchilarga kasb-hunar sirlari nisbatan tor ixtisoslik doirasida o'qitilganligi uchun jamiyatda va xo'jaliklarda

ishlash uchun keng imkoniyat yaratilmaydi;

-birgina yo'nalishda malaka oshirilgani sababli ular yaqin ikkinchi bir yo'nalishga moslashuv mexanizmi cheklangan;

-kasb - hunar ta'limini amalga oshirish o'ziga xos berk xarakterga ega;

-tor mutaxassislik berilganligi mutaxassis shaxsning tashabbuskorligi va erkinligi chegaralangan bo'ladi;

-taklif qilinayotgan o'quv muassasalarini ishlab chiqarish korxonalarining smeta xarajatlariga bog'liqligi uchun ko'p sondagi tinglovchilar malaka oshirishdan foydalana olmaydi.

### **Ta'limini ishlab chiqarish orqali amalga oshirish shakllari va turlari.**

Talabalarning korxonada ishlab chiqarish ta'lim olishlaridan asosiy maqsad – ularning kasbiy ko'nikma va mahoratlarini oshirish, kasbiy bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish, ilgor ishlab chiqarish tajribasi bilan tanishtirish, ishlab chiqarish amaliyotiga tayyorlash va shular asosida kasb-hunar kollejlarni tugatgandan so'ng ishlab chiqarishda mustaqil faoliyat ko'rsatishga o'rgatishdan iboratdir.

Talabalarni korxona ustaxonalarida o'qitish – malakasi kichik mutaxassislarni tayyorlashdagi xal qiluvchi davr hisoblanadi. Bu erda talabalar ishlab chiqarish holati, yangi jixozlar va texnologik moslamalar, zamonaviy texnologik jarayonlar bilan tanishadilar.

Har bir kasb va mutaxassislik bo'yicha bevosita korxonada o'qitish hajmi, mazmuni va muddatlari mutasaddi tashkilotlar tamonidan tasdiqlangan o'quv dasturlariga muvafiq belgilatgadi.

KXX o'quv rejaga muvofiq korxonalarda ishlab ishlab chiqarish amaliyotiga ajratiladi.

**Ishlab chiqarish amaliyoti.** Ishlab chiqarish amaliyoti kasbiy tayyorgarlikning yakuniy bosqichini tasvirlaydi va o'qitishning so'nggi oylarida o'tkaziladi.

### **Korxona tsexlarida o'qitishni tashkil qilish shakllari.**

O'quvchilar ishlab chiqarish ta'limini korxonalarda gurux ustasining rahbarligida o'tadilar.

O'qitishni tashkil qilishning eng ko'p tarqalgan shakllari quyidagilardir:

- guruxlarni korxona yoki tashkilot ajratgan mustaqil o'quv uchastkalarida o'qitish;

- o'quvchilarni alohida-alohida brigadalarga bo'lib ishlab chiqarish uchastkalarida o'qitish;

- o'quvchilarni malakali ishchilar brigadalari tarkibida o'qitish;

- o'quvchilarni murakkab mashina va mexanizmlarga xizmat ko'rsatish bo'yicha individual ish o'rinlarida o'qitish;

- korxonaning shtatli ishchi o'rinlarida ishlab chiqarish amaliyotini o'tish.

### **O'rta-maxsus, kasb-hunar ta'limi bitiruvchilarning ishlab chiqarishga moslashuvchanligi**

O'rta-maxsus, kasb-hunar ta'limi bitiruvchilarning ishlab chiqarishga moslashuvchanligi ularning ta'imni bevosita ishlab chiqarish jarayonlari bilan

bog'lash, ta'limini ishlab chiqarish jarayonida amalga oshirish orqali shakllantiriladi.

### **Tayanch ishlab chiqarish korxonalari ustaxonalaridagi mashg'ulotlar.**

O'quvchilarni ishlab chiqarish talimi uchun korxonalarga ko'chirish o'quvchilarni ishlab chiqarish sharoitlarida o'qitishga o'tkazish - kasbga tayarlashda eng muhim bo'qichidir. Buni malakali ishchining mustaqil ishining muqaddimasi desa bo'ladi. O'quvchilarning tsex rahbarlari, ishlab chiqarish ilg'orlari, o'quv yurtlarini ilgari bitirib chiqqanlar, taniqli kishilar va boshqalar bilan uchrashuvlarini tashkil qilish maqsadga muvofiqdir.

TSex boshlig'i va ishlab chiqarish ilg'orlari korxonaning ajoyib an'alarini gapirib berishlari hamda o'quvchilarni bu an'analarni davom ettirishga da'vat etishlari orqali o'quvchilarda ushbu korxona undagi mehnat jarayoniga mehriini uyg'atadi. Bu esa o'quvchilarning **ishlab chiqarishga moslashishlarini shakllantirishni** osonlashtiradi.

O'rta-maxsus, kasb-hunar ta'limi bitiruvchilarning ishlab chiqarishga moslashuvchanligini shakllantirishda ayniqsa ishlab chiqarish amaliyotlarining o'rni katta.

Ishlab chiqarish amaliyoti tayanch ishlab chiqarish korxonasi ish o'rinlarida tashkil etiladi. Korxona odatda, amaliyotga xabarlik qilish uchun muhandis-texnik xodimlar va malakali mutaxassislarni ajratadi. Ta'lim olishning bu davrida talabalar **korxonada mustaqil ishlashga** to'liq tayyorlanadilar.

Ishlab chiqarish amaliyoti jarayonida echiladigan vazifalarga quyilagilar kiradi:

- talabalarning ishlab chiqarish sharoitlariga ijtimoiy, psixologik va fiziologik jihatdan moslashishi;

- kasbiy bilim, ko'nikma va maxoratlarni takomillashtirish; tanlangan kasb bo'yicha ixtisoslashtirish;

- murakkab ishlab chiqarish ishlarini bajarishda mustaqil ishlash tajribasini to'plash;

- progressiv texnologiyalar va zamonaviy jihozlarni, mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish vositalarini o'rganish;

- yuqori umumli asbob va moslamalarni, ishlab chiqarish ilg'orlari tajribasini o'zlashtirish;

- korxona texnik va texnologik hujjatlarni, ish o'rinlarida mehnatni ilmiy tashkil qilish masalalarini o'rganish;

- ko'nikma va maxoratni shakllantirish, bilimlarni amaliyotda qo'llash, murakkab ishlab chiqarish vazifalarini echishdan iboratdir.

**2. Hozirgi kunda jamiyatimizda ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarning jadal amalga oshirilishi, ta'lim tizimining bosqichma-bosqich isloh qilib, borilishi-murakkab ijtimoiy hodisa sifatida umume'tiborli va ma'naviy qiziqishlarga moliy jarayonlarga aylandi. Ta'lim tizimining umumiy maqsadi teng huquqli va demokratik davlat talabiga javob beruvchi jamiyat a'zolarini tarbiyalab berishdan iboratdir.**

**O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni.** Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasida uzluksiz ta'limi tizimini takomillashtirish ustuvor yo'nalish sifatida e'tirof etildi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunida uzluksiz ta'lim tizimining mohiyati, yo'nalishlari, ta'lim mazmuni, ta'limning huquqiy asoslari batafsil ochib berilgan. Mazkur me'yoriy hujjat mazmunida quyidagilar ifodasini topgan:

- 1) fuqarolarga ta'lim, tarbiya berish, kasb-hunar o'rgatishning huquqiy asoslari;
- 2) ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari;
- 3) har kimning bilim olishdan iborat konstitutsiyaviy huquqi;
- 4) pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqi;
- 5) ta'lim muassasasining haquqiy maqomi;
- 6) ta'lim tizimi va turlari;
- 7) ta'lim jarayoni qatnashchilarini ijtimoiy himoya qilish;
- 8) ta'lim tizimini boshqarish.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunida alohida urg'u berilganidek, ta'limni tashkil etishning asosiy maqsadi – jamiyatda intellektual va ilmiy potentsialni rivojlantirish, jamiyat, oila va davlat oldidagi burchi, javobgarligini anglaydigan barkamol va mustaqil fikrli shaxsni shakllantirishdan iborat.

**Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari.** O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunining 3-moddasida ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari ko'rsatib o'tilgan. Ular quyidagilardan iborat:

- ta'lim-tarbiyaning insonparvar va demokratik xarakterda bo'lishi,
- ta'lim tizimining uzluksizligi va izchilligi;
- umumiy o'rta, shuningdek, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limining yo'nalishlarini tanlashning ixtiyorligi;
- ta'lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi; davlat ta'lim standarti doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi;
- ta'lim dasturini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondoshuv;
- bilimli bo'lishni rag'batlantirish;
- ta'lim tizimida davlat va jamiyat boshqaruvini uyg'unlashtirish.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunining 3-moddasida ta'lim sohasida davlat siyosatining asosiy tamoyillaridan biri ta'lim va tarbiyaning insonparvar va demokratik xarakterda bo'lishi ko'rsatilgan. Ta'lim va tarbiyaning insonparvarlashuvi insonni intellektual va ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash bilan uzviy bog'liq bo'lgan uzluksiz ta'lim tizimi orqali har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirishni nazarda tutadi. Ta'limni insonparvarlashtirish shaxsning ijodiy qobiliyatlarini ro'yobga chiqarishga imkon yaratadi. Shuningdek, ta'lim jarayonida uning ma'naviy-axloqiy ehtiyojlari, xohish-istaklari va hiziqlashlarini hisobga olishni nazarda tutadi. Bir so'z bilan aytganda, ta'lim-tarbiya

jarayoni shaxsni har tomonlama kamol topishini ta'minlashga yo'naltiriladi, uning shaxsiga nisbatan hurmat bilan yondashiladi.

Ta'lim va tarbiyani demokratlashtirishning mazmuni shundan iboratki, ta'lim-tarbiya mazmunining ochiqligi, o'quv materiallari, ta'lim shakl va metodlarining xilma-xilligi, milliy va hududiy xususiyatlarning inobatga olinishi, hammaning va har kimning madaniy jihatdan yuksak natijalarga erishishini ta'minlashga imkon beradi. Mazkur tamoyilga amal qilish o'quvchilarning xohishlariga ko'ra o'quv jadvalidan qo'shimcha fanlarning o'rin olishi, yuqori sinflarda muayyan fanlarning chuqurlashtirilib o'rgatilishi, fakultativ mashg'ulotlar hajmining kengaytirish, turli yo'nalishlarda to'garaklarni tashkil etish, darslarning yakka va guruh asosida o'tkazilishiga e'tibor berilishini anglatadi.

Ta'lim tizimining uzluksizligi va izchilligi tamoyili respublikada uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlari o'zaro aloqadorlik va bog'liqlik asosida faoliyat yuritishlarini ifodalaydi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining o'quv dasturlari akademik litsey va kasb-hunar kollejlarining, o'z navbatida ularning o'quv dasturlari oliy o'quv yurti o'quv dasturlari bilan mutanosiblikda yaratilib, biri o'zidan avvalgi bosqichda o'zlashtirilgan ma'lumotni boyitadi va rivojlantiradi.

Shuningdek, davlat ta'lim standartlari talablariga muvofiq faoliyat olib borayotgan uzluksiz ta'lim tizimi mazmuniga ko'ra bir tipdagi o'quv yurtlarining biridan ikkinchisiga o'tib o'qish imkoniyati mavjud. CHunonchi, ta'lim oluvchilar bir maktabdan ikkinchi maktabga, bir akademik litseydan ikkinchi akademik litseyga bir shaharda faoliyat yuritayotgan oliy o'quv yurtidan ikkinchi shaharda joylashgan oliy o'quv yurtiga o'tib ta'limni davom ettirish huquqiga egalar.

Umumiy o'rta, shuningdek, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limining majburiyligi tamoyili o'zida, birinchidan, fanlar asoslari bo'yicha muntazam bilim olishlari, ularning bilimlarni o'zlashtirishga bo'lgan ehtiyojlari, asosiy o'quv-ilmiy va umummadaniy bililar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy-axloqiy fazilatlar, mehnat, ijodiy fikrlash va kasb tanlash ko'nikmalari shakllantirish; ikkinchidan, o'quvchilarning imkoniyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda ularning jadal intellektual rivojlanishi, chuqur, sohashtirilgan, tabahalashtirilgan, kasbga yo'naltirilgan ta'lim olishni ta'minlash; uchinchidan, o'quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, bilim va ko'nikmalarini chuqur rivojlantirish, tanlab olingan kasb-hunar bo'yicha bir yoki bir necha ixtisoslikni egallash imkoniyatini yaratishni ifodalaydi.

O'rta maxsus kasb-hunar ta'limining ixtiyoriyligi tamoyilining asosiy mohiyati o'quvchilarning yangi turdagi o'quv muassasalarida ta'lim olish yo'nalishini ixtiyoriy ravishda tanlash huquqiga ega ekanliklarini anglatadi. Bu iki turdagi uch yillik maxsus ta'lim yo'nalishlarini o'quvchilar o'z iqtidorlari va xohish-istaklariga tayangan holda tanlaydilar. Ana shu tarzda o'quvchilarning biron bir shaklda bilimlarini takomillashtirish, muayyan kasb-hunar egasi bo'lib etishishlari uchun sharoit yaratiladi.

Ta'lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi mamlakatda ta'lim taraqqiyotining rivoji ilmiy asoslarga ega bo'lib, u fan-texnika, madaniyatning yuksala borishi bilan chambarchas holda rivojlanib borishini nazarda tutadi.

Insoniyat mavjud ekan, har doim taraqqiyot sari intiladi va yangidan-yangi fan yutuqlarini qo'lga kiritib boradi. Ta'lim tizimi esa ana shu fan yangiliklarini kelajak avlodga etkazib berishni ta'minlaydi. Shu bois ta'lim tizimining dunyoviy xarakterda bo'lishi talab etiladi. Shuningdek, ta'lim oluvchilarning ushbu yutuqlardan oqilona foydalangan holda ulardan to'g'ri xulosalar chiqarib, kelajakda o'zlarining munosib o'rinlarini topishga zamin yaratadi.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»ni Qonunining 4-moddasida belgilab qo'yilganidek, fuqarolar millati, tili, jinsi, yoshi, diniy e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, mavqei, xizmat turi, turar joyi, O'zbekiston Respublikasida hududida qancha vaqt yashayotganligidan qat'iy nazar bilim olish huquqiga egalar. Davlat ta'lim standartlari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi tamoyili aynan mana shu holatni yoritishga xizmat qiladi.

YUqorida qayd etilgan moddada, yana shuningdek, chet ellik fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi hududida xalqaro shartnomalarga muvofiq bilim olish huquqiga egaliklari ta'kidlab o'tilgan.

O'zbekiston Respublikasida istiqomat qilayotgan fuqaroligi bo'lmagan shaxslar esa bilim olishda O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan teng huquqlarga ega ekanligi bu tamoyilning inson va uning manfaatlariga xizmat qilishini bildiradi.

Respublikamizda ta'lim, o'zbek, rus, qozoq, qirg'iz va tojik tillarida olib borilayotgan umumiy o'rta ta'lim muassasalari mavjud bo'lib, bunday yo'l bilan barcha millatlarning tenglik asosida bilim olishiga sharoit yaratilgan. Bundan tashqari mamlakatning barcha hududlarida «yakshanbalik maktablari» tashkil qilingan bo'lib, har bir millat vakillari dam olish kuni ixtiyoriy ravishda o'z ona tilida ta'lim olish imkoniyatiga egalar.

Ta'lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunining 7-moddasida o'z ifodasini topgan. Davlat ta'lim standartlari umumiy o'rta, o'rta maxsus kasb-hunar hamda oliy ta'lim mazmuni va sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilab beradi.

Davlat ta'lim standartlarini bajarish O'zbekiston Respublikasining barcha ta'lim muassasalari uchun majburiydir. Buning ma'nosi shuki, har bir ta'lim turi uchun alohida davlat ta'lim standartlari ishlab chiqiladi, ularda ko'zda tutilgan talablarga amal qilish esa mazkur bosqichdagi ta'lim muassasalaridan birday talab etiladi. Ammo davlat ta'lim standarti asosida ta'lim muassasalari o'zlarining o'quv dasturlari variantini ishlab chiqib, undan foydalanishlari mumkin. Bu ta'lim olish maqsadi yagona bo'lgani holda, unga erishish yo'llari turlicha ekanligini ko'rsatadi.

Bilimli bo'lishni va iste'dodni rag'batlantirish ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillaridan biri sanalib, uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida ushbu tamoyilga to'la amal qilinadi. Ta'lim oluvchilarning iste'dod va qobiliyatlari davlat tomonidan moddiy va ma'naviy jihatdan rag'batlantirilib boriladi. Bunday rag'batlantirishlar sirasiga iste'dodli o'quvchilarni faxriy yorliqlar, stipendiyalar hamda mukofotlar bilan taqdirlashni kiritish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993 yil 25 martdagi «O'zbekiston o'quvchi-yoshlarini taqdirlash va moddiy rag'batlantirish

to'g'risida»gi Qarorining qabul qilinishi ushbu tamoyilni huquqiy jihatdan kafolatlanishini ta'minladi. Mazkur qarorga muvofiq har yili o'quvchi va talabalar o'rtasida fan olimpiadalari o'tkazilib, g'oliblar turli imtiyozlarni qo'lga kiritmoqdalar. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1993 yil 5 fevralda qabul qilingan «O'zbekistonda o'quvchi-yoshlarni rag'batlantirish choralari to'g'risida»gi Farmoniga binoan ilmiy salohiyat, iqtidorga ega talabalar (bakalavr va magistratura yo'nalishlari bo'yicha) hamda tadqiqotchilik faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirayotgan aspirantlar uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Davlat stipendiyalari ta'sis etildi va har yili o'n bir ta'lim yo'nalishi (texnika va informatika, tibbiyot, fizika-matematika, iqtisodiyot, jurnalistika, gumanitar, huquq va xalqaro munosabatlar, pedagogika, madaniyat va san'at, chet tillar, qishloq xo'jaligi) bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat stipendiyasi uchun tanlovlar tashkil etilmoqda. Shuningdek, iqtidorli talabalar uchun «Beruniy», «Ulug'bek» hamda «Navoiy» nomidagi stipendiyalar joriy etilgan bo'lib, ularning sovrindorlari bo'lgan talabalarning faoliyati moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlanmoqda.

Bundan tashqari iste'dodli yoshlarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish, chet elda ta'lim olishlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida «Umid», «Iste'dod», «Respublika bolalar fondi», «Sog'lom avlod uchun», «Ulug'bek» va boshqa jamg'armalar tashkil etilgan. Ayni vaqtda davlat tomonidan ko'rsatilayotgan amaliy yordam tufayli 2000 nafardan ortiq talabalar xorijiy mamlakatlarda tahsil olib, o'z bilimlarini oshirishga muvaffaq bo'ldilar.

Yuqorida bildirilgan fikrlar respublikada bilimli bo'lish va iste'dodni rag'batlantirish tamoyilining to'laqonli ravishda amaliyotga tatbiq etilayotganligining yorqin isbotidir.

Ta'lim tizimida davlat va jamiyat boshqaruvini uyg'unlashtirish tamoyili ta'limni tashkil etish va uning sifatini oshirishda davlat va jamiyatning ta'lim muassasalarini boshqarishda hamkorlikka erishishni nazarda tutadi. Ta'lim tizimida davlat va jamiyat boshqaruvi ta'lim samaradorligini oshirishga zamin yaratadi.

**Ta'lim tizimi va turlari.** Ta'lim tizimi davlat siyosatining asosiy tamoyillari asosida yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish yo'lida faoliyat yurituvchi barcha turdagi ta'lim muassasalari majmui demakdir. Har bir mamlakatning ta'lim tizimi uning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayoti bilan chambarchas bog'liq bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining ta'lim tizimi davlat ta'lim standartlariga muvofiq ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim muassasalari, ta'lim tizimining faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan tadqiqot ishlarini boshqaruvchi ilmiy-pedagogik muassasalar, ta'lim sohasidagi davlat boshqaruv organlari, shuningdek, ularga qarashli korxonalar, muassasalar va tashkilotlarni o'z ichiga oladi. Respublikaning ta'lim tizimi yagona va uzluksizdir.

Respublika «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunda ta'kidlanganidek, O'zbekiston Respublikasida ta'lim quyidagi turlarda amalga oshiriladi:

Maktabgacha ta'lim – bolaning sog'lom, har tomonlama kamol topib shakllanishini ta'minlovchi, unda o'qishga intilish hissini uyg'otuvchi, uni muntazam ta'lim olishga tayyorlovchi hamda bola olti-etti yoshga etguncha davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari va oilalarda amalga oshiriluvchi ta'lim bosqichi.

Umumiy o'rta ta'lim ikki bosqichda amalga oshiriladi. Ular quyidagilardir:

- 3) boshlang'ich ta'lim (1-4-sinflar);
- 4) umumiy o'rta ta'lim (1-9-sinflar).

Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarga murakkab bo'lmagan ilmiy bilimlarni berish asosida ularda o'qish, yozish va hisoblashga oid dastlabki bilim, ko'nikma hamda malakalarni shakllantirish asosida ularda shaxsiy gigiena va sog'lom turmush tarzi elementlarini hosil qilish bosqichi.

Umumiy o'rta ta'lim o'quvchilarning fan asoslari bo'yicha muntazam bilim olishlarini, ularda bilim o'zlashtirish ehtiyojini, asosiy o'quv-ilmiy va umummadaniy bilimlarni, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy-axloqiy fazilatlarni, mehnat ko'nikmalarini, ijodiy fikrlash va atrof-muhitga ongli munosabatda bo'lishni va kasb tanlash ko'nikmalarini shakllantirish<sup>1</sup> bosqichi. Umumiy o'rta umumiy o'rta ta'lim muassasalarida amalga oshirilib, o'quvchilarga I-IX sinflar hajmida davlat ta'lim standartlari talablariga muvofiq fan asoslari bo'yicha majburiy ta'lim beriladi.

Bolalarning qobiliyati, iste'dodini rivojlantirish uchun ixtisoslashgan maktablarning tashkil etilishi esa ularning istiqbollarini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

**3. Kasbiy ishlab chiqarish faoliyatida moslashuv yordamida inson hayotiga, ijtimoiy munosabatlar rivojlanishiga ma'lum ta'sir ko'rsatish mumkin. Ishlab chiqarishga moslashuvning ijtimoiy uyg'unlashuvchi va texnikani taraqqiy ettirishning muhim omili hisoblanadi. Bo'lajak kichik mutaxassislarni tayyorlashdagi murakkab muammolar qatorida ishlab chiqarish faoliyatiga moslashuv ham o'ziga hos o'rin tutadi.**

Talabalarining korxonada ishlab chiqarish ta'lim olishlaridan asosiy maqsad – ularning kasbiy ko'nikma va mahoratlarini oshirish, kasbiy bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish, ilgor ishlab chiqarish tajribasi bilan tanishtirish, ishlab chiqarish amaliyotiga tayyorlash va shular asosida kasb-hunar kollejlarini tugatgandan so'ng ishlab chiqarishda mustaqil faoliyat ko'rsatishga o'rgatishdan iboratdir.

Talabalarni korxona ustaxonalarida o'qitish – malakasi kichik mutaxassislarni tayyorlashdagi xal qiluvchi davr hisoblanadi. Bu erda talabalar ishlab chiqarish holati, yangi jixozlar va texnologik moslamalar, zamonaviy texnologik jarayonlar bilan tanishadilar.

Korxonada ishlab chiqarish ta'limi talabalarining kompleks ishlarni bajarishda muxim ko'nikmalarni mustahkamlashlari va takomillashtirishlariga, texnologik

---

<sup>1</sup> Kadrlar tayyorlash milliy dasturi //Oliy ta'lim: me'yoriy hujjatlar to'plami. – Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati. 2001. – 35-bet.

jarayonlarni rejalashtirish mahoratiga ega bo'lishlariga, turli maxsulotlarning assortimentlari bilan keng tanishib chiqishlariga yo'naltirilgan.

Korxonalarda o'qitish vaqtida o'quvchilarda ishga bo'lgan talablarni to'g'ri tushunish, uning xususiyatlari" va bajarilish shartlarini hisobga olish, o'z mehnatini tashkil qilish va rejalashtira bilish, kamchiliklarning oldini olish, texnologik jarayonlarni hamda mehnat unumdorligini oshirish uchun o'z bilimlaridan to'la foydalana bilishda o'z aksini topuvchi kasbga oid mustaqillik to'liq tarkib toshadi. Kasbga oid mustaqillik yosh avlodda tarbiyalanishi kerak bo'lgan mehnat natijalariga yuksak ma'naviy javobgarlikni his qilish, kasb sharafiga his etish bilan birikib ketadi.

O'quvchilar yuqori malakali ishchilar va ishlab chiqarish ilg'orlari bilan har kuni muomalada bo'lar ekanlar, ularning tajribalarini o'zlashtiradilar, korxonaning itioiy va ishlab chiqarish hayoti bilan tanishadilar, ishlab chiqarish jamoasining ishlab chiqarish rejasi va korxonaning iqtisodiy ko'rsatgichlarini bajarishdagi faoliyatida da faol ishtirok etadilar.

**Ishlab chiqarish amaliyoti.** Ishlab chiqarish amaliyoti kasbiy tayyorgarlikning yakuniy bosqichini tasvirlaydi va o'qitishning so'nggi oylarida o'tkaziladi.

Agar korxona o'z bazasidagi o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi o'quv yurti o'quvchilarining barchasini o'quv dasturlari va xavfsizlik texnikasi talablariga javob beruvchi ish o'rinlari bilan ta'minlay olmasa, o'quv yurti bilan korxona o'rtasida tuzilgan shartnoma asosida ishlab chiqarish ta'limini boshqa korxonalarda o'tkazishga ruxsat beriladi.

#### **Korxonalarda o'qitishga tayyorlash.**

O'quvchilarning korxonalarda ishlab chiqarish ta'limini muvaffaqiyatli o'tashlari uchun korxonalarda o'quv dasturlariga muvofiq ishlab chiqarish va nazariy jihatdan tayyorlash ishlari o'tkaziladi. Bundan tashqari, o'quvchilarni, albatta korxonadagi yong'inga qarshi tadbirlar, xavfsizlik texnikasi va mehnatni muhofaza qilish qoidalari bilan tanishtirish lozim.

O'zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da maktab va KXKlarning eng amuxim vazifalaridan biri o'quvchilarning ongli ravishda kasbga yo'naltirish va ularning kasb egallashlarini ta'minlash deb belgilangan.

Mazkur ishlarni bevosita maktab, yoki maktablararo texnik markaz hamda KXKlarda maxsus ishlab chiqilgach "shartnoma"lar asosida o'z ishlarini muvofiqlashtirgan xolatida amalga oshiriladi. Mazkur shartnomalar ikki tomonlama va ko'p tomonlama xolatda qabul etiladi.

1.Maktablar orasida.

2.Maktab va tashxis markazlar orasida.

3.Kasb-xunar kollejlari orasida.

4.Maktablar va tashxis markazi orasida.

5.Maktab, kasb-xunar kollejlari va tashxis markazi orasida.

6.Maktablar tashkilot yoki korxonalar orasida.

7.Maktab, kasb-xunar kollej, tashkilot va korxonalar orasidagi qabul etiladigan shartnomalar.

Shartnomalar tuzishda uning xar bir bandiga didaktik talablar asosida, sotsial iqtisodiy jixatdan maqsadga muvofiqligi va amaliy yo'nalishini xisobga olib huquqiy kuch berish kerak.

**Birinchi banda.** Namunaviy shartnomaning bu bandida asosiy e'tibor o'quvchilarning mehnat va kasbiy ta'limi, ijtimoiy-foydali, unumli mehnatini tashkil qilish masalalariga qaratiladi.

**Keyingi band.** Shartnomaning bu bandidagi tadbirlar o'quvchilar mehnat birlashmalarining ishini ta'minlashi kerak. O'quvchilar ishining bu turi asosan kanikul vaqtida amalga oshiriladi va shuning uchun ularning mehnat ob'ektlari har hil, ba'zaan esa mehnat va kasbiy tayrgarlik o'quv dasturi mazmuni bilan bog'lanmagan bo'lishi mumkin.

**Keyingi band.** Shartnomaning bu bandida tayyorlangan mahsulotlar miqdori va sifatini xisobga olishni; o'quvchilar ijtimoiy-foydali, unumli mehnatining natijalarini o'quvchilarga tayyorlagan maxsuloti, haqiqiy ishlangan vaqti hamda bajarilgan ishi uchun belgilangan tartibda haq to'lashni ta'minlash tadbirlarini nazarda tutish lozim.

**Keyingi band** o'quvchilarning mehnat va professional tayyorgarligini, ijtimoiy va unumli mehnatini xavfsizik texnikasi va ishlab chiqarish sanitariyasi, o'quvchilar mehnatini muhofaza qilish qoidalariga qat'iy rioya qilgan holda tashkil etishni ta'minlashi kerak.

**Keyingi band** baza korxonalarning makta, KKK va boshqa maorif muassasalariga o'quv yiliga tayyorgarlik ko'rishda yordamlashuviga qaratilgan tadbirlarni o'z ichiga oladi

**Keyingi band** o'quvchilar va ishlab chiqarish ta'limi ustalari to'g'risida g'amxo'rlikni aks ettiradi. Shuning uchun uni to'ldirayotganda baza korxona sanatoriyalar, pansionatlar, dam olish bazalariga yo'llanmalar ajratishda barcha rezerv va imkoniyatlardan foydalanish lozim.

Kasblarni guruhlashtirishda guruhlangan kasblarning korxonadagi ish joyini loyihalash bo'yicha malakaviy tasifnomasi ishlab chiqiladi. Manaviy tavsifnomada muayyan kasbga xos bo'lgan ish ma'lumoti, ishchi tomonida o'zlashtirilishi talab etiladigan ko'nikma va malakalar haqida ma'lumot qayd etiladi. Kasblarni guruhlashda eng asosiysi – o'quv bilim yurtlarida amal qilinadigan o'quv dasturning mazmuni, ilmiy texnik rivoji, malakaviy tayyorlikka olib kiradigan hissasi, birinchi tarafdin, umumiy o'rta ta'lim 2 chi tarafdin, umumiy o'rta politexnik tayyorgarlikni qo'llash kabi xususiyatlar sanaladi. Mazkur xususiyatlardan kelib chiqilgan holda quyidagilar o'rganiladi:

a) ish jarayoniga taqsimlash maqsadida kasblar yig'indisini o'rganish.

b) turdosh kasblarning o'zaro o'xshashligi moslama va jihozlar ishlab chiqaruvchi maxsulot turini taqsimlash maqsadida ajratilgan guruhlarini o'rganish.

v) o'quv guruhlar tarkibiga kiritish uchun umumiy kasblarning ilmiy-texnik umumligini aniqlash maqsadida ajratilgan guruhlarini o'rganish, kasblar mohiyatini didaktik jihatdan tahlil etish;

g) guruhlarga ajratilgan o'quv guruhlarini sohalar bo'yicha shakllantirish.

## **10-MAVZU: KICHIK MUTAXASSISLARNI ISHLAB CHIQRISHGA MOSLASHTIRISHNING PSIXOLOGIK JIXATLARI**

1. Kichik mutaxassislarni ishlab chiqarishga moslashtirishning ijtimoiy motivatsiyasi
2. Kichik mutaxassislarni ishlab chiqarishga moslashtirishning kasbiy psixologik omillari
3. Kichik mutaxassislarni ishlab chiqarishga moslashtirishning psixologik ziddiyatlarini bartaraf etish omillari

### **1. Kichik mutaxassislarni ishlab chiqarishga moslashtirishning ijtimoiy motivatsiyasi**

Pedagogik mahorat, pedagoglik kasbi bilim va ko'nikmalarini faqat shaxsiy xislatlarni shakllantirish orqaligina egallash mumkin. Pedagoglik kasbida professional bilimlar bilan shaxsiy xislatlar uy-g'ulashib bir butun birikmani tashkil etadi. Xozirgi universitet ta'limi xuddi ana shu o'ziga xoslikni inobatga oladi.

Universitet ma'lumotiga ega bo'lgan pedagoglar tayyorlash kontseptsiyasi quyidagi g'oyalarga asoslanadi:

- psixologo-pedagogik va xususiy metodik tayyorgarlikning asosiy omil kilib olinishi;

- bo'lg'usi pedagogning umuminsoiiy qadriyatlarga asoslangan shaxsiy xislatlarning shakllanganligi;

- gumanizatsiya va gumanitarizatsiyaga asoslangan pedagoglik kasbini egallash yangi mazmunini joriy qilish;

- talabalar ijodiy mehnat va o'quv faoliyatlarini tashkil qilishda turli o'quv metodlari, ta'limning turli tashkiliy shakllaridan foydalanish;

- pedagogika, psixologiya va xususiy metodikalar bo'yicha umumlashgan va poltexnik bilim, iqtidor va ko'nikmalarining shakllangan bo'lishi.

Hozirgacha ishlab turgan universitet ta'limi mazmuni pedagogik faolliyatli butunicha, sistemali shakllantirish imkonini bermaydi. Bir qator bilimlar beriladi, ammo biriktiruvchi o'zak sistemali bilimlar berilmaydi, Bulday kamchilikni yo'qotish maksadida moddallashtirish metodiga murojaat qilish mumkin.

Pirovard maqsad universitet ma'lumotiga ega bo'lgan pedagog mutaxassislarni tayyorlash ekan ana shu mutaxassis shaxsning modelini tuzishdan boshlash kerak.

Modellashtirish pedagogning professional faoliyati, mavhumlashgan shaxs parametrlarini ochish bilan birga ana shu xislatlarni shakllantirish jarayonini ham ochib beradi. Modellashtirish natijasida ideal sharoitda mutaxassisda shakllanish kerak bo'lgan bilim, iqtidor va ko'nikmalar, professional ustivor tayyorgarlik kabi parametrlarni o'z ichiga qamrab olgan davlat xujjati sifatida va kvalifikatsion xarakteristika yoki professiogramma ko'rinishida rasmiylashtiriladi. Hozirgacha tuzilgan kvalifikatsion xarakteristikalar universitet ma'lumotiga ega bo'lgan mutaxassislarning professional faoliyatini to'liq aks etdirmaydi. Shu bois hozirgi talablarga javob bermay qoldi. Shuning uchun ham predmet pedagoglarini

tayyorlashda o'quv dasturlari, o'quv rejalarini tuzishda professiogramma va psixogrammalardan bevosita foydalanish imkoniyati yo'qolib borayapti.

Pedagog faoliyatida, ayniksa talabalarni ham, jarayon ishtirokchisi, sub'ekti deb qaralayotgan hozirgi davrda nostandart sharoitlar ko'plab sodir bo'ladi. Nostandart muammolardan muvaffaqiyatli chikib ketishi uchun o'qituvchi shaxsida ijobiy xislatlar yuakllangan bo'lishi kerak. Faqat o'qituvchi o'zinnng o'qitish, tarbiyalash uslubini yaratgandagina xususiy hol-lardan kechib har qanday sharoitda xam muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsata oladi.

Boshqacha qilib aytganda mutaxassis universitetda olgan bilimlarini bevosita qo'llashi uchun ta'lim-tarbiya jarayonini shaxsni shakllantirishga to'la yo'naltirmog'i lozim. O'quv jarayonida darsdan, maktabdan tashqari ish amaliyotida bunday jarayonlar bir necha o'nlab topiladi. Lekin bu jarayonlarni tashkil-qilish uchun darsliklarda keltirilgai yuzlab ko'-nikmalar o'rniga bir necha umumlashgan ko'nikmalar shakllangan bo'lishi etarlidir. Bunday umumlashgan ko'nikmalar sirasiga shaxsning va jamoaning shakllanganlik darajasini aniqlash ko'nikmasi; o'quvchilar jamoasini jamoa oldida turgan vazifalarni echishga yo'llash, faoliyatga tayyor turish hissasini rivojlantirish; oldiga qo'yilgan maqsadni amalga oshnrish uchun kerakli vositalarni tanlash va qo'llay olshi ko'nikmasi; o'quv tarbiya jarayoni natijasini, xulosasini o'lchash, baholash ko'nikmasi, olingan natijalarni qo'yilgan maqsadlar bilan solishtirish va orada farq hosil bo'lgan bo'lsa, ya'ni qo'yilgan maqsadning hammasiga erishilgan bo'linsa bunday xolni tushuntira bilish ko'nikmalari kiradi. YUkorida keltirilgan umumlashgan ko'nikmalarning har biri ayrim olingan sharoitlarda uchraidigan o'nlab boshqa ko'inkmalarni o'z ichiga oladi.

Mana shunday umumiylikdan uiversitetda mutaxassis tayyorlashning amaliyotiga o'tishda bir muncha nomutanosibliklar yuzaga chikadi. Ko'pincha bo'lg'usi pedagoglarning professional bilimlarini shakllantirish birinchi o'ringa ko'yilib shaxsini shakllantirish ikkinchi navbatga suriladi. Mutaxassis dunyoqarashini fakat ijtimoiy fanlar shakllantiradi, maxsus fanlar mutaxassisni bilim, iktidor va ko'nikmalar bilan kurollantiradi, psixologo-pedagogik turkum esa ularni o'quv yurtlarida tarbiyaviy ishlarga tayyorlaydi degan chegaralangan tushuncha xali ko'pchilikda mavjud.

Hozirda O'zbekiston respublikasida ko'p pog'onali mutaxassis tayyorlash spstsmasiga o'tish muiosabati bilan an'anaviy ta'lim mezoilari bilan birga mutaxassslarni umuminsoniy kadriyatlarga asoslangan shaxsiy xislatlarini rivojlantirish, pedagoglik kasbiga qiziqish, tinmay izlanish, o'quvchilar psixik olamiga yanada chuqurroq kirib borishi hissini uyg'otish dolzarb masalalardan, echimini kutayotgan muammolardan hisoblanadi.

Pedagogik ta'limning xozirgi qonuniyati va talablari uzluksiz ta'lim tizimiga o'tish, pedagoglik mehnatinng tobora murakkablashishi, maktab- internatlar, fanlar bo'yicha chuqurlashtirilgan sinflar, maktablar, gimnaziyalar, kollejlar, litseylarning ommaviy tus olishi, programmalashgan, kompyuterlashgan ilg'or uslublarning keng qo'llanishi bilan bog'lik. Bu esa o'z navbatida pedagog kadrlarni yanada yukori standartlarga javob beradigan qilib tayyorlash vazifasini ilgari suradi.

Pedagogik ta'lim sistemasiniig kelajagi universitet ta'limi prognostik modelini tuzish bilan bog'lik. Prognostik model universitet ta'limni yanada fundamentalashtirish, gumanizatsiyalash va gumanitar-lashtirish bilan aloqadordir. Fundamental bilimlar tez eskirmaydi, sekin o'zgaradi, yuqori ilmiy umumlashtirish bilan xarakterlanadi, keng sohalarga o'tish xususiyatiga ega, qayishqoqligi, safarbarligi, ilm va ma'rifat yuksalishiga tez moslashunchanligi bilan ajralib turadi.

Bosqichli oliy ta'lim tizimida pedagogik ta'lim sistemasining quyidagi strukturasi mo'ljallaishni maksadga muvofik:

I. bosqich. Bakalavr (o'kitish muddati 4 yil).

1. Pedagogika kursi 40 soat lektsiya, 20 soat praktik mashg'ulot.

2. Fanlar o'qitish metodikasi 90 soat lektsiya, 60 soat laboratoriya amaliyot darsi.

3. Maxsus kurs, maxsus seminarlar:

a) Nutq madaniyati va notiqlik san'atn

b) yoshlar fiziologiyasi va maktab gigienasi

v) etnopedagogika

g) psixologo-pedagogik diagnostik metodikasi

d) artistlik san'ati asoslari

e) muloqot pedagogikasi va texnikasi

j) maktabda kasb tanlashga yo'llash

z) o'quvchilarni iqtisodiy tarbiyalash metodikasi

i) ijtimoiy fikrlar sosiologiyasi.

II bosqich. Magistr (o'qish muddati 2 yil)

1. Oliy ta'lim pedagogikasi 20 soat lektsiya, 20 soat laboratoriya amaliy mashg'uloti.

2- Pedagogik psixologiya 20 soat lektsiya, 10 soat laboratoriya amaliy mashg'uloti.

3. Pedagogika tarixi 20 soat lektsiya, 10 soat laboratoriya amaliy Mashg'uloti.

4. Maxsus kurs, maxsus seminarlar:

a) pedagogik texnologiya

b) madaniy hordiq chiqarish metodikasi va pedagogikasi

v) sotsial tarbiya metodikasi

g) patopsixologiya va defektologiya asoslari.

5. Kurs ishi.

6. Oliy o'quv yurtlari, litsey, kolledjlarda pedagogik praktika.

7. Pedagogika, psixologiya, fanlar o'qitish metodikasidan sintetik diplom ishlashlari.

Xulosa qilib aytganda, tarbiya sohasi bo'yicha mutaxassis xodimlarni tayyorlashda ta'lim-tarbiyaning yuqorida zikr qilingan kontseptsion tamoyillari mutaxassis xodimlarni tayyorlashda nazariy hamda amaliy muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirda professional o'qishga nisbatan talab oshib bormoqda. Ushbu talablar doirasiga nafaqat o'z ishini bajarib qolmaslik, balki kamchiliklarni tuzatish va o'z professional faoliyatini boshqarish ham kiradi. Masalan, xorij tajribasiga e'tibor

bersak, Ural Davlat professional pedagogika universiteti (UDPPU) ishchilar malakasini yanada oshirish uchun quyidagilarni taklif qildilar:

YUqori malakali ishchilar shunday tayyorgarlikka ega bo'lishlari lozimki, kasbiy tayyorgarlik yakunida ular professional ishchi hamda usta bo'la oladilar. Ular yana madaniyatli ham bo'lishlari kerak. Bunaqa bilimni beradigan o'quv yurti yangi tipdagi-Ishchilar ta'lim instituti (ITI) deb yuritiladi.

ITI o'zida quyidagilarni jamlagan: ko'p funktsiyali, tizimli, ko'p darajali ta'lim hamda maxsus professional faoliyat.

O'z sohasining etuk mutaxassisi bo'lgan ishchilar ish rejasini tuza olishlari kerak.

ITIda tor soha ishchisidan tortib ish ustasi darajasigacha bo'lgan ishchilar tayyorlanadi. Bular mahsulot tayyorlashdan iashqari ishlab-chiqarish faoliyatini ham tashkil etadi va bu mahsulotlarning bozorga olib chiqilishiga ko'maklashadi.

Shunday qilib, yuqori bilimli ishchining maqsadi quyidagilardan iborat:

- korxonalarda natijali mehnat faoliyatini tashkillashtirish;
- texnik, texnologik, ijtimoiy va iqtisodiy mahsulotlar haqida axborot olish;
- zarur bo'lganda mahsulotni sifatli ishlab chiqara olish.

UDPPU da yuqori bilimli ishchilar tayyorlash maqsadida maxsus reja ishlab chiqilgan. Ushbu rejada:

- bosqichli reyting tizimi asosida o'zlashtirishni tashkil qilish;
- umumiy faoliyatga professional darajada yo'llash;
- integrativ ta'lim;
- professional ta'limning ko'p qirraliligini tushuntirish;
- ta'limning individurlligi (reyting tizimidagi tartibning ixtiyoriy tanlanishi);
- ta'lim oluvchilarni professional ixtisoslikni tanlashga o'rgatish.

ITIda 2 ta daraja bor.

I - daraja: 3 yil muddat davom etadi.

daraja: 4 yil muddat davom etadi.

I - darajani tugatganlar III-IV razryadli slesar bo'lishadi. II - darajani tugatganlar esa yuqori darajali ishchilar bo'ladi.

ITIning tugatganlarga elektromexanika sohasi bakalavri va yuqori malakali ishchi ixtisosligi diplomi beriladi. Ular murakkab ishlarni qimmatbaho materiallar yordamida ham bajara olishadi. Ular xalq - xo'jaligining turli sohalari o'z mutaxassisligi bo'yicha ishlashadi. Ular amaliy ishlarni yuqori darajali ishchilardek ishonchli bajarishadi.

ITIda talaba keyingi faoliyat jarayonini to'liq o'rganib oladi. ITIning tamomlash o'rganish faoliyati tugadi degan emas. Bu erda faqat faoliyatning rivojlanishiga turiki beriladi. ITIning har bir kursi o'xiga xos bo'ladi. ITIda talablar reyting tizimida o'qitiladi. Bitiruvchining mehnat malakasi bilan shaxsiy xususiyatlari rivoji uyg'unlashib borishi kerak. O'qishni bitirish shaxsning rivojlanishiga bog'liq:

1-daraja - shaxsiy tayyorgarlik ijtimoiy professional faoliyatni tanlash.

2-daraja - ijtimoiy professional faoliyatda shaxsiy, bazaviy tayyorgarlikka ega bo'lish.

3-daraja - shaxsning professional tayyorgarlik darajasi.

Qar bir darajadagi ta'lim tizimli ravishda maxsus darajada tashkil etiladi.

1-daraja - dunyo haqidagi bilimlar, ularning rivojlanish qonuniyatlarini o'rganiladi.

2-daraja - talaba ish faoliyatining amaliy ko'nikmalari o'rganiladi. Bu to'liq malakaviy faoliyatni taminlaydi.

3-daraja - ish faoliyatida tajriba orttiriladi. Buning uchun maxsus o'ikllar kiritiladi. Malakaviy faoliyatda nazariy va amaliy ko'nikmalar shakllantiriladi.

## **2. Kichik mutaxassislarni ishlab chiqarishga moslashtirishning kasbiy psixologik omillari**

Oxirigi yillarda turli xil stanoklarda ishlay oluvchi, uni tamirlay oluvchi, mahsulot sifatini yuqori qilish uchun lozim asboblarni orasidan qulayini tanlay olib ishlatadigan ishchilarga talab ortib bormoqda. Ushbu ishchilar mehnat qilish jarayonlari va ko'p imkoniyatdan qulayini tanlay olishi kerak.

Bunday ishchilar, ya'ni, tamirlovchilar eski tushuncha bo'yicha oliy bajaruvchi emas.

Ushbu ishchilar bajaruvchanlik bilan bir qatorda yangi texnologiyaning rivojlanishi va ishlab-chiqarishni boshqarishda muhim rol o'ynaydi.

Ularga qulay vaziyatlarni topish jarayonida quyidagi talablar qo'yiladi:

- pnevmatika, dinamika, elektrotexnikani, fizikani hech bo'lmaganda o'rta maktab ta'lim oluvchisi darajasida bilishlari kerak;

- yaxshi texnologik tayyorgarlikka ega bo'lishlari kerak;

- metall va nometall materiallarning nomlanishi va xususiyatlarini bilishlari kerak;

- kesuvchi asboblarning zo'riqlashiga chidamliligini bilishlari kerak;

- avtomatik liniyada ishlovchi har xil tipdagi stanoklarda ishlagani uchun ularning ishga tayyorgarligi hamda ularning rejalashtirilganligini bilishlari kerak. Ular shunday holatlarga tushadilarki, oqibatda turli xil nosozliklarni echishga to'g'ri keladi. Shuning uchun ular yuqori malakali bo'lishlari kerak;

- jamoa uchun sharoit yaratib berish, tamirlash ishini qisqa vaqtda tugallashlari kerak;

- ular ijtimoiy-iqtisodiy bilimlarga ega bo'lishlari kerak;

- brigadaning ish rejasini tuza olishlari kerak;

- ular jamoa bilan yaxshi muomalada bo'lishlari, ya'ni tillasha olishlari kerak;

- ular qanday o'zgarishlarga tayyor turishlari va boshqa brigadaga o'tib ishlash lozim bo'lganda ishlab keta olishlari shart;

- ishchilarning bajaruvchanlik funktsiyasi kamayib, aqliy mehnati ulushlari ortishi kerak;

- ishchilar mehnatida aqliy mehnat va fizik funktsiyaning organik birikmasi, ya'ni, hisoblash, to'g'rilash, analitik va nazorat funktsiyalarini bajaruvchi, texnik jarayonni o'lchovchi va tekshiruvchi, avtomatlashtiruvchi asboblarni yordamida boshqara olishlari lozim;

- yuqori malakali va keng tarmoqli ishchilar funktsiyalarining qo'llay olishlari kerak;

- madaniyat, texnika va fanning rivojlanishida mehnat umumdorligining oshishi;

- umumiy faoliyati va ishlab-chiqarish holatlariga moslashuvchanlik;

- o'rganish jarayonida tizimli ravishda malakasini oshirish evaziga keyingi ish faoliyati malakasining oshishini taminlab berish.

YUqori malakali ishchilar zamonaviy ishlab-chiqarishda muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa ularning ratsionalizatorlik va ijodkorlik xususiyatlari asqotadi. Bunday ishchilarning paydo bo'lishi shundan darak beradiki, insonning ishlab-chiqarish va texnik jarayondagi rivojlanishi, bilimlarining kengayishi, chuqurlashishi va malakasining oshib borishini taqozo etadi.

Keng qamrovli va yuqori malakali ishchilarni boshqarishda avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimi nomli yangi mehnat turi paydo bo'ldi. Ularning mehnatida bir qancha umumiyliklar bor. Turli rusumdagi mashinalarni tamirlash, boshqaruvni olib borish, jarayonlarni boshqarish.

Keng qamrovli ishchi o'z faoliyatida bir qancha kasblarni qamrab oladi, zarur bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'ladi.

Bu aralash texnologik uchastkalarda ishlab chiqarish funktsiyalarini amalga oshirishda qo'l keladi. U ishlab-chiqarish sohasidagi bilimlar bilan qurollangan bo'lib, ishlab-chiqarishning o'zgarib turadigan shartlariga tez ko'nikib keta oladi.

Keng tarmoqli ishchilarning 4 ta ko'rinishi mavjud. Bu ko'rinishlarni aniq misollarda ko'rib chiqamiz.

Keng qamrovli ishchi (1-ko'rinish), masalan: «quruvchi-montajchi» o'z faoliyatida suvoqchi, betonchi, duradgor, elektr payvandchi, tosh yo'nuvchi, po'lat va temirbetonli materiallarni montaj qiluvchi, montajchi kabi kasblarni o'zlashtiradi. Zarur sharoitlarda ushbu guruxga kiruvchi ishchilarni bir asosiy yo'nalishga asoslanib tayyorlash mumkin. Boshqa misol: ishchi-shtamplovchi, ilgari mavjud bo'lgan yakka tartibdagi kalibrlovchi-shtamplovchi, sovuqlayin shtamplovchi, ekso'entrik presslash-shtamplovchi, grafiklovchi va h.o. kabi mutaxassisliklarni qamrab olgan. Keng qamrovli ishchi (2-turi) o'z ishi bilan birga boshqa soha ko'nikma va malakalarga ega bo'ladi, uni o'z mehnat jarayonida qo'llaydi.

Bu turdagi ishchi boshqa kasblarning faqat bir qisminigina bajaradi. Unga ishlab-chiqarishning keng ko'lamli, amalga oshirilayotgan ishlarning xilma-xilligi, ularning qishloq xo'jaligining u yoki bu sohalarida tarqalganligi kabilar xarakterlidir.

To'liq holdagi ishchi ishning barchasini bajaradi. Bu kabi ishchilarni biz 3-turga kiritishimiz mumkin. Ular 3 ta mutaxassislikka ega bo'lib, shu sohada olgan bilimlarini o'z kasbida qo'llaydi. Ishchilarni bu tarzda tayyorlash stanoklarning to'xtab qolmasligi, ularning to'xtovsiz ishlashi va qo'shimcha ishchi kuchidan foydalanish zaruratini qoldirmaslik uchun asqotadi.

Bir vaqtda va bir ish o'rnida 2 ta mutaxassislikda ishlovchilarni 4 turga biriktirishimiz mumkin.

Mutaxassisliklar chegarasining kengayib borishi hisobiga xalq-xo'jaligida ularning soni kamayib bormoqda. Eskirgan mutaxassisliklar yo'qolib, yangi mutaxassisliklar xalq xo'jaligining barcha sohalarida o'z o'rnini topmoqda. Keng

tarmoqli malakali ishchi - bu past malakali ishchi degani emas. YUqori malakali ishchi keng sohada ish bajaradi va malum nomenklaturada ishlaydi. Turli sohaja malakaning yuqoriligi har xil. Bulardan kelib chiqadiki, hozirgi zamonaviy mahsulot ishlab-chiqarishdagi mehnat predmetlarida ilgari universallik bo'lgan bo'lsa bunda ishchining keng soha mutaxassisi ekanligi tushuniladi. Hozirda universal ishlash ko'proq mashinalarga xosligi uchun bu tushuncha mazmuni o'zgaradi. Keng tarmoqli ishchi mehnati bilan yuqori malakali ishchi mehnati bir-biridan farq qiladi.

Uzoq vaqt bir xil mahsulot chiqaradigan korxonada ishchilar malakasi bir daraja past bo'ladi. turli malakali ishchilarni ishlatish qo'llanayotgan texnik jarayonga bog'liq.

Ishlab-chiqarishda ishchilar malakasini oshirish uchun quyidagilarga e'tibor berish kerak: tayyorlovchi tsexlarda ko'proq metall xususiyatlarini o'rganish, mexanik tsexlarda ishlov berish metodlari teruvchi tsexlarda tayyor mahsulot ishlab-chiqarish bilimlariga amal qilish talab qilinadi.

Keng ko'lamli ishchining professionalligi nima bilan belgilanadi?

Keng ko'lamli ishchining professionalligi shu bilan belgilanadiki, u yangi joyga va yangi sharoitga tez ko'nikadi. Bunday hollarda qayta qurish va to'g'rilash ko'nikmalari hosil bo'ladi. Amaliy ko'nikmalar o'zidan-o'zi o'zgarmaydi, bular ishlab-chiqarish sharoitlari o'zgarishi, mehnat jarayonlari tuzilmalari va uning miqdori bilan o'zgaradi.

Professionallikning yuqori bosqichlarga ko'tarilishi ishchilarning ko'plab funtsiyalarni bajarishi boshqa kompleks mehnat bilimlari hamda ish faoliyatining kengayishi asosida yuzaga keladi. Professional ishchi o'zi ishlab chiqargan mahsulot sifatini tahlil qila oladi. Bu jarayondagi asosiy holat, bu nazariy bilimlarni bilish emas, balki ularni amaliyotda qo'llay olishdir. Professional igchi o'zi ishlab chiqargan mahsulot sifatini tahlil etish bilan birga metallarga yuqori darajada ishlov beradi. U har qanday stanokda ishlay va ularni tamirlay oladi. U berilagan vazifani qimmat metallarda ham 1-2-darajali aniqlik bilan bajara oladi. Uning amaliy bilimlari va ko'nikmalari ishlab-chiqarish texnologiyasi jarayonlarini qamrab oladi. Bunday ishchilar texnika rivojlanishidagi o'zgarishlarga tayyor turadilar.

Integratsiya jarayoni texnik jarayonda yangi texnikani boshqara oladigan ishchilarni talab qiladi. YUqori malakali ishchilar-yuqori umumiy texnik bilim va tajribaga ega bo'lgan hamda yangi bilimlarni ishlab-chiqarishda o'zining amaliy faoliyatida qo'llay oladigan ishchidir.

YUqori malakali ishchi turli qiyin mehnat turi faoliyatlarini bajara oladi. Unda yakka faoliyat rivojlangan bo'ladi. Bu ishchi ko'p texnik tayyorgarlik va malakaga ega. O'z ishida faol, ijodiy ish qila oladi. Uning nazariy bilimlari etarlidir. Bu ishchi masuliyatni his qila oladi. YUqori malakali ishchining mehnati shu bilan belgilanadiki, u ko'p tomonlama ko'nikma va malakalarga ega. U bir ishdan boshqa ishga tez o'ta oladi.

### **3. Kichik mutaxassislarni ishlab chiqarishga moslashtirishning psixologik ziddiyatlarini bartaraf etish omillari**

Keng tarmoqli va yuqori malakali ishchilar malakasini tekshirishda ishchi ixtisosligi tahlil qilinadi. Komissiya tuziladi. Komissiya azolari o'qituvchi va vrachlardan iborat bo'ladi.

Reja tuziladi:

Mehnat turi va miqdorini aniqlash;

Texnik-tashkiliy sharoitlar;

- Qanday mahsulot ishlab chiqiladi?
- Qanday yordamchi materiallar ishlatiladi?
- Qanday mehnat turlari (asboblari, xususiyatli belgilar)dan foydalaniladi?
- Qanday o'lchamli va rostlash asboblari foydalaniladi?
- Qanday tekshirish asboblari qo'llaniladi?
- Qanday ish metodlari qo'llaniladi?
- Ishlab chiqarish qanday tashkillashtiriladi?

Ishchilar bajaradigan ishlar:

- Ishchilar qanday harakatlarni qiladilar?
- ushbu harakatlarning davomiyligi va ishlab-chiqarishdagi ahamiyati.

Kvalifikatsiya:

Ishchi qanday bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi texnik, iqtisodiy va tashkiliy ishlarni bajarishi kerak?

Maxsus tajriba:

Qaysi sohalarida ishchilar maxsus tajribalarga ega bo'lishi kerak va ular nima bilan tavsiflanadi?

Bu bilimlarni olish uchun qanday imkoniyatlar bor?

Javobgarlik.

Maxsus texnik talablar.

Maxsus jismoniy-texnik talablar.

Tashkiliy tayyorlashga nisbatan bildirilgan taklif.

Ilmiy-texnik taraqqiyotga etib borish:

- mexanizatsiya va avtomatizatsiyalanishni oshirish, mehnat vositalarini o'zgartirish;

- materialning sifatini o'zgartirish;
- mehnat metodining o'zgarishi;
- mehnat, ishlab-chiqarishni tashkillashtirish mohiyatini o'zgartirish;

Bu tahlillar sharoitni hisobga olgan holda bajarilishi kerak. Ishchilarni o'qitish uchun tashkilot etarli darajadagi o'quv materialiga ega bo'lishi kerak. Tahlilning natijasi ishchilar tarkibiga bog'liq va ushbu tarkib korxona rivojlanishiga tahsir qiladi. YUqori malakali ilmiy-texnik rivojlanishga olib keladi. Mehnatning sifati - uning mexanizatsiyalashgan va avtomatlashtirilganligi va yuqori malakali ishchilar bilan taminlanganligi bilan belgilanadi. Shu bilan bir qatorda ishchining malum bir sohadagi aniq faoliyatini belgilab beradi. Malum sohadagi ishchilarning muayyan ish quroli bilan ishlashi sifatli boshqarishni belgilab beradi. Ishchilar ish joyini tahlil qilishga quyidagilar kiradi:

ish joyi miqdori;

tsexdagi smena almashinuvi;

tsexning ishlab-chiqarish turi;

ish joyining jihozlanganligi;

mexanizatsiyalashtirilganlik darajasi;

texnik-xavfsizlik xolati;  
 ish joyini o'rganishning davomiyligi;  
 uskuna xolati;  
 ishlab-chiqarish jarayonidagi nazariy bilimni amaliy faoliyatda qo'llash imkoniyati;  
 ishlab-chiqarish vaqtining rejasi;  
 yangi ish usullari;  
 ishchilarning ish bilan zo'riqish darajasi;  
 mehnat sharoiti (muskullarni ishlatish, charchash);  
 ish joyining sanitar -gigiena xolati;  
 tarbiyaviy ish sharoiti;  
 ish joyini tahlil qilishda band bo'lish darajasi;  
 operatsiyalarni bajarishga ketgan vaqt, tekshirishga ketgan vaqt, ishdan-ishga o'tishga ketgan vaqt, tanishish uchun ketgan vaqt, ish bajarish tezligi va x.  
 Ish joyini tahlil qilish har bir ish joyida shart-sharoitlarni hisobga olgan holda olib borilishi kerak. Malakali ishchilar tayyorlash 3 guruhda tashkil etiladi: 1. YUqori. 2.O'rta. 3. Past.

-Jadval

### **Ish joyining taminlanishi va tashkil etilishi**

|                                                 |                                                                                                                                                                                                                                                     |
|-------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Mehnatning mo'tadil xolati                      | -ish joyi meyor;<br>-miqdor va mehnat sig'imi;<br>-texnik asoslangan meyor miqdori;<br>-hisoblangan meyor miqdori va uning rivojlanishi;<br>-ish meyorining bajarilishi;<br>-mehnatga haq to'lashning joriy etilgan meyor samaradorligini oshirish; |
| Ish joyini loyihalash va tashkil etish          | -iqtisodiy va operativ loyihaning xolati;<br>-moddiy texnik taminlanganlik xolati;<br>-ish joyida sifatli mahsulot ishlab chiqarishni nazorat qilishni tashkil etish;<br>- ish joyiga taaluqli bo'lmagan zo'riqish darajasi;                        |
| Asbob va uskunalar bilan jihozlash              | -mashina ish vaqtini ko'rsatuvchi jihoz;<br>-ish vaqtida tartibni joriy qilish;<br>-jihozning texnologik afzalliklarini joriy qilish;<br>-ish joyining jihozlanganligi;<br>-asboblarni qo'llash;                                                    |
| Ish joyi va mehnat shariotlarini rejalashtirish | -ish joyini rejalashtirish;<br>-ishchilar ish sharoiti;<br>-muskul energiyasini sarflash;<br>-charchash.                                                                                                                                            |
| Texnik jarayon                                  | -texnik jarayonlarning rivojlanishi;<br>-mexanizatsiyalashgan texnik jarayon darajasi;<br>-uzviylikni taminlash.                                                                                                                                    |

|                                          |                                                                                                                            |
|------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Mehnatni tashkil etish va uning usullari | -joriy etilgan mehnat tartibi;<br>-mehnatni umumiyashtirish yoki ajratish;<br>-puxta o'ylangan harakat.                    |
| Ishchilarning ijodiy yondoshuvi          | -ishchi malakasi;<br>-musobaqada ishtirok etish;<br>-ratsionalizatsiyada qatnashishi;<br>-tajriba almashishda qatnashishi. |

Fan-texnika taraqqiyoti davrida ishchilarning mehnat qilish sharoiti o'zgaradi, chunki ishlab-chiqarish jarayonida ishchining bajaradigan faoliyati, dunyoqarashi, o'zni o'zgaradi. Ushbu o'zgarishlar ishlab-chiqarish bosqichlarining rivojlanishi yangi mayllarning o'sishiga olib keladi. Ishchi ushbu rivojlanishdan foydalangan holda yangicha ishlashni hohlaydi. Ishchilarda yuzaga kelayotgan o'zgarishlarning kuchayishida ishlab-chiqarish omillari kuchli rol o'ynaydi. Buning asosida jismoniy mehnat, ya'ni insonning bajaruvchilik funktsiyasi yotadi.

Mehnatdagi asosiy o'zgarish, avvalambor, insonlarning jipsligidan kelib chiqadi. Malumki, ishlab-chiqarish jarayonida inson asosan 4 ta asosiy funktsiyani bajaradi:

- ishchi o'z jismoniy harakati bilan aylantiruvchi va harakatlantiruvchi harakatlar hosil qilish uchun mehnat qurollarini ishlatadi;
- mehnat qurollarini boshqaradi va ularga ta'sir ko'rsatadi;
- ularni to'g'rilaydi va tamirlaydi;
- ularni loyihalashtiradi va ishlab-chiqarish jarayoniga tatbiq qiladi.

Mehnatni boshqarishda zamonaviy ishchiga 1- va 2-funktsiyalar doirasidagi ko'rsatkichlar ahamiyatli bo'lishi bilan bir qatorda mehnatning mazmuni va ijodiyligini oshirishda 3-4-funktsiyalar ham muhimdir.

Mashinasozlikda asosiy o'rinni kompleksli mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirilgan ishlab-chiqarish egallaydi.

Tarixga nazar solib ko'rsak, mashinasozlikda yuqori malakali ish darajasi oshib bormoqda. Masalan: 30-yillarda slesar tamirlovchi 9-10 ta stanokda ishlay olgan, hozirda esa 25-30 ta stanokda bema'lol ishlay oladi va 100 dan ortiq metall va nometall materiallardan foydalanadi. Bundan tashqari u payvandlashni ham bilishi kerak. Tokarlik ishi yillar o'tgan sari sezilarli darajada o'zgaradi. 30-yillarda 3-razryadli tokar oddiy ishlarni master qo'l ostida qilardi. 40-yillarda esa stanokning asosiy qismlarini, ya'ni zo'riqish bo'lganda sinadigan joylarni, oddiy qirquvchi va o'lchov asboblarni sovitish va moylash, moylash suyuqligini ishlatishni ham bilishi kerak bo'lgan. Yana tokar stanok markalarini va nuqsonli mahsulotni aniqlay olishi ham kerak.

60-yillarda esa tokar keng tarqalgan va universal stanoklar tuzilishini, oddiy va qirquvchi asboblarni qo'llashni ko'rsatma berishni, material o'lchovlari va yuza tozaligini bilishi talab etilar edi.

70-yillarda tokar stanokning tuzilishi, ishga yaroqliligi hamda stanoklarni boshqarish qoidalarini tekshiruvchi o'lchov asboblardan foydalanish qoidalarini bilishi kerak bo'lgan.

80-yillarda esa 3 - razryadli tokar stanokda ishlash bilan birga elektronika ishlarini ham bajara olishi talab qilingan.

90-yillarda texnikaning rivojlanishi yangi tipdagi stanok ishchilarini shakllantirdi. Keng tarmoqli universal ishchilar vujudga keldi. Hozirda bu ishchilar 14 ta ixtisosliklarni egallagan. Bu ixtisosliklardan tokarlik avtomatlarini sozlovchilar, yarim avtomat va avtomatlashtirilgan stanoklarni sozlovchi hamda boshqalar. Ishchi sozlovchilarning bu guruhi elektrotexnik bilimga ham egadirlar.

O'ra metallurgiya sohasida hozirda 58,3% ishchilar aqliy ish funksiyalarini bajarish imkoniyatiga ega.

Ko'mir sanoatining texnik mukammallashgan mexanizatsiyalashishida ishchilarning o'rni katta. Og'ir ishlarni mashinalar bajarayapti. O'urilish sohasida ham og'ir ishlar kamaydi, mexanizatsiya ishlari kuchaydi. Bugungi kunda qurilish sohasida 20 ta quruvchilar o'rnida 7 ta quruvchi ishlamoqda.

O'ishloq xo'jaligida yuqori malakali ishchilar shakllanmoqda. Masalan, 20-yillarda traktorlar paydo bo'lgan. O'shanda ularning soni 600 ta edi. Traktorni tamirlovchi mexaniklar paydo bo'ldi. 30-40-50-yillarda kombaynlar, kartoshka teruvchilar shakllandi. 50-yillarda mashinachi-traktorlar paydo bo'ldi. Hozirda jismoniy ish kamayib aqliy faoliyat o'sib bormoqda. Bu ishchilardan keng ko'lamda puxta bilimlarni o'zlashtirishda talab qilmoqda.

## **12-MAVZU: TA'LIM VA ISHLAB CHIQRISH O'RTASIDAGI ALOQALARNI AMALGA OSHIRISH JARAYONLARI.**

1. Korxonalarni yangi xo'jalik yuritishga o'tishi, faoliyat turlari kengayishi va o'zgarishi, o'rta va kichik biznesni rivojlanishi va jamiyatning yuqori malakali mutaxassislarni tayyyorlash ijtimoiy buyurtmasini bajarish.
2. Ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar sharoitida kasbiy ta'lim tizimini isloh qilish. Kichik mutaxassislarga (kollej bitiruvchilariga) qo'yiladigan talablar.
3. "Ijtimoiy hamkorlik" tushunchasi. Ijtimoiy hamkorlar bilan faoliyat yuritishda ta'lim muassasalarining mustaqilligini oshirish. Korxona va ta'lim muassasalarining yangi turdagi hamkorlik shakllari: ijtimoiy hamkorlar bilan ikki yoqlama, uch yoqlama shartnomalar.

### **1. Korxonalarni yangi xo'jalik yuritishga o'tishi, faoliyat turlari kengayishi va o'zgarishi, o'rta va kichik biznesni rivojlanishi va jamiyatning yuqori malakali mutaxassislarni tayyyorlash ijtimoiy buyurtmasini bajarish.**

Quntlilik, tirishqoqlik, serhafsallik-kasb egallash, mohir mutaxassis bo'lish uchun juda zarur xislat. Faoliyat hafsala bilan bajarilsa, mutaxassis quntli bo'lsagina mehnat unumdorligining yuqori cho'qqilariga erishish mumkin. YAponiya umumta'lim maktablarida maxsus qunt darslari kiritilgan. O'quvchilar uzok vaqt davomida juda mayda qo'l mexnati bilan shug'ullanishib o'zlarida hafsallik, quntlilik malakalarini shakllantirishadi.

Javobgarlik, mas'uliyatlilik-so'z bergandan keyin bajarishlik, ishga, o'qishga mas'uliyat xissi bilan yondoshish hissi.

Halollik, poklik - tadbirkorlik ishlarida halollik, poklik asosiy xislatlardan bo'lib, bo'lg'usi tadbirning muvaffaqiyatli yakuniga ko'p jihatdan bogliq. Sharq

biznesmenlarining xulosalariga qaraganda har bir yangi tadbir boshlanishi oldidan tadbirkor o'zi poklanib, xalol ish yuritsa bu tadbirning albatta ijobiy bo'lishi ta'minlangan bo'ladi.

Urinchoqlik, serharakatlilik, tirishqoklik - tadbirni amalga oshirishda birgina halollikning o'zi etarli emas. Buning uchun shaxsning tirishib, urilib harakat qilishi, doimo izlanishda bo'lishi lozim bo'ladi.

Musobaqaviylik, raqobatlilik, muqobilik - hozirgi bozor munosabatlariga o'tishda raqobatlilik, bir ishni tezroq, oldinroq bajarishga shoshilish muvaffaqiyat keltiradi. Musobaqaviylik o'quv jarayonida ham o'quv jarayonini aktivlashtirish omili hisoblanadi. Farq talabalarini rag'batlantirish, yuqori, tez o'zlashtiruvchilarni estirnat dasturlariga ugkazish astoydillikni ta'minlaydi.

Ijro etuvchanlik, ishchanlik, bajaruvchanlik ishlab chikarish ishini, o'quv ishini vaktida bajarish shaxsni itizomlilikka, tartibga o'rgatadi, xogirani mustahkamlaydi, turli salbiy oqibatlarining oldi olinadi.

Zo'r beruvchanlik, kuchanuvchanlik - xar bir tartibda shunday damlar uchraydiki xarakat qilinib urinish etarli bo'lmay qoladi. Xamma fikrni, kuchni ishlatib zo'r berishga to'g'ri keladi.

Malakalilik, saloxiyatlilik - malakalilik fakat bilimlar bilan o'lchanmaydi. Malakalilik orttirilgan bilimlarni ko'nikmalarga, malakaga aylantirilsagina mutaxassis yuqori malakali hisoblanadi, mexnati yuqori baholanadi, maxsulotiin dinmo ijodiy yangiliklar bilan boyptib boradi.

Sifatlilik, yuqori navlilik - maxsulotni, tayyorlangan mutaxassislarning yuqori sifatlilik bozor iktisodiyoti sharoitida xamma taaqalarda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ishni do'ndirshlilik, ishni o'rniga qo'yuvchanlik, ishni o'rinlatmoqlik - shaxsning ko'p yillik qunt bilan olib borgan harakatlari natijasida topshirilgan ishni tez, unumli bajarish ko'nikmasini egallashi.

CHaqqonlik, abjirlmk, epchillik - shaxsning topshirilgan ishni ko'p mehnat, kuch sarflamasdan ustalik bilan bajarish ko'nikmasini egallashi.

Saranjom-sarishtalik, jo-bajo ish tutish, batartiblik - shaxsning kiyinishida, ish tutishda, muomalasida, odobida namoyon bo'ladigan batartiblik ko'nikmalari.

Ishshshg xavosini olganlik, ishning xadisini olganlik - shaxsning avtomat malakalarni shakllantprishi. Ko'p o'ylamay ishni malakali bajarish ko'nikmasi.

Ishga layoqatlilik, hormas-tolmaslik, imkonlilik- shaxsning uzoq muddat talab etilgan darajaga ishga layokatlilikini saqlab kola olishlilik ko'nikmasi. Layokatli xpxmatchi ish kunining boshida xam, oxirida ham bir xilda unumli, xam sifatli mexnat kila oladi.

Tashabbuskorlik, tadbirkorlik, ishbilarmonlik - shaxsning hali ochilmagan yo'ldan turli usullar, imkoniyatlar topib olg'a yura olishi, yangilikni, tashabbusni qo'lga olib atrofdagilarni shu ishga safarbar kila olish ko'nikmasi.

Aqlga, maqsadga muvofiqlik, ma'qullik, ixtirochilik - ratsional shaxs iish bajarps uchun ksrakli a'zolarinigina jalb qila olish ko'nikmasiga ega bo'ladi, kam mehnat qilib ko'p mahsulot oladi, kam kuch sarflab ko'p samara oladi.

CHidamlilik, sabr-toqatlilik, bardoshlik, tokatlilik, baquvvatlik - shaxsning uzoq vaqt katta kuchlanish talab qiladigan faoliyatda qatnasha olish ko'nikmasi.

Muntazamlilik, rejalilik - shaxshshg rejal ish tutish ko'nikmasi. Buyuk Napoleon «faoliyatda, xarakatlarda faqat oldindan rejalashtirilgan narsagagnia erishish mumkin, hech qanday tasodif natija bermaydi» degan.

Juda anqlik, o'z vaqtida bo'lishlik, puxtalik tadbirkorlikda ko'p narsa aniq vaqt bilan o'lchanadi, «vaqting ketdi naqding ketdi»-xalqimizda shunday naql bor.

Tejamkorlik, ehtiyotkorlik, mo''tadillik - shaxsning tejamli ish yuritishi, ishning kirimidan chikimini kam qilib yuritish, doimo zaxirada biron kism mulkni saqlashi, evida ish yuritish ko'nikmalari.

Hadisi sharifda, xar bir ishning salbiy tomonlarini hisobga olish ayni ehtiyotkorlikdir, deyiladi.

Sahiylik, ochiq qo'llik, hotamtoylik, jo'mardlik- tadbirkor shaxs sahiy ham bo'lishn, hotamtoylik ko'nikmalari sohibi bo'lishi kerak.

#### **IV. Shaxsning zakovatlilik, idroklilik, zukkolik xislatlari:**

Zehnllilik ziyraklik - shaxsniig tabiat xodisalari, qonunlariga, jamiyat iqtisodiy jarayonlariga old qonuniyatlarini umumlishtira olishi va undan kerakli joyda samarali foydalanish ko'nikmalari.

Xotiralilik - xotiralilik shaxsning eng asosiy psixik xislatlaridan biri. Faoliyatda ko'p narsa aynan xotiraga bog'liq. Fiziologlarning fikricha inson organizmining umr bo'yi xotirada saqlash mumkii bo'lgan imkoniyatlarining bir necha foizigina ishlatilar ekan. Demak, har bir insonning xotiraviy potentsial imkoniyati to'lig'icha ishlatilmaydi. Xotira, xotiraviylik o'qishni, ishni qay darajada rejalash tashkil qilishga, vaktida ishlab, vaktida dam olib, vaqtida ovqatlanshiga bog'liq jarayoni.

Mantikiylik, izchillik, teran fikrlilik-shaxsning hodisalar, qonuniyatlar orasidagi o'zak bog'laiishlar tizimini, mantiqini tuza olish ko'nikmasi. Har bir faoliyatda, xatti-harakatda, darsda o'kilgan lektsiyada, ayblovchi va oqlovchi nutqida mantiq bo'lishi kerak. Xalqimizda «Gapingning tuzi yo'q», degan nakl bor. Mantikiy ma'ruza, mantiqli darslik, maitiqiy ilmiy asar insoi tomonidan tez tushunpb anglanadi, uzoq vaqt xotirada saqlanadi. Birona teorsma, formula tez esdan chiqishi mumkin, lekin teorsmani isbotlash mantiqi, ketma-ketligi esdan chikmaydi.

Asoslilik, isbotlanganlik, muhrlanganlik - shaxsniig tayyorlayotgan axborotini nechoglik asosli kilib tayyorlash ko'nikmasi. Hozirda kaysi mamlakat xalqi, fan, texiika, texnologiya, tijorat, valyuta siyosati haqidagi axborotlarga ega bo'lsa shu mamlakat rpvojlangan mamlakatlar katorida bo'ladi. Shu jihatdan o'qytuvchining sinfga olib kirayotgan axboroti npxoyatda asosli bo'lishi lozim.

Oldindan aytib beruvchanlik, bashoratgo'ylik - xodisalarni, jarayonlariig yo'sinini oldindan prognozlash, oldindan aytib bsrish insoning eng noyob xnslatlarndan biri xisoblanadi.

Ma'lumki, lektspyaiing ikkita funkiiyasi bor: 1. Umumlashtirish funktsiyasi. 2. Oldnndan aytib berish prognostik funktsiyasi. Agar lektsiya shu ikki funktsiyani bajarmasa u oddiy suhbat darsi bo'lib koladi. Lek-tsnnyaning prognostik fuiktsiyasi deganda lektsiya ijtimoiy jarayon xaqida bo'lsa, biroi kit'ada, davlatda sotsial iqtisodiy rivojlanshining borishiga qarab rivojlanish yo'nalishi, me'yoriy oldindan aytib berish mumkin.

Aklning o'tkirligini iamoyoi kilmok - zakovatlilik, shaxsning biron-bir qarorga tezkorlik bilan kelish uchun aklning o'tkir bo'lishini, tez-tsiz «charxlanib» turishini t'miinlash ksrak.

Ijodkorlik, topag'onlik - shaxsning o'z faoliyati davomida, xanuzgacha echilmagai muammoni echish, pxtiro qilish ko'nikmasi. Ixtiro, ijod nazariy va amaliy failar orasida yotadigan tilsim. Bu tilsim politexnik bilim, iqtidor va ko'nikmalarga ega bo'lgan insonlargagina ochiladi. Ixtirochilik, ijodkorlik davlatning milliy boyligi hisoblanadi.

Tushunarlilik, ravshanlilik, lo'ndalik - nazariya qanchalik haqiqatga yaqin bo'lsa, shunchalik tushunilishi oson kechadi, ko'rinishi sodda bo'ladi. Mutaxassisga ish topshirilayotganida ham, talab qilinayotganida ham masala lo'nda, aniq va ravshan bo'lishi ta'minlanishni darkor.

Tanqidiylik- shaxs o'z faoliyatida ishga tankidiy munosabatda bo'lishi, o'z xatti-harakatlarni tankidiy nukta nazar bilan kuzatishi muhim xislatlardan xisoblanadi.

Xabardorlik, omilkorlik - shaxsning o'z mutaxassisligi bo'yicha to'liq ma'lumotga ega bo'lishi, o'z soxasining dunyoviy jarayonlardan tahlilga moslash, ulardan o'rganish ko'nikmalarini o'z ichiga oladi.

Savodxonlilik, bilimdonlilik - shaxsning tili, yozuvi nechog'lik to'g'ri, adabiy bo'lishi, ishlatgan iboralarini qisqa mantiqli, tushunarli qilib bayon etish ko'nikmasi.

Odatdan tashqari fikrlash - shaxs talantining mezoni, o'ziga xosligida, boshqalardan farqli o'larok yangicha fikrlash ko'nikmasi.

Hayratlilik, hayratmandlik - shaxs nozik jarayonlarni, faktlarni nihoyatda sinchkovlik bilan kuzata olishi, bu jarayonlardan hayratlanib yanada yangi natijalar olishga qiziqish ko'nikmalari.

Qiziquvchanlik, ishqibozlik - shaxsning tabiatan tabiatga, turli jarayonlarga, fanga, san'atga kiziquvchanligi. Psixologik ichki motivatsiya, shu jumladan ishqibozlik ko'pincha tashqi ta'sirdan ustun turadi.

Sinchkovlik, diqkatlilik - hozirgi axborotni, ayniqsa kompyuterlar yordamida asrash, pshlov berish davrida sinchkovlik xislati va aniq javob toppsh uchun juda ham qo'l keladi.

CHuqur bilimdonlilik, saviyalilik-saviyalilpk faqat bilimdonliggina emas, balki har tomonlamalilik hozirjavoblilik mezoni.

O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligiga erishib, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning o'ziga xos yo'lini tanlashi kadrlar tayyorlash tuzilmasi va mazmunini qayta tashkil etishni dolzarb vazifa qilib qo'ydi. Bu muhim vazifani hal etishda kadrlar tayyorlash milliy modelining muhim tarkibiy qismi – yangi tipdagi o'quv muassasasi bo'lgan kasb-hunar kollejlari alohida ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni hamda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limini yangi tipdagi ta’lim muassasi sifatidagi rivoji, pedagog kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish kabi masalalarga alohida e’tibor qaratilgan. Bu masalalarni hal etishda kasb-hunar kollejlari ishlab chiqarish ta’limini tashkil etish, ta’lim metodlarini tanlash va yangilarini ishlab chiqish davr talabi bo’lib qolmoqda.

Kasb-hunar kollejlari tegishli davlat ta'lim standartlari doirasida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi beruvchi o'quv muassasasi bo'lib, u o'quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, bilim va ko'nikmalarini chuqur rivojlantirish, tanlab olingan kasb-hunar bo'yicha bir yoki bir necha ixtisosni beradi.

Kasb-hunar kollejlarining o'quv jarayoni ishlab chiqarish ta'limi, tarbiyaviy soatlar, darsdan tashqari tarbiyaviy tadbirlaridan iborat bo'lib, ularning yahlit pedagogik jarayon sifatida takomillashtirilishi amaliy tajriba-sinov ishlari natijalariga ko'ra belgilanadi.

Bu jarayon kasb-hunar kollejlarida tegishli yo'nalishdagi mutaxassislik fanlarini o'qitish va ishlab chiqarish ta'limi (mutaxassislik fanlari bo'yicha laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar, mashinalarni boshqarishga o'rgatish, o'quv va ishlab chiqarish amaliyoti) ni yuqori metodik saviyada o'tish orqali amalga oshiriladi. Mashg'ulotlarning qayd etilgan tashkiliy shakllari o'quvchilarni tanlagan mutaxassisliklari bo'yicha amaliy faoliyatga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kasb-hunar kollejlarida amalga oshiriladigan kasbiy ta'lim natijasida nazariy bilim, ko'nikma va malakalar tizimi shakllantiriladi, ishlab chiqarish ta'limi jarayonida esa o'quvchilar asosan amaliy kasbiy ko'nikma va malakalarni egallaydilar. Bu ikkala mushtarak jarayon mahsuli sifatida muayyan kasb va malakaga ega bo'lgan kichik mutaxassisni tayyorlash ta'minlanadi.

Zamonaviy mutaxassis o'z kasbiy faoliyati sohasidagi yangiliklarni egallab borishi, istiqboldagi taraqqiyot yo'nalishlari hamda yuzaga keluvchi muammolarni echish yo'llarini ko'ra bilishi lozim. Bunday talablar darajasidagi mutaxassisni tarbiyalash uchun kasb-hunar kollejlarida ishlab chiqarish ta'limini amalga oshirishning samarali shakllari, faol metodlari hamda zamonaviy vositalari majmuasini ishlab chiqish hamda ilmiy-metodik jihatdan asoslash lozim bo'ladi.

Kasb-hunar kollejlarida malakali kichik mutaxassis tayyorlash ishlari quyidagi talablarga javob berishi lozim:

- mutaxassislik bo'yicha davlat ta'lim standartida belgilangan bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilganligi;
- ta'lim mazmunida ko'zlangan ta'lim-tarbiya maqsadi va vazifalariga mos kelishi;
- malakali kichik mutaxassis tayyorlash jarayonining barcha tarkibiy qismlari (nazariy mashg'ulotlar, laboratoriya-amaliy mashg'ulotlar, ishlab chiqarish amaliyoti) o'zaro bog'liq holda uzviy tashkillashtirilishi;
- kasbiy ta'lim berish mazmunining fan, texnika va texnologiya taraqqiyoti darajasi talablariga javob berishi.

Bu talablarni bajarishda ishlab chiqarish ta'limining o'rni beqiyosdir. Chunki ishlab chiqarish ta'limining asosiy vazifasi - bo'lajak malakali kichik mutaxassislarni muayyan mutaxassislik sohasida amaliy faoliyat ko'rsatishga tayyorlashdan iborat. U esa o'z navbatida nazariy bilimlarni amaliyotga tadbiq etishga o'rgatish, zarur bo'lgan kasbiy ko'nikma va malakalarni shakllantirish, o'z mutaxassisliklari uchun xos bo'lgan ishlab chiqarish jarayonini rejalashtirish, tayyorlash, amalga oshirish, nazorat qilish va xizmat ko'rsatishga o'rgatishdan iborat.

Ishlab chiqarish ta'limi deganda birorta kasb yoki mutaxassislik bo'yicha amaliy o'qitish tushuniladi. Lekin, hozirgi kunda bu atama bir tomonlama bo'lib, kasb-hunar kollejlari amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiyaning nazariy va amaliy jihatlarini qamrab oladi.

Ishlab chiqarish ta'limi jarayonida mutaxassisliklar bo'yicha kasbiy ko'nikma va malakalarni shakllantirish uchun ma'lum texnologik, tashkiliy-iqtisodiy, nazariy, texnikaviy bilimlar beriladi. U o'z mohiyatiga ko'ra nazariy ta'lim va amaliy mehnat jarayonlarining sintezidir. Bu holat unga har tomonlama majmuaviy yondoshuvni talab etadi.

Qar qanday ta'lim jarayoni o'zaro bir-birini taqozo etuvchi o'qitish – o'qish faoliyatini ko'zda tutadi. Bunda, maxsus ixtisoslik fanlari bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil qilishda o'quvchi faoliyati ikki tomonlama xarakterga ega, ya'ni nazariy bilimlarni o'zlashtirish hamda ularni qo'llashning amaliy ko'nikma hamda malakalarini o'zlashtirish. Ular ta'lim jarayonida birlashadi va bir butun pedagogik jarayonni tashkil etadi. Ushbu xususiyat ta'lim berish jarayoni va metodlariga ham taaluqlidir.

Ishlab chiqarish ta'limi uzoq tarixga ega ta'lim berish turi bo'lib, uzoq davrlar mobaynida u bevosita mahsulot ishlab chiqarish jarayonida amalga oshirib kelingan. Yirik sanoat korxonalari va rivojlangan qishloq xo'jaligining paydo bo'lishi yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashni talab qiladi, bu esa o'z navbatida ishlab chiqarish ta'limini o'qitish jarayonini alohida ta'lim turi sifatida tashkillashtirilishiga olib keldi.

Kasb-hunar kollejlari o'qitish jarayoni mustaqil va o'zaro bog'langan nazariy va amaliy qismlarga bo'linadi. Amaliy mashg'ulotni yuqori metodik saviyada o'tish uchun maxsus fanlarning nazariy qismi talab darajasida o'qitilishi lozim. Ma'lum sohada kichik mutaxassis tayyorlashda o'quvchilarning ishlab chiqarish mehnatiga oid nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarini shakllantirish muhim masalalardan biridir.

Respublikamizda bozor munosabatlari o'tish sharoitida tobora keng ko'lam olayotgan yangi texnika va ilg'or ishlab chiqarish texnologiyalarini joriy etish davr talabi bo'lib qolmoqda. Bundan kelib chiqqan holda bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilari uchun zamonaviy talablar darajasiga o'quv-uslubiy qo'llanmalar yaratish talabalarning kasbiy ko'nikma va malakalarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur qo'llanma ham bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining ishlab chiqarish ta'limi metodikasi borasidagi nazariy bilimlarini puxta egallashlariga ko'maklashish, amaliy bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishga puxta zamin tayyorlashga qaratilgan.

## **2. Ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar sharoitida kasbiy ta'lim tizimini isloh qilish. Kichik mutaxassislarga (kollej bitiruvchilariga) qo'yiladigan talablar.**

Talabalarning korxonada ishlab chiqarish ta'lim olishlaridan asosiy maqsad – ularning kasbiy ko'nikma va mahoratlarini oshirish, kasbiy

bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish, ilgor ishlab chiqarish tajribasi bilan tanishtirish, ishlab chiqarish amaliyotiga tayyorlash va shular asosida kasb-hunar kollejlarni tugatgandan so'ng ishlab chiqarishda mustaqil faoliyat ko'rsatishga o'rgatishdan iboratdir.

Talabalarni korxona ustaxonalarida o'qitish – malakasi kichik mutaxassislarni tayyorlashdagi xal qiluvchi davr hisoblanadi. Bu erda talabalar ishlab chiqarish holati, yangi jixozlar va texnologik moslamalar, zamonaviy texnologik jarayonlar bilan tanishadilar.

Korxonada ishlab chiqarish ta'limi talabalarning kompleks ishlarni bajarishda muxim ko'nikmalarni mustahkamlashlari va takomillashtirishlariga, texnologik jarayonlarni rejalashtirish mahoratiga ega bo'lishlariga, turli maxsulotlarning assortimentlari bilan keng tanishib chiqishlariga yo'naltirilgan.

Korxonalarda o'qitish vaqtada o'quvchilarda ishga bo'lgan talablarni to'g'ri tushunish, uning hususiyatlari" va bajarilish shartlarini hisobga olish, o'z mehnatini tashkil qilish va rejalashtira bilish, kamchiliklarning oldini olish, texnologik jarayonlarni hamda mehnat unuydorligini oshirish uchun o'z bilimlaridan to'la foydalana bilshida o'z aksini topuvchi kasbga oid mus-taqillik to'liq tarkib toshadi. Kasbga oid mustaqllik yosh avlodda tarbiyalanishi kerak bo'lgan mehnat natijyalariga yuksak ma'naviy javobgarlikni his qilish, kasb sharafini his etish bilan birikib ketadi.

O'quvchilar yuqori malakali ishchilar va ishlab chiqarish ilg'orlari bilan har kuni muomalada bo'lar ekanlar, ularning tajribalarini o'zlashtiradilar, krxonaning itioiy va ishlab chiqarish hayoti bilan tanishadilar, ishlab chiqarish jamoasining ishlab chiqarish rejasi va korxonaning iqtisodiy ko'rsatgichlarini bajarishdagi faoliyatida da faol ishtirok etadilar.

**Ishlab chiqarish amaliyoti.** Ishlab chiqarish amaliyoti kasbiy tayyorgarlikning yakuniy bosqichini tasvirlaydi va o'qitishning so'nggi oylarida o'tkaziladi.

Agar korxona o'z bazasidagi o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi o'quv yurti o'quvchilarining barchasini o'quv dasturlari va xavfsizlik texnikasi talablariga javob beruvchi ish o'rirlari bilan ta'minlay olmasa, o'quv yurti bilan karxona o'rtasida tuzilgan shartnoma asosida ishlab chiqarish ta'limini boshqa korxonalarda o'tkazishga ruxsat beriladi.

### **Korxonalarda o'qitishga tayyorlash.**

O'quvchilarning korxonalarda ishlab chiqarish ta'limini muvaffaqiyatli o'tashlari uchun korxonalarda o'quv dasturlariga

muvofiq ishlab chiqarish va nazariy jihatdan tayyorlash ishlari o'tkaziladi. Bundan tashqari, o'quvchilarni, albatta korxonadagi yong'inga qarshi tadbirlar, xavfsizlik texnikasi va mehnatni muhofaza qilish qoidalari bilan tanishtirish lozim.

Kasb-hunar kollej ta'lim muassasalarida **tarbiya jarayonini nazorat qilish** o'quv yurtining rahbariyati (O'quv yurti direatori, direktorning ma'naviy – ma'rifiy ishlar bo'yicha muovini, guruh murabbiylari) tomonidan amalga oshiriladi. Bu ish pedagogik jamoaga rahbarlik qilishning ma'lum bir shakli hisoblanib, unda ta'lim-tarbiya ishini takomillashtirishga oid hujjatlarga asoslaniladi.

Tarbiyaning samaradorligi tarbiyaviy ish usullarini to'g'ri tanlash va tadbir etishga hal qiluvchi darajada bog'liqdir.

KXXK larda o'quvchilarni **tarbiyalash va tarbiya jarayonini nazorat qilishga** bir qancha talablar qo'yiladi

#### ***Pedagogik talab***

Tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarga talab bevosita va bilvosita shaklda quyilishi mumkin. Bevosita talablar buyruq, ko'rsatma, yo'l-yo'riqdir. Ular jamoa endi tarkib topayotgan paytda guruh bilan ishlashning dastlabki bosqichi uchun xosdir. Bilvosita talablar-iltimos, maslahat, shama qilish va hokazolar o'quvchilarda muayyan darajada shakllangan e'tiqod, motivlar, to'g'ri xulq - atvor, odamlar bo'lishini taqozo etadi. Talablarning bilvosita shakli ko'pincha bevosita talablardan samaraliroq bo'ladi.

Jamoaning baholari, mulohazalari, irodasini birlashtiruvchi jamoatchilik fikri mohir pedagog qo'lida katta tarbiyaviy samara beradigan faol va ta'sirchan kuchdir. O'quvchilarning yig'ilishlardagi nutqlari, mavjud kamchiliklar xususida aytilgan tanqidiy mulohazalar, devoriy gazetadagi maqolalar, o'quvchilar o'z-o'zini boshqarish organlarining qarorlari, jamoatchilikning ma'qullashi yoki qoralashi, jamoa talabi va hokozolar jamoatchilik fikri ifodasining shaklidir. Rivojlangan jamoada jamoatchilik fikrining roli hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lishi mumkin. Shu bilan birga jamoatchilik fikri stixiyali tarzda shakllanmaydi. U o'qituvchi va boshqa pedagoglar tomonidan guruhdagi tarbiya jarayonining boshqarilishi qanday bo'lishiga bog'liq.

Tarbiya jarayonida "o'quvchi" tushunchasi bilan bir qatorda "shaxs" tushunchasidan foydalaniladi. Bu bilan tarbiya jarayoni avvalambor o'quvchini shaxs sifatida shakllantirishga qaratilganligi ta'kidlanadi. "Shaxs" nutq qobiliyatiga ega bo'lgan va mehnat faoliyatiga layoqatli aqlli zot-insondir». Shaxs atrofidagi odam bilan o'zaro faol munosabat jarayonida, jamiyatda, jamoada, boshqa odamlar bilan muomalada shakllanadi.

Tarbiyaning muayyan maqsadlari yoshlarda qanday fazilatlar tarbiyalanishi, uning shaxsining mazmuni aniq qanday bo'lishi haqidagi ravshan tasavvurdan kelib chiqadi. Mana shu fazilatlarini aniq belgilash tarbiyaning asosiy, eng muhim maqsadlarini belgilash demakdir. Ilmiy-metodik adabiyotni va o'qituvchilar tarbiyaviy ishida vujudga kelgan tajribani umumlashtirib o'quvchilarda shakllantiriladigan asosiy fazilatlarini ajratib ko'rsatish mumkin. Ular jumlasiga quyidagilar kiradi.

- g'oyaviy-siyosiy tarbiya fazilatlarini va xususiyatlarini;
- mehnatga hayotiy zarurat, jamiyatda o'zini qaror toptirishning asosiy usuli sifatida munosabatda bo'lish;
- ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, ish sifatini yaxshilash uchun kurashda o'z muayyan o'rnini topadi;
- ishni yaxshiroq, tezroq, puxtarroq, tejamliroq, bajarishga intilish va uning yo'llarini izlash davlat mulkiga munosabat tejamkorlik, egalik tuyg'usi tashabbuskorlik;
- yuksak burch tuyg'usi, o'z ishi natijalari uchun mas'uliyat;
- axloqiy fazilatlar, ijtimoiy burchga ongli munosabat; ongli ahloq va mehnat intizomi;
- jamoatchilik, o'zaro yordam, kattalarga hurmat, insonparvarlik;
- halollik, haqqoniylik, o'ziga talabchanlik, vijdonlilik, mas'uliyat, so'zining ustidan chiqish, intizom, kamtarlik;
- qo'yilgan maqsadlarga erishishda iroda, qat'iyat va sobit qadamlik.

1. O'quvchilarning umumta'lim, umumkasbiy va kasbiy tayyorgarlik darajasi; ularning bilim, ish-harakat usullari va shaxsiy fazilatlarining o'zlashtirganlik darajasi;

2. O'qituvchi va muhandis-pedagoglar tomonidan o'tkazilayotgan mashg'ulotlarning ilmiy, g'oyaviy, siyosiy, iqtisodiy va uslubiy saviyasi.

3. O'quv rejasi, dasturini bajarilish holati va rejalashtirish hamda hisobga olish, hujjatlarini yuritilishi

4. O'qituvchi va ishlab chiqarish ta'limi ustalarini darslarga tayyorgarlik ko'rishi

5. O'quvchilar bilan sinfdan va ta'lim muassasasidan tashqari ishlarni olib borilishi

6. O'quv xonalari, laboratoriyalar va ustaxonalarning o'quv moddiy bazasi bilan ta'minlanganlik holati va shu kabilar.

**3. "Ijtimoiy hamkorlik" tushunchasi. Ijtimoiy hamkorlar bilan faoliyat yuritishda ta'lim muassasalarining mustaqilligini oshirish. Korxona va ta'lim muassasalarining yangi turdagi hamkorlik shakllari: ijtimoiy hamkorlar bilan ikki yoqlama, uch yoqlama shartnomalar.**

**Korxona va ta'lim muassasalarining yangi turdagi hamkorlik shakllari: ijtimoiy hamkorlar bilan ikki yoqlama, uch yoqlama shartnomalar tuzish.**

**«Ijtimoiy hamkorlik» tushunchasi. Ijtimoiy hamkorlar bilan faoliyat yuritishda ta'lim muassasalarining mustaqilligini oshirish.**

O'zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da maktab va KXKlarning eng amuxim vazifalaridan biri o'quvchilarning ongli ravishda kasbga yo'naltirish va ularning kasb egallashlarini ta'minlash deb belgilangan.

Mazkur ishlarni bevosita maktab, yoki maktablararo texnik markaz hamda KXKlarda maxsus ishlab chiqilgach "shartnoma"lar asosida o'z ishlarini muvofiqlashtirgan xolatida amalga oshiriladi. Mazkur shartnomalar ikki tomonlama va ko'p tomonlama xolatda qabul etiladi.

- 1.maktablar orasida.
- 2.maktab va tashxis markazlar orasida.
- 3.kasb-xunar kollejlari orasida.
- 4.maktablar va tashxis markazi orasida.
- 5.maktab, kasb-xunar kollejlari va tashxis markazi orasida.
- 6.maktablar tashkilot yoki korxonalar orasida.
- 7.maktab, kasb-xunar kollej, tashkilot va korxonalar orasidagi qabul etiladigan shartnomalar.

Shartnomalar tuzishda uning xar bir bandiga didaktik talablar asosida, sotsial iqtisodiy jixatdan maqsadga muvofiqligi va amaliy yo'nalishini xisobga olib huquqiy kuch berish kerak.

**Birinchi banda.** Namunaviy shartnomaning bu bandida asosiy e'tibor o'quvchilarning mehnat va kasbiy ta'limi, ijtimoiy-foydali, unumli mehnatini tashkil qilish masalalariga qaratiladi.

**Keyingi band.** Shartnomaning bu bandidagi tadbirlar o'quvchilar mehnat birlashmalarining ishini ta'minlashi kerak. O'quvchilar ishining bu turi asosan kanikul vaqtida amalga oshiriladi va shuning uchun ularning mehnat ob'ektlari har hil, ba'zan esa mehnat va kasbiy tayrgarlik o'quv dasturi mazmuni bilan bog'lanmagan bo'lishi mumkin.

**Keyingi band.** Shartnomaning bu bandida tayyorlangan mahsulotlar miqdori va sifatini xisobga olishni; o'quvchilar ijtimoiy-foydali, unumli mehnatining natijalarini o'quvchilarga tayyorlagan mahsuloti, haqiqiy ishlangan vaqti hamda bajarilgan ishi uchun belgilangan tartibda haq to'lashni ta'minlash tadbirlarini nazarda tutish lozim.

**Keyingi band** o'quvchilarning mehnat va professional tayyorgarligini, ijtimoiy va unumli mehnatini xavfsizlik texnikasi va ishlab chiqarish sanitariyasi, o'quvchilar mehnatini muhofaza qilish qoidalariga qat'iy rioya qilgan holda tashkil etishni ta'minlashi kerak.

**Keyingi band** baza korxonalarning makta, KXK va boshqa maorif muassasalariga o'quv yiliga tayyorgarlik ko'rishda yordamlashuviga qaratilgan tadbirlarni o'z ichiga oladi

**Keyingi band** o'quvchilar va ishlab chiqarish ta'limi ustalari to'g'risida g'amxo'rlikni aks ettiradi. Shuning uchun uni to'ldirayotganda baza korxona sanatoriylar, pansionatlar, dam olish bazalariga yo'llanmalar ajratishda barcha rezerv va imkoniyatlardan foydalanish lozim.

**Kasb-hunar ta'limi o'quv muassasalarining  
o'quvchilar ishlab chiqarish amaliyoti haqida namunaviy shartnoma**

2001 y.

\_\_\_\_\_ Toshkent \_\_\_\_\_ milliy \_\_\_\_\_ xunarmandchilik \_\_\_\_\_ kasb-hunar \_\_\_\_\_ kolleji  
direktori \_\_\_\_\_ bundan keyin «o'quv muassasi», bir  
tomondan va Qurilish tresti boshlig'i \_\_\_\_\_

Ikkinchi tomondan, bundan keyin «Korxona» quyidagi shartnomani tuzishdi:

1. «O'quv muassasi» yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash uchun dasturlar va o'quv rejasiga asoslanib, «qurilish ishlari» kasbi bo'yicha 20 o'quvchidan iborat A-21 guruhini 10 dekabr 2001 yildan 15 yanvar 2002 yilgacha ishlab chiqarish amaliyotini o'tashga yo'llaydi. O'quvchilar ro'yxati ilova qilinadi.

2. «O'quv muassasi», «Ishlab chiqarish amaliyoti Nizomi» ga binoan o'quvchilarning dastlabki kasbiy tayyorgarligini, texnika xavfsizligi qoidalariga rioya kilishni, ish sharoiti qoida tartiblarini saqlashni, uskunalarni ehtiyotgarlik bilan boshqarishlariga bo'lgan munosabatlarini ta'minlaydi. O'quvchilar ishlab chiqarish amaliyoti davrida «Korxona» ning ichki tartib qoidalariga to'liq bo'ysinishadi.

«O'quv muassasi» ustoz orqali o'quvchilarning o'quv ishlarini tashkil qiladi va ularga uslubiy rahbarlikni amalga oshiradi.

3. «Korxona» bajaradi:

a) o'quvchilarga-amaliyotchilarga zarur bo'lgan jihozlar bilan jihozlangan ish joylarni, ishlab chiqarish topshiriqlari, hujjatlar va boshqalar bilan ta'minlaydi. O'quvchilarni kasbga oid bo'lmagan boshqa ishlarga jalb qilmaydi va ularning bo'sh, bekorchi bo'lishlariga yo'l qo'yiladi;

b) «Korxona» da qabul qilingan me'yorlar, talablar bo'yicha o'quvchilarni maxsus kiyimlar, shaxsiy xavfsizlik vositalari bilan ta'minlaydi. Ish sharoitini sanitariya gigiena talablari asosida ta'minlaydi.

v) o'quvchilarning bajargan ish natijalarini qat'iy hisobga olib boradi. O'quvchilarning ishlab topgan xaqlari qaydnomasi asosida har oyda «O'quv muassasa» hisob raqamiga pullarni o'tkazib turadi;

g) o'quvchilarning va ustozning yo'l xarajatlarini to'laydi.

4. Agarda shartnomada ko'rsatilgan talablar «Korxona» tomonidan bajarilmasa u holda «O'quv muassasa» o'quvchilarni ishlab chiqarish amaliyotidan chaqirib olishlari mumkin.

5. Agarda ishlab chiqarish amaliyoti davrida o'quvchilar «Korxona» ichki qoidalarini buzishsa u holda «Korxona» rahbariyati ularni ishlab chiqarish amaliyotidan chetlatib, «O'quv muassasa» ga qaytarib yuborishlari mumkin.

6. Tomonlarning qo'shimcha shartlari \_\_\_\_\_

7. Tomonlar tomonidan paydo bo'lgan kelishmovchiliklar qabul qilingan me'yorlar asosida hal qilinadi.

8. Shartnoma muddati \_\_\_\_\_ dan \_\_\_\_\_ gacha

Korxona rahbari

O'quv muassasi rahbari

### **13-MAVZU: TA'LIM MUTAXASSISLIKLARIDA ISHLAB CHIQARISH IJTIMOIY BUYURTMASINI BAJARISHNING TASHKILIY ASOSLARI**

13.1 Ta'lim mutaxassisliklariga nisbatan ishlab chiqarish talabalarini shakllantirish

13.2 Ta'lim mutaxassisliklari amaliyotlarida amaliyotlarni bajarishning tashkiliy asoslari

13.3 Ta'lim mutaxassisliklarida tajriba-sinov ishlarini jadallashtirish

#### **13.1 Ta'lim mutaxassisliklariga nisbatan ishlab chiqarish talabalarini shakllantirish**

Pedagogik mahorat, pedagoglik kasbi bilim va ko'nikmalarini faqat shaxsiy xislatlarni shakllantirish orqaligina egallash mumkin. Pedagoglik kasbida professional bilimlar bilan shaxsiy xislatlar uy-g'ulashib bir butun birikmani tashkil etadi. Xozirgi universitet ta'limi xuddi ana shu o'ziga xoslikni inobatga oladi.

Universitet ma'lumotiga ega bo'lgan pedagoglar tayyorlash kontsepsiyasi kuyidagi g'oyalarga asoslanadi:

- psixologo-pedagogik va xususiy metodik tayyorgarlikning asosiy omil kilib olinishi;

- bo'lg'usi pedagogning umuminsoiiy qadriyatlarga asoslangan shaxsiy xislatlarning shakllanganligi;

- gumanizatsiya va gumanitarizatsiyaga asoslangai pedagoglik kasbini egallash yangi mazmunini joriy qilish;

- talabalar ijodiy mehnat va o'quv faoliyatlarini tashkil qilishda turli o'quv metodlari, ta'limning turli tashkiliy shakllaridan foydalanish;

- pedagogika, psixologiya va xususiy metodikalar bo'yicha umumlashgal va poltexnik bilim, iqtidor va ko'nikmalarning shakllangan bo'lishi.

Hozirgacha ishlab turgan universitet ta'limi mazmuni pedagogik faoliyatli butunicha, sistemali shakllantirish imkonini bermaydi. Bir qator bilimlar beriladi, ammo biriktiruvchi o'zak sistemali bilimlar berilmaydi, Bulday kamchilikni yo'qotish maksadida moddallashtirish metodiga murojaat qilish mumkin.

Pirovard maqsad universitet ma'lumotiga ega bo'lgan pedagog mutaxassislarni tayorlash ekan ana shu mutaxassis shaxsning modelini tuzishdan boshlash kerak.

Modellashtirish pedagogning professional faoliyati, mavhumlashgan shaxs parametrlarini ochish bilan birga ana shu xislatlarni shakllantirishi jarayonini ham ochib beradi. Modellashtirish natijasida ideal sharoitda mutaxassisda shakllanish ksrak bo'lgan bilim, iqtidor va ko'nikmalar, professional ustivor tayyorgarlik kabi parametrlarni o'z ichiga qamrab olgan davlat xujjati sifatida va kvalifikatsion

xarakteristika yoki professiogramma ko'rinishida rasmiylashtiriladi. Hozirgacha tuzilgan kvalifikatsion xarakteristikalar universitet ma'lumotiga ega bo'lgan mutaxassislar professional faoliyatini to'liq aks etdirmaydi. Shu bois hozirgi talablarga javob bermay qoldi. Shuning uchun ham predmet pedagoglarini tayyorlashda o'quv dasturlari, o'quv rejalarini tuzishda professiogramma va psixogrammalardan bevosita foydalanish imkoniyati yo'qolib borayapti.

Pedagog faoliyatida, ayniksa talabalarni ham, jarayon ishtirokchisi, sub'ekti deb qaralayotgan hozirgi davrda nostandart sharoitlar ko'plab sodir bo'ladi. Nostandart muammolardan muvaffaqiyatli chikib ketishi uchun o'qituvchi shaxsida ijobiy xislatlar yuakllangan bo'lishi kerak. Faqat o'qituvchi o'zinnng o'qitish, tarbiyalash uslubini yaratgandagina xususiy hol-lardan kechib har qanday sharoitda xam muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsata oladi.

Boshqacha qilib aytganda mutaxassis universitetda olgan bilimlarini bevosita qo'llashi uchun ta'lim-tarbiya jarayonini shaxsni shakllantirishga to'la yo'naltirmog'i lozim. O'quv jarayonida darsdan, maktabdan tashqari ish amaliyotida bunday jarayonlar bir necha o'nlab topiladi. Lekin bu jarayonlarni tashkil-qilish uchun darsliklarda keltirilgai yuzlab ko'-nikmalar o'rniga bir necha umumlashgan ko'nikmalar shakllangan bo'lishi etarlidir. Bunday umumlashgan ko'nikmalar sirasiga shaxsning va jamoaning shakllanganlik darajasini aniqlash ko'nikmasi; o'quvchilar jamoasini jamoa oldida turgan vazifalarni echishga yo'llash, faoliyatga tayyor turish hissasini rivojlantirish; oldiga qo'yilgan maqsadni amalga oshnrish uchun kerakli vositalarni tanlash va qo'llay olshi ko'nikmasi; o'quv tarbiya jarayoni natijasini, xulosasini o'lchash, baholash ko'nikmasi, olingan natijalarni qo'yilgan maqsadlar bilan solishtirish va orada farq hosil bo'lgan bo'lsa, ya'ni qo'yilgan maqsadning hammasiga erishilgan bo'linsa bunday xolni tushuntira bilish ko'nikmalari kiradi. YUkorida keltirilgan umumlashgan ko'nikmalarning har biri ayrim olingan sharoitlarda uchraidigan o'nlab boshqa ko'inkmalarni o'z ichiga oladi.

Mana shunday umumiylikdan uiversitetda mutaxassis tayyorlashning amaliyotiga o'tishda bir muncha nomutanosibliklar yuzaga chikadi. Ko'pincha bo'lg'usi pedagoglarning professional bilimlarini shakllantirish birinchi o'ringa ko'yilib shaxsini shakllantirish ikkinchi navbatga suriladi. Mutaxassis dunyoqarashini fakat ijtimoiy fanlar shakllantiradi, maxsus fanlar mutaxassisni bilim, iktidor va ko'nikmalar bilan kurollantiradi, psixologo-pedagogik turkum esa ularni o'quv yurtlarida tarbiyaviy ishlarga tayyorlaydi degan chegaralangan tushuncha xali ko'pchilikda mavjud.

Hozirda O'zbekiston respublikasida ko'p pog'onali mutaxassis tayyorlash spstsmasiga o'tish muiosabati bilan an'anaviy ta'lim mezoilari bilan birga mutaxassslarni umuminsoniy kadriyatlariga asoslangan shaxsiy xislatlarini rivojlantirish, pedagoglik kasbiga qiziqish, tinmay izlanish, o'quvchilar psixik olamiga yanada chuqurroq kirib borishi hissini uyg'otish dolzarb masalalardan, echimini kutayotgan muammolardan hisoblanadi.

Pedagogik ta'limning xozirgi qonuniyati va talablari uzluksiz ta'lim tizimiga o'tish, pedagoglik mehnatinng tobora murakkablashishi, maktab- internatlar, fanlar bo'yicha chuqurlashtirilgan sinflar, maktablar, gimnaziyalar, kollejlari,

litseylarning ommaviy tus olishi, programmalashgan, kompyuterlashgan ilg'or uslublarning keng qo'llanishi bilan bog'lik. Bu esa o'z navbatida pedagog kadrlarni yanada yukori standartlarga javob beradigan qilib tayyorlash vazifasini ilgari suradi.

Pedagogik ta'lim sistemasiniig kelajagi universitet ta'limi prognostik modelini tuzish bilan bog'lik. Prognostik model universitet ta'limni yanada fundamentalashtirish, gumanizatsiyalash va gumanitar-lashtirish bilan aloqadordir. Fuidamental bilimlar tez eskirmaydi, sekin o'zgaradi, yuqori ilmiy umumlashtirish bilan xarakterlanadi, keng sohalarga o'tish xususiyatiga ega, qayishqoqligi, safarbarlign, ilm va ma'rifat yuksalishiga tez moslashunchanligi bilan ajralib turadi.

Bosqichli oliy ta'lim tizimida pedagogik ta'lim sistemasining quyidagi strukturasi mo'ljallaishni maksadga muvofik:

I. bosqich. Bakalavr (o'kitpsh muddati 4 yil).

1. Pedagogika kursi 40 soat lsktsiya, 20 soat praktik mashg'ulot.

2. Fanlar o'qitish metodikasi 90 soat lektsiya, 60 soat laboratoriya amaliyot darsi.

3. Maxsus kurs, maxsus seminarlar:

a) Nutq madaniyati va notiqlik san'atn

b) yoshlar fiziologiyasi va maktab gigisnasi

v) etnopedagogika

g) psixologo-pedagogik diagnostlash metodikasi

d) artistlik san'ati asoslari

e) muloqot pedagogikasi va texnikasi

j) maktabda kasb tanlashga yo'llash

z) o'quvchilarni iqtisodiy tarbiyalash metodikasi

i) ijtimoiy fikrlar sotsiologiyasi.

II bosqich. Magistr (o'qish muddati 2 yil)

1. Oliy ta'lim pedagogikasi 20 soat lektsiya, 20 soat laboratoriya amaliy mashg'uloti.

2- Pedagogik psixologiya 20 soat lektsiya, 10 soat laboratoriya amaliy mashg'uloti.

3. Pedagogika tarixi 20 soat lektsiya, 10 soat laboratoriya amaliy Mashg'uloti.

4. Maxsus kurs, maxsus seminarlar:

a) pedagogik texnologiya

b) madaniy hordiq chiqarish metodikasi va pedagogikasi

v) sotsial tarbiya metodikasi

g) patopsixologiya va defiktologlya asoslari.

5. Kurs ishi.

6. Oliy o'quv yurtlari, litsey, kolledjlarda pedagogik praktika.

7. Pedagogika, psixologiya, fanlar o'kitish metodikasidan sintetik diplom ishlashlari.

Xulosa qilib aytganda, tarbiya sohasp bo'yicha mutaxassis xodimlarni tayyorlashda ta'lim-tarbiyaning yukorida zikr qilnngan kontseptsion tamoyillari mutaxassis xodimlarni tayyorlashda nazariy hamda amaliy muhim ahamiyat kasb

etadi. Kasbiy ta'lim natijasida nazariy bilim, ko'nikma va malakalar tizimi shakllantiriladi, ishlab chiqarish ta'limi jarayonida esa o'quvchilar asosan amaliy kasbiy ko'nikma va malakalarni egallaydilar. Bu ikkala mushtarak jarayon mahsuli sifatida muayyan kasb va malakaga ega bo'lgan kichik mutaxassisni tayyorlash ta'minlanadi.

Zamonaviy mutaxassis o'z kasbiy faoliyati sohasidagi yangiliklarni egallab borishi, istiqboldagi taraqqiyot yo'nalishlari hamda yuzaga keluvchi muammolarni echish yo'llarini ko'ra bilishi lozim. Bunday talablar darajasidagi mutaxassisni tarbiyalash uchun kasb-hunar kollejlarida ishlab chiqarish ta'limini amalga oshirishning samarali shakllari, faol metodlari hamda zamonaviy vositalari majmuasini ishlab chiqish hamda ilmiy-metodik jihatdan asoslash lozim bo'ladi.

Malakali mutaxassis tayyorlash ishlari quyidagi talablarga javob berishi lozim: mutaxassislik bo'yicha davlat ta'lim standartida belgilangan bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilganligi; ta'lim mazmunida ko'zlangan ta'lim-tarbiya maqsadi va vazifalariga mos kelishi; malakali mutaxassis tayyorlash jarayonining barcha tarkibiy qismlari (nazariy mashg'ulotlar, laboratoriya-amaliy mashg'ulotlar, ishlab chiqarish amaliyoti) o'zaro bog'liq holda uzviy tashkillashtirilishi; kasbiy ta'lim berish mazmunining fan, texnika va texnologiya taraqqiyoti darajasi talablariga javob berishi.

Har qanday ta'lim jarayoni o'zaro bir-birini taqozo etuvchi o'qitish – o'qish faoliyatini ko'zda tutadi. Bunda, maxsus ixtisoslik fanlari bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil qilishda o'quvchi faoliyati ikki tomonlama xarakterga ega, ya'ni nazariy bilimlarni o'zlashtirish hamda ularni qo'llashning amaliy ko'nikma hamda malakalarini o'zlashtirish. Ular ta'lim jarayonida birlashadi va bir butun pedagogik jarayonni tashkil etadi. Ushbu xususiyat ta'lim berish jarayoni va metodlariga ham taaluqlidir.

Respublikamizda bozor munosabatlari o'tish sharoitida tobora keng ko'lam olayotgan yangi texnika va ilg'or ishlab chiqarish texnologiyalarini joriy etish davr talabi bo'lib qolmoqda. Bundan kelib chiqqan holda bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilari uchun zamonaviy talablar darajasiga o'quv va metodik qo'llanmalar yaratish talabalarning kasbiy ko'nikma va malakalarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Quyida jadvallar ko'rinishida bayon qilingan bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlash borasidagi nazariy bilimlarini puxta egallashlariga ko'maklashish, amaliy bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishga puxta zamin tayyorlashga qaratilgan.

## **JADVALLARGA TUSHUNTIRISH XATI**

### **1-JADVALGA**

O'qituvchi kasbiy ta'lim pedagogikasini o'rganar ekan, «bilimlar», «o'quvlar», «ko'nikmalar», «ixtisos», «hunar», (muttaxassislik), «malaka» («kvalifikatsiya») va shu kabi tushunchalar bilan o'quvchilarni jadvaldagidan ham mukammalroq tanishtirishni, bularga doir misollar keltirishni ko'zda tutishi kerak. O'quvchilar o'rganiladigan kasbiy tushunchalarni quruq yodlab olmay balki tushunib, puxta o'zlashtirib olsinlar.

## 2- JADVALGA

Ta'limning asosiy didaktik tamoyillari o'rganilar ekan, uni o'zi nimadan iborat ekanini oydinlashtirish zarur. Didaktika amali deganda: ta'limning asosini tashkil etuvchi, uning barcha jihatlari, ya'ni mazmunini, ta'limning tashkiliy shakllari va metodlarini belgilovchi dastlabki qoidalar tushuniladi. So'ngra, didaktik tamoyillarni umumiy didaktika amallarining tarkibiy qismidan iboratligini e'tiborga olib, misollar yordamida maxsus tahlil vositasida kasbiy pedagogik ta'lim tamoyillarining o'ziga xosligini oydinlashtirish zarur.

Misol tariqasida ko'rgazmalilik tamoyilini olish mumkin. Bu tamoyilning jadvalda, berilgan tavsifini aniqlab olgandan keyin, ko'rgazmalilikning bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishdagi o'rnini aniqlash zarur. Ko'rgazmalilikning eng asosiy vazifasi sezgi idrokini tafakkur bilan bog'lash, uyg'unlashtirishdan iborat. Ko'rsatish (namoyish qilish) dan oldin o'quvchilarga hozir ularning nimani ko'rishini, unda nimaga e'tibor berish kerakligini tushuntirib berish zarur. Masalan, tokarlik vint qirqar stanogining tuzilishi va ishlash printsipini tushuntirishda o'quvchilarning tafakkur faoliyatini faollashtirish va darsga qizikishini kuchaytirish maqsadida stanokning umumiy ko'rinishi plakatidan va uning kinematik sxemasidan foydalanish mumkin. Ta'limda ko'rgazmalilik o'quvchilarga bilimlarni yaxshiroq o'zlashtirishga yordam beradi.

Agar o'qituvchi faqat plakat va sxemalarni ko'rsatish bilangina kifoyalanib qolsa, ko'rgazmali o'qitishdan ko'zda tutilgan vazifa to'laqonli hal etilmagan bo'lar edi. O'quvchilarni tokarlik stanogining aniq (yoki buyum namunasi) bilan, uning tuzilishi va ishlashi bilan tanishtirish ham zarur. Buni esa sayohat vaqtida yoki o'quv ustaxonasidagi amaliy mashg'ulotlarda amalga oshirish mumkin. To'g'ri tayyorlangan buyum namunasi bu erda chizmaning, uni tayyorlashga doir texnologik kartasi va unga tegishli texnik talablarning o'rnini bosolmaydi, lekin ular uchun zaruriy to'ldirgich bo'ladi. Bu esa ayniqsa o'qishning birinchi davrida g'oyat muhimdir, bu davrda o'quvchilarda buyumning geometrik shakllari, aniqlik sinflari va sirlarni ishlash tozaligi to'g'risida etarli tasavvur bo'lmaydi.

Biron operatsiyani bajarish vaqtida ayrim qiyin qoidalarni amalda ko'rsatish ham ko'rgazmalilikning tarkibiy qismidir. Bu ishni boshda ish tempida, so'ngra esa operatsiyaning ayrim qismlarini sekinlashtirilgan tempda ko'rsatish lozim. O'qitishda ana shunday tartib shuning uchun kerakki, bu amallarni faqat ish temlida ko'rsatiladigan bo'lsa, ularni idrok qilish va tez o'zlashtirish qiyinlashadi. Dasturning o'rganiladigan mavzusiga) qarab, diafilm va o'quv filmlaridan ham ko'rgazma qurol vositasida foydalanish mumkin. O'quv filmlari texnologik jaryonlarni, jihoz, moslamalar va asboblarning ishlashini to'la ko'lamda namoyish qilish, qo'llaniladigan mehnat qoidalarini xarakatga ko'rsatishga imkon beradi, bu esa jadal yoki chizmaga qarab tushuntirishdan ko'ra samarali bo'ladi.

Shunday qilib, didaktik tamoyillar bilan tanishar ekanmiz, shuni ta'kidlab o'tish kerakki, bu tamoyillar alohida ko'rib o'tilsada, ular orasida jips bog'lanish mavjud, bu tamoyillar tizimidan faqat bittasini qo'llash bilan chegaralanib ta'lim jarayonini tashkil etish mumkin emas. Faqat birgalikda, muayyan bir tizimda, maqsadga muvofiq birgalikda ishlatilgandagina ular ta'limni to'g'ri tashkil etish imkonini beradi.

### 3- JADVALGA

Eng avvalo o'qituvchi o'quvchilarni kasbiy ta'lim ta'limning mazmuni bilan tanishtirishi zarur: ishlab chiqarish ta'limi o'quvchilarning unumli mehnati bilan birgalikda umumiy bilimi, umumtexnik va maxsus tayyorgarligidir. So'ngra jadval yordamida elementlarni alohida- alohida o'rganish zarur. Masalan, malaka (kvalifikatsiya) xarakteristikasi ayni ixtisosga nisbatan ishlab chiqarish tomonidan qo'yiladigan talablar asosida belgilanadi, bunda tegishli toifa ishchisining nazariy va amaliy tayyorgarlik saviyasi ham hisobga olinadi. Biror aniq malakani mufassal ko'rib chiqib, o'zi tanlagan ixtisosiga tegishli malakani olish uchun imkon beruvchi kam hajmda, bu ixtisosga nazariy bilimlarga, amaliy ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi lozimligini aniqlab olish kerak.

Ta'kidlab joizki, malaka tavsifnomasi abadiy, o'zgarmas bir narsa emas. Unda tegishli ixtisos ishchisi ishlab chiqarish xarakteristikasida mumkin bo'lgan barcha o'zgarishlar (qo'shimcha ixtisosni egallash, ishlab chiqarish qurolini va ish usullarini takomillashtirish va shunga o'xshashlar) aks ettirilgan bo'lishi kerak.

Bu ma'noda tegishli ta'lim muassasalarida o'qiladigan fanlar, ularni o'quv yillariga taqsimlab o'rganish tartibi, har bir fanga ajratilgan soatlar soni, shuningdek, har haftaga tegishli soatlar soni ko'rsatilgan. Ixtisos va hunar turiga ko'ra, shuningdek, ta'lim muassasasining turiga va o'quvchilarning bilim saviyasiga muvofiq o'quv rejasida alohida o'zgarishlar bo'ladi, bu dasturning tushuntirish xatida bayon etiladi.

Dasturni ta'lim muassasalarining rahbarlari ham, o'qituvchi va ishlab chiqarish ta'limi ustalari ham o'zgartira olmaydi, ta'lim muassasalari uchun uni to'la bajarish majburiydir.

Kasbiy ta'lim dasturii quyidagi qoidalarga asoslanib tuziladi:

- a) ilmiylik va metodikaga to'la amal qilish;
- b) fan-texnikaning zamonaviy yutuqlarni, ishlab chiqarish ilg'orlarining tajribalarini aks ettirish;
- v) o'quv materialini tizimli bayon etish;
- g) ta'limni unumli mehnat asosida va unumli mehnat jarayonida olib borish;
- d) o'quv materialini o'rganishda ayrim fanlar va o'qish davrlarining o'zaro bog'lanishini va o'zaro yordamini ta'minlash;
- j) zamoniy ishlab chiqarish talablariga muvofiq asosiy kasbiy bilimlar, ko'nikma va malakalarni egallashni ta'minlash.

### 4- JADVALGA

Dastlab predmet (buyum) asosida o'qitishning jadvalda bayon etilgani asosiy mazmuni bilan tanishib chiqiladi.

Qunarmandchilik davrida insoniyatga hali mehnatning turli operatsiyalarga ajralishi ma'lum bo'lmagan, shuning uchun shogirdlarga ham bu narsalar tushuntirilmagan, albatta. Shogirdlar malakaliroq hunarmandlarning ishni qanday bajarishini uzoq vaqtlar davomida kuzatib borib, ularning mahoratiga taqlid qilib o'rganganlar. Ammo ta'limda oddiy taqlid metodi mehnat jarayonini, uning operatsiyasi va mehnat usuli kabi elementlarini tushunishga imkon bermagan. Shuning uchun ham shogirdlar ishdagi ancha katta qiyinchiliklarni engishga, butun

diqqat-e'tiborlarini berishga majbur bo'lib, o'zlarining ish vaziyatlarining to'g'riligini nazorat qilish, asbobni to'g'ri ushlash, mehnat harakatlarini uyg'unlashtirish imkonidan mahrum bo'lganlar.

Shundan keyin, predmet (buyum)li kasb ta'limi tizimining sxemada bayon etilgan afzallik va kamchiliklarini ko'zdan kechirish lozim.

#### 5-JADVALGA

Bu tizimning asosiy mazmunini o'rganishni boshlashdan oldin ishlab chiqarish ta'limining operatsiya tizimi vujudga kelgan tarixiy shartlarga to'xtalib o'taylik. Ma'lumki, hunarmandchilik o'rnini egallagan manufaktura ishlab chiqarishiga oid qurollarining tez sur'at bilan rivojlanishi hamda takomillashishi xosdir. Bu davrda mahsulot tayyorlash ayrim operatsiyalarga ajraladi, kishining mehnati esa ayrim ish qoidalariga ajraladi va shuning bilan mehnat unumdorligi oshadi. Demak, ishlab chiqarish ta'limining operatsiya tizimi faqat insoniyat mehnat taqsimoti sohasida etarli darajada tajriba to'plagach, hunarmandlarga nisbatan ehtiyoj yo'qolgach va manufaktura ishlab chiqarish uchun faqat bir necha operatsiyani mohirlik bilan bajara oladigan ishchilarga ehtiyoj tug'ilgachgina vujudga kelishi mumkin bo'lgan.

Shunday qilib, bu hildagi ta'lim tizimining mazmuni o'quvchilar tomonidan har qanday buyumni tayyorlashda tadbiq etilishi mumkin bo'lgan bir qator xilma-xil va eng muhim operatsiyalarning o'zlashtirilishini ko'zda tutadi. Shu bilan birga bu operatsiyalardan har biri uchun ayrim mehnat qoidalarini qo'lga kiritish mashqlari tizimi ishlab chiqilishi shart.

Bu tizimda o'qitish ikki davrga bo'linadi: birinchi davrda o'quvchilar o'quv ustaxonasida operatsiyalarni bir-biriga bog'lanishsiz holda o'quv ishlari (ya'ni istemol ahamiyatiga ega bo'lmagan buyumlar ustida bajariladigan ishlarni) bajarib turib o'rganganlar. Sxemada bu operatsiyalar davri tarzida ko'rsatilgan bo'lib, o'rganiladigan operatsiyalar shartli ravishda diagonal joylashtirilgan. O'qitishning ikkinchi davri korxona sharoitida o'tkazilib, unda o'quvchilar tovar, ya'ni tayyor buyumlar tayyorlashga o'rgatilar edi. Jadvalda bu davr katta bo'lmagan kompleks ishlar ro'yxati (gayka kaliti, muhrasi kvadrat shaklidagi bolg'a, ombur, reysmus) tarzida tasvirlangan. Bu ishlardan maqsad ilgari alohida holatda, bog'lanishsiz o'rganilgan operatsiyalarni kompleks ishlarga birlashtirish, shu bilan birga, bu operatsiyalarga doir mehnat ko'nikma va malakalarini mustahkamlash bo'lgan.

Bu tizimning qisqacha mazmunini, uning ijobiy va salbiy tomonlarini o'rganar ekanmiz, jadvalga murojat etishimiz kerak. Masalan, operatsion davrning davom etishi (Q) ishoralar yordamida qiya egri chiziq tarzida tasvirlangan. Bu egri chiziqdan o'rganiladigan operatsiyalarning mustahkamlanmay borishini payqash mumkin. O'rganilgan operatsiya uzoq vaqt davomida takrorlanmas ekan. Ilgari qo'lga kiritilgan mehnat qoidalarini va malakalar unutilib ketadi.

#### 6- JADVALGA

Dastlab buyum-operatsiya tizimining mazmuni to'g'risida bir - ikki so'z. Bu sistema XIX asrning 90-yillarida vujudga kelib, muhim kamchiliklari tufayli rivojlanmay qoldi. Bu tizimda shogird mehnat operatsiyalarini to'g'ri tanlangan buyumlar tayyorlash yo'li bilan o'rganish ko'zda tutilar edi, shuning uchun unga «buyum operatsiya tizimi» - nomi ham berilgan. Bu tizimga muvofiq

buyumlarning tanlanishi quyidagicha bo'lgan: birinchi xil buyumlarni tayyorlashda shogird engilroq 3-5 operatsiyani o'rganar, keyingi xil buyumlarni tayyorlashda esa murakkabroq operatsiyalarni egallashi kerak ekan. Biroq bu tizimni yaratuvchilar quyidagini e'tiborga olmaganlar. Bunga biron operatsiyani o'rganishda dastlabki to'g'ri ko'nikma va malakalarni egallash maqsadida o'rganish mashqlari o'tkazilmaydi, bu esa to'g'ri ish usullarini shakllantirishdagi samaradorlikni juda pasaytirishga sabab bulgan.

Shu bilan birga yangi buyumni tayyorlashda 3-5 operatsiyani o'rganish ham o'quvchilar uchun ancha og'ir vazifa bo'lgan.

TSIT tizimida mehnat jarayonlarini amaliy o'rganishda didaktik to'g'ri ketma-ketlikni ishlab chiqilgan: ish usuli – operatsiya – jarayon. Lekin, o'qish (o'rganish) davrining sun'iy ravishda to'rt bosqichga ajratilishi tufayli mehnat jarayoni ham ayrim elementlarga ajratilar va bu elementlardan har biri o'rganish davrlaridan iborat bo'lib, o'quvchilar bu o'rganish mashqlarini bir-biriga bog'lanishsiz holda bajarar edi. TSIT tizimiga muvofiq, ta'lim jarayoni maxsus moslamalar vositasida, bog'lanishsiz o'rganish mashqlarini bajarishdan iborat bo'lib qolar edi. Shuning uchun ham, TSITning o'quvlarni mehnat jarayoni elementlarini ongli ravishda ijodiy egallashga o'rgatish bilan bog'liq talablarga javob bera olmay qoldi.

TSIT tizimi asosida o'qitish mazmuni bilan tanishib chiqqanimizdan keyin, jadvalda bayon etilgan uning afzallik va kamchiliklari tahlil qilinadi.

#### 7- JADVALGA

Operatsion-kompleks tizim yoshlarni egallanayotgan kasb-hunar ko'lamida mehnatga tayyorlash mezoniga asoslangan. Bu jadvaldan operatsion-kompleks tizimning tuzilishinigina emas, balki bu tizimning bundan oldin ko'rilgan tizimlarga nisbatan o'ziga xosligini ko'rish ham mumkin; operatsion-kompleks tizimi va operatsion tizimdagi operatsion davrlar ma'lum darajada bir-biriga o'xshash ekanini ko'ramiz. Ularning faqat shundaki, operatsion-kompleks tizimda tahminan har 3-5 operatsiyadan keyin kompleks ish bajariladi, bundan maqsad esa ilgari o'zlashtirilgan operatsiyalarni mustahkamlashdir. Lekin, bunda ilgari o'zlashtirilgan bilim va o'quvchilarning esda tufayli bilimlarning esdan chiqib ketishi, mehnat o'quvlari va malakalarining buzilishi kabilarni batamom yo'qota olmaydi. Demak, operatsion operatsion-kompleks tizimda ham ilgarigi tizimlardagi mehnatdan ajralishga xos kamchilik. Bunda ham o'quvchilar ish usullarini o'quv xarakteridagi ishlar, ya'ni iste'mol ahamiyatiga ega bo'lmagan narsalar ustidagi ishlar vositasida o'rganar ekan. Faqat kompleks ishlarni bajarishda va shtatli ish o'rinlarida ishlab chiqarish amalidagina o'quvchilar ayrim buyumlarni tayyorlab, o'z mehnat natijalarini ko'ra olar edilar.

O'qish (o'rganish)ning ayrim davrlarida korxonalardan buyurtmalar olib ko'rish ham yaxshi natija bermadi, chunki sun'iy yaratilgan bosqich (3-5 operatsiyani o'zlashtirib olish) va davrlar (o'zlashtirilgan operatsiyalar chegarasida kompleks ishlar bajarish) dan iborat haddan tashqari qattiq jadval buyurtmalarni bajarish muddatini cho'zib yuborar edi. Bu esa korxonalar uchun mutlaqo ma'qul kelmas edi.

Hozirgi vaqtda o'quvchilarga ishlab chiqarish ta'limi berish to'g'risidagi talablar shundan iboratki, ta'lim boshdanoq unumli mehnat jarayonida tashkil etilishi lozim. Demak, kadrlar tayyorlash tizimi, jumladan operatsion-kompleks tizimni ham takomillashtirish, ya'ni zamonaviy talablarga moslashtirish kerak.

## 8- JADVALGA

Mazkur mavzuni o'rganishda dastlab ta'lim shakli tushunchasi aniqlab olinishi lozim. Ta'lim shakli deganda o'quvchilarning konkret mashg'ulot (dars)dan ko'zda tutilgan maqsadga erishishi uchun, ya'ni kasb ta'limi ustasi rahbarligida o'quv materialini ongli va faol ravishda puxta o'zlashtirishga qaratilgan o'quv-tarbiya faoliyatini tushunmoq kerak.

Shundan so'ng, jadval asosida kasb ta'limida qo'llaniladigan turli shakllar bayon qilinadi.

O'quv ustaxonasidagi o'quv-ishlab chiqarish ishlarining asosiy shakllaridan biri dar syoki amaliy mashg'ulotdir. O'quv-ishlab chiqarish ishi sifatidagi darsning asosiy belgisi: o'quvchilar tarkibining tayyorgarlik darajasining bir xil bo'lishi, o'quv ishlari uchun belgilangan ma'lum vaqt davom etishi, ishlab chiqarish ta'limi ustasining bevosita rahbarligi, uning xilma-xil ta'lim metodlaridan foydalanish, darsni frontal, zveno va individual shaklda amalga oshirish imkoniga ega bo'lishidan iborat deyish mumkin.

Shunday qilib, dars o'qitish jarayoniga tashkiliy aniqlik kiritadi va ishlab chiqarish ta'limi va boshqa fanlar darslarini ketma-ket tashkil etishga, binobarin o'quvchilarning yuqori unumdorlik bilan o'qishini hamda dam olishini ta'minlashga imkon beradi.

Lekin, kasb ta'limi ta'limi tizimida o'quvchilarga hunar o'rgatish yuzasidan qo'yilgan vazifalarni hal etish uchun faqat ayrim darslarni yaxshi tashkil etishning o'zigina kifoya qilmaydi. Bundan tashqari, ishlab chiqarish ta'limi maqsadlari vazifalariga muvofiq ravishda quyidagi o'xshash har xil dars turlarini qo'llash mumkin:

1) kombinatsiyali (o'qitish jarayonini hamma zvenolarini o'z ichiga olgan) dars;

2) operatsiyalarni o'zlashtirishga bag'ishlangan dars;

3) kompleks ishlarni bajarishga bag'ishlangan dars;

4) nazorat-tekshirish topshiriqlari va malaka olishga bag'ishlangan dars;

Ta'limning tashkiliy shaklani tanlashda o'quvchilar bajaradigan ishning mazmuni muhim o'rin tutadi. Masalan, o'quvchilarning hammasi bir ishni bajaradigan bo'lsa (bolg'a tayyorlash, kalit yasash va h.k), darsning frontal shaklini qo'llash mumkin. Bu holda usta o'quvchilarning hammasi uchun bitta umum buyumni tayyorlash texnologiyasining to'g'ri bajarilishini kuzatib boradi.

Bir xil tayyorlash texnologiyasiga ega, lekin konstruksiyasi boshqa-boshqa bo'lgan hollarda dars zveno shaklida tashkil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Masalan tokarlik stanogini yig'ish (murakkab mahsulot vositasida o'rgatish-o'qitish)da ishni uzellarga ajratadi (uzatishlar qutisi, tezliklar qutisi, ketingi skoba va shunga o'xshash) va har bir uzelni 2-3 kishilik zvenoga topshiradi. Yig'ish operatsiyalariga oid barcha umumiy ma'lumotlarni ishlab chiqarish ustasi frontal yo'riqnoma tarzida o'quvchilarga aytib beradi, har bir uzelnings o'ziga xos

ma'lumotlarini esa har bir zvenoning o'ziga aytadi. Ta'limning mazkur shaklidan foydalanilganda ustaning ish hajmi, ayniqsa joriy yo'riqnoma berishda frontal shakldagiga nisbatan ancha ortadi. Biroq, bundagi xilma-xil ishlar sonining ko'p bo'lishi o'quvchilar kasbiy bilimlarining o'sishiga olib keladi.

Individual (yakka) ta'lim shakli o'quvchilarning konstruksiyasi har-xil, mazmunan esa bir-biriga yaqin bo'lgan ishlarni bajarganlarida qo'llash mumkin. Bu xil ishlar, masalan: o'quv ustaxonasi uchun xilma-xil mayda buyurtmalardan yoki miqdori uncha katta bo'lmagan turli-tuman detallar bo'lishi mumkin. Bunday hollarda usta tayyorlanishi kerak bo'lgan buyumlarning tayyorlanish texnologiyasini tahlil qilib chiqib, o'quvchilarga frontal yo'riqnoma tarzida umumiy belgilarni va individual ta'lim shaklini qo'llagan holda aytiladigan ma'lumotlarni oldindan ajratib qo'yadi. Bunda individual tarzda aytiladigan ma'lumotlar ko'proq bo'ladi. Ko'ramizki, darsni individual shakl asosida tashkil etganda, usta ko'proq tayyorgarlik ko'rishi kerak bo'lar ekan. Bunda darsning individual shakli va individual yo'riqnomadan iborat ikkita tushunchani bir-biridan farq qilish zarur. Individual yo'riqnomani har kanday shaklda tashkil etilgan darsda qo'llash mumkin, lekin bu ishning hajmi frontal dars shaklida kamroq individual shakldagi darsda esa ko'proq bo'ladi.

Aralash shakldagi dars yuqorida ko'rsatib o'tilgan uchchala dars shakllarining elementlaridan tarkib topadi.

O'quvchilarni korxona sharoitida o'rgatishning yana bir shakli, ularni ishchilar brigadasiga qo'shib o'qitishidir. Bu shaklni, masalan, slesar-ta'mirchi, yig'uvchi santexnik, montajchilar, shuningdek, qurilish kabi ixtisosliklarda mutaxassislarni tayyorlashda qo'llash mumkin. Mazkur ta'lim shaklini qo'llashda yuqorida aytib o'tilgan ixtisosliklarga doir ishlab chiqarish brigadalariga umumslesarlik yoki boshqa biron tayyorgarligi bo'lgan bir yoki bir necha o'quvchi biriktiriladi. Bu holda ishlab chiqarish ta'limi ustasining vazifasi davriy ravishda joriy yo'riqnoma o'tkazib turish, kundalik topshiriqning xarakter va hajmini aniqlab turish, beriladigan topshiriq mavzusiga tegishli kirish yo'riqnomasi va ish natijasiga bag'ishlangan yakuniy yo'riqnoma berishdan iborat bo'ladi.

Lekin, o'quvchilar turli ob'ektlarga tarqatilgan bo'lishi tufayli usta har bir o'quvchiga topshiriq berish va undan ishni qabul qilib olish imkonidan mahrum bo'ladi. Shu tufayli bu holda o'quvchilarni o'qitish (o'rgatish) vazifasi qisman ishchilar brigadasi a'zolariga yoki brigadirning o'ziga topshiriladi. O'quvchilar ishchilar brigadasida ba'zan o'qilgan (o'rganilgan), dasturni tizimli ravishda bajarish printsipli buziladi.

Kasb ta'limining muhim shakllaridan biri – o'quvchilarni malakali ishchilarga biriktirishdir. Bunda o'qitish asosiy ishdan ozod qilinmagan yo'riqchi tomonidan olib boriladi. Bir yo'riqchiga bir o'zida ikkitadan ortiq o'quvchi biriktirilmaydi. Bu shaklning ijobiy tomoni bevosita ilg'or texnika-texnologik uskunalar bilan ta'minlangan ishlab chiqarish tsexlarida istalgan hunar bo'yicha yangi ishchilar tayyorlash imkonining mavjudligidir.

Kasb ta'limining maxsus shakli – o'quvchilarning shtatli ish o'rinlarida (iste'mol maxsuloti ishlanadigan ish o'rinlarida) o'tkazadigan amaliyotidir. Bu shakl ta'limning oxirgi oylarida, korxona sharoitida o'tkaziladi. Bu shakl

o'qitishda har bir o'quvchi shtatli joyda ishlab, mahsulotga korxona tomonidan qanday talablar qo'yiladigan bo'lsa, o'sha talablarga to'la amal qilib buyum tayyorlaydi. Bu holda o'quvchi buyum ishlab chiqarish vaqt me'yorini bajarishga ham majbur bo'ladi. O'quvchi tayyorlagan mahsulotni korxonaning texnik nazorat bo'limi xodimlari qabul qilib oladi. O'quv ishlab chiqarish faoliyatini shu xilda tashkil etish o'quvchilarni ayni ixtisos ishchilari ishlaydigan sharoitda mehnat qilishga odatlantiradi.

Bundan tashqari, ish ob'ektlari sifatida korxona tsexlarining buyurtmalari ham bajariladi. Bu esa o'quvchilarni ayni korxonaning unumli mehnatiga yondashtirish uchun eng ma'qul tadbiridir. Biroq bunda kirish yo'riqnomasi, joriy va yakuniy yo'riqnoma o'tkazish uchun zarur sharoitning bo'lmasligi, ta'lim shaklining samaradorligini kamaytiradi.

Nihoyat, darsdan tashqari mashg'ulotlar uyushtirishning so'nggi shakli texnik ijodkorlik to'garaklaridir. Darsdan tashqari mashg'ulotlarning tashkiliy shakllarini o'rganishga kirishishdan avval, ishdagi bu bosqichning o'quvchilar kasbiy mahoratini o'stirishdagi ahamiyatini aniqlab olish kerak. Zero, o'quvchilarning darslarda oladigan bilim, ko'nikma va malakalari faqat o'quv dasturida belgilangan minimumni o'zlashtirishga qaratiladi. Qolbuki, ko'pchilik o'quvchilar zamonaviy texnikaga qiziqadilar. Shu sababli, ularning turli texnika to'garaklarida qantashuvi texnikaga oid bilimlarini o'z qiziqish va qobiliyatlariga muvofiq ravishda rivojlantirishga imkon beradi. Xuddi shu texnika to'garaklarida ayrim o'quvchilarning mohirligi, konstruktorlik va texnik ijodkorligi namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, o'quvchilarning texnik ijodkorlik to'garaklarida jiddiy shug'ullanishi o'zlari tanlagan hunarni muvaffaqiyatliroq va sifatliroq egallashga yordam beradi. Texnika to'garaklari «Mohir qo'llar», «Aviamodelchilar», «Kemamodelchilar», «Konstruktor» va boshqa nomlar bilan tashkil etilishi mumkin. Bu to'garaklarning tashkilotchilari va rahbarlari ishlab chiqarish ustalari va o'qituvchilar bo'lishi mumkin. Bunda to'garaklarga kimlarni yozish, ishni kanday tashkil etish, to'garak ishlarining natijalarini qanday tashviqot qilish kerakligini alohida eslatib o'tishimiz lozim. Faqat to'garak ishlarini tashviqot qilishning eng ma'qullari (ko'rgazmali texnika kechalari, texnikaga bag'ishlangan olimpiadalar, devoriy gazetalar, ma'ruzalar, suhbat, tanlov va h. k.) gina texnika ijodkorligi to'garaklariga o'quvchilarning ko'plab jalb qilishi mumkin.

## 9- JADVALGA

Ta'lim metodlarini to'g'ri tanlash masalasi g'oyat muhim masaladir. O'qitish metodi dastavval o'qitishdan ko'zda tutilgan maqsad va vazifalar bilan, o'quvchilarning bilimlarini ko'nikma va malakalarini ongli va puxta o'zlashtirishi, ularda ijodiy faollik va mustaqillikni o'stirishi bilan belgilanadi.

Kasb ta'limini tashkil etishga nisbatan qo'yiladigan muhim talablardan biri metodlarning xilma-xil bo'lishi va ularning muayyan maqsadga xizmat etishidir.

Ta'limda qo'llaniladigan og'zaki metod barcha ta'lim muassasalari uchun umumiy va eng ko'p tarqalgan metoddir.

Kasb ta'limida usta ko'pincha og'zaki bayon va suhbatdan yoki og'zaki bayon bilan hikoyadan birgalikda foydalanadi. Ustaning kirish yo'riqnoma, joriy

va yakuniy yo'riqnoma o'tkazgandagi tushuntirishlari maxsus texnologiya darslarida o'qituvchi aytib bergan materialni takrorlashdan iborat bo'lmay, balki sof amaliy yo'nalishda bo'lishi g'oyat muhimdir. Nazariy fan o'qituvchisi ma'lum materialni o'tishda qanday atamalar ishlatgan bo'lsa, usta ham o'z o'rnida xuddi o'sha atamalarni ishlatishi kerak.

Materialni bayon qilishda usta o'quvchilarning nazariy bilimlari saviyasiga, ularning ishlab chiqarish ta'limi jarayonida o'zlashtirgan tajribalariga tayanishi lozim. Bu maqsadda u maxsus texnologiya kursi bilan ya'ni: materialshunoslik, chizmachilik dasturi bilan mufassal tanishib chiqishi, bu darslarni tahlil qilib borishi kerak.

Samarali ta'lim metodlaridan biri – suhbat ishlab chiqarish ta'limida o'quvchilarning aqliy faoliyatini va diqqatini rivojlantiradi. Suhbat oldindan tuzilib qo'yilgan reja asosida muayyan masalalarni muhokama qilish, bergan savollarga o'quvchilarning javob berishlari tarzida borishi mumkin. O'quvchilarda ayni mavzuga doir birmuncha bilim va tasavvurlari bo'lgan taqdirdagina suhbat usuli samarali bo'lishi mumkin. Suhbatning muvaffaqiyatli chiqishi ko'p hollarda ustaning o'quvchilarga turli savol qo'ya bilishiga bog'liq. Suhbatni shunday olib borish kerakki, u belgilangan ta'lim tarbiya vazifalarini muvaffaqiyatli amalga oshirishga yordam etadigan bo'lsin. Suhbat aniq belgilangan maqsadga qaratilgan bo'lsin.

Suhbat vaqtida muammoli vaziyat yaratish yo'li bilan o'tilgan va yangi material orasida bog'lanishni ta'minlash mumkin.

Kasbiy ta'lim ustasining suhbatdan mohirlik bilan foydalana bilishi o'quvchilarda faollikni tarbiyalashga, ijodiy tafakkurning va ishda mustaqillikning rivojlanishiga yordam beradi.

#### 10- JADVALGA

Ko'rgazmali ta'lim metodlari orasida ishlab chiqarish ekskursiyalari muhim o'rin tutadi, bu ekskursiyalar esa ishlab chiqarish ta'limini tashkil etish shakllaridan biri hamdir.

Ishlab chiqarish o'quv-ekskursiyasining borishida o'quvchilarning mustaqillik darajasi turlicha bo'lishi mumkin, bu kuzatilayotgan jarayon, jihoz va sayohatdan kutilgan maqsad hamda vazifalarga bog'liq bo'ladi. Ayrim hollarda ob'ektni ishlab chiqarish ustasining o'zi, boshqa xollarda esa o'quvchilar tushuntirib beradi.

Ekskursiyalarning ishlab chiqarish ta'limidagi o'ziga xosligi ham uning muayyan maqsadga qaratilganligidadir. Kirish sayohatlari katta ahamiyatga egadir, bu xil sayohatlar ishlab chiqarish ta'limi dasturining deyarli barcha ixtisosliklar bo'yicha belgilangan. Kirish ekskursiyasi ham, boshqa har qanday sayohatlar singari puxta tayyorlanishi kerak. Bu xil sayohatlar ishlab chiqarish ta'limining boshlanishida o'tkaziladi, binobarin, o'quvchilarning o'zlari tayangan ixtisos to'g'risidagi tasavvurlari ma'lum darajada ularning muvaffaqiyatli o'tkazilishiga bog'liqdir.

Qar-xil ko'rgazmali qurollarni va mehnat qoidalarini ko'rsatish (namoyish qilish) metodi kasb ta'limida muhim o'rin tutadi. Ushbu metod asosida dars

o'tishda tayyorgarlik ko'rish bosqichlariga va namoyishga nisbatan talablarga alohida e'tibor berishimiz kerak bo'ladi.

Ko'rgazmali qurollarni tanlashga kelganda o'z-o'zidan bir savol tug'iladi: bunda buyumlarning o'ziga ustunlik berish kerakmi yoki ularning ramziy tasvirlarigami? Bu masala kamayishdan ko'zda tutilgan maqsad, vazifaga qarab hal etiladi. Masalan, agar o'quvchining buyum bilan tanishtirmoqchi bo'lsak, unga buyumning o'zini namoyish qilganimiz ma'qul, agar ob'ektning ichki xususiyatlarini tushuntirish zarur bo'lsa, uning simvolik tasvirini - chizmasini, sxemasini namoyish qilish, so'ngra buyumning qirqimini namoyish qilish kerak.

Odatda ko'rgazma qurollari dars boshlanmasdan ko'rsatib qo'yilmaydi. O'quvchilarning vaqtidan ilgari ko'rgazma qurollar bilan qiziqishi, bu qurollarga jiddiy qiziqish havasini susaytirib qo'yishi mumkin.

Ba'zan kirish yoki yakunlash yo'riqnomasi vaqtida tarqatib beriladigan materialdan (detallar namunalari, asbob va shunga o'xshashlardan) foydalanish mumkin.

O'quvchilarni tokarlikka, frezachi, slesar, duradgorlik va hokazo hunarlarga tayyorlashda «hajmiy texnologik kartalar» deb ataladigan vositalardan foydalanish mumkin. Masalan, slesarlik asbobini tayyorlashdagi texnologik jarayonni tushuntirishda maxsus planshetdan foydalaniladi, unda ishlov berishning butun ketma-ketligi boshidan oxirigacha, ya'ni zagotovkadan boshlanib, buyum tayyor bo'lgungacha o'z kattaligida tasvirlangan. Bu esa o'quvchilarda kuzatuvchanlik va bilib olish xislatlarini tarbiyalash choralaridan biridir.

Ishlab chiqarish ta'limida mehiat qoidalarini ko'rsatish masalasi alohida o'rin tutadi. Bu, o'qitishning asosiy ko'rgazma metodlaridan biridir. Bundan tashqari, ustaning mehnat qoidalarini va jarayonni ko'rsata bilishi uchun, yuksak kasbiy malakali bo'lishinigina emas, balki etarli darajada pedagogik tajribaga ega bo'lishini ham talab etadi.

Shuni ham ta'kidlab o'tish zarurki, namoyish qilinadigan mehnat qoidalari va jaryonlari barcha o'quvchilarga yaxshi ko'rinadigan bo'lishi shart. O'quvchilar ayni ish qoidalarini shakllantirish uchun qanday harakatlarni va qay tartibda ishlatish kerakligini yaxshi fahmlab olishlari zarur.

## 11- JADVALGA

Kasb ta'limida o'tkaziladigan laboratoriya-amaliy ishlar o'quvchilarning nazariya va amaliy ishlari orasidagi bog'lanishni chuqurroq tushunib olishga yordam beradi. Bu ishlar ba'zan tadqiqot tarzida bo'lishi ham mumkin, bunda o'quvchilar eksperimentni boshlaganlarida oxirgi natija qanday bo'lishini bilmaydilar. Ayrim hollarda laboratoriya-amaliy ishlarda o'quvchilar qisqacha yozib, murakkab bo'lmagan hisoblashlar tarzidagi chizmalar, formulalar, jadval va eskizlarni bajarib boradilar.

O'quvchilarga laboratoriya ishidan topshiriq berganda undan kutadgan maqsad, bajarish tartibi, xavfsizlik, texnikasi qoidalari to'g'risida puxta yo'riqнома berish zarur. Ish murakkabroq bo'lgan taqdirda uni bajarish vaqtida ham nnstruktaj-ko'rsatmalar berib borish kerak.

Laboratoriya-amaliy ishlarga doir topshiriqlarni ishlab chiqarish ta'limi ustasi tayyorlaydi va maxsus texnologiya o'qituvchisi bilan kelishib oladi. Ayrim

hollarda bu ishga elektrotexnika o'qituvchisi, texnik chizmachiligi o'qituvchisi va boshqa ba'zi fanlarning o'qituvchilari ham qatnashishi mumkin.

O'quvchilarning darslik ustida ishlashi, ma'lumotnoma va texnik adabiyotidan foydalanish malakalari asosan nazariy fanlarni o'tish jarayonida vujudga keladi. Lekin, kitob ustida, o'quv texnika va texnika hujjatlari ustida ishlash ayrim usul tarzida ishlab chiqarish ta'limida ham qo'llaniladi. Bunda ishlab chiqarish darslarida yozma yo'riqnoma, laboratoriya-amaliy ishlar vaqtida turli yo'riqnoma va texnologik kartalardan foydalanish alohida o'rin tutadi.

Dars barcha o'quvchilar bilan birga (frontal) olib borilmagan va murakkab o'quv ishi bajarilganda, shuningdek, odatdagi darslarda muhimroq operatsiya va kompleks ishlar bajarilganda ishlab chiqarish ustasining og'zaki yo'riqnomasidan tashqari yozma, yo'riqnoma ham qo'shimcha qilinadi.

Ishlab chiqarish ta'limi darslarida yo'riqnoma va texnologik kartalardan foydalanish o'quvchilarda mustaqillikni tarbiyalashga yordam beradi, ularni ijodiy fikrlashga odatlantiradi, o'qitishni yaxshiroq va sifatliroq tashkil etishga yordam beradi.

So'nggi yillarda ishlab chiqarish ta'limi tizimida «trenajyor», «Imtihon oluvchi», o'quvchilarning bilimini nazorat qilish qurilmalari kabi texnik vositalarining qo'llanila boshlashi ham e'tiborlidir. Slesarlar, tokar va boshqa hunarlar bo'yicha ishchilar tayyorlashda bu vositalarning qo'llanishiga bir necha misol keltirish ham mumkin: metallni egovlashdagi harakatlarni nazorat qiluvchi moslama; metallni qirqishda o'quvchining harakatnii rostlab turuvchi moslama va h.k.

Murakkab texnologik jarayonlarni, apparat va mexanizmlarni (kimyoda, energetika va boshqalarda) boshqarishga bog'liq bo'lgan hunarlar bo'yicha malakali ishchilar tayyorlashda trenajyor tarzidagi murakkabroq va samaraliroq texnik qurilmalar ishlatiladi.

#### 15- JADVALGA

Bu jadval tabiiy-matematik fanlar orasidagi o'zaro bog'lanishni ko'rsatadi. Unda keltirilgan birlashgan-mavzuiy rejada ilmiylik va nazariya bilan amaliyotning bog'lanishi asosida faqat ishlab chiqarish ta'limi maxsus texnologik faniniing ayrim mavzulari orasidagina emas, balki boshqa umumiy ta'lim fanlari orasida ham umumiy texnika fanlari orasida ham xuddi yuqoridagidek bog'lanish amalga oshiriladi. Bu ma'noda nomlari keltirilgan barcha fanlar xuddi tabiiy-matematik turkum fanlariing o'zginasidir.

Shundan keyin aniq misollar bilan (o'quvchilar egallayotgan ixtisosliklari yo'nalishini hisobga olib) nomlari keltirilgan fanlar mavzulari orasidagi ob'ektiv mavjud bog'lanishlarni aniqlash zarur. Shundan keyin birlashgan mavzuiy rejaning asosiy mazmuni, uni ishlab chiqarish bosqichlari bilan tanishiladi.

Shuni aytib o'tish kerakki, tabiiy-matematik fanlarning birlashgan mavzuiy rejasini ishlab chiqishning ahamiyati ayniqsa so'nggi yillarda, ya'ni mamlakatimizda yangi tur kasb-hunar ta'limi muassasalari tashkil etilganidan keyin yana ortdi.

#### 17-JADVALGA

Kasb ta'limi dars rejasining tipik jadvalini o'rganishga kirishishdan oldin bu kasb ta'limi dasturi va rejasi asosida, maxsus texnologik va boshqa fanlarga doir darslarning rejalari ayrim darslar – taqvimiy rejalari asosida tuzilishini aytib o'tish zarur.

Dars rejasining jadvalini ko'rib chiqishda (bu jadvalda dars mazmuni ochilmasdan berilgan) har bir o'qituvchi (usta) o'z ixtisosiga doir mavzulardan birining mufassal dars rejasini keltirsa juda yaxshi bo'ladi.

Yana shuni ta'kidlash joizki, ishlab chiqarish ta'limining keltirilgan dars sxemasi dasturning mavzusiga, darsdan kutilgan maqsadga qarab, boshqacharoq tuzilishi ham mumkin. Masalan, dars rejasida «o'tilganlarni so'rash» yoki «o'rganish mashqlari» bandi bo'lmasligi ham mumkin, chunki, ularni eng murakkab operatsiyani o'rganish vaqtida o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

Tuzilgan dars rejasiga darsni muvaffaqiyatli o'tkazishni ta'minlovchi asbob-moslamalar, materiallar ro'yxati, shuningdek, darsning mufassal konspekti ilova qilinadi.

#### 18-JADVALGA

Bu mavzuni o'rganib boshlaganda kasb ta'limi o'qituvchisining roli to'g'risidagi masalani o'ylab chiqish zarur. Zero u kasb-hunar ta'limi muassasasida malakali kichik mutaxassislarni tayyorlash va tarbiyalashda muhim vazifalarni bajaradi. Bunda ishlab chiqarish ta'limi ustasining asosiy vazifalari, unga o'qituvchi va tarbiyachi sifatida qanday talablar qo'yilishi to'g'risida asosiy tushunchalarni berib o'tish lozim.

O'quvchilarning bilim sifati ko'p jihatdan o'qituvchining o'quv mashg'ulotlarini o'tkazishga tayyorgarlik darajasiga (o'quv yiliga tayyorlanishdan tortib, har bir darsni o'tkazishgacha tayyorlanishga) bog'liq. Bu ishlarning uch bosqich tarzida amalga oshirilishini ta'kidlab o'tamiz: moddiy-texnika bazasi tayyorlash, o'quv jarayonini rejalashtirish ustaning shaxsiy tayyorlanishi.

Usta darsga tayyorlanishida quyidagi ketma-ketlikka amal qilish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- 1) o'tgan mashg'ulotlarning yakunlarini tahlil qilish, ayni darsning mavzusini, mazmunini va maqsadini aniqlash;
- 2) darsning tuzilmasini va uning har bir elementiga tegishli vaqtni belgilab qo'yish;
- 3) darsga doir materialni tanlash va uni o'rganish, darsni o'tkazish usullarini belgilash;
- 4) kirish yo'riqnomasining rejasi va konspektini tuzish.

#### 21-JADVALGA

Bu mavzuda o'zaro bog'langan, lekin mustaqil ikki masala qaraladi. Ulardan birinchisi, ya'ni «o'quv ustaxonasini tashkil etishga qo'yiladigan asosiy talablar» – jadvalda etarli darajada mufassal bayon etilgan, shuning uchun bu o'rinda ikkinchi masalaga doir ba'zi izohlarni berib o'tish joizdir.

Jadvalda o'quv jarayonini tashkil etishga nisbatan qo'yiladigan talablar, odatda ishlab chiqarish ta'limi darslarining istalganiga nisbatan qo'yilishi mumkin, shuning uchun usta darsga tayyorlanar ekan, o'zining rejasida bu talablarning hammasini hisobga olishi kerak.

Usta ishlab chiqarish ta'limi darsidagi ishi quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

1. Kirish yo'riqnomasi jarayonida:

a) o'quvchilarni navbatdagi mashg'ulot materiali va darsning maqsadi bilan tanishtirish;

b) savol-javob yordamida maxsus texnologiya va boshqa fanlardan o'tilganlardan bugungi ishni ongli ravishda bajarish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni o'quvchilarga eslatish;

v) o'quvchilarni ular bugun bajarishi lozim bo'lgan ish bilan – texnologik hujjatlar va ishga nisbatan texnik talablar bilan tanishtirish; ko'rgazma qurollarni tayyorlab, ularni namoyish qilish vaqtini belgilash, ish va o'lchash asboblari tayyorlash;

g) ish qoidalarini tushuntirish va ko'rsatib berish;

d) ishni nazorat qilish qoidalarini tushuntirish va ko'rsatib berish;

e) ishga tayyorlanish tartibini, ish o'rnini tashkil etishni, texnika xavfsizligi qoidalarini tushuntirib berish;

j) o'quvchilarning kirish yo'riqnomasini va mehnat usullarini o'zlashtirish darajasini tekshirish.

Kirish yo'riqnomasidan keyin usta joriy yo'riqnoma o'tkazadi, bundan maqsad esa mehnat qoidalarining to'g'ri bajarilishini, ish o'rnining to'g'ri tashkil etilganligini nazorat qilish, xatolarning oldini olish va yuz bergan xatolarni tuzatishdan iborat.

2. Joriy yo'riqnoma vaqtida:

a) o'quvchilarning operatsiyalarni bajarishda to'g'ri va eng ma'qul mehnat qoidalarini ishlatishlariga erishish;

b) o'quvchilarning ishlariga rahbarlik qilish va ayrim maqsadni ko'zda tutib, ish o'rinlarini aylanib chiqishda, ularga o'z vaqtida yordam berish.

O'quvchilarning ish o'rinlarini aylanib chiqish vaqtida usta hamma o'quvchilar ishni boshlaganmi, ish o'rnini to'g'ri tashkil etilganmi, mehnat qoidalariga va ish sifatini nazorat qilishga to'g'ri amal qilmoqdalarmi, texnik hujjatlardan va o'lchash asboblariidan to'g'ri foydalanmoqdalarmi, ish vaqtida xavfsizlik texnikasi qoidalariga amal qilyaptilarmi - ana shularga e'tibor beradi.

Xatolarga ko'proq yo'l qo'yadigan o'quvchilarga alohida e'tibor berish, agar ularda ishga qiziqishi yo'qligi aniqlansa, ularda qiziqish uyg'otish choralarini ko'rish, musobaqa vaziyatini yaratish kerak. Lekin usta zarur bo'lmaganda o'quvchining ishiga aralashmasligi, xatosini tuzatish yuzasidan to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatma berishi yoki dars oxiri yaqinlashgani tufayli ishni o'zi ishlab berishi (xatosini tuzatishi) mumkin emas, bu bilan o'quvchilarda qiyinchiliklarni engish xislatlarini tarbiyalab bo'lmaydi.

Yakuniy yo'riqnoma darsdan keyin, mavzu yoki uning alohida qismini o'tib bo'lingach, qisqacha xulosa chiqarish tarzida, o'quvchilarda to'plangan ishlab chiqarish tajribalarini umumlashtirish tarzida o'tkaziladi. Bajarilgan ishlari puxta tahlil qilinib, ishlarga baho qo'yish, yaxshi bajarilgan ishlarni ta'kidlab, yomon bajarilgan ishlarning sabablarini ochib tashlash kerak.

Usta ish jarayonida mehnat va texnologik intizomning buzilish hollarini va sabablarini ta'kidlab o'tadi.

#### 20- JADVAL

Kompleks ishlar o'quvchilar bilai o'quv ustaxonasida o'tkaziladigan mashg'ulotlarda ham, korxonadagi ishlarda ham o'tkaziladi. Kompleks ishlarni bajarishda o'quvchilar texnologik jarayoni mustaqil rejalashtirish malakalarini hosil qiladilar, ayni ixtisosga xos buyumlarning konstruksiyalar bilan tanishadilar, murakkabroq ishlarni bajarishda ilgari o'rganilgan operatsiyalarni tatbiq etishga o'rganadilar, o'z-o'zini nazorat qilish malakalarini takomillashtiradilar, ishda xilma-xil asbob, moslama va jihozlardan foydalanishga odatlanadilar shuningdek mehnatni ilmiy asosda tashkil etishga eng so'nggi yutuqlarni egallaydilar. Kompleks ishlar o'quv ustaxonasida bajarilishi rejalashtirilgan taqdirda, uning ayrim bosqichlari turli mashg'ulotlarda bajariladi, usta buni hisobga olib, ta'limning turli davrlariga moslab o'quv topshiriqlarini belgilashi kerak.

Kompleks ishlar ikki xil-operatsiyalarni o'rganish bilan birga o'tkaziladigan oddiy operatsiyalar va hamma operatsiyalar o'rganib bo'lingandan keyin o'tkaziladigan murakkab kompleks operatsiyalarga bo'linadi, oddiy kompleks ishlarni bajarish vaqtida ustaga kirish yo'riqnomasi galdagi topshiriqning mazmunini mufassalroq tushuntirib berishga to'g'ri keladi. Murakkab kompleks ishlarni bajarish vaqtida esa darsni shunday tashkil etish kerakki, bunda o'quvchilar ishni ko'proq mustaqil bajaradigan bo'lsin. Biroq o'quvchilarning o'z ixtisosi bo'yicha qo'lga kiritilgan tajribani hisobga olib, ularning diqqat e'tiborini hozircha ularga ma'lum bo'lmagan texnologik o'tishlarga va yangi ish qoidariga jalb etish zarur.

#### 21- JADVAL

Bu jadvaldan foydalanib, kasb-hunar kolleji bilan korxona o'rtasida tuziladigan shartnomani o'rganib chiqish zarur. Korxona sharoitida ham usta o'z guruhini o'qitish hamda tarbiyalashda asosiy shaxs bo'lib qolishini ta'kidlovchi bandlarga alohida e'tibor berish kerak.

O'quv ustaxonasidagi kabi, korxona sharoitida ham, kirish, oraliq (joriy) va yakuniy yo'riqnoma o'tkaziladi. Lekin korxona sharoitining o'ziga xos tomonlarini hisobga olib, asosiy rahbarlik ishlari joriy yo'riqnoma berish tarzida bajarilishini ta'kidlab o'tish lozim.

Korxonada o'qitishda o'quvchilarning e'tiborini yuqori unumli ilg'or ish qoidalarini va usullarini o'rganishga qaratish kerak.

#### 23- JADVAL

Kasb ta'limi ishlarini hisobga olishni yaxshi tashkil etish uchun ustaning ta'lim-tarbiya ishini o'z vaqtida va xolisona tahlil qilishiga, kamchiliklarni bartaraf qilish tadbirlarini ko'rishiga va ta'lim-tarbiya usullarini takomillashtirish yo'llarini topishiga imkon beradi.

Qisobga olish ishlariga qo'yiladigan asosiy talab, bu ishlarni o'z vaqtida bajarilishini ta'minlashdir. Shuni ham ta'kidlash zarurki, hisobga olish muhim tarbiya vositasi hamdir, u o'quvchilarda o'z bilimlari va o'quvlariga nisbatan mas'uliyat tuyg'usini tarbiyalaydi, intizomni yaxshilaydi, o'ziga, bajariladigan topshiriqning sifatiga nisbatan talabchanlik xislatlarini tarbiyalaydi.

Kasb-hunar kollejini tugatish munosabati bilan qabul qilinadigan imtihonlardan ko'zda tutilgan maqsad o'quvchilar bilimlar, mehnat ko'nikma va malakalarni qanchalik to'la va puxta o'zlashtirganligini aniqlash, o'zi tanlagan ixtisos bo'yicha zamonaviy texnika, texnologiya, ilg'or mehnat qoidalarini egallash, olgan bilimlarini amalda tadbqiq eta bilish darajasini aniqlashdan iborat.

Bitiruv-malakaviy ishi korxonada (o'quvchi ishlab chiqarish ta'limi kursini qaysi ish o'rnida tamomlagan bo'lsa, xuddi o'sha ish o'rnida) bajariladi.

Bir vaqtda bitiruv-malakaviy ishi topshiruvchilarning soni 12-15 kishidan oshmagani ma'qul. Ish boshlashdan oldin o'quvchilarga amaliy topshiriqlar, zarur texnik hujjatlar, materiallar, asbob va moslamalar beriladi, shuningdek, sinov ishiga qo'yiladigan va baho berishda e'tiborga olinadigan talablar aytiladi.

Ishlab chiqarish ta'limi ustasi muntazam ravishda ta'lim muassasasi ma'muriyatiga hisobot berib turishi kerak (hisobot yozma ravishda topshiriladi). Kasb-hunar kollejida ta'lim-tarbiya ishlarini me'yorlashtirish va hisobga olishga oid yo'riqnomalarga muvofiq, yozma hisobotlar yarim yilda, butun o'qish yili uchun va ayni fan bo'yicha butun kurs uchun topshiriladi. Ustaning hisobotidan kasb ta'limi o'quv va dasturining bajarilishi, kasb ta'limi rejasini va vaqt me'yoringin bajarilishi haqidagi ma'lumotlar o'quvchilarning ulgurishlari, intizomlari to'g'risidagi, darsdan tashqari ishlar va o'quvchilarning ta'lim muassasasidagi jamoat ishlarda qatnashishlari to'g'risidagi ma'lumotlar bo'lishi kerak.

Qisobot ma'lumotlarini analiz qilish ishni yaxshilash va kamchiliklarni yo'qotish yo'llarini topishga yordam beradi. Usta hisobotlaridagi ma'lumotlar ta'lim muassasasida ishlab chiqarish ta'limining tashkil etilishini umumlashtirish uchun manba bo'ladi.

#### 24-25- JADVAL

Bu sxemalarga amal qilib, o'qitishning har bir bosqichida o'quvchilarning bilim va ko'nikmalari darajasi tekshirib borilishi kerakligini tushunib olish kerak. Kasb ta'limi dasturining o'tilgan bo'limlarining o'zlashtirish, darajasini aniqlash uchun ishlar qabul qilinadi, bu tekshirishni yarim yildan keyin yoki ishlab chiqarish ta'limi dasturining eng murakkab mavzularini o'rganib bo'lgach o'tkazilishi maqsadga muvofiq.

Korxona sharoitidagi ishlarni olib borishda qo'llaniladigan metodik qoidalar xuddi o'quv ustaxonasida murakkab kompleks ishlarni bajarishda qo'llaniladigan qoidalarining o'ziday bo'ladi. O'quvchilarni korxonada malakali ishchilar brigadasiga qo'shganda ham usta ish jarayoniga rahbarlik qilaveradi. U o'quvchilarning ish bilan ta'minlanishini, ishchilarning ularga yo'l-yo'riq berishini kuzatib turadi, ish vaqtida o'quvchilarga yordam beradi.

Shuni ta'kidlab o'tamizki, kasb-hunar kollejini tamomlashdan oldingi ishlar o'quvchilarni korxonada mustaqil ishlashga tayyorlashdagi so'nggi bosqichdir. Bu davr malaka olish ishlariga tayyorgarlik bosqichi ham hisoblanadi.

#### 26- JADVAL

O'quvchining ishini to'g'ri baholash uchun o'quvchilarning kasb ta'limi bo'yicha o'zlashtirishlarini baholash jadvallaridan foydalaniladi. Biroq bu jadvallar

o'quvchining ishiga to'g'ri baho berish uchun ustaga faqat asosiy yo'nalishni ko'rsatib beradi, shu sababli o'quvchining ishiga to'g'ri baho berishda ustaning pedagogik tajribasi ham katta rol o'ynaydi. Ishga baho berishda shuni esda tutish kerakki, yuqori baho ham, past baho ham o'quvchining ishini yaxshilashga xizmat qilishi kerak. Bahoni asossiz oshirish ham, kamaytirish ham o'quvchining darslarga qatnashishiga, shuningdek, tarbiyasiga katta ziyon etkazishi mumkin; usta baho qo'yish masalasiga befarq qarashi mumkin emas. U o'zi qo'ygan bahosini asoslay olishi, ishdagi ijobiy va salbiy tomonlarini izoxlay olishi lozim.

#### 27-JADVAL

Ishlab chiqarish ustasi va o'quvchilar bilan metodik ishlar olib borishdan ko'zda tutilgan asosiy maqsad – ularning malakasini oshirish. Bu esa ta'lim-tarbiya ishlarini takomillashtirishda muhim vositadir. Bu ish usta va o'qituvchilarning o'quvchilar bilan olib boradigan ishlarida katta yordam beradi, ularning ma'naviy-ma'rifiy saviyasi, pedagogik va ishlab chiqarish malakasini oshiradi.

Shunga e'tibor berish kerakki, ishlab chiqarish ustasi o'qituvchilarning metodik ishlari asosini ularning bu sohadagi mustaqil ishlari tashkil etadi. Bu ish muayyan maqsadga qaratilgan bo'lishi, muntazam olib borilishi va ta'lim-tarbiya ishlarida o'z ifodasini topishi kerak. Usta va o'qituvchilarning mustaqil metodik ishlari quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

- a) ma'naviy-ma'rifiy saviyani oshirish;
- b) o'z ixtisosiga doir nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini kengaytirish;
- v) psixologiya va pedagogikaga doir bilimlarni takomillashtirish;
- g) ta'lim-tarbiya metodlarini takomillashtirish.

Bu ish kasb-hunar kolleji rahbarlarining bevosita nazorati va rahbarligida olib borilishi kerak.

Kasb-hunar kollejida mustaqil metodik ishlar jamoaviy ishlar bilan birga olib boriladi. Jamoaviy metodik ishlardan eng muhimi ixtisoslar bo'yicha tashkil etiladigan metod komissiyalardir. Metod komissiyalarda ko'riladigan masalalar quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

- 1) yangi o'quv dasturi, darslik, qo'llanma va uslubiy ishlanmalarni o'rganish;
- 2) metodik yo'riqnoma va buyruqlarni o'rganish, ularni amalga oshirish yuzasidan tadbirlar ishlab chiqish;
- 3) o'quv-ishlab chiqarish ishlarini, o'quv-texnik hujjatlarini, turli ishlar uchun vaqt me'yorlarini, o'quvchilarning ish o'rinlarini tashkil etish va jihozlash masalalarini muhokama qilish;
- 4) o'quv dasturi mavzularini o'rganish metodlarini muhokama qilish, tekshirish ishlarini va malakalarini belgilashni tashkil etish;
- 5) ochiq darslar o'tkazish va natijalarini muhokama qilish;
- 6) o'qituvchi va ustalarning o'quv guruhlaridagi tarbiyaviy ishlari, darsdan tashqari ishlarini bajarish metodikasi;
- 7) o'qituvchi va ustaning ta'lim-tarbiya ishlariga doir tajribalari, o'quvchilar bilan fan va texnika yutuqlarini, ilg'or mehnat qoidalarini o'rganish kabi masalalar to'g'risidagi axborotlari.

Pedagogik kengash kasb-hunar kollejida ta'lim-tarbiya jarayonining jamoaviy rahbaridir. Bu kengash o'quv-uslubiy va tashkiliy-xo'jalik ishlariga rahbarlik

qilishda direktorga yordam beradi; kengash o'z ishini direktor rahbarligida olib boradi. Pedagogik kengash quyidagi masalalar bilan shug'ullanadi:

1) kasb-hunar kollejining yarim yillik, o'quv ishlarining yakunlarini, shuningdek, malaka imtixonlari natijalarini muhokama qiladi;

2) o'qituvchilarning malakasini oshirish, qayta tayyorlash tadbirlarini belgilaydi, o'qituvchi va ustalarning o'z ish tajribasi haqidagi ma'ruzalarini eshitadi;

3) o'quv guruhlarida darslarning o'zlashtirilishi, darsga qatnashish, usta va o'qituvchilarning o'quvchilar bilan olib boradigan tarbiyaviy ishlariga doir masalalarni ko'radi;

4) o'quv reja va dasturlarining bajarilishi va boshqa shu kabi masalalarni ko'radi.

O'qituvchilarning texnik va pedagogik malakalarini oshirishning jamoaviy shakllari seminar-trening, pedagogik o'qishlar va boshqa shakllari bo'lishi mumkin.

#### 28- JADVAL

Dasturning bu bo'limini o'rganishda ta'lim va tarbiyaga katta ahamiyat beriladi, har bir pedagog o'qitish jarayonida tarbiyaviy masalalarga alohida e'tibor qaratish kerak. Kasb-hunar kollejlari ta'lim-tarbiya ishlari har tomonlama etuk, malakali kasb egalarini tarbiyalashni ko'zda tutadi. Guruhlarda tarbiya ishlarini usta, tarbiyachi va o'qituvchi birgalikda olib boradi. Usta tarbiya ishida asosiy rol ni o'ynaydi.

Usta o'quvchida o'zi tanlagan ixtisosga muhabbat, mehnatga ijodiy yondashish, ijodkorlik va ixtisosga ongli yondoshish xislatlarini tarbiyalaydi. Kasb-hunar kollejida tarbiyalash shakllari xilma-xil bo'lib, ular borgan sari takomillashib boradi.

#### 30- JADVAL

Texnik ijodkorlik o'quvchilarda mustaqil, tanqidiy fikrlash, faollik, ziyraklik kabi yuksak shaxsiy sifatlarni tarbiyalashning muhim vositalaridan bo'lib, ularning bilimlarini kengaytiradi, tafakkurini rivojlantiradi, ixtirochilik va ratsionalizatorlikka undaydi, o'z ixtisosiga qiziqishni kuchaytiradi, o'zi tanlagan ixtisosga oid fanlar hamda texnikaga qiziqish uyg'otadi, mehnat intizomini mustahkamlashga yordam beradi.

Darsdan tashqari ishlar texnik ijodkorlik, ratsionalizatorlik, ixtirochilik to'garaklari, o'quvchilar konstruktorlik byurosi kabilardan iborat bo'ladi. Kasb-hunar kollejida texnik ijodkorlikni rivojlantirish shakllaridan yana biri texnik bilimlarni tashviqot qilishdir. Bunda ko'rgazmalar, tanlovlar hamda texnikaga doir adabiyotlarni targ'ib qilish muhim ahamiyatga ega.

### **13.2 Ta'lim mutaxassisliklari amaliyotlarida amaliyotlarni bajarishning tashkiliy asoslari**

O'quvchilar bilimlarining sifat ko'rsatkichlarini baholash quyidagilar asosida amalga oshiriladi:

- bilimlarning chuqurligi, u egallangan bilimning unga yaqin bilim sohalari bilan anglangan ahamiyatli aloqalari orqali tavsiflanadi;

- bilimlarning qo'llanuvchanligi, o'quvchining o'zlashtirgan bilimlarini aloqador sohalarida qo'llay olishga tayyorligi va bu boradagi ko'nikmalarini ifodalaydi;

- tizimlilik, o'quvchilar ongidagi bilimlar majmui sifatida tavsiyalanadi va uning tuzilmasi ilmiy bilimlar tuzilmasiga muvofiq ravishda qaraladi;

- bilimlarning anglanganligi, ular o'rtasidagi aloqalarda, bilimlarni olish yo'llari va ularni isbotlay olishda namoyon bo'ladi.

O'qish natijalari samaradorligini baholashga misol sifatida o'zlashtirish darajalariga bog'liq ravishda bilimlar chuqurligining o'zgarishini ko'rsatib beramiz.

1-daraja (bilish) - talaba ob'ekt yoki jarayonning tashqi xarakteristikasi bilan yuzaki tanish ekanligini namoyish qilib, berilgan ob'ekt yoki harakatni boshqalaridan farqlash bilan chegaralanadi.

2-daraja (mahsulsiz) - talaba qator belgilar asosida ma'lum ob'ektni farqlash bilan birgalikda unga ta'rif bera oladi va o'quv materialini tushuntirib beradi.

3-daraja (mahsulli faoliyat) - o'quvchi o'rganilayotgan hodisalar aloqadorligini bilishi hamda ob'ektni tavsiflay olish ko'nikmasiga ega bo'lish bilan birgalikda, qo'yilgan masalalarni sabab-oqibat aloqadorligini ochib bergan holda echa oladi, o'rganilayotgan nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lay oladi.

4-daraja (transformatsiya) - o'quvchi ijodiy masalalarni hal qilish mobaynida tegishli bilimlarni qo'llash doirasini maqsadga muvofiq tanlab, echimni topishga xizmat qiluvchi yangi usul va yo'nalishlarni topa oladi.

Har bir sifat ko'rsatkichiga ko'ra o'zlashtirilgan bilimlar samaradorligi darajalari bo'yicha yuqoridagi tartib asosida aniqlanadi.

Bundan tashqari, quyidagi ko'rsatkichlardan foydalangan holda har bir daraja bo'yicha o'zlashtirilgan bilimlarni miqdoriy baholash mumkin:

- o'zlashtirilgan bilimlar hajmi;
- o'quv materialini o'zlashtirish tezligi;
- o'zlashtirish puxtaligi;
- o'zlashtirish aniqligi va h.q.

Ishlab chiqarish ta'limi uchun integral mezon asosida berilgan ta'lim shakli natijalari samaradorligini baholashni ta'minlovchi maxsus ko'rsatkichlar mavjud.

Integral mezon ikkita xususiy mezonlar asosida tashkil topadi:

- harakat yo'naltiruvchi asosining shakllanganlik darajasi mezoni;
- ko'nikma va malakalar shakllanganlik darajasi mezoni.

Harakatni yo'naltiruvchi asosining shakllanganlik darajasi belgilovchi mezon sifatida talabalar tomonidan tuzilgan o'quv-yo'riqnoma kartasi xizmat qilishi mumkin. U bir tomondan harakatni yo'naltiruvchi asosini o'zlashtirish jarayonini tashkil etuvchi vosita sifatida, ikkinchi tomondan faoliyat mazmunining me'yoriy asosi, uni amalga oshirishning etaloni sifatida xizmat qiladi. Qayd etilganlar asosida quyidagilar birinchi mezonning ko'rsatkichlari sanaladi:

- o'quvchilar tomonidan to'ldirilgan kartalardagi axborotning to'liqligi;
- kartalarni mustaqil to'ldirilganligi;
- kartalarni to'ldirishning to'g'riligi.

Axborotning to'liqligiga kartalarga olinishi talab etiladigan natija uchun ahamiyatli bo'lgan barcha predmet sharoitlari va tavsiflarini kiritish yo'li bilan erishiladi.

Kartalarning mustaqil to'ldirilish darajasi vazifani bajarishda ishlab chiqarish ustasining talabaga bergan yordami darajasidan kelib chiqib belgilanadi.

Kartalarning to'ldirilish to'g'riligi harakatlarni tavsiflash orqali nazorat qilib boriladi.

Adekvat tushunchalar tizimida faoliyatni xatosiz tavsiflash, uning mazmuni to'g'risida to'liq hisobot bera olish ko'nikmasi ishlab chiqarish ustasiga talabada harakatni yo'naltiruvchi asosi shakllanganligi to'g'risida xulosa chiqarish imkonini beradi.

Ikkinchi mezon kasbiy ko'nikma va malakalar shakllanganlik darajasini baholash uchun xizmat qiladi. Bunda yuqorida qayd etilgan omillardan tashqari ko'rsatkichlarning invariant to'plamini quyidagi tartibda keltirish mumkin:

a) sifat ko'rsatkichlar:

- bajariladigan harakatlarning to'g'riligi;
- ish o'rnini va mehnatni to'g'ri tashkillashtirish;
- ishni mustaqil bajarish;
- xavfsizlik texnikasi hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilinishi;
- vazifalarni bajarishda nazariy bilimlarni qo'llay olish;
- novatorlar ilg'or ish uslublarini qo'llay olishi;
- ishlab chiqariladigan mahsulot murakkabligi;
- texnologik jarayonni kulay ketma-ketlikda amalga oshirish;

b) miqdor ko'rsatkichlari:

- ishni bajarish aniqligi (normativdan og'ish qiymati);
- vazifani bajarishga ajratilgan vaqt;
- vazifani bajarishda yo'l qo'yilgan xatolar soni;
- xom-ashyo sarfi me'yoriga amal qilish;
- texnologik jarayonlarni bajarish uchun jihoz va asbob-uskunalarining qulay ro'yxatini ishlab chiqish.

Umuman olganda, keltirilgan barcha ko'rsatkichlarni hisobga olgan holda ta'lim natijalarini test nazorati yoki komponentli tahlil metodlari vositasida baholash mumkin.

Ushbu nazorat metodlarining xususiyati ham nazariy, ham ishlab chiqarish ta'limi turlariga nisbatan birdek samarali qo'llanilishi bilan belgilanadi. Farqi esa birinchi holatda baholashning integral mezoni sifatida o'quv materialining o'zlashtirilganlik mezoni, ikkinchi holatda esa - mos ravishdagi maxsus mezonlar asosida ta'minlanuvchi kasbiy ko'nikma va malakalarning shakllanganligi mezoni xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot sohasiga oid ilmiy adabiyotlarning hamda talabalarning umummehnat hamda kasbiy ko'nikma va malakalarini shakllantirishdagi psixofiziologik xususiyatlarining tahlili asosida (I bob) biz bo'lajak mehnat va kasb ta'limi o'qituvchilarida bilim va ko'nikmalar shakllanganligining 3 - jadvalda keltirilgan mezonlarini aniqladik. Bunda ko'rinib turganidek, mezonlar besh ballik

baholash tizimiga asoslangan uchta darajadan iborat, shakllanganlik darajasi esa har bir daraja uchun alohida aniqlab olingan.

Bo'lajak o'qituvchilarda bilim va ko'nikmalarni shakllantirish jarayonini takomillashtirish maqsadida biz maxsus mashqlar tizimini hamda ularni bajarish uchun talabalarga individual topshiriqlar majmuasini ishlab chiqdik (3 - jadval).

3 - jadval

Talabalar bilim va ko'nikmalarining shakllanganlik mezon va ko'rsatkichlari

| Darajalar ko'rsatkichlari | Ballar            | Shakllanganlik mezonlari                                                                                                                                             |
|---------------------------|-------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| YUqori                    | 4 va undan yuqori | Tayyorlanadigan buyumlar to'g'risida nazariy bilimlarga ega bo'lish.<br>Buyumlarni loyihalash va tayyorlash ko'nikmalari.<br>Buyumga badiiy ishlov berishni baholash |
| O'rta                     | 3                 | 1.Buyumlarni tayyorlay olish ko'nikmasi.<br>2.Buyumga badiiy ishlov berishni baholash                                                                                |
| Past                      | 2                 | Buyumlarni tayyorlay olish ko'nikmasiga ega bo'lish.                                                                                                                 |

Tadqiqotning tajriba-sinov ishlarini amalga oshirishda muallif tomonidan ishlab chiqilgan ta'lim mazmuni, ta'lim vositalari yig'indisi, trenajyorlar va ishlab chiqilgan ta'lim uslubi asos bo'lib xizmat qildi.

Tadqiqot jarayonida tashqi teskari aloqa yordamida didaktik imkoniyatlari kengaytirilgan trenajyorlar sistemasidan foydalandik. Bu aloqa talabalar vazifasini bajarishda yo'l qo'ygan xatoliklarni aniqlash imkonini beruvchi elektr impulslari schyotchigi yordamida amalga oshirildi. Tashqi teskari aloqaning kiritilishi o'qituvchining talaba faoliyatini nazorat qilishiga sarflaydigan vaqtini qisqartiradi va egov bilan ishlash, metall qirqish, bolg'a bilan zarb harakatlarini mashq qilish, keskich yordamida uchburchak rezba ochishda tokarlik stanogi supportini boshqarish va fason yuzalarga ishlov berishda ta'limni boshqarish tizimini yaxshilash imkonini berdi. Shu bilan birgalikda biz ta'lim mazmunini ishlab chiqdik va asosladik, uning pedagogik-psixologik va uslubiy turkumdagi o'quv dasturlaridagi o'rni belgilab berildi. O'quv qo'llanmasi bilan birgalikda talabalarining trenajyorlarda ishlashini tashkil qilish uchun zarur bo'lgan algoritmlar tizimi, ushbu faoliyat to'g'risida dastlabki tasavvurlarning shakllanganligini tekshirish uchun testlar tizimi ham ishlab chiqildi.

4 - jadval

Maxsus mashqlar tizimini hamda ularni bajarish uchun talabalarga individual topshiriqlar

| Topshiriq nomi                                    | Bajarilish shakli |
|---------------------------------------------------|-------------------|
| Mehnat va kasb ta'limi o'qituvchisining tashkiliy | Og'zaki           |

|                                                                                                                       |         |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------|
| faoliyati turlarini sanab bering                                                                                      |         |
| O'zining o'qituvchilik faoliyatida har kungi o'z-o'zini nazorat qilish usullarini aniqlash                            | YOzma   |
| Badiiy buyumlar ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan mahalliy hududdagi ishlab chiqarish korxonalarini sanab bering | YOzma   |
| Respublikamizning taniqli hunarmandlarini nomlarini aytib bering                                                      | Og'zaki |
| Badiiy ob'ektga ishlov berish mezonlarini tushuntirib bering                                                          | YOzma   |
| Buyumlarni loyihalash bosqichlarini sanab bering                                                                      | Og'zaki |
| Buyumlarga qo'lda va mexanik usulda ishlov berishning xususiyatlarini bayon qiling                                    | YOzma   |
| Tayyorlangan buyum sifatini baholang                                                                                  | YOzma   |
| Mehnat ta'limi darslarini tashkil qilishda mahalliy hududingizda mavjud sharoitlarni tavsiflab bering                 | Og'zaki |

Nazorat va tajriba guruhlarini shakllantirishda asosan talabalar yoshi, kirish imtihoni natijalari, metallga qo'lda va mexanik ishlov berish malakalarining mavjud emasligi hamda o'quv materialini o'zlashtirish tezligini aniqlash yuzasidan o'tkazilgan test natijalaridan foydalanildi. Testlar tarkibiga kiritilgan tushunchalarning ilgari o'zlashtirilgan materiallarga bog'liqligiga e'tibor qaratildi. Vazifa shundan iborat ediki, talabalar ushbu tushunchalarni o'zlashtirib, ularni yozma ravishda bayon qilishlari lozim edi. Tushunchalarni o'zlashtirish uchun ajratilgan vaqt cheklangan bo'lib, bunda faqatgina ishning boshlanish va tugash vaqti qayd etib borildi. Keyin esa belgilarda ifodalangan, bayon qilingan axborot hisoblanib, o'zlashtirish tezligi aniqlanadi. Shunday qilib, biz intellektual imkoniyatlari bir xil bo'lgan uchta guruhni shakllantirdik, ularning ikkitasi tajriba, uchinchisi nazorat guruhi qilib belgilandi.

**17.4. Tadqiqot natijalarini amaliyotga tatbiq qilishning asosiy yo'nalishlari va xususiyatlari. Metallarga qo'lda ishlov berish.** Tajriba va nazorat guruhidagi ta'limning farqi shundan iboratki, nazorat guruhida ishlab chiqarish ta'limining an'anaviy uslubidan foydalanildi, tajriba guruhida esa biz taklif etgan uslubdan foydalanildi. U shundan iboratki, dastlabki harakatlar to'g'risidagi tasavvurlarni shakllantirish maqsadida darsning yoyilgan sxemasidan foydalanildi va ushbu namuna necha yillar mobaynida amalga oshirib borildi hamda trenajerli ta'limning umumiy asoslarini, uning psixofiziologik va didaktik uslublari asoslarini, shuningdek bizning faol yondashuvimiz natijasida ishlab chiqilgan intensiv ta'lim texnologiyasini qo'llash bilan chuqurlashtirib borildi. Buning uchun foydalanilayotgan trenajyorlar imkoniyatlari tashqi teskari aloqa kiritilishi hisobiga kengaytirildi, diapozitiv va testlar tizimi ishlab chiqildi hamda ular asosida ikkinchi o'zlashtirish darajasidagi dastlabki harakatlar to'g'risidagi tasavvurlarning shakllanishi ob'ektiv nazorati amalga oshirildi. Diapozitiv, test va tashqi teskari aloqaning qo'llanilishi talabalarning ish bajarishi uchun ajratilgan

vaqtni uzaytirish va boshqarish algoritmi sifatida yaxshilash imkonini berdi. Bundan tashqari tajriba guruhda komponentli mashq bajarish uslubidan foydalanildi va uning yordamida dastlab malakaning alohida elementlari shakllantirilib, so'ngra ular bir butun holatga keltirildi. Malakaning ushbu tashkil etuvchilari har bir guruhdagi trenajyorli ta'lim yakunida xatolar ma'lum vazifani bajarishga sarflangan vaqt, namuna egovlan qismi uzunligi va uning sifat ko'rsatkichlari sifatida qayd qilib borildi. Ushbu ma'lumotlar asosida o'zlashtirish koeffitsienti aniqlandi va baholar besh balli shkala bo'yicha qo'yib borildi. Nazorat va tajriba guruhlardagi testlar biz taklif qilgan uslublar asosida olib borildi. Quyida biz ushbu test natijalarining metallga ishlov berish, uni qirqish va bolg'alash bo'yicha yakunlangan trenajyorli ta'lim ko'rsatkichlarini keltiramiz (5-jadval).

Keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, tajriba guruhda hosil qilinadigan malaka turidan qat'iy nazar barcha ko'rsatkichlardan yuqori natijalar qayd etilgan. Shuni ta'kidlash joizki, nazorat guruhida o'zlashtirish koeffitsienti 0,7 dan yuqori bo'lgan bo'lsa-da, ushbu guruhda metallarga ishlov berishga oid trenajyorli mashqlar yakuni bo'yicha beshta talaba umumiy mezon asosida 2 baho oldilar. Bundan kelib chiqqan holda o'zlashtirish koeffitsienti 0,7 dan kichik bo'ladi. Agar nazorat guruhi talabalarining test sinovlari natijalarini alohida olingan talabalar uchun ko'rib chiqadigan bo'lsak (6 - jadval) boshqa metallarga nisbatan ham xuddi shu manzarani kuzatishimiz mumkin. Shu vaqtning o'zida tajriba guruhi talabalari birona ham salbiy baho olmadilar.

Talabalar "Metallga qo'lda ishlov berish" mavzusini o'zlashtirib bo'lganlaridan so'ng biz ilgari ishlab chiqilgan uslub bo'yicha test va ko'rsatilgan hisobni amalga oshirdik. Ushbu natijalar 6 - jadvalda keltirilgan.

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlar ilgari olingan natijalarni tasdiqladi, o'zlashtirish darajasi uchala guruhda ham ko'tarilgani namoyon bo'ladi. Biroq tajriba guruhlardagi nisbatan yuqori o'zlashtirish koeffitsienti (0,84) va yuqori o'rtacha ball saqlanib qoldi. Ushbu holat tajriba jarayonida qo'llanilgan uslublarning samaradorligidan dalolat beradi.

Tajriba sinov ishlarining navbatdagi bosqichlarida "Maktab o'quvchilari mehnat va kasbiy tayyorgarligining psixofiziologik asoslari", "O'qitishning zamonaviy texnika vositalari", "Maktab o'quvchilarini mehnat va kasbga tayyorlashning nazariy asoslari" va "Mehnat va kasb ta'limi uslubi" fanlariga muvofiq ravishda "Trenajyorlar va ularning tasnifi", "Trenajyorlarni qo'llashning psixofiziologik va didaktik asoslari" va "Trenajyorlarni qo'llashning uslubi" kabi mavzular bo'yicha faoliyat mazmuni ishlab chiqildi.

Har bir mavzu o'rganib chiqilgan metallga qo'lda va mexanik ishlov berish, shuningdek avtomobilni boshqarishga oid dastlabki xarakatlar to'g'risidagi tasavvurlarni chuqurlashtiruvchi sifatni nazorat qilish amalga oshirib borildi. Bir vaqtning o'zida nazoratdan so'ng metallga qo'lda ishlov berish yuzasidan ilgari xosil qilingan malakalarni test o'tkazish yordamida aniqlandi. Ushbu testlarning miqdoriy ko'rsatkichlari 7 va 8 - jadvallarda keltirilgan.

Ushbu jadvallarni qiyoslash shuni ko'rsatmoqdaki 7, 8 va 9 semestrlar davomida ikkala guruhda ham malakalar o'zlashtirilgan davrdagiga nisbatan so'nib borgan. Biroq, u tajriba guruhda asta-sekin tiklanib borgan va 8 semestrda dastlabki

darajasiga erishgan. Shu bilan bir vaqtda nazorat guruhida u asta-sekin pasayib bordi va amalda yo'q bo'lib ketdi, chunki talabalar uni ko'plab sinab ko'rish va xatoliklar bilan amalga oshirdilar. Metallarni egovlash bo'yicha kechiktirilgan egovlashni biz ilgari olgan natijalarimizni tasdiqlash maqsadida o'tkazdik.

### 13.3 Ta'lim mutaxassisliklarida tajriba-sinov ishlarini jadallashtirish

**Tajriba-sinov ishlarining tashkiliy asoslari va metodikasi.** Biz o'qitish texnologiyasida asosiy e'tiborni harakat obrazini shakllantirish uslubiga qaratdik. Insonning har qanday ongli faoliyati ushbu harakatni bajarish uslubi to'g'risidagi ma'lumotlar asosida amalga oshiriladi. Inson mahorati darajasi faoliyat to'g'risidagi axborotlarni o'zlashtirish bilan belgilanadi. Bunda o'zlashtirilgan dastlabki harakat obrazi o'zlashtirilgan holda foydalanilishi, yoki faoliyat sharoitlaridan kelib chiqib o'zgartirilishi mumkin. O'zlashtirilgan axborotlardan foydalanishning reproduktiv va produktiv turlarini ajratib ko'rsatish mumkin. Shubhasiz, reproduktiv faoliyat produktiv faoliyatga zamin tayyorlaydi, ya'ni ikkinchisi birinchisining negizida yuzaga keladi, talabalar faoliyati tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, o'qitish vositalari yordamida ikkinchi darajali reproduktiv faoliyat turi shakllanadi.

O'zlashtirish darajalarini aniqlash uchun mos holda testlar ishlab chiqildi. Testlar berilgan faoliyat turiga ko'ra belgilangan vazifa va etalonni, ya'ni harakatni to'g'ri, to'liq bajarish namunasini o'z ichiga oladi. Etalonga ko'ra test echimini beruvchi asosiy mashqlar soni ( $r$ ) oson topiladi. Talabaning javoblari test operatsiyalarini to'g'ri bajarilganligi soni ( $a$ ) ga taqqoslash o'zlashtirish koeffitsienti  $K_\alpha$  ni topish imkonini beradi. Shunday qilib,  $K_\alpha$  q aG'p – bu erda  $K_\alpha$  o'zlashtirish sifatini aniqlovchi mezon hisoblanadi.

O'zlashtirish koeffitsienti me'yorlanib ( $0 < K < 1$ ), shu asosda baholash shkalasi bilan oson taqqoslanadi. Barcha o'zlashtirishni nazorat qilish jarayoni esa avtomatlashtiriladi.

O'zlashtirish koeffitsientiga ko'ra, ta'limning tugallanganligi baholanadi. O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, tokar va slesarlarni tayyorlashni  $K_\alpha$  0,7 dan kichik bo'lmasligi kerak va ta'lim jarayonini tugallangan deb hisoblash mumkin. Chunki, keyingi ta'lim jarayonida talabalar o'z bilimlarini takomillashtirib borishlari mumkin. Haydovchilar uchun bu faoliyat ma'lum hollarda ijtimoiy jihatdan xavfli bo'lishini e'tiborga olib, o'zlashtirishning quyi chegarasini 0,9 gacha ko'tardik. Pedagogik jarayonlarga o'zlashtirish sifatini aniqlovchi  $K_\alpha$  ning kiritilishi pedagogik texnologiyaning asosiy mezonlaridan biri - **ta'limni yakunlanganlik mezonini** shakllantirish imkonini beradi. Agar harakat faqat mazmun bilan tavsiflanadigan bo'lsa, uni **ko'nikma** deb ifodalash mumkin, agar harakat tezlik bilan ham tavsiflanadigan bo'lsa, u holda malaka to'g'risida so'z yuritish mumkin bo'ladi, ya'ni harakat avtomatlashadi.

Faoliyat umumiy strukturasidagi har qanday harakat turi o'ziga xos funktsiya va strukturaga ega bo'ladi. Dastlabki harakatlar bilan faoliyatning to'g'ri bajarilishi, ishga kirishish tezligi, bu faoliyat bajarilishining aniqligi va sifati, nazorat va tuzatuvchi harakatlar bilan uning anglanganligi aniqlanadi.

O'zlashtirishning "avtomatlashuv" ko'rsatkichi asosan dastlabki harakatlarning bajarilishiga bog'liq bo'ladi. Holatga yo'naltirish qanchalik yaxshi bajarilsa (dastlabki axborotning to'g'ri o'zlashtirilganligi), uslubni to'g'ri tanlash va faoliyatni to'g'ri bajarish uchun shu darajada ko'proq belgilarni o'zlashtirishga zarurat tug'iladi. Harakatni o'zlashtirish avtomatlashuv darajasiga etgach, u qisqartirilgan yo'naltiruvchi qism bo'yicha bajariladi, natijada o'sha harakatni bajarishga sarflanadigan (T) vaqt kamayadi. Vaqtning qisqarishi asosan faoliyatning yo'naltiruvchi qismi va harakatning qolgan qismlarini kamayganligi sababli harakatlarning xatosiz bajarilishi hisobiga amalga oshadi.

Zamonaviy pedagogika va psixologiya fanlarida amalga oshirilgan tadqiqotlardan kelib chiqib, inson tomonidan tajribalarning o'zlashtirilishi didaktik jarayon strukturasini uchta o'zaro bog'liq komponentlar ko'rinishida tasavvur qilish mumkin: ya'ni motivatsion, talaba bilish faoliyati va boshqarish. Didaktik jarayonning har bir komponentini qurishda qanday pedagogik tasavvurlardan kelib chiqilganligiga asoslanib, o'quv-tarbiya jarayonining turli texnologiyalarini qurish mumkin.

Psixologiya va pedagogika fanlarida "motivatsiya" deganda individ faoliyati ma'lum ma'noga ega bo'ladigan mazmunga, shaxs qiziqishlarining turg'unligi, faoliyat tashqi maqsadlarining ichki talablarga aylanishiga aytiladi. Pedagogik amaliyotda quyidagi uchta turdagi motivatsiya ajratib ko'rsatiladi: jalb etuvchi, motivatsion-muammoli holatlar va kasbiy qiziqishlar.

Motivatsiyaning mavjudligi talabalarning rejalashtirilgan ta'lim ko'rsatkichlariga erishishini to'liq ta'minlay olmaydi. Ta'lim jarayonlarini boshqarishni tashkil qilishning to'g'ri usuli tanlangandagina didaktik jarayonning tugallanganligi ta'minlanadi. Shuning uchun ham talabalarning barcha o'quv-bilish harakatlari, ularni o'zlashtirish va tuzatish, ya'ni o'zlashtirish jarayonini boshqarish zarur bo'ladi. O'zlashtirishni boshqarishning eng sodda usuli bu o'zlashtirishni mos darajadagi testlar yordamida davriy tarzda nazorat qilishdan iborat.

O'zlashtirishni turli nazariya va farazlar tarkibida bayon qilingan va mashqlar tizimi ketma-ketligi ko'rinishida keltirilgan, ya'ni o'quv-bilish faoliyati ketma-ketligi, operatsion ketma-ketlik sifatida o'quv faoliyati umumiy formulasi funktsiyalash algoritmi (FA) ni tashkil qiladi.

Talabaga funktsiyalash algoritmini bajarish yoki o'zgartirish maqsadida ta'sir ko'rsatish uning o'quv-bilish faoliyatini bajarishidir.

Agar, ta'lim jarayonini kuzatish ma'lum qonuniyatlar asosida amalga oshirilsa, bu qoida shu darajada ma'lum bo'lgan algoritm asosida amalga oshiriladigan ta'limni maqsadga muvofiq boshqarish to'g'risida so'z yuritish mumkin. Bu algoritmni "boshqarish algoritmi" (BA) deb nomladik. Shunday qilib, boshqarish algoritmi - bu talaba faoliyatini kuzatish, tuzatish tizimi bo'lib, FA ni boshqarishdagi turg'unlikni ta'minlash va qo'yilgan ta'lim maqsadlariga erishish uchun amalga oshiriladi.

Agar BAni ko'rsatmalar tizimi sifatida yozib olish mumkin bo'lsa, uni FA bilan birgalikda talabaning o'zi bajarishga to'sqinlik qilmaydi. Shunday qilib, talaba nafaqat bajaruvchilik, balki nazorat harakatlarini ham o'rganishi mumkin.

Umuman olganda, ta'lim jarayoni strukturasi o'rganuvchiga ta'sir ko'rsatishning ikki yo'nalishi ko'zga tashlanadi: birinchisi FA mantiq bo'yicha bo'lib, axborotni tahlil qilish va o'zlashtirishni amalga oshiradi; ikkinchisi - BA mantiq bo'yicha bo'lib FA ko'rsatmalarini kuzatish va bajarilishini nazorat qilishga yo'naltirilgan.

BA ko'rsatmalarining ma'lum qismini uzatishda pedagogdan talabaga uzatiladigan bilimlar va ularning samaradorligi o'zgarishga uchraydi.

### **Umummehnat va kasbiy ko'nikma hamda malakalarning rivojlanganlik darajasini baholashning ko'rsatkich va mezonlari**

Pedagogik texnologiyalarni baholash mezonlari tizimi ta'limdagi miqdoriy ko'rsatkichlar bilan birgalikda sifat ko'rsatkichlarni ham baholash imkonini beradi.

Mazkur tizimning ahamiyati unda nafaqat natijalash bosqichida, balki loyihalash bosqichida ham aniq olingan pedagogik texnologiyalarni mufassal tavsiflash imkonini beruvchi mezonlarning bir necha guruhlari mavjudligi bilan belgilanadi (6 –shakl).

#### **17.2. Yangi texnologiyalarni loyihalash bosqichida baholash mezonlari.**

Birinchi mezon - jarayonni o'zaro ichki bog'liqlikka ega bo'lgan bosqichlar, davrlar va operatsiyalarga ajratib olish.

Ikkinchi - algoritmlilik mezonining asosiy funktsiyalari texnologiya tarkibiga kiruvchi operatsiyalarning bajarilishini baholash hamda belgilangan natijaga erishish ishonchliligini ta'minlashdan iborat.

Algoritmlilik mezoni o'zida quyidagi eng asosiy ko'rsatkichlarni mujassamlashtiradi:

- texnologiya tarkibiga kiruvchi operatsiyalarning bajarilishidagi aniqlik va qat'iylik;
- funktsional to'laqlilik mezoni.

## **14-MAVZU: KASB TA'LIM PEDAGOGIKASINING DIDAKTIK PRINTSIPLARI.**

14.1 Kasb-hunar ta'limi jarayonlari tahlili va asosiy didaktik tushunchalar.

14.2 Kasb-hunar ta'limida umumdidaktik tamoyillar onglilik va faollik, ilmiylik, sistematik, nazariy va amaliy birligi ta'lim-tarbiya birligi ko'rsatmalilik.

14.3 Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari va ularni kasb-hunar ta'limida qo'llash.

### **14.1 Kasb-hunar ta'limi jarayonlari tahlili va asosiy didaktik tushunchalar.**

Kasb-hunar pedagogikasining metodologik asoslari.

Har qanday mustaqil davlatning o'z mafkurasi bo'lmog'i darkor. Ta'lim va tarbiyada umuminsoniy qadriyatlar bilan birga milliy o'ziga xoslik nisbati, muvozanati alohida ahamiyatga ega. Prezidentimiz I.A.Karimovning "O'zbekistonning o'z istiqbol va taraqqiyot yo'li". "O'zbekiston - kelajagi buyuk davlat" risolalarida va ijodkor ziyolilar bilan o'tkazgan uchrashuvda mustaqil O'zbekiston Respublikasi mafkurasining asosiy yo'nalishlari-belgilab berilgan.

Dunyo tarixiy pedagogik jarayonida umuminsoniylik va milliy masalalarni tahlil qilish hozirgi kunning dolzarb masalasi hisoblanadi. Bu borada Sharq ulug' mutafakkirlarining g'oyalari ahamiyatga molikdir. Ma'lumingiz bo'lsinki, Al Forobiy, ibn Sino, Beruniy, Al Xorazmiy va boshqalarning g'oyalari dunyo ijtimoiy-pedagogik jarayoniga ko'p jihatdan ta'sir etib, ma'lum darajada o'yg'onish davrining asosiy shart-sharoitlarini yaratib bergan.

### **Uzluksiz ta'limni standartlashtirish asoslari**

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qabul qilingandan keyin uni amalga oshirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining birinchilar qatorida qabul qilgan qarori 1998-yil 5-yanvardagi «Uzluksiz ta'lim tizimi uchun davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish to'g'risida» gi 5 sonli qaroridir.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunning 7-moddasiga, Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga muvofiq respublikada idoraviy bo'ysunishi va mulkchilik shakllaridan qat'i nazar ta'lim muassasalarining barcha turlari uchun majburiy bo'lgan davlat ta'lim standartlari (DTS) belgilanadi.

### **Davlat ta'lim standartlarining maqsad va vazifalari.**

Davlat ta'lim standartlari joriy etilishi quyidagi maqsadlar amalga oshirilishini nazarda tutadi:

- ta'limning yuksak sifatini hamda mamlakatda amalga oshirilayotgan chuqur iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar, rivojlangan demokratik davlat barpo etish talablariga javob beruvchi kadrlar tayyorlanishini ta'minlash;
- mamlakatning ijtimoiy va ijtimoiy taraqqiyoti istiqbollariidan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqib kadrlar tayyorlash mazmunini tartibga solish;
- ta'limning demokratiyalashuvi, insonparvarlashuvi va ijtimoiylashuvi, ta'lim oluvchilarning huquqiy iqtisodiy bilimlari darajasini, shuningdek ta'lim jarayoni samaradorligini oshirish;
- sifatli ta'lim xizmatlarini ko'rsatish, ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasida shaxsning, jamiyat va davlatning manfaatlarini himoya qilish;

### **O'quv rejasi, o'quv dasturi, kasb-hunar ta'limi davlat standartining mohiyati.**

Davlat ta'lim standartlarining vazifalari:

- ta'lim sifatiga va kadrlar tayyorlashga, ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari nomenklaturasiga nisbatan qo'yiladigan maqbul talablarni belgilash;
- ta'limga va uning pirovard natijalariga, ta'lim oluvchilarning bilimi va kasbiy malakasi darajasini vaqti-vaqti bilan baholash tartibi va tartibotiga, shuningdek ta'lim faoliyati sifati ustidan nazorat qilishga nisbatan qo'yiladigan tegishli talablarni belgilovchi me'yoriy bazani yaratish;
- xalqning boy ma'naviy merosi va umuminsoniy qadriyatlar asosida ta'lim oluvchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning samarali shakllari va usullarini joriy etish;
- ta'limning barcha turlarida ular mazmunini hamda olib boriladigan ta'lim va tarbiyani kelishib olish ularning o'zaro bog'liqligini, uzluksiz ta'lim tizimida va kadrlar tayyorlashda izchillikni ta'minlash;

- o'quv-tarbiya va ta'lim jarayoniga, uzluksiz ta'lim tizimining pedagogik texnologiyalariga va axborot bilan ta'minlanishiga, ta'lim darajasini nazorat qilishga, ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchilar va ularni bitiruvchilarning malakasiga nisbatan me'yorlar va talablarni belgilash;
- ta'lim va kadrlar tayyorlash sifatiga baho berishning holis tizimini, ta'lim muassasalarini attestatsiyadan o'tkazish va akkreditatsiya qilishni joriy etish;
- kadrlarni maqsadli va sifatli tayyorlash uchun ta'lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta'minlash;
- milliy standartlar talabining ta'lim sifati va kadrlar tayyorlashga nisbatan xalqaro talablarga muvofiqligini ta'minlash;

#### **14.2 Kasb-hunar ta'limida umumdidaktik tamoyillar ongillik va faollik, ilmiylik, sistematik, nazariy va amaliy birligi ta'lim-tarbiya birligi ko'rsatmalilik.**

**Pedagogik jarayon mohiyati va tuzilmasi.** Pedagogik jarayon o'qituvchi va ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini amaliyotda qo'llash faoliyatini o'z ichiga qamrab oladi. Kasbiy ta'lim jarayonida **mazmun, o'qish, o'qitish, tarbiyalash** asosiy bog'lovchi komponentdir.

**O'qish** tizimli va asoslangan o'quv faoliyati bo'lib, ta'lim oluvchi tomonidan bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishda o'quv jarayoni o'ziga xos o'rin tutadi.

**Anglash** murakkab, rivojlanuvchi jarayondir. Xis-tuyg'u va bilimlarni qabul qilish jarayonida ta'lim oluvchi ob'ektiv xaqiqatni anglaydi, u yoki bu predmet yoki jarayon to'g'risida taassurotga ega bo'ladi.

Samarali o'qitishning muhim shartlari quyidagilardir: ta'lim oluvchining qiziqishi faoliyatining faolligi, o'qituvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi samimiy munosabat.

##### **O'qitish sistemada o'zaro aloqadorlik**

Agar o'qish jarayoni ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish qobiliyatlarini, o'qitish tizimida o'zaro aloqadorlikni xisobga olmasdan, tashkil etilsa, unday holda o'qitish jarayoni samarasiz bo'ladi.

##### **O'qitish jarayonining muhim komponenti**

Beriladigan bilim mazmuni o'quv dasturi, davlat ta'lim standartida ko'rsatilgan bo'lib, uning tarkibini ijtimoiy maqsad, davlat buyurtmasi, pedagogik tizimining aniq maqsadlari belgilaydi. Pedagogik jarayonning faqat ta'limning mazmunlilikigagina emas, balki uning qonuniyligiga ham ta'sir ko'rsatadi.

##### **Pedagogik jarayonning rivojlantiruvchanlik funktsiyasi**

Berilayotgan bilimlarni o'zlashtirish o'quv dasturida qayd qilingan ta'lim oluvchilar aqliy, fikrlash qobiliyatini rivojlantirish borasidagi harakatlar ularning o'zlari tomonidan ham amalga oshirilishi lozim.

**Ta'lim oluvchilarni rivojlantirish** – bu pedagogik jarayon natijasidir o'qish rivojlanishning garovi bo'lib, fikriy, aqliy rivojlanish bilan birga faoliyatning ham rivojlanishiga olib keladi.

Pedagogik jarayon to'g'risida aniq fikrga ega bo'lish uchun bu jarayonni yo'naltiruvchi (boshqaruvchi) kuchlar haqida ham ma'lumotga ega bo'lish kerak. Bunday kuchlarning rivojlanishini dialektik o'qish nuqtai nazaridan aniqlash mumkin. Pedagogik jarayonga yuzaga keluvchi qarama - qarashliklar va ularning o'zaro aloqasini o'rganish ham muhimdir.

O'qituvchi ta'lim oluvchilarni bilim va malaka bilan qurollantirar ekan, ularni murakkab masalalarni hal qilishga yo'naltirilishi, pedagogik jarayonda yuzaga kelgan qiyinchiliklarning bartaraf etishga undagi talim oluvchi imkoniyatlaridan oshmasligiga ahamiyat berishi kerak. Shundagina ta'lim oluvchilarning qobiliyat va bilimlari oddiydan murakkabga qarab borib, ularni murakkab masalalar echimini topishga undaydi.

Ta'lim mazmunini tanlash hozirgi bosqichma-bosqich o'qishni tashkil qilish sharoitida alohida ahamiyatga ega, chunki bu erda o'quv dasturiy hujjatlar har qaysi alohida olingan yo'nalishga (bakalavr, magistr, litssy, gimnaziya, kolledj) alohida-alohida tuziladi.

**Ta'lim mazmunining strukturasi va tuzilish printsiplari.** Ta'lim mazmunining strukturasi va tuzilishi quyidagi printsiplarga asoslanadi:

1. Ta'lim mazmunining davlat sotsial-iktisodiy rivojlanish yo'nalishlariga bog'liqlik printsiipi.

2. Fanlararo kompleks aloqalar printsiipi.

3. Kasblarga yo'naltirilganlik printsiipie

4. Ta'lim mazmunini tanlashda yadro va qobik yoki ustivor va o'zgaruvchan (dinamik) qismlarga bo'lib tanlash printsiipi.

5. Ta'lim mazmunini unifikatsiyalash va tabaqalashtirish printsiipi.

**Ta'lim jarayonining tarkibiy qismlari.** Ta'lim jarayoni ta'lim beruvchi - o'qituvchining va ta'lim olayotgan o'quvchilar faoliyatining yig'indisidan iborat.

## 2. KASBIY TA'LIM METODLARI

**Kasbiy ta'lim metodlarining umumiy tavsifnomasi.**

Ta'lim metodini 3 ta asosiy guruxga bo'lishimiz mumkin:

1. O'quv bilish va o'quv ishlab chiqarish faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirish metodi.

2. O'quv faoliyatiga qiziqtirish va rag'batlantirish metodi.

3. O'quvchilar o'quv faoliyatini samaradorligini nazorat qilish va o'z-o'zini nazorat qilish metodi.

**Nazariy ta'lim metodlari.** O'quv muassasalarida o'qitishning nazariy asoslari o'quvchilar tomonidan o'zlashtiriladi..

**Ko'rgazmali metod.**

Olimlarning fikricha, 80% axborot miyaga ko'z orqali uzatiladi. Ish operatsiyalarining 80% ko'z orqali bajariladi. Ushbu dalillardan ko'rishimiz mumkinki, ta'lim jarayonida ko'rgazmali metod katta ahamiyatga egaligini.

**Amaliy ta'lim metodlari.** Mashq amaliy metodning asosiy metodlaridan biri hisoblanadi. Mashq o'tkazishning asosiy maqsadi o'qitish jarayonida ta'lim oluvchilar texnika va kasbiy fanlar bo'yicha egallagan bilimlarini amaliyotda qo'llay olish borasidagi ko'nikmalarga bo'lishlari taminlashdan iboratdir.

**Ta'limda faollik metodi.** Ta'lim oluvchilarning ichki va tashqi faolligini oshirish uchun turli xil o'yinlardan foydalaniladi. Bulardan keng, ko'p qo'llniluvchisi – didaktik o'yinlardir.

**Ishlab chiqarish ta'limi metodi.** Ishlab chiqarish ta'limining asosiy maqsadi ta'lim oluvchilarda muayyan kasb, soha bo'yicha ustachilikni shakllantirishdir. Ishlab chiqarish ta'limida bu maqsadga bosqichma-bosqich erishiladi.

**Ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish.** Nazorat qilishning 2 turi mavjud. Birinchidan, ta'lim oluvchilarning o'quv faoliyatini doimiy kuzatish, ikkinchidan, ta'lim oluvchilarning bilimlari va malakalarini tekshirish.

**Ta'lim metodlarini tanlash.** Ta'lim metodining umumiy tavsifida ko'rsatilganidek, har bir metodning ta'lim jarayonida aniq vazifalari bor. Ta'lim jarayonida bir necha metodlar qo'llaniladi. Bu metodlar bir-biriga bog'liq bo'lib, o'qituvchi-ta'lim oluvchi o'rtasidagi o'zaro faoliyat mohiyatini tavsiflaydi. O'qitish jarayonida metodlarning o'zni va vazifalari belgilab olinganda ularni tanlash onson bo'ladi.

### 3. KASBIY TA'LIMNING TASHKILIY SHAKLLARI

**Ta'limning asosiy shakllaridan birisinf-dars tizimi xisoblanadi.** U nazariy, amaliy laboratoriya shakllarida bo'lishi mumkin. Ta'limning tashkiliy shakllari o'qituvchi va o'quvchining hamjihatlikdagi faoliyatini aniklab beradi, ommaviy talim va alohida (individual) holdagi ta'limning nisbatlarini belgilaydi.

**Kasb ta'limining boshqa tashkiliy turlari.** Darsni to'lg'azadigan va o'quvchilarning politexnik ta'limiga ko'maklashadigan ta'limning tashkiliy turlaridan biri amaliy mashg'ulot hisoblanadi.

O'quvchilarning o'z tanlashlari na hohishlariga ko'ra ilmiy-nazariy bilimlarini, amaliy tajribalarini kengaytirish hamda chuqurlashtirish uchun o'rganadigan o'quv fanlari fakultativlar deb nomlanadi.

Sayohat darslari dasturdagi, ma'lum bir belgilangan bo'limlarni o'rganish bilan bog'liq ravishda o'tkaziladi: tabiatga sayohatlar, ishlab chiqarish korxonalariga sayohatlar, tarixiy joylar va yodgorliklarga, geografiya sayohatlari, adabiyot sayohatlari va boshqalar.

### 14.3 Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari va ularni kasb-hunar ta'limida qo'llash.

**O'qitish vositalari didaktikaning kategoriyasi sifatida.** O'qitish vositalari bu moddiy olam, tevarak-atrof va tabiiy ob'ektlar, shuningdek, inson tomonidan o'quv – tarbiyaviy jarayonda axborot olish, pedagog va o'qituvchilar faoliyatida o'z oldiga qo'ygan va o'qitish, tarbiyalash va rivojlanish uchun qo'llaniladigan qurol sifatida yaratilgan sun'iy ob'ektlar hisoblanadi.

1. Tabiiy ob'ektlar – izlanish va o'rganish uchun aniq fanlarni o'z ichiga oladi: moddalar namuna va kolleksiya, reaktiv xom - ashyo, asbob, detal, o'simlik, mikropreparat gerbariy va hayvonlar hamda ularning qotirib qo'yilgan xolati va hokazolar.

2. Moddiy ob'ektlar (haqiqiy)ni tasvirlash va aks ettirishga xizmat qiluvchi guruhni tashkil etadi: model, maket, jadval va ko'rgazmali qurollari (rasmlar,

fotoaksi chizmalar, portretlar); ekran – tovush vositalari (diafilmlar, diopozitiv seriallari, slaydalar) kinofilmlar, transportlari, video va tovush yozuvlari, platinkalar, radio eshitirish va teleko'rsatuvlar.

#### 5.KASB TA'LIMINI TASHKIL ETISHDA INNOVATSION TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

**Ta'lim jarayonlarini tahlil etishda qo'llaniladigan pedagogik kategoriyalar.** Ta'lim maqsadi, mazmuni, shakl, uslub va vositalari pedagogikada ta'lim jarayonlarini tahlil etishda qo'llaniladigan an'anaviy kategoriyalar hisoblanadi. Aynan o'sha kategoriyalar malum bir predmet, mutaxassislik yoki ixtisoslik bo'yicha o'quv tarbiyaviy jarayonni tashkil qiluvchi pedagog faoliyatining predmeti sifatida yuzaga chiqadi.

**O'qitish texnologiyasini loyihalash.** O'qitish texnologiyasining loyihalash tuzilishini pedagogik vazifaning qo'yilishi va uni hal etish asosida ko'ramiz.

**Umumlashgan pedagogik texnologiyalar.** Umumlashgan pedagogik texnologiyalar malum psixopedagogik asoslardan iborat «sintetik nazariya» sifatida qaraladi, ilgari loyihalashtirilgan ta'lim-tarbiya jarayonining pedagogik texnologiyasi o'zida metodlar tizimi, ta'limning metodik usullari, o'qituvchi va talabalarning birgalikda faoliyat ko'rsatish imkoniyatlari, vositalari, talabalarning ijobiy shaxsiy sifatlarini rivojlantirish maqsadi hamda yakuniy natijalarga erishish instrumentariysini mujassamlashtiradi.

**Talaba yoshlarda manaviy-axloqiy odatlarni tarbiyalash jarayoni va uning vazifalari.** Kamolotga erishgan, har tomonlama rivojlangan avlodni tarbiyalash jarayoni uning doimiy, muntazam, izchil va tizimli ravishda tarbiyalashni taqozo etadi. Bu yo'lda kasbiy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini takomillashtirish, fundamental, kasbiy fanlar singari g'oyaviy mazmuni talabalarga, yangi jamiyatning har bir mutaxassisiga zarur bo'lgan ijtimoiy dunyoqarashni shakllantiruvchi tasavvurlar zahirasini hosil qilishi lozim bo'lgan ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitishga yangicha yondashuv asosida axloq malakalarini hosil qilish mumkin.

Pedagogik jarayon o'qituvchi va ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini amaliyotda qo'llash faoliyatini o'z ichiga qamrab oladi. Kasbiy ta'lim jarayonida **mazmun, o'qish, o'qitish, tarbiyalash** asosiy bog'lovchi komponentdir.

**O'qish** tizimli va asoslangan o'quv faoliyati bo'lib, ta'lim oluvchi tomonidan bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishda o'quv jarayoni o'ziga xos o'rin tutadi.

**Anglash** murakkab, rivojlanuvchi jarayondir. Xis-tuyg'u va bilimlarni qabul qilish jarayonida ta'lim oluvchi ob'ektiv haqiqatni anglaydi, u yoki bu predmet yoki jarayon to'g'risida taassurotga ega bo'ladi.

Samarali o'qitishning muhim shartlari quyidagilardir: ta'lim oluvchining qiziqishi faoliyatining faolligi, o'qituvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi samimiy munosabat.

**O'qitish sistemada o'zaro aloqadorlik**

Agar o'qish jarayoni ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish qobiliyatlarini, o'qitish tizimida o'zaro aloqadorlikni xisobga olmasdan, tashkil etilsa, unday holda o'qitish jarayoni samarasiz bo'ladi.

### **O'qitish jarayonining muhim komponenti**

Beriladigan bilim mazmuni o'quv dasturi, davlat ta'lim standartida ko'rsatilgan bo'lib, uning tarkibini ijtimoiy maqsad, davlat buyurtmasi, pedagogik tizimining aniq maqsadlari belgilaydi. Pedagogik jarayonning faqat ta'limning mazmunlilikigagina emas, balki uning qonuniyligiga ham ta'sir ko'rsatadi.

### **Pedagogik jarayonning rivojlantiruvchanlik funktsiyasi**

Berilayotgan bilimlarni o'zlashtirish o'quv dasturida qayd qilingan ta'lim oluvchilar aqliy, fikrlash qobiliyatini rivojlantirish borasidagi harakatlar ularning o'zlari tomonidan ham amalga oshirilishi lozim.

### **O'qitish jarayonining muhim komponenti**

Beriladigan bilim mazmuni o'quv dasturi, davlat ta'lim standartida ko'rsatilgan bo'lib, uning tarkibini ijtimoiy maqsad, davlat buyurtmasi, pedagogik tizimining aniq maqsadlari belgilaydi. Pedagogik jarayonning faqat ta'limning mazmunlilikigagina emas, balki uning qonuniyligiga ham ta'sir ko'rsatadi.

### **Pedagogik jarayonning rivojlantiruvchanlik funktsiyasi**

Berilayotgan bilimlarni o'zlashtirish o'quv dasturida qayd qilingan ta'lim oluvchilar aqliy, fikrlash qobiliyatini rivojlantirish borasidagi harakatlar ularning o'zlari tomonidan ham amalga oshirilishi lozim.

## **15-MAVZU: KASB TA'LIMNING DIDAKTIK IMKONIYATLARINI OSHIRISH OMILLARI**

15.1 Kasb ta'limda o'qitish vositalarini qo'llashni texnologiyalashtirish

15.2 Kasb ta'limda didaktik qonuniyatlar mazmunini yoritish

15.3 Kasb ta'lim didaktikasida o'qitish malakalarini shakllantirish

### **15.1 Kasb ta'limda o'qitish vositalarini qo'llashni texnologiyalashtirish**

Umumdidaktik tamoyillar bilan pedagogik jarayon qonunlari o'zaro aloqada bo'lib, mazkur aloqa o'zining speo'ifik xususiyatlariga egadir. Ularning asosiylarini ko'rib chiqamiz.

**Politeknik tamoyil** Politeknik bilim zamonaviy ishlab chiqarish tizimining ilmiy asoslarini egallashni nazarda tutib, shu bilimlar asosida umumkasbiy politeknik va maxsus bilimlar shakllantiriladi.

Politeknik tamoyillarni o'qitishda quyidagi shartlarga amal qilish lozim.

- a) Asosiy yo'nalishdagi rivojlangan texnika va ilmni o'qitish
- b) bir-biri bilan o'zaro bog'langan o'quv material tizimini tashkil etish.
- v) O'rganilayotgan fan asoslari borasidagi bilimlarni amaliyotda qo'llash.
- g) Ta'lim berishda ta'lim oluvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olish.
- d) Ta'lim oluvchilar qiziqishlarini qondirish.
- e) Kasbiy bilim berish umumta'lim bilimlariga tayanish.
- j) O'quv materialining turg'un bo'lishiga erishish.
- z) O'quv mavzularining ketma-ketligiga erishish.

**Amaliyot va nazariyaning o'zaro bog'liqligi tamoyili.**

O'quv jarayonida nazariy va amaliy bilimning o'zaro aloqadorligiga tayanish va o'quv predmetining asosiy maqsadi o'zlashtirilgan bilimlarni amaliyotda qo'llash quyidagi shartlarga amal qilishga bog'liq.

a) nazariy bilimlarning amaliyotda sinalishi.

b) ixtiyoriy ish jarayonida sohaviy bilimlarning qo'llanilishi.

v) ishchilarni samarali o'qitish omili kasbiy ishlab chiqarish talabiga muvofiq kasbiy bilim berish ekanligini yodda tutish;

g) bilimlarni o'zaro malakaviy bog'lashda gorizontal va vertikal yo'ldan foydalanish.

**O'quv jarayonida mutaxassis faoliyatini modellashtirish tamoyili.**

Modellashtirish orqali mazmun va maqsadlarni isbotlash uchun avval oson bilimlarni o'zlashtirish, o'qitish metodlarini o'quv rejasi va o'quv dasturi talablari asosida tanlash. O'quv jarayonida keng tarmoqli ishchi faoliyati quyidagi shartlar asosida amalga oshiriladi:

a) bilim va malakani politexnik yo'naltirish.

b) Ko'chirib (integrtsiya asosida) o'qitish jarayonida gradatsiyaning o'rni.

v) Ko'chirib o'qitish jarayoni.

**Mobillik tamoyili.** Bu printsip shaxsning texnik bilimlari tez o'zlashtirish qobiliyatini tavsiflanadi. Ishchining ijodiy ish xarakteri, dunyoqarashining kengligi muammolarni anglab olish va ishlab chiqarish rivojlanishini ko'ra bilish bilan belgilanadi.

**Tartibli ketma – ketlik tamoyili quyidagilarni o'z ichiga oladi:**

\* o'quv jarayonini rejalashtirish;

\* o'quv jarayonida ketma – ketlikga amal qilish;

\* deduktiv o'qitish metodlarini qo'llash;

\* umumiy ta'lim bilimlarini tayanch qilib olish;

\* o'quv materallarini o'zaro bog'liq holda tartibli berib borish.

**Atrof-muhitni tashkil etish tamoyili.** Atrof muhit deganda avvalom bor bilim yurtida o'quv qurollari didaktik vositalar bazasini aratish va texnik, texnologik, ekologik talablarga rioya qilish shu bilan birga mehnat muhofazasini taminlash va ta'lim oluvchilarning sog'liqlarini saqlash borasida muayyan sharoitlarni yaratish lozimligi tushuniladi.

**Kompyuterlashtirilgan pedagogik jarayon tamoyili**

Hozirgi vaqtda kompyuterlar hayotimizning turli sohalariga kirib kelmoqda. Shu bois ushbu tamoyil muhim ahamiyatga ega. Kompyuterlar pedagogik sohada ham keng qo'llanilmoqda. Ta'lim oluvchilar kompyuterlar yordamida mavzuni kengroq, qiziqarliroq o'zlashtiradilar va tushuntirilayotgan mavzuni ekranda ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

**O'qitish vositalari didaktikaning kategoriyasi sifatida.** O'qitish vositalari bu moddiy olam, tevarak-atrof va tabiiy ob'ektlar, shuningdek, inson tomonidan o'quv – tarbiyaviy jarayonda axborot olish, pedagog va o'qituvchilar faoliyatida o'z oldiga qo'ygan va o'qitish, tarbiyalash va rivojlanish uchun qo'llaniladigan qurol sifatida yaratilgan sun'iy ob'ektlar hisoblanadi.

1. Tabiiy ob'ektlar – izlanish va o'rganish uchun aniq fanlarni o'z ichiga oladi: moddalar namuna va kolleksiya, reaktiv xom - ashyo, asbob, detal, o'simlik,

mikropreparat gerbariy va hayvonlar hamda ularning qotirib qo'yilgan xolati va hokazolar.

2. Moddiy ob'ektlar (haqiqiy)ni tasvirlash va aks ettirishga xizmat qiluvchi guruhni tashkil etadi: model, maket, jadval va ko'rgazmali qurollari (rasmlar, fotoaksi chizmalar, portretlar); ekran – tovush vositalari (diafilmlar, diopozitiv seriallari, slaydalar) kinofilmlar, transportlari, video va tovush yozuvlari, platinkalar, radio eshitirish va teleko'rsatuvlar.

#### 5.KASB TA'LIMINI TASHKIL ETISHDA INNOVATSION TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

**Ta'lim jarayonlarini tahlil etishda qo'llaniladigan pedagogik kategoriyalar.** Ta'lim maqsadi, mazmuni, shakl, uslub va vositalari pedagogikada ta'lim jarayonlarini tahlil etishda qo'llaniladigan an'anaviy kategoriyalar hisoblanadi. Aynan o'sha kategoriyalar malum bir predmet, mutaxassislik yoki ixtisoslik bo'yicha o'quv tarbiyaviy jarayonni tashkil qiluvchi pedagog faoliyatining predmeti sifatida yuzaga chiqadi.

**O'qitish texnologiyasini loyihalash.** O'qitish texnologiyasining loyihalash tuzilishini pedagogik vazifaning qo'yilishi va uni hal etish asosida ko'ramiz.

**Umumlashgan pedagogik texnologiyalar.** Umumlashgan pedagogik texnologiyalar malum psixopedagogik asoslardan iborat «sintetik nazariya» sifatida qaraladi, ilgaridan loyihalashtirilgan ta'lim-tarbiya jarayonining pedagogik texnologiyasi o'zida metodlar tizimi, ta'limning metodik usullari, o'qituvchi va talabalarning birgalikda faoliyat ko'rsatish imkoniyatlari, vositalari, talabalarning ijobiy shaxsiy sifatlarini rivojlantirish maqsadi hamda yakuniy natijalarga erishish instrumentariysini mujassamlashtiradi.

**Talaba yoshlarda manaviy-axloqiy odatlarni tarbiyalash jarayoni va uning vazifalari.** Kamolotga erishgan, har tomonlama rivojlangan avlodni tarbiyalash jarayoni uning doimiy, muntazam, izchil va tizimli ravishda tarbiyalashni taqozo etadi. Bu yo'lda kasbiy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini takomillashtirish, fundamental, kasbiy fanlar singari g'oyaviy mazmuni talabalarga, yangi jamiyatning har bir mutaxassisiga zarur bo'lgan ijtimoiy dunyoqarashni shakllantiruvchi tasavvurlar zahirasi hosil qilishi lozim bo'lgan ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitishga yangicha yondashuv asosida axloq malakalarini hosil qilish mumkin.

#### 15.2 Kasb ta'limda didaktik qonuniyatlar mazmunini yoritish

**Ta'lim oluvchilarning o'quv faoliyatini tashkil etish.** Ta'lim oluvchilarning asosiy o'quv faoliyati bilimlarni o'zlashtirish bo'lib, u quyidagi komponentlarni o'z ichiga oladi. O'quv materialini qabul qilish, fikrlash, egallab qolish va qo'llash. Bu komponentlar bir – biri bilan o'zaro bog'liq bo'lib, o'quv jarayonida ketma-ket qo'llanilib, butun bir o'quv jarayonini tashkil etadi.

**Ta'lim oluvchi tomonidan o'quv materialining qabul qilinishi.**

O'quv materialini qabul qilish o'quv jarayonining eng muhim qismidir. O'quv materialining yaxshi qabul qilinishi o'quv ishlab chiqarish faoliyatida mustahkam poydevor vazifasini bajaradi.

**O'quv materialini samarali o'zlashtirishning ichki sharoitlari.** O'quv materialini samarali o'zlashtirish uchun, eng avvalo ta'lim oluvchining ehtiyoji bo'lishi kerak. Ichki ehtiyoj bilimlarni o'zlashtirish vaqtida harakat sifatini oshiradi. Ichki o'zlashtirish, materialni imtixonga qadar esda saqlanib qolish bo'lib, javob berib bo'lgandan keyin esdan chiqadi. O'zlashtirishning muvaffaqiyati ta'lim oluvchining faoliyatiga ham bog'liq bo'ladi. Chunki ta'lim oluvchi berilayotgan material mazmuniga qiziqsa va o'z ustida ishlasa o'zlashtirishning eng yuqori cho'qqisiga erishishi mumkin.

O'zlashtirishning ichki dalillaridan yana biri berilayotgan material mazmuni ta'lim oluvchi tomonidan tushunilishidir. Ta'lim oluvchi mavzuni tushunmasa o'z ustida qancha ishlamasin, bu mavzuni oldingi mavzular bilan bog'lay olmasa, Mavzuning o'zlashtirilishi sodir bo'lmaydi yoki mavzuni o'zlashtirish juda qiyin kechadi, bilim sayoz bo'ladi.

### **Muammoli ma'ruz mashg'uloti jarayonida va mashg'ulot yakunida talabalr tomonidan bajariladigan topshiriqlar**

#### **Dars boshlanishida**

- Mashg'ulot muammoli ma'ruza shaklida borishini ma'lum qiladi va talabalrdan mavzuga oid muammoli savollar berishni so'raydi, berilgan savollar orasidan eng maqbullarini mavzu uchun muammoli savollar sifatida belgilaydi;

- Talabalar oldiga mavzu mazmunini to'liq ochib beruvchi, buning uchun talabalarni izlanishga majbur qiluvchi muammoli savollar qo'yiladi va ularga javob topish bilan muammoli masalani echish va shu orqali mavzuni mukammal o'zlashtirish vazifasi qo'yiladi.

#### **Dars yakunida**

Talabalarga **“Besh minutlik esse”** yozdiriladi. YOzma topshiriqning ushbu turida talabalardan quyidagi ikki topshiriqni bajarish:

- mazkur mavzu bo'yicha ular nimalarni o'rgangan-liklarini mustaqil bayon etish;

- javobini ololmagan savollarini berish so'raladi.

**Pedagogik jarayon mohiyati va tuzilmasi.** Pedagogik jarayon o'qituvchi va ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini amaliyotda qo'llash faoliyatini o'z ichiga qamrab oladi. Kasbiy ta'lim jarayonida **mazmun, o'qish, o'qitish, tarbiyalash** asosiy bog'lovchi komponentdir.

**O'qish** tizimli va asoslangan o'quv faoliyati bo'lib, ta'lim oluvchi tomonidan bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishda o'quv jarayoni o'ziga xos o'rin tutadi.

**Anglash** murakkab, rivojlanuvchi jarayondir. Xis-tuyg'u va bilimlarni qabul qilish jarayonida ta'lim oluvchi ob'ektiv xaqiqatni anglaydi, u yoki bu predmet yoki jarayon to'g'risida taassurotga ega bo'ladi.

Samarali o'qitishning muhim shartlari quyidagilardir: ta'lim oluvchining qiziqishi faoliyatining faolligi, o'qituvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi samimiy munosabat.

#### **O'qitish sistemada o'zaro aloqadorlik**

Agar o'qish jarayoni ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish qobiliyatlarini, o'qitish tizimida o'zaro aloqadorlikni xisobga olmasdan, tashkil etilsa, unday holda o'qitish jarayoni samarasiz bo'ladi.

### **O'qitish jarayonining muhim komponenti**

Beriladigan bilim mazmuni o'quv dasturi, davlat ta'lim standartida ko'rsatilgan bo'lib, uning tarkibini ijtimoiy maqsad, davlat buyurtmasi, pedagogik tizimining aniq maqsadlari belgilaydi. Pedagogik jarayonning faqat ta'limning mazmunlilikigagina emas, balki uning qonuniyligiga ham ta'sir ko'rsatadi.

### **Pedagogik jarayonning rivojlantiruvchanlik funktsiyasi**

Berilayotgan bilimlarni o'zlashtirish o'quv dasturida qayd qilingan ta'lim oluvchilar aqliy, fikrlash qobiliyatini rivojlantirish borasidagi harakatlar ularning o'zlari tomonidan ham amalga oshirilishi lozim.

**Ta'lim oluvchilarni rivojlantirish** – bu pedagogik jarayon natijasidir o'qish rivojlanishning garovi bo'lib, fikriy, aqliy rivojlanish bilan birga faoliyatning ham rivojlanishiga olib keladi.

Pedagogik jarayon to'g'risida aniq fikrga ega bo'lish uchun bu jarayonni yo'naltiruvchi (boshqaruvchi) kuchlar haqida ham ma'lumotga ega bo'lish kerak. Bunday kuchlarning rivojlanishini dialektik o'qish nuqtai nazaridan aniqlash mumkin. Pedagogik jarayonga yuzaga keluvchi qarama - qarashliklar va ularning o'zaro aloqasini o'rganish ham muhimdir.

O'qituvchi ta'lim oluvchilarni bilim va malaka bilan qurollantirar ekan, ularni murakkab masalalarni hal qilishga yo'naltirilishi, pedagogik jarayonda yuzaga kelgan qiyinchiliklarning bartaraf etishga undagi talim oluvchi imkoniyatlaridan oshmasligiga ahamiyat berishi kerak. Shundagina ta'lim oluvchilarning qobiliyat va bilimlari oddiydan murakkabga qarab borib, ularni murakkab masalalar echimini topishga undaydi.

Ta'lim mazmunini tanlash hozirgi bosqichma-bosqich o'qishni tashkil qilish sharoitida alohida ahamiyatga ega, chunki bu erda o'quv dasturiy hujjatlar har qaysi alohida olingan yo'nalishga (bakalavr, magistr, litssy, gimnaziya, kolledj) alohida-alohida tuziladi.

**Ta'lim mazmunining strukturasi va tuzilish printsiplari.** Ta'lim mazmunining strukturasi va tuzilishi quyidagi printsiplarga asoslanadi:

1. Ta'lim mazmunining davlat sotsial-iktisodiy rivojlanish yo'nalishlariga bog'liqlik printsiipi.

2. Fanlararo kompleks aloqalar printsiipi.

3. Kasblarga yo'naltirilganlik printsiipi

4. Ta'lim mazmunini tanlashda yadro va qobik yoki ustivor va o'zgaruvchan (dinamik) qismlarga bo'lib tanlash printsiipi.

5. Ta'lim mazmunini unifikatsiyalash va tabaqalashtirish printsiipi.

**Ta'lim jarayonining tarkibiy qismlari.** Ta'lim jarayoni ta'lim beruvchi - o'qituvchining va ta'lim olayotgan o'quvchilar faoliyatining yig'indisidan iborat.

### **15.3 Kasb ta'lim didaktikasida o'qitish malakalarini shakllantirish**

V.A.Suxomlinskiy ko'p yillik amaliy tajribani, kasbiy-ishlab chiqarish faoliyatga moslashuvga oid qiziqapli fikrlarni umumlashtirib va tahlil qilib

bunday deb yozadi: "Agap o'quvchi o'z ishini chuqur o'ylab tahlil qilsa, unda o'z tajribasini nazariy anglashga qiziqish, o'quvchilarning bilimi bilan o'zining kasbiy-ishlab chiqarish faoliyatga moslashuvi o'rtasidagi sabab-oqibat aloqalarini izohlashga qiziqish paydo bo'lmasligi mumkin emas". Bo'lg'usi mutaxassis - o'quvchining kasbiy tayyopgalligiga, uning yosh fiziologiyasi va psixologiyasi asoslariga oid bilimlarni egallab olishiga katta ahamiyat berib "**qat'iy psixologik negizsiz** kasbiy-ishlab chiqarish faoliyatga moslashuv yo'q", deb hisoblaydi.

Psixolog olimlarning fikricha xar qanday shaxsning shakllanishi asosan uch sohada amalga oshiriladi:

1) **faoliyat sohasi**, ya'ni umri mobaynida shaxs turli faoliyatlarga bevosita yoki bilvosita jalb etilgan bo'lib, bu jarayonda faoliyatlar jabxasi, soxasi kengayib, boyib boraveradi. Har bir faoliyat turi individdan maxsus fazilatlarni, malaka va ko'nikmalarni, bilimlarni talab etadiki, ularni qoniqtirish yo'lidagi aktivligi unda o'ziga xos ijtimoi-psixologik xususiyatlar kompleksini shakllantiradi;

2) **muloqot sohasi**, ayniqsa maktabgacha yosh davrdagi va o'smirlik davrlaridagi muloqot sistemalari bolada bir qancha ijtimoiy-psixologik xislatlarni paydo qiladiki, buning natijasida u faol hayotiy mavqega ega bo'ladi, jamiyatda o'z o'rnini tasavvur qilishga erishadi.

3) **o'z-o'zini anglash sohasi**, ya'ni "Men" obrazining yil sayin o'zgarib borishi jarayoni bo'lib, avval o'zini boshqalardan farqliligini, o'zicha mustaqil harakat qilish, mustaqil fikr yurita olish qobiliyatini anglash, so'ngra esa o'z-o'zini baholash, anglash, nazorat qilish- xususiyatlari rivojlanadiki, ular ham faol shaxs psixologiyasining tarkibiy qismidir.

Psixologlarning fikricha, (G.Asmolov, P.Shixerev, V.A.YAdov, P.Nadirashvili va boshqalar) ijtimoiy ustanovkalarni o'zgartirish uchun shu ustanovkaning sababi bo'lgan vaziyat yoki faoliyatning maqsadi va motivini o'zgartirish shartdir. Shu narsa shaxsning aktiv ongli faoliyatida sodir bo'ladi. Bundan tashqari, har bir shaxsda o'ziga xos tarzda dunyoni, odamlarni idrok qilish va tushunish qobiliyati borki, ular muloqot jarayonida kamroq xatolarga yo'l qo'yishini ta'minlaydi. Masalan, bosiqlik, mulohazalilik o'zgalarning ichki dunyosini gaplari, hatti-harakatlariga qarab bilish qobiliyati va boshqalar shular jumlasidandnr. Shu fazilatlarni qanchalik namoyon eta olishiga qarab **shaxs tiplari** farqlanadi Turli xil tipdagi odamlarning kasbiy faoliyatga moslashib ketishi turlicha bo'ladi.

Kasb ta'lim pedagogikasida **qo'llaniladigan metodlardan foydalanishda pedagogika fanining tamoyillari va usullariga qo'yilgan talablarga rioya qilishi maqsadga muvofiqdir:**

1. O'rganish lozim bo'lgan ta'lim-tarbiya bilan bog'liq har bir jarayon, holat va xususiyatlarni bir-biriga bog'lab tekshirish lozim. Har bir o'rganiladigan ta'lim yoki tarbiya jarayonini, psixik hodisalarni nerv-psixofiziologik asoslardan yoki xotirani diqqatdan, idrokni tafakkurdan ajratib o'rganish yaramaydi.

2. Tekshirilayotgan ta'lim-tarbiya va psixik hodisalarni rivojlanish qonuniyatlarini bilmasdan turib uni har tomonlama o'rganish mumkin emas. Shuningdek, turli yoshdagi talabalarning psixik rivojlanish xususiyatlarini

bilmasdan turib o'rganilayotgan talaba shaxsi yosh davrining o'ziga xos xususiyatlarini tushuntirib berish ham, tavsifnoma berish ham mumkin emas.

3. Tekshirish jarayonida talaba shaxsining butun psixikasida, ongida aks etadigan jamiyatning moddiy negizi undagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar bilan o'rganiladi.

4. Pedagogika va psixologiya murakkab psixik taraqqiyot qonuniyatlarini o'rganishda narsa va hodisalarning sababiy bog'lanish tamoyiliga asoslanadi.

5. Ta'lim-tarbiya jarayonida talaba psixikasining taraqqiy etishini o'rgana turib, bilim olish, tajribalar to'plash jarayonida uning bilish qobiliyatini, ya'ni xotira, tafakkur, fikr yuritishdagi sifat o'zgarishlarini kuzatish orqali bilib olish lozim.

6. Pedagogika va psixologiya o'rganishi lozim bo'lgan jarayonini, ob'ektni tajribadan, psixik hayot qonuniyatlari faktlarini aniqlash va tahlil qilishdan boshlash lozim. Bu esa psixik hayot qonuniyatlarini ochish va tegishli nazariy va amaliy xulosalar chiqarish imkoniyatini beradi.

7. Ta'lim-tarbiya jarayonida qaysi psixik hodisani o'rgansak ham talaba o'zini kuzatayotganini yoki tekshirilayotganligini sezmasligi kerak. Aks holda esa kuzatish va tajriba natijalarini buzilishi mumkin.

8. Talabalarni jamoada va jamoa a'zosi sifatida o'rganish lozim, ya'ni ayrim talabani o'rganish jamoa xususiyatlarini o'rganish bilan birga olib borilishi kerak.

9. Kuzatishlardan yaxshi natijalar olish uchun, talaba shaxsining hislatlari turli xil namoyon bo'lishini nazarda tutib, ularni doimiy ravishda, reja asosida kuzatish lozim.

## **16-MAVZU: KASBIY PEDAGOGIKA QO'LLANILADIGAN ILMIY-TADQIQOT METODLARI, SHAKLLARI VA VOSITALARI.**

16.1 Kasbiy pedagogikada qo'llaniladigan ilmiy-tadqiqot metodlari o'qitish jarayonida tarbiyalanuvchilarga shaxs sifatida qaralishi, turli pedagogik texnologiyalar hamda zamonaviy metodlarni qo'llanilishi ularni mustaqil, erkin fikrlashga, izlanishga, har bir masalaga ijodiy yondashish, ma'suliyatni sezish, ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, tahlil qilish, ilmiy adabiyotlardan unumli bo'lgan qiziqishlarni kuchaytirish.

16.2 Kasb-hunar ta'limni tashkil qilish shakllari va vositalari bilan talabalarni tanishtirish ularda bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilish.

**16.1 Kasbiy pedagogikada qo'llaniladigan ilmiy-tadqiqot metodlari o'qitish jarayonida tarbiyalanuvchilarga shaxs sifatida qaralishi, turli pedagogik texnologiyalar hamda zamonaviy metodlarni qo'llanilishi ularni mustaqil, erkin fikrlashga, izlanishga, har bir masalaga ijodiy yondashish, ma'suliyatni sezish, ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, tahlil qilish, ilmiy adabiyotlardan unumli bo'lgan qiziqishlarni kuchaytirish.**

Ilmiy pedagogik izlanishlarni jarayonini shartli ravishda quyidagi bosqichlarga bo'lish mumkin:

1. O'qituvchining adabiyotlar o'rganish va amaliy ishlari asosida muammoni aniqlashi.

2. Gipoteza qurish ya'ni o'qitishni bosqichma-bosqich tashkil etish. Faktlar va ularni taqqoslash orqali izlanuvchi asoslangan taklifni beradi.

3. Izlanish natijalarini rasmiylashtirish va o'quv jarayoniga qo'llash.

Maxsus fanlarni o'qitish metodikasida ilmiy izlanishlarning umumiy va maxsus metodlari qo'llaniladi.

Umumilmiy metodlarga nazariy izlanish, kuzatish, suhbat va eksperimentlar kiradi.

**Nazariy metod** - adabiyotlardan o'rganish va tahlil qilish, hamda pedagogik tajribalar asosida olib boriladigan izlanishlar kiradi. Adabiyotlar ustida ishlashda kitob va jurnallar, maqolalar va patentlar, ilmiy ishlanmalar to'plamlar va kataloglar, internet tizimidan olingan ma'lumotlardan foydalaniladi.

**Kuzatish** - odatda tabiiy kuzatish orqali talabalarning fanlarni o'zlashtirishlari, ularning xulq-atvori va muomalalaridagi o'zgarishlarni hisobga olish va tegishli ta'limiy-tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish yo'llarini belgilash uchun qo'llaniladi.

**Suhbat metodi** - so'rashning bir turi bo'lgani holda tadqiqotchining jiddiy tayyorgarlik ko'rishini talab etadi, chunki u tekshirayotgan shaxs bilan bevosita aloqada bo'lish vaqtida og'zaki suhbat tarzida, suhbatdoshining javoblarini yozmasdan erkin muomala formasida qo'llaniladi.

**Pedagogik so'rash metodi** – tadqiqotchining boshqa kishilardan pedagogik tajribaning biror tomoni yoki hodisalari haqida axborot olish jarayoni bu metodning asosini tashkil qiladi. So'rash savollarning mantiqiy o'ylangan sistemasini, ularning aniq ifodalanishini, nisbatan kamchiligi (3-5ta) nazarda tutiladi. Shuningdek, qat'iy formadagi javobni ("ha", "yo'q") ham taqozo etishi mumkin.

**Test, so'rovnoma** - bu so'rovnoma, ya'ni anketa usuli qo'llanganda yaratilgan ilmiy farazning yangiligini bilish, aniqlash, talabalarning yakka yoki guruhli fikrlarini, qarashlarini, qanday kasblarga qiziqishlarini, kelajak orzu-istaklarini bilish va tegishli xulosalar chiqarish, tavsiyalar berish maqsadida o'tkaziladi.

O'qitishning texnik vositalari deganda ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining hamkorlik faoliyatini ta'minlab, uning samaradorligini oshirish, ta'minlash maqsadida foydalaniladigan qurilmalar tizimi tushuniladi.

Barcha o'qitishning texnik vositalarini shartli ravishda uch asosiy guruhga bo'lish mumkin.

1. Audiovizual vositalar (kinoproektsiya, diaproektsiya va epiproektsiyalar, ovoz yozib olish, televidenie, radio);
2. Jihozlar, uskuna va asboblari;
3. Dasturli (kompyuterli) ta'lim vositalari.

O'qitishning texnik vositalaridan ta'lim-tarbiya jarayonining tashkil etuvchi komponentlari bilan uzviy bog'liqlik va munosabatlarini hisobga olgan holda foydalanish zarur. Aks holda mashg'ulot samarasini umuman yo'qqa chiqarish ham mumkin. Mashg'ulotda o'qitishning texnik vositalaridan foydalanish yordamchi xarakterga ega bo'lib, ularni tanlash, ishlatish vaqti va joyi darsning umumiy rejasida maqsadlarga muvofiq ravishda belgilanadi.

Ta'lim-tarbiya ishida texnik vositalardan foydalanish avvalo didaktik printsipolarga amal qilishni ko'zda tutadi. Masalan, ko'rsatmalilik printsipini real ob'ekt bilan mavhum tasavvurning birligini ifodalaydi.

Real ob'ekt yoki uning tasvirini ko'rish (idrok etish) inson uchun uni bilishning dastlabki va eng oddiy akti hisoblanadi, aniq tasavvurlar va mavhum tushunchalar hosil qilish uchun asos vazifasini o'taydi.

**Tarbiya metodlarini turkumlash:**

**1. Tarbiya axborotini o'zlashtirish manbaiga ko'ra:**

- a) og'zaki (so'zlab berish, savol-javob, suhbat, ma'ruza, tushuntirish, bayon etish kabilar);
- b) ko'rsatmali (ko'rsatmali bayon etish, tushuntirish);
- v) amaliy (tajriba sinovlari va laboratoriya ishlari, o'quv ishab chiqarish mehnati);

**2. Tarbiya axborotini uzatilishi va o'zlashtirish mantiqiga ko'ra:**

- a) oddiydan murakkabga (induktiv);
- b) murakkabdan oddiyga yoki mavhumdan ma'lumga (deduktiv);

**3. O'rganuvchilarning mustaqil tarbiya tafakkuri darajasiga ko'ra:**

- a) mahsulsiz (reproduktiv);
- b) mahsullik (produktiv);

**4. Tarbiya ishlarini bajarilish darajasiga ko'ra:**

- a) Tarbiya beruvchi rahbarligidagi ta'lim-tarbiyaviy ishlar;
- b) Tarbiya beruvchi rahbarligisiz tahsil oluvchilarning mustaqil ishlari (manbalar bilan ishlash, yozma ishlar, laboratoriya ishlari, mehnat vazifalarini bajarish va shu kabilar);

**5. Tarbiyalanuvchilarning o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini oshirish bo'yicha:**

- a) tarbiyalash o'yinlari;
  - b) tarbiya bo'yicha munozaralari;
  - v) tarbiya bo'yicha qiziqarli amaliy vaziyatlarni yuzaga keltirish;
6. Javobgarlik burchini shakllantirish va rag'batlantirish usuliga ko'ra:
- a) ishonitirish;
  - b) talab qo'yish;
  - v) qo'yilgan talabga muvofiq mashq qildirish;
  - g) rag'batlantirish va jazolash;
7. Nazorat qilish va o'z-o'zini nazorat qilish usuliga ko'ra:
- a) yakka holda tarbiyalash;
  - b) yoppasiga (yalpi) tarbiyalash;
  - v) og'zaki va yozma sinov yoki so'rovnomalar;
  - g) dasturli so'rov (testlar yordamida mashinali yoki mashinasiz);
- d) o'z-o'zini nazorat qilish va shu kabilar.

## **16.2 Kasb-hunar ta'limni tashkil qilish shakllari va vositalari bilan talabalarni tanishtirish ularda bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilish.**

Kasb ta'limi o'qituvchisi darsga tayyorlanayotganda, uni rejalashtirayotganda xar xil metod va usullarni qo'llab yangi materialni qanday bayon qilishni o'ylaydi. U o'quvchilarning individual xususiyatlarini, ularning tajribasi, jismoniy rivojlanishi va mehnat unumdorligiga ta'sir qiladigan boshqa omillarni xisobga olgan holda ob'ektlarni tanlaydi.

Texnikaviy ijodkorlik o'quvchilarning ilmiy texnikaviy va umumiy ta'lim fanlaridan olgan bilimlarni chuqurlashtiradi, ularning tafakkurini rivojlantiradi, mustaxkam mehnat ko'nikmalari va malakalarini tarkib toptirishga yordam beradi, ratsionalizatorlik va ixtirochilikka qiziqish uyg'otadi, siyosiy bilim doirasini kengaytiradi. Bu ijodkorlik kollej o'quvchilarini istiqlol ruxda tarbiyalashning eng muxim vositasidir.

O'qituvchining lavozim majburiyatlarini ish bajarish ketma-ketligiga qarab 3 bosqichga bo'lish mumkin:

- Rejalashtirish bo'yicha vazifalar;
- Amalga oshirish bo'yicha vazifalar;
- Baholash va tahlil qilish bo'yicha vazifalar.

### **Rejalashtirish bo'yicha vazifalar:**

- Davlat ta'lim standartlari, o'quv reja va dasturlar asosida ta'limning maqsad va mazmunlarini tanlash va rejalashtirish;
- o'quv reja va dasturlar asosida kalendar mavzuli reja va dars rejasini ishlab chiqish;
- ta'limni tashkillashtirish va o'tkazish bo'yicha hujjatlarni tayyorlash;
- o'quvchilarning qobiliyatlari va bilimlarini baholash bo'yicha hujjatlarni tayyorlash;
- korxonaning turli bo'limlarida o'quvchilarni o'qitish joylarini rejalashtirish;
- qo'yilgan maqsadlarga javob beradigan ish topshiriqlari va mashqlarni tayyorlash;
- amaliy mashqlar hamda loyihalarni o'tkazish uchun xomashyo va chiqim materiallarni rejalashtirish;
- o'quv ustaxonasida o'qitish uchun etarli sharoitlarni tayyorlash;
- o'quv-didaktik materiallarni aniqlash, tanlash va ishlab chiqish.

### **Nazorat va baholash bo'yicha vazifalari**

Ta'lim tarbiya jarayonini **bashqarish va nazorat qilishda** quyidagilar kasb ta'limi o'qituvchisiga xos bo'lishi kerak:

1) YUqori g'oyaviylik. O'qituvchi o'sib kelayotgan avlodning tarbiyachisidir. U o'quvchilarni milliy istiqlol g'oyalari ruxida tarbiyalashi kerak.

2) YUqori texnika malaka. Masalan, ta'limi jarayonida o'quvchilar o'zlari tanlagan mutaxassislikka oid o'quv yurtining talablari bu mutaxassisliklarga oid bilim va ko'nikmalarni egallaydilar. Shu munosabat bilan oliy o'quv yurtining talablari bu mutaxassisliklarga oid kabi bilimlar asoslarini egallashlari xamda keyingi amaliy faoliyat jarayonida o'z maxorati darajasini uzluksiz oshira borishlari kerak.

3)YUqori psixologik-pedagogik tayyorgarlik. Kasb ta'limi o'qituvchilarining o'zi bilim va malakalarni yuksak saviyada egallabgina qolmay balki o'quvchilarda xam ma'lum malakalarni tarkib toptirish uchun ularga bilimlar berish kerak. Bilim va malakalarni egallash jarayonining o'z qonuniyatlari bor, maktabdagi ta'lim shu qonuniyatlar asosida tashkil etiladi. Kasb ta'limi o'qituvchisi asixologiya, didaktika va boshqa fanlarning o'quv jarayoniga asos bo'ladigan muxim qoidalarini chuqur o'zlashtirib olishi kerak.

4)O'z kasbiga muxabbat. O'qituvchilik kasbining o'ziga xos tomonlarini chuqur bilish, o'z kasbini faoliyatida erishgan yutuqlaridan zavqlanishi, qiyinchilarni engib o'tish uchun kuch va imkoniyat topa olish kasb ta'limi o'qituvchisining muxim fazilatlarini qatoriga kiradi.

**Baholash va tahlil qilish bo'yicha vazifalar:**

- o'quvchilarning amaliy natijalarini kuzatish, tahlil qilish va baholash;
  - o'quvchilarning o'zlashtirilgan nazariy bilimlarini baholash;
  - o'quvchilarning xulqini baholash;
  - ta'limning mavjud sharoitlarining sifatini baholash;
  - rejalashtirish va tashkillashtirish bo'yicha hujjatlarning sifatini baholash;
  - o'quv-didaktik materiallarning sifatini baholash;
  - o'zi bergan yo'l-yo'riq va namoyishlarni o'zi baholash;
- berilgan topshiriqlarning sifatini o'zi baholash.

Kasb-hunar kollejlari tashkil etiladigan ilmiy-uslubiy ishlarning vazifalari sirasiga quyidagilar kiradi:

- kasb-hunar kolleji pedagog va texnik xodimlarining ilmiy-g'oyaviy saviyasini, pedagogik mahoratini oshirish;
- talabalarni milliy mustaqillik ruhida tarbiyalash mazmuni, shakl, metod va vositalarini takomillashtirish;
- ta'lim, tarbiya va rivojlantirish maqsadlarining birligi, umumilmiy, umumkasbiy va maxsus tayyorgarlikning uzviyligini ta'minlash;
- ilg'or pedagogik va ishlab chiqarish tajribalarini, fan va texnika yutuqlarini o'rganish, umumlashtirish hamda ta'lim-tarbiya jarayoniga joriy etishdan iborat.

Ilmiy-uslubiy ishlarda ishtirok etish kasb-hunar kollejlari barcha rahbarlar, o'qituvchilar, muxandis-pedagoglari uchun majburiy bo'lib, ularning pedagogik faoliyatini ajralmas qismi hisoblanadi.

Kasb-hunar kollejlari metodik ishlarning mazmuni, yo'nalishi, tuzilmasi kabilar metodik ish haqidagi Nizom bilan belgilanadi. Shu nizomga muvofiq jamoaviy va individual uslubiy ishlar olib boriladi.

Quyidagilar jamoaviy uslubiy ish shakllari sirasiga kiradi:

- pedagogik kengash;
- uslubiy komissiyalar;
- ilg'or tajriba maktabi, muammoli seminarlar, ilmiy-uslubiy konferentsiyalar, pedagogik o'qish va turli uslubiy kengashlar.

Individual uslubiy ish quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

- kasb-hunar kollejlari rahbarlari, o'qituvchilar, muhandis-pedagoglari va boshqa muxandis-texnik xodimlarning o'z g'oyaviy-siyosiy darajasi, pedagogik

malakasi va kasbiy mahoratini oshirish yuzasidan olib boriladigan mustaqil uslubiy ishlari;

- kollej rahbari (direktor), uning o'rinbosarlari, katta usta, o'qituvchilar, muxandis-pedagoglar va boshqa muhandis-texnik xodimlar bilan olib boradigan individual uslubiy ishlari.

Kasb-hunar kollejidagi uslubiy ishlarning aniq shakllarini kollej pedagogik kengashi belgilaydi. Kollej rahbari (direktor) uslubiy ishlarga umumiy rahbarlik qiladi.

U «Uslubiy ishning rejasi»ni tasdiqlaydi, pedagogik kengash ishiga rahbarlik qiladi, instruktiv-uslubiy majlislar o'tkazadi, o'qituvchi va muxandis pedagoglar o'tkazadigan mashg'ulotlarini tahlil qiladi, alohida o'qituvchilarning uslubiy ishlariga rahbarlik qiladi, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini yuqori organlari oldida o'zi rahbarlik qilayotgan kollejdagi uslubiy ishlarning ahvoli to'g'risida hisobot beradi.

Ta'lim muassasalaridagi tarbiyaviy tizimning kontseptual g'oyasi – shaxs rivojlanishini maqsadga yo'naltirilgan holda boshqarish. Buning uchun esa yaxshi shart-sharoit yaratilishi va avtoritarizmdan voz kechishi zarur. Bizning nazarimizda, bunday hamkorlik pedagogikasai juda qo'l keladi. Hamkorlik pedagogikasining mazmuni o'quvchi-yoshlarning o'z kuchiga ishonishini ifodalovchi munosabatlar yordamida unga tanlash erkinligini berishda namoyon bo'ladi. Demak, bunda pedagogik jamoa tomonidan o'quvchi-yosharning o'z-o'zini belgylash, mustaqil faoliyat ko'rsatishi uchun vaziyatlar yaratilib berilishi nazarda tutiladi. Bu degan so'z, ular o'z oldiga maqsad qo'yish va unga erishish yo'llarini belgilashda, o'z faoliyatini boshqarish usullarini tanlashda ham erkin bo'ladilar. O'qituvchi unga faqat rahbarlik qilib, yo'l-yo'riq ko'rsatib turadi.

Tarbiya–tarbiyachi va tarbiyalanuvchi faoliyatlarini o'z ichiga olgan ikki yoqlama jarayon. Tarbiyachilar bilan va tarbiyaga ega bo'lgan kishilar tarbiyalanuvchilar bilim va tajriba o'rganuvchi yoshlardir. Ammo tarbiyalanuvchilar muayyan darajada aktiv faoliyat ko'rsatmasalar tajriba va bilim o'rgana olmaydilar.

### **Tarbiya vazifalari**

1.O'z vatani fuqarosini tarbiyalash. Tarbiyaning bu vazifalarni amalga oshirish quyidagilarni taqozo etadi;

Milliy vatanparvarlik, o'z vataniga, tarixiga, madaniyatiga iftixor tuyg'usi;

Millatlararo madaniy munosabatlar, siyosiy madaniyat.

2.Shaxsning ma'naviyatini shakllantirish. Ma'naviyat-kishining ichki dunyosi bo'lib, uning jamiyat va tabiatdagi «Men»i, obrazi, taqdiri va rolini ifoda etadi. Ma'naviyat darajasi - bu, ma'lum ma'noda, insoniylik mezonidir. Ma'naviyatni shakllantirish bu uning shaxsiy harakatlari, intilishlari, refleksiyasi bilan kishining ichki dunyosini vujudga keltirishdir.

3.Mehnatkash insonni iqtisodiy tafakkurini tarbiyalash mehnatga, kasbga hurmat va ijtimoiy-psixologik jihatdan yoshlarda mustaqillik, ijod, ishchanlik, faollik, yuqori kasbiy tayyorgarlik sifatlarini kuchaytirish zarur.

4. **Ruhiy-jismoniy sog'lomlikni tarbiyalash.** Bu axloqiy–hayotiy muvozanat va psixologik qulaylik holatini ushlab turish hamda jismoniy rivojlanish me'yoridan uzoqlashib ketishga yo'l qo'ymaslik ko'nikmalarini shakllantirishdir.

***Tarbiya tiziminnig milliy xususiyatlari***

milliy tarix va madaniyatning o'ziga xos jihatlarini hisobga olish;  
tarbiyaviy ishlarda milliy udumlar, an'analar, urf-odatlar, diniy marosimlardan foydalanish;  
milliy madaniyat jahon madaniyatining bir bo'lagi ekanligi tushunchasini shakllantirish.

***Tarbiya tiziminnig milliy xususiyatlari***

milliy tarix va madaniyatning o'ziga xos jihatlarini hisobga olish;  
tarbiyaviy ishlarda milliy udumlar, an'analar, urf-odatlar, diniy marosimlardan foydalanish;  
milliy madaniyat jahon madaniyatining bir bo'lagi ekanligi tushunchasini shakllantirish.

***Tarbiya tiziminnig milliy xususiyatlari***

milliy tarix va madaniyatning o'ziga xos jihatlarini hisobga olish;  
tarbiyaviy ishlarda milliy udumlar, an'analar, urf-odatlar, diniy marosimlardan foydalanish;  
milliy madaniyat jahon madaniyatining bir bo'lagi ekanligi tushunchasini shakllantirish.

***Shaxsiy yondoshish.*** Bunday yondoshish tarbiyalanuvchilarning shaxsiy sifatlariga tayanishni ko'zlaydi va tarbiyachidan quyidagilarni talab etadi:

shaxsning individual xususiyatlarini (xarakteri, mijozi(temperamenti), qarashlari, odatlari va b.) muntazam o'rganish va yaxshi bilish;  
mohirona tashxislash va shaxsiy sifatlarning real shakllanganlik darajasini bilish.

***O'quvchilarni o'rganishning pedagogik-psixologik metodlari***

Tarbiyaviy tizimining eng asosiy tashkil etuvchilaridan biri – bu shaxsni ijodkorlikka, mustaqillikka, insonparvarlikka, o'zini qadrlay bilimsh va o'zgalarga urmat qilishga o'rgatishdir.

Tarbiyaviy tizim asosiga insonparvar psixologiya va pedagogika tamoyillari qo'yiladi.

Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning ustivor yo'nalishlari quyidagilar hisoblanadi:

- o'quvchilarning qiziqishi-xohishiga qarab ta'lim muassasasi va undan tashqarida tashkil etilgan turli xil uyushmalarga jalb etish;
- o'quvchilar ishtirokida muntazam ravishda har xil ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazish;
- fan to'garaklar, texnik yo'nalishdagi to'garaklar va amaliy ijodkorlik mazmunini o'zgartirish;
- badiiy-estetik birlashmalarni tashkil etish va rivojlantirish;
- ta'lim muassasasi faoliyatini demokratlashtirish asosi sifatida o'z-o'zini boshqarishni rivojlantirish.

***O'quvchilarni o'rganish metodlari***

**Kuzatish** - odatda tabiiy kuzatish orqali talabalarning fanlarni o'zlashtirishlari, ularning xulq-atvori va muomalalaridagi o'zgarishlarni hisobga olish va tegishli ta'limiy-tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish yo'llarini belgilash uchun qo'llaniladi. Bu metod tadqiqotchining pedagogik tajribaning muayyan bir tomoni va hodisalarini biror maqsadni ko'zda tutib idrok etish tashkil etadi. Bunda kuzatishlar tezligi va soni, kuzatish ob'ekti, vaqti, pedagogik vaziyatlarni kuzatish uchun ajratiladigan xarakteristika va hokazolar hisobga olinadi.

**Suhbat metodi** - so'rashning bir turi bo'lgani holda tadqiqotchining jiddiy tayyorgarlik ko'rishini talab etadi, chunki u tekshirayotgan shaxs bilan bevosita aloqada bo'lish vaqtida og'zaki suhbat tarzida, suhbatdoshining javoblarini yozmasdan erkin muomala formasida qo'llaniladi.

Suhbat metodidan farq qilib, **intervyu olish** metodi savollarni oldindan belgilangan izchillikda intervyu yo'li bilan bayon qilishni nazarda tutadi. Bunda javoblar magnit tasmasiga yoki kassetalarga yozib olinadi. Hozirgi kunda ommaviy so'rash nazariyasi va praktikasida intervyu tashkil etishning ko'p usullari mavjud:

- guruhlar bilan;
- intensiv;
- sinov va h.k.

**Pedagogik so'rash metodi** – tadqiqotchining boshqa kishilardan o'quvchilarning biror tomoni yoki hodisalari haqida axborot olish jarayoni bu metodning asosini tashkil qiladi. So'rash savollarning mantiqiy o'ylangan sistemasini, ularning aniq ifodalanishini, nisbatan kamchiligi (3-5ta) nazarda tutiladi. Shuningdek, qat'iy formadagi javobni ("ha", "yo'q") ham taqozo etishi mumkin.

Test savollaridan ko'zlangan maqsad oz vaqt ichida talabalarning bilimlarini yoppasiga baholashdir.

#### **Kasb - hunar kollejlari o'quvchilarni tarbiyalash metodlari**

Ta'lim-tarbiya jarayonining ajralmas bir qismi bo'lgan **tarbiya ishida** aniq didaktik maqsadlarga ko'ra tahsil beruvchi va tahsil oluvchilarning o'zaro aloqador biri ikkinchisini taqozo etuvchi hatti-harakatlari majmuasi yoki muloqotda bo'lish usullariga ta'lim-tarbiya metodlari deb yuritiladi.

### **17-MAVZU: KASB TA'LIMDA QO'LLANILADIGAN ILMIY-TADQIQOT TAJRIBALARI**

17.1 Kasb ta'lim tajriba-sinov ishlarining tashkiliy-uslubiy asoslari

17.2 Kasb ta'lim tajriba-sinov ishlarini amaliy jarayonlari

17.3 Kasb ta'lim tajriba-sinov ishlarini tashkil etishni rivojlantirish

#### **17.1 Kasb ta'lim tajriba-sinov ishlarining tashkiliy-uslubiy asoslari**

Ilmiy pedagogik izlanishlarni jarayonini shartli ravishda quyidagi bosqichlarga bo'lish mumkin:

1. O'qituvchining adabiyotlar o'rganish va amaliy ishlari asosida muammoni aniqlashi.

2. Gipoteza qurish ya'ni o'qitishni bosqichma-bosqich tashkil etish. Faktlar va ularni taqqoslash orqali izlanuvchi asoslangan taklifni beradi.

3. Izlanish natijalarini rasmiylashtirish va o'quv jarayoniga qo'llash.

Maxsus fanlarni o'qitish metodikasida ilmiy izlanishlarning umumiy va maxsus metodlari qo'llaniladi.

Umumilmiy metodlarga nazariy izlanish, kuzatish, suhbat va eksperimentlar kiradi.

**Nazariy metod** - adabiyotlardan o'rganish va tahlil qilish, hamda pedagogik tajribalar asosida olib boriladigan izlanishlar kiradi. Adabiyotlar ustida ishlashda kitob va jurnallar, maqolalar va patentlar, ilmiy ishlanmalar to'plamlar va kataloglar, internet tizimidan olingan ma'lumotlardan foydalaniladi.

**Kuzatish** - odatda tabiiy kuzatish orqali talabalarning fanlarni o'zlashtirishlari, ularning xulq-atvori va muomalalaridagi o'zgarishlarni hisobga olish va tegishli ta'limiy-tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish yo'llarini belgilash uchun qo'llaniladi.

**Suhbat metodi** - so'rashning bir turi bo'lgani holda tadqiqotchining jiddiy tayyorgarlik ko'rishini talab etadi, chunki u tekshirayotgan shaxs bilan bevosita aloqada bo'lish vaqtida og'zaki suhbat tarzida, suhbatdoshining javoblarini yozmasdan erkin muomala formasida qo'llaniladi.

**Pedagogik so'rash metodi** – tadqiqotchining boshqa kishilardan pedagogik tajribaning biror tomoni yoki hodisalari haqida axborot olish jarayoni bu metodning asosini tashkil qiladi. So'rash savollarning mantiqiy o'ylangan sistemasini, ularning aniq ifodalanishini, nisbatan kamchiligi (3-5ta) nazarda tutiladi. Shuningdek, qat'iy formadagi javobni ("ha", "yo'q") ham taqozo etishi mumkin.

**Test, so'rovnomalar** - bu so'rovnoma, ya'ni anketa usuli qo'llanganda yaratilgan ilmiy farazning yangiligini bilish, aniqlash, talabalarning yakka yoki guruhli fikrlarini, qarashlarini, qanday kasblarga qiziishlarini, kelajak orzu-istaklarini bilish va tegishli xulosalar chiqarish, tavsiyalar berish maqsadida o'tkaziladi.

O'qitishning texnik vositalari deganda ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining hamkorlik faoliyatini ta'minlab, uning samaradorligini oshirish, ta'minlash maqsadida foydalaniladigan qurilmalar tizimi tushuniladi.

Barcha o'qitishning texnik vositalarini shartli ravishda uch asosiy guruhga bo'lish mumkin.

4. Audiovizual vositalar (kinoproektsiya, diaproektsiya va epiproektsiyalar, ovoz yozib olish, televidenie, radio);

5. Jihozlar, uskuna va asboblari;

6. Dasturli (kompyuterli) ta'lim vositalari.

O'qitishning texnik vositalaridan ta'lim-tarbiya jarayonining tashkil etuvchi komponentlari bilan uzviy bog'liqlik va munosabatlarini hisobga olgan holda foydalanish zarur. Aks holda mashg'ulot samarasini umuman yo'qqa chiqarish ham mumkin. Mashg'ulotda o'qitishning texnik vositalaridan foydalanish yordamchi xarakterga ega bo'lib, ularni tanlash, ishlatish vaqti va joyi darsning umumiy rejasida maqsadlarga muvofiq ravishda belgilanadi.

Ta'lim-tarbiya ishida texnik vositalardan foydalanish avvalo didaktik printsipolarga amal qilishni ko'zda tutadi. Masalan, ko'rsatmalilik printsipini real ob'ekt bilan mavhum tasavvurning birligini ifodalaydi.

Real ob'ekt yoki uning tasvirini ko'rish (idrok etish) inson uchun uni bilishning dastlabki va eng oddiy akti hisoblanadi, aniq tasavvurlar va mavhum tushunchalar hosil qilish uchun asos vazifasini o'taydi.

#### **Tarbiya metodlarini turkumlash:**

##### **1. Tarbiya axborotini o'zlashtirish manbaiga ko'ra:**

- a) og'zaki (so'zlab berish, savol-javob, suhbat, ma'ruza, tushuntirish, bayon etish kabilar);
- b) ko'rsatmali (ko'rsatmali bayon etish, tushuntirish);
- v) amaliy (tajriba sinovlari va laboratoriya ishlari, o'quv ishab chiqarish mehnati);

##### **2. Tarbiya axborotni uzatilishi va o'zlashtirish mantiqiga ko'ra:**

- a) oddiydan murakkabga (induktiv);
- b) murakkabdan oddiyga yoki mavhumdan ma'lumga (deduktiv);

##### **3. O'rganuvchilarning mustaqil tarbiya tafakkuri darajasiga ko'ra:**

- a) mahsulsiz (reproduktiv);
- b) mahsullik (produktiv);

##### **4. Tarbiya ishlarini bajarilish darajasiga ko'ra:**

- a) Tarbiya beruvchi rahbarligidagi ta'lim-tarbiyaviy ishlar;
- b) Tarbiya beruvchi rahbarligisiz tahsil oluvchilarning mustaqil ishlari (manbalar bilan ishlash, yozma ishlar, laboratoriya ishlari, mehnat vazifalarini bajarish va shu kabilar);

##### **5. Tarbiyalanuvchilarning o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini oshirish bo'yicha:**

- a) tarbiyalash o'yinlari;
  - b) tarbiya bo'yicha munozaralari;
  - v) tarbiya bo'yicha qiziqarli amaliy vaziyatlarni yuzaga keltirish;
6. Javobgarlik burchini shakllantirish va rag'batlantirish usuliga ko'ra:
- a) ishontirish;
  - b) talab qo'yish;
  - v) qo'yilgan talabga muvofiq mashq qildirish;
  - g) rag'batlantirish va jazolash;
7. Nazorat qilish va o'z-o'zini nazorat qilish usuliga ko'ra:
- a) yakka holda tarbiyalash;
  - b) yoppasiga (yalpi) tarbiyalash;
  - v) og'zaki va yozma sinov yoki so'rovnomalar;
  - g) dasturli so'rov (testlar yordamida mashinali yoki mashinasiz);
- d) o'z-o'zini nazorat qilish va shu kabilar.

## 17.2 Kasb ta'lim tajriba-sinov ishlarini amaliy jarayonlari

Kasb ta'limi o'qituvchisi darsga tayyorlanayotganda, uni rejalashtirayotganda xar xil metod va usullarni qo'llab yangi materialni qanday bayon qilishni o'ylaydi. U o'quvchilarning individual xususiyatlarini, ularning tajribasi, jismoniy rivojlanishi va mehnat unumdorligiga ta'sir qiladigan boshqa omillarni hisobga olgan holda ob'ektlarni tanlaydi.

Texnikaviy ijodkorlik o'quvchilarning ilmiy texnikaviy va umumiy ta'lim fanlaridan olgan bilimlarni chuqurlashtiradi, ularning tafakkurini rivojlantiradi, mustaxkam mehnat ko'nikmalari va malakalarini tarkib toptirishga yordam beradi, ratsionalizatorlik va ixtirochilikka qiziqish uyg'otadi, siyosiy bilim doirasini kengaytiradi. Bu ijodkorlik kollej o'quvchilarini istiqlol ruxda tarbiyalashning eng muhim vositasidir.

O'qituvchining lavozim majburiyatlarini ish bajarish ketma-ketligiga qarab 3 bosqichga bo'lish mumkin:

- Rejalashtirish bo'yicha vazifalar;
- Amalga oshirish bo'yicha vazifalar;
- Baholash va tahlil qilish bo'yicha vazifalar.

### **Rejalashtirish bo'yicha vazifalar:**

- Davlat ta'lim standartlari, o'quv reja va dasturlar asosida ta'limning maqsad va mazmunlarini tanlash va rejalashtirish;
- o'quv reja va dasturlar asosida kalendar mavzuli reja va dars rejasini ishlab chiqish;
- ta'limni tashkillashtirish va o'tkazish bo'yicha hujjatlarni tayyorlash;
- o'quvchilarning qobiliyatlari va bilimlarini baholash bo'yicha hujjatlarni tayyorlash;
- korxonaning turli bo'limlarida o'quvchilarni o'qitish joylarini rejalashtirish;
- qo'yilgan maqsadlarga javob beradigan ish topshiriqlari va mashqlarni tayyorlash;
- amaliy mashqlar hamda loyihalarni o'tkazish uchun xomashyo va chiqim materiallarni rejalashtirish;
- o'quv ustaxonasida o'qitish uchun etarli sharoitlarni tayyorlash;
- o'quv-didaktik materiallarni aniqlash, tanlash va ishlab chiqish.

### **Nazorat va baholash bo'yicha vazifalari**

Ta'lim tarbiya jarayonini **bashqarish va nazorat qilishda** quyidagilar kasb ta'limi o'qituvchisiga xos bo'lishi kerak:

1) YUqori g'oyaviylik. O'qituvchi o'sib kelayotgan avlodning tarbiyachisidir. U o'quvchilarni milliy istiqlol g'oyalari ruxida tarbiyalashi kerak.

2) YUqori texnika malaka. Masalan, ta'limi jarayonida o'quvchilar o'zlari tanlagan mutaxassislikka oid o'quv yurtining talablari bu mutaxassisliklarga oid bilim va ko'nikmalarni egallaydilar. Shu munosabat bilan oliy o'quv yurtining talablari bu mutaxassisliklarga oid kabi bilimlar asoslarini egallashlari xamda keyingi amaliy faoliyat jarayonida o'z maxorati darajasini uzluksiz oshira borishlari kerak.

3)YUqori psixologik-pedagogik tayyorgarlik. Kasb ta'limi o'qituvchilarining o'zi bilim va malakalarni yuksak saviyada egallabgina qolmay balki o'quvchilarda xam ma'lum malakalarni tarkib toptirish uchun ularga bilimlar berish kerak. Bilim va malakalarni egallash jarayonining o'z qonuniyatlari bor, maktabdagi ta'lim shu qonuniyatlar asosida tashkil etiladi. Kasb ta'limi o'qituvchisi asixologiya, didaktika va boshqa fanlarning o'quv jarayoniga asos bo'ladigan muxim qoidalarini chuqur o'zlashtirib olishi kerak.

4)O'z kasbiga muxabbat. O'qituvchilik kasbining o'ziga xos tomonlarini chuqur bilish, o'z kasbini faoliyatida erishgan yutuqlaridan zavqlanishi, qiyinchilarni engib o'tish uchun kuch va imkoniyat topa olish kasb ta'limi o'qituvchisining muxim fazilatlarini qatoriga kiradi.

**Baholash va tahlil qilish bo'yicha vazifalar:**

- o'quvchilarning amaliy natijalarini kuzatish, tahlil qilish va baholash;
  - o'quvchilarning o'zlashtirilgan nazariy bilimlarini baholash;
  - o'quvchilarning xulqini baholash;
  - ta'limning mavjud sharoitlarining sifatini baholash;
  - rejalashtirish va tashkillashtirish bo'yicha hujjatlarning sifatini baholash;
  - o'quv-didaktik materiallarning sifatini baholash;
  - o'zi bergan yo'l-yo'riq va namoyishlarni o'zi baholash;
- berilgan topshiriqlarning sifatini o'zi baholash.

Kasb-hunar kollejlari tashkil etiladigan ilmiy-uslubiy ishlarning vazifalari sirasiga quyidagilar kiradi:

- kasb-hunar kolleji pedagog va texnik xodimlarining ilmiy-g'oyaviy saviyasini, pedagogik mahoratini oshirish;
- talabalarni milliy mustaqillik ruhida tarbiyalash mazmuni, shakl, metod va vositalarini takomillashtirish;
- ta'lim, tarbiya va rivojlantirish maqsadlarining birligi, umumilmiy, umumkasbiy va maxsus tayyorgarlikning uzviyligini ta'minlash;
- ilg'or pedagogik va ishlab chiqarish tajribalarini, fan va texnika yutuqlarini o'rganish, umumlashtirish hamda ta'lim-tarbiya jarayoniga joriy etishdan iborat.

Ilmiy-uslubiy ishlarda ishtirok etish kasb-hunar kollejlari barcha rahbarlar, o'qituvchilar, muxandis-pedagoglari uchun majburiy bo'lib, ularning pedagogik faoliyatini ajralmas qismi hisoblanadi.

Kasb-hunar kollejlari metodik ishlarning mazmuni, yo'nalishi, tuzilmasi kabilar metodik ish haqidagi Nizom bilan belgilanadi. Shu nizomga muvofiq jamoaviy va individual uslubiy ishlar olib boriladi.

Quyidagilar jamoaviy uslubiy ish shakllari sirasiga kiradi:

- pedagogik kengash;
- uslubiy komissiyalar;
- ilg'or tajriba maktabi, muammoli seminarlar, ilmiy-uslubiy konferentsiyalar, pedagogik o'qish va turli uslubiy kengashlar.

Individual uslubiy ish quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

- kasb-hunar kollejlari rahbarlari, o'qituvchilar, muhandis-pedagoglari va boshqa muxandis-texnik xodimlarning o'z g'oyaviy-siyosiy darajasi, pedagogik

malakasi va kasbiy mahoratini oshirish yuzasidan olib boriladigan mustaqil uslubiy ishlari;

- kollej rahbari (direktor), uning o'rinbosarlari, katta usta, o'qituvchilar, muxandis-pedagoglar va boshqa muhandis-texnik xodimlar bilan olib boradigan individual uslubiy ishlari.

Kasb-hunar kollejidagi uslubiy ishlarning aniq shakllarini kollej pedagogik kengashi belgilaydi. Kollej rahbari (direktor) uslubiy ishlarga umumiy rahbarlik qiladi.

U «Uslubiy ishning rejasi»ni tasdiqlaydi, pedagogik kengash ishiga rahbarlik qiladi, instruktiv-uslubiy majlislar o'tkazadi, o'qituvchi va muxandis pedagoglar o'tkazadigan mashg'ulotlarini tahlil qiladi, alohida o'qituvchilarning uslubiy ishlariga rahbarlik qiladi, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini yuqori organlari oldida o'zi rahbarlik qilayotgan kollejdagi uslubiy ishlarning ahvoli to'g'risida hisobot beradi.

Ta'lim muassasalaridagi tarbiyaviy tizimning kontseptual g'oyasi – shaxs rivojlanishini maqsadga yo'naltirilgan holda boshqarish. Buning uchun esa yaxshi shart-sharoit yaratilishi va avtoritarizmdan voz kechishi zarur. Bizning nazarimizda, bunday hamkorlik pedagogikasai juda qo'l keladi. Hamkorlik pedagogikasining mazmuni o'quvchi-yoshlarning o'z kuchiga ishonishini ifodalovchi munosabatlar yordamida unga tanlash erkinligini berishda namoyon bo'ladi. Demak, bunda pedagogik jamoa tomonidan o'quvchi-yosharning o'z-o'zini belgylash, mustaqil faoliyat ko'rsatishi uchun vaziyatlar yaratilib berilishi nazarda tutiladi. Bu degan so'z, ular o'z oldiga maqsad qo'yish va unga erishish yo'llarini belgilashda, o'z faoliyatini boshqarish usullarini tanlashda ham erkin bo'ladilar. O'qituvchi unga faqat rahbarlik qilib, yo'l-yo'riq ko'rsatib turadi.

Tarbiya–tarbiyachi va tarbiyalanuvchi faoliyatlarini o'z ichiga olgan ikki yoqlama jarayon. Tarbiyachilar bilan va tarbiyaga ega bo'lgan kishilar tarbiyalanuvchilar bilim va tajriba o'rganuvchi yoshlardir. Ammo tarbiyalanuvchilar muayyan darajada aktiv faoliyat ko'rsatmasalar tajriba va bilim o'rgana olmaydilar.

### **Tarbiya vazifalari**

1.O'z vatani fuqarosini tarbiyalash. Tarbiyaning bu vazifalarni amalga oshirish quyidagilarni taqozo etadi;

Milliy vatanparvarlik, o'z vataniga, tarixiga, madaniyatiga iftixor tuyg'usi;

Millatlararo madaniy munosabatlar, siyosiy madaniyat.

2.Shaxsning ma'naviyatini shakllantirish. Ma'naviyat-kishining ichki dunyosi bo'lib, uning jamiyat va tabiatdagi «Men»i, obrazi, taqdiri va rolini ifoda etadi. Ma'naviyat darajasi - bu, ma'lum ma'noda, insoniylik mezonidir. Ma'naviyatni shakllantirish bu uning shaxsiy harakatlari, intilishlari, refleksiyasi bilan kishining ichki dunyosini vujudga keltirishdir.

3.Mehnatkash insonni iqtisodiy tafakkurini tarbiyalash mehnatga, kasbga hurmat va ijtimoiy-psixologik jihatdan yoshlarda mustaqillik, ijod, ishchanlik, faollik, yuqori kasbiy tayyorgarlik sifatlarini kuchaytirish zarur.

4. **Ruhiy-jismoniy sog'lomlikni tarbiyalash.** Bu axloqiy–hayotiy muvozanat va psixologik qulaylik holatini ushlab turish hamda jismoniy rivojlanish me'yoridan uzoqlashib ketishga yo'l qo'ymaslik ko'nikmalarini shakllantirishdir.

***Tarbiya tiziminnig milliy xususiyatlari***

milliy tarix va madaniyatning o'ziga xos jihatlarini hisobga olish;  
tarbiyaviy ishlarda milliy udumlar, an'analar, urf-odatlar, diniy marosimlardan foydalanish;  
milliy madaniyat jahon madaniyatining bir bo'lagi ekanligi tushunchasini shakllantirish.

***Tarbiya tiziminnig milliy xususiyatlari***

milliy tarix va madaniyatning o'ziga xos jihatlarini hisobga olish;  
tarbiyaviy ishlarda milliy udumlar, an'analar, urf-odatlar, diniy marosimlardan foydalanish;  
milliy madaniyat jahon madaniyatining bir bo'lagi ekanligi tushunchasini shakllantirish.

***Tarbiya tiziminnig milliy xususiyatlari***

milliy tarix va madaniyatning o'ziga xos jihatlarini hisobga olish;  
tarbiyaviy ishlarda milliy udumlar, an'analar, urf-odatlar, diniy marosimlardan foydalanish;  
milliy madaniyat jahon madaniyatining bir bo'lagi ekanligi tushunchasini shakllantirish.

***Shaxsiy yondoshish.*** Bunday yondoshish tarbiyalanuvchilarning shaxsiy sifatlariga tayanishni ko'zlaydi va tarbiyachidan quyidagilarni talab etadi:

shaxsning individual xususiyatlarini (xarakteri, mijozi(temperamenti), qarashlari, odatlari va b.) muntazam o'rganish va yaxshi bilish;  
mohirona tashxislash va shaxsiy sifatlarning real shakllanganlik darajasini bilish.

***O'quvchilarni o'rganishning pedagogik-psixologik metodlari***

Tarbiyaviy tizimining eng asosiy tashkil etuvchilaridan biri – bu shaxsni ijodkorlikka, mustaqillikka, insonparvarlikka, o'zini qadrlay bilimsh va o'zgalarga urmat qilishga o'rgatishdir.

Tarbiyaviy tizim asosiga insonparvar psixologiya va pedagogika tamoyillari qo'yiladi.

Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning ustivor yo'nalishlari quyidagilar hisoblanadi:

- o'quvchilarning qiziqishi-xohishiga qarab ta'lim muassasasi va undan tashqarida tashkil etilgan turli xil uyushmalarga jalb etish;
- o'quvchilar ishtirokida muntazam ravishda har xil ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazish;
- fan to'garaklar, texnik yo'nalishdagi to'garaklar va amaliy ijodkorlik mazmunini o'zgartirish;
- badiiy-estetik birlashmalarni tashkil etish va rivojlantirish;
- ta'lim muassasasi faoliyatini demokratlashtirish asosi sifatida o'z-o'zini boshqarishni rivojlantirish.

***O'quvchilarni o'rganish metodlari***

**Kuzatish** - odatda tabiiy kuzatish orqali talabalarning fanlarni o'zlashtirishlari, ularning xulq-atvori va muomalalaridagi o'zgarishlarni hisobga olish va tegishli ta'limiy-tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish yo'llarini belgilash uchun qo'llaniladi. Bu metod tadqiqotchining pedagogik tajribaning muayyan bir tomoni va hodisalarini biror maqsadni ko'zda tutib idrok etish tashkil etadi. Bunda kuzatishlar tezligi va soni, kuzatish ob'ekti, vaqti, pedagogik vaziyatlarni kuzatish uchun ajratiladigan xarakteristika va hokazolar hisobga olinadi.

**Suhbat metodi** - so'rashning bir turi bo'lgani holda tadqiqotchining jiddiy tayyorgarlik ko'rishini talab etadi, chunki u tekshirayotgan shaxs bilan bevosita aloqada bo'lish vaqtida og'zaki suhbat tarzida, suhbatdoshining javoblarini yozmasdan erkin muomala formasida qo'llaniladi.

Suhbat metodidan farq qilib, **intervyu olish** metodi savollarni oldindan belgilangan izchillikda intervyu yo'li bilan bayon qilishni nazarda tutadi. Bunda javoblar magnit tasmasiga yoki kassetalarga yozib olinadi. Hozirgi kunda ommaviy so'rash nazariyasi va praktikasida intervyu tashkil etishning ko'p usullari mavjud:

- guruhlar bilan;
- intensiv;
- sinov va h.k.

**Pedagogik so'rash metodi** – tadqiqotchining boshqa kishilardan o'quvchilarning biror tomoni yoki hodisalari haqida axborot olish jarayoni bu metodning asosini tashkil qiladi. So'rash savollarning mantiqiy o'ylangan sistemasini, ularning aniq ifodalanishini, nisbatan kamchiligi (3-5ta) nazarda tutiladi. Shuningdek, qat'iy formadagi javobni ("ha","yo'q") ham taqozo etishi mumkin.

Test savollaridan ko'zlangan maqsad oz vaqt ichida talabalarning bilimlarini yoppasiga baholashdir.

#### **Kasb - hunar kollejlari o'quvchilarni tarbiyalash metodlari**

Ta'lim-tarbiya jarayonining ajralmas bir qismi bo'lgan **tarbiya ishida** aniq didaktik maqsadlarga ko'ra tahsil beruvchi va tahsil oluvchilarning o'zaro aloqador biri ikkinchisini taqozo etuvchi hatti-harakatlari majmuasi yoki muloqotda bo'lish usullariga ta'lim-tarbiya metodlari deb yuritiladi.

#### **17.3 Kasb ta'lim tajriba-sinov ishlarini tashkil etishni rivojlantirish**

Ilmiy-uslubiy ishlarda ishtirok etish kasb-hunar kollejlari barcha rahbarlar, o'qituvchilar, muxandis-pedagoglar uchun majburiy bo'lib, ularning pedagogik faoliyatini ajralmas qismi hisoblanadi.

Kasb-hunar kollejlari metodik ishlarining mazmuni, yo'nalishi, tuzilmasi kabilar metodik ish haqidagi Nizom bilan belgilanadi. Shu nizomga muvofiq jamoaviy va individual uslubiy ishlar olib boriladi.

Quyidagilar jamoaviy uslubiy ish shakllari sirasiga kiradi:

- pedagogik kengash;
- uslubiy komissiyalar;
- ilg'or tajriba maktabi, muammoli seminarlar, ilmiy-uslubiy konferentsiyalar, pedagogik o'qish va turli uslubiy kengashlar.

Individual uslubiy ish quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

- kasb-hunar kollejlari rahbarlari, o'qituvchilar, muhandis-pedagoglar va boshqa muxandis-texnik xodimlarning o'z g'oyaviy-siyosiy darajasi, pedagogik malakasi va kasbiy mahoratini oshirish yuzasidan olib boriladigan mustaqil uslubiy ishlari;

- kollej rahbari (direktor), uning o'rinbosarlari, katta usta, o'qituvchilar, muxandis-pedagoglar va boshqa muhandis-texnik xodimlar bilan olib boradigan individual uslubiy ishlari.

Kasb-hunar kollejidagi uslubiy ishlarning aniq shakllarini kollej pedagogik kengashi belgilaydi. Kollej rahbari (direktor) uslubiy ishlarga umumiy rahbarlik qiladi.

U «Uslubiy ishning rejasi»ni tasdiqlaydi, pedagogik kengash ishiga rahbarlik qiladi, instruktiv-uslubiy majlislar o'tkazadi, o'qituvchi va muxandis pedagoglar o'tkazadigan mashg'ulotlarini tahlil qiladi, alohida o'qituvchilarning uslubiy ishlariga rahbarlik qiladi, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini yuqori organlari oldida o'zi rahbarlik qilayotgan kollejdagi uslubiy ishlarning ahvoli to'g'risida hisobot beradi.

Ta'lim muassasalaridagi tarbiyaviy tizimning kontseptual g'oyasi – shaxs rivojlanishini maqsadga yo'naltirilgan holda boshqarish. Buning uchun esa yaxshi shart-sharoit yaratilishi va avtoritarizmdan voz kechishi zarur. Bizning nazarimizda, bunday hamkorlik pedagogikasai juda qo'l keladi. Hamkorlik pedagogikasining mazmuni o'quvchi-yoshlarning o'z kuchiga ishonishini ifodalovchi munosabatlar yordamida unga tanlash erkinligini berishda namoyon bo'ladi. Demak, bunda pedagogik jamoa tomonidan o'quvchi-yosharning o'z-o'zini belgylash, mustaqil faoliyat ko'rsatishi uchun vaziyatlar yaratilib berilishi nazarda tutiladi. Bu degan so'z, ular o'z oldiga maqsad qo'yish va unga erishish yo'llarini belgilashda, o'z faoliyatini boshqarish usullarini tanlashda ham erkin bo'ladilar. O'qituvchi unga faqat rahbarlik qilib, yo'l-yo'riq ko'rsatib turadi.

Tarbiya–tarbiyachi va tarbiyalanuvchi faoliyatlarini o'z ichiga olgan ikki yoqlama jarayon. Tarbiyachilar bilan va tarbiyaga ega bo'lgan kishilar tarbiyalanuvchilar bilim va tajriba o'rganuvchi yoshlardir. Ammo tarbiyalanuvchilar muayyan darajada aktiv faoliyat ko'rsatmasalar tajriba va bilim o'rgana olmaydilar.

## **18-MAVZU: KASB-HUNAR TA'LIMNI TASHKIL QILISHDA O'QITUVCHINING ASOSIY VAZIFALARI.**

18.1 O'qituvchining lavozim vazifalari. O'qituvchining ta'limni rejalashtirish bo'yicha vazifalari. Nazorat va baholash bo'yicha vazifalari.

18.2 O'qituvchining metodik ishlari

### **18.1 O'qituvchining lavozim vazifalari. O'qituvchining ta'limni rejalashtirish bo'yicha vazifalari. Nazorat va baholash bo'yicha vazifalari.**

O'quvchilarga ta'lim va tarbiya berishda kasb ta'limi o'qituvchisi etakchi rol o'ynaydi. Ta'lim-tarbiya jarayonining ahvoli, o'quvchilarning tayyorgarlik darajasi o'qituvchi kasbiy malakasiga, pedagoglik mahoratiga, madaniyat darajasiga bog'liq.

**Yakka tartibdagi** metodik ish butun o'quv yiliga tuzilgan reja bo'yicha olib boriladi. Unda o'qituvchi muhandis-pedagog o'z pedagog mahoratlarini va o'z bilimlarini chuqurlashtirish maqsadida yakka tartibdagi metodik topshiriqlar nazarda tutiladi. Ularga quyidagilar kiradi: pedagogik mavzular bo'yicha ma'ruzalar tayyorlash; o'quv dasturning eng qiyin mavzulari bo'yicha metodik ko'rsatmalar tuzish; anchagina mehnat qilinishi talab qilinadigan muammoli izlanish ishlarini belgilaydi. Bu topshiriqlar har bir pedagog uchun majburiy minimum hisoblanadi.

Har bir pedagog, muhandis-pedagog ish rejasi to'rtta bo'limdan tashkil topishi kerak:

1. G'oyaviy-siyosiy saviyani oshirish.
2. Metodik-pedagogik mahoratini takomillashtirish.
3. O'qitilayotgan mehnat turi sohasidagi ilmiy-texnikaviy bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish.
4. Pedagog mehnatini ilmiy asosda tashkil etish sohasidagi bilim va malakalarini takomillashtirish.

Bu reja metodik kengash majlisida ko'rib chiqilib, tasdiqlanadi. Bu rejaning bajarilishi haqida o'qituvchilar bilan muhandis-pedagoglarning hisobotlari eshitilibturiladi.

**G'oyaviy-siyosiy saviyani oshirish** - materiallar ishlab chiqilayotganda hozirgi zamon hayoti va ishlab chiqarishni nazarda tutish kerak. Kasb ta'limi o'qituvchisi yoshlarga mehnat tarbiyasi va politexnik ta'lim berishning mohiyati ancha to'la yoritilgan asarlarni, prezident qarorlarining kasb-hunarga oid hujjatlarini o'rganishi, siyosiy seminarlar va nazariy konferentsiyalar ishida qatnashish, matbuot, radio, televidenie orqali hozirgi siyosat bilan tanishish va amaliy ishda qo'llash.

**O'qitilayotgan mehnat turi sohasidagi ilmiy-texnikaviy bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish** – ilg'or texnologiya va ratsional mehnat usullarini, texnika yangiliklarini muntazam o'rganib borish, ilmiy-texnikaviy seminarlarda qatnashish, texnikaga oid mavzulardagi ma'ruzalarni eshitib borish, ko'rgazmalarga borib turish, ilg'or korxonalarga o'tkaziladigan ekskursiyalarda qatnashish va hokazolar orqali erishiladi. Amaliy ko'nikmalar va malakalar kasb ta'limi o'qituvchilarining malakali metodistlar va ishlab chiqarish ilhorlari rahbarligida ilg'or ish usullarini egallash yo'li bilan takomillashtiriladi.

**Pedagog mehnatini ilmiy asosda tashkil etish sohasidagi bilim va malakalarini takomillashtirish** – kasb ta'limi darslarida amal qilinadigan hujjatlarni ilmiy asoslangan tarzda ishlab chiqish; o'quv ustaxonalarini zarur materiallar, asbob-uskunalar bilan muntazam ta'minlab turish tadbirlarini belgilash, ish joyini ilmiy asosda tashkil etish, ta'limning eng samarali ko'rsatmali va texnikaviy vositalaridan oqilona foydalanish yo'li bilan erishiladi.

#### **Didaktik materiallar tayyorlash**

Nazariy va amaliy mashg'ulotlar uchun manba sifatida ishlatiladigan vositalarimiz quyidagicha farqlanadi:

Agar tayyor vositalar yo'q bo'lsa, u holda bu vosita ularni o'qituvchining o'zi tayyorlashiga to'g'ri keladi.

O'quv va didaktik materiallarni tayyorlashda amaliyot o'qituvchisi chegaralangan vaqt va texnik imkoniyatlarni inobatga olgan holda e'tiborini quyidagilarga qaratishi lozim:

- ish varaqalari, tarqatmalar (bosilgan matnlar nusxalari), slaydlar, doska tasvirlari uchun eskizlar;

- yozma topshiriqlar, yozma va og'zaki testlar uchun so'rov qog'ozlari;

- baholash varag'i, nazorat qog'ozlari;

- ish rejalari, tashkiliy hujjatlar.

O'qituvchi uchun materiallar nafaqat sohaga tegishli ma'lumotlarni, balki tashkiliy ishlar, usul va natijalarni baholash borasidagi ma'lumotlarni ham o'z ichiga oladi. Talabalar uchun materiallar esa qoida bo'yicha faqatgina sohaga tegishli jihatlarni o'z ichiga oladi.

Talabalarga tarqatiladigan materiallar tarkibida quyidagi ma'lumotlar bo'lishi lozim:

- sodda tilda yozilgan o'quv matnlari

- matnlarda bo'sh qoldirilgan joylar (talabalar tomonidan to'ldirilishi uchun)

- talabaning erkin fikrlashiga imkoniyat beruvchi savollar

- ustaxonada ishlash uchun mo'ljallangan, ish bosqichlari ko'rsatilgan tushunarli chizmalar (eskizlar) va jadvallar

- material, jihoz, asbob-uskunalar va yordamchi vositalar haqida ma'lumotlar.

Matn tayyorlash bo'yicha eng yangi usullardan biri bu matnlarni ranglar bilan ajratish sanaladi:

- oq qog'ozlar: mazmuniy jihatlar borasida matnlar (o'qituvchi va talabalar uchun)

- yashil qog'ozlar: talabalarga topshiriqlar

- qizil qog'ozlar: o'qituvchining metodik hujjatlari va topshiriqlarning javob varaqalari

Ranglarni kodlash hujjatlardan foydalanishni engillashtiradi

Xuddi shu usuldan seminar hujjatlarini tayyorlashda ham foydalaniladi.

Ta'lim jarayoni ishtirokchilari (O'qituvchi va tahsil oluvchilar)ning ma'lum belgilangan tartibda amalga oshiriladigan hamkorlikdagi faoliyatining tashqi ko'rinishi kasbiy ta'limning **tashkiliy shaklini** anglatadi.

Hozirgi paytda kasbiy ta'limning tashkiliy shakllari quyidagi xususiyatlariga binoan turlanadi:

4. Tahsil oluvchilar soniga ko'ra-ommaviy, jamoaviy, guruhli, individual.

5. O'qitish joyiga ko'ra-ta'lim-tarbiya muassasalarida va ta'lim muassasalaridan tashqarida (o'quv ustaxonalarida, mashq maydonlarda, korxonalarda, uy ishlari, sayohat va shu kabilar).

6. O'quv vaqtining davomiyligiga ko'ra-45 minutlik, juftlik (90 min), qisqartirilgan (70 minutlik), qo'ng'iroqsiz.

Amaliyotda sinf-dars tizimi keng ko'lamda qo'llanilganligi sababli dars ta'lim tarbiya ishining asosiy shakli deb yuritiladi. Sinf-dars tizimining asosiy o'ziga hos jihatlari quyidagilar hisoblanadi:

-deyarli bir xil tarkib, yosh va tayyorgarlik darajadagi tahsil oluvchilar ishtirok etadi;

-ta'lim-tarbiya jarayoni o'zaro bog'liq alohida-alohida qismlar ko'rinishiga ega bo'ladi;

-har bir dars o'quv rejasiga kirgan ma'lum bir o'quv predmetiga oid bo'ladi;

-darslar muntazam ravishda almashib turadi;

-iqtisodiy ko'rsatkichlarining nisbatan yuqoriligi. Chunki bir o'qituvchi bir vaqtni o'zida ko'p sonli tahsil oluvchilar bilan ishlaydi;

Shu bilan birga sinf-dars tizimining quyidagi kamchiliklari ham e'tirof etilgan:

-o'rtacha tahsil oluvchiga mo'ljallanganligi;

-har bir tahsil oluvchilar bilan individual ishlash imkoniyatining yo'qligi.

Bizga ma'lumki, **dars ta'limning asosiy tashkiliy shaklidir**. Dars juda uzoq tarixiy davr mobaynida shakllangan ta'lim jarayoni bo'lib, yildan yilga uning mazmuni va metodlari rivojlanib, sayqallanib bormoqda. U jamiyat taraqqiyoti bilan hamohang ravishda mazmunan boyib, takomillashib borayotgan pedagogik-psixologik jarayondir. Har bir darsda nimadir o'rganiladi, qandaydir bilimlar o'zlashtiriladi, uning zaminida xohish, istak, qiziqish, ma'lum bir maqsad sari intilish paydo bo'ladi.

Dars nihoyatda yuqori iqtisodiy tejamga ega bo'lib, bir o'qituvchining o'zi aniq belgilangan vaqt ichida, qat'iy tartib asosida birdaniga bir potok yoki guruh talabalariga bilim beradi. Ta'kidlash joizki, dars ta'limning boshqa shakllari bo'lgan fan olimpiadalari, tanlovlar, to'garaklar, turli tematik kechalar va hokazolar uchun asos sifatida xizmat qiladi.

Darsning ajoyib xususiyatlaridan biri shuki, uni har qanday istalgan sharoitga moslashtirish mumkin. Dars mazmuni va metodlari rang-barang, ishtirokchilari bo'lmish o'qituvchi va talabalarining ehtiyoj va talablaridan kelib chiqib turli xil shaklda shakllantirish uchun juda qulay jarayon.

E'tirof etish joizki, hozirgi ilm-fan taraqqiyoti natijasida maktab, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari, oliy maktab ta'lim-tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashni taqazo etmoqda.

Dars shunday integral xarakterga egaki, o'qituvchi ma'ruza yoki seminar mashg'ulotining o'zida ta'lim berishning turli metod va usullarini qo'llash imkoniyatidan foydalanadi. Masalan, ma'ruza, seminar, rolli o'yinlar, treninglar, maslahatlar, suhbat hamda muammoli vaziyatlarni yaratish va h.k. Shuning uchun ham zamonaviy darsning har xil turlari paydo bo'lib, o'qituvchining ijodkorligi va talabaning darsga bo'lgan qiziqishi ortmoqda.<sup>1</sup>

Darsning yana bir xususiyati shundaki, unda bor e'tibor bilish jarayonini, aqliy faoliyatni rivojlantirishga qaratiladi, darsning har bir qismi uchun aniq maqsad belgilanib, uni amalga oshirish natijasida bilish, o'zlashtirish, o'qish, anglash, tushunib etish, umuman olganda, tafakkur, aql-zakovati rivojlanadi, dunyoqarash kengayadi. Masalan, darsda talaba yangi o'quv materialini o'zlashtiradi, mustahkamlaydi, o'z ustida ishlaydi, olgan bilimlarini amaliyotga tatbiq etadi, o'zining bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qiladi, baholaydi.

Hozirgi zamonaviy darsda o'qituvchi etakchi, rejissyor, boshqaruvchi bo'lib, asosiy ijrochi talabadir. U darsda o'qituvchi rahbarligida faoliyat ko'rsatadi, boshqalari bilan fikrlashadi, bahs-munozarada qatnashadi, guruhdoshlariga o'rgatadi, ulardan o'rganadi, mustaqil ishlaydi. Natijada talaba atrofdagilar bilan muomala qilishga o'rganadi, unda muloqot madaniyati shakllanadi, o'zining xatti-harakatlarini baholab, o'z-o'zini boshqarish malakasi hosil bo'ladi.

**Darsnig ayrim kamchiliklari quyidagilardan iborat:**

- dars uchun qat'iy belgilab qo'yilgan vaqt;
- didaktik nazariya bilan amaliyot o'rtasidagi bog'lanishning sustligi;
- o'qituvchi hamda talabalarning bilim va tajribalari talab darajasida emasligi;
- o'qitishning an'anaviy uslublari talabalarni mustaqil va ijodiy ishlashga o'rgatishdan ko'ra ustunligi;
- darsda bilim berishdan ko'ra tarbiyaviy ishlar ko'proq olib borilishi va hokazolar.

## **18.2 O'qituvchining metodik ishlari**

**O'quv mashg'ulotining maqsadi:** Talabalarda kasb-hunar ta'limini tashkil qilishda o'qituvchining lavozim, ta'limni rejalashtirish, nazorat va baholash bo'yicha vazifalari va ularni bajarishga qo'yiladigan talablar, o'qituvchining metodik ishlari to'g'risidagi bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish va rivojlantirish

### **3-Ilova**

**Kutilayotgan natijalar:** (Talabalar o'rganadilar)

1. Muammoli savol, masala va vaziyatlarni hal etish orqali o'z tasavvurlarini aniqlashtirishadi.
2. O'qituvchining lavozim vazifalari o'rganishadi.
3. O'qituvchining ta'limni rejalashtirish bo'yicha vazifalar bilan tanishishadi.
4. Nazorat va baholash bo'yicha vazifalari bilan tanishishadi.
5. O'qituvchining metodik ishlari bilan tanishishadi.

Kasb ta'limi o'qituvchisi darsga tayyorlanayotganda, uni rejalashtirayotganda xar xil metod va usullarni qo'llab yangi materialni qanday bayon qilishni o'ylaydi. U o'quvchilarning individual xususiyatlarini, ularning tajribasi, jismoniy rivojlanishi va mehnat unumdorligiga ta'sir qiladigan boshqa omillarni xisobga olgan xolda ob'ektlarni tanlaydi.

Texnikaviy ijodkorlik o'quvchilarning ilmiy texnikaviy va umumiy ta'lim fanlaridan olgan bilimlarni chuqurlashtiradi, ularning tafakkurini rivojlantiradi, mustaxkam mehnat ko'nikmalari va malakalarini tarkib toptirishga yordam beradi,

ratsionalizatorlik va ixtirochilikka qiziqish uyg'otadi, siyosiy bilim doirasini kengaytiradi. Bu ijodkorlik kollej o'quvchilarini istiqbol ruxda tarbiyalashning eng muxim vositasidir.

O'qituvchining lavozim majburiyatlarini ish bajarish ketma-ketligiga qarab 3 bosqichga bo'lish mumkin:

- Rejalashtirish bo'yicha vazifalar;
- Amalga oshirish bo'yicha vazifalar;
- Baholash va tahlil qilish bo'yicha vazifalar.

#### **Rejalashtirish bo'yicha vazifalar:**

- Davlat ta'lim standartlari, o'quv reja va dasturlar asosida ta'limning maqsad va mazmunlarini tanlash va rejalashtirish;
- o'quv reja va dasturlar asosida kalendar mavzuli reja va dars rejasini ishlab chiqish;
- ta'limni tashkillashtirish va o'tkazish bo'yicha hujjatlarni tayyorlash;
- o'quvchilarning qobiliyatlari va bilimlarini baholash bo'yicha hujjatlarni tayyorlash;
- korxonaning turli bo'limlarida o'quvchilarni o'qitish joylarini rejalashtirish;
- qo'yilgan maqsadlarga javob beradigan ish topshiriqlari va mashqlarni tayyorlash;
- amaliy mashqlar hamda loyihalarni o'tkazish uchun xomashyo va chiqim materiallarni rejalashtirish;
- o'quv ustaxonasida o'qitish uchun etarli sharoitlarni tayyorlash;
- o'quv-didaktik materiallarni aniqlash, tanlash va ishlab chiqish.

#### **4-Ilova**

#### **Muammoli ma'ruz mashg'uloti jarayonida va mashg'ulot yakunida talabalr tomonidan bajariladigan topshiriqlar**

##### **Dars boshlanishida**

- Mashg'ulot muammoli ma'ruza shaklida borishini ma'lum qiladi va talabalrdan mavzuga oid muammoli savollar berishni so'raydi, berilgan savollar orasidan eng maqbullarini mavzu uchun muammoli savollar sifatida belgilaydi;

- Talabalar oldiga mavzu mazmunini to'liq ochib beruvchi, buning uchun talabalarni izlanishga majbur qiluvchi muammoli savollar qo'yiladi va ularga javob topish bilan muammoli masalani echish va shu orqali mavzuni mukammal o'zlashtirish vazifasi qo'yiladi.

##### **Dars yakunida**

Talabalarga "**Besh minutlik esse**" yozdiriladi. YOzma topshiriqning ushbu turida talabalardan quyidagi ikki topshiriqni bajarish:

- mazkur mavzu bo'yicha ular nimalarni o'rgangan-liklarini mustaqil bayon etish;
- javobini ololmagan savollarini berish so'raladi;
- toqqoslash jadvalini to'ldirish so'raladi.

Ta'lim tarbiya jarayonini **bashqarish va nazorat qilishda** quyidagilar kasb ta'limi o'qituvchisiga xos bo'lishi kerak:

1)YUqori g'oyaviylik. O'qituvchi o'sib kelayotgan avlodning tarbiyachisidir. U o'quvchilarni milliy istiqlol g'oyalari ruxida tarbiyalashi kerak.

2) YUqori texnika malaka. Masalan, ta'limi jarayonida o'quvchilar o'zlari tanlagan mutaxassislikka oid o'quv yurtining talablari bu mutaxassisliklarga oid bilim va ko'nikmalarni egallaydilar. Shu munosabat bilan oliy o'quv yurtining talablari bu mutaxassisliklarga oid kabiyl bilimlar asoslarini egallashlari xamda keyingi amaliy faoliyat jarayonida o'z maxorati darajasini uzluksiz oshira borishlari kerak.

3)YUqori psixologik-pedagogik tayyorgarlik. Kasb ta'limi o'qituvchilarining o'zi bilim va malakalarni yuksak saviyada egallabgina qolmay balki o'quvchilarda xam ma'lum malakalarni tarkib toptirish uchun ularga bilimlar berish kerak. Bilim va malakalarni egallash jarayonining o'z qonuniyatlari bor, maktabdagi ta'lim shu qonuniyatlar asosida tashkil etiladi. Kasb ta'limi o'qituvchisi asixologiya, didaktika va boshqa fanlarning o'quv jarayoniga asos bo'ladigan muxim qoidalarini chuqur o'zlashtirib olishi kerak.

4)O'z kasbiga muxabbat. O'qituvchilik kasbining o'ziga xos tomonlarini chuqur bilish, o'z kasbini faoliyatida erishgan yutuqlaridan zavqlanishi, qiyinchilarni engib o'tish uchun kuch va imkoniyat topa olish kasb ta'limi o'qituvchisining muxim fazilatlari qatoriga kiradi.

#### **Baholash va tahlil qilish bo'yicha vazifalar:**

- o'quvchilarning amaliy natijalarini kuzatish, tahlil qilish va baholash;
- o'quvchilarning o'zlashtirilgan nazariy bilimlarini baholash;
- o'quvchilarning xulqini baholash;
- ta'limning mavjud sharoitlarining sifatini baholash;
- rejalashtirish va tashkillashtirish bo'yicha hujjatlarning sifatini baholash;
- o'quv-didaktik materiallarning sifatini baholash;
- o'zi bergan yo'l-yo'riq va namoyishlarni o'zi baholash;
- berilgan topshiriqlarning sifatini o'zi baholash.

Kasb-hunar kollejlarda tashkil etiladigan ilmiy-uslubiy ishlarning vazifalari sirasiga quyidagilar kiradi:

- kasb-hunar kolleji pedagog va texnik xodimlarining ilmiy-g'oyaviy saviyasini, pedagogik mahoratini oshirish;
- talabalarni milliy mustaqillik ruhida tarbiyalash mazmuni, shakl, metod va vositalarini takomillashtirish;
- ta'lim, tarbiya va rivojlantirish maqsadlarining birligi, umumilmiy, umumkasbiy va maxsus tayyorgarlikning uzviyligini ta'minlash;
- ilg'or pedagogik va ishlab chiqarish tajribalarini, fan va texnika yutuqlarini o'rganish, umumlashtirish hamda ta'lim-tarbiya jarayoniga joriy etishdan iborat.

Ilmiy-uslubiy ishlarda ishtirok etish kasb-hunar kollejlardagi barcha rahbarlar, o'qituvchilar, muxandis-pedagoglar uchun majburiy bo'lib, ularning pedagogik faoliyatini ajralmas qismi hisoblanadi.

Kusb-hunar kollejlardagi metodik ishlarning mazmuni, yo'nalishi, tuzilmasi kabilar metodik ish haqidagi Nizom bilan belgilanadi. Shu nizomga muvofiq jamoaviy va individual uslubiy ishlar olib boriladi.

Quyidagilar jamoaviy uslubiy ish shakllari sirasiga kiradi:

- pedagogik kengash;
- uslubiy komissiyalar;
- ilg'or tajriba maktabi, muammoli seminarlar, ilmiy-uslubiy

konferentsiyalar, pedagogik o'qish va turli uslubiy kengashlar.

Individual uslubiy ish quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

- kasb-hunar kollejlari rahbarlari, o'qituvchilar, muhandis-pedagoglar va boshqa muxandis-texnik xodimlarning o'z g'oyaviy-siyosiy darajasi, pedagogik malakasi va kasbiy mahoratini oshirish yuzasidan olib boriladigan mustaqil uslubiy ishlari;

- kollej rahbari (direktor), uning o'rinbosarlari, katta usta, o'qituvchilar, muxandis-pedagoglar va boshqa muhandis-texnik xodimlar bilan olib boradigan individual uslubiy ishlari.

Kasb-hunar kollejidagi uslubiy ishlarning aniq shakllarini kollej pedagogik kengashi belgilaydi. Kollej rahbari (direktor) uslubiy ishlarga umumiy rahbarlik qiladi.

U «Uslubiy ishning rejasi»ni tasdiqlaydi, pedagogik kengash ishiga rahbarlik qiladi, instruktiv-uslubiy majlislar o'tkazadi, o'qituvchi va muxandis pedagoglar o'tkazadigan mashg'ulotlarini tahlil qiladi, alohida o'qituvchilarning uslubiy ishlariga rahbarlik qiladi, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini yuqori organlari oldida o'zi rahbarlik qilayotgan kollejdagi uslubiy ishlarning ahvoli to'g'risida hisobot beradi.

## **19-MAVZU: KASB TA'LIM O'QITUVCHISINING VAZIFALARI KLASSIFIKATSIYASI**

19.1 Kasb ta'lim o'qituvchisi vazifasiga talabalarni shakllantirish ilmiy usullari

19.2 Kasb ta'lim o'qituvchisi kasbiy malakalarini shakllantirish omillari

19.3 Kasb ta'lim o'qituvchi o'qitish metodikasini maxoratini oshirish

### **19.1 Kasb ta'lim o'qituvchisi vazifasiga talabalarni shakllantirish ilmiy usullari**

**O'quv mashg'ulotining maqsadi:** Talabalarda kasb-hunar ta'limini tashkil qilishda o'qituvchining lavozim, ta'limni rejalashtirish, nazorat va baholash bo'yicha vazifalari va ularni bajarishga qo'yiladigan talablar, o'qituvchining metodik ishlari to'g'risidagi bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish va rivojlantirish

### **3-Ilova**

**Kutilayotgan natijalar:** (Talabalar o'rganadilar)

1.Muammoli savol, masala va vaziyatlarni hal etish orqali o'z tasavvurlarini aniqlashtirishadi.

2.O'qituvchining lavozim vazifalari o'rganishadi.

3.O'qituvchining ta'limni rejalashtirish bo'yicha vazifalar bilan tanishishadi.

4.Nazorat va baholash bo'yicha vazifalari bilan tanishishadi.

5.O'qituvchining metodik ishlari bilan tanishishadi.

Kasb ta'limi o'qituvchisi darsga tayyorlanayotganda, uni rejalashtirayotganda xar xil metod va usullarni qo'llab yangi materialni qanday bayon qilishni o'ylaydi. U o'quvchilarning individual xususiyatlarini, ularning tajribasi, jismoniy rivojlanishi va mehnat unumdorligiga ta'sir qiladigan boshqa omillarni hisobga olgan holda ob'ektlarni tanlaydi.

Texnikaviy ijodkorlik o'quvchilarning ilmiy texnikaviy va umumiy ta'lim fanlaridan olgan bilimlarni chuqurlashtiradi, ularning tafakkurini rivojlantiradi, mustaxkam mehnat ko'nikmalari va malakalarini tarkib toptirishga yordam beradi, ratsionalizatorlik va ixtirochilikka qiziqish uyg'otadi, siyosiy bilim doirasini kengaytiradi. Bu ijodkorlik kollej o'quvchilarini istiqbol ruxda tarbiyalashning eng muhim vositasidir.

O'qituvchining lavozim majburiyatlarini ish bajarish ketma-ketligiga qarab 3 bosqichga bo'lish mumkin:

- Rejalashtirish bo'yicha vazifalar;
- Amalga oshirish bo'yicha vazifalar;
- Baholash va tahlil qilish bo'yicha vazifalar.

**Rejalashtirish bo'yicha vazifalar:**

- Davlat ta'lim standartlari, o'quv reja va dasturlar asosida ta'limning maqsad va mazmunlarini tanlash va rejalashtirish;
- o'quv reja va dasturlar asosida kalendar mavzuli reja va dars rejasini ishlab chiqish;
- ta'limni tashkillashtirish va o'tkazish bo'yicha hujjatlarni tayyorlash;
- o'quvchilarning qobiliyatlari va bilimlarini baholash bo'yicha hujjatlarni tayyorlash;
- korxonaning turli bo'limlarida o'quvchilarni o'qitish joylarini rejalashtirish;
- qo'yilgan maqsadlarga javob beradigan ish topshiriqlari va mashqlarni tayyorlash;
- amaliy mashqlar hamda loyihalarni o'tkazish uchun xomashyo va chiqim materiallarni rejalashtirish;
- o'quv ustaxonasida o'qitish uchun etarli sharoitlarni tayyorlash;
- o'quv-didaktik materiallarni aniqlash, tanlash va ishlab chiqish.

## **Muammoli ma'ruz mashg'uloti jarayonida va mashg'ulot yakunida talabalr tomonidan bajariladigan topshiriqlar**

### **Dars boshlanishida**

- Mashg'ulot muammoli ma'ruza shaklida borishini ma'lum qiladi va talabalrdan mavzuga oid muammoli savollar berishni so'raydi, berilgan savollar orasidan eng maqbullarini mavzu uchun muammoli savollar sifatida belgilaydi;
- Talabalar oldiga mavzu mazmunini to'liq ochib beruvchi, buning uchun talabalarni izlanishga majbur qiluvchi muammoli savollar qo'yiladi va ularga javob topish bilan muammoli masalani echish va shu orqali mavzuni mukammal o'zlashtirish vazifasi qo'yiladi.

### **Dars yakunida**

Talabalarga **“Besh minutlik esse”** yozdiriladi. YOzma topshiriqning ushbu turida talabalardan quyidagi ikki topshiriqni bajarish:

- mazkur mavzu bo'yicha ular nimalarni o'rgangan-liklarini mustaqil bayon etish;
- javobini ololmagan savollarini berish so'raladi;
- toqqoslash jadvalini to'ldirish so'raladi.

Ta'lim tarbiya jarayonini **bashqarish va nazorat qilishda** quyidagilar kasb ta'limi o'qituvchisiga xos bo'lishi kerak:

1)YUqori g'oyaviylik. O'qituvchi o'sib kelayotgan avlodning tarbiyachisidir. U o'quvchilarni milliy istiqloq g'oyalari ruxida tarbiyalashi kerak.

2) YUqori texnika malaka. Masalan, ta'limi jarayonida o'quvchilar o'zlari tanlagan mutaxassislikka oid o'quv yurtining talablari bu mutaxassisliklarga oid bilim va ko'nikmalarni egallaydilar. Shu munosabat bilan oliy o'quv yurtining talablari bu mutaxassisliklarga oid kabiylar bilimlar asoslarini egallashlari xamda keyingi amaliy faoliyat jarayonida o'z maxorati darajasini uzluksiz oshira borishlari kerak.

3)YUqori psixologik-pedagogik tayyorgarlik. Kasb ta'limi o'qituvchilarining o'zi bilim va malakalarni yuksak saviyada egallabgina qolmay balki o'quvchilarda xam ma'lum malakalarni tarkib toptirish uchun ularga bilimlar berish kerak. Bilim va malakalarni egallash jarayonining o'z qonuniyatlari bor, maktabdagi ta'lim shu qonuniyatlar asosida tashkil etiladi. Kasb ta'limi o'qituvchisi asixologiya, didaktika va boshqa fanlarning o'quv jarayoniga asos bo'ladigan muxim qoidalarini chuqur o'zlashtirib olishi kerak.

4)O'z kasbiga muxabbat. O'qituvchilik kasbining o'ziga xos tomonlarini chuqur bilish, o'z kasbini faoliyatida erishgan yutuqlaridan zavqlanishi, qiyinchilarni engib o'tish uchun kuch va imkoniyat topa olish kasb ta'limi o'qituvchisining muxim fazilatlari qatoriga kiradi.

### **Baholash va tahlil qilish bo'yicha vazifalar:**

- o'quvchilarning amaliy natijalarini kuzatish, tahlil qilish va baholash;
- o'quvchilarning o'zlashtirilgan nazariy bilimlarini baholash;
- o'quvchilarning xulqini baholash;
- ta'limning mavjud sharoitlarining sifatini baholash;

- rejalashtirish va tashkillashtirish bo'yicha hujjatlarning sifatini baholash;
  - o'quv-didaktik materiallarning sifatini baholash;
  - o'zi bergan yo'l-yo'riq va namoyishlarni o'zi baholash;
- berilgan topshiriqlarning sifatini o'zi baholash.

Kasb-hunar kollejlarda tashkil etiladigan ilmiy-uslubiy ishlarning vazifalari sirasiga quyidagilar kiradi:

- kasb-hunar kolleji pedagog va texnik xodimlarining ilmiy-g'oyaviy saviyasini, pedagogik mahoratini oshirish;
- talabalarni milliy mustaqillik ruhida tarbiyalash mazmuni, shakl, metod va vositalarini takomillashtirish;
- ta'lim, tarbiya va rivojlantirish maqsadlarining birligi, umumilmiy, umumkasbiy va maxsus tayyorgarlikning uzviyligini ta'minlash;
- ilg'or pedagogik va ishlab chiqarish tajribalarini, fan va texnika yutuqlarini o'rganish, umumlashtirish hamda ta'lim-tarbiya jarayoniga joriy etishdan iborat.

Ilmiy-uslubiy ishlarda ishtirok etish kasb-hunar kollejlardagi barcha rahbarlar, o'qituvchilar, muxandis-pedagoglar uchun majburiy bo'lib, ularning pedagogik faoliyatini ajralmas qismi hisoblanadi.

Kasb-hunar kollejlardagi metodik ishlarning mazmuni, yo'nalishi, tuzilmasi kabilar metodik ish haqidagi Nizom bilan belgilanadi. Shu nizomga muvofiq jamoaviy va individual uslubiy ishlar olib boriladi.

Quyidagilar jamoaviy uslubiy ish shakllari sirasiga kiradi:

- pedagogik kengash;
- uslubiy komissiyalar;
- ilg'or tajriba maktabi, muammoli seminarlar, ilmiy-uslubiy konferentsiyalar, pedagogik o'qish va turli uslubiy kengashlar.

Individual uslubiy ish quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

- kasb-hunar kollejlari rahbarlari, o'qituvchilar, muhandis-pedagoglar va boshqa muxandis-texnik xodimlarning o'z g'oyaviy-siyosiy darajasi, pedagogik malakasi va kasbiy mahoratini oshirish yuzasidan olib boriladigan mustaqil uslubiy ishlari;
- kollej rahbari (direktor), uning o'rinbosarlari, katta usta, o'qituvchilar, muxandis-pedagoglar va boshqa muhandis-texnik xodimlar bilan olib boradigan individual uslubiy ishlari.

Kasb-hunar kollejidagi uslubiy ishlarning aniq shakllarini kollej pedagogik kengashi belgilaydi. Kollej rahbari (direktor) uslubiy ishlarga umumiy rahbarlik qiladi.

U «Uslubiy ishning rejasi»ni tasdiqlaydi, pedagogik kengash ishiga rahbarlik qiladi, instruktiv-uslubiy majlislar o'tkazadi, o'qituvchi va muxandis pedagoglar o'tkazadigan mashg'ulotlarini tahlil qiladi, alohida o'qituvchilarning uslubiy ishlariga rahbarlik qiladi, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini yuqori organlari oldida o'zi rahbarlik qilayotgan kollejdagi uslubiy ishlarning ahvoli to'g'risida hisobot beradi.

## **19.2 Kasb ta'lim o'qituvchisi kasbiy malakalarini shakllantirish omillari**

O'quvchilarga ta'lim va tarbiya berishda kasb ta'limi o'qituvchisi etakchi rol o'ynaydi. Ta'lim-tarbiya jarayonining ahvoli, o'quvchilarning tayyorgarlik darajasi o'qituvchi kasbiy malakasiga, pedagoglik mahoratiga, madaniyat darajasiga bog'liq.

**Yakka tartibdagi** metodik ish butun o'quv yiliga tuzilgan reja bo'yicha olib boriladi. Unda o'qituvchi muhandis-pedagog o'z pedagog mahoratlarini va o'z bilimlarini chuqurlashtirish maqsadida yakka tartibdagi metodik topshiriqlar nazarda tutiladi. Ularga quyidagilar kiradi: pedagogik mavzular bo'yicha ma'ruzalar tayyorlash; o'quv dasturning eng qiyin mavzulari bo'yicha metodik ko'rsatmalar tuzish; anchagina mehnat qilinishi talab qilinadigan muammoli izlanish ishlarini belgilaydi. Bu topshiriqlar har bir pedagog uchun majburiy minimum hisoblanadi.

Har bir pedagog, muhandis-pedagog ish rejasi to'rtta bo'limdan tashkil topishi kerak:

5. G'oyaviy-siyosiy saviyani oshirish.

6. Metodik-pedagogik mahoratini takomillashtirish.

7. O'qitilayotgan mehnat turi sohasidagi ilmiy-texnikaviy bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish.

8. Pedagog mehnatini ilmiy asosda tashkil etish sohasidagi bilim va malakalarini takomillashtirish.

Bu reja metodik kengash majlisida ko'rib chiqilib, tasdiqlanadi. Bu rejaning bajarilishi haqida o'qituvchilar bilan muhandis-pedagoglarning hisobotlari eshutilib turiladi.

**G'oyaviy-siyosiy saviyani oshirish** - materiallar ishlab chiqilayotganda hozirgi zamon hayoti va ishlab chiqarishni nazarda tutish kerak. Kasb ta'limi o'qituvchisi yoshlarga mehnat tarbiyasi va politexnik ta'lim berishning mohiyati ancha to'la yoritilgan asarlarni, prezident qarorlarining kasb-hunarga oid hujjatlarini o'rganishi, siyosiy seminarlar va nazariy konferentsiyalar ishida qatnashish, matbuot, radio, televidenie orqali hozirgi siyosat bilan tanishish va amaliy ishda qo'llash.

**O'qitilayotgan mehnat turi sohasidagi ilmiy-texnikaviy bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish** – ilg'or texnologiya va ratsional mehnat usullarini, texnika yangiliklarini muntazam o'rganib borish, ilmiy-texnikaviy seminarlarda qatnashish, texnikaga oid mavzulardagi ma'ruzalarni eshitib borish, ko'rgazmalarga borib turish, ilg'or korxonalarga o'tkaziladigan ekskursiyalarda qatnashish va hokazolar orqali erishiladi. Amaliy ko'nikmalar va malakalar kasb ta'limi o'qituvchilarining malakali metodistlar va ishlab chiqarish ilhorlari rahbarligida ilg'or ish usullarini egallash yo'li bilan takomillashtiriladi.

**Pedagog mehnatini ilmiy asosda tashkil etish sohasidagi bilim va malakalarini takomillashtirish** – kasb ta'limi darslarida amal qilinadigan hujjatlarni ilmiy asoslangan tarzda ishlab chiqish; o'quv ustaxonalarini zarur materiallar, asbob-uskunalar bilan muntazam ta'minlab turish tadbirlarini belgilash, ish joyini ilmiy asosda tashkil etish, ta'limning eng samarali ko'rsatmali va texnikaviy vositalaridan oqilona foydalanish yo'li bilan erishiladi.

**Didaktik materiallar tayyorlash**

Nazariy va amaliy mashg'ulotlar uchun manba sifatida ishlatiladigan vositalarimiz quyidagicha farqlanadi:

Agar tayyor vositalar yo'q bo'lsa, u holda bu vosita ularni o'qituvchining o'zi tayyorlashiga to'g'ri keladi.

O'quv va didaktik materiallarni tayyorlashda amaliyot o'qituvchisi chegaralangan vaqt va texnik imkoniyatlarni inobatga olgan holda e'tiborini quyidagilarga qaratishi lozim:

- ish varaqalari, tarqatmalar (bosilgan matnlar nusxalari), slaydlar, doska tasvirlari uchun eskizlar;

- yozma topshiriqlar, yozma va og'zaki testlar uchun so'rov qog'ozlari;

- baholash varag'i, nazorat qog'ozi;

- ish rejalari, tashkiliy hujjatlar.

O'qituvchi uchun materiallar nafaqat sohaga tegishli ma'lumotlarni, balki tashkiliy ishlar, usul va natijalarni baholash borasidagi ma'lumotlarni ham o'z ichiga oladi. Talabalar uchun materiallar esa qoida bo'yicha faqatgina sohaga tegishli jihatlarni o'z ichiga oladi.

Talabalarga tarqatiladigan materiallar tarkibida quyidagi ma'lumotlar bo'lishi lozim:

- sodda tilda yozilgan o'quv matnlari

- matnlarda bo'sh qoldirilgan joylar (talabalar tomonidan to'ldirilishi uchun)

- talabaning erkin fikrlashiga imkoniyat beruvchi savollar

- ustaxonada ishlash uchun mo'ljallangan, ish bosqichlari ko'rsatilgan tushunarli chizmalar (eskizlar) va jadvallar

- material, jihoz, asbob-uskunalar va yordamchi vositalar haqida ma'lumotlar.

Matn tayyorlash bo'yicha eng yangi usullardan biri bu matnlarni ranglar bilan ajratish sanaladi:

- oq qog'ozlar: mazmuniy jihatlar borasida matnlar (o'qituvchi va talabalar uchun)

- yashil qog'ozlar: talabalarga topshiriqlar

- qizil qog'ozlar: o'qituvchining metodik hujjatlari va topshiriqlarning javob varaqalari

Ranglarni kodlash hujjatlardan foydalanishni engillashtiradi

Xuddi shu usuldan seminar hujjatlarini tayyorlashda ham foydalaniladi.

Ta'lim jarayoni ishtirokchilari (O'qituvchi va tahsil oluvchilar)ning ma'lum belgilangan tartibda amalga oshiriladigan hamkorlikdagi faoliyatining tashqi ko'rinishi kasbiy ta'limning **tashkiliy shaklini** anglatadi.

Hozirgi paytda kasbiy ta'limning tashkiliy shakllari quyidagi xususiyatlariga binoan turlanadi:

7. Tahsil oluvchilar soniga ko'ra-ommaviy, jamoaviy, guruhli, individual.

8. O'qitish joyiga ko'ra-ta'lim-tarbiya muassasalarida va ta'lim muassasalaridan tashqarida (o'quv ustaxonalarida, mashq maydonlarda, korxonalarda, uy ishlari, sayohat va shu kabilar).

9. O'quv vaqtining davomiyligiga ko'ra-45 minutlik, juftlik (90 min), qisqartirilgan (70 minutlik), qo'ng'iroqsiz.

Amaliyotda sinf-dars tizimi keng ko'lamda qo'llanilganligi sababli dars ta'lim tarbiya ishining asosiy shakli deb yuritiladi. Sinf-dars tizimining asosiy o'ziga hos jihatlari quyidagilar hisoblanadi:

-deyarli bir xil tarkib, yosh va tayyorgarlik darajadagi tahsil oluvchilar ishtirok etadi;

-ta'lim-tarbiya jarayoni o'zaro bog'liq alohida-alohida qismlar ko'rinishiga ega bo'ladi;

-har bir dars o'quv rejasiga kirgan ma'lum bir o'quv predmetiga oid bo'ladi;

-darslar muntazam ravishda almashib turadi;

-iqtisodiy ko'rsatkichlarining nisbatan yuqoriligi. CHunki bir o'qituvchi bir vaqtni o'zida ko'p sonli tahsil oluvchilar bilan ishlaydi;

Shu bilan birga sinf-dars tizimining quyidagi kamchiliklari ham e'tirof etilgan:

-o'rtacha tahsil oluvchiga mo'ljallanganligi;

-har bir tahsil oluvchilar bilan individual ishlash imkoniyatining yo'qligi.

Bizga ma'lumki, **dars ta'limning asosiy tashkiliy shaklidir**. Dars juda uzoq tarixiy davr mobaynida shakllangan ta'lim jarayoni bo'lib, yildan yilga uning mazmuni va metodlari rivojlanib, sayqallanib bormoqda. U jamiyat taraqqiyoti bilan hamohang ravishda mazmunan boyib, takomillashib borayotgan pedagogik-psixologik jarayondir. Har bir darsda nimadir o'rganiladi, qandaydir bilimlar o'zlashtiriladi, uning zaminida xohish, istak, qiziqish, ma'lum bir maqsad sari intilish paydo bo'ladi.

Dars nihoyatda yuqori iqtisodiy tejamga ega bo'lib, bir o'qituvchining o'zi aniq belgilangan vaqt ichida, qat'iy tartib asosida birdaniga bir potok yoki guruh talabalariga bilim beradi. Ta'kidlash joizki, dars ta'limning boshqa shakllari bo'lgan fan olimpiadalari, tanlovlar, to'garaklar, turli tematik kechalar va hokazolar uchun asos sifatida xizmat qiladi.

Darsning ajoyib xususiyatlaridan biri shuki, uni har qanday istalgan sharoitga moslashtirish mumkin. Dars mazmuni va metodlari rang-barang, ishtirokchilari bo'lmish o'qituvchi va talabalarining ehtiyoj va talablaridan kelib chiqib turli xil shaklda shakllantirish uchun juda qulay jarayon.

E'tirof etish joizki, hozirgi ilm-fan taraqqiyoti natijasida maktab, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari, oliy maktab ta'lim-tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashni taqazo etmoqda.

Dars shunday integral xarakterga egaki, o'qituvchi ma'ruza yoki seminar mashg'ulotining o'zida ta'lim berishning turli metod va usullarini qo'llash imkoniyatidan foydalanadi. Masalan, ma'ruza, seminar, rolli o'yinlar, treninglar, maslahatlar, suhbat hamda muammoli vaziyatlarni yaratish va h.k. Shuning uchun

ham zamonaviy darsning har xil turlari paydo bo'lib, o'qituvchining ijodkorligi va talabanning darsga bo'lgan qiziqishi ortmoqda.<sup>1</sup>

Darsning yana bir xususiyati shundaki, unda bor e'tibor bilish jarayonini, aqliy faoliyatni rivojlantirishga qaratiladi, darsning har bir qismi uchun aniq maqsad belgilanib, uni amalga oshirish natijasida bilish, o'zlashtirish, o'qish, anglash, tushunib etish, umuman olganda, tafakkur, aql-zakovati rivojlanadi, dunyoqarash kengayadi. Masalan, darsda talaba yangi o'quv materialini o'zlashtiradi, mustahkamlaydi, o'z ustida ishlaydi, olgan bilimlarini amaliyotga tatbiq etadi, o'zining bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qiladi, baholaydi.

Hozirgi zamonaviy darsda o'qituvchi etakchi, rejissyor, boshqaruvchi bo'lib, asosiy ijrochi talabadir. U darsda o'qituvchi rahbarligida faoliyat ko'rsatadi, boshqalari bilan fikrlashadi, bahs-munozarada qatnashadi, guruhdoshlariga o'rgatadi, ulardan o'rganadi, mustaqil ishlaydi. Natijada talaba atrofdagilar bilan muomala qilishga o'rganadi, unda muloqot madaniyati shakllanadi, o'zining xatti-harakatlarini baholab, o'z-o'zini boshqarish malakasi hosil bo'ladi.

**Darsnig ayrim kamchiliklari quyidagilardan iborat:**

- dars uchun qat'iy belgilab qo'yilgan vaqt;
- didaktik nazariya bilan amaliyot o'rtasidagi bog'lanishning sustligi;
- o'qituvchi hamda talabalarining bilim va tajribalari talab darajasida emasligi;
- o'qitishning an'anaviy uslublari talabalarni mustaqil va ijodiy ishlashga o'rgatishdan ko'ra ustunligi;
- darsda bilim berishdan ko'ra tarbiyaviy ishlar ko'proq olib borilishi va hokazolar.

**19.3 Kasb ta'lim o'qituvchi o'qitish metodikasini maxoratini oshirish**

**O'quv mashg'ulotining maqsadi:** Talabalarda kasb-hunar ta'limini tashkil qilishda o'qituvchining lavozim, ta'limni rejalashtirish, nazorat va baholash bo'yicha vazifalari va ularni bajarishga qo'yiladigan talablar, o'qituvchining metodik ishlari to'g'risidagi bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish va rivojlantirish

**3-Ilova**

**Kutilayotgan natijalar:** (Talabalar o'rganadilar)

1. Muammoli savol, masala va vaziyatlarni hal etish orqali o'z tasavvurlarini aniqlashtirishadi.
2. O'qituvchining lavozim vazifalari o'rganishadi.
3. O'qituvchining ta'limni rejalashtirish bo'yicha vazifalar bilan tanishishadi.
4. Nazorat va baholash bo'yicha vazifalari bilan tanishishadi.
5. O'qituvchining metodik ishlari bilan tanishishadi.

Kasb ta'limi o'qituvchisi darsga tayyorlanayotganda, uni rejalashtirayotganda har xil metod va usullarni qo'llab yangi materialni qanday bayon qilishni o'ylaydi. U o'quvchilarning individual xususiyatlarini, ularning tajribasi, jismoniy rivojlanishi va mehnat unumdorligiga ta'sir qiladigan boshqa omillarni hisobga olgan holda ob'ektlarni tanlaydi.

Texnikaviy ijodkorlik o'quvchilarning ilmiy texnikaviy va umumiy ta'lim fanlaridan olgan bilimlarni chuqurlashtiradi, ularning tafakkurini rivojlantiradi, mustaxkam mehnat ko'nikmalari va malakalarini tarkib toptirishga yordam beradi, ratsionalizatorlik va ixtirochilikka qiziqish uyg'otadi, siyosiy bilim doirasini kengaytiradi. Bu ijodkorlik kollej o'quvchilarini istiqbol ruxda tarbiyalashning eng muhim vositasidir.

O'qituvchining lavozim majburiyatlarini ish bajarish ketma-ketligiga qarab 3 bosqichga bo'lish mumkin:

- Rejalashtirish bo'yicha vazifalar;
- Amalga oshirish bo'yicha vazifalar;
- Baholash va tahlil qilish bo'yicha vazifalar.

#### **Rejalashtirish bo'yicha vazifalar:**

- Davlat ta'lim standartlari, o'quv reja va dasturlar asosida ta'limning maqsad va mazmunlarini tanlash va rejalashtirish;
- o'quv reja va dasturlar asosida kalendar mavzuli reja va dars rejasini ishlab chiqish;
- ta'limni tashkillashtirish va o'tkazish bo'yicha hujjatlarni tayyorlash;
- o'quvchilarning qobiliyatlari va bilimlarini baholash bo'yicha hujjatlarni tayyorlash;
- korxonaning turli bo'limlarida o'quvchilarni o'qitish joylarini rejalashtirish;
- qo'yilgan maqsadlarga javob beradigan ish topshiriqlari va mashqlarni tayyorlash;
- amaliy mashqlar hamda loyihalarni o'tkazish uchun xomashyo va chiqim materiallarni rejalashtirish;
- o'quv ustaxonasida o'qitish uchun etarli sharoitlarni tayyorlash;
- o'quv-didaktik materiallarni aniqlash, tanlash va ishlab chiqish.

#### **4-Ilova**

#### **Muammoli ma'ruz mashg'uloti jarayonida va mashg'ulot yakunida talabalr tomonidan bajariladigan topshiriqlar**

##### **Dars boshlanishida**

- Mashg'ulot muammoli ma'ruza shaklida borishini ma'lum qiladi va talabalrdan mavzuga oid muammoli savollar berishni so'raydi, berilgan savollar orasidan eng maqbullarini mavzu uchun muammoli savollar sifatida belgilaydi;
- Talabalar oldiga mavzu mazmunini to'liq ochib beruvchi, buning uchun talabalarni izlanishga majbur qiluvchi muammoli savollar qo'yiladi va ularga javob topish bilan muammoli masalani echish va shu orqali mavzuni mukammal o'zlashtirish vazifasi qo'yiladi.

##### **Dars yakunida**

Talabalarga **“Besh minutlik esse”** yozdiriladi. YOzma topshiriqning ushbu turida talabalardan quyidagi ikki topshiriqni bajarish:

- mazkur mavzu bo'yicha ular nimalarni o'rgangan-liklarini mustaqil bayon etish;
- javobini ololmagan savollarini berish so'raladi;
- toqqoslash jadvalini to'ldirish so'raladi.

Ta'lim tarbiya jarayonini **bashqarish va nazorat qilishda** quyidagilar kasb ta'limi o'qituvchisiga xos bo'lishi kerak:

1) YUqori g'oyaviylik. O'qituvchi o'sib kelayotgan avlodning tarbiyachisidir. U o'quvchilarni milliy istiqlol g'oyalari ruxida tarbiyalashi kerak.

2) YUqori texnika malaka. Masalan, ta'limi jarayonida o'quvchilar o'zlari tanlagan mutaxassislikka oid o'quv yurtining talablari bu mutaxassisliklarga oid bilim va ko'nikmalarni egallaydilar. Shu munosabat bilan oliy o'quv yurtining talablari bu mutaxassisliklarga oid kabi bilimlar asoslarini egallashlari xamda keyingi amaliy faoliyat jarayonida o'z maxorati darajasini uzluksiz oshira borishlari kerak.

3) YUqori psixologik-pedagogik tayyorgarlik. Kasb ta'limi o'qituvchilarining o'zi bilim va malakalarni yuksak saviyada egallabgina qolmay balki o'quvchilarda xam ma'lum malakalarni tarkib toptirish uchun ularga bilimlar berish kerak. Bilim va malakalarni egallash jarayonining o'z qonuniyatlari bor, maktabdagi ta'lim shu qonuniyatlar asosida tashkil etiladi. Kasb ta'limi o'qituvchisi asixologiya, didaktika va boshqa fanlarning o'quv jarayoniga asos bo'ladigan muxim qoidalarini chuqur o'zlashtirib olishi kerak.

4) O'z kasbiga muxabbat. O'qituvchilik kasbining o'ziga xos tomonlarini chuqur bilish, o'z kasbini faoliyatida erishgan yutuqlaridan zavqlanishi, qiyinchilarni engib o'tish uchun kuch va imkoniyat topa olish kasb ta'limi o'qituvchisining muxim fazilatlariga qatoriga kiradi.

#### **Baholash va tahlil qilish bo'yicha vazifalar:**

- o'quvchilarning amaliy natijalarini kuzatish, tahlil qilish va baholash;
- o'quvchilarning o'zlashtirilgan nazariy bilimlarini baholash;
- o'quvchilarning xulqini baholash;
- ta'limning mavjud sharoitlarining sifatini baholash;
- rejalashtirish va tashkillashtirish bo'yicha hujjatlarning sifatini baholash;
- o'quv-didaktik materiallarning sifatini baholash;
- o'zi bergan yo'l-yo'riq va namoyishlarni o'zi baholash;
- berilgan topshiriqlarning sifatini o'zi baholash.

Kasb-hunar kollejlarda tashkil etiladigan ilmiy-uslubiy ishlarning vazifalari sirasiga quyidagilar kiradi:

- kasb-hunar kolleji pedagog va texnik xodimlarining ilmiy-g'oyaviy saviyasini, pedagogik mahoratini oshirish;
- talabalarni milliy mustaqillik ruhida tarbiyalash mazmuni, shakl, metod va vositalarini takomillashtirish;
- ta'lim, tarbiya va rivojlantirish maqsadlarining birligi, umumilmiy, umumkasbiy va maxsus tayyorgarlikning uzviyligini ta'minlash;
- ilg'or pedagogik va ishlab chiqarish tajribalarini, fan va texnika yutuqlarini o'rganish, umumlashtirish hamda ta'lim-tarbiya jarayoniga joriy etishdan iborat.

Ilmiy-uslubiy ishlarda ishtirok etish kasb-hunar kollejlaridagi barcha rahbarlar, o'qituvchilar, muxandis-pedagoglar uchun majburiy bo'lib, ularning pedagogik faoliyatini ajralmas qismi hisoblanadi.

Kusb-hunar kollejlardagi metodik ishlarning mazmuni, yo'nalishi, tuzilmasi kabilar metodik ish haqidagi Nizom bilan belgilanadi. Shu nizomga muvofiq jamoaviy va individual uslubiy ishlar olib boriladi.

Quyidagilar jamoaviy uslubiy ish shakllari sirasiga kiradi:

- pedagogik kengash;
- uslubiy komissiyalar;
- ilg'or tajriba maktabi, muammoli seminarlar, ilmiy-uslubiy konferentsiyalar, pedagogik o'qish va turli uslubiy kengashlar.

Individual uslubiy ish quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

- kasb-hunar kollejlari rahbarlari, o'qituvchilar, muhandis-pedagoglar va boshqa muxandis-texnik xodimlarning o'z g'oyaviy-siyosiy darajasi, pedagogik malakasi va kasbiy mahoratini oshirish yuzasidan olib boriladigan mustaqil uslubiy ishlari;

- kollej rahbari (direktor), uning o'rinbosarlari, katta usta, o'qituvchilar, muxandis-pedagoglar va boshqa muhandis-texnik xodimlar bilan olib boradigan individual uslubiy ishlari.

Kasb-hunar kollejidagi uslubiy ishlarning aniq shakllarini kollej pedagogik kengashi belgilaydi. Kollej rahbari (direktor) uslubiy ishlarga umumiy rahbarlik qiladi.

U «Uslubiy ishning rejasi»ni tasdiqlaydi, pedagogik kengash ishiga rahbarlik qiladi, instruktiv-uslubiy majlislar o'tkazadi, o'qituvchi va muxandis pedagoglar o'tkazadigan mashg'ulotlarini tahlil qiladi, alohida o'qituvchilarning uslubiy ishlariga rahbarlik qiladi, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini yuqori organlari oldida o'zi rahbarlik qilayotgan kollejdagi uslubiy ishlarning ahvoli to'g'risida hisobot beradi.

## **20-MAVZU: KASBIY FAOLIYAT VA UNING OB'EKTLARI.**

20.1 O'qituvchining pedagogik faoliyati har bir boshqa faoliyat kabi o'zining aniq uslubiga ega bo'ladi. Faoliyat uslubi-to'la ma'noda usullar, holatlar, shakllarning turg'un tizimidan iborat bo'lib, uning sub'ektning shaxsiy-psixologik xususiyatiga bog'liq.

20.2 Bugungi kun o'qituvchisiga qo'yilayotgan zamonaviy talablarni "Faoliyat tushunchasi". Faoliyat turlari

20.3 Kasbiy faoliyat. Kasbiy faoliyat ob'ektlari o'rgatish va bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilariga zarur bilim va malaka va ko'nikmalarni shakllantirish zarur bo'ladi.

### **20.1 O'qituvchining pedagogik faoliyati har bir boshqa faoliyat kabi o'zining aniq uslubiga ega bo'ladi. Faoliyat uslubi-to'la ma'noda usullar, holatlar, shakllarning turg'un tizimidan iborat bo'lib, uning sub'ektning shaxsiy-psixologik xususiyatiga bog'liq.**

Ta'lim muassasalaridagi tarbiyaviy tizimning kontseptual g'oyasi – shaxs rivojlanishini maqsadga yo'naltirilgan holda boshqarish. Buning uchun esa yaxshi shart-sharoit yaratilishi va avtoritarizmdan voz kechishi zarur. Bizning nazarimizda, bunday hamkorlik pedagogikasai juda qo'l keladi. Hamkorlik

pedagogikasining mazmuni o'quvchi-yoshlarning o'z kuchiga ishonishini ifodalovchi munosabatlar yordamida unga tanlash erkinligini berishda namoyon bo'ladi. Demak, bunda pedagogik jamoa tomonidan o'quvchi-yosharning o'z-o'zini belgylash, mustaqil faoliyat ko'rsatishi uchun vaziyatlar yaratilib berilishi nazarda tutiladi. Bu degan so'z, ular o'z oldiga maqsad qo'yish va unga erishish yo'llarini belgilashda, o'z faoliyatini boshqarish usullarini tanlashda ham erkin bo'ladilar. O'qituvchi unga faqat rahbarlik qilib, yo'l-yo'riq ko'rsatib turadi.

Tarbiya–tarbiyachi va tarbiyalanuvchi faoliyatlarini o'z ichiga olgan ikki yoqlama jarayon. Tarbiyachilar bilan va tarbiyaga ega bo'lgan kishilar tarbiyalanuvchilar bilim va tajriba o'rganuvchi yoshlardir. Ammo tarbiyalanuvchilar muayyan darajada aktiv faoliyat ko'rsatmasalar tajriba va bilim o'rgana olmaydilar.

### **Tarbiya vazifalari**

1.O'z vatani fuqarosini tarbiyalash. Tarbiyaning bu vazifalarni amalga oshirish quyidagilarni taqozo etadi;

Milliy vatanparvarlik, o'z vataniga, tarixiga, madaniyatiga iftixor tuyg'usi;

Millatlararo madaniy munosabatlar, siyosiy madaniyat.

2.Shaxsning ma'naviyatini shakllantirish. Ma'naviyat-kishining ichki dunyosi bo'lib, uning jamiyat va tabiatdagi «Men»i, obrazi, taqdiri va rolini ifoda etadi. Ma'naviyat darajasi - bu, ma'lum ma'noda, insoniylik mezonidir. Ma'naviyatni shakllantirish bu uning shaxsiy harakatlari, intilishlari, refleksiyasi bilan kishining ichki dunyosini vujudga keltirishdir.

3.Mehnatkash insonni iqtisodiy tafakkurini tarbiyalash mehnatga, kasbga hurmat va ijtimoiy-psixologik jihatdan yoshlarda mustaqillik, ijod, ishchanlik, faollik, yuqori kasbiy tayyorgarlik sifatlarini kuchaytirish zarur.

4.Ruhiy-jismoniy sog'lomlikni tarbiyalash. Bu axloqiy–hayotiy muvozanat va psixologik qulaylik holatini ushlab turish hamda jismoniy rivojlanish me'yoridan uzoqlashib ketishga yo'l qo'ymaslik ko'nikmalarini shakllantirishdir.

### ***Tarbiya tiziminnig milliy xususiyatlari***

milliy tarix va madaniyatning o'ziga xos jihatlarini hisobga olish;

tarbiyaviy ishlarda milliy udumlar, an'analar, urf-odatlar, diniy marosimlardan foydalanish;

milliy madaniyat jahon madaniyatining bir bo'lagi ekanligi tushunchasini shakllantirish.

### ***Tarbiya tiziminnig milliy xususiyatlari***

milliy tarix va madaniyatning o'ziga xos jihatlarini hisobga olish;

tarbiyaviy ishlarda milliy udumlar, an'analar, urf-odatlar, diniy marosimlardan foydalanish;

milliy madaniyat jahon madaniyatining bir bo'lagi ekanligi tushunchasini shakllantirish.

### ***Tarbiya tiziminnig milliy xususiyatlari***

milliy tarix va madaniyatning o'ziga xos jihatlarini hisobga olish;

tarbiyaviy ishlarda milliy udumlar, an'analar, urf-odatlar, diniy marosimlardan foydalanish;

milliy madaniyat jahon madaniyatining bir bo'lagi ekanligi tushunchasini shakllantirish.

**Shaxsiy yondoshish.** Bunday yondoshish tarbiyalanuvchilarning shaxsiy sifatlariga tayanishni ko'zlaydi va tarbiyachidan quyidagilarni talab etadi:

shaxsning individual xususiyatlarini (xarakteri, mijozi(temperamenti), qarashlari, odatlari va b.) muntazam o'rganish va yaxshi bilish;

mohirona tashxislash va shaxsiy sifatlarning real shakllanganlik darajasini bilish.

## 7-Ilova

### **O'quvchilarni o'rganishning pedagogik-psixologik metodlari**

Tarbiyaviy tizimining eng asosiy tashkil etuvchilaridan biri – bu shaxsni ijodkorlikka, mustaqillikka, insonparvarlikka, o'zini qadrlay bilimsh va o'zgalarga urmat qilishga o'rgatishdir.

Tarbiyaviy tizim asosiga insonparvar psixologiya va pedagogika tamoyillari qo'yiladi.

Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning ustivor yo'nalishlari quyidagilar hisoblanadi:

- o'quvchilarning qiziqishi-xohishiga qarab ta'lim muassasasi va undan tashqarida tashkil etilgan turli xil uyushmalarga jalb etish;

o'quvchilar ishtirokida muntazam ravishda har xil ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazish;

- fan to'garaklar, texnik yo'nalishdagi to'garaklar va amaliy ijodkorlik mazmunini o'zgartirish;

- badiiy-estetik birlashmalarni tashkil etish va rivojlantirish;

- ta'lim muassasasi faoliyatini demokratlashtirish asosi sifatida o'z-o'zini boshqarishni rivojlantirish.

### **O'quvchilarni o'rganish metodlari**

**Kuzatish** - odatda tabiiy kuzatish orqali talabalarning fanlarni o'zlashtirishlari, ularning xulq-atvori va muomalalaridagi o'zgarishlarni hisobga olish va tegishli ta'limiy-tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish yo'llarini belgilash uchun qo'llaniladi. Bu metod tadqiqotchining pedagogik tajribaning muayyan bir tomoni va hodisalarini biror maqsadni ko'zda tutib idrok etish tashkil etadi. Bunda kuzatishlar tezligi va soni, kuzatish ob'ekti, vaqti, pedagogik vaziyatlarni kuzatish uchun ajratiladigan xarakteristika va hokazolar hisobga olinadi.

**Suhbat metodi** - so'rashning bir turi bo'lgani holda tadqiqotchining jiddiy tayyorgarlik ko'rishini talab etadi, chunki u tekshirayotgan shaxs bilan bevosita aloqada bo'lish vaqtida og'zaki suhbat tarzida, suhbatdoshining javoblarini yozmasdan erkin muomala formasida qo'llaniladi.

Suhbat metodidan farq qilib, **intervyu olish** metodi savollarni oldindan belgilangan izchillikda intervyu yo'li bilan bayon qilishni nazarda tutadi. Bunda javoblar magnit tasmasiga yoki kassetalarga yozib olinadi. Hozirgi kunda ommaviy so'rash nazariyasi va praktikasida intervyu tashkil etishning ko'p usullari mavjud:

- guruhlar bilan;

- intensiv;

- sinov va h.k.

**Pedagogik so'rash metodi** – tadqiqotchining boshqa kishilardan o'quvchilarning biror tomoni yoki hodisalari haqida axborot olish jarayoni bu metodning asosini tashkil qiladi. So'rash savollarning mantiqiy o'ylangan sistemasini, ularning aniq ifodalanishini, nisbatan kamchiligi (3-5ta) nazarda tutiladi. Shuningdek, qat'iy formadagi javobni ("ha","yo'q") ham taqozo etishi mumkin.

Test savollaridan ko'zlangan maqsad oz vaqt ichida talabalarning bilimlarini yoppasiga baholashdir.

## 8-Ilova

### **Kasb - hunar kollejlari o'quvchilarni tarbiyalash metodlari**

Ta'lim-tarbiya jarayonining ajralmas bir qismi bo'lgan **tarbiya ishida** aniq didaktik maqsadlarga ko'ra tahsil beruvchi va tahsil oluvchilarning o'zaro aloqador biri ikkinchisini taqozo etuvchi hatti-harakatlari majmuasi yoki muloqotda bo'lish usullariga ta'lim-tarbiya metodlari deb yuritiladi.

#### **Tarbiya metodlarini turkumlash:**

##### **1. Tarbiya axborotini o'zlashtirish manbaiga ko'ra:**

- a) og'zaki (so'zlab berish, savol-javob, suhbat, ma'ruza, tushuntirish, bayon etish kabilar);
- b) ko'rsatmali (ko'rsatmali bayon etish, tushuntirish);
- v) amaliy (tajriba sinovlari va laboratoriya ishlari, o'quv ishab chiqarish mehnati);

##### **2. Tarbiya axborotni uzatilishi va o'zlashtirish mantiqiga ko'ra:**

- a) oddiydan murakkabga (induktiv);
- b) murakkabdan oddiyga yoki mavhumdan ma'lumga (deduktiv);

##### **3. O'rganuvchilarning mustaqil tarbiya tafakkuri darajasiga ko'ra:**

- a) mahsulsiz (reproduktiv);
- b) mahsullik (produktiv);

##### **4. Tarbiya ishlarini bajarilish darajasiga ko'ra:**

- a) Tarbiya beruvchi rahbarligidagi ta'lim-tarbiyaviy ishlar;
- b) Tarbiya beruvchi rahbarligisiz tahsil oluvchilarning mustaqil ishlari (manbalar bilan ishlash, yozma ishlar, laboratoriya ishlari, mehnat vazifalarini bajarish va shu kabilar);

##### **5. Tarbiyalanuvchilarning o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini oshirish bo'yicha:**

- a) tarbiyalash o'yinlari;
  - b) tarbiya bo'yicha munozaralari;
  - v) tarbiya bo'yicha qiziqarli amaliy vaziyatlarni yuzaga keltirish;
6. Javobgarlik burchini shakllantirish va rag'batlantirish usuliga ko'ra:

- a) ishontirish;
- b) talab qo'yish;
- v) qo'yilgan talabga muvofiq mashq qildirish;
- g) rag'batlantirish va jazolash;

7. Nazorat qilish va o'z-o'zini nazorat qilish usuliga ko'ra:

- a) yakka holda tarbiyalash;
- b) yoppasiga (yalpi) tarbiyalash;
- v) og'zaki va yozma sinov yoki so'rovnomalar;
- g) dasturli so'rov (testlar yordamida mashinali yoki mashinasiz);
- d) o'z-o'zini nazorat qilish va shu kabilar.

## **20.2 Bugungi kun o'qituvchisiga qo'yilayotgan zamonaviy talablarni**

### **“Faoliyat tushunchasi”. Faoliyat turlari**

Kasb-hunar kollej ta'lim muassasalarida **tarbiya jarayonini nazorat qilish** o'quv yurtining rahbariyati (O'quv yurti direktori, direktorning ma'naviy – ma'rifiy ishlar bo'yicha muovini, guruh murabbiylari) tomonidan amalga oshiriladi. Bu ish pedagogik jamoaga rahbarlik qilishning ma'lum bir shakli hisoblanib, unda ta'lim-tarbiya ishini takomillashtirishga oid hujjatlarga asoslaniladi.

Tarbiyaning samaradorligi tarbiyaviy ish usullarini to'g'ri tanlash va tadbiq etishga hal qiluvchi darajada bog'liqdir.

KXX larda o'quvchilarni **tarbiyalash va tarbiya jarayonini nazorat qilishga** bir qancha talablar qo'yiladi

***Ularning asosiylari quyidagilar:***

### ***Pedagogik talab***

Tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarga talab bevosita va bilvosita shaklda quyilishi mumkin. Bevosita talablar buyruq, ko'rsatma, yo'l-yo'riqdir. Ular jamoa endi tarkib topayotgan paytda guruh bilan ishlashning dastlabki bosqichi uchun xosdir. Bilvosita talablar-iltimos, maslahat, shama qilish va hokozolar o'quvchilarda muayyan darajada shakllangan e'tiqod, motivlar, to'g'ri xulq - atvor, odamlar bo'lishini taqozo etadi. Talablarning bilvosita shakli ko'pincha bevosita talablardan samaraliroq bo'ladi.

### ***Jamoatchilik fikri***

Jamoaning baholari, mulohazalari, irodasini birlashtiruvchi jamoatchilik fikri mohir pedagog qo'lida katta tarbiyaviy samara beradigan faol va ta'sirchan kuchdir. O'quvchilarning yig'ilishlardagi nutqlari, mavjud kamchiliklar xususida aytilgan tanqidiy mulohazalar, devoriy gazetadagi maqolalar, o'quvchilar o'z-o'zini boshqarish organlarining qarorlari, jamoatchilikning ma'qullashi yoki qoralashi, jamoa talabi va hokozolar jamoatchilik fikri ifodasining shaklidir. Rivojlangan jamoada jamoatchilik fikrining roli hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lishi mumkin. Shu bilan birga jamoatchilik fikri stixiyali tarzda shakllanmaydi.

U o'qituvchi va boshqa pedagoglar tomonidan guruhdagi tarbiya jarayonining boshqarilishi qanday bo'lishiga bog'liq.

Kasb-hunar kollej ta'lim muassasalarida ta'limiya jarayonini nazorat qilish o'quv yurtining rahbariyati (O'quv yurti diretori, direktorning o'quv ishlari bo'yicha muovini, fanlar bo'liyaa metod yuirlashmalar) tomonidan amalga oshiriladi. Bu ish pedagogik jamoaga rahbarlik qilishning ma'lum bir shakli hisoblanib, unda ta'lim-tarbiya ishini takomillashtirishga oid hujjatlarga asoslaniladi.

***Quyidagilar nazorat ob'ektlari bo'lib xizmat qilishi mumkin:***

1. O'quvchilarning umumta'lim, umumkasbiy va kasbiy tayyorgarlik darajasi; ularning bilim, ish-harakat usullari va shaxsiy fazilatlarining o'zlashtirganlik darajasi;
2. O'qituvchi va muhandis-pedagoglar tomonidan o'tkazilayotgan mashg'ulotlarning ilmiy, g'oyaviy, siyosiy, iqtisodiy va uslubiy saviyasi.
3. O'quv rejasi, dasturini bajarilish holati va rejalashtirish hamda hisobga olish, hujjatlarini yuritilishi
4. O'qituvchi va ishlab chiqarish ta'limi ustalarini darslarga tayyorgarlik ko'rishi
5. O'quvchilar bilan sinfdan va ta'lim muassasasidan tashqari ishlarni olib borilishi
6. O'quv xonalari, laboratoriyalar va ustaxonalarining o'quv moddiy bazasi bilan ta'minlanganlik holati va shu kabilar.

**20.3 Kasbiy faoliyat. Kasbiy faoliyat ob'ektlari o'rgatish va bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilariga zarur bilim va malaka va ko'nikmalarni shakllantirish zarur bo'ladi.**

***Nazariy va ishlab chiqarish ta'limi darsmashg'ulotlarini tahlil qilish***

Darsni tahlil qilishdan ko'zlangan asosiy maqsad o'qituvchining ilg'or ish uslubini o'rganish, umumlalashtirish va ommalashtirish zarur hollarda uslubiy yordam berish, ta'lim-tarbiya ishining samaradorligini oshirishdan iborat:

***Nazariy va ishlab chiqarish ta'limi darsmashg'ulotlarini tahlil qilish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:***

1. Nazoratchi (tekshiruvchi)ning tayyorgarligi
2. Darsni tahlil qilishning taxminiy sxemasi
3. Darsni tashkil etish mazmuni va metodikasi
4. Yordamchi kuzatishlar
5. Darsdan kutiladigan natijalar
6. Nazorat qilish va baholash

KXX larda o'quvchilarni **tarbiyalash va tarbiya jarayonini nazorat qilishga** bir qancha talablar qo'yiladi

***Ularning asosiylari quyidagilar:***

***Pedagogik talab***

Tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarga talab bevosita va bilvosita shaklda quyilishi mumkin. Bevosita talablar buyruq, ko'rsatma, yo'l-yo'riqdir. Ular jamoa endi tarkib topayotgan paytda guruh bilan ishlashning dastlabki bosqichi uchun xosdir. Bilvosita talablar-iltimos, maslahat, shama qilish va hokozolar o'quvchilarda muayyan darajada shakllangan e'tiqod, motivlar, to'g'ri xulq - atvor, odamlar bo'lishini taqozo etadi. Talablarning bilvosita shakli ko'pincha bevosita talablardan samaraliroq bo'ladi.

### ***Jamoatchilik fikri***

Jamoaning baholari, mulohazalari, irodasini birlashtiruvchi jamoatchilik fikri mohir pedagog qo'lida katta tarbiyaviy samara beradigan faol va ta'sirchan kuchdir. O'quvchilarning yig'ilishlardagi nutqlari, mavjud kamchiliklar xususida aytilgan tanqidiy mulohazalar, devoriy gazetadagi maqolalar, o'quvchilar o'z-o'zini boshqarish organlarining qarorlari, jamoatchilikning ma'qullashi yoki qoralashi, jamoa talabi va hokozolar jamoatchilik fikri ifodasining shaklidir. Rivojlangan jamoada jamoatchilik fikrining roli hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lishi mumkin. Shu bilan birga jamoatchilik fikri stixiyali tarzda shakllanmaydi. U o'qituvchi va boshqa pedagoglar tomonidan guruhdagi tarbiya jarayonining boshqarilishi qanday bo'lishiga bog'liq.

O'quvchilarga ta'lim va tarbiya berishda kasb ta'limi o'qituvchisi etakchi rol o'ynaydi. Ta'lim-tarbiya jarayonining ahvoli, o'quvchilarning tayyorgarlik darajasi o'qituvchi kasbiy malakasiga, pedagoglik mahoratiga, madaniyat darajasiga bog'liq.

**Yakka tartibdagi** metodik ish butun o'quv yiliga tuzilgan reja bo'yicha olib boriladi. Unda o'qituvchi muhandis-pedagog o'z pedagog mahoratlarini va o'z bilimlarini chuqurlashtirish maqsadida yakka tartibdagi metodik topishiriqlar nazarda tutiladi. Ularga quyidagilar kiradi: pedagogik mavzular bo'yicha ma'ruzalar tayyorlash; o'quv dasturning eng qiyin mavzulari bo'yicha metodik ko'rsatmalar tuzish; anchagina mehnat qilinishi talab qilinadigan muammoli izlanish ishlarini belgilaydi. Bu topshiriqlar har bir pedagog uchun majburiy minimum hisoblanadi.

Har bir pedagog, muhandis-pedagog ish rejasi to'rtta bo'limdan tashkil topishi kerak:

9. G'oyaviy-siyosiy saviyani oshirish.

10. Metodik-pedagogik mahoratini takomillashtirish.

11. O'qitilayotgan mehnat turi sohasidagi ilmiy-texnikaviy bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish.

12. Pedagog mehnatini ilmiy asosda tashkil etish sohasidagi bilim va malakalarini takomillashtirish.

Bu reja metodik kengash majlisida ko'rib chiqilib, tasdiqlanadi. Bu rejaning bajarilishi haqida o'qituvchilar bilan muhandis-pedagoglar hisobotlari eshitilibturiladi.

**G'oyaviy-siyosiy saviyani oshirish** - materiallar ishlab chiqilayotganda hozirgi zamon hayoti va ishlab chiqarishni nazarda tutish kerak. Kasb ta'limi o'qituvchisi yoshlarga mehnat tarbiyasi va politexnik ta'lim berishning mohiyati

ancha to'la yoritilgan asarlarni, prezident qarorlarining kasb-hunarga oid hujjatlarini o'rganishi, siyosiy seminarlar va nazariy konferentsiyalar ishida qatnashish, matbuot, radio, televidenie orqali hozirgi siyosat bilan tanishish va amaliy ishda qo'llash.

## **21-MAVZU: PEDAGOGIK FAOLIYAT VA PEDAGOGIK QOBILIYAT.**

21.1 O'qituvchi pedagogik faoliyatining tarkibiy qismlari: konstruktiv, tashkiliy, gnostik, kommunikativ.

21.2 O'qituvchining pedagogik qobiliyati. O'qish va o'qitish bo'yicha qobiliyatlar, tarbiya jarayoniga yo'naltirilgan pedagogik qobiliyatlar.

21.3 Pedagogik muloqot qobiliyatlari va faoliyatga ega bo'lgan o'qituvchi fanni o'quv kursi hajmidagina emas, balki ancha keng va chuqurroq bilishi, o'z fani sohasidagi kashfiyotlarni hamisha kuzatib borishi, materialni ipidan ignasigacha bilishi, unga nihoyatda qiziqish, oddiy tadqiqot ishlarini olib borishi to'g'risida tushunchalar hosil qilish.

### **21.1 O'qituvchi pedagogik faoliyatining tarkibiy qismlari: konstruktiv, tashkiliy, gnostik, kommunikativ.**

**O'qitilayotgan mehnat turi sohasidagi ilmiy-texnikaviy bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish** – ilg'or texnologiya va ratsional mehnat usullarini, texnika yangiliklarini muntazam o'rganib borish, ilmiy-texnikaviy seminarlarda qatnashish, texnikaga oid mavzulardagi ma'ruzalarni eshitib borish, ko'rgazmalarga borib turish, ilg'or korxonalarga o'tkaziladigan ekskursiyalarda qatnashish va hokazolar orqali erishiladi. Amaliy ko'nikmalar va malakalar kasb ta'limi o'qituvchilarining malakali metodistlar va ishlab chiqarish ilhorlari rahbarligida ilg'or ish usullarini egallash yo'li bilan takomillashtiriladi.

**Pedagog mehnatini ilmiy asosda tashkil etish sohasidagi bilim va malakalarini takomillashtirish** – kasb ta'limi darslarida amal qilinadigan hujjatlarni ilmiy asoslangan tarzda ishlab chiqish; o'quv ustaxonalarini zarur materiallar, asbob-uskunalar bilan muntazam ta'minlab turish tadbirlarini belgilash, ish joyini ilmiy asosda tashkil etish, ta'limning eng samarali ko'rsatmali va texnikaviy vositalaridan oqilona foydalanish yo'li bilan erishiladi.

#### **Didaktik materiallar tayyorlash**

Nazariy va amaliy mashg'ulotlar uchun manba sifatida ishlatiladigan vositalarimiz quyidagicha farqlanadi:

Agar tayyor vositalar yo'q bo'lsa, u holda bu vosita ularni o'qituvchining o'zi tayyorlashiga to'g'ri keladi.

O'quv va didaktik materiallarni tayyorlashda amaliyot o'qituvchisi chegaralangan vaqt va texnik imkoniyatlarni inobatga olgan holda e'tiborini quyidagilarga qaratishi lozim:

-ish varaqalari, tarqatmalar (bosilgan matnlar nusxalari), slaydlar, doska tasvirlari uchun eskizlar;

-yozma topshiriqlar, yozma va og'zaki testlar uchun so'rov qog'ozlari;

- baholash varag'i, nazorat qog'ozi;

- ish rejalari, tashkiliy hujjatlar.

O'qituvchi uchun materiallar nafaqat sohaga tegishli ma'lumotlarni, balki tashkiliy ishlar, usul va natijalarni baholash borasidagi ma'lumotlarni ham o'z ichiga oladi. Talabalar uchun materiallar esa qoida bo'yicha faqatgina sohaga tegishli jihatlarni o'z ichiga oladi.

Talabalarga tarqatiladigan materiallar tarkibida quyidagi ma'lumotlar bo'lishi lozim:

- sodda tilda yozilgan o'quv matnlari
- matnlarda bo'sh qoldirilgan joylar (talabalar tomonidan to'ldirilishi uchun)
- talabaning erkin fikrlashiga imkoniyat beruvchi savollar
- ustaxonada ishlash uchun mo'ljallangan, ish bosqichlari ko'rsatilgan tushunarli chizmalar (eskizlar) va jadvallar
- material, jihoz, asbob-uskunalar va yordamchi vositalar haqida ma'lumotlar.

Matn tayyorlash bo'yicha eng yangi usullardan biri bu matnlarni ranglar bilan ajratish sanaladi:

- oq qog'ozlar: mazmuniy jihatlar borasida matnlar (o'qituvchi va talabalar uchun)
- yashil qog'ozlar: talabalarga topshiriqlar
- qizil qog'ozlar: o'qituvchining metodik hujjatlari va topshiriqlarning javob varaqalari

Ranglarni kodlash hujjatlardan foydalanishni engillashtiradi

Xuddi shu usuldan seminar hujjatlarini tayyorlashda ham foydalaniladi.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»i da fan bilan ta'lim jarayonining aloqalarini rivojlantirish masalalariga katta e'tibor berilgan va bu borada bir qator vazifalar belgilab berilgan.

Fan bilan ta'lim jumladan, o'rta-maxsus, kasb-xunar ta'limi jarayonining aloqalarini rivojlantirishda kasb (o'rta-maxsus, kasb-xunar) ta'limining ilmiy tadqiqot ishlari bilan integratsiyasi katta o'rin tutadi.

O'rta-maxsus, kasb-xunar ta'limi, uning muammolari va echimlari, istiqbollari sohasida ilmiy izlanishlar olib boruvchi olimlar tomonidan o'rta-maxsus, kasb-xunar ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasida ilg'or amaliy ilmiy tadqiqotlar o'tkaziladi. Ta'lim sifati davlat ta'lim standartlariga muvofiq kelishini o'rganish va uni muvaffiqashtirishni tashkil etish va ta'minlash maqsadida pedagogika va ta'lim sohasida ilmiy tadqiqotlar natijalari asosida ilmiy-uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqib amaliyotda qo'llashadi.

Fundamental va amaliy fan sohasidagi ilmiy kadrlarning o'rta-maxsus, kasb-xunar ta'limi jarayonidagi keng ishtiroki ta'minlanadi va shu orqali, o'rta-maxsus, kasb-xunar ta'limi, pedagogik va ilmiy-tadqiqot jarayonlarining aloqasi-integratsiyasi yo'lga qo'yiladi, yoshlarning fan-texnika sohasidagi ijodkorligi har tomonlama kengayadi, ular Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadi.

Hozirgi kunda fanlar **ta'limining, jumladan kasb ta'limining ilmiy tadqiqot ishlari bilan integratsiyasi** muammosiga e'tibor ortib bormoqda. Bu

holat o'z navbatida tabiat va jamiyat taraqqiyoti muammolarining majmuaviy xarakterda ekanligini isbotlamoqda, ya'ni ularning echimi bir qancha fanlarning yutuqlarini amalda ta'lim jarayonida qo'llash bilan bog'liqdir.

Hozirgi davrda ta'limining, jumladan kasb ta'limining ilmiy tadqiqot ishlari bilan integratsiyasining yangi zamonaviy turi bilishning umumiy ilmiy shakllari va vositalari paydo bo'lishi bilan bog'liq. Fan - texnika taraqqiyotining hozirgi bosqichida ularning shakllanish manbalari kasb ta'limida o'rganiluvchi tabiiy, texnik, pedagogik, metodik, gumanitar va boshqa fanlar orqali o'zlashtirib olinuvchi umumiy ilmiylik tusini beruvchi tushunchalar hisoblanadi. Zero ta'limining, jumladan kasb ta'limining ilmiy tadqiqot ishlari bilan integratsiyasi ko'p tushunchalarga umumiy ilmiy tus berish va uni shakllantirish asosida namoyon bo'lmoqda.

### **21.2 O'qituvchining pedagogik qobiliyati. O'qish va o'qitish bo'yicha qobiliyatlar, tarbiya jarayoniga yo'naltirilgan pedagogik qobiliyatlar.**

Ushbu qonuniyat o'qituvchilardan tashabbus, mustaqil qaror chiqara olish hamda o'z vazifasiga ijodiy yondashuvni talab qiluvchi pedagogik faoliyatga ham taaluqlidir. Shu sababli bu sohada bajarilishi qat'iy talab etiladigan direktiv dasturlarning kamroq qo'llanilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Misol uchun, bunday dasturlarda ish tartibi, hujjatlarni yuritish va mehnat faoliyatining oxirgi natijasiga aniq talablarni belgilash orqali cheklanish ro'y berishi mumkin. Ta'lim natijasiga nisbatan talab qat'iy belgilanadi va u davlat ta'lim standartlarida rasmiylashtiriladi. Pedagogik faoliyatning sifat ko'rsatkichi esa, mos ravishda ta'lim oluvchilar faoliyatining ushbu talablar darajasiga muvofiqligida o'z aksini topadi. Demak, direktiv boshqaruv dasturlaridan voz kechish pedagoglarga cheklanmagan hajmdagi erkinlikning berilishini anglatmaydi. Ushbu yo'nalishda asosiy e'tibor ta'lim jarayoni mazmuni va usullaridan uning yakuniy natijasiga ko'chirilishiga qaratilgan.

Bajarilishining majburiyligi nuqtai nazaridan boshqaruv dasturlarini informativ va direktiv turlarga ajratish mumkin. Jumladan, matbuotda nashr etilayotgan turli ilmiy-metodik tavsiyalar informativ dasturlar hisoblanadi va ularning bajarilishi majburiy deb belgilanmaydi. Pedagoglar ulardan faqat o'zlari uchun zarur deb bilgan qismini bajarish huquqiga egalar. Informativ dasturlar talablarining jarishi to'laligicha pedagogning xohishi, ehtiyoj va istaklaridan kelib chiqib belgilanadi. Direktiv hujjatlarning bajarilishi majburiy bo'lib, u tegishli tartibda nazorat qilinadi. Jamiyatimizning demokratlashib borishi natijasida informativ dasturlarga bo'lgan ehtiyoj ortib borishi kuzatilmoqda.

Ta'lim muassasini boshqarish kontseptsiyasi ko'plab boshqaruv g'oyalarini o'zida mujassamlashtirgan tashkiliy model sifatida tasavvur qilish mumkin.

Faoliyat nuqtai nazaridan yondoshilganda, boshqaruv modelida quyidagi tarkibiy unsurlarni ko'rsatish mumkin: motiv, maqsad, rejalashtirish, joriy axborotlarni tahlil qilish, qabul qilish, harakat, natijalarni baholash va tizimga tegishli tuzatishlar kiritish. Boshqaruvchanlik faoliyatining mazkur umumpsixologik tuzilmasi boshqaruv sub'ektlarining individual faoliyatiga qaratilgan bo'lib, bu o'rinda boshqaruv jarayoni va faoliyati hamma vaqt o'zaro

muvofiq holatda bo'ladi va muomala qonuniyatlari asosida o'zaro uyg'unlashib boradi.

Boshqaruv jarayoni davriy xarakterda bo'lib, bu davrlarning har biri o'z davomiyligi, tadbiq etilish sohasi, vazifalari va o'z echimiga ega. Boshqaruvning alohida olingan davrini quyidagi jarayonlarni qamrab olgan bo'g'in sifatida tasavvur qilish mumkin: axborotlarni qabul qilish va ularning tahlili, boshqaruv qarorining qabul qilinishi, ta'lim muassasasi faoliyatini rejalashtirish, rejani bajarish uchun ishni tashkil qilish, hisob-kitob, nazorat ishlari va natijalarni tahlil qilish.

Inson o'zining tashqi dunyoga bo'lgan munosabatini faoliyat orqali ifodalaydi. Faoliyat - bu insonning muhit bilan faol o'zaro aloqasi bo'lib, bunda u o'zida hosil bo'lgan ma'lum ehtiyojlarini qondirish uchun fikran qo'yilgan maqsadga erishadi. **Maqsad** deganda inson o'zining u yoki bu ehtiyojini qondirish yo'lida tashkil etilayotgan harakatining ko'zda tutilgan natijasidir. **Harakat** - bu faoliyatning nisbatan yakunlangan elementi bo'lib, bu jarayonda yanada soddaroq, bo'laklarga bo'linmaydigan ma'lum anglangan maqsadga erishiladi. Inson faoliyatida uning tashqi (jismoniy) va ichki (ruhiy) jihatlari chambarchas bog'langandir. Tashqi jihat - tashqi olamga ta'sir ko'rsatish uchun amalga oshiriladigan harakatlar: iroda, bilish, sabab kabi ichki (ruhiy) faoliyat vositasida amalga oshiriladi va boshqariladi.

Ichki ruhiy faoliyat o'z navbatida buyumlar, jarayonlar, xossalarni, ulardagi o'zgarishlar maqsadini belgilovchi ruhiy modeli mutanosiblikni aniqlaydi, shuningdek, olingan va kutilgan natijalarni tashqi faoliyat vositasida **yo'naltiradi va nazorat qiladi**. Bunda ikki turdagi jarayonlar: interiorizatsiya va eksteriorizatsiya muhim vazifani amalga oshiradi. **Interiorizatsiya** - bu tashqi, moddiy harakatdan ichki ideal harakatga o'tish jarayonidir. Interiorizatsiya tufayli inson psixikasi berilgan vaqtda ko'rish maydonida bo'lmagan buyumlar obrazlari bilan amallarni bajarish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bunda so'z o'tish jarayonining muhim quroli bo'lib, so'zlashuv harakati asosiy vosita vazifasini bajaradi. Bu faoliyatning alohida turi hisoblanadi. U amaliy va nazariy faoliyatda rejalashtiruvchi bosqich sifatida yuzaga keladi. Ichki va tashqi so'zlashuv usullari mavjud. Odatda ichki so'zlashuv tashqisining asosida vujudga keladi. Tashqi so'zlashuvning ichki so'zlashuvga o'tishida tashqi so'zlashuv strukturasining qisqaruvi kuzatiladi, ichki so'zlashuvning tashqi so'zlashuvga o'tishi esa aksincha, uning mantiqiy va grammatik jihatdan mos ravishda kengayib borishini talab qiladi. Bu ikkala qism ham turli faoliyat turlari, xususan, harakatning bosqichma-bosqich takomillashib borish jarayonida muayyan kasbiy faoliyat yoki harakat elementlarini o'zlashtirishda ham muhim tashkiliy qism bo'lib xizmat qiladi.

**Eksteriorizatsiya** - bu ichki ruhiy xarakterdagi tashqi harakatlarga o'tish jarayonidir. Interiorizatsiya va eksteriorizatsiya jarayoni ularning tashqi (jismoniy) va ichki (ruhiy) jihatlari o'zaro bog'liqligi sababli faoliyat jarayonida uzviy aloqadorlik xususiyatini kasb etadi. Bu jarayonlar tahlili mehnat va kasb ta'limida muhim ahamiyatga egadir.

Faoliyatning tashqi jihatida harakat orqali ifodalanishi tufayli ularni mexanik, fiziologik, psixologik nuqtai nazardan tavsiflash mumkin. Harakatning mexanik jihatdan xususiyatlari uning traektoriyasi, maromi va kuchi bilan belgilanadi.

Ishchi harakatlarni o'zlashtirishning fiziologik jihatida harakatning traektoriyasi, maromi va kuchini energiya sarfi va toliqish ko'rsatkichlarini kamaytirish, shuningdek, ma'lum ishchi harakatlarni o'zlashtirishdagi mashqlarni fiziologik jihatdan asoslashni nazarda tutadi. Ishchi harakatlarni fiziologik jihatlarini asoslash psixologik jihatlar bilan uzviy bog'liq ravishda olib borilishi lozim, chunki psixogen faktorlar (ma'lum yumush va uning mazmuniga qiziqish, mehnat sharoitlari va boshqalar) toliqish va ish qobiliyatining pasayishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Harakatlarning bajarilishi uning mohiyatini natijalarga uzluksiz ravishda taqqoslash vositasida nazorat qilinib, kuzatib boriladi.

Harakatlarni boshqarish qaytar aloqa printsipli asosida olib boriladi. Bunday aloqa vositasi sifatida sezgi organlari harakat yo'naltiruvchisi vazifasini bajaruvchi buyum va harakat belgilari ma'lumot manbai bo'lib xizmat qiladi.

Yo'naltiruvchilar harakat natijasini o'z-o'zidan emas, balki tashkil etiluvchi faoliyat maqsadiga muvofiq ravishda belgilaydilar. Masalan: shofyor mashinani tormozlashda pedalga beradigan kuchni harakat tezligi, yo'l holati, mashina massasi va boshqa ko'rsatkichlarga nisbatan muvofiqlashtiradi. Shunday qilib, harakatlarni nazorat qilish va to'g'rilash asosida ongda maqsad sifatida mavjud bo'lgan, kutilayotgan harakat obrazlarini olingan natijalar bilan taqqoslash asosida sezgi organlari va muskul harakatlarining o'zaro mutanosib ravishda ishlashini ta'minlash holati yotadi.

Faoliyatning jarayon ekanligini hisobga olib, uni quyidagi bosqichlarga ajratish mumkin:

**1. Maqsadning qo'yilishi** (ma'lum vazifaning aniq anglanishi).

**2. Ishni rejalashtirish** (harakatlar ketma-ketligi, har bir harakat uchun ma'lum vositalarni tanlash, harakat va nazorat shakllarini belgilash, harakatning bajarilish mezonlarini aniqlash hamda usullarni tanlash kabilarni o'z ichiga oladi).

**3. Faoliyatni amalga oshirish** zarur hollarda faoliyatni nazorat qilish va uni mazmunan va shaklan qayta qurish ta'minlanadi.

**4. Faoliyat natijalarini tekshirish** mavjud xatolarni to'g'rilash.

**5. Rejalashtirish va olingan natijalarni** taqqoslash (ushbu harakat ishga xulosa yasash va uni baholash hisobiga amalga oshiriladi).

Ta'lim jarayonida yo'lga qo'yiluvchi faoliyatlar ko'p jihatdan ma'lum harakatlarni bosqichma-bosqich takomillashtirish qonuniyatiga asoslangan bo'lib, u o'zlashtirish jarayoni, uning bosqichlari tahlili va mohiyatining ochib berilishi hamda o'rganuvchining har bir bosqichdagi faoliyatini qurish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishga yo'naltiriladi. Qonuniyatning markaziy tushunchasi - o'rganuvchining xarakteri bo'lib, u **shakli, umumlashish darajasi, o'zlashtirish me'yori** kabi tushunchalar bilan tavsiflanadi.

**Faoliyat shakli** - o'rganuvchi tomonidan amalga oshiriladigan harakatlarni tashqi(moddiy)dan ichki(aqliy)ga uzatilishidagi o'zlashtirish darajasi tushuniladi.

Faoliyat shakli buyum yoki buyumlashgan, tashqi so'zlashuv (nutq yordamida), aqliy (harakat tasavvur yoki tushunchalar) asosida amalga oshirilishi mumkin.

**Faoliyatning umumlashganlik darajasi** - muayyan harakatni bajarish uchun buyum xossasini boshqa ahamiyatsiz belgilar ichidan ajratib olish darajasini belgilaydi.

**Faoliyatning kenglik darajasi** - o'rganuvchi tomonidan barcha bajarilayotgan jarayonlar tarkibi kichrayib, harakatlar kamayib boradi.

**Faoliyatlar o'zlashtirish darajasi** - harakatlarning avtomatlashganlik va tezlik darajasini ifodalaydi (boshida u sekinroq bajariladi, har bir jarayonning o'zlashtirilishi davomida ish maromi tezlashib, avtomatlashib boradi).

Shunday qilib, bosqichma-bosqich shakllanish qonuniyati shaklan aniq farqlanadigan (moddiy so'zlashuv, aqliy) harakatlar ko'rinishida, o'rganuvchining o'quv - bilish faoliyati sifatida qaraladi.

Ko'nikmalar odatda faoliyatning bajarilish mustaqilligi va engilligi bilan tavsiflanadi. Bu belgilar kasbiy ko'nikmalarga ham tegishli.

Mehnat faoliyatining kasbiy jihatdan ustalik va mahorat bilan bajarilishi kasbiy bo'lmagan ko'nikmalardan mehnat natijalariga qo'yiladigan zamonaviy talablardan kelib chiquvchi, yuqori sifat va son ko'rsatkichlarini ta'minlash imkonini beruvchi, bajarilishning mukammalligi bilan belgilanadi.

**21.3 Pedagogik muloqot qobiliyatlari va faoliyatga ega bo'lgan o'qituvchi fanni o'quv kursi hajmidagina emas, balki ancha keng va chuqurroq bilishi, o'z fani sohasidagi kashfiyotlarni hamisha kuzatib borishi, materialni ipidan ignasigacha bilishi, unga nihoyatda qiziqish, oddiy tadqiqot ishlarini olib borishi to'g'risida tushunchalar hosil qilish.**

**Jamoaning ijodiy faoliyat texnologiyasini** quyidagi o'zaro bog'liq olti bosqichga bo'lish mumkin: I – pedagoglarning oldindan bajaradigan ishlari; II – jamoaviy faoliyatni rejalashtirish; III – jamoa bo'lib faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish; IV – jamoaning ijodiy faoliyatini uyushtirish; V – jamoa ishtirokida faoliyat natijalarini tahlil qilish; VI – navbatdagi faoliyatni rejalashtirish.

Har bir bosqich yoki talabaning hamkorlikdagi harakatlari algoritmini o'z ichiga oladi, ushbu holat oldinga qo'yilgan maqsadga erishishni ta'minlaydi. Masalan, oldindan qilinadigan ishlar bosqichiga quyidagi harakat tartibi kiradi: vazifani qo'yish, ish variantlarini ishlab chiqish, jamoa asosidagi ijodiy faoliyatini tashkil etish, istiqboldagi vazifalarning muhokamasini o'tkazish.

Hozirgi kunda pedagogik jamoalar o'quv-tarbiya jarayonini tashkil qilishda o'zlarining tarbiyaviy tizimlarini ishlab chiqilgan kontseptsiya, maktablarni rivojlantirish bo'yicha mualliflik dasturlari, pedagogik faoliyatni tashkil qilish loyihalariga asoslangan holda faoliyat olib bormoqdalar.

Texnologiyalarni ishlab chiqish, qoida bo'yicha biron-bir nazariy kontseptsiyaga asoslanadi. Yangi texnologiyalarni loyihalash – bu qiyin jarayon bo'lib, bir qancha darajalarni o'z ichiga oladi. Masalan, kontseptual, metodik, operatsiyali, analitik, nazorat, baholash, natijaviylik. Shuning uchun pedagogik texnologiyaning tizimli-tashkiliy vositalarini aniqlash muammosi yuzaga keldi. Zamonaviy pedagogik texnologiyaning ishlab chiqish va o'zlashtirish pedagog

shaxsi, uning mahorati, ijodkorligiga qo'yiladigan aniq shartlarga rioya qilishni talab qiladi. Bular: axborot texnologiyalarini o'rnatish, mavjud texnologik resurslarni tahlil qilish, faoliyatni loyihalash ko'nikmasi, maqsadni taqsimlash, faoliyatni tashkil va tahlil qilish, refleksiya orqali o'z tajribasini o'zlashtirish ko'nikmasi, uni texnologik shaklda bildirish, texnologiyaning eskirganligi aniqlash va uni yangilash ko'nikmasi.

Pedagogning predmetli-texnologik saviyasi ta'lim-tarbiya mazmunini o'zlashtirganligi, samarali pedagogik texnologiyalar (an'anaviy va yangi)ni, ya'ni pedagogik yangiliklarni qabul qilish, samarali pedagogik texnologiyalar bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borish va ularning natijalarini amaliyotda qo'llay bilishi bilan belgilandi.

Bularning hammasi pedagogda yuqori darajadagi mahoratni talab qiladi.

Bugungi kunda ta'lim muassasalarida ko'plab o'z ishining ustasi – pedagoglar faoliyat olib bormoqdalar: yil o'qituvchisi, tajriba olib boruvchi pedagoglar, ilmiy izlanuvchi, ijodkor pedagoglar va boshqalar. Bular yuqori malakali, madaniyatli, mualliflik dasturlarini ishlab chiqqan alternativ pedagogik texnologiyalarni biladigan, individual ish uslubiga ega, o'zining ijodiy salohiyatini to'liq namoyish eta oluvchi, natijada ta'lim, tarbiya va talaba shaxsini rivojlantirishda yuqori natijalarga erishayotgan mutaxassislardir.

Har bir pedagog o'zining kasbiy mahoratini o'stirishga harakat qilishi kerak.

**Pedagogik mahorat** – bu pedagogik faoliyatning oliy darajasi bo'lib, pedagogning ijodkorligi, ta'lim berish san'ati, inson tarbiyasi va rivojlanishining takomillashtirishda ko'rinadi. Pedagogik ijodkorlik pedagogik faoliyatning holati sifatida qaralib, ilmiy-amaliy muammolarni echish, o'quv-tarbiya jarayonini tashkil qilish va mazmunan yangi yaratuvchilikda ko'rinadi.

Pedagogik faoliyat pedagogda axloqiy sifat, ilmiy izlanish ko'nikmasini hamda bular ichida muhim o'rin tutadigan tashabbus va faollik ko'rsatish, chuqur diqqat va kuzatuvchanlik, boy tafakkur va intuitsiya, o'quv-tarbiya holatlarini tahlil qilish, pedagogik vazifalarni echish, mustaqil fikrlash va xulosa chiqarish kabi ijodiy qobiliyatlar yig'indisi bo'lishini nazarda tutadi.

Pedagogik mahorat, avvalo pedagog shaxsi va uning majmuaviy sifatlari bilan bog'liq bo'lib, kasbiy faoliyatini yuqori darajada amalga oshirilishini ta'minlaydi.

Pedagogik mahorat texnologik nuqtai nazarda olib qaraganda bir tizim bo'lib, uning asosini yuqori umumiy madaniy insoniylikka yo'naltirilgan, kasbiy bilim va ko'nikma, ijodkorlik va pedagogik qobiliyat tashkil etadi.

**Pedagogning umumiy madaniyati** – nafaqat pedagogik mahorat komponenti, balki o'ziga xos mexanizmi bo'lib, uning asosida pedagogning kasbiy muhim sifatlari rivojlanadi. Pedagog madaniyati - bu pedagogik faoliyat vositasi, pedagogik ijodkorlik sharti va pedagogik mahorat asosi. Pedagog o'zining kasbiy faoliyatida o'z shaxsining potentsial imkoniyatlariga tayanadi, umumiy madaniyatini takomillashtirish esa unga ijodkorlik va pedagogik mahoratini o'stirishga yordam beradi.

Pedagog shaxsining insonparvarlikka yo'naltirilganligi – bu uning qiziqishi, qadriyatlari va ideali. Har bir pedagog insonparvar bo'lishi, shaxsni er yuzidagi eng bebaho mavjudot sifatida qabul qilishi, o'z pedagogik faoliyatida talaba

shaxsining muhimligini tan olishi, talabalar bilan o'zaro aloqasini muhabbat va hurmat asosiga qurishi kerak.

Pedagog va talabaning o'zaro aloqasin insonparvarlik g'oyalariga asoslanishini pedagog kasbiy mahoratining ko'rsatkichi sifatida qabul qilish lozim.

Pedagogik mahoratning muhim qismi kasbiy bilim va ko'nikmadir. Bu, avvalo, falsafiy, psixologik-pedagogik, ijtimoiy, maxsus va qo'shimcha bilimlardir. Pedagogning kasbiy bilimi hamma darajada (metodologik, axborotli-mazmunli, metodik, texnologik, ijodkorlik) shakllanadi va pedagogik tafakkur va fikrlash uchun baza hisoblanadi, psixologik-pedagogik tafakkuri esa pedagogning muvaffaqiyatli ishlashi omilidir.

Pedagogning faoliyatida kasbiy qobiliyati alohida ahamiyatga ega. Tadqiqotchi olimlar ularning quyidagi etakchi kasbiy qobiliyatlarini qayd etadilar: pretseptiv (kasbiy o'tkir, kuzatuvchi), emotsional (sezish qobiliyati, o'zini boshqara olish), prognostik (istiqbolni belgilay olish), kreativ va improvizatsiya (ijodkorlik qobiliyati), intuitsiya (oldindan ko'ra bilish).

Texnologiyaviylik pedagogik mahoratga boshqacha sifat, mazmun bag'ishlaydi – mahorat o'zlashtirish, masalan, pedagogik (tashhisli, axborotli, ijtimoiy, o'yinli, didaktik) texnologiya, loyihalash, suhbatni tashkil etish va boshqalar pedagogik texnologiyani o'zlashtirish pedagogik mahoratni oshiradi. Shunday hol bo'lishi ham mumkinki, o'rtacha qobiliyat bilan pedagog-master(usta) ham bo'lishi mumkin.

Pedagogning pedagogik mahorati darajasi uning texnologik kompotentligiga bog'liq bo'lib, quyidagi asosiy mezonlar asosida aniqlanadi: 1) maqsadlilik (yo'nalishi bo'yicha), 2) ijodkorlik (faoliyat mazmuni bo'yicha), 3) texnologiyaviylik (pedagogik texnika darajasi bo'yicha), 4) optimalligi (samarali vositalarni tanlash bo'yicha), 5) mahsuldorligi (natija bo'yicha). Pedagog texnologiyani qancha yaxshi o'zlashtirsa, demak, uning pedagogik mahorati shuncha yuqori bo'ladi.

Bo'lg'usi pedagogning pedagogik mahoratini oshirish bosqichida pedagogik madaniyati va insonparvarlik yo'nalishini shakllantirish kerak bo'lgan bilim va ko'nikmasini egallash, qobiliyatini o'stirish va pedagogik texnikani o'zlashtirish nihoyatda muhimdir.

Pedagoglar tayyorlashning yangi pedagogik texnologiyalarini ishlab chiqish bir qadar murakkab jarayon bo'lib, mazkur jarayonda mutaxassislik yo'nalishlari hamda ularning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish taqozo etiladi. Tadqiqot ishini olib borish jarayonida pedagoglar tayyorlashning yangi pedagogik texnologiyalarini ishlab chiqish va ularni o'quv-tarbiya jarayoniga tadbiiq etish muammolari quyidagilardan iborat ekanligi aniqlandi:

Pedagogik texnologiya nazariyasi va uning asoslari borasida ma'lumotlar bera oluvchi manbalarning etarli emasligi.

## **22-MAVZU: O'QITUVCHINING PEDAGOGIK MAHORATI VA KASBIY MAHORAT.**

22.1 Kasbiy mahorat haqida fikrlar. Pedagogik mahorat komponentlari: insonparvarlik, pedagogik bilimlar, pedagogik qobiliyat, pedagogik texnika o'rganish.

22.2 Tarbiyalanuvchilarga murojaat qilishning to'g'ri stili va tovush ohangini tanlab ola bilishi, o'quvchilar hatti-harakatlariga o'zining o'zining munosabatini ko'rsata olishi, sezgi tempi (yuksakligi), boshqarish ko'nikmalarini boshqarishni bilish.

### **22.1 Kasbiy mahorat haqida fikrlar. Pedagogik mahorat komponentlari: insonparvarlik, pedagogik bilimlar, pedagogik qobiliyat, pedagogik texnika o'rganish.**

**Pedagogik faoliyat** – bu insonning mustaqil faoliyat turi bo'lib, avloddan-avlodga ijtimoiy tajriba, moddiy va ma'naviy madaniyatning o'tishini ta'minlaydi.

Pedagog olimlar bu faoliyatni oliy o'quv yurtlarida shaxsni rivojlantirish va o'z-o'zini anglashga yo'naltirilgan kattalar (ota-onalar, o'qituvchilar, ijtimoiy faoliyat xizmatchilari)ning ijtimoiy, jamoatchilik faoliyatining maxsus turi deb qaraydilar.

Pedagogik faoliyat – bu pedagog va talabaning o'zaro bog'liq faoliyatidir.

Pedagog va talaba faoliyatining o'zaro aloqasisiz o'quv-tarbiya jarayoni mavjud bo'lmaydi. Bu ta'lim va tarbiya qonunidir.

Pedagogik faoliyat predmeti va mahsuli – bu talaba shaxsi va uning garmonik jihatdan rivojlanishidir.

Pedagogik faoliyat tuzilmasi tizim sifatida kasbiy faoliyatni qamrab oladi va uning asosiy jihatlari maqsad, mazmun, vosita, harakat, sharoit, texnologiya, pedagog mehnatining ob'ekti va sub'ekti, erishilgan natija hisoblanadi.

Pedagogning **faoliyat tizimi** turli xil pedagogik faoliyatning bir butun ketma-ketligini tashkil qiladi: tashhishlash, loyihalash, konstruktiv, kommunikativ, tashkiliy, analitik, tahliliy natijalar.

Pedagogning **tashhishlash faoliyati** talabalar jamoasi va talabalarning individual-psixologik xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan bo'lib, tashhis natijalari o'quv-tarbiya jarayonini tahlil qilishda namoyon bo'ladi.

**Loyihalash va konstruktiv faoliyat** talabalar jamoasi va ular rivojlanishining istiqbolini bashoratlashni ko'zda tutadi, maqsad, vazifa, mazmun, shakl va ishlash metodlarini (faoliyatni rejalashtirishni) aniqlaydi.

**Tashkiliy faoliyat** – ta'lim va tarbiyaning mavjud turlarini belgilashda pedagog va talabalar faoliyatining muayyan tizimini ifodalaydi.

**Kommunikativ faoliyat** – bu pedagog va talabalarning pedagogik jihatdan maqsadli aloqalarini tashkil etish.

**Korrektiv (tahliliy) faoliyat** – ta'lim-tarbiyaga muhtoj talabalarga ko'mak berish, ularga ta'lim-tarbiya berish va rivojlantirishda samarali natijalarga erishish maqsadida o'quv-tarbiya jarayoniga o'zgartirish kiritish.

**Analitik faoliyat** – o'quv-tarbiya jarayoniga o'zgartirish kiritish va bashoratlash maqsadida pedagogik faoliyatni tahlil qilish.

Faoliyatning ayrim turlarini tashkil etishga **tizimli yondashuv** o'z navbatida maqsad va natijalarning o'zaro aloqasini o'zida mujassamlashtiradi. Har qanday

tizim inson tomonidan harakatga keltiriladi; pedagogik faoliyatda esa pedagog va talaba bosh harakatlantiruvchi sub'ektlar hisoblanadi. Aynan ular pedagogik faoliyatning har bir bosqichida bir-biri va jamoa bilan bir butun bo'lib harakat qilishlari natijasida tarbiya, ta'lim va rivojlantirish masalalarini echadilar.

Pedagogik faoliyatning sub'ekti sifatida pedagog o'quv-tarbiya jarayonini boshqaradi, uning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantirish tavsifini ta'minlaydi.

Pedagogik faoliyatni takomillashtirish pedagog va talaba shaxsining rivojlanishiga ta'sir etadi, chunki tashqi harakat, qoida bo'yicha psixik jarayonlarni tavsif etadi va ular o'z navbatida faoliyatni sifat jihatidan o'zgartiradi, ularni ijodiy darajaga ko'taradi.

**Pedagogik texnologiyalar** (PT) – bu pedagogik maqsadga erishishni kafolatlovchi, oldindan loyihalangan o'quv-tarbiya jarayonini ma'lum ketma-ketlikda amaliyotga tatbiq etuvchi tizim.

PT – bu pedagogika ilmining maxsus yo'nalishi bo'lib, aniq vazifalarni echish, o'quv-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirish va uning yuqori darajasini ta'minlashni kafolatlaydi. Shu asosda turli xildagi pedagogik faoliyatni tashkil qilishda mahorat va ijodkorlik darajasidagi variativ texnologiyalardan foydalaniladi. Shu bilan birgalikda fanning nazariyasi va amaliyotida pedagogik texnologiyaning mohiyatini izohlovchi boshqa ta'riflar ham berilgan.

Masalan, gumanitar yo'nalishda ishlab chiqilgan texnologiya ilmiy asoslangan tarbiya vositasi, shakl va metodlar tizimini nazarda tutadi va talabalarni umuminsoniy, madaniy qadriyatlarni bilish, shaxs sifatlarini shakllantirish, shu maqsadda pedagog va talabalar o'rtasida insoniy aloqalarning tarbiyaviy muhitini tashkil qilishni ta'minlaydi. Bu esa pedagogdan ijodkor shaxs bo'lish, o'z ishi va talabalarni sevish, o'z ustida ishlash, mahoratini oshirish va texnologiyalarni rivojlantirishni talab etadi.

Qisqa qilib aytganda, pedagogik texnologiya - o'quv-tarbiya jarayonini tashkil qilish usullari yoki qo'yilgan maqsadga erishishga yo'naltirilgan va pedagogning aniq faoliyatiga bog'liq bo'lgan harakatlar, operatsiyalar ketma-ketligining yig'indisidir (texnologik zanjir). Texnologik zanjir deganda, tarbiyaviy ishlarning turli shakllari orqali darsni tashkil etishga tayyorlanishda pedagog, guruh rahbari faoliyatlarining ketma-ketlikdagi harakatlari algoritmi tizimi tushuniladi.

Umumiy holda esa talabalar va o'quv-tarbiya jarayonining holatini o'rganish, tashhisiy maqsad va vazifalarni qo'yish, istiqbollarni aniqlash, natijalarni oldindan ko'ra bilish, rejalashtirish, tashkiliy faoliyat va vazifalarni amalga oshirish, pedagogik tahlil va navbatdagi harakatlar ketma-ketligi dasturini ishlab chiqishdan iborat.

Hozirgi kunda ko'plab turdagi texnologiyalar mavjud: umumpedagogik, o'rgatuvchi, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi, kompyuterli, o'yinli, jamoaning ijodiy faoliyat texnologiyalari, o'zaro aloqa va boshqalar.

4. **Shaxs kasbiy yo'nalishini shakllantirish malakalari ta'lim** berishning aniq maqsadlarini aniqlash, o'qitishning shakl, metod va vositalarini tanlash, pedagogik muammolarni hosil qilish, o'quv ishlab chiqarish materiallarini tushuntirish, texnik ob'ektning shu usullarni namoyish etishi bo'yicha umumpedagogik malakalardan iborat. Talabalarning kasbiy o'sishi bilan o'quv

materialining tuzilishini loyihalash, ta'lim berishning shakl va metodlarini, o'quv maqsadi va mazmunini tanlash malakalarini namoyon bo'lish darajasi oshib boradi. Vaqt o'tishi bilan quyidagi malakalarning takomillashuvi kuzatilmaydi: o'quv tarbiya jarayonining strategik va taktik maqsadlarini aniqlash, ta'lim oluvchilarning tayyorgarlik darajasini hisobga olib, o'quv materialini ajratib olish, ilmiy-texnikaviy ma'lumotlarni o'quv materialiga aylantirish, o'quv vazifalari va muammolarini loyihalash. Buning sababi, o'quv yurtlari, ayniqsa, bilim yurti va texnikumlarda tayyor metodik ko'rsatma va tavsiyalar bilan ishlashga o'rganib qolinganligidir. Bu esa o'qituvchilarni ijodiy faoliyat ko'rsatishga undamaydi.

(1) **Ta'limning shakl va metodlarini tanlash malakalari** o'quv-tarbiyaviy pedagogik malakalar: o'qishni anglashni shakllantirish, ta'lim oluvchilarning o'quv-kasbiy faoliyatini tashkil etish, o'zini oqlaydigan pedagogik aloqalarni o'rnatish, jamoani tashkil etishni shakllantirish, o'z-o'zini boshqarishni tashkil etish. O'qituvchi ish stajining oshib borishi bilan ko'pchilik malakalar takomillashib boradi. Lekin, ular talabalarning faoliyatida etarli darajada namoyon bo'lmaydi.

Ta'lim oluvchilarning mustaqil va ijodiy ishlashlarini tashkil etish, ularning individual va yosh xususiyatlarini hisobga olish. Ish stajining ortib borishi bilan o'qituvchilarning o'quv muammolarini hosil qilish va ta'lim oluvchilarning o'quv ishlab chiqarish faoliyatini boshqarish malakalarining rivojlanishi etarli darajada bo'lmaydi.

5. **Pedagog-rejissyorlik malakalari** - notiqlik va pedagogik rejissura malakalarini o'z ichiga oluvchi umumpedagogik malakalar.

6. **Turli nostandart pedagogik holatlarni tahlil qilish malakalari** o'quv-tarbiya jarayonga kiruvchi shaxsni va jamoani diagnostika-tashhis qilish: pedagogik holatlarni tahlil qilish; pedagogik faoliyatning muqobil modellarini tuzish, jamoa va shaxs rivojlanishini loyihalash, ta'lim va tarbiya jarayonini hamda ularning natijalarini nazorat qilishni oldindan aytib berish bo'yicha umumpedagogik malakalar. Kasbiy ishlash staji oshib borgan sari quyidagi malakalarning sezilarli rivojlanishi kuzatiladi: ta'lim oluvchilarning psixologik rivojlanishini tarbiyalanganligini; ta'lim olganligini diagnostika qilish; o'quv - tarbiya jarayonini loyihalash; pedagogik faoliyatdagi qiyinchiliklarni ko'ra bilish.

Shu bilan birga talabalar o'zlarida kasbiy o'sish hamda o'z faoliyatini muvaffaqiyatli bo'lishini oldindan aytib berish malakalari etarli shakllanmaganligini qayd etishdi.

7. **Ilg'or pedagogik tajribalarni umumlashtirish malakalari.** Ilg'or pedagogik tajribalarni umumlashtirish va bir tizimga keltirish, undagi asosiylarini ajratish, pedagogik, ishlab chiqarish va muhandislik sohasidagi malakalarni hosil qilishdagi bilim malakalari. Ko'rsatilgan gnostik malakalardan ilg'or pedagogik tajribani tahlil etish va qo'llash malakalari ish staji oshishi bilan rivojlanib boradi. Yangi pedagogik va muhandislik bilimlarni egallash bo'yicha bilim malakalari, ilmiy-texnikaviy ma'lumotlardagi kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan mazmunni ajratib olish malakalari va boshqalar vaqt o'tishi bilan sezilarli ravishda takomillashib bormaydi, buning sababi o'qituvchilarning o'z ustida ishlashi va malakasini oshirish etarli darajada emasligidadir.

**8. Muhandislik-texnik malakalar** - o'zida 5 ta guruhdagi malakalarni umumlashtiradi: umummuhandislik, konstruktiv - texnikaviy, tashkiliy-texnologik, maxsus malakalar hamda ishlab chiqarishdagi operatsion malakalar.

**Ummumuhandislik malakalari** - chizma, shakl o'lchamlarini o'qish va tuzish, texnik tashxis hisob grafik ishlarini bajarish, ishlab chiqarishni iqtisodiy ko'rsatkichlarini aniqlash bo'yicha politexnik malakalar.

**Konstruktiv-texnikaviy malakalar** - talabalarning kasbiy ta'limini loyihalash, texnik qurilmalarning texnologik jarayonini loyihalash va konstruksiyalash: talabalarning o'quv ishlab chiqarish faoliyatini loyihalash, konstruktorlik ishlarini bajarish, texno-logik kartalarni tuzish, talabalarning texnik ijodkorligini tashkil etish, texnik qurilmalarni ishlatish bo'yicha politexnik malakalar.

**9. Maxsus malakalar** - ishlab chiqarishning biror sohasi bo'yicha mutaxassislikning muhandislik-texnikaviy malakalari.

Kasbiy pedagogik malakalar tarkibi umumlashgan faoliyatning 3-bosqichini tashkil etadi. Shaxsni kasbiy ta'lim jarayonida malakalarining harakati o'zgaradi: harakat va operatsiyalarni reproduktiv bajarish darajasi ijodiy bajarish bilan almashadi.

Pedagog, psixolog va fiziolog olimlarning ishlarini tahlil qilish natijalari faoliyatni hosil qiluvchi malakalarning tarkibiy tuzilmasiga aniqlik kiritish imkonini beradi. Ular quyidagilardan iborat:

- muhandis-pedagog, strategik maqsadlar bilan yo'naltirilganlik;
- aniq sharoitda pedagogik o'zaro harakatlarni amalga oshirish yo'llari va uning natijalarini baholash.

Bu faoliyatning tarkibiy qismlari talabalarning kasbiy funktsiyalarini ajratish uchun asos bo'ladi:

- motivatsiya;
- operatsiyalar bo'yicha: ilmiy-metodik, tashkilotchilik, muhandislik-texnikaviy, ishlab chiqarish, texnologik va diagnostik.

Mehnat va kasb ta'limi o'qituvchilarining pedagogik faoliyati tahlilidan quyidagi xulosalar kelib chiqadi:

1. Izlanishlarda «ko'nikma» va «malaka» atamalarining ma'nosini to'g'ri tushunib olish va ularni shakllantirish ketma-ketligini aniqlab olish zarur.

2. Ko'pchilik olimlarning tadqiqot ishlarida talaba faoliyati kasb-hunar kollejlari o'quv-tarbiyaviy jarayon doirasida yoritilgan, oliy o'quv yurtlaridagi o'quv jarayoni esa nazardan chetda qolgan.

3. Tashkiliy-pedagogik malakalarni amalda muvvafoqiyatli va samarali qo'llash uchun o'quv jarayonida talabalarning shaxsiy sifatlarini shakllantirish o'quv-tarbiya jarayonining asosiy maqsadlaridan biri bo'lishi kerak.

4. Bo'lajak mehnat va kasb ta'limi o'qituvchilarini tavsiyalar ishlab chiqishga o'rgatib borish lozim.

5. Mehnat va kasb ta'limi bo'yicha ta'lim olayotgan talabalarning didaktik malakalarini quyidagi tartibda olib borish maqsadga muvofiq bo'ladi: ma'ruza, laboratoriya mashg'ulotlari, pedagogik amaliyotlar, yakuniy bilim va malakalarni tekshirish hamda baholash, kurs va diplom loyihalarini bajarish va himoya qilish.

Muammoga oid manbalar mazmunining tahlili natijalariga tayangan holda quyida talabalarga umummehnat va kasbiy ko'nikma hamda malakalarni rivojlantirish jarayonining asosiy mohiyatini yorituvchi tushunchalar va ularning mazmuni borasida batafsil so'z yuritamiz.

Pedagogika ilmida faoliyat, texnologiya va mahorat bir xil tushunchani anglatadi.

Ularning hammasi yuksak darajadagi kasbiy tayyorgarlikni tavsiflaydi. Ularni bog'lab turuvchi bo'g'in – bu o'qituvchning umumiy va ijodiy madaniyatidir.

Quyida ushbu tushunchalarning mohiyatini alohida-alohida ko'rib chiqamiz.

**Pedagogik faoliyat** – bu insonning mustaqil faoliyat turi bo'lib, avloddan-avlodga ijtimoiy tajriba, moddiy va ma'naviy madaniyatning o'tishini ta'minlaydi.

Pedagog olimlar bu faoliyatni oliy o'quv yurtlarida shaxsni rivojlantirish va o'z-o'zini anglashga yo'naltirilgan kattalar (ota-onalar, o'qituvchilar, ijtimoiy faoliyat xizmatchilari)ning ijtimoiy, jamoatchilik faoliyatining maxsus turi deb qaraydilar.

Pedagogik faoliyat – bu pedagog va talabaning o'zaro bog'liq faoliyatidir.

Pedagog va talaba faoliyatining o'zaro aloqasiz o'quv-tarbiya jarayoni mavjud bo'lmaydi. Bu ta'lim va tarbiya qonunidir.

Pedagogik faoliyat predmeti va mahsuli – bu talaba shaxsi va uning garmonik jihatdan rivojlanishidir.

Pedagogik faoliyat tuzilmasi tizim sifatida kasbiy faoliyatni qamrab oladi va uning asosiy jihatlari maqsad, mazmun, vosita, harakat, sharoit, texnologiya, pedagog mehnatining ob'ekti va sub'ekti, erishilgan natija hisoblanadi.

Pedagogning **faoliyat tizimi** turli xil pedagogik faoliyatning bir butun ketma-ketligini tashkil qiladi: tashhislash, loyihalash, konstruktiv, kommunikativ, tashkiliy, analitik, tahliliy natijalar.

Pedagogning **tashhislash faoliyati** talabalar jamoasi va talabalarning individual-psixologik xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan bo'lib, tashhis natijalari o'quv-tarbiya jarayonini tahlil qilishda namoyon bo'ladi.

**Loyihalash va konstruktiv faoliyat** talabalar jamoasi va ular rivojlanishining istiqbolini bashoratlashni ko'zda tutadi, maqsad, vazifa, mazmun, shakl va ishlash metodlarini (faoliyatni rejalashtirishni) aniqlaydi.

**Tashkiliy faoliyat** – ta'lim va tarbiyaning mavjud turlarini belgilashda pedagog va talabalar faoliyatining muayyan tizimini ifodalaydi.

**Kommunikativ faoliyat** – bu pedagog va talabalarning pedagogik jihatdan maqsadli aloqalarini tashkil etish.

**Korrektiv (tahliliy) faoliyat** – ta'lim-tarbiyaga muhtoj talabalarga ko'mak berish, ularga ta'lim-tarbiya berish va rivojlantirishda samarali natijalarga erishish maqsadida o'quv-tarbiya jarayoniga o'zgartirish kiritish.

**Analitik faoliyat** – o'quv-tarbiya jarayoniga o'zgartirish kiritish va bashoratlash maqsadida pedagogik faoliyatni tahlil qilish.

Faoliyatning ayrim turlarini tashkil etishga **tizimli yondashuv** o'z navbatida maqsad va natijalarning o'zaro aloqasini o'zida mujassamlashtiradi. Har qanday tizim inson tomonidan harakatga keltiriladi; pedagogik faoliyatda esa pedagog va talaba bosh harakatlantiruvchi sub'ektlar hisoblanadi. Aynan ular pedagogik

faoliyatning har bir bosqichida bir-biri va jamoa bilan bir butun bo'lib harakat qilishlari natijasida tarbiya, ta'lim va rivojlantirish masalalarini echadilar.

## **22.2 Tarbiyalanuvchilarga murojaat qilishning to'g'ri stili va tovush ohangini tanlab ola bilishi, o'quvchilar hatti-harakatlariga o'zining o'zining munosabatini ko'rsata olishi, sezgi tempi (yuksakligi), boshqarish ko'nikmalarini boshqarishni bilish.**

**Tarbiyaviy ishlar mexanizmi.** Bunday vazifalarni hal etish pedagogik jamoaning jismoniy va manaviy barkamol avlodni tarbiyalash, talabalarni Vatanga sadoqat, yuksak axloqli, mehnatga halol munosabatda bo'lish ruhida tarbiyalash ishiga sezilarli hissa qo'shayotgan yoshlar bilan ishlovchi barcha davlat va jamoatchilik tuzilmalari (O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Madaniyat ishlari vazirligi, Adliya vazirligi, Mudofaa vazirligi, Davlat sport qo'mitasi, «Manaviyat va marifat» jamoatchilik markazi, «Mahalla», «Kamolot», «Sog'lom avlod uchun», «Nuroni», «Ulug'bek», «Umid», «Ustoz» jamg'armalari, Inson huquqlari bo'yicha markaz va hokazo) bajarayotgan ishlar, dasturlardan foydalanilgan holda tarbiyaviy ishlar mexanizmini ishlab chiqish va yoshlar tafakkuriga ta'sir etish ko'zlangan maqsadga erishishda muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Kasbiy ta'lim muassasalarida olib borilayotgan ishlarning mohiyati, uning milliy istiqbol mafkurasiga asoslangan, manaviy-axloqiy, huquqiy, vatanparvarlik, fuqaroviy, mehnat, madaniy-maishiy, ekologik va shu singari yo'nalishlar bilan erishiladigan g'oyaviy amal va ideallarga mos holda olib borilishi maqsadga molik masala. Bu muammolarni amalga oshirish barcha pedagoglarining oldida turgan yuksak vazifadir.

Mustaqillik sharoitida talaba-yoshlarni manaviy-axloqiy tarbiyalashda qator vazifalarni hal etish talab etiladi. Jumladan:

-har bir ta'lim oluvchining ongida davlat mustaqilligi xalqning oliy g'oyaviy-axloqiy qadriyati ekani, o'z vatani bilan faxrlanish, uning xavfsizligini taminlash va O'zbekistonning ulug' tarixiy o'tmishi, bozor munosabatlariga asoslangan yangi demokratik jamiyat qurishda tanlab olgan o'ziga xos yo'lini mustahkamlash, islom dini ruhi bilan sug'orilgan oliy manaviy-axloqiy qadriyatlar, xalqning insonparvarlik an'analari hamda umuminsoniy o'ivilizatsiya yutuqlari ahamiyatini to'g'ri tushuntirish va uni etiqodga aylantirish;

-ta'lim oluvchilarda umuminsoniy insonparvarlik axloqi, madaniyati meyorlari, zamonaviy qadriyatlar ehtiyoji, o'zini yuqori tutish va viqor saqlash, oilaviy tantanalarda o'zini ko'rsatishga urinish, xizmat vazifasidan shaxsiy maqsadlar uchun foydalanish ko'rinishlariga murosasiz bo'lish ruhini tarbiyalab borish ularning yuqori axloq malakalari bilan qurollantirishning garovi bo'lib hisoblanadi.

Axloqiy tarbiya tarbiyaviy ishlar majmuida etakchi o'rin tutadi. Axloq yoki odob deganda - kishilarning mazkur jamiyat uchun xarakterli va muayyan ijtimoiy munosabatlar tizimi bilan tarixan bog'liq bo'lgan xulq-atvorlarni belgilab beradigan qonun-qoidalar yig'indisi tushuniladi. Jamiyat tomonidan belgilanadigan talablar shaxs xulqini baholash uchun mezon bo'lib xizmat qiladi. Ana shu

talablarga muvofiq shaxs xulqining mazmuni mamlakatda sharqona axloq-odobga asoslangan milliy tarbiyani amalga oshirishdan iborat bo'lishi lozim. Bunday jamiyatni qurish jarayoni yangi ijtimoiy munosabatlarni hosil qilish bilan bog'liq. Shu manoda bugungi kun ta'lim tizimida amalga oshiriladigan axloqiy tarbiyaning asosiy mezonlari milliy axloq meyorlarini tashkil etadi.

Kasb ta'limi muassasalarida talaba-yoshlar orasida axloqiy tarbiyani amalga oshirish avvalo, ularda axloqiy tushuncha va ishonch hissini yaratishdan boshlanishi maqsadga muvofiq. Chunki yoshlarda axloqiy tushuncha va etiqodni tarkib toptirmay turib, axloqiy odatlar, shuningdek, xatti-harakat bilan bog'liq odat va malakalarni hosil qilib bo'lmaydi. Bunda asosan talaba-yoshlarga axloq-odob meyor va qoidalari mazmuniga oid bilim berishga katta ahamiyat berish lozim. Bunda asosan yaxshi bilan yomon o'rtasidagi farq tushuntiriladi. So'ngra yaxshi xulqlarni hosil qilishga qaratilgan faoliyat uyushtiriladi. Ana shu yo'sinda yoshlarda axloqiy tushunchalar vujudga keladi va xulqiy odatlar hosil qilinadi.

**12.7. Kasb ta'limi muassasalarida axloqiy tarbiyani tashkil etish muammosi.** Kasb ta'limi muassasalarida axloqiy tarbiya muammosini amalga oshirish uchun qator muammolarni hal etishga e'tiborni qaratmog'i lozim. Ular:

- o'qitish jarayonini ilg'or pedagogik texnologiya va axborot texnologiyasi asosida uyushtirish;

- talaba va ustoz o'rtasidagi axloqiy hamda aqliy munosabatni qaror toptirishga erishish;

- ta'lim -tarbiya ishlarining qat'iy reja asosida olib borilishi;

- o'quv muassasasida ijobiy emotsional muhitni yaratish;

- ta'lim oluvchilarning o'quv muassasasi hayoti ichki tartibi qoidalariga rioya qilishlariga erishishni taminlash. YAgona ta'lim -tarbiya jarayonida axloqiy tarbiyani tashkil etishda suhbat, munozara, ma'ruza kabi metodlardan foydalanish, turli mashqlar faoliya orqali ijobiy sifatlarni hosil qilish mumkin.

1. Odamiylik - chin insonga xos fazilat bo'lib, bu aql - zakovat mevasidir. Buyuk bobomiz Alisher Navoiy insonni sevishni, uning baxt saodati uchun kurashishni hayot gultoji, yuksak orzu-umidlarning eng cho'q-qisi, tiriklikning o'lmas g'oyasi, yashashning mazmuni deb bnladi. Odamiylikning zamirida yaxshilik, sofdillik, odillik, mehr-muhabbat, vafo - sadoat, okibat- shafkat, adolatu-sahovat yotadi.

Odami ersang demagil odamiy

Oniki yo'q xalq g'amidin g'ami.

2. Qanoatlilik - kishining o'zida mavjud bo'lgan va o'z imkoni darajasida ishlab toigan halol mablag'i bilan kifoyalanib, oz bo'lsa xam unpng sozligini hisobga olib mamnuniyat bilan kun kechirishidir. Qanoatlilik kishiga xotirjamlik keltiradi.

3. YAqinlik, do'stonalilik - ish yuritishda, muomalada boshqa shaxslarning haqqi-huququiii, shaxsiyatini hurmat kilish, boshqa millatga mansub insonlarning urf-odati, madaniyatini, salohiyatini e'zozlash, o'ziga yaqin birodar ko'rib do'stona munosabatda bo'lishlik xislati.

4. Jonkuyarlilik, mexribonlilik, kuyunchaklik boshqalar dardiga sherik bo'lish, ota-onaga, etim-esirlarga, qariyalarga xizmat qilish, njtimoiy muhofaza ishlarida faol qatnashish.

YAxshi so'z ham sadaqa ekanligi haqida A. NavoiD yozadi:

YAxshi so'z birla hojat ahlin so'r,

Bermasang yaxshi to''madin nafaqa.

Ne uchunkim rasul qavli bilan:

YAxshi so'z bordur o'ylakim sadaqa.

5.Raxmdillik, mushfiqlik - inson saloxiyotida boshqalar ko'ngliga ochiq yo'l qoldirish, to'yiga xam, azasiga ham qatnashish iqtisodiy, ma'naviy ko'makka «labbay» deb tayyor turish hissi.

6.Oliyjanoblik, oliy ximmatlik- insolarga yaxshilik istab yashash xissi.

7.Bolaxonlik, bolajonlik - o'zbeklarga xos xislat, ko'p bolalik, bolalar uchun yashash, bolalar dardini o'zligidan yuqori qo'yish, bolalarga qayg'urish, kschirimli bo'lish xissi.

8.Atrof-muhitga etibor, muxofzzakorlik (ekologik tarbiyalanganlik)- shaxsda yoshligidai boshlab ekologik tarbiya xissini shakllantirish kerak, toki shaxs mustakil xayoti davomida atrof-muxit muxofazasiga javobgarlik tuyg'usini xis etsin.

9.Iymonlilik, xotamtoylik - musulmonlarga ko'prok xos xislat. Iymon insoning, oilaning, qabilaning, urug'ning, millatnig ko'ngli, dardi, salomatligi. Iymonlining uyida baraka, rpvojlanish, omad bo'ladi. Iymonlilik poklik, ruxii salomatlik mezoni.

10.Bainalminallik, boshka millat vakillarini ardoklash, e'zozlash - baynalminal madaniyat millatlar, elatlar madaniyatlarninig yig'ndisi, in'ikosi. Milliy madaniyat rivojlanmas ekan baynalminal madaniyat rlvojanmaydl. Mlllly madamlyat qanchalik rivojlanmasa baynalminal madaniyatga shuncha ko'p hissa qo'shiladi.

11.Ŵoyaviy sodiqlik - Mustakil Uzbekistonning kslajagi buyuk davlat bo'lishiga ishonch, davlatimiz, prezidentimiz olib borayotgan ichki va tashqi siyosatiga isholch.

12.Muloyimlik, xushmuomalalik, nazokatlik, xushfe'llilik - dolmo ko'igli ochlklik. Gapi, ishini samimiy bajo keltirish. Xushmuomalalik xakida xadisi sharifda shunday yoziladi: «Allox taolo xushmuomalali va ochlq yuzli bandarlarni do'st tutadl».

13.Uzrlilik, kechirlmllllk - ayb ish qilinganida kechirim so'rashga shoshilish, farzandlarni, yoshlarni kechirish xissi.

14. Andishalilik - andishaning oti qo'rqqqlik emas, andishalilik, irodaning belgisi. Aidishalilik ko'proq o'zbeklarga xos xislat. Kattalar so'ziga quloq solish, davrada odob saklash, ota-onaga, kattalarga, ayollarga

hurmat-extlrom; sabr-tokatli bo'lish xissi.

15.Sertakalluflilik, sermulozamatlilik - insonlar o'zaro munosabatlarida ular orasida ishonchlilikning mezoni.

16.Odamlarga el bo'llishlilik, klrishimlilik, shirin suxanlilik - inson psixik xolatiga, tempsrament turiga, dunyoqarashiga, to'g'ri tarbiyalanganligiga bog'liq

bo'lib, xarakterni belgilaydigan asosiy ko'rsat-kichlardan biri hisoblanadi. Xalqimizda bu odam, «ko'pni ko'rgan», «tagi toza», yoki bo'lmasa, «bu odam hech qachon el bo'lmaydi» degan iboralar yuradi.

17. Shaxsiy manfaatlarni ijtimoiy (jamoatchilik) manfaatiga bo'ysundirish, shaxsiy manfaatdan ijtimoiy manfaatdorlikni yuqori qo'yaolishlilik, shaxsiyatparastlikning teskarisi, shaxsning avvalambor boshqalar, davlat nuqtai nazarini ustun qo'yish hissi.

### **23-MAVZU: KASB TA'LIMI DUAL TIZIMI.**

23.1 Kasb-hunar ta'limini bevosita ishlab chiqarish jarayonlari bilan bog'lash. Ta'limni ishlab chiqarish orqali amalga oshirish shakllari, turlari. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi bitiruvchilari ishlab chiqarish moslashuvchanligi.

23.2 Kasb-hunar ta'limini bevosita ishlab chiqarish jarayonlari bilan bog'lash. Ta'limni ishlab chiqarish orqali amalga oshirish shakllari, turlari. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi bitiruvchilari ishlab chiqarish moslashuvchanligi.

#### **23.1 Kasb-hunar ta'limini bevosita ishlab chiqarish jarayonlari bilan bog'lash. Ta'limni ishlab chiqarish orqali amalga oshirish shakllari, turlari. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi bitiruvchilari ishlab chiqarish moslashuvchanligi.**

##### **Kasb-hunar ta'limini bevosita ishlab chiqarish jarayonlari bilan bog'lash**

Mehnat bozori xalq xo'jaligining turli sohalari uchun malakali kadrlarni talab qiladi. Unda oddiy mutaxassisdan, to yirik tashkilotchi rahbarlargacha barchasi uchun talab o'zi egallab turgan lavozimiga mos malakaga ega bo'lishi hisoblanadi. Kasbiy malakaga ega bo'lish esa respublikamizda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim, oliy ta'limdan keyingi ta'lim va malaka oshirish orqali amalga oshiriladi. Kasb-hunar ta'limini **bevosita ishlab chiqarish jarayonlari bilan bog'lab olib borish** bo'lg'usi muiaxassislarning yuqori malakali bo'lishlarini ta'minlaydi.

##### **Dual ta'lim tizimining quyidagi qator ustunliklari mavjud:**

-o'qitish jarayoni bevosita amaliyot bilan birgalikda olib boriladi. Unda ta'limning taxminan 40%ga yaqin nazariy bilim berilsa, 60%dan ziyodrog'i bevosita ishlab chiqarish korxonalari yoki qishloq xo'jalik bilan bog'liq sohalorida olib boriladi;

-o'qish jarayonini tashkil qilishda tahsil oluvchilarning kasbiy malaka olishga bo'lgan talab va ehtiyojlari jadal suratda amalga oshiriladi;

-o'qish bevosita ishlab chiqarish bilan birgalikda amalga oshirilganligi sababli moliyalashtirish mexanizmi engillashadi;

-o'qish jarayoniga korxonalar jalb qilinganligidan ijtimoiy hamkorlik yo'lga qo'yilganligi sababli kuchli iqtisodiy va siyosiy aloqadorlik usulining paydo bo'lishiga olib keladi;

-xalq xo'jaligining davlat tuzilmasi, shuningdek, nodavlat xususiy tadbirkorlik nuqtai nazaridan ham foydali moliyaviy usul hisoblanadi;

-xalq xo'jaligining rivojlanishida zarur bo'lgan o'rta pog'onada malakali kadrlarning bandlik darajasi yuqori bo'ladi.

### **Ayni paytda dual ta'lim usuli kamchiliklardan xoli emas:**

- ta'lim muassasalarida tahsil oluvchilarga kasb-hunar sirlari nisbatan tor ixtisoslik doirasida o'qitilganligi uchun jamiyatda va xo'jaliklarda ishlash uchun keng imkoniyat yaratilmaydi;
- birgina yo'nalishda malaka oshirilgani sababli ular yaqin ikkinchi bir yo'nalishga moslashuv mexanizmi cheklangan;
- kasb - hunar ta'limini amalga oshirish o'ziga xos berk xarakterga ega;
- tor mutaxassislik berilganligi mutaxassis shaxsning tashabbuskorligi va erkinligi chegaralangan bo'ladi;
- taklif qilinayotgan o'quv muassasalarini ishlab chiqarish korxonalarining smeta xarajatlariga bog'liqligi uchun ko'p sondagi tinglovchilar malaka oshirishdan foydalana olmaydi.

### **10-Ilova**

#### **Ta'limini ishlab chiqarish orqali amalga oshirish shakllari va turlari.**

Talabalarning korxonada ishlab chiqarish ta'lim olishlaridan asosiy maqsad – ularning kasbiy ko'nikma va mahoratlarini oshirish, kasbiy bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish, ilgor ishlab chiqarish tajribasi bilan tanishtirish, ishlab chiqarish amaliyotiga tayyorlash va shular asosida kasb-hunar kollejlarini tugatgandan so'ng ishlab chiqarishda mustaqil faoliyat ko'rsatishga o'rgatishdan iboratdir.

Talabalarni korxona ustaxonalarida o'qitish – malakasi kichik mutaxassislarni tayyorlashdagi xal qiluvchi davr hisoblanadi. Bu erda talabalar ishlab chiqarish holati, yangi jixozlar va texnologik moslamalar, zamonaviy texnologik jarayonlar bilan tanishadilar.

Har bir kasb va mutaxassislik bo'yicha bevosita korxonada o'qitish hajmi, mazmuni va muddatlari mutasaddi tashkilotlar tamonidan tasdiqlangan o'quv dasturlariga muvafiq belgilatgadi.

KXX o'quv rejaga muvofiq korxonalarda ishlab ishlab chiqarish amaliyotiga ajratiladi.

**Ishlab chiqarish amaliyoti.** Ishlab chiqarish amaliyoti kasbiy tayyorgarlikning yakuniy bosqichini tasvirlaydi va o'qitishning so'nggi oylarida o'tkaziladi.

#### **Korxona tsexlarida o'qitishni tashkil qilish shakllari.**

O'quvchilar ishlab chiqarish ta'limini korxonalarda gurux ustasining rahbarligida o'tadilar.

O'qitishni tashkil qilishning eng ko'p tarqalgan shakllari quyidagilardir:

- guruxlarni korxona yoki tashkilot ajratgan mustaqil o'quv uchastkalarida o'qitish;
- o'quvchilarni alohida-alohida brigadalarga bo'lib ishlab chiqarish uchastkalarida o'qitish;
- o'quvchilarni malakali ishchilar brigadalari tarkibida o'qitish;
- o'quvchilarni murakkab mashina va mexanizmlarga xizmat ko'rsatish bo'yicha individual ish o'rinlarida o'qitish;
- korxonaning shtatli ishchi o'rinlarida ishlab chiqarish amaliyotini o'tish.

**23.2 Kasb-hunar ta'limini bevosita ishlab chiqarish jarayonlari bilan bog'lash. Ta'limni ishlab chiqarish orqali amalga oshirish shakllari, turlari.**  
**O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi bitiruvchilari ishlab chiqarish moslashuvchanligi.**

**O'rta-maxsus, kasb-hunar ta'limi bitiruvchilarning ishlab chiqarishga moslashuvchanligi**

O'rta-maxsus, kasb-hunar ta'limi bitiruvchilarning ishlab chiqarishga moslashuvchanligi ularning ta'imni bevosita ishlab chiqarish jarayonlari bilan bog'lash, ta'limni ishlab chiqarish jarayonida amalga oshirish orqali shakllantiriladi.

**Tayanch ishlab chiqarish korxonalari ustaxonalaridagi mashg'ulotlar.**

O'quvchilarni ishlab chiqarish talimi uchun korxonalarga ko'chirish o'quvchilarni ishlab chiqarish sharoitlarida o'qitishga o'tkazish - kasbga tayaylashda eng muhim bo'qichidir. Buni malakali ishchining mustaqil ishining muqaddimasi desa bo'ladi. O'quvchilarning tsex rahbarlari, ishlab chiqarish ilg'orlari, o'quv yurtlarini ilgari bitirib chiqqanlar, taniqli kishilar va boshqalar bilan uchrashuvlarini tashkil qilish maqsadga muvofiqdir.

TSex boshlig'i va ishlab chiqarish ilg'orlari korxonaning ajoyib an'analarini gapirib berishlari hamda o'quvchilarni bu an'analarni davom ettirishga da'vat etishlari orqali o'quvchilarda ushbu korxona undagi mehnat jarayoniga mehirni uyg'atadi. Bu esa o'quvchilarning **ishlab chiqarishga moslashishlarini shakllantirishni** osonlashtiradi.

O'rta-maxsus, kasb-hunar ta'limi bitiruvchilarning ishlab chiqarishga moslashuvchanligini shakllantirishda ayniqsa ishlab chiqarish amaliyotlarining o'rni katta.

Ishlab chiqarish amaliyoti tayanch ishlab chiqarish korxonasi ish o'rinlarida tashkil etiladi. Korxona odatda, amaliyotga xabarlik qilish uchun muhandis-texnik xodimlar va malakali mutaxassislarini ajratadi. Ta'lim olishning bu davrida talabalar **korxonada mustaqil ishlashga** to'liq tayyorlanadilar.

Ishlab chiqarish amaliyoti jarayonida echiladigan vazifalarga quyilgilar kiradi:

- talabalarning ishlab chiqarish sharoitlariga ijtimoiy, psixologik va fiziologik jihatdan moslashishi;

- kasbiy bilim, ko'nikma va maxoratlarni takomillashtirish; tanlangan kasb bo'yicha ixtisoslashtirish;

- murakkab ishlab chiqarish ishlarini bajarishda mustaqil ishlash tajribasini to'plash;

- progressiv texnologiyalar va zamonaviy jihozlarni, mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish vositalarini o'rganish;

- yuqori umumli asbob va moslamalarni, ishlab chiqarish ilg'orlari tajribasini o'zlashtirish;

- korxona texnik va texnologik hujjatlarni, ish o'rinlarida mehnatni ilmiy tashkil qilish masalalarini o'rganish;

- ko'nikma va maxoratni shakllantirish, bilimlarni amaliyotda qo'llash, murakkab ishlab chiqarish vazifalarini echishdan iboratdir.

## **Ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar sharoitida kasbiy ta'lim tizimini isloh qilish.**

Oxirigi yillarda turli xil stanoklarda ishlay oluvchi, uni tamirlay oluvchi, mahsulot sifatini yuqori qilish uchun lozim asboblarni orasidan qulayini tanlay olib ishlatadigan ishchilarga talab ortib bormoqda. Ushbu ishchilar mehnat qilish jarayonlari va ko'p imkoniyatdan qulayini tanlay olishi kerak.

Bunday ishchilar, ya'ni, tamirlovchilar eski tushuncha bo'yicha oliy bajaruvchi emas.

Ushbu ishchilar bajaruvchanlik bilan bir qatorda yangi texnologiyaning rivojlanishi va ishlab-chiqarishni boshqarishda muhim rol o'ynaydi.

Ularga qulay vaziyatlarni topish jarayonida quyidagi talablar qo'yiladi:

- pnevmatika, dinamika, elektrotexnikani, fizikani hech bo'lmaganda o'rta maktab ta'lim oluvchisi darajasida bilishlari kerak;

- yaxshi texnologik tayyorgarlikka ega bo'lishlari kerak;

- metall va nometall materiallarning nomlanishi va xususiyatlarini bilishlari kerak;

- kesuvchi asboblarning zo'riqlashiga chidamliligini bilishlari kerak;

- avtomatik liniyada ishlovchi har xil tipdagi stanoklarda ishlagani uchun ularning ishga tayyorgarligi hamda ularning rejalashtirilganligini bilishlari kerak. Ular shunday holatlarga tushadilarki, oqibatda turli xil nosozliklarni echishga to'g'ri keladi. Shuning uchun ular yuqori malakali bo'lishlari kerak;

- jamoa uchun sharoit yaratib berish, tamirlash ishini qisqa vaqtda tugallashlari kerak;

- ular ijtimoiy-iqtisodiy bilimlarga ega bo'lishlari kerak;

- brigadaning ish rejasini tuza olishlari kerak;

- ular jamoa bilan yaxshi muomalada bo'lishlari, ya'ni tillasha olishlari kerak;

- ular qanday o'zgarishlarga tayyor turishlari va boshqa brigadaga o'tib ishlash lozim bo'lganda ishlab keta olishlari shart;

- ishchilarning bajaruvchanlik funktsiyasi kamayib, aqliy mehnati ulushlari ortishi kerak;

- ishchilar mehnatida aqliy mehnat va fizik funktsiyaning organik birikmasi, ya'ni, hisoblash, to'g'rilash, analitik va nazorat funktsiyalarini bajaruvchi, texnik jarayonni o'lchovchi va tekshiruvchi, avtomatlashtiruvchi asboblarni yordamida boshqara olishlari lozim;

- yuqori malakali va keng tarmoqli ishchilar funktsiyalarining qo'llay olishlari kerak;

- madaniyat, texnika va fanning rivojlanishida mehnat umumdorligining oshishi;

- umumiy faoliyati va ishlab-chiqarish holatlariga moslashuvchanlik;

- o'rganish jarayonida tizimli ravishda malakasini oshirish evaziga keyingi ish faoliyati malakasining oshishini taminlab berish.

Yuqori malakali ishchilar zamonaviy ishlab-chiqarishda muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa ularning ratsionalizatorlik va ijodkorlik xususiyatlari asqotadi. Bunday ishchilarning paydo bo'lishi shundan darak beradiki, insonning ishlab-chiqarish va

texnik jarayondagi rivojlanishi, bilimlarining kengayishi, chuqurlashishi va malakasining oshib borishini taqozo etadi.

**«Ijtimoiy hamkorlik» tushunchasi. Ijtimoiy hamkorlar bilan faoliyat yuritishda ta'lim muassasalarining mustaqilligini oshirish.**

O'zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da maktab va KXKlarning eng amuxim vazifalaridan biri o'quvchilarning ongli ravishda kasbga yo'naltirish va ularning kasb egallashlarini ta'minlash deb belgilangan.

Mazkur ishlarni bevosita maktab, yoki maktablararo texnik markaz hamda KXKlarda maxsus ishlab chiqilgach "shartnoma"lar asosida o'z ishlarini muvofiqlashtirgan xolatida amalga oshiriladi. Mazkur shartnomalar ikki tomonlama va ko'p tomonlama xolatda qabul etiladi.

- 1.maktablar orasida.
- 2.maktab va tashxis markazlar orasida.
- 3.kasb-xunar kollejlari orasida.
- 4.maktablar va tashxis markazi orasida.
- 5.maktab, kasb-xunar kollejlari va tashxis markazi orasida.
- 6.maktablar tashkilot yoki korxonalar orasida.
- 7.maktab, kasb-xunar kollej, tashkilot va korxonalar orasidagi qabul etiladigan shartnomalar.

Shartnomalar tuzishda uning xar bir bandiga didaktik talablar asosida, sotsial iqtisodiy jixatdan maqsadga muvofiqligi va amaliy yo'nalishini xisobga olib huquqiy kuch berish kerak.

**Birinchi banda.** Namunaviy shartnomaning bu bandida asosiy e'tibor o'quvchilarning mehnat va kasbiy ta'limi, ijtimoiy-foydali, unumli mehnatini tashkil qilish masalalariga qaratiladi.

**Keyingi band.** Shartnomaning bu bandidagi tadbirlar o'quvchilar mehnat birlashmalarining ishini ta'minlashi kerak. O'quvchilar ishining bu turi asosan kanikul vaqtida amalga oshiriladi va shuning uchun ularning mehnat ob'ektlari har hil, ba'zan esa mehnat va kasbiy tayrgarlik o'quv dasturi mazmuni bilan bog'lanmagan bo'lishi mumkin.

**Keyingi band.** Shartnomaning bu bandida tayyorlangan mahsulotlar miqdori va sifatini xisobga olishni; o'quvchilar ijtimoiy-foydali, unumli mehnatining natijalarini o'quvchilarga tayyorlagan maxsuloti, haqiqiy ishlangan vaqti hamda bajarilgan ishi uchun belgilangan tartibda haq to'lashni ta'minlash tadbirlarini nazarda tutish lozim.

**Keyingi band** o'quvchilarning mehnat va professional tayyorgarligini, ijtimoiy va unumli mehnatini xavfsizik texnikasi va ishlab chiqarish sanitariyasi, o'quvchilar mehnatini muhofaza qilish qoidalariga qat'iy rioya qilgan holda tashkil etishni ta'minlashi kerak.

**Keyingi band** baza korxonalarning makta, KXK va boshqa maorif muassasalariga o'quv yiliga tayyorgarlik ko'rishda yordamlashuviga qaratilgan tadbirlarni o'z ichiga oladi

**Keyingi band** o'quvchilar va ishlab chiqarish ta'limi ustalari to'g'risida g'amxo'rlikni aks ettiradi. Shuning uchun uni to'ldirayotganda baza korxona

sanatoriyalar, pansionatlar, dam olish bazalariga yo'llanmalar ajratishda barcha rezerv va imkoniyatlardan foydalanish lozim.

#### **24-MAVZU: KASB-HUNAR TA'LIMINI BOSHQARISH.**

24.1 O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini boshqarishning umumiy va ilmiy asoslari. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalariga rahbarlik qilish, rahbarlar ishining mazmuni.

24.2 O'quv jarayoni didaktikani, uni rejalashtirish va amalga oshirishni loyixalash, undagi o'qitish metodlari va vositalarini o'zgartirib turish.

24.3 Hozirgi kunda kasb-hunar kollejlari boshqarish oshkoralik demokratiya va o'z-o'zini boshqarishni asosida amalga oshirilishi to'g'risida zaruriy bilimlarni tarkib toptirish.

##### **24.1 O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini boshqarishning umumiy va ilmiy asoslari. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalariga rahbarlik qilish, rahbarlar ishining mazmuni.**

Ta'lim mazmunini tanlash hozirgi bosqichma-bosqich o'qishni tashkil qilish sharoitida alohida ahamiyatga ega, chunki bu erda o'quv dasturiy hujjatlar har qaysi alohida olingan yo'nalishga (bakalavr, magistr, litssy, gimnaziya, kolledj) alohida-alohida tuziladi.

**Ta'lim mazmunining strukturasi va tuzilish printsiplari.** Ta'lim mazmunining strukturasi va tuzilishi quyidagi printsiplarga asoslanadi:

1. Ta'lim mazmunining davlat sotsial-iktisodiy rivojlanish yo'nalishlariga bog'liqlik printsiipi.

2. Fanlararo kompleks aloqalar printsiipi.

3. Kasblarga yo'naltirilganlik printsiipi

4. Ta'lim mazmunini tanlashda yadro va qobik yoki ustivor va o'zgaruvchan (dinamik) qismlarga bo'lib tanlash printsiipi.

5. Ta'lim mazmunini unifikatsiyalash va tabaqalashtirish printsiipi.

**Ta'lim jarayonining tarkibiy qismlari.** Ta'lim jarayoni ta'lim beruvchi - o'qituvchining va ta'lim olayotgan o'quvchilar faoliyatining yig'indisidan iborat.

## **2. KASBIY TA'LIM METODLARI**

### **Kasbiy ta'lim metodlarining umumiy tavsifnomasi.**

Ta'lim metodini 3 ta asosiy guruxga bo'lishimiz mumkin:

5. O'quv bilish va o'quv ishlab chiqarish faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirish metodi.

6. O'quv faoliyatiga qiziqtirish va rag'batlantirish metodi.

7. O'quvchilar o'quv faoliyatini samaradorligini nazorat qilish va o'z-o'zini nazorat qilish metodi.

**Nazariy ta'lim metodlari.** O'quv muassasalarida o'qitishning nazariy asoslari o'quvchilar tomonidan o'zlashtiriladi..

**Ko'rgazmali metod.**

Olimlarning fikricha, 80% axborot miyaga ko'z orqali uzatiladi. Ish operatsiyalarining 80% ko'z orqali bajariladi. Ushbu dalillardan ko'rishimiz mumkinki, ta'lim jarayonida ko'rgazmali metod katta ahamiyatga egaligini.

**Amaliy ta'lim metodlari.** Mashq amaliy metodning asosiy metodlaridan biri hisoblanadi. Mashq o'tkazishning asosiy maqsadi o'qitish jarayonida ta'lim oluvchilar texnika va kasbiy fanlar bo'yicha egallagan bilimlarini amaliyotda qo'llay olish borasidagi ko'nikmalarga bo'lishlari taminlashdan iboratdir.

**Ta'limda faollik metodi.** Ta'lim oluvchilarning ichki va tashqi faolligini oshirish uchun turli xil o'yinlardan foydalaniladi. Bulardan keng, ko'p qo'llniluvchisi – didaktik o'yinlardir.

**Pedagogik jarayon mohiyati va tuzilmasi.** Pedagogik jarayon o'qituvchi va ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini amaliyotda qo'llash faoliyatini o'z ichiga qamrab oladi. Kasbiy ta'lim jarayonida **mazmun, o'qish, o'qitish, tarbiyalash** asosiy bog'lovchi komponentdir.

**O'qish** tizimli va asoslangan o'quv faoliyati bo'lib, ta'lim oluvchi tomonidan bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishda o'quv jarayoni o'ziga xos o'rin tutadi.

**Anglash** murakkab, rivojlanuvchi jarayondir. Xis-tuyg'u va bilimlarni qabul qilish jarayonida ta'lim oluvchi ob'ektiv xaqiqatni anglaydi, u yoki bu predmet yoki jarayon to'g'risida taassurotga ega bo'ladi.

Samarali o'qitishning muhim shartlari quyidagilardir: ta'lim oluvchining qiziqishi faoliyatining faolligi, o'qituvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi samimiy munosabat.

#### **O'qitish sistemada o'zaro aloqadorlik**

Agar o'qish jarayoni ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish qobiliyatlarini, o'qitish tizimida o'zaro aloqadorlikni xisobga olmasdan, tashkil etilsa, unday holda o'qitish jarayoni samarasiz bo'ladi.

#### **O'qitish jarayonining muhim komponenti**

Beriladigan bilim mazmuni o'quv dasturi, davlat ta'lim standartida ko'rsatilgan bo'lib, uning tarkibini ijtimoiy maqsad, davlat buyurtmasi, pedagogik tizimining aniq maqsadlari belgilaydi. Pedagogik jarayonning faqat ta'limning mazmunlilikigagina emas, balki uning qonuniyligiga ham ta'sir ko'rsatadi.

#### **Pedagogik jarayonning rivojlantiruvchanlik funktsiyasi**

Berilayotgan bilimlarni o'zlashtirish o'quv dasturida qayd qilingan ta'lim oluvchilar aqliy, fikrlash qobiliyatini rivojlantirish borasidagi harakatlar ularning o'zlari tomonidan ham amalga oshirilishi lozim.

**Ta'lim oluvchilarni rivojlantirish** – bu pedagogik jarayon natijasidir o'qish rivojlanishning garovi bo'lib, fikriy, aqliy rivojlanish bilan birga faoliyatning ham rivojlanishiga olib keladi.

Pedagogik jarayon to'g'risida aniq fikrga ega bo'lish uchun bu jarayonni yo'naltiruvchi (boshqaruvchi) kuchlar haqida ham ma'lumotga ega bo'lish kerak. Bunday kuchlarning rivojlanishini dialektik o'qish nuqtai nazaridan aniqlash mumkin. Pedagogik jarayonga yuzaga keluvchi qarama - qarashliklar va ularning o'zaro aloqasini o'rganish ham muhimdir.

O'qituvchi ta'lim oluvchilarni bilim va malaka bilan qurollantirar ekan, ularni murakkab masalalarni hal qilishga yo'naltirilishi, pedagogik jarayonda yuzaga kelgan qiyinchiliklarning bartaraf etishga undagi ta'lim oluvchi imkoniyatlaridan oshmasligiga ahamiyat berishi kerak. Shundagina ta'lim oluvchilarning qobiliyat va bilimlari oddiydan murakkabga qarab borib, ularni murakkab masalalar echimini topishga undaydi.

**Davlat ta'lim standartlari** Davlat ta'lim standarti O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligini qo'lga kiritilgandan so'ng yaratildi. DTS O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi" normativ hujjatlari asosida yaratilgan.

Standart o'lchov, andoza, qolip, mezon ma'nosini beradi. DTS ta'limning mazmuniga hamda sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilaydi.

DTS ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarining sifatiga qo'yiladigan minimal darajadagi talabni aniqlaydi.

**O'quv rejasi:** davlat hujjatidir. O'quv rejasi barcha ta'lim muassasalarida so'zsiz amal qilinishi lozim bo'lgan davlat hujjatidir.

O'quv rejasi tegishli ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

O'quv rejasida:

- o'quv yilining boshlanishi va tugash vaqti, beriladigan ta'tillarning kuni, ta'lim muassasasida o'tilishi kerak bo'lgan fanlarning tizimi;
- o'rganilayotgan fanlarning ro'yxati va bo'linishi (taqsim qilinishi);
- fanlarning asosiy va fakultativlarga bo'linishi;
- har bir sinfda o'quv fanlarini o'rganishda haftalik va yillik taqsim qilinishi soati ko'rsatilgan bo'ladi.

**O'quv dasturi** o'quv rejasi asosida har bir o'quv fani uchun tuziladi. O'quv dasturi har bir o'quv fanini o'qitish uchun ajratilgan bilim hajmi, tizimi va g'oyaviy-siyosiy yo'nalishini aniqlab beradigan hujjatdir.

O'quv dasturida o'quv yili davomida har qaysi sinfda alohida fanlar bo'yicha o'quvchilarga beriladigan ilmiy bilim, ko'nikma va malakalarning hajmi belgilab beriladi. Dasturda har qaysi o'quv fanlarining mazmuni izchillik bilan yoritiladi va ta'lim mavzular orqali ko'rsatiladi.

Ma'lum mavzu yuzasidan o'quvchi o'zlashtirishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar qsqacha ifodalab beriladi.

O'quv dasturi **uch qismga** bo'linadi:

- tushuntirish xati (o'rganilayotgan fanning) maqsad va vazifalari;
- mazmuniy (asosiy) qism;
- bilim, ko'nikma va malakalarni baholashda metodik ko'rsatma, ta'limning ko'rsatmali va texnik vositalari soni, tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxati;

**Ta'lim mazmunining tuzilishi quyidagi tamoyillarga asoslanadi:**

1. Ta'lim mazmunining davlat ijtimoiy-kasbiy rivojlanishi yo'nalishlariga bog'liqlik tamoyili.

2. YOshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tamoyili.

3. Fanlararo kompleks aloqalar tamoyili.

4. Kasblarga yo'naltirish tamoyili.

5. Ta'lim mazmunini tanlashda ustuvor va o'zgaruvchan qismlarga bo'lib tanlash tamoyili.

6. Ta'lim mazmunini unifikatsiyalash va tabaqalashtirish tamoyili.

#### **24.2 O'quv jarayoni didaktikani, uni rejalashtirish va amalga oshirishni loyixalash, undagi o'qitish metodlari va vositalarini o'zgartirib turish.**

**O'qitilayotgan mehnat turi sohasidagi ilmiy-texnikaviy bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish** – ilg'or texnologiya va ratsional mehnat usullarini, texnika yangiliklarini muntazam o'rganib borish, ilmiy-texnikaviy seminarlarda qatnashish, texnikaga oid mavzulardagi ma'ruzalarni eshitib borish, ko'rgazmalarga borib turish, ilg'or korxonalarga o'tkaziladigan ekskursiyalarda qatnashish va hokazolar orqali erishiladi. Amaliy ko'nikmalar va malakalar kasb ta'limi o'qituvchilarining malakali metodistlar va ishlab chiqarish ilhorlari rahbarligida ilg'or ish usullarini egallash yo'li bilan takomillashtiriladi.

**Pedagog mehnatini ilmiy asosda tashkil etish sohasidagi bilim va malakalarini takomillashtirish** – kasb ta'limi darslarida amal qilinadigan hujjatlarni ilmiy asoslangan tarzda ishlab chiqish; o'quv ustaxonalarini zarur materiallar, asbob-uskunalar bilan muntazam ta'minlab turish tadbirlarini belgilash, ish joyini ilmiy asosda tashkil etish, ta'limning eng samarali ko'rsatmali va texnikaviy vositalaridan oqilona foydalanish yo'li bilan erishiladi.

#### **Didaktik materiallar tayyorlash**

Nazariy va amaliy mashg'ulotlar uchun manba sifatida ishlatiladigan vositalarimiz quyidagicha farqlanadi:

Agar tayyor vositalar yo'q bo'lsa, u holda bu vosita ularni o'qituvchining o'zi tayyorlashiga to'g'ri keladi.

O'quv va didaktik materiallarni tayyorlashda amaliyot o'qituvchisi chegaralangan vaqt va texnik imkoniyatlarni inobatga olgan holda e'tiborini quyidagilarga qaratishi lozim:

-ish varaqalari, tarqatmalar (bosilgan matnlar nusxalari), slaydlar, doska tasvirlari uchun eskizlar;

-yozma topshiriqlar, yozma va og'zaki testlar uchun so'rov qog'ozlari;

- baholash varag'i, nazorat qog'ozi;

- ish rejalari, tashkiliy hujjatlar.

O'qituvchi uchun materiallar nafaqat sohaga tegishli ma'lumotlarni, balki tashkiliy ishlar, usul va natijalarni baholash borasidagi ma'lumotlarni ham o'z ichiga oladi. Talabalar uchun materiallar esa qoida bo'yicha faqatgina sohaga tegishli jihatlarni o'z ichiga oladi.

Talabalarga tarqatiladigan materiallar tarkibida quyidagi ma'lumotlar bo'lishi lozim:

- sodda tilda yozilgan o'quv matnlari

-matnlarda bo'sh qoldirilgan joylar (talabalar tomonidan to'ldirilishi uchun)

-talabaning erkin fikrlashiga imkoniyat beruvchi savollar

-ustaxonada ishlash uchun mo'ljallangan, ish bosqichlari ko'rsatilgan tushunarli chizmalar (eskizlar) va jadvallar

- material, jihoz, asbob-uskunalar va yordamchi vositalar haqida ma'lumotlar.

Matn tayyorlash bo'yicha eng yangi usullardan biri bu matnlarni ranglar bilan ajratish sanaladi:

-oq qog'ozlar: mazmuniy jihatlar borasida matnlar (o'qituvchi va talabalar uchun)

-yashil qog'ozlar: talabalarga topshiriqlar

-qizil qog'ozlar: o'qituvchining metodik hujjatlari va topshiriqlarning javob varaqalari

Ranglarni kodlash hujjatlardan foydalanishni engillashtiradi

Xuddi shu usuldan seminar hujjatlarini tayyorlashda ham foydalaniladi.

**Pedagogik loyihalash tushunchasi** hozirgi davrda pedagogik adabiyotlarda shuningdek, amaliyotchi pedagoglar tomonidan muammoli texnologiya keng qo'llanilib, aqliy rivojlanishini taminlash maqsadida bosqichma bosqich kompyuter texnologiyasi va boshqa texnologiyalarni qo'llash tavsiya etilmoqda. Ushbu faoliyat ixtiyoriy pedagogik texnologiyani loyihalash asosida qo'llash mumkinligini anglatadi.

**Loyihalash ob'ekti va muammolari.** Loyihalash hozirgi kunda pedagogik jarayonning muhim jihatdan biri bo'lib, malakali pedagogik jarayon texnologiyasi va boshqa ob'ektlar o'qituvchiga ta'lim oluvchilarni shaxs sifatida shakllantirish hamda ular tarbiyasiga salbiy ta'sir etuvchi omillarni yo'qotib, har bir ta'lim oluvchi uchun individual pedagogik sharoitlar yaratadi.

**Pedagogik loyihalashning (rejalash) umumiy algoritmi.**

Tayyorlov ishlari:

1. Loyihalash ob'ektining tahlili.
2. Loyihalash shakllarini tanlash
3. Loyihalashtirishni nazariy jihatdan taminlash (tajriba natijasi).
4. Loyihalashtirishni metodik jihatdan taminlash (didaktik va metodik materiallar).
5. Vaqt bilan taminlash (ma'lum vaqt va hajmda ishlash).
6. Loyihalashni moddiy va texnik jihatdan taminlash.
7. Loyihalashni xuquqiy jihatdan taminlash (pedagogik tizim va jarayonda).
8. Loyihani ishlab chiqish. Bilim berish omilini tanlash. Ixtiyoriy tizimning o'z-o'ziga bilim berish omili orqali qolgan komponentlari aniqlanib, bu omil boshqa omillar bilan bir butunlikni tashkil etadi. Pedagogik tizimning o'zi bilim beruvchi bir butun komponent hisoblanadi. Chunki u, ta'lim oluvchini shaxs sifatida shakllantiradi. Ushbu faoliyatni kompyuterlar ham bajarishi mumkin, faqat ular maqsadga mos ishchi lozim.
9. Kompyuterlar orasidagi aloqani yo'lga qo'yish.
10. Hujjatlarni rasmiylashtirish-oldindan barcha pedagogik loyihalashtirish shakllari qo'llanilishi bilan birga maqsadni, yaqinlashtiruvchi yangi shakllardan ham foydalanish mumkin. Chunki, loyiha sifatini tekshirish.
11. Ilmiy faraz (hayolan umumiy jarayonni ko'rish).
12. Loyihaga nisbatan mutaxassislar bahosi (sohaning mutaxassislari va bu loyihani qo'llashdan manfaatdor shaxslarning bahosi).

13. Loyihani shakllantirish.

14. Loyihani tasdiqlash va foydalanishga berish.

Loyihani tasdiqlashda birinchi o'rinda loyiha kafedra muhokamasiga berilib keyin yuqori attestatsion kengashlar himoyasiga qo'yiladi. Attestatsion komissiya himoyasiga qo'yilgan loyiha yutug'i, maqsadi, chuqur tahlili, o'quv materallarining mazmuni, metod va shakllariga nisbatan o'z bahosini beradi.

### **24.3 Hozirgi kunda kasb-hunar kollejlari boshqarish oshkoralik demokratiya va o'z-o'zini boshqarishni asosida amalga oshirilishi to'g'risida zaruriy bilimlarni tarkib toptirish.**

**Ishlab chiqarish ta'limi metodi.** Ishlab chiqarish ta'limining asosiy maqsadi ta'lim oluvchilarda muayyan kasb, soha bo'yicha ustachilikni shakllantirishdir. Ishlab chiqarish ta'limida bu maqsadga bosqichma-bosqich erishiladi.

**Ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish.** Nazorat qilishning 2 turi mavjud. Birinchidan, ta'lim oluvchilarning o'quv faoliyatini doimiy kuzatish, ikkinchidan, ta'lim oluvchilarning bilimlari va malakalarini tekshirish.

**Ta'lim metodlarini tanlash.** Ta'lim metodining umumiy tavsifida ko'rsatilganidek, har bir metodning ta'lim jarayonida aniq vazifalari bor. Ta'lim jarayonida bir necha metodlar qo'llaniladi. Bu metodlar bir-biriga bog'liq bo'lib, o'qituvchi-ta'lim oluvchi o'rtasidagi o'zaro faoliyat mohiyatini tavsiflaydi. O'qitish jarayonida metodlarning o'rnini va vazifalari belgilab olinganda ularni tanlash onson bo'ladi.

### **3. KASBIY TA'LIMNING TASHKILiy SHAKLLARI**

**Ta'limning asosiy shakllaridan birisinf-dars tizimi xisoblanadi.** U nazariy, amaliy laboratoriya shakllarida bo'lishi mumkin. Ta'limning tashkiliy shakllari o'qituvchi va o'quvchining hamjihatlikdagi faoliyatini aniklab beradi, ommaviy talim va alohida (individual) holdagi ta'limning nisbatlarini belgilaydi.

**Kasb ta'limining boshqa tashkiliy turlari.** Darsni to'lg'azadigan va o'quvchilarning politexnik ta'limiga ko'maklashadigan ta'limning tashkiliy turlaridan biri amaliy mashg'ulot hisoblanadi.

O'quvchilarning o'z tanlashlari na hohishlariga ko'ra ilmiy-nazariy bilimlarini, amaliy tajribalarini kengaytirish hamda chuqurlashtirish uchun o'rganadigan o'quv fanlari fakultativlar deb nomlanadi.

Sayohat darslari dasturdagi, ma'lum bir belgilangan bo'limlarni o'rganish bilan bog'liq ravishda o'tkaziladi: tabiatga sayohatlar, ishlab chiqarish korxonalariga sayohatlar, tarixiy joylar va yodgorliklarga, geografiya sayohatlari, adabiyot sayohatlari va boshqalar.

Ta'lim mazmunini tanlash hozirgi bosqichma-bosqich o'qishni tashkil qilish sharoitida alohida ahamiyatga ega, chunki bu erda o'quv dasturiy hujjatlar har qaysi alohida olingan yo'nalishga (bakalavr, magistr, litsey, gimnaziya, kolledj) alohida-alohida tuziladi.

**Ta'lim mazmunining strukturasi va tuzilish printsiplari.** Ta'lim mazmunining strukturasi va tuzilishi quyidagi printsiplarga asoslanadi:

1. Ta'lim mazmunining davlat sotsial-iktisodiy rivojlanish yo'nalishlariga bog'liqlik printsiipi.

2. Fanlararo kompleks aloqalar printsiipi.

3. Kasblarga yo'naltirilganlik printsiipi

4. Ta'lim mazmunini tanlashda yadro va qobik yoki ustivor va o'zgaruvchan (dinamik) qismlarga bo'lib tanlash printsiipi.

5. Ta'lim mazmunini unifikatsiyalash va tabaqalashtirish printsiipi.

**Ta'lim jarayonining tarkibiy qismlari.** Ta'lim jarayoni ta'lim beruvchi - o'qituvchining va ta'lim olayotgan o'quvchilar faoliyatining yig'indisidan iborat.

- Ta'lim tizimi islohotlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish shart-sharoitlari: milliy pedagogik merosga tayanish, yangi maqsad va vazifalarni aniq belgilab olish, bosichma-bosich amalga oshirish, tadrijiylik haqida ma'lumotlar berish.

- Ta'lim tizimi islohotlarining moiysi: izchillik, ochilik, fuqarolarning ta'limga bo'lgan xtiyoljarini qoniqtira olish, jamiyatning talablariga javob berish, jahon kasb va ta'lim bozorida samarali faoliyat yuritish va raqobat qila olish to'g'risidagi ma'lumotlar bilan tanishtirish.

- "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi mazmun-mohiyati bilan tanishtirish..

## **25-MAVZU: O'QITUVCHI VA RAHBARLARDA BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA BOSHQARUV MAHORATLARINI SHAKLLANTIRISH.**

25.1 Pedagogik, psixologik boshqaruv to'g'risida ma'lumot.

25.2 Boshqaruv jarayoni bosqichlari. Boshqaruv uslublari. Boshqaruvga yangicha yondashuv: yakka shaxs va jamoa bilan ishlash usullari.

25.3 Boshqaruvda o'qituvchining roli: faol, tashabbuskor va ijodkor munosabati.

25.4 Ta'lim-tarbiya jarayonini boshqarish o'quv yurtida, o'quvchi-talabalar jamoasida sog'lom psixologik muhim yaratish yo'llari.

### **25.1 Pedagogik, psixologik boshqaruv to'g'risida ma'lumot.**

**Pedagogik jarayon mohiyati va tuzilmasi.** Pedagogik jarayon o'qituvchi va ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini amaliyotda qo'llash faoliyatini o'z ichiga qamrab oladi. Kasbiy ta'lim jarayonida **mazmun, o'qish, o'qitish, tarbiyalash** asosiy bog'lovchi komponentdir.

**O'qish** tizimli va asoslangan o'quv faoliyati bo'lib, ta'lim oluvchi tomonidan bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishda o'quv jarayoni o'ziga xos o'rin tutadi.

**Anglash** murakkab, rivojlanuvchi jarayondir. Xis-tuyg'u va bilimlarni qabul qilish jarayonida ta'lim oluvchi ob'ektiv xaqiqatni anglaydi, u yoki bu predmet yoki jarayon to'g'risida taassurotga ega bo'ladi.

Samarali o'qitishning muhim shartlari quyidagilardir: ta'lim oluvchining qiziqishi faoliyatining faolligi, o'qituvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi samimiy munosabat.

**O'qitish sistemada o'zaro aloqadorlik**

Agar o'qish jarayoni ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish qobiliyatlarini, o'qitish tizimida o'zaro aloqadorlikni xisobga olmasdan, tashkil etilsa, unday holda o'qitish jarayoni samarasiz bo'ladi.

### **O'qitish jarayonining muhim komponenti**

Beriladigan bilim mazmuni o'quv dasturi, davlat ta'lim standartida ko'rsatilgan bo'lib, uning tarkibini ijtimoiy maqsad, davlat buyurtmasi, pedagogik tizimining aniq maqsadlari belgilaydi. Pedagogik jarayonning faqat ta'limning mazmunlilikigagina emas, balki uning qonuniyligiga ham ta'sir ko'rsatadi.

### **Pedagogik jarayonning rivojlantiruvchanlik funktsiyasi**

Berilayotgan bilimlarni o'zlashtirish o'quv dasturida qayd qilingan ta'lim oluvchilar aqliy, fikrlash qobiliyatini rivojlantirish borasidagi harakatlar ularning o'zlari tomonidan ham amalga oshirilishi lozim.

**Ta'lim oluvchilarni rivojlantirish** – bu pedagogik jarayon natijasidir o'qish rivojlanishning garovi bo'lib, fikriy, aqliy rivojlanish bilan birga faoliyatning ham rivojlanishiga olib keladi.

Pedagogik jarayon to'g'risida aniq fikrga ega bo'lish uchun bu jarayonni yo'naltiruvchi (boshqaruvchi) kuchlar haqida ham ma'lumotga ega bo'lish kerak. Bunday kuchlarning rivojlanishini dialektik o'qish nuqtai nazaridan aniqlash mumkin. Pedagogik jarayonga yuzaga keluvchi qarama - qarashliklar va ularning o'zaro aloqasini o'rganish ham muhimdir.

O'qituvchi ta'lim oluvchilarni bilim va malaka bilan qurollantirar ekan, ularni murakkab masalalarni hal qilishga yo'naltirilishi, pedagogik jarayonda yuzaga kelgan qiyinchiliklarning bartaraf etishga undagi talim oluvchi imkoniyatlaridan oshmasligiga ahamiyat berishi kerak. Shundagina ta'lim oluvchilarning qobiliyat va bilimlari oddiydan murakkabga qarab borib, ularni murakkab masalalar echimini topishga undaydi.

Kasb ta'limi o'qituvchisi darsga tayyorlanayotganda, uni rejalashtirayotganda xar xil metod va usullarni qo'llab yangi materialni qanday bayon qilishni o'ylaydi. U o'quvchilarning individual xususiyatlarini, ularning tajribasi, jismoniy rivojlanishi va mehnat unumdorligiga ta'sir qiladigan boshqa omillarni xisobga olgan holda ob'ektlarni tanlaydi.

Texnikaviy ijodkorlik o'quvchilarning ilmiy texnikaviy va umumiy ta'lim fanlaridan olgan bilimlarni chuqurlashtiradi, ularning tafakkurini rivojlantiradi, mustaxkam mehnat ko'nikmalari va malakalarini tarkib toptirishga yordam beradi, ratsionalizatorlik va ixtirochilikka qiziqish uyg'otadi, siyosiy bilim doirasini kengaytiradi. Bu ijodkorlik kollej o'quvchilarini istiqbol ruxda tarbiyalashning eng muhim vositasidir.

O'qituvchining lavozim majburiyatlarini ish bajarish ketma-ketligiga qarab 3 bosqichga bo'lish mumkin:

- Rejalashtirish bo'yicha vazifalar;
- Amalga oshirish bo'yicha vazifalar;
- Baholash va tahlil qilish bo'yicha vazifalar.

### **Rejalashtirish bo'yicha vazifalar:**

- Davlat ta'lim standartlari, o'quv reja va dasturlar asosida ta'limning maqsad va mazmunlarini tanlash va rejalashtirish;
- o'quv reja va dasturlar asosida kalendar mavzuli reja va dars rejasini ishlab chiqish;
- ta'limni tashkillashtirish va o'tkazish bo'yicha hujjatlarni tayyorlash;
- o'quvchilarning qobiliyatlari va bilimlarini baholash bo'yicha hujjatlarni tayyorlash;
- korxonaning turli bo'limlarida o'quvchilarni o'qitish joylarini rejalashtirish;
- qo'yilgan maqsadlarga javob beradigan ish topshiriqlari va mashqlarni tayyorlash;
- amaliy mashqlar hamda loyihalarni o'tkazish uchun xomashyo va chiqim materiallarni rejalashtirish;
- o'quv ustaxonasida o'qitish uchun etarli sharoitlarni tayyorlash;
- o'quv-didaktik materiallarni aniqlash, tanlash va ishlab chiqish.

Ta'lim tarbiya jarayonini **bashqarish va nazorat qilishda** quyidagilar kasb ta'limi o'qituvchisiga xos bo'lishi kerak:

1)YUqori g'oyaviylik. O'qituvchi o'sib kelayotgan avlodning tarbiyachisidir. U o'quvchilarni milliy istiqlol g'oyalari ruxida tarbiyalashi kerak.

2) YUqori texnika malaka. Masalan, ta'limi jarayonida o'quvchilar o'zlari tanlagan mutaxassislikka oid o'quv yurtining talablari bu mutaxassisliklarga oid bilim va ko'nikmalarni egallaydilar. Shu munosabat bilan oliy o'quv yurtining talablari bu mutaxassisliklarga oid kabiyl bilimlar asoslarini egallashlari xamda keyingi amaliy faoliyat jarayonida o'z maxorati darajasini uzluksiz oshira borishlari kerak.

3)YUqori psixologik-pedagogik tayyorgarlik. Kasb ta'limi o'qituvchilarining o'zi bilim va malakalarni yuksak saviyada egallabgina qolmay balki o'quvchilarda xam ma'lum malakalarni tarkib toptirish uchun ularga bilimlar berish kerak. Bilim va malakalarni egallash jarayonining o'z qonuniyatlari bor, maktabdagi ta'lim shu qonuniyatlar asosida tashkil etiladi. Kasb ta'limi o'qituvchisi asixologiya, didaktika va boshqa fanlarning o'quv jarayoniga asos bo'ladigan muxim qoidalarini chuqur o'zlashtirib olishi kerak.

4)O'z kasbiga muxabbat. O'qituvchilik kasbining o'ziga xos tomonlarini chuqur bilish, o'z kasbini faoliyatida erishgan yutuqlaridan zavqlanishi, qiyinchilarni engib o'tish uchun kuch va imkoniyat topa olish kasb ta'limi o'qituvchisining muxim fazilatlari qatoriga kiradi.

#### **Baholash va tahlil qilish bo'yicha vazifalar:**

- o'quvchilarning amaliy natijalarini kuzatish, tahlil qilish va baholash;
- o'quvchilarning o'zlashtirilgan nazariy bilimlarini baholash;
- o'quvchilarning xulqini baholash;
- ta'limning mavjud sharoitlarining sifatini baholash;
- rejalashtirish va tashkillashtirish bo'yicha hujjatlarning sifatini baholash;
- o'quv-didaktik materiallarning sifatini baholash;
- o'zi bergan yo'l-yo'riq va namoyishlarni o'zi baholash;
- berilgan topshiriqlarning sifatini o'zi baholash.

## **25.2 Boshqaruv jarayoni bosqichlari. Boshqaruv uslublari. Boshqaruvga yangicha yondashuv: yakka shaxs va jamoa bilan ishlash usullari.**

O'zbekistonda **boshqarishning ilmiy asoslari** paydo bo'lishi o'zining chuqur tarixiy ildizlariga ega bo'lib, uning asosiy tamoyillari XIII-XIV asrlarga kelib O'rta Osiyo Amir Temur hukmronligi davrida to'la shakllangan edi. Bu davrda yuqori intizom, ijtimoiy himoya va oliy darajadagi boshqarish tizimiga ega bo'lgan davlatning bunyodga kelishi o'rta asr davridagi boshqarish uslublari o'zida eng ilg'or g'oyalarni mujassamlashtirilganidan darak beradi. Boshqaruv tizimining samarali tashkil etilishi, uning insonparvarlik, kasbiy va ratsional usul bilan tashkil etilishi, uning negizida inson manfaatlari yotganligi, davlat siyosatining boshqaruvga ijobiy ta'siri dunyoda buyuk davlat paydo bo'lishiga sabab bo'lgan.

Ma'lumki, boshqarish deb, ko'zda tutilgan maqsad uchun qilinadigan harakat tushiniladi. Har qanday boshqarish asosida ko'zda tutilgan maqsad yotadi. Boshqarishda boshqaruvchi tizim va boshqariluvchi tizimga amal qilinadi. Shunday ekan boshqarish biror bir tizimni ikkinchi bir tizimga o'zgartirishga aytiladi. Boshqaruvchi tizim boshqariluvchi tizimga ta'sir ko'rsatishda amal qilishi kerak bo'lgan qonun qoidalarga boshqarish tamoyillari (printsipalari) deb ataladi.

YUqoridagilardan kelib chiqqan holda boshqarishning quyidagi tamoyillarini keltirish mumkin va u tamoyillar bozor iqtisodiyoti sharoitida ham amal qiladi:

1. Demokratik tamoyili.
2. Siyosiy rahbarlik tamoyili.
3. Xo'jalikni rejali yuritish tamoyili.
4. Ilmiylik tamoyili.
5. Kadrlarni to'g'ri tanlash tamoyili.

Boshqarishning tamoyillari bilan birga uning vazifalari ham mavjud. Boshqarishning **vazifasi** kishilarning sub'ektiv faoliyatini birinchi navbatda boshqarish sohasidagi faoliyatini ob'ektiv qonunlarning talablariga ana shu qonunlar belgilab beradigan progressiv tendentsiyalarning talablariga muvofiqlashtirishdan iborat.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini boshqarish respublika qonunlari belgilaydigan vakolatlar doirasida faoliyat ko'rsatuvchi davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi.

### **Bunday davlat organlariga quyidagilar kiradi.**

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi vazirlar kengashi;
- O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi Vazirligi (1998 yil martgacha) O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (OO'MTV) (1998 yil martdan);
- Qoraqalpog'iston Respublikasi ta'lim Vazirligi;
- Mahalliy davlat hokimiyati organlari (Toshkent shahar viloyatlar hokimiyatlari);
- Xalq ta'limi hududiy boshqarmalari (1998 yil martgacha);
- O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi hududiy boshqarmalari (1998 yil martdan).

### **O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ta'lim sohasidagi vakolatlarga quyidagilar kiradi:**

- Ta'lim sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish;

- Ta'lim sohasidagi davlat boshqaruvi organlariga rahbarlik qilish;
- Ta'limini rivojlantirish dasturlarni ishlab chiqarish va amalga oshirish;
- Ta'lim muassasalarini tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish tartibini belgilash;
- Ta'lim muassasalarini akkreditatsiyalardan, pedagog, ilmiy kadrlarni attestatsiyadan o'tkazish tartibini belgilash;
- Boshqa davlatning ta'lim muassasalariga O'zbekiston Respublikasining hududida ta'lim faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi ruxsatnomalar berish;
- qonun hujjatlariga muvofiq xorijiy davlatlarning ta'lim to'g'risida hujjatlarni tan olish va bu hujjatlarning ekvivalent ekanligini qayd etish tartibini belgilash;
- davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash;
- davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi ma'lumot to'g'risidagi hujjatlarni tasdiqlash va ularni berish tartibini belgilash;
- davlat grantlari miqdorini va ta'lim muassasalariga qabul qilish tartibini belgilash;
- davlat oliy ta'lim muassasalari rektorlarini tayinlash;
- ta'lim oluvchilarni akkreditatsiya qilingan bir ta'lim muassasasidan boshqasiga o'tkazish tartibini belgilash;
- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlar.

### **25.3 Boshqaruvda o'qituvchining roli: faol, tashabbuskor va ijodkor munosabati.**

Regional boshqaruv organlari, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi darajasiga qo'yiladigan talablarga o'quv yurtlari tomonidan rioya qilinishga javob beradilar va ularni nazorat qiladilar, litsey va kollejlarga ularning faoliyatlarini rivojlantirishda kerakli tashkiliy-huquqiy yordam ko'rsatadilar, hudud, ishlab chiqarish va o'quv yurtlarining rivojlanish manfaatlarini muvofiqlashtirishga imqon beradilar.

Shunday qilib, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini boshqarish tuzilmasi uch darajali hisoblanadi (respublika, hududiy va nuqtali-o'quv yurti).

8-Ilova

### **O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalariga rahbarlik qilish, rahbarlar ishining mazmuni.**

O'quv yurtlarida birinchi navbatda kadrlar tayyorlash sifatiga javobgar bo'lgan mustaqil bo'linma (tashkiliy shakli va kimga buysunishdan qat'iy nazar) sifatida, o'quv jarayonini boshqarish, xo'jalik-moliyaviy faoliyat va boshqa kasbiy tayorgarlikning zaruriy darajasini ta'minlaydigan faoliyatlarni amalga oshiradi.

**O'quv yurtlari darajasida quyidagi vazifalar hal etiladi;**

- o'quv jarayonini rejalashtirish va tashkil etish bo'yicha barcha ishlarni olib borish;
- o'quv rejalari tuzilmalarni va dastur mazmunini belgilash;
- korxonalar, bandlik xizmatchilar, xududiy boshqaruv organlari va boshqalar bilan sharnoma asosida ishchilar tayyorlash hajmlari va kasb-malaka tuzilmalarni belgilash;
- qo'shimcha tayyorlash, qayta tayyorlash, malaka oshirish va boshqa xizmatchilarni amalga oshirish uchun korxonalar, hamda tashkilotlar bilan shartnomalar tuzish;
- mustaqil ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirish;
- o'quv moddiy bazani kelgusida rivojlantirishini hisobga olib, moliyaviy mablag'larni taqsimlash va sarflash masalalarni mustaqil hal qilish.

Barcha sohalaridagi islohotlarni amalga oshirishda **boshqaruv apparatining** roli muhim ahamiyatga ega. Boshqaruv apparatining tuzilishi deganda, boshqaruv apparati va ular orasidagi bog'lanish tushiniladi. Boshqaruv apparatining tarkibi bir-biri bilan bog'langan teng huquqli birikmalar va bo'g'inlar bilan to'ldirilishi uning tizimi deyiladi.

Tashkiliy qism bu boshqaruv tizimining asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, boshqaruvchi tizim, sub'ekti tashkiliy tuzilishining shakli demakdir. U boshqaruv tizimining negizi sifatida maydonga chiqadi va kadrlar bilan boshqarishni tashkil qilish rasmiy qoidalarini tartibga soladi. Ana shuning uchun ham uning boshqaruv tizimidagi roli benihoya kattadir.

Ma'lumki, birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida «Ta'lim to'g'risida»gi qonun qabul qilingan edi. Ushbu qonunning 10-moddasida ta'lim turlari bayon etilgan bo'lib, unda maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta-maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash, maktabdan tashqari ta'lim kabilarni o'z ichiga olishi nazarda tutiladi.

Qonunning 28-moddasida «Ta'lim muassasasini uning rahbari boshqaradi. Ta'lim muassasalarida qonun hujjatlariga muvofiq faoliyat ko'rsatadigan jamoat boshqaruvi organlari tashkil etilishi mumkin» deb takidlangan. Shunday ekan, ushbu ta'lim muassasalarining bir turi bo'lgan kasb-hunar ta'limi ta'lim muassasalarini ham uning rahbari (direktor) boshqarishi belgilab qo'yilgan.

O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalarini o'quv yurti rahbari (direktor) bilan birga uning muovnlari boshqaradi. KXX larda direktorning o'quv ishlari bo'yicha, ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha va ishlab chiqarish ishlari bo'yicha muovnlari akademik litseydalarda esa direktorning o'quv ishlari bo'yicha, ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha muovnlari faoliyat yuritadi.

## 9-Ilova

### Mavzuning eng asosiy tushunchalari

**Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:**

- ta'lim sohasida yagona davlat siyosatini ro'yobga chiqarish ;

- ta'lim muassasalarini faoliyatini muvofiqlashtirish va uslubiy masalalarda ularga rahbarlik qilish;

- davlat ta'lim standartlari, mutaxassislarning bilim saviyasi va kasb tayorgarlikga bo'lgan talablar bajarilishini ta'minlash;

- o'qitishning ilg'or shakllari va yangi pedagogik texnologiyalari, ta'limning texnik va axborot vositalarini o'quv jarayonlariga joriy etish va boshqalar.

Vazirlar Mahkamasi 1998 yilning fevral oyida O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim Vazirligi O'rta maxsus, kasb-unar ta'lim markazini tashkil etish to'g'risida qaror qabul qildi. Ushbu Markazni tashkil etishdan maqsad, kadrlar tayyorlash Miliy dasturida belgilangan vazifalarni amalga oshirish hisoblanadi.

**O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi Markazning asosiy funktsiyalariga quyidagilar kiradi:**

- o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi faoliyatini muvofiqlashtirish va boshqarish;

#### **25.4 Ta'lim-tarbiya jarayonini boshqarish o'quv yurtida, o'quvchi-talabalar jamoasida sog'lom psixologik muhim yaratish yo'llari.**

- akademik litseylar, kasb-hunar kollejlarning turlarini va yo'nalishlarini belgilash, ularni respublika regionlarining geografik, demografik va ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlarni hisobga olgan holda oqilona joylashuvni ta'minlash va boshqalar.

**Mahalliy davlat hokimiyati organlari (hokimiyatlar) quyidagi funktsiyalarni bajaradilar:**

- ta'lim muassasalarni faoliyatining mintaqalarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish ehtiyojlariga muvofiqligini ta'minlaydilar;

- ta'lim muassasalarini tashkil etadilar, qayta tashkil etadilar va tugatadilar (respublika tasarrufida bo'lgan muassasalar bundan mustasno), ularning ustavlarini ro'yxatga oladilar;

- o'z hududlardagi ta'lim muassasalarni vakolat doirasida moliyalash miqdorini va imtiyozlarini belgilaydilar va boshqalar.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi hududiy boshqarmalari Qoraqolpog'iston Respublikasi Vazirlar kengashi, viloyat va Toshkent shahar hokimiyatlari tarkibida tashkil etiladi va bir vaqtning o'zida O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim Vazirligi (Markaz)ga bo'ysunadi.

### **26-MAVZU: O'MKHT KASBLARI VA MUTAXASSISLIKLARNI TURKUMLASH.**

26.1 O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi mutaxassislik va kasblar yo'nalishlari bo'yicha umumdavlat klassifikatori haqida tushuncha. O'MKHT mutaxassislik va kasblar yo'nalishi bo'yicha umumdavlat klassifikatori maqsad va ob'ektlari.

26.2 Mutaxassislik, kichik mutaxassis, kichik mutaxassis vazifalari, kasbiy faoliyat sohasi, O'MKHT ta'lim muassasalarida ta'lim yo'nalishlari tushunchalari. Tasniflagich tuzilmasi.

**26.1 O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi mutaxassislik va kasblar yo'nalishlari bo'yicha umumdavlat klassifikatori haqida tushuncha. O'MKHT mutaxassislik va kasblar yo'nalishi bo'yicha umumdavlat klassifikatori maqsad va ob'ektlari.**

**MKXT mutaxassislik va kasblar yo'nalishlari bo'yicha Umumdavlat Klassifikatori, uning maqsad va ob'ektlari**

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limidagi tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va mutaxassisliklari umumdavlat Tasniflagichi O'zbekiston Respublikasida texnikaviy-iqtisodiy va ijtimoiy axborotlarni tasniflash va kodlashtirish bo'yicha yagona tuzilma tarkibiga kiradi va Vazirlar Mahkamasining «Uzluksiz ta'lim tizimi uchun davlat ta'lim standartlarining ishlab chiqish va joriy etish to'g'risida» gi 1998-yil 5- yanvar 5-son qarori asosida tayyorlangan.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limidagi tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va mutaxassisliklari umumdavlat Tasniflagichi O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi, «Kadrlar tayyorlash bo'yicha milliy dastur» qonunlari hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim Vazirligining me'yoriy hujjatlariga asoslanib tuzilgan.

Mazkur tasniflagich O'zbekiston Respublikasining hududlarida foydalanish uchun ishlab chiqilgan.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari, tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va mutaxassisliklari tasniflagichning **tasniflash ob'ektlari** hisoblanadi.

Mazkur Tasniflagichda tayyorlash yo'nalishlari nomi, kodi va shu tayyorlash yo'nalishlari turkumiga kiruvchi kasblar va mutaxassisliklar ro'yxati keltirilgan.

Ushbu tasniflagichda ta'lim haqidagi me'yoriy hujjatlarni indeksatsiyalash maqsadida foydalaniladigan ta'limni xalqaro standart tasniflash (TXST) kodlari ham keltirilgan.

O'MKHT tayyorlov yo'nalishlari va ixtisosliklar kodi — kasbiy faoliyat sohaslariga muvofiq kasblar va mutaxassisliklar bo'yicha tayyorlov yo'nalishlari ixtisoslashtirilgan ro'yxatining raqamli belgisidir.

**10-Ilova**

**Mutaxassislik, kichik mutaxassis, kichik mutaxassis vazifalari, kasbiy faoliyat sohasi**

**Tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va ixtisosliklarning umumdavlat tasniflagichi (TYKIUT)** - o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv muassasalarida kichik mutaxassislarni tayyorlash bo'yicha tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va mutaxassisliklarning tizimlashtirilgan ro'yxati.

**Kichik mutaxassis** - bu ta'lim dasturini muvaffaqiyatli o'zlashtirgan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari bitiruvchilariga beriladigan malaka darajasidir.

**Kichik mutaxassis:**

- tegishli ijtimoiy ishlab chiqarish sohasida uning unumli faoliyat ko'rsata olishini ta'minlaydigan nazariy va amaliy bilimlar majmuasiga, kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarga ega;

- mazkur jamiyatda o'zining muvaffaqiyatli hayot darajasini ta'minlaydigan umumiy va kasbiy madaniyatga, ijtimoiy ahamiyatli xususiyatlarga va shaxsiy sifatlarga ega.

**Malaka** — xodimning kasbiy tayyorgarligi darajasi, undagi ma'lum ishni bajarish uchun zarur bo'lgan bilim, malaka va ko'nikmalarning mavjudligi.

Xodimning malakasini belgilovchi ko'rsatgich bo'lib, kategoriya yoki diplom, ilmiy daraja yoki unvonning mavjudligi hisoblanadi.

**Kasbiy faoliyat sohasi (KFS)** kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarning qo'llanish doirasidir; uning nomlanishi iqtisodiy sohalari nomlari bilan moslashtiriladi.

**Kasb-hunar ta'limi tarmoq standarti** – yo'nalishlar bo'yicha kichik mutaxassislarni tayyorlashning zarur va etarli mazmuni hamda pirovard maqsadlarini aniqlaydi, ta'lim oluvchilarning o'quv yuklamalari hajmi va standart sifatlari nazoratini belgilab beradi.

## 11-ilova

### **O'MKHT ta'lim muassasalarida ta'lim yo'nalishlari tushunchasi.**

O'MKHT ta'lim muassasalaridagi **tayyorlov yo'nalishlari** — aniq kasbiy faoliyat sohasida mutaxassislarga kasbiy ta'lim berish doirasidir. Mutaxassislarning kasbiy faoliyatining aniq sohasi bo'yicha **tayyorlov yo'nalishlarining** nomi mehnat faoliyatining mazmuni va xususiyati orqali aniqlanadi.

**Kasb** - maxsus tayyorgarlik va ish tajribasi natijasida ma'lum bir sohada kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun nazariy bilimlar majmuasini, amaliy ko'nikma va malakalarni egallagan, unga jismoniy imkoniyat, aqliy qobiliyat va yuridik huquqlarni ta'minlovchi insoniy mehnat faoliyatining (mashg'ulotining) turidir.

**Ixtisoslik** — birorta kasb doirasida ma'lum bir faoliyat turi uchun maxsus tayyorgarlik va ish tajribalari bilan erishilgan zaruriy bilimlar, ko'nikma va malakalar majmuasi.

**O'MKHT tayyorlov yo'nalishlari kasblar va ixtisosliklar kodi** - kasbiy faoliyat sohalariga muvofiq kasblar va mutaxassisliklar bo'yicha tayyorlov yo'nalishlari ixtisoslashtirilgan ro'yxatining raqamli belgisidir.

Ma'lumki, insonning har bir xatti-harakati ongli ravishda amalga oshadi. Ana shu ongi xatti-harakat etuk psixolog olim P.YA. Galperin va uning maslakdoshlari fikricha, asosan, quyidagi uch bosqichda amalga oshadi:

III. Birinchi bosqich. Mo'ljalga olish bosqichi bo'lib, unda shaxs o'z oldiga qo'ygan aniq maqsadini mo'ljalga oladi, ya'ni rejalashtiradi, loyihalashtiradi. Maqsadga erishish yo'llarini modellashtiradi.

IV. Ikkinchi bosqich. Asosiy amalga oshirish bosqichida o'z imkoniyati, shart-sharoit, mavjud bo'lgan ko'plab boshqa omillarni hisobga olgan holda amaliy xatti-harakatlar bajarilib, ma'lum natijaga erishiladi.

V. Uchinchi bosqich. Nazorat qilish va o'zlashtirishlar kiritish bosqichi hisoblanib, unda ko'zlangan maqsad bilan olingan natija qiyoslanadi va kerakli xulosaga kelinadi. Kerakli hollarda reja va amalga oshirish bosqichlarining

mazmuni, tuzilmasi va shakliga o'zgartirishlar kiritilib, ish-harakat usullari takomillashtiriladi.

## **26.2 Mutaxassislik, kichik mutaxassis, kichik mutaxassis vazifalari, kasbiy faoliyat sohasi, O'MKHT ta'lim muassasalarida ta'lim yo'nalishlari tushunchalari. Tasniflagich tuzilmasi.**

*Kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari tasniflagichi* o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi muassasalarida kichik mutaxassislar tayyorlash bo'yicha tayyorlov yo'nalishlari kasblarining iva mutaxassisliklarining tizimlashtirilgan ro'yxatidir.

**Davlat ta'lim standartlari** ( DTS)- umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim mazmuniga hamda sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilaydi. DTSlarini bajarish O'zbekiston Respublikasining barcha ta'lim muassasalari uchun majburiydir.

### **Tasniflagichda sakkizta bilim sohasi nazarda tutilgan:**

- 25. Ta'lim;
- 26. Gumanitar fanlar va san'at;
- 27. Ijtimoiy fanlar, biznes va huquq;
- 28. Fan;
- 29. Muhandislik, ishlov berish va qurilish tarmoqlari;
- 30. Qishloq xo'jaligi;
- 31. Sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot;
- 32. Xizmatlar.

Tasniflagichda ta'lim bosqichlari, bilim va ta'lim sohalari, tayyorlov yo'nalishlari va ixtisosliklar ettita raqamli kod bilan belgilanadi. Ta'limning xalqaro klassifikatsiyasiga binoan ta'lim bosqichi - o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi 3-raqami bilan belgilangan. Masalan: 3144610, 3210210, 3380110 va boshqalar.

### **O'rta maxsus, kasb — hunar ta'limi kodlarida:**

**Birinchi raqam** - ta'lim dasturi bosqichi kodi;

**Ikkinchi raqam** - bilim sohasi kodi;

**Uchinchi raqam** - ta'lim sohasi kodi;

**To'rtinchi va beshinchi raqamlar** - tayyorlov yo'nalishi kodi;

**Oltinchi va ettinchi raqamlar** - ixtisosliklar kodi.

Uzluksiz ta'lim tizimidagi o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi va oliy ta'lim (bakalavriat) da uzviylikni ta'minlash maqsadida O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limidagi tayyorlov yo'nalishlari, kodlari oliy ta'limning bakalavriat ta'lim yo'nalishlari kodlariga moslashtirilgan.

## **Asosiy adabiyotlar**

1. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq, 1998. 63 b.

2. Abdiquddusov.O., Rashidov. H. Kasb-xunar ta'limi pedagogikasi. O'quv qo'llanma. O'MKHTTKMO va UQT instituti, T. – 2009. 120 b.

3. Olimov Q.T., Abduqudusov O. va boshqalar. Kasb ta'limi uslubiyoti. - T.: "Moliya" nashriyoti, 2006. – 160 b.
4. Sharipov Sh. va b. Kasbiy pedagogika (metodik qo'llanma). -T.:TDPU, 2006 y.
5. Nishonaliev U.N., Tolipov O'.Q., Sharipov Sh.S. Kasbiy ta'lim pedagogikasi. O'quv qo'llanma. –T.: TDPU, 2007-388 b.

### **Qo'shimcha adabiyotlar**

1. Muslimov N.A., Qo'ysinov O.A. Kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta'limni tashkilotish. (Metodik qo'llanma). T.: TDPU, 2006. 52 b.
2. Muslimov N.A., Sharipov Sh.S. O'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim integratsiyasi. Kasb ta'lim metodikasi metodik qo'llanma. -T.: TDPU, 2006. 48 b.
3. Sharipov Sh., va b. Pedagogik amaliyot (metodik qo'llanma). -T.: TDPU, 2006. 34 b.
4. Sharipov Sh., Abduraimov Sh. Kasb ta'limi metodikasi fanidan laboratoriya mashg'ulotlari uchun metodik qo'llanma.-T.: TDPU, 2007. 147 b.
5. Eldasheva G.V. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi. – O'MKHTTKMO va UQT instituti, T. – 2006. 124 b.
6. Kurbanov Sh.E., Saidov X., Axliddinov R. Barkamol avlod orzusi. -T.: Shark, 1998.-154 s.
7. Tolipov O'.Q., Barakaev M., Sharipov Sh.S. Kasbiy pedagogika (ma'ruzalar matni). –T.: "Ofset-print" matbaasi, 2001. –100 b
8. Kurbanov Sh.E., Seytxalilov E.A. Upravlenie kachestvom obrazovaniya. T.: Shark, 2004 g. (russk. yaz.), 2006 y. (o'zbek tilida).
9. Rashidov H.F. va boshqalar. "Kasbiy pedagogika" blokini o'qitish metodikasi. O'quv-uslubiy qo'llanma (Malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslari uchun). –T.: O'MKHTTKMO va UQTI, 2007. – 200 b.

### **Elektron ta'lim resurslari**

1. <http://www.istedod.uz>
2. <http://www.pedagog.uz>
3. <http://www.ziyonet.uz>
4. <http://www.tdpu.uz>